

**TA'LIMDA ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Международный научно-методический
журнал

**PROSPECTIVE RESEARCH IN
EDUCATION**

International scientific methodological journal

№ 9-Son, 2-Qism 2025-yil

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:

Tilavov Muxtor Hasan o'g'li

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya).

Xamidov Obidjon Xafizovich - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri).

Saidov Azamat Ismoilovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Samarqand davlat chet tillar instituti magistratura bo'limi boshlig'i).

Qodirov Azizjon Anvarovich - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani).

Davlatov Suxrob Sayitjonovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti O'quv-uslubiy departament boshlig'i).

Adizov Bobir Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti Moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish departamenti boshlig'i).

Paxrutdinov Shukriddin Ilyosovich - siyosiy fanlar doktori, professor. Oriental universitetining "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasini professori.

Akramova Shaxnoza Abrorovna - pedagogika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasini boshlig'i, podpolkovnik).

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Oriental universitetining "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasini professori.

Ostanov Shuhrat Sharifovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasini dotsenti).

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi).

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasini mudiri).

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri).

G'ofurov Azizbek Umarjonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, (Farg'ona davlat universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i).

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti dekani).

Atayeva Mehriiso Farxodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Geliyofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari va elektronika kafedrasini dotsenti).

Xotamov Shuxrat Nosirovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy texnik instituti Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti).

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari doktori (DSc), (Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini professori).

Fayziyeva Umida Asadovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i).

Muxlisov Sodikjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasini dotsenti).

Axmadov Nazirjon Rahmat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini katta o'qituvchisi).

Uzoqov Asliddin Mehritdinovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari).

Ataxo'jayeva Shaxlo Anvarovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (University of Business and Science Oliy ta'lim muassasasi "Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar, ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi" boshlig'i).

Salixov Saidamir Alisher o'g'li - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi v.b. dotsenti)

Xusenov Murodjon Zoxirovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Raqamli ta'lim texnologiyalari departamenti boshlig'i).

Axmedov Aminjon Amrullayevich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti Ta'lim sifati nazorati bo'limi, Bilim va malakalarni baholash sektori yetakchi mutaxassisi).

Azimov Asqadjon Axtamovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Rektor ofisi yetakchi mutaxassisi).

Sadiyev Erali Samiyevich - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent Buxoro davlat tibbiyot instituti Biotibbiyot fakulteti dekan movuni.

Quliyev Yorqin Karimovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i).

Shukurov Rahim Salimovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini professori).

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Tilavov Mukhtor Hasan o'g'li

Doctor of Philosophy in Psychology (PhD),
associate docent

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Kuleshov Valeriy Vladimirovich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Andrienko Yelena Vasilyevna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information, and Technology Education, Novosibirsk, Russia).

Romm Tatyana Aleksandrovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities, and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Eko Sri Margianti – Rector of the Gunadarma University, Doctor of Economic Sciences, Professor (Indonesia).

Khamidov Obidjon Khafizovich – Rector of Bukhara State University, Doctor of Economic Sciences, Professor.

Zaripov Lachin Rustamovich – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Scientific-Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovations of the Republic of Uzbekistan).

Nazarov Akmal Mardonovich – Doctor of Psychology (DSc), Professor (Head of the Department of Psychology, Bukhara State University).

Saidov Azamat Ismoilovich – Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Head of the Master's Department at the Samarkand State Institute of Foreign Languages).

Qodirov Azizjon Anvarovich – Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor (Dean of the Faculty of Natural Sciences and Agro-Technology at Bukhara State University).

Davlatov Suhrob Sayitjonovich – PhD in Economics, Associate Professor (Head of the Academic and Methodological Department, Bukhara State University).

Adizov Bobir Baxtiyorovich – PhD in Economics, Associate Professor (Head of the Department of Financial Management and Economic Development Planning, Bukhara State University).

Rakhutdinov Shukriddin Ilyosovich – Doctor of Political Sciences, Professor (Professor of the “Economics and Tourism” Department at the Oriental University).

Akramova Shakhnoza Abrorovna – Candidate of Pedagogical Sciences, Professor (Head of the Department of Military-Patriotic, Spiritual-Educational Education, and Social Work with Youth at the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan).

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor. Professor at the “Economics and Tourism” Department at Oriental University.

Ostanov Shuhrat Sharifovich – PhD in Psychology (Associate Professor at the Psychology Department of Bukhara State University).

Rustamov Shavkat Shuhratovich - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor of the Department of Psychology at Bukhara State University.

Dilova Nargiza Gaybullayevna – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Secretary of the Council of Bukhara State University).

Olimov Shirinboy Sharofovich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Head of the Pedagogy Department at Bukhara State University).

Hamroyev Alijon Roziqulovich – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Head of the Department of Primary Education Methodology at Bukhara State University).

G'ofurov Azizbek Umarjonovich – Doctor of Psychology (DSc), Associate Professor (Head of the Master's Program at Fergana State University).

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna – PhD in Psychology (Associate Professor at the Psychology Department of Bukhara State University).

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li – Doctor of Philology, Professor (Dean of the Faculty of Foreign Languages at Bukhara State University).

Atayeva Mehriniso Farxodovna – PhD in Pedagogical Sciences (Associate Professor at the Department of Geophysics, Renewable Energy Sources, and Electronics at Bukhara State University).

Xotamov Shuxrat Nasirovich – PhD in Pedagogical Sciences (Associate Professor at the Department of Humanities and Social Sciences at the Military Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan).

Turdiyev Bekhruz Sobirovich - Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor of the Department of Jurisprudence and Socio-Political Sciences at Bukhara State University.

Fayziyeva Umida Asadovna – PhD in Pedagogical Sciences (Associate Professor, Head of the Department of Human Resources Management at Bukhara State University).

Muxlisov Sodikjon Saidjonovich – PhD in Pedagogical Sciences (Associate Professor at the Department of Information Systems and Digital Technologies at Bukhara State University).

Ahmadov Nazirjon Rahmat o'g'li – PhD in Psychology (Lecturer at the Psychology Department of Bukhara State University).

Uzokov Asliddin Mehritdinovich – PhD in Pedagogical Sciences (Associate Professor, Deputy Dean for Academic Affairs, Bukhara State Pedagogical Institute, Faculty of Military Education).

Atakhodzhaeva Shakhlo Anvarovna – PhD in Psychology (Associate Professor, Head of the Research, Innovations, and Pedagogical Staff Training Department at the University of Business and Science).

Salikhov Saidamir Alisherovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Acting Associate Professor at the Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.

Khusenov Murodjon Zokhirovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Head of the Department of Digital Educational Technologies, Bukhara State University.

Akhmedov Aminjon Amrullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Leading Specialist of the Knowledge and Skills Assessment Sector, Department for Quality Control of Education, Bukhara State University.

Azimov Asqadjon Akhtamovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Leading Specialist of the Rector's Office, Bukhara State University.

Sadiyev Erali Samiyevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Medical Sciences, Associate Professor, Deputy Dean of the Faculty of Biomedical Sciences, Bukhara State Medical Institute.

Quliyev Yorqin Karimovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department for Managing the “Compliance Control” System for Combating Corruption, Bukhara State University.

Shukurov Rahim Salimovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Professor of the Department of Theory and Methodology of Sports, Bukhara State University.

Responsible Secretary: Dehkonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – lecturer, psychology department, Bukhara state university.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Тилавов Мухтор Хасан угли

Доктор философии по психологии (PhD), доцент

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович – Доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андренко Елена Васильевна – Доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационного и технологического образования, Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна – Доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарного и социального образования, Новосибирск, Россия).

Эко Сри Маргианти – Ректор Университета Гунадарма, доктор экономических наук, профессор (Индонезия).

Хамидов Обиджон Хафизович – Ректор Бухарского государственного университета, доктор экономических наук, профессор.

Зарипов Лачин Рустамович – Доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр по развитию высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан).

Назаров Акмал Мардонович – Доктор психологических наук (DSc), профессор (Заведующий кафедрой психологии Бухарского государственного университета).

Саидов Азамат Исмоилович - доктор психологических наук (DSc), профессор (заведующий магистратурой Самаркандского государственного института иностранных языков).

Кодиров Азизжон Анварович – Доктор экономических наук (DSc), доцент (Декан факультета естественных наук и агротехнологий Бухарского государственного университета).

Давлатов Сухроб Саиджонович – Доктор философии по экономике (PhD), доцент (Заведующий учебно-методическим отделом Бухарского государственного университета).

Адилов Бобир Бахтиёрович – Доктор философии по экономике (PhD), доцент (Заведующий кафедрой финансового менеджмента и экономического развития Бухарского государственного университета).

Рахутдинов Шукридин Ильёевич – Доктор политических наук, профессор (Профессор кафедры "Экономика и туризм" Восточного университета).

Акракова Шахноза Аброровна – Кандидат педагогических наук, профессор (Заведующая кафедрой военно-патриотического, духовно-образовательного воспитания и социальной работы с молодежью в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан).

Маманазарова Наргиза Комильджановна – Доктор педагогических наук (DSc), доцент. Профессор кафедры "Экономика и туризм" Восточного университета.

Останов Шухрат Шарифович – Доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры психологии Бухарского государственного университета.

Рустамов Шавкат Шухрат угли - доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Дилова Наргиза Гайбуллаевна – Доктор педагогических наук (DSc), профессор (Секретарь совета Бухарского государственного университета).

Олимов Ширинбой Шарофович – Доктор педагогических наук, профессор (Заведующий кафедрой педагогики Бухарского государственного университета).

Хамроев Алижон Розиккулович – Доктор педагогических наук (DSc), профессор (Заведующий кафедрой методики начального образования Бухарского государственного университета).

Гофуров Азизбек Умаржонович – Доктор психологии (DSc), доцент (Заведующий магистратурой Ферганского государственного университета).

Исматова Дилафруз Туймуратовна – Доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры психологии Бухарского государственного университета.

Атабоев Нозимжон Бобожон угли – Доктор филологических наук, профессор (Декан факультета иностранных языков Бухарского государственного университета).

Атаева Мехринисо Фарходовна – Доктор педагогических наук (доцент кафедры геофизики, возобновляемых источников энергии и электроники Бухарского государственного университета).

Хотамов Шухрат Носирович – Доктор педагогических наук (PhD), доцент кафедры гуманитарных и социальных наук Военно-технического института Национальной гвардии Республики Узбекистан.

Турдиев Бехруз Собирович - доктор философских наук (DSc), профессор кафедры «Юриспруденция и общественно-политические науки» Бухарского государственного университета. **Файзиева Умида Асадовна** – Доктор педагогических наук (PhD), доцент (Заведующий кафедрой управления человеческими ресурсами Бухарского государственного университета).

Мухлисов Содикжон Саиджонович – Доктор педагогических наук (PhD), доцент кафедры информационных систем и цифровых технологий Бухарского государственного университета.

Ахмадов Назаржон Рахмат угли – Доктор философии по психологии (PhD), преподаватель кафедры психологии Бухарского государственного университета.

Узоков Аслидин Мехритдинович – Доктор философии по педагогике (PhD), доцент (Заместитель декана по учебной работе Бухарского педагогического института, факультет военного образования).

Атаходжаева Шахло Анваровна – Доктор философии по психологии (PhD), доцент (Заведующий отделом научных исследований, инноваций и подготовки научно-педагогических кадров Университета бизнеса и науки).

Ответственный секретарь:

Салихов Саидамир Алишерович – доктор философии (PhD) по экономическим наукам, и.о. доцента Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Хусенов Муроджон Захирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, начальник департамента цифровых образовательных технологий Бухарского государственного университета.

Ахмедов Аминжон Амруллаевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, ведущий специалист сектора оценки знаний и квалификаций отдела контроля качества образования Бухарского государственного университета.

Азимов Аскаджон Ахтамович – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, ведущий специалист офиса ректора Бухарского государственного университета.

Садиев Эрали Самиевич – доктор философии (PhD) по медицинским наукам, доцент, заместитель декана биомедицинского факультета Бухарского государственного медицинского института.

Кулиев Ёркин Каримович – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент, начальник отдела по управлению системой «Комплаенс-контроль» по противодействию коррупции Бухарского государственного университета.

Шукуров Рахим Салимович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор кафедры теории и методики спорта Бухарского государственного университета.

Ответственный секретарь: Дехконбоев Шохжон Ойбекович – преподаватель кафедры психологии Бухарского государственного университета.

13.00.00.-PEDAGOGIKA

Mo'minov Feruzjon Ilxomovich,

Buxoro davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
Sport faoliyati kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

12–13 YOSHLI FUTBOLCHILARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada 12–13 yoshli futbolchilarda jismoniy sifatlarni – kuch, tezlik, chidamlilik, epchillik va moslashuvchanlikni rivojlantirish metodikasining ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlari yoritilgan. Futbolchilar organizmining fiziologik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinib, ularni hisobga olgan holda samarali mashg'ulot metodlari ishlab chiqilgan. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda intervallik mashqlar, koordinatsion o'yinlar, tana og'irligi bilan bajariladigan mashqlar, stretching mashqlari va kichik maydondagi o'yinlar asosiy vosita sifatida qo'llangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, metodik yondashuvlar futbolchilarda texnik-taktik mahoratni rivojlantirish, sport natijalarini yaxshilash va jarohatlarning oldini olishda yuqori samaradorlik beradi.

Kalit so'zlar: futbol, 12–13 yoshli futbolchilar, jismoniy sifatlar, metodika, kuch, chidamlilik, tezlik, epchillik, moslashuvchanlik, mashg'ulot, monitoring.

Аннотация. В данной статье освещены научные основы и практические направления методики развития физических качеств – силы, быстроты, выносливости, ловкости и гибкости у футболистов 12–13 лет. Проанализированы физиологические и психологические особенности организма футболистов, на основе которых разработаны эффективные методы тренировок. В качестве основных средств развития физических качеств использовались интервальные упражнения, координационные игры, упражнения с собственным весом, стретчинг и игры на малом поле. Согласно результатам исследования, методические подходы обеспечивают высокую эффективность в развитии технико-тактического мастерства, улучшении спортивных результатов и профилактике травм у футболистов.

Ключевые слова: футбол, футболисты 12–13 лет, физические качества, методика, сила, выносливость, быстрота, ловкость, гибкость, тренировка, мониторинг.

Annotation. This article highlights the scientific foundations and practical directions of the methodology for developing physical qualities – strength, speed, endurance, agility, and flexibility in 12–13-year-old football players. The physiological and psychological characteristics of players' bodies are analyzed, and effective training methods are developed based on them. Interval exercises, coordination games, bodyweight training, stretching exercises, and small-sided games were used as the main tools for developing physical qualities. According to the research results, the methodological approaches demonstrate high effectiveness in improving technical-tactical skills, enhancing sports performance, and preventing injuries among young football players.

Key words: football, 12–13-year-old players, physical qualities, methodology, strength, endurance, speed, agility, flexibility, training, monitoring.

Kirish. Futbol bugungi kunda dunyoda eng ommabop sport turi sifatida tan olingan bo'lib, turli qit'alarda millionlab insonlar ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullanadilar. Futbol o'yini o'zining texnik, taktik va jismoniy murakkabligi, dinamik harakatlari, yuqori intensivlikda o'yin olib borilishi hamda tezkor qaror qabul qilish talab qilinishi bilan ajralib

turadi. Shu sababli futbolchi har tomonlama tayyorlangan, ya'ni texnik, taktik, psixologik va eng avvalo jismoniy sifatlari yuqori darajada rivojlangan bo'lishi lozim.

Yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni shakllantirish masalasi doimo ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblangan. Chunki aynan jismoniy sifatlari futbolchining texnik-taktik harakatlarni to'liq va samarali bajarishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Kuch, tezlik, chidamlilik, epchillik va moslashuvchanlik kabi sifatlari futbol o'yinida muvaffaqiyat kaliti sanaladi. Masalan, yuqori tezlik futbolchiga pressing vaziyatidan chiqib ketish, qarshi hujumda raqibni ortda qoldirish imkonini bersa, kuch sifati raqib bilan to'qnashuvlarda ustunlikni ta'minlaydi. Chidamlilik esa butun o'yin davomida yuqori samaradorlikda harakat qilishga yordam beradi.

Ayniqsa, 12–13 yosh davri bolaning jismoniy rivojlanishi uchun sezgir davrlardan biri hisoblanadi. Bu yoshda mushak faoliyati kuchayadi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari jismoniy yuklamalarga moslasha boshlaydi. Markaziy nerv tizimi tezkor javob berishga qodir bo'lib, koordinatsion qobiliyatlar tez sur'atlarda rivojlanadi. Shu bois, ushbu davrda to'g'ri metodik yondashuv orqali jismoniy sifatlarni shakllantirish futbolchilarning kelgusidagi sport faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Mavzuning dolzabligi. O'zbekistonda ham futbol eng ommaviy sport turlaridan biri bo'lib, davlat miqyosida yosh futbolchilarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "Futbolni rivojlantirish konsepsiyasi", "Yoshlar siyosati strategiyasi" va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bolalar va o'smirlarni sportga keng jalb qilish, futbol maktablarini rivojlantirish, metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa ilmiy izlanishlarning amaliyot bilan uyg'un bo'lishini taqozo etadi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni ilmiy asosda rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Masalan, T. Bomp (2019), A.M. Williams (2020), T. Reilly (2013) kabi mutaxassislarining tadqiqotlarida 11–14 yosh oralig'ida tezkorlik, kuch va koordinatsiyani shakllantirish uchun maxsus mashqlarni qo'llash tavsiya etiladi. Shu bilan birga, mahalliy olimlar – F.I. Mo'minov (2022), F.F. Nazarov (2021), S.F. Xalilov (2021) kabi tadqiqotchilar ham yosh futbolchilar uchun jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan.

Demak, 12–13 yoshli futbolchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish mavzusi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Futbolchilarni to'g'ri metodik yondashuv asosida tayyorlash, ularning texnik-taktik ko'nikmalarini mustahkamlash, sog'lomlashtirish jarayonini ta'minlash va kelgusida professional sportda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur sharoit yaratadi. Mazkur tadqiqotning dolzabligi shundan iboratki, u yosh futbolchilarni tayyorlash tizimida samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida, milliy futbolimizning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – yosh futbolchilarda kuch, chidamlilik, tezlik, epchillik va moslashuvchanlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdir.

Ushbu maqddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. 12–13 yoshli futbolchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganish.
2. Jismoniy sifatlarning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish.
3. Har bir sifadni rivojlantirishga oid samarali mashqlarni ishlab chiqish.
4. Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillarini yoritish.
5. Nazorat va monitoring tizimini ishlab chiqish.

Mazkur yosh davrida futbolchilarning organizmida jadal o'sish jarayonlari kuzatiladi. Mushak massasining ortishi, suyak tizimining mustahkamlanishi va yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlarining faoliyati yaxshilanadi. Bu davrda mushak tolalari hali to'liq

shakllanmaganligi sababli ortiqcha kuch yuklamalari sog'liq uchun zararli bo'lishi mumkin. Shuning uchun mashg'ulotlarda yuklama hajmini yoshga mos ravishda tanlash muhimdir.

Psixologik jihatdan esa bu davrda futbolchilar o'zini namoyon qilishga intiladi, raqobatbardoshlik hissi kuchayadi. Mashg'ulotlarda ularning motivatsiyasini yuqori darajada saqlash, o'yin elementlarini ko'proq qo'llash orqali qiziqishni oshirish zarur. Bu yoshda ko'plab futbolchilar texnik ko'nikmalarni tez o'zlashtira boshlaydi, shuning uchun jismoniy tayyorgarlik bilan texnik tayyorgarlikni uyg'un olib borish muhimdir.

Tezkorlik futbolchilarning harakat samaradorligini belgilovchi asosiy sifattir. Uning rivojlanishi futbolchining o'yindagi faoliyatini keskin o'zgartiradi. Tezlikni rivojlantirish uchun 10–30 metrga maksimal tezlikda yugurish, shuttle run (4×10 m), start-stop mashqlari va estafetali o'yinlar qo'llaniladi. Mashqlar qisqa muddatli, yuqori intensivlikda va to'liq dam olish oraliq'ida bajarilishi kerak. Tezlikni rivojlantirish mashqlari haftasiga kamida 2 marotaba o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Kuch sifati futbolchilarda to'pni tepish, zarba berish, raqib bilan kurashish va himoya harakatlarida katta ahamiyatga ega. 12–13 yoshli futbolchilar uchun kuch mashqlari ortiqcha yuklamalarsiz, asosan tana og'irligi bilan bajarilishi lozim. O'tirib-turish, press, turnik, to'ldirma to'p bilan mashqlar samarali hisoblanadi. Shuningdek, qisqa masofaga sakrash mashqlari (joydan turib uzunlikka, balandlikka) kuchni rivojlantirishda yordam beradi.

Chidamlilik futbol o'yini davomida futbolchi yuqori intensivlikda 90 daqiqa harakatlanishi zarur. Shu bois chidamlilik sifatini shakllantirish futbol tayyorgarligining ajralmas qismidir. Intervallik yugurish, 800–1200 metrga o'rtacha tezlikda yugurish, kichik maydonda futbol o'yinlari chidamlilikni samarali rivojlantiradi. Mashg'ulotlar davomida yurak urish chastotasini nazorat qilish orqali yuklama samaradorligi aniqlanadi.

Epchillik futbolchilarning raqibni aldab o'tishi, yo'nalishni tez o'zgartirishi, qarshi hujumlarga tez moslashishi uchun zarurdir. Zig-zag yugurish, to'p bilan dribling mashqlari, koordinatsion to'siqlar bilan mashqlar epchillikni rivojlantirishda keng qo'llaniladi. Koordinatsion mashqlarni o'yin shaklida tashkil etish futbolchilarda yuqori natija beradi.

Moslashuvchanlik mushaklar va bo'g'imlarning jarohatlardan saqlanishini ta'minlaydi. Stretching mashqlari, dinamik va statik cho'zilish mashqlari mashg'ulotlarning doimiy qismi bo'lishi kerak. Orqa, son, yelka mushaklarini cho'zish mashqlari futbolchilarning umumiy tayyorgarligini yaxshilaydi.

Mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- Yoshga mos yuklamalar berish.
- Mashg'ulotlarni individuallashtirish.
- O'yin uslubida mashqlarni tashkil etish.
- Jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish.
- Muntazam monitoring va nazorat o'tkazish.
- Futbolchilarda motivatsiyani oshirish.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligini baholash uchun turli testlar qo'llaniladi. Tezlikni baholash uchun 30 metrga yugurish testi, kuchni baholash uchun o'tirib-turish va press mashqlari, chidamlilikni baholash uchun 6–12 daqiqalik yugurish testi qo'llaniladi. Epchillikni aniqlash uchun 4×10 metr shuttle run, moslashuvchanlikni baholash uchun esa oldinga egilish testi o'tkaziladi. Natijalarni muntazam monitoring qilish orqali futbolchilarning rivojlanish dinamikasi kuzatib boriladi.

Xulosa qilib aytganda 12–13 yoshli futbolchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi yosh xususiyatlariga mos bo'lishi zarur. Tezkorlik, chidamlilik, kuch, epchillik va moslashuvchanlikni kompleks rivojlantirish futbolchilarning texnik-taktik mahoratini oshiradi. Mashg'ulotlarni o'yin orqali tashkil etish, individual yondashuvni qo'llash va muntazam monitoring olib borish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ilmiy asoslangan metodik yondashuv futbolchilarning kelgusidagi sport natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bompa, T. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2019.
2. Reilly, T., Williams, A.M. Science and Soccer. – Routledge, 2013.
3. Очилов, У. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018.
4. Мўминов, Ф.И. Футболчиларда жисмоний сифатларни ривожлантириш методикаси. – Бухоро: БДУ нашриёти, 2022.
5. Williams, A.M., Hodges, N. Skill Acquisition in Sport. – Routledge, 2020.
6. Назаров, Ф.Ф. Футбол машғулотларини методик асослари. – Тошкент, 2021.
7. Verkhoshansky, Y. Special Strength Training: Manual for Coaches. – Sportivny Press, 2011.
8. Радионов, В.А. Детский спорт и физическое воспитание. – Москва, 2017.
9. Little, T., Williams, A.G. Specificity of acceleration, maximum speed, and agility in professional soccer players. – J Strength Cond Res, 2005.
10. Bangsbo, J., Mohr, M., Krstrup, P. Physical and metabolic demands of training and match-play in the elite football player. – J Sports Sci, 2006.
11. Старишко, А.В. Теория и методика детско-юношеского футбола. – Москва: Физкультура, 2016.
12. Каримов, А. Спорт машғулотлари назарияси. – Тошкент, 2020.
13. Radaković, D. Conditioning young soccer players. – Belgrade, 2018.
14. Kelly, A.L., Williams, C.A. Physical characteristics and match performance in soccer. – Eur J Sport Sci, 2019.
15. Mujika, I., Padilla, S. Detraining: loss of training-induced physiological and performance adaptations. – Part I. Sports Med, 2000.

Turapova Ra'no Barat qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA
O'QUVCHILARNING DIALOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA OILA VA
MAKTAB HAMKORLIGINING O'RNI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida variativ yondashuv asosida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda oila va maktab hamkorligining o'rni keng yoritilgan. Dialogik nutqni shakllantirishda oilaviy muhit va maktab ta'limining o'zaro uzviyligi, ota-onalarning ta'lim jarayoniga jalb qilinishi hamda o'qituvchi faoliyatining metodik yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim sharoitida variativ yondashuvning afzalliklari, xususan, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, erkin muloqot qilish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, oila va maktab hamkorligi natijasida o'quvchilarning kommunikativ faolligi, nutqiy kompetensiyasi hamda ijodiy yondashuvi samarali rivojlanishi ta'kidlangan.*

***Kalit so'zlar:** variativ yondashuv, dialogik nutq, oila va maktab hamkorligi, pedagogik asos, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi nutqi, metodika, kommunikativ kompetensiya, ijodiy fikrlash.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и педагогические основы развития диалогической речи учащихся начальных классов через вариативный подход с акцентом на сотрудничество семьи и школы. Проанализированы психолингвистические и педагогические факторы, а также значимость участия родителей в образовательном процессе для формирования речевой компетентности школьников. Особое внимание уделено преимуществам вариативного подхода, его роли в формировании у учащихся навыков самостоятельного мышления, свободного общения и творческого взаимодействия. Подчеркивается, что гармоничное сотрудничество школы и семьи способствует повышению коммуникативной активности, развитию творческого потенциала и устойчивой мотивации к учебному диалогу.*

***Ключевые слова:** вариативный подход, диалогическая речь, семья и школа, педагогические основы, начальное образование, речевая компетенция, методика, творческое мышление, коммуникативная активность.*

***Annotation.** This article explores the theoretical and pedagogical foundations of developing primary school pupils' dialogic speech through a variative approach, with a particular focus on the role of family and school partnership. It highlights the significance of aligning family support with school practices, the involvement of parents in the educational process, and the methodological strategies employed by teachers to foster communicative competence. The advantages of applying a variative approach in modern education are emphasized, especially its role in nurturing independent thinking, open dialogue, and creative skills among pupils. Furthermore, the article underlines that effective collaboration between school and family enhances pupils' communicative activity, creative potential, and sustainable motivation for dialogic interaction.*

***Key words:** variative approach, dialogic speech, family-school partnership, pedagogical foundations, primary education, speech competence, methodology, creative thinking, communicative activity.*

***Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora yangilanib, o'quvchilarda nafaqat bilim, balki samarali muloqot qilish, ijtimoiy faol bo'lish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni dialogik muloqotga tayyorlash va ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila va maktab hamkorligining o'rni beqiyosdir.*

Dialogik nutq – bu o'quvchining jamiyatda erkin muloqot qilishi, o'z fikrini ochiq ifodalashi va boshqalarning fikrini tinglab, unga munosabat bildira olishi jarayonidir. Uni rivojlantirish uchun yagona maktab ta'limi yetarli bo'lmay, balki oilaviy muhitda qo'llab-quvvatlash, ota-onalar va pedagoglar o'rtasida doimiy hamkorlik zarurdir. Zero, bola ilk nutqiy ko'nikmalarini oilada egallaydi, maktab esa uni takomillashtirib, tizimli shaklda rivojlantiradi.

Variativ yondashuv mazmunan o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda turli metod va strategiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv oilada shakllangan muloqot tajribasi bilan maktabdagi ta'limiy faoliyatni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalash, savol-javoblarda faol ishtirok etish, ijodiy fikrlash va ijtimoiylashuv ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallab boradilar.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida oila va maktab hamkorligi turli shakllarda tashkil etilmoqda: ota-onalarni dars jarayonlariga jalb qilish, kitobxonlik kechalari, rolli o'yinlar, loyihaviy faoliyatlar, o'quvchilar ijodiy chiqishlari va turli klublar orqali hamkorlik kuchaytirilmoqda. Bularning barchasi o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda qulay shart-sharoit yaratadi.

Shu bois ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda variativ yondashuv asosida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda oila va maktab hamkorligining nazariy va pedagogik asoslari tahlil qilinadi hamda bu jarayonning samarali yo'llari yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'lim jarayonida dialogik nutqni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda bir qator nazariy va amaliy jihatlar o'z aksini topgan. Tilshunoslik va psixolingvistika sohasidagi tadqiqotlarda (L.S. Vygotskiy, A.A. Leontyev, J. Bruner) bolaning nutqiy rivojlanishi ko'proq ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, dialogik muloqot esa shaxsning tafakkurini kengaytiruvchi va bilimni mustahkamlovchi omil ekanligi ta'kidlanadi. Shu bois boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida o'quvchining oila va maktab muhitida oladigan tajribasi o'zaro bog'lanishda o'rganilishi zarur.

Pedagogik adabiyotlarda (Sh.A. Amonov, N.M. Musayev, X. Hasanboyeva) o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchi faoliyatining metodik yo'nalishlari muhim o'rin egallashi qayd etiladi. Xususan, variativ yondashuv asosida qo'llaniladigan metodlar - interfaol mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, suhbat va muhokamalar, drammatizatsiya usullari - o'quvchilarni erkin fikr bildirishga, muloqotda faol bo'lishga o'rgatadi.

Oila va maktab hamkorligi masalasi ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, Bronfenbrennerning "Ekologik tizimlar nazariyasi"da bola shaxsining rivojlanishi oila, maktab, tengdoshlar guruhi kabi muhitlarning o'zaro aloqadorligi orqali amalga oshishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishning turli shakllari - ota-onalar klublari, seminar-treninglar, oilaviy loyihalar, kitobxonlik kechalari - o'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraladi.

Psixologik manbalarda esa (D.B. Elkonin, J. Piaget, E. Erikson) bola nutqining rivojlanishi uning yosh xususiyatlari va kognitiv jarayonlari bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Demak, boshlang'ich ta'lim davrida oila va maktabning hamkorlikda olib boradigan faoliyati bolaning tabiiy ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Bu jarayonda ota-onalar farzandining nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchi esa ta'limiy metodlar orqali uni kengaytirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda o'zbek pedagogikasida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari va metodik qo'llanmalarda oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, variativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini boyitish, o'quvchilarda erkin fikrlash va muloqotchanlikni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oila va maktabning hamkorligi, psixologiyaviy yondashuv va variativ metodlar uyg'unligi o'quvchilarning dialogik nutqini samarali rivojlantirish uchun ilmiy-nazariy asos yaratadi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, oila va maktab hamkorligining mavjud darajasi o'quvchilarning nutqiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida bir necha maktab sinflari misolida ota-onalar faol ishtirok etgan sinflarda bolalarning muloqotchanligi, savol berish va javob qaytarish qobiliyati, suhbat jarayonida fikrlarini dalillar bilan asoslash darajasi sezilarli ravishda yuqori ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan mashg'ulotlarda - kitobxonlik kechalari, oilaviy mushoiralar, rolli o'yinlar, suhbat-muhokamalar orqali o'quvchilarda erkin muloqot qilish, turli mavzularda o'z fikrini ochiq bayon etish, nutqiy muomala qoidalariga amal qilish ko'nikmalari kuchaygani kuzatildi. Bu esa shuni anglatadiki, dialogik nutqni rivojlantirish jarayonida oilaviy qo'llab-quvvatlash maktab ta'limi bilan uyg'unlashganda samaradorlik yanada oshadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, variativ yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar nutqiy faolligi turli darajada namoyon bo'ladi. Masalan, individual yondashuv asosida mustahkamlangan mashg'ulotlarda tortinchoq bolalarning ham o'z fikrini bildirishga intilishi ortadi. Guruhli ishlarda esa o'quvchilar bir-birini tinglash, suhbat davomida savol berish va javob qaytarishga odatlanib boradilar.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, variativ metodlardan (dramatizatsiya, rolli o'yinlar, suhbat, interfaol mashg'ulotlar) foydalanish oila va maktab hamkorligi bilan birgalikda amalga oshirilganda o'quvchilarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi:

1. **Nutqiy faollik oshadi** - o'quvchilar savol-javoblarda faolroq ishtirok etadi, suhbatda o'z fikrini ochiq aytishga intiladi.

2. **Kommunikativ kompetensiya rivojlanadi** - o'quvchilar muloqot qoidalariga amal qiladi, suhbatdoshini tinglash, fikrini hurmat qilishni o'rganadi.

3. **Ijodiy tafakkur kengayadi** - ertaklarni qayta hikoya qilish, sahnalashtirish, yangi voqealar tuzishda o'quvchilarning ijodiy yondashuvi kuchayadi.

4. **Ota-onalar ishtiroki kuchayadi** - bolalarda o'z nutqiy faoliyatiga bo'lgan qiziqish oilaviy qo'llab-quvvatlash orqali yanada mustahkamlanadi.

5. **Muloqotchanlik darajasi oshadi** - o'quvchilar ijtimoiy hayotda erkin muloqot qilish, tengdoshlari va kattalar bilan fikr almashish malakalarini shakllantiradi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, dialogik nutqni rivojlantirishda variativ yondashuv samaradorligini ta'minlash uchun faqat o'qituvchi faoliyati yetarli emas. Buning uchun oila va maktabning birgalikda olib boradigan faoliyati, ota-onalarning o'z farzandlari bilan muntazam muloqotda bo'lishi, ularni suhbat va muhokamalarga jalb etishi zarur.

Muhokama. Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar asosida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limda dialogik nutqni rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u faqat o'qituvchi faoliyati bilan chegaralanib qolmaydi. Bu jarayon o'quvchi shaxsining shakllanishida oila va maktabning uzviy hamkorligini talab qiladi. Chunki bola maktabda nazariy bilimlarni o'zlashtirsa, oilada bu bilimlar kundalik hayotiy muloqot orqali mustahkamlanadi.

Dialogik nutqni rivojlantirishda variativ yondashuvning ahamiyati shundaki, u o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qiziqishlari va psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda turli xil metodlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Masalan, dars jarayonida rolli o'yinlar, dramatizatsiya, suhbat-muhokama va interfaol mashg'ulotlar qo'llanilganda, oilada esa kitobxonlik kechalari, ertak aytish an'analari va ota-onalar bilan qo'shma loyihalar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini yanada boyitadi.

Muhokama jarayonida ta'kidlab o'tish kerakki, oila va maktab hamkorligi uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo'lishi lozim. Aks holda, ota-onalar faol ishtirok etmagan ta'limiy

muhitda bolalarning nutqiy rivojlanishi sustlashadi. Shu sababli maktab pedagoglari va otalar o'rtasida doimiy muloqot va fikr almashuvni yo'lga qo'yish, ota-onalarni turli trening va seminarlar orqali farzandlari nutqiy rivojiga ongli tarzda jalb etish samarali natijalar beradi.

Bundan tashqari, dialogik nutqni rivojlantirish faqat o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish bilan chegaralanmay, balki ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ham ta'minlaydi. Erkin muloqot qila oladigan bola sinfda faol bo'ladi, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa oladi, shuningdek, kelajakda mustaqil fikrli shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan "inson kapitali"ni rivojlantirish g'oyasiga hamohangdir.

Yana bir muhim jihat shuki, oilaviy muhit va maktabdagi ta'limiy faoliyatning uyg'unligi bolada ikki tomonlama motivatsiya hosil qiladi: maktabda olgan bilimlarini oilada qo'llash, oilada olgan tajribasini esa maktabda namoyon qilish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada o'quvchilar o'z fikrini ochiq bayon etishga, suhbatdoshini tinglashga va erkin muloqotda o'zining shaxsiy pozitsiyasini bildirishga o'rganadi.

Shunday qilib, muhokama natijalaridan kelib chiqadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirish samaradorligi o'qituvchi, o'quvchi va ota-onaning birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda variativ yondashuv vositalaridan keng foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim jarayonida variativ yondashuv asosida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish – bugungi zamonaviy ta'limning eng dolzarb masalalaridan biridir. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bola nutqiy rivojida maktabdagi ta'limiy faoliyat va oiladagi tarbiyaviy muhit bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlardir. O'qituvchi tomonidan dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar, turli mashg'ulotlar va kreativ yondashuvlar o'quvchining dialogik nutqini shakllantirishda muhim omil bo'lsa, oiladagi muloqot, ota-onaning qo'llab-quvvatlashi va bolaga beriladigan individual e'tibor bu jarayonni mustahkamlab boradi.

Variativ yondashuvning afzalligi shundaki, u o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olib, turli metodik vositalarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'yin, drammatizatsiya, suhbat va rolli mashg'ulotlar orqali maktabda hosil qilingan bilimlar oilada qo'llab-quvvatlansa, bola nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan muhim natijalardan biri shuki, oila va maktab hamkorligi tizimli tashkil etilganda, bolalarda erkin fikrlash, o'z fikrini ochiq bayon etish, suhbatdoshini tinglash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv kabi muhim sifatlar shakllanadi. Bu esa nafaqat nutqiy kompetensiya, balki shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish jarayonida oila va maktabning uzluksiz hamkorligi ta'limning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ularni kelajakda faol fuqarolik hayotiga tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bois, pedagogik amaliyotda ota-onalar bilan hamkorlikka asoslangan turli loyihalar, treninglar, seminarlar, kitobxonlik kechalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni keng yo'lga qo'yish zarur.

Umuman olganda, variativ yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish o'qituvchi, o'quvchi va ota-onaning faol hamkorligi orqali amalga oshirilgandagina yuqori natijaga erishiladi. Bu jarayonning samaradorligi esa zamonaviy ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – mustaqil fikrlovchi, ijodkor, erkin muloqot qila oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Turapova R. Mechanisms for Improving Children's Dialogical Speech //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 49-53.

2. Ra'no T., O'ralova F. History of the Origin of Dialogical Speech //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 9. – C. 92-97.
3. Ra'no T., Maftuna B. Variative Approach Based on of Children Dialogic Speech Development Methodology Improvement //European Journal of Higher Education and Academic Advancement. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 99-104.
4. Toshpulatov F. U., Turoпова R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
5. Turapova R. et al. WAYS TO TEACH PRESCHOOL CHILDREN TO ACT TALE //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – T. 1. – №. 11. – C. 42-46.
6. Turapova R., Abdusalomova G., Khalilova S. MAKING DIFFERENT TOYS FROM NATURAL AND WASTE MATERIALS IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION //International Conference on Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 14-18.
7. Toshpo'Latov F. U., Turoпова R. N. B. Q. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
8. Turapova R. Mechanisms for Improving Children's Dialogical Speech //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 49-53.
9. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 272-275.
10. Турапова Р. Developing dialogic speech of pre-school children on the basis of a variative approach //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 4.
11. Turapova R. B. VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA O 'QUVCHILARNING DIALOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MASALALARI //Inter education & global study. – 2025. – №. 3. – C. 279-288.
12. Mushtariy S. et al. Ways of using games in forming the activity of preschool children //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 119-135.

a

Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida dotsenti

TALABA GANDBOLCHILARNING TEXNIK HARAKATLARI HAMDA TAKTIK KO'NIKMALARNI O'RGANISH USULLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talaba gandbolchilarning texnik harakatlari va taktik ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish usullari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda gandbol sportining murakkab va dinamik xususiyatlari hisobga olingan holda texnik harakatlarni bosqichma-bosqich o'rgatish, o'yin jarayonida tezkor qaror qabul qilish, to'g'ri joylashish, hamkorlikda harakat qilish va hujum-himoya o'yin sxemalarini qo'llash metodlari tahlil qilingan. Talabalar uchun maxsus mashg'ulot vositalari, o'yinli topshiriqlar va pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi natijasida texnik harakatlarning aniqligi, tezkorligi va samaradorligi ortishi bilan birga, taktik fikrlash qobiliyati ham rivojlanishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada murabbiylar tomonidan mashg'ulotlarni rejalashtirishda individual va jamoaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish, innovatsion metodlarni qo'llash va o'quvchilarning musobaqa sharoitiga tayyorgarligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: musobaqa, burchak o'yinchisi, handbol, texnik-taktik harakatlar, o'quv-mashg'ulot, jismoniy tayyorgarlik

Annotation. This article presents the scientific foundations of methods for developing and enhancing the technical actions and tactical skills of student handball players. Considering the complex and dynamic nature of handball, the study analyzes step-by-step teaching of technical movements, quick decision-making during the game, correct positioning, teamwork, and the application of offensive and defensive play schemes. It is demonstrated that the use of special training tools, game-based tasks, and pedagogical technologies for students leads not only to improved accuracy, speed, and efficiency of technical actions but also to the development of tactical thinking abilities. Furthermore, the article provides scientific and practical recommendations for coaches on integrating individual and team-based approaches in training planning, applying innovative methods, and enhancing students' preparedness for competition conditions.

Key words: competition, wing player, handball, technical-tactical actions, training, physical preparation

Аннотация. В данной статье научно обоснованы методы формирования и развития технических действий и тактических навыков студентов-гандболистов. С учётом сложного и динамичного характера гандбола проанализированы поэтапное обучение техническим приёмам, принятие быстрых решений в игровой ситуации, правильное расположение, взаимодействие в команде, а также применение атакующих и оборонительных игровых схем. Показано, что использование специальных средств тренировок, игровых заданий и педагогических технологий способствует повышению точности, скорости и эффективности технических действий, а также развитию тактического мышления. Кроме того, в статье представлены научно-практические рекомендации для тренеров по сочетанию индивидуального и командного подходов при планировании занятий, применению инновационных методов и повышению готовности студентов к соревновательным условиям.

Ключевые слова: соревнование, крайний игрок, гандбол, технико-тактические действия, учебно-тренировочный процесс, физическая подготовка

Kirish. Yuqori malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyatiga tayyorlash tizimi, musobaqalarda o'yinchilarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va maxsus testlar asosida

jismoniy texnik- taktik tayyorgarligini baholash, hamda takomillashtirish vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish.

Musobaqa davrida malakali gandbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini ilmiy nazariy jihatdan baholash va ularni tahlil qilish, tahlil natijalariga ko'ra tegishli tavsiyalar berish, mashg'ulot jarayotida esa ushbu tavsiyalarga jiddiy yondoshish, mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etish va o'tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Birok, bizning bosh maqsadimiz sportga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik jihatlari bo'lganlari bois mazkur masalaga asosiy e'tiborimizni qaratdik. O'rganishlar, dalillar, izlanishlar gandbolchilarni anplua bo'yicha tayyorlashining ijtimoiy pedagogik, jihatlarini ham o'rganish o'znavbatida ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Gandbolchilarning musobaqa faoliyatiga texnik-taktik tayyorgarligini o'rganish va tahlil qilish masalalari ko'pgina mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Bularga V.I.Izaak, M.A.Godik, Klusov N.P, Koryagin V.M, Ignataeva V.Ya, Txorev V.N, Ovchinnikova A.Ya, Rivkin A.A, Pashev V.B, Akramov J.A, Pavlov Sh.K, Abduraxmonov F.A, Nabiev T.E, o'zining ilmiy ishlarida gandbolchilarning samarali o'yin ko'rsatishlari uchun musobaqaga tayyorgarlik ko'rishdagi har bir bosqichida (tayyorlov, umum, maxsus) jismoniy texnik-taktik harakatlarini to'g'ri yo'naltirish kerakligini e'tirof etadi.

Adabiyotlar tahlili, jismoniy tarbiya va sport sohasining asosiy tarmoqlardan hisoblangan sportning gandbol bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy taqqiqotlaridan va mazkur sohaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasb mahoratini rivojlantirishning me'zonlari ham o'rganilganini ko'rish mumkin. Gandbol sport turi bo'yicha mahsus tadqiqotlar olib borgan olimlardan Ignateva U.Ya., Seytxalilov Ye.A., F.A Izaak. T.E Nabiev va boshqalarning ishlarini o'qishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Bizning tadqiqot ishimizda oliy liga jamoalarining chiziq bo'ylab o'ynaydigan gandbolchilarning musobaqaga tayyorgarlik davri va musobaqadavridagi jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligi o'rganildi.

Shaxsiy va jamoaning texnik-taktik harakatlarini o'rganish uchun O'zbekiston chempmonati o'yinlari 23 ta o'yin, va Parij-2024 Olimpiada o'yinlarida ishtirok etgan yetakchi jamolar, hamda 2024-yilda bo'lib o'tgan jahon chempionati o'yinlari tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuvlar natijasida har bir o'yinchining muobaqalardagi texnik-taktik harakatlariga munosib baho berildi.

Gandbolchilarning musobaqalarda namoish etgan texnik-taktikharakatlari.

Tayyorgarlik davrida mashqlarning me'yoriy darajasini ko'rsatuvchijadval.

Jadval -1

| № | Mezonlar | 1-davr | 2-davr | 3-davr | 4-davr | 5-davr | Umumiyhisob |
|---|---------------------|----------|-----------|---------|---------|----------|-------------|
| 1 | Mashq kunlari | 5 | 5 | 6 | 6 | 5 | 27 |
| 2 | Mashg'ulotlar | 8 | 10 | 12 | 12 | 8 | 50 |
| 3 | Mashg'ulotlar soati | 15,5/930 | 17,5/1050 | 24/1050 | 21/1260 | 12,5/930 | 93,5/5610 |
| 4 | Koeffisienti | 62,30% | 64,60% | 63,90% | 61,70% | 66,30% | 64,20% |

Jadval -2

| № | Mezonlar | 1-davr | 2-davr | 3-davr | 4-davr | 5-davr | Umumiyhisob |
|---|---------------------|--------------|---------------|---------------|--------------|--------------|--------------|
| 1 | Mashq kunlari | 5 | 5 | 6 | 6 | 5 | 27 |
| 2 | Mashg'ulotlar | 8 | 10 | 10 | 10 | 8 | 46 |
| 3 | Mashg'ulotlar soati | 15,5/930 | 17,5/1050 | 24/1050 | 19/1260 | 15,5/930 | 93,5/5610 |
| 4 | Koeffistenti | 63,2% | 64,10% | 64,10% | 67,3% | 63,1% | 65,1% |

Jadval -3

| № | Mezonlar | 1-davr | 2-davr | 3-davr | 4-davr | Umumiyhisob |
|---|---------------------|---------------|---------------|--------------|---------------|--------------|
| 1 | Mashq kunlari | 16 | 5 | 6 | 6 | 16 |
| 2 | Mashg'ulotlar | 9 | 10 | 12 | 8 | 36 |
| 3 | Mashg'ulotlar soati | 18/1018 | 15,5/930 | 17,5/1050 | 15,5/930 | 66,5/3990 |
| 4 | Koeffistenti | 61,80% | 63,25% | 65,8% | 63,15% | 64,6% |

Yuqorida ko'rsatilgan jadvallar asosida tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilsa, ko'zlangan maqsadga osonroq erishish mumkin deb hisoblayman.

Tahlil asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin. Kimdir ba'zan bir tomonlama tayyorgarlik ko'radi, texnik va taktik tayyorgarlikka ahamiyat katta bo'lgan mashaqlar esa chetda qoladi .

Masalan: o'yinchilarning texnik maxoratini oshirish mashqlariga 30,4% (individual maxoratini oshirish mashqlariga 10,2%), guruh mashqlari kombinastion o'yinlar tashkil etuvchi mashqlariga faqatgina 10,5% vaqt ajratilgan.

O'zbekiston milliy chempionati oliy liga ishtirokchisi Yoshlikjamoasi o'yinlarining tahlili asosida sport o'yinlari jamoalarini jismoniy texnik-taktik tayyoyorgarligini oshirish quyidagi jadval asosida olib borilsa ko'zlangan natijalarga erishsa bo'ladi.

Jadval -4

“Yoshlik” jamoasiini jismoniy texnik-taktik tayyorgarliginibaholash.

| № | Mashqlar guruhi | 1-davr | 2-davr | 3-davr | Umumiy hisob |
|---|------------------------------|-------------|-------------|-------------|--------------|
| 1 | Eng yuqori darajali mashqlar | 153 11,6 | 190 13,9 | 90 9,5 | 433 11,9 |
| 2 | Murakkab mashqlar | 195 14,8 | 230 13,8 | 130 13,8 | 555 15,3 |
| 3 | O'rta darajali mashqlar | 280 21,3 | 340 24,9 | 150 15,9 | 779 21,2 |

| | | | | | |
|----------|-----------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|----------------------------|
| 4 | Engil mashqlar | 687 52,2 | 605 44,3 | 570 60,6 | 1862 51,4 |
|----------|-----------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|----------------------------|

Izoh: Suratda vaqt, daqiqa hisobida, maxrajda % hisobida berilgan.

Quyidagi jadval asosida o'yinchilarning musobaqalarga individual jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini oshirish ko'zda tutilgan.

Jadval-5

“Yoshlik” jamoasii o'yinchilarning musobaqalarga individual jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini baholash.

| № | Mashqlar guruhi | 1-davr | 2-davr | 3-davr | Umumiy hisob |
|----------|------------------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|
| 1 | Eng yuqori darajali mashqlar | 55 11,1 | 45 12,1 | 45 14,5 | 143 12,2 |
| 2 | Murakkab mashqlar | 95 19,9 | 85 22,6 | 65 20,9 | 245 20,7 |
| 3 | O'rta darajali mashqlar | 120 24,2 | 90 24 | 80 25,8 | 290 20,7 |
| 4 | Engil mashqlar | 225 45,4 | 155 41,3 | 120 38,7 | 500 42,3 |

Izoh: Suratda vaqt, daqiqa hisobida, maxrajda % hisobida berilgan.

Ma'lumki, sport o'yinlari musobaqalariga jamoani jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini oshirishning asosiy yo'li individual tayyorgarlik bilan, guruh tayyorgarligi uyg'unlashuvi ijobiy natijalarini qo'lga kiritgan bo'ladi.

Shaxsiy va guruh tayyorgarligini oshirish uchun bajariladigan mashqlarni quyidagi jadval asosida amalga oshirsa bo'ladi.

Jadval-6

“Yoshlik” jamoasii o'yinchilarning shaxsiy va guruh tayyorgarligini baholash.

| № | Mashqlar guruhi | 1-davr | 2-davr | 3-davr | Umumiy hisob |
|----------|------------------------------|---------------------------|---------------------------|--------------------------|----------------------------|
| 1 | Eng yuqori darajali mashqlar | 80 14 | 70 16,1 | 40 18,6 | 190 15,5 |
| 2 | Murakkab mashqlar | 135 23,6 | 85 19,5 | 45 20,9 | 265 21,7 |
| 3 | O'rta darajali mashqlar | 150 26,3 | 130 29,8 | 60 27,9 | 340 27,08 |
| 4 | Engil mashqlar | 205 35,9 | 150 34,4 | 70 32,5 | 425 34,8 |

Izoh: Suratda vaqt, daqiqa hisobida, maxrajda % hisobida berilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek gandbolda hujum ikki yo'nalishda tashkil etiladi; tez yorib o'tish hujumi va poziston hujum. Raqib hujumni qaytarganda, yoki darvozabon to'pni ushlab tez o'zining hujumchilariga etkazsa, tezkor qarshi hujum tashkil etiladi. Agar jamoa pauzadan

keyin hujum qilsa, raqib himoyaga qaytib ulgurgan bo'lsa, unda pozistion hujum tashkil etiladi. Raqib himoyasini yorib o'tish hujumini tashkil etish mashqlari tayyorgarligi 8-jadvalda ko'rsatilgan.

Jadval-7

“Yoshlik” jamoasining tez yorib o'tish hujumini baholash.

| № | Mashqlar guruhi | 1-davr | 2-davr | 3-davr | Umumiy hisob |
|----------|------------------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|
| 1 | Eng yuqori darajali mashqlar | 65 11,4 | 55 11,2 | 40 12,9 | 130 11,6 |
| 2 | Murakkab mashqlar | 100 17,5 | 90 18,3 | 65 20,9 | 255 18,6 |
| 3 | O'rta darajali mashqlar | 150 26,3 | 140 28,5 | 80 25,6 | 370 27 |
| 4 | Engil mashqlar | 255 44,7 | 205 41,8 | 125 40,3 | 585 42,7 |

Izoh: Suratda vaqt, daqiqa hisobida, maxrajda % hisobida berilgan.

Bir qator mutaxasislarning fikricha tez yorib o'tish hujumini butun jamoa tashkil qilsa, jamoaning barcha o'yinchilari qatnashsa, maqsadga muvofiq deb biladilar.

Ma'lumki musobaqalarga tayyorgarlik ikki yo'nalishda olib boriladi: umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik.

Umumiy tayyorgarlikda voleybol, basketbol, futbol va boshqa harakatli o'yinlardan foydalaniladi.

Maxsus tayyorgarlikda quyidagilardan foydalaniladi:

1. O'yinchilar malakasini mahoratini, rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar.
2. Maxsus mashqlar.
3. Sport maydonining chap yoki o'ng tomonida o'tkaziladigan birtomonli mashqlar.
4. O'rtoqlik uchrashuvlari kiradi.

Tayyorgarlik davrida o'tkazilgan o'quv ta'lim, turnir o'yinlari, o'rtoqlik uchrashuvlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish vazifalari:

- a) mashg'ulot jarayonida o'rgatilgan malakalarni mustahkamlash;
- b) o'yinchilar harakatchanligini oshirish;
- v) qattiq qarshilikka uchraganda taktik harakatlarni bajarish;
- g) o'yinchilarning shaxsiy mahoratini oshirish;
- d) mashq va tayyorgarlik jarayonida o'rgatilgan taktik harakatlarni o'yinda namoyish etish.

Xulosa qilib aytganda gandbol bo'yicha ilmiy ishlar, ilmiy maqolalar adabiyotlarni tahlil qilganda shuni guvohi bo'ldikki, gandbolchilarning jismoniy texnik-taktik tayyorgarligiga e'tibor kam bo'lgan. Shu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar atiga 14% ni tashkil qiladi.

Gandbol hujumchilarining musobaqalardagi ko'rsatkichlarini quyidagicha baholash mumkin:

- Hujumchi harakatlarining maxsuldorligi;
- O'yinda texnik-taktik usullarni qo'llash;
- O'yinchi zarbalarini aniqligi, nishonga, mo'ljalga aniq etib borishi;
- Faolligi, o'yinda to'psiz harakat qilish, bo'sh joyni topish, zarba berish nuqtasida o'z vaqtida bo'lish.

Oliy liga jamoalarini musobaqalarga tayyorgarligini kuzatganda shuni guvohi bo'ldikki, umumiy tayyorgarlik mashqlari 22,6% ni, maxsus mashqlar 38,5% ni maxsus o'yinlarga tayyorgarlik mashqlari 22,5% ni, musobaqaga o'xshagan mashqlar 17% ni tashkil etadi. Aerobik yo'nalishdagi mashqlar 35,7% ni, aerobik mashqlari 2,8% ni tashkil etadi.

Musobaqalarga tayyorgarlik davrida jamoa o'yinchilarini avvalombor maxsus dastur asosida tayyorgarlik ko'rishini tashkil qilish va shu dastur bilan tanishtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Axel Kromer, Positionstraining für Rückraum, Kreis-und Außenspieler, Deutschland 2015.
2. Werner Grage, «Handball training», Deutschland 2015.
3. Akramov J.A. Gandbol: Darslik 2008 y.
4. Akramov J.A. Postroenie trenirovochnogo protsessa gandbolistov vysshix razryadov v mnogoturovom sorevnovatelnom periode. //Fan-sportga, №3, 2006.
5. Ignateva V.Ya, Txorev V.I, Petracheva I.V Podgotovka gandbolistov na etape vysshego sportivnogo masterstva. M.: "Fizicheskaya kultura" 2005g.
6. Ignateva V.Ya. "Gandbol" // Azbuka sporta.M.: Fizkultura i sport, 2001god.
7. Ignateva V.Ya. Gandbol. // Uchebnoe posobie dlya IFK. M.:FiS.
8. Ignateva V.Ya. Mnogoletnyaya podgotovka ganbolistov v detskogo- yunosheskix sportivnyx shkolax: metod. Posobie / - M.: Sov. sport, 2004 g.
9. Abdueva S. S. Q. The Development of Jumping Ability in Young Handball Players 12-13 Years Old //Athena: Physical Education and Sports Journal. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 1-5.
10. Abdueva S. Ways to Conduct National Movement Games with Kindergarten Children //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
11. Abdueva S. S., Ibragimov A. K. Sport o 'yinlari va uni o 'qitish metodikasi //Buxoro davlat universiteti. – 2021.
12. Abdueva S. S. Sport pedagogikasi fanlari va mutaxassislikka kirish //Toshkent irrigatsiya universiteti. – 2021.
13. Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.
14. Abdueva S. S. Q. Peculiarities of Training 13-14-Year-Old Handball Players //Athena: Physical Education and Sports Journal. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 46-51.

Kenjaboyev Adusalim,

Termiz davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,

INKLYUZIV TA'LIM TIZIMLI INNOVATSIYA SIFATIDA

Annotasiya. Maqolada ta'lim tizimini islohotlarining hozirgi sharoitida inklyuziv amaliyotni joriy etish misolida tizimli innovatsiyalarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan barcha toifadagi talabalar uchun sifatli ta'limdan teng foydalanishni ta'minlashga qaratilgan tizimli innovatsiya sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim jarayonini alohida ta'limga muhtoj bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtirishni, balki ta'lim muassasalarining tashkiliy va uslubiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni ham o'z ichiga oladi. Ta'kidlanishicha, ta'limni rivojlantirish strategiyalariga inklyuziyani kiritish ijtimoiy adolatning yangi modelini shakllantirishga yordam beradi, bunda tenglik, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Inklyuziv ta'limni innovatsion texnologiyalar, insonparvarlik qadriyatlari va ijtimoiy tenglikni o'zida mujassam etgan barqaror ta'lim ekotizimini qurish asosi sifatida ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, tizimli innovatsiyalar, ta'lim siyosati, ta'limni individuallashtirish, pedagogik amaliyot, ijtimoiy integratsiya, innovatsion texnologiyalar, insonparvarlik qadriyatlari.

Аннотация. В статье анализируются особенности системных инноваций в современных условиях реформирования системы образования на примере внедрения инклюзивных практик. Они рассматриваются автором как системная инновация, направленная на обеспечение равного доступа к качественному образованию для всех категорий обучающихся. Данный подход предполагает не только адаптацию образовательного процесса к индивидуальным потребностям детей с особыми образовательными потребностями, но и пересмотр организационно-методических основ образовательных учреждений. Подчеркивается, что включение инклюзии в стратегии развития образования способствует формированию новой модели социальной справедливости, в которой приоритетными являются принципы равенства, толерантности и гуманизма. Инклюзивное образование можно рассматривать как основу для построения устойчивой образовательной экосистемы, сочетающей инновационные технологии, гуманистические ценности и социальное равенство.

Ключевые слова: инклюзивное образование, системные инновации, образовательная политика, индивидуализация образования, педагогическая практика, социальная интеграция, инновационные технологии, гуманистические ценности.

Abstract. The article analyzes the characteristics of systemic innovations in the current context of education system reforms using the example of implementing inclusive practices. It is considered by the author as a systemic innovation aimed at ensuring equal access to quality education for all categories of students. This approach involves not only adapting the educational process to the individual needs of children with special educational needs, but also revising the organizational and methodological foundations of educational institutions. It is emphasized that the inclusion of inclusion in education development strategies helps to form a new model of social justice, in which the principles of equality, tolerance and humanity are prioritized. Inclusive education can be seen as the basis for building a sustainable educational ecosystem that combines innovative technologies, humanistic values and social equality.

Key words: inclusive education, systemic innovations, educational policy, individualization of education, pedagogical practice, social integration, innovative technologies, humanistic values.

Kirish. Ma'lumki, "innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" "yangilash, o'zgartirish" degan ma'noni anglatadi va lotin tilidan "yo'nalishda" deb tarjima qilingan "in" prefiksidan olingan[1]. "Innovatio" so'zma-so'z tarjimada "o'zgarish yo'nalishida" degan ma'noni

anglatadi[2]. Innovation ingliz tilida “yangilik, yangilik” ma’nosida ishlatiladi. Umuman olganda, innovatsiya - bu har qanday ish, jarayon, texnologiya, mahsulot, xizmat, tizim yoki modelga samaradorlikni oshiradigan, sifatni yaxshilaydigan, muammoni hal qiladigan, biror narsani mukammallashtiradigan, ko‘proq narsaga erishadigan, yaxshiroq narsani yaratadigan va hokazolarni takomillashtirishdir. Muayyan texnologik yoki boshqaruv jarayonini amalga oshirish jarayonida uni tubdan takomillashtirish innovatsiyalarning umume’tirof etilgan mezonini hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat va innovatsion jarayon (atrof-muhitdagi bog‘liq o‘zgarishlar jarayoni) - bu ijtimoiy-madaniy tizimlar va sub’ektlarning rivojlanishi jarayonida o‘zgarib turadigan inson ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanishning murakkab jarayoni. Bu jarayon va faoliyatlarning pirovard maqsadi innovatsiyalarni me’yorga, an’anaga aylantirishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. A.A. Kiselevaning ta’kidlashicha, inklyuziv ta’lim muhitini barcha toifadagi o‘quvchilar uchun ochiqlik yo‘lida qayta qurishni ta’minlaydigan innovatsion jarayon sifatida ko‘rib chiqilishi kerak[3]. Tadqiqotchi ushbu modelni amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida pedagogik diagnostika va individual ta’lim yo‘llarining rolini ta’kidlaydi.

Sh.X.Xasanov inklyuziv ta’limni milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning hal qiluvchi yo‘nalishi sifatida ko‘rib, fanlararo kompetensiyalarga ega o‘qituvchilarni tayyorlash zarurligini ta’kidlaydi[4, 78-bet]. Uning ta’kidlashicha, inklyuziyani muvaffaqiyatli amalga oshirish faqat huquqiy, ijtimoiy va uslubiy yordamni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv bilan mumkin.

E.V.Yarskaya tadqiqotida qayd etilishicha, inklyuziya nafaqat o‘qitish usullarini, balki ta’lim falsafasini ham qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Muallif inklyuziyaning gumanistik jihatini ta’kidlab, uni bag‘rikenglik, ijtimoiy hamjihatlik va madaniy xilma-xillikni rag‘batlantirish omili sifatida ko‘radi [5, 59-bet].

M.But va T.Skays o‘z tadqiqotlarida pedagogik innovatsiyalarni davlat ta’lim strategiyalari bilan integratsiyalash zarurligini ta’kidlaydilar, bu esa inklyuziyaning epizodik hodisa bo‘lib qolmasdan, tizimli innovatsiyaga aylanishiga imkon beradi [6, 41-bet].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilar inklyuziv ta’limni uslubiy, tashkiliy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali jarayon sifatida ko‘rishadi. Uning innovatsion xususiyati o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish, insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada inklyuziv ta’lim tizimli innovatsiya sifatida nafaqat uslubiy va tashkiliy o‘zgarishlarni, balki yangi ta’lim falsafasini ishlab chiqishning nazariy va uslubiy asoslari ochib berilgan. Muallif inklyuziya vaqtinchalik pedagogik eksperiment emas, balki milliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik vektori bo‘lib, fanlararo yondashuvni va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qilishi zamonaviy ta’lim standartlari nuqtai nazaridan asoslaydi.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun biz statistik tadqiqot, adabiyotlar qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullari, tahlilni qiyoslash, tizimli hamda mantiqiy yondashuv kabi usublardan samarali foydalanildik.

Tahlil va natijalar. Pedagogik jarayonga nisbatan “innovatsiya” deganda ta’lim va tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, usullari, shakllari va vositalariga yangi narsalarni kiritish, barqaror va samaraliroq ta’lim natijalariga erishish uchun o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi[7]. Nazariya innovatsiya oddiy va chiziqli hodisa emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qayta aloqa davrlarini o‘z ichiga olgan murakkab ko‘p bosqichli jarayon ekanligini tasdiqlaydi [7, 121-bet].

Innovatsion jarayon qoida tariqasida, yangilikni yaratish va sinovdan o'tkazishdan boshlanadi, so'ngra natijalarni tahlil qilish va kerak bo'lganda tuzatishlar kiritiladi va shundan keyingina u pedagogik jarayonga kiritiladi va tarqatiladi.

Amalda samaradorlikni oshirish, sifatni yaxshilash va ta'lim jarayonlarini optimallashtirishga olib keladigan innovatsiyalarni joriy etishning turli imkoniyatlaridan foydalaniladi. Innovatsiyalar evolyutsiyasini o'rganish bizga innovatsion yechimlar mavjudligi haqida xulosa qilish imkonini beradi, ular mahalliy miqyosda amalga oshirilganda, butun tizimda ancha sezilarli ijobiy ta'sirga olib keladi. Tizimli innovatsiyalar jarayonlar, tashkilotlar, tarmoqlar, hududlar, mikro va makrotizimlarni rivojlantirishda eng samarali yechim hisoblanadi [8].

Inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirishni haqli ravishda samarali tizimli innovatsiyalarning yorqin namunasi deb hisoblash mumkin. Inklyuziv ta'limni asosiy ta'lim maydoniga joriy etish bo'yicha me'yoriy talab ko'plab savollar va muammolarni keltirib chiqardi, ularning javoblari va yechimlari tizimli rivojlanishni, yangi yondashuvlardan foydalanishni, yangi tushuncha va paradigmalarning paydo bo'lishini talab qiladi.

Ta'limda inklyuziyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim, boshqa innovatsiyalar singari, dastlab maqsadli va chiziqli tarzda yaratilgan va amalga oshirilgan. 1960-yillarning oxirida Kanadaning Ontario shtati Gamilton shahrida maktabda inklyuzivlikni joriy etish bo'yicha birinchi urinishlardan biri ota-onalar va o'qituvchilar tashabbusi bilan bo'lib o'tdi[9].

Keyinchalik, o'qituvchilar, ota-onalar va davlat amaldorlarining birlashishi natijasida Nyu-Brunsvikda, Yukonning shimoliy hududlari, Shimoli-g'arbiy hududlar va Nunavutda inklyuziv amaliyotlar paydo bo'la boshladi. Shunday qilib, alohida sinflar yoki maktablar inklyuziv amaliyotning muvaffaqiyatli namunalariga aylandi, bu esa Kanada ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarga yo'l ochib berdi.

Ilmiy leksikaga "inklyuzivlik" atamasi kiritildi, inklyuziv ta'lim tamoyili e'lon qilindi[9; 24-bet]. Maxsus ehtiyojlar uchun ta'lim tamoyillari, siyosati va amaliyoti to'g'risidagi Salamanka deklaratsiyasi asosiy xalqaro hujjatlardan biridir. Shunday qilib, inklyuziv ta'limni rivojlantirish makro darajada tizimli innovatsiyaga aylandi[10].

Inklyuziv ta'lim uzoq muddatli strategiya bo'lib, uni amalga oshirishda tizimlilik, izchillik, uzluksizlik va kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu bois, bu yangilikni haqli ravishda fundamental deb atash mumkin, qachonki "innovatsiyalar o'zgarishlar zamirida", "innovatsiyalar asosida" zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ilg'or tajribalardan foydalanish; ular g'oyalar asosida innovatsion strategiyalar ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan metodologiyaning asosini tashkil qiladi.

Ta'limga inklyuziya - bu jarayon bo'lib, uni amalga oshirish, birinchi navbatda, ta'lim falsafasini o'zgartirishni va natijada tashkiliy, mazmunli va texnik o'zgarishlarni nazarda tutadi[11]. Inklyuzivlik etikasi jamiyat va uning institutlarini shunday o'zgartirish zarurligini e'lon qiladiki, ular har qanday boshqa shaxs: boshqa irq, din, madaniyat, nogironlar va boshqalarni qo'shishni yoqlaydi. Bundan tashqari, butun ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlarning bunday o'zgarishi jamiyatning barcha a'zolarining manfaatlarini ta'minlash, ularning mustaqil yashash qobiliyatini oshirish, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning o'sishiga yordam beradi deb taxmin qilinadi.

Inklyuzivlik barcha darajadagi ta'limni rivojlantirishning innovatsion usuli hisoblanadi. Ushbu yangilik, shuningdek, faoliyat doirasi o'qituvchilar va boshqa xodimlar, talabalar, ota-onalar bilan ishlash, atrof-muhit bilan aloqa qilish, innovatsion faoliyatni monitoring qilish, tahlil qilish, tartibga solish va axborot bilan ta'minlashga qaratilgan boshqaruv tuzilmalariga ham tegishli.

Bizning fikrimizcha, inklyuziv ta'limni tizimli innovatsiya sifatida amalga oshirish fundamental muhim o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, barcha ta'lim quyi tizimlari ishini qat'iy yaxshilaydi.

Ko'p o'lchovli innovatsiya sifatida inklyuziv ta'lim innovatsiyalarni rivojlantirish, amalga oshirish va amalga oshirish uchun atrof-muhit, infratuzilma va kuch maydonini shakllantirish, qadriyatlar va qulay muhit yaratish bilan bog'liq echimlarni o'z ichiga oladi[7]. Shubhasiz, u nafaqat ta'lim tizimining moddiy komponenti, balki nozik mafkuraviy tarkibiy qismlar: innovatsiyaning hissiy, qadriyat va semantik asoslari bilan ham bog'liq.

Ta'limga inklyuziya metodologiyasi ta'lim tashkilotlaridagi vaziyatni yaxshilashning eng muhim yo'nalishlarini aks ettiruvchi o'zaro bog'liq uchta jihatning birligini asoslaydi:

- inklyuziv madaniyat (butun maktab jamoasi tomonidan qabul qilinadigan qadriyatlar, e'tiqodlar, qarashlar, tamoyillar va xulq-atvor normalari)ni yaratish;
- inklyuziv siyosat (maktabning inklyuziv kursni tanlashini ko'rsatuvchi me'yoriy hujjatlar mavjudligi)ni ishlab chiqish;
- inklyuziv amaliyot (o'quv jarayonini tashkil etishning tegishli shakllari, texnologiyalari, usullari va texnikasi, psixologik, pedagogik va tibbiy-ijtimoiy yordam bo'yicha mutaxassislarining faoliyati, maxsus didaktik vositalar va jihozlardan foydalanish)ni amalga oshirish;

Psixologik-pedagogik ta'lim sohasidagi oliy ta'lim standartlariga muvofiq, o'qitish, ta'lim, ijtimoiylashtirish, o'quvchilarning individual va shaxsiy rivojlanishi, talabalarning sog'lig'i, turli xil turdagi ta'lim tashkilotlarida talabalar, pedagogik xodimlar va ota-onalarni (qonuniy vakillari) psixologik, pedagogik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning ko'p qirraliligi jamoat tashkilotlari, ota-onalar hamjamiyatlari, kasbiy birlashmalarning imkoniyati cheklangan shaxslarni o'qitish masalasiga faol yondashishida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, faylasuflar innovatsiyaning ko'p o'lchovlilikining yana bir jihatiga ishora qiladilar.

Bizning an'anaviy uch o'lchovli makonimizda vaqt to'rtinchi o'lchovni ifodalaydi. Vaqt harakat, o'sish va rivojlanish sifatida uch o'lchovli fazoda prognoz qilinadi. G'oyaning paydo bo'lishidan to'quv jarayoniga innovatsiyani joriy etishgacha bo'lgan vaqt oralig'i muqarrar.

Innovatsiyani yaratish, uni sinovdan o'tkazish va amalda joriy etish jarayoni, shubhasiz, vaqt talab etadi. Shu sababli, innovatsiyani joriy etishning mumkin bo'lgan xatarlarini oldini olish uchun shoshilinch, imperativ, rasmiy va umumiy kiritishdan qochish kerak. Tizimli innovatsiya sifatida inklyuziya uzoq muddatli istiqbolni ifodalaydi. Inklyuziv ta'limni joriy etishning ta'siri, shubhasiz, ta'limdan tashqariga chiqadi va idoralararo darajada - sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy rivojlanish tizimlarining faoliyatida namoyon bo'ladi.

Inklyuzivlikning innovatsion xususiyati uning fanlararo tabiatida ham namoyon bo'ladi. Inklyuziv modelni amalga oshirish o'qituvchilar, psixologlar, maxsus ta'lim o'qituvchilari, ijtimoiy xodimlar, ma'murlar, shuningdek, ota-onalar va o'quvchilarning o'zlari o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Aynan shu hamkorlik tizimli o'zgarishlarni ta'minlaydi, bunda inklyuziya vaqtinchalik pedagogik tajriba emas, balki jamiyat ta'lim strategiyasining barqaror qismiga aylanadi.

Inklyuzivlik innovatsion tizim sifatida muhim ijtimoiy-pedagogik salohiyatga ega. Bu, eng avvalo, bolalar va o'smirlar o'rtasida tafovutlarga nisbatan bag'rikeng munosabatni rivojlantiradi, hurmat va o'zaro qo'llab-quvvatlash qadriyatlarini mustahkamlaydi. Inklyuziv maktab sharoitida o'quvchilar bir-birining individual farqlarini qabul qilishni va tushunishni o'rganadilar, bu esa ijtimoiy etuklikni va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta'lim nuqtai nazaridan inklyuziya individuallashtirilgan ta'lim tamoyilini amalga oshirish uchun yangi ufqlarni ochadi. Har bir bola o'zining shaxsiy imkoniyatlari va o'rganish tezligiga qarab o'z ta'lim rivojlanishida oldinga siljish imkoniyatiga ega. Bu nafaqat o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi, balki o'quvchilarning bilim va ijodiy salohiyatini to'liq rivojlantirish imkonini beradi.

Inklyuzivlikning ijtimoiy jihati uning ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qo'shgan hissasidadir. Inklyuziv ta'lim barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini chetlab o'tish xavfini kamaytiradi va ularning ijtimoiy

hayotda kengroq ishtirok etishiga yordam beradi. Bu uzoq muddatli istiqbolda inson kapitalini rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, jamiyatda hamjihatlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, inklyuziya yangi pedagogik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi, bunda asosiy e'tibor bilimlarni rasmiy o'zlashtirishga emas, balki shaxsning rivojlanishiga, ularning qadriyat yo'nalishlari va ijtimoiy kompetensiyalariga qaratiladi. Ushbu yondashuv faol va mas'uliyatli fuqarolarni tayyorlashga qaratilgan zamonaviy ta'limning strategik maqsadlariga mos keladi.

Inklyuziv ta'limni ommaviy amaliyotga tatbiq etish turli bilim sohalari: falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, tibbiyot, iqtisod, muhandislik va boshqalar bo'yicha tadqiqot va ishlanmalarni talab qiladi. Shu sababli, ushbu yangilikni haqli ravishda tizimdan tashqari, deb hisoblash mumkin.

Binobarin, tizimli innovatsiya sifatida inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini oshirishga va barcha bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan:

- xilma-xillikni qabul qiladi va qadrlaydi va individual yondashuvdan foydalangan holda barcha talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi (har bir kishi, shu jumladan nogiron bola uchun);

- barchani o'qitish va tarbiyalash bilan bir qatorda shaxsiy rivojlanish jarayonini ta'minlaydi (nogironligi bo'lgan shaxslar maxsus psixologik, pedagogik, tibbiy va ijtimoiy yordamga muhtoj);

- har bir kishi uchun psixologik qulaylik yaratadi: qo'llab-quvvatlash, bosim emas, o'zaro yordam, hamma uchun raqobat emas (nogiron bolalar tengdoshlaridan ham ko'proq yordamga muhtoj);

- psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi: barcha bolalarni ularning qadr-qimmatini va o'zini o'zi qadrlashiga tahdidlardan, psixologik zo'rvonlik va umidsizlikdan himoya qiladi (nogiron bola juda zaifdir);

- barcha bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash usullaridan maksimal darajada foydalanadi (nogiron bolalarning sog'lig'i cheklangan va kuchaytirilishi kerak).

Xulosa. Inklyuziv amaliyotni joriy etish o'qituvchilarni o'zlarining pedagogik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishga va yangi o'qitish usullarini o'rganishga undaydi. Inklyuziv maktabda yangi qadriyatlar tizimi ishlab chiqiladi, yangi ta'lim texnologiyalari joriy etiladi va yangi jihozlar sotib olinadi. Inklyuziv maktabda nogiron bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish ularning oilalariga katta yordam va yordam beradi. Inklyuziv ta'limning rivojlanishi fuqarolik erkinliklari, teng huquqlar, inson qadr-qimmatini va individualligi qadriyatini e'lon qiladigan zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-madaniy darajasiga mos keladi.

Nazariy manbalar tahlili va taqqoslash shuni tasdiqlaydiki, inklyuziv ta'limni tizimli yangilik – fundamental, tarkibiy, radikal va ko'p qirrali – joriy etish ta'lim tizimining barcha elementlariga sezilarli o'zgarishlar olib keladi, mintaqaviy va tarmoq miqyosida ta'lim maydonini qat'iy optimallashtiradi va faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Кахарова Д.С. Умумтаълим мактабларида инклюзив таълимнинг педагогик-психологик жиҳатларини такомиллаштириш. 13.00.01 – Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Самарқанд – 2019

2. Каждаспаров Г.М., Каждаспаров А.Г. Педагогический словарь. – М.: «Просвещение», 1998.

3. Киселёва А.А. Инновационные подходы к развитию инклюзивного образования в России // Вопросы образования. – М; 2021. – №3. – С. 80–92.

4. Xasanov Sh.X. Pedagogik innovatsiyalar tizimida inklyuziv ta'lim // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2022. - № 4. - B. 110-120.
5. Ярская Е.В. Гуманистические основания инклюзивного образования: педагогический и социальный аспекты // Педагогика. – М; – 2020. – №7. – С. 55–63.
6. Booth T., Skye T. Inclusive Education as a Systemic Innovation. – London: Routledge, 2019. – 215 p.
7. Хуторской А. В. Педагогическая инноватика: методология, теория, практика. – М.: УНЦ ДО, 2005. – 222 с.
8. Рябова Н. В., Карпунина О. И. Подготовка педагогов для инклюзивного образования // Высшее образование в России. – 2016. – № 10. – С. 119–123.
9. Туре Йонссон. Инклюзив таълим. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. ЮНЕСКО Халқаро ташкилоти. Operation Mercy Халқаро ташкилоти, Республика таълим маркази. – Т., 2003
10. Чепель Т. Л., Абакирова Т. П., Самуйленко С. В. Эффективность образовательного процесса в условиях инклюзивной практики: итоги мониторинговых исследований // Психологическая наука и образование. – 2022. – Т. 19, № 1. – С. 33–41.
11. Шомахмудова Р., Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Ўқув-методик қўлланма. Низомий номли ТДФУ кутубхонаси. Осиё ва Тинч океани минтақаси ЮНЕСКО маданий маркази ва ЮНЕСКО Осиё ва Тинч океани минтақасининг ҳамкорликдаги «Барқарор ривожланиш таълими» инновацион дастури доирасида нашр этилган, Toshkent – 2017.

Sattorov Anvar Ergashovich,
Buxoro davlat universiteti Sport faoliyati kafedra mudiri professori, p.f.f.d. (PhD)

FUTBOL TO'GARAKLARI ORQALI TALABALAR INTEGRAL TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida futbol to'garaklari orqali talabalar integral tayyorgarligini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Integral tayyorgarlik tushunchasi keng qamrovli pedagogik jarayon sifatida yoritilib, u talabaning jismoniy rivojlanishi, texnik-taktik ko'nikmalari, psixologik tayyorgarligi hamda nazariy bilimlarini bir butun tizimda shakllantirishni anglatishi ko'rsatib beriladi. Futbol mashg'ulotlarini samarali tashkil etish nafaqat talabalar sport mahoratini rivojlantirishi, balki ularning intellektual salohiyatini, irodaviy sifatlarini va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Maqolada, shuningdek, futbol to'garaklarini rejalashtirish va o'tkazishda bosqichli yondashuv, differensial metod, innovatsion texnologiyalar (videoanaliz, multimediya vositalari, raqamli monitoring tizimlari) va integrativ yondashuvning ahamiyati ilmiy-pedagogik asoslar bilan ochib beriladi. Ushbu metodlar talabalar tayyorgarligini samarali boshqarish, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish va mashg'ulot samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: futbol, integral tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, texnik-taktik ko'nikma, psixologik barqarorlik, pedagogik texnologiya, sog'lom turmush tarzi.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the issues related to improving students' integral training in higher education institutions through football clubs. The concept of integral training is presented as a comprehensive pedagogical process that encompasses the formation of students' physical development, technical-tactical skills, psychological readiness, and theoretical knowledge within a unified system. Effective organization of football training not only enhances students' athletic performance but also plays an important role in developing their intellectual potential, willpower, and teamwork skills.

The article also highlights the significance of a step-by-step approach, differential methods, innovative technologies (video analysis, multimedia tools, digital monitoring systems), and integrative approaches in planning and conducting football training based on scientific and pedagogical principles. These methods make it possible to effectively manage students' preparation, take into account their individual abilities, and increase the efficiency of training sessions.

Key words: football, integral training, physical development, technical-tactical skills, psychological stability, pedagogical technology, healthy lifestyle.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются вопросы совершенствования интегральной подготовки студентов в высших учебных заведениях через футбольные кружки. Понятие интегральной подготовки рассматривается как комплексный педагогический процесс, который предполагает формирование у студентов физического развития, технико-тактических навыков, психологической готовности, а также теоретических знаний в единой системе. Эффективная организация футбольных тренировок способствует не только развитию спортивного мастерства студентов, но и играет важную роль в формировании их интеллектуального потенциала, волевых качеств и навыков командной работы.

В статье также раскрывается значение поэтапного подхода, дифференциального метода, инновационных технологий (видеоанализ, мультимедийные средства, цифровые системы мониторинга) и интегративного подхода при планировании и проведении футбольных занятий на научно-педагогической основе. Эти методы позволяют эффективно управлять подготовкой студентов, учитывать их индивидуальные возможности и повышать результативность занятий.

Ключевые слова: футбол, интегральная подготовка, физическое развитие, технико-тактические навыки, психологическая устойчивость, педагогическая технология, здоровый образ жизни.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish hamda sport orqali ijtimoiy faolligini kuchaytirish dolzarb masalalardan biridir. Futbol dunyoning eng ommabop sport turi sifatida talabalar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, psixologik moslashuvini ta'minlash, texnik va taktik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli futbol to'garaklari jarayonida talabalar integral tayyorgarligini takomillashtirish usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish katta ahamiyatga ega.

Maqolaning dolzarbligi. Talabalar integral tayyorgarligi oliy ta'lim tizimida ularning sport faoliyati va shaxsiy rivojlanishining markaziy omillaridan biri hisoblanadi. Integral tayyorgarlik tushunchasi faqatgina jismoniy sifatlarning (kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik, moslashuvchanlik) rivojlanishini emas, balki texnik-taktik ko'nikmalar, nazariy bilimlar va psixologik tayyorgarlikning ham uyg'un holda shakllanishini o'z ichiga oladi. Bu jarayon talabaning sport sohasidagi imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmay, balki ularning hayotiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga, intellektual va ma'naviy barkamolligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashtirish davrida talabalar bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, sog'lom turmush tarziga yo'naltirish va sport orqali ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan qaraganda, futbol mashg'ulotlari eng samarali vositalardan biri bo'lib, ular talabalarda yuqorida sanab o'tilgan integral tayyorgarlik komponentlarini kompleks tarzda rivojlantiradi. Futbol mashg'ulotlari orqali talaba nafaqat jismoniy jihatdan chiniqadi, balki psixologik barqarorlikni egallaydi, mustaqil va tezkor qaror qabul qilishga, stressli vaziyatlarni yengishga, shuningdek, jamoada o'z o'rnini topishga o'rganadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, futbol to'garaklari nafaqat sport mahoratini oshiradi, balki talabalarda shaxsiy intizomni kuchaytiradi, ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantiradi va liderlik sifatlarini shakllantiradi. Masalan, Reilly va Williams (2015) tadqiqotlarida futbolning jamoaviylikni rivojlantirishdagi o'rni, tezkor qaror qabul qilish va strategik fikrlash ko'nikmalariga ijobiy ta'siri keng yoritilgan. Bompa (2018) esa o'z asarlarida sport mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish va periodizatsiya orqali jismoniy hamda psixologik sifatlarni bir vaqtda rivojlantirish samaradorligini ilmiy asoslab bergan.

Shuningdek, milliy huquqiy-me'yoriy hujjatlar ham futbol to'garaklarining ahamiyatini yuksaltiradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6099-sonli Farmoni (2020-yil, "Yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash va ommaviy sportni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida") hamda "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi (2017) da yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishini rag'batlantirish, sport maktablari va to'garaklari faoliyatini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Demak, futbol to'garaklari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning integral tayyorgarligini rivojlantirishda dolzarb metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning ahamiyati shundaki, bu mashg'ulotlar orqali talabalarning jismoniy salohiyati mustahkamlanadi, texnik va taktik bilimlari boyiydi, psixologik barqarorligi ortadi, jamoada ishlash qobiliyati shakllanadi hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar singdiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida futbol to'garaklarini samarali tashkil etish va talabalar integral tayyorgarligini takomillashtirish uchun quyidagi tashkiliy-uslubiy asoslarni qo'llash muhim hisoblanadi:

1. Mashg'ulotlarni rejalashtirish.

Futbol to'garaklari mashg'ulotlari samaradorligini ta'minlashda rejalashtirish eng muhim omillardan biridir. Mashg'ulotlar yillik, oylik va haftalik reja asosida tuzilishi zarur. Yillik reja talabaning umumiy rivojlanish strategiyasini belgilaydi, oylik reja esa bosqichma-bosqich maqsadlarni aniq vazifalarga bo'lib beradi, haftalik reja esa mashqlar mazmuni va hajmini aniqlaydi. Rejalashtirish jarayonida umumiy jismoniy tayyorgarlik (kuch, chidamlilik, tezkorlik) bilan birga maxsus tayyorgarlik (texnik va taktik mashqlar, pozitsion o'yin elementlari) uyg'unlashtiriladi. Bu orqali talabalar nafaqat umumiy sport bazasini rivojlantiradi, balki futbol o'yiniga xos malakalarni ham chuqur o'zlashtiradi.

2. Bosqichli yondashuv.

Integral tayyorgarlik samaradorligi uni bosqichma-bosqich tashkil etishga bog'liq. Tayyorlov bosqichida talabalar umumiy jismoniy mashqlar orqali organizmni mustahkamlaydi, mushak faoliyatini rivojlantiradi va texnik elementlarning boshlang'ich ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Asosiy bosqichda texnik va taktik mashqlar kengaytiriladi, jamoaviy o'yin sxemalari qo'llaniladi va musobaqaviy vaziyatlarga mos mashqlar bajariladi. Musobaqa-nazorat bosqichida esa talabalar olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rish, musobaqalarda ishtirok etish, o'zlashtirish darajasini nazorat qilish orqali natijalar baholanadi.

Bu yondashuv talabalarda bosqichma-bosqich yuksalishni, har bir davrda belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

3. Differensial yondashuv.

Futbol to'garaklarini tashkil etishda differensial yondashuv katta ahamiyatga ega. Talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasi, psixologik xususiyatlari, texnik malakasi va qiziqishlariga qarab guruhlarga ajratilishi lozim. Shu asosda mashqlar individuallashtiriladi, ya'ni kuchli talabalar uchun yuqori darajadagi mashqlar, yangi boshlovchilar uchun esa soddalashtirilgan variantlar qo'llaniladi. Differensial yondashuv o'quv jarayonida talabaning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga sharoit yaratadi hamda ortiqcha zo'riqish yoki qiziqishning so'nib qolishining oldini oladi.

4. Innovatsion texnologiyalar

Zamonaviy sport mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Futbol to'garaklarida:

Videoanaliz yordamida talabalar o'z harakatlarini ko'rib, xatolarini aniqlashi va to'g'rilashi mumkin.

Interaktiv darslar orqali nazariy bilimlar qiziqarli va samarali o'zlashtiriladi.

Raqamli monitoring vositalari (masalan, yurak urish tezligini, yugurish masofasini yoki tezlikni o'lchash sensorlari) orqali talabalar yuklamasi aniq nazorat qilinadi.

Mobil ilovalar yordamida mashg'ulot natijalari qayd etiladi, individual rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi.

Bu yondashuv talabalar sport faoliyatini zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida boshqarish imkonini beradi.

5. Integrativ yondashuv.

Piaget (1969) o'zining kognitiv rivojlanish nazariyasida bolaning moslashuvi ularning aqliy rivojlanish bosqichlariga mos ravishda kechishini ta'kidlaydi. Shu bois tayyorlov sinfdagi diagnostika vositalari bolaning yosh xususiyatiga moslashtirilishi kerak.

Bandura (1986) ning sotsial o'rganish nazariyasida ta'kidlanishicha, bola ko'proq kuzatish va taqlid orqali ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu esa tayyorlov sinflarda o'qituvchi shaxsiy namunasining ahamiyatini oshiradi.

Mahalliy olimlar ham bu masalani keng o'rganganlar:

Saidahmedova (2019) ijtimoiy moslashuvning samarali bo'lishi uchun maktab psixologi va tarbiyachilar hamkorligini zarur deb biladi.

Qodirova (2021) tayyorlov sinflarda emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishini ta'kidlaydi.

Usmonova (2020) esa ijtimoiy-madaniy moslashuvda milliy qadriyatlarni inobatga olish bolaning shaxsiy identifikatsiyasini mustahkamlashini qayd etadi.

Shuningdek, OECD (2020) tomonidan e'lon qilingan "School Readiness" hisobotida moslashuv darajasi past bo'lgan bolalar kelgusida o'qishdagi muvaffaqiyatsizlikka ko'proq duch kelishi ta'kidlangan. Bu esa bizning natijalar bilan to'liq mos keladi.

Daniel Goleman (1995) tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasi asosida ham shuni aytish mumkinki, bolalarda emotsional qo'llab-quvvatlash (mehribon munosabat, ijobiy kayfiyat) ijtimoiy-madaniy moslashuvni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Mahalliy sharoitda aynan oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlik zaifroq bo'lgani sababli, bolalarning kommunikativ va emotsional moslashuvda muammolar kuzatilmoqda.

Tayyorgarlik sinfida bola ilk bor jiddiy ijtimoiy tizim – maktab muhitiga kiradi. Shu sababli ularning ijtimoiy-madaniy moslashuvi murakkab, ko'p qirrali jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayonda bolaning shaxsiy xususiyatlari (xarakter, temperament, qiziqishlar) bilan birga, maktab muhiti, o'qituvchi yondashuvi, tengdoshlar bilan munosabatlari va oilaviy sharoit ham katta rol o'ynaydi.

Moslashuvning muvaffaqiyati ko'pincha bola o'zini yangi muhitda qabul qila olishi, qoida va talablarni tushunib, ularga amal qilishi, shuningdek, o'zini tengdoshlar jamoasining faol a'zosi sifatida his etishi bilan belgilanadi.

Tajriba-sinov ishlarining ahamiyati

Sinovdan o'tkazish jarayonida turli yoshdagi bolalarda moslashuv darajasi turlicha ekanligi aniqlanadi. Masalan, ayrim bolalar tez moslashib ketadi, boshqalari esa ko'proq vaqt va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bu natijalar asosida individual pedagogik yondashuv ishlab chiqiladi.

Ayniqsa, ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhim. Ota-onalarga farzandining maktabga moslashuvi bo'yicha psixologik-pedagogik maslahatlar berilishi, uy sharoitida ham bola bilan qo'llab-quvvatlash ishlari olib borilishi zarur.

Kompleks diagnostik vosita yaratish nafaqat baholash jarayonini tizimli qiladi, balki ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlaydi. Shu orqali bolaning tayyorlov sinfida

muvaffaqiyatli ijtimoiy-madaniy moslashuvi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Bu esa keyingi bosqichlarda ta'lim samaradorligini oshiradi, shaxsiy rivojlanish uchun poydevor bo'ladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tayyorlov sinf o'quvchilarini ijtimoiy-madaniy muhitga samarali moslashtirish uchun kompleks diagnostik vositadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vosita yordamida bolalarning ijtimoiy faolligi, kommunikativ ko'nikmalari, emotsional barqarorligi, hamkorlikka tayyorligi va o'quv faoliyatiga qiziqishi aniqlab berildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki:

Diagnostik vosita moslashuv jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarni aniq belgilash imkonini beradi.

O'qituvchilar ushbu vositadan foydalanib, har bir bola uchun individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin.

Ota-onalar uchun esa farzandining maktabga psixologik va ijtimoiy tayyorgarlik darajasi haqida aniq ma'lumot taqdim etiladi.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy ilmiy va amaliy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Tayyorlov sinflarda ijtimoiy-madaniy moslashuvni samarali tashkil etish o'quv jarayonining keyingi bosqichlaridagi muvaffaqiyatning poydevori bo'lib xizmat qiladi.

2. Oila va maktab hamkorligi kuchli bo'lgan sharoitda bolalarning moslashuvi tezroq va samaraliroq kechadi.

3. Diagnostik vositani muntazam qo'llash orqali nafaqat bolaning hozirgi darajasi, balki dinamik rivojlanishini ham kuzatish mumkin.

4. Tadqiqot O'zbekiston ta'lim tizimida tayyorlov sinflar uchun milliy diagnostik metodika yaratish zarurligini tasdiqlaydi.

Kelgusidagi istiqbollar sifatida, diagnostik vositani yanada takomillashtirish, uni raqamlashtirish (online testlar shaklida) va kengroq hududlarda (viloyatlar kesimida) sinovdan o'tkazish lozim. Bu esa ijtimoiy-madaniy moslashuvni baholashda yanada aniqroq natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-madaniy moslashuvni baholash uchun yaratilgan diagnostik vosita samarali natijalar berdi.

Vosita o'quvchilarning kuchli va zaif jihatlarini aniq belgilab berishga xizmat qiladi.

Tajriba asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

Natijalar O'zbekiston ta'lim tizimida tayyorlov sinflarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Saidahmedova N. (2019). Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy moslashuv jarayonlari. Toshkent.

2. Qodirova M. (2021). Tayyorlov guruh o'quvchilarini maktabga moslashtirishning pedagogik asoslari. Samarqand.

3. Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

4. Bronfenbrenner U. (1979). The Ecology of Human Development. Harvard University Press.

Roziqova Sitorabonu Ne'matovna,
Buxoro innovatsiyalar universiteti tuyutori

JADID PEDAGOGIK MEROSIDA TA'LIM ISLOHOTI G'OYALARI VA ULARNING HOZIRGI MILLIY TA'LIM SIYOSATIDAGI AKS SADOSI

Annotatsiya. *Jadidchilik harakati XX asr boshida O'zbekiston va Turkiston xalqlari ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin egallagan bo'lib, ta'lim islohoti g'oyalari orqali millat taraqqiyotiga yo'l ochgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar yangi maktablar tashkil etib, o'quv dasturlariga zamonaviy fanlarni kiritdilar, o'qitishda yangi metodlarni qo'lladilar. Ularning asosiy maqsadi yoshlarni ilmiy, vatanparvar, milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash edi. Bugungi milliy ta'lim siyosatida ham ushbu tamoyillar o'z aksini topmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va milliy g'urur ruhida tarbiyalash jarayonlari jadid pedagogikasining davomiy an'alarini eslatadi. Shu nuqtayi nazardan, jadidchilik pedagogik merosi bugungi ta'lim jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda hamda milliy ta'lim siyosatining ilmiy-nazariy poydevorlaridan biri sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.*

Kalit so'zlar: *Jadid pedagogikasi, ta'lim islohoti, milliy uyg'onish, zamonaviy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, milliy qadriyatlar, innovatsion metodlar, vatanparvarlik tarbiyasi.*

Annotation. *The Jadid movement at the beginning of the 20th century played an important role in the spiritual and educational life of the peoples of Uzbekistan and Turkestan, opening the way to national progress through ideas of educational reform. Enlighteners such as Mahmudkhoja Behbudiy, Abdulla Avloni, and Munavvarqori Abdurashidkhanov established new-method schools, introduced modern sciences into curricula, and applied innovative teaching methods. Their main goal was to educate the younger generation as knowledgeable, patriotic individuals loyal to national values. These principles are also reflected in today's national education policy. In particular, the competency-based approach, the application of modern pedagogical technologies, the development of independent thinking skills, and the cultivation of national pride echo the lasting traditions of Jadid pedagogy. From this perspective, the pedagogical heritage of the Jadids directly influences the modern educational process and remains relevant as one of the scientific and theoretical foundations of national education policy.*

Keywords: *Jadid pedagogy, educational reform, national awakening, modern education, competency-based approach, national values, innovative methods, patriotic upbringing.*

Аннотация. *Джадидское движение в начале XX века заняло важное место в духовно-просветительской жизни народов Узбекистана и Туркестана, открыв путь к развитию нации через идеи реформы образования. Такие просветители, как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлоний, Мунавварқари Абдурашидханов, создавали новые школы, вводили современные науки в учебные программы, применяли новые методы преподавания. Их главной целью было воспитание молодежи как образованных, патриотичных личностей, преданных национальным ценностям. И в сегодняшней национальной образовательной политике данные принципы находят свое отражение. В частности, компетентностный подход, использование современных педагогических технологий, обучение молодежи самостоятельному мышлению и воспитание в духе национальной гордости напоминают о преемственности традиций джадидской педагогики. С этой точки зрения педагогическое наследие джадидов оказывает прямое влияние на современный образовательный процесс и сохраняет свою актуальность как одна из научно-теоретических основ национальной образовательной политики.*

Ключевые слова: джадидская педагогика, реформа образования, национальное возрождение, современное образование, компетентностный подход, национальные ценности, инновационные методы, патриотическое воспитание.

Kirish. Jadidchilik harakati XX asr boshida O'rta Osiyoda ta'lim va ma'rifat sohasida tub burilish yasagan tarixiy-pedagogik hodisa sifatida milliy uyg'onishning muhim omillaridan biri bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar o'z davrida xalqni ilmga chorlab, eski maktab va madrasalar o'rniga yangi usuldagi maktablarni tashkil etdilar. Ularning faoliyati zamonaviy fanlarni o'qitishga, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va milliy ongini shakllantirishga qaratildi. Ushbu harakatning poydevorida xalqni jaholatdan chiqarish, milliy taraqqiyotni ta'lim orqali ta'minlash g'oyalari mujassam edi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham mazkur g'oyalar bilan bevosita hamohangdir.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy taqqoslash, manbashunoslik va nazariy asoslash metodlaridan foydalanildi. Jadid pedagogikasining asarlari hamda hozirgi milliy ta'lim konsepsiyalari qiyosiy tahlil qilindi. Bu yondashuv jadidlar ilgari surgan ta'lim islohoti g'oyalari va hozirgi milliy ta'lim siyosati o'rtasidagi uzviylikni ochib berishga xizmat qildi.

Jadidlar ta'lim islohotining markaziga yangi metodlarni qo'yanlar. Ularga ko'ra, o'qitish jarayoni faqatgina yod olish va diniy saboqlar bilan chegaralanmasligi, balki matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar bilan boyitilishi zarur edi. Ularning maktablarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy tarbiyani kuchaytirish, milliy o'zlikni anglash kabi maqsadlar asosiy vazifa bo'lib xizmat qildi. Bu jihatlarda bugungi milliy ta'lim siyosatida ham davom etmoqda[2]. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishga da'vat etish jarayonlari jadid pedagogikasining davomi hisoblanadi.

Jadid pedagogik merosida ta'lim islohoti g'oyalari xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida faoliyat yuritgan jadid ma'rifatchilari maktab va madrasalardagi an'anaviy o'qitish usullarini yangilash, dunyoviy bilimlarni keng joriy etish, millatni ilm-ma'rifat orqali taraqqiy ettirish zarurligini ilgari surgan edilar. Ularning ta'lim haqidagi qarashlari bugungi O'zbekiston milliy ta'lim siyosatida ham o'z aksini topmoqda[5].

Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish, fanlarni ona tilida o'qitish g'oyalarini ilgari surdilar. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim va tarbiyani jamiyat taraqqiyotining eng asosiy sharti sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, "Millatning najoti ilmda, ma'rifatda va yaxshi tarbiyada". Behbudiy esa "Padarkush" dramasi va "Maktab" asarida jaholat va savodsizlikning millatni inqirozga olib borishini ko'rsatib, yangi usul maktablarining afzalliklarini targ'ib qildi. Fitratning "Rahbari najot" va "Oila" asarlari esa millatning taraqqiyotida maorifning beqiyos ahamiyatini asoslab beradi[4].

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida ham aynan jadidlar ilgari surgan tamoyillar – ta'limni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, fanlarni o'quvchi tushunadigan tilda o'qitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish masalalari asosiy o'rin tutmoqda. Masalan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida jadid bobolarimiz merosini qayta o'rganish va uni yoshlar tarbiyasida qo'llash zarurligini ta'kidlab kelmoqda.

Olimlar ham jadid pedagogikasining ta'lim islohotidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilganlar. O'zbek olimlaridan A.Qodirov, N.Karimov, H.Boltaboev, M.Xayrullaev, Sh. Yusupovlarning tadqiqotlarida jadidlarning pedagogik qarashlari milliy uyg'onish davri

tafakkuri sifatida baholangan. Ularning fikricha, jadid pedagogikasi millatni ilm va ma'rifat orqali yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, hozirgi zamon ta'lim strategiyasida bu qarashlar davomiylik kasb etmoqda. Masalan, N.Karimov jadid adabiyoti va pedagogikasini milliy o'zlikni anglashning muhim omili deb baholaydi. A.Qodirov esa Avloniy asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalarning bugungi ta'lim jarayonida qo'llanilishi haqida ilmiy asosli fikr bildiradi[1].

Shuningdek, xalqaro miqyosdagi olimlar ham jadidchilikni o'rganib, uni Sharq va G'arb pedagogik tafakkuri o'rtasidagi bog'lovchi ko'priq sifatida talqin qilganlar. Masalan, turkolog olim A.Bennigsen, E.Allworth va A.Khalidlar jadidchilik harakati musulmon jamiyatida islohotchilik va ma'rifatchilikning yangi bosqichini boshlab berganini ta'kidlaydilar.

Natijalar va tahlil: Umuman olganda, jadid pedagogik merosi – bu nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi O'zbekiston ta'lim tizimining zamonaviy islohotlariga hamohang g'oyaviy zamin hisoblanadi. Ta'limni modernizatsiya qilish, o'quvchilarni erkin fikrlash, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda jadidlarning g'oyalari muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda[6].

Jadid pedagogik merosini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, XX asr boshida ilgari surilgan ta'lim islohoti g'oyalari bugungi milliy ta'lim siyosati bilan bevosita uzviylik kasb etmoqda. Behbudiy, Avloniy va Munavvarqori kabi ma'rifatparvarlarning ta'limni dunyoviyashtirish, yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish, milliy o'zlikni anglashga da'vat etish borasidagi qarashlari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Mustaqillik yillarida shakllangan milliy ta'lim siyosatining asosiy tamoyillari jadidlarning merosiy qarashlari bilan uyg'unlashib, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilmoqda.

O'tkazilgan tahlillar natijasida, jadid pedagogikasidagi ta'lim islohoti g'oyalari va hozirgi milliy ta'lim siyosati o'rtasida bir qator umumiyliklar aniqlanadi. Xususan, dars jarayonida yangi metodlardan foydalanish, o'quv dasturlariga amaliy fanlarni kiritish, shaxsni milliy qadriyatlarga sodiq va vatanparvar qilib tarbiyalash kabi jihatlar asosiy yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, hozirgi ta'lim siyosati jadid pedagogikadan farqli o'laroq, zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsion metodlar, kompetensiyaviy baholash tizimi orqali kengaytirilgan va yanada mukammal shaklga keltirilgan.

Quyidagi jadvalda jadid pedagogik merosidagi ta'lim islohoti g'oyalari va hozirgi milliy ta'lim siyosati o'rtasidagi asosiy uyg'unlik va farqlar tahliliy tarzda ko'rsatildi:

| Jadid pedagogik merosidagi g'oyalar | Hozirgi milliy ta'lim siyosatidagi aks sadosi |
|---|--|
| Yangi maktablar tashkil etish va dunyoviy fanlarni kiritish | Umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim muassasalarida STEAM yo'nalishlari va zamonaviy fanlarni joriy etish |
| O'qitishda ilg'or metodlardan foydalanish | Innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalarini qo'llash |
| Yoshlarni ilmi, vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash | Kompetensiyaviy yondashuv asosida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ma'naviyatni shakllantirish |
| Jamiyat taraqqiyotida ta'limning asosiy omil sifatida e'tirof etilishi | Milliy taraqqiyot strategiyalarida ta'lim sohasini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash |
| Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va ma'naviyatni targ'ib qilish | Davlat ta'lim standartlarida milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrash va yoshlarni milliy g'urur ruhida tarbiyalash |

Olingan natijalardan ko'rinadiki, jadid pedagogik merosi bugungi kunda ham ta'lim siyosatining asosiy ma'naviy poydevorlaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga,

zamonaviy talablar asosida boyitilgan ta'lim konsepsiyasi orqali jadidlarning orzulari real hayotda o'z ifodasini topmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, jadid pedagogik merosi va bugungi ta'lim siyosati o'rtasida ko'plab o'xshashliklar mavjud. Avvalambor, ikkala davrda ham ta'limning asosiy maqsadi yoshlarni milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir. Jadidlar uchun millatni uyg'otish vazifasi birlamchi bo'lgan bo'lsa, bugungi ta'lim siyosatining ustuvor vazifasi yoshlarni raqobatbardosh, zamonaviy kasb-hunarlariga ega, intellektual salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir[3].

Munozaralarda aniqlanishicha, jadid pedagogik merosi bugungi ta'lim jarayonida nafaqat tarixiy tajriba sifatida, balki amaliy qo'llanma sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlarning darslik yaratish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodlari zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlarga uyg'un keladi. Shu bois milliy ta'lim siyosatida jadidchilik merosiga tayangan holda yangi dasturlar ishlab chiqish, darslik va qo'llanmalarni boyitish, ta'lim jarayonida tarbiyaviy komponentni kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. XX asr boshida shakllangan jadidchilik harakati ta'lim sohasida tub burilish yasagan bo'lsa, bugungi milliy ta'lim siyosatida ham ushbu g'oyalarning davomiyligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jadid pedagogik merosida ilgari surilgan asosiy maqsad – yoshlarni ilmiy, vatanparvar, milliy qadriyatlarga sodiq va zamonaviy tafakkur bilan qurollantirish edi. Shu tamoyillar hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonlarida o'z aksini topmoqda. Demak, jadidlar faoliyati nafaqat tarixiy qadriyat sifatida, balki bugungi ta'lim siyosatining nazariy hamda amaliy poydevori sifatida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Shu o'rinda bir qator tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, jadidlar pedagogik qarashlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va uni hozirgi ta'lim kontsepsiyalariga uyg'unlashtirish zarur. Bu orqali ta'lim dasturlarini milliy qadriyatlar ruhida boyitish va yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlash mumkin. Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda jadidlarning ilg'or metodlari bilan uyg'unlikni ta'minlash muhim, chunki bu yondashuv ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, milliylik va zamonaviylik uyg'unligini yaratadi. Uchinchidan, talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda jadidlarning ma'rifiy tamoyillari amaliy ahamiyat kasb etadi. To'rtinchidan, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishda jadidlar merosi asosida boy tajribalardan foydalanish yoshlarni milliy g'urur va ma'suliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Nihoyat, jadid pedagogikasini keng targ'ib qilish va uni milliy ta'lim siyosatida ilmiy-nazariy asos sifatida chuqur o'rganish kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov N. Jadidchilik va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Fan, 2000.
2. Boltaboev H. O'zbek pedagogik tafakkuri tarixidan lavhalar. – Toshkent: Universitet, 2004.
3. Xayrullaev M. O'zbek ma'rifatchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 1999.
4. Yusupov Sh. Jadid maktablari va ularning o'zbek pedagogik tafakkuridagi o'rni. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2012.
5. Saidov U. Jadidlar va milliy uyg'onish. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
6. Qosimov B. XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Fan, 1993.

Artikov O'ktam Kamiljanovich,
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

**O'QUVCHILARNING IJTIMOYILASHUV JARAYONIDA MA'NAViy-
HUQUQIY TARBIIYA BERISH MEXANIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarni ijtimoiylashtirish jarayonida axloqiy va huquqiy tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalarining o'rni va ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Mavzuning dolzarbligi zamonaviy jamiyatning tobora kuchayib borayotgan muammolari bilan bog'liq bo'lib, yosh avlodda nafaqat huquqiy normalar haqidagi bilimlarni, balki chuqur axloqiy e'tiqodlarni, shuningdek, mas'uliyatli ijtimoiy xulq-atvorning barqaror ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. Maqolada axloqiy va huquqiy tarbiya mexanizmlarining hozirgi holati tahlil qilinadi, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda modernizatsiya qilish zarurati asoslanadi. Unda innovatsion yondashuvlar, interfaol usullar va raqamli vositalar qanday qilib ta'lim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, uni yanada qiziqarli, shaxsga yo'naltirilgan va zamonaviy talabalar ehtiyojlariga moslashtirishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: axloqiy-huquqiy tarbiya, ijtimoiylashtirish, o'quvchilar, pedagogik texnologiyalar, tarbiya mexanizmlari, huquqiy madaniyat, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati.

Аннотация. Настоящая статья посвящена исследованию роли и значения технологий для совершенствования механизмов нравственно-правового воспитания в процессе социализации обучающихся. Актуальность темы связана с обостряющимися проблемами современного общества, которые требуют формирования у подрастающего поколения не только знаний правовых норм, но и глубоких нравственных убеждений, а также устойчивых навыков ответственного социального поведения. В статье анализируется современное состояние механизмов нравственно-правового воспитания, выявляются их сильные и слабые стороны, обосновывается необходимость модернизации с использованием современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий. Рассматривается, как инновационные подходы, интерактивные методы и цифровые инструменты могут существенно повысить эффективность образовательного процесса, сделать его более интересным, лично-ориентированным и адаптированным к потребностям современных обучающихся.

Ключевые слова: нравственно-правовое воспитание, социализация, обучающиеся, педагогические технологии, образовательные механизмы, правовая культура, нравственные ценности, гражданская ответственность.

Abstract. *Nastoyashchaya statya posvyashchena issledovaniyu role i znacheniya tekhnologii dlya sovershenstvovaniya mekhanizov npravstvenno-pravogo vospitaniya v procese sotsializatsii obuchayushchihsya. Actuality of the topic is related to the problems of the modern society, which requires the formation of the younger generation, not only the knowledge of the legal norm, but also the deep moral conviction, and also the skills of responsible social behavior. V state analiziruetsya sovremennoe sostoyanie mekhanizov npravstvenno-pravovogo vospitaniya, vyyavlyayutsya ix strong i weake storony, obosnovyvaetsya neokhodimost modernizatsii s ispolzovaniem sovremennyx pedagogicheskix i informatsionno-kommunikatsionnyx tehnologiiy. Rassmatrivaetsya, kak innovative approaches, interactive methods and digital instruments can seriously increase the effectiveness of the educational process, make it more interesting, personality-oriented and adapted to the needs of modern learners.*

Key words: *moral and legal education, socialization, training, pedagogic technologies, educational mechanisms, legal culture, moral values, citizen responsibility.*

Kirish. O'quvchilarda huquqiy madaniyat, fuqarolik mas'uliyati, tanqidiy fikrlash, buzg'unchi ta'sirlarga qarshi turish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologik ilg'or mexanizmlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siriga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada taklif etilgan xulosalar va tavsiyalar jadal o'zgaruvchan dunyoda shaxsni uyg'un rivojlantirishga qaratilgan ta'lim muassasalarida yangi ta'lim dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin [1].

Dinamik o'zgarishlar, globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy aloqalarning tobora murakkablashuvi bilan ajralib turadigan zamonaviy jamiyat nafaqat bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zgaruvchan sharoitlarga samarali moslasha oladigan, o'zi, o'zgarlar va qonunlar uchun javobgar bo'ladigan shaxsni shakllantirishga yuqori talablarni qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarni axloqiy va huquqiy tarbiyalash ularning ijtimoiylashuvi va fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanadi [2].

Ushbu mavzuning dolzarbligi bir qator omillarga bog'liq:

1. Zamonaviy dunyo muammolari: Huquqiy nigilizmning kuchayishi, raqamli muhitda buzg'unchi mazmunning keng tarqalishi, yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvorning yangi shakllarining paydo bo'lishi axloqiy va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

2. An'anaviy yondashuvlarning nomutanosibliigi: Axloqiy-huquqiy tarbiyaning amaldagi mexanizmlari ko'pincha rasmiyatchilik, o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlaridan ajralish kabi holatlarga uchrab, har doim ham barqaror ichki e'tiqod va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishni ta'minlay olmaydi.

3. Texnologiyalar salohiyati: Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o'quv jarayonini optimallashtirish, uni interaktiv, shaxsiylashtirilgan va o'quvchilar uchun jozibador qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Tadqiqot muammosi talabalarni uyg'un ijtimoiylashtirishga qaratilgan ushbu jarayonning mexanizmlarini takomillashtirishning zamonaviy texnologiyalari prizmasi orqali axloqiy va huquqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llarini izlash va asoslashdan iborat.

Ushbu maqolaning maqsadi talabalarni ijtimoiylashtirish jarayonida axloqiy va huquqiy tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalarining roli va ahamiyatini tahlil qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun axloqiy-huquqiy tarbiya va ijtimoiylashtirishning nazariy asoslari ko'rib chiqiladi, mavjud mexanizmlar tahlil qilinadi va ularning kamchiliklari aniqlanadi, ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish vositasi sifatidagi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining imkoniyatlari asoslanadi. Pirovardida, bunday texnologiyalarni maqsadli tatbiq etish yosh avlodda nafaqat qonunga itoatkorlik xulq-atvorini, balki jamiyatning faol, mas'uliyatli va foydali a'zosi bo'lib yetishish imkonini beruvchi chuqur ma'naviy-axloqiy yo'l-yo'riqlarni shakllantirishga qanday hissa qo'shishi ko'rsatiladi [3,4].

Respublikamiz olimlaridan fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish muammolarini O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, R.Safarova, H.Yu.Salomova, Sh.Olimov, B.Xodjaev, X.J.Xudoyqulov, M.K.Hoshimova, M.K.Quronov, Sh.Shodmonova, B.P.Shoumarov va N.M.Egamberdievalarning ijodiy ishlarida o'quvchilarning ijtimoiylashuvi orqali ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari, uning uzviyiligi X.S.Rajabov, Sh.M.Ruziev, B.M.Umarov, R.S.Samarov, A.Sh.Jumaev va B.N.Zuxurov ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'quvchilarning ijtimoiylashuvi orqali ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlarini tashkil etish usullariga alohida e'tibor berilgan [2-9].

Tadqiqotda quyidagi masalalar hal etiladi:

-o'quvchilarning ijtimoiylashuvi orqali ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy vazifalarini anglash, ma'naviy-pedagogik hamkorlik usullarini emotsional-motivatsion, informatsion komponentlar orqali munosabatlarga kirishish darajalari tuzilmasi aniqlashtirilgan:

-o'quvchilarning ijtimoiylashuvi orqali ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirishning shakllari va samarali usullarini aniqlab, ma'naviy-huquqiy tarbiya berish motivlarini takomillashtirish orqali talaba shaxsining komillik jarayonining nazariy bilimlarni o'zlashtirishga doir ob'ektiv va sub'ektiv, ijodiy va shaxsiy kompetentlikni, emotsional barqarorlik vositalarni rivojlantirish mexanizmlari boyitilgan;

-pedagogik yondashishni shartli ifoda etuvchi loyihalash, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi orqali ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlarni rivojlantirish tendensiyalarini zamonaviy ta'lim-tarbiya talablari darajasida pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish orqali baholash mezonlari va ko'rsatgichlari takomillashtirilgan;

-o'quvchilarning ijtimoiylashuvi orqali ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ma'naviy-huquqiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir interfaol usullar metodologik bilimlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatlarini jamoatchilik institutlari hamkorligida kengaytirish, o'quvchilarda improvizatsion faoliyat uyg'unlik dinamikasini ta'minlashga xizmat qiluvchi integrativ blok-modulli tuzilmani joriy etish asosida takomillashtirilgan.

Metodologiya. O'quvchilarning ijtimoiylashuvi orqali ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida: o'quvchilarning ijtimoiylashuvida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy vazifalarini anglash, ma'naviy-pedagogik hamkorlik usullarini emotsional-motivatsion, informatsion komponentlar orqali munosabatlarga kirishish darajalari tuzilmasi aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining «Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi», jumladan, «Yoshlarning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi»ni ishlab chiqishda qo'laniladi. Natijada, o'quvchilarning ijtimoiylashuvida ma'naviy-huquqiy tarbiyani takomillashtirish jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi;

O'quvchilarning ijtimoiylashuvida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni mexanizmlarini takomillashtirishning shakllari va samarali usullarini aniqlab, ma'naviy-huquqiy tarbiya berish motivlarini takomillashtirish orqali talaba shaxsining komillik jarayonining nazariy bilimlarni o'zlashtirishga doir ob'ektiv va sub'ektiv, ijodiy va shaxsiy kompetentlikni, emotsional barqarorlik vositalarni rivojlantirish mexanizmlarini ta'minlovchi tashkiliy funksional modelidan talabalarni pedagogik funksiyalarini oshirish, yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish, yoshlar orasida axborot xavfsizligini ta'minlashda keng qo'laniladi.

Natija va muhokama. Zamonaviy ta'lim jarayonida axloqiy-huquqiy tarbiyaning samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri mos uslub va innovatsion texnologiyalarni tanlash va qo'llashga bog'liq. Ular nafaqat bilimlarni uzatish, balki barqaror qiymat yo'nalishlarini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'quvchilarning ijtimoiy o'zaro munosabatlarga faol qo'shilishini ta'minlash imkonini beradi.

1. Axloqiy-huquqiy tarbiyani takomillashtirish usullari

Axloqiy va huquqiy tarbiyada qo'llaniladigan usullar shaxsning barcha tarkibiy qismlarini: kognitiv (bilim), affektiv (munosabat, e'tiqod) va konativ (xulq-atvor) rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Faoliyat yondashuvi: o'quvchilarni turli faoliyat turlariga (kognitiv, kommunikativ, transformativ) faol jalb qilishni o'z ichiga olgan markaziy usul, uning davomida axloqiy va huquqiy normalar o'zlashtiriladi. Bunga loyihalarda ishtirok etish, rolli o'yinlar, bahslar, real ijtimoiy va huquqiy vaziyatlarni taqlid qiluvchi ko'ngillilar tadbirlari kiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Har bir o'quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga e'tibor qaratish. Usul shaxsiy hayot kontekstida o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi tahlil qilish, mustaqil axloqiy tanlash va huquqiy tamoyillarni tushunish uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi.

Interfaol yondashuv: Ta'lim va tarbiyani talabalar o'rtasidagi, shuningdek, ular bilan o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqot va o'zaro ta'sir sifatida tashkil etish. Bu munozaralar, aqliy hujum, guruhda ishlash, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadigan bahslar, tinglash, o'z pozitsiyasini bahslash va murosaga kelish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Muammoli yondashuv: Talabalarga mustaqil tahlil qilishni, yechim topish va tanlashni asoslashni talab qiluvchi axloqiy va huquqiy muammoli vaziyatlarni taqdim etish. Bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, bilimlarni nostandart sharoitlarda qo'llash qobiliyatiga va mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi. Kontekstual yondashuv: axloqiy va huquqiy normalar bevosita ahamiyatga ega bo'lgan real hayotiy vaziyatlar kontekstida o'quvchilarni jalb qilish. Bu haqiqiy sud ishlarini o'rganish (moslashtirilgan), yangiliklarni tahlil qilish, huquqni muhofaza qilish organlari yoki ruhoniylar vakillari bilan uchrashuvlar bo'lishi mumkin.

2. Axloqiy-huquqiy tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalari

Ushbu kontekstdagi texnologiyalar - bu oldindan belgilangan ta'lim natijasiga erishishga qaratilgan tizimlashtirilgan, ishlab chiqilgan va takrorlanadigan usullar, uslublar va vositalar to'plami.

Loyiha faoliyati texnologiyalari: Talabalarga axloqiy va huquqiy masalalarni mustaqil ravishda o'rganishga, o'z loyihalarini ishlab chiqishga va amalga oshirishga imkon bering (masalan, "Maktabning sharaf kodeksi", "Internetdagi huquq va majburiyatlarim", "Inson huquqlari tarixi"). Bu tadqiqot ko'nikmalarini, mas'uliyatni, jamoada ishlash va natijalarni taqdim etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Keys metodi texnologiyalari (aniq vaziyatlarni tahlil qilish): axloqiy va huquqiy baholash va qaror qabul qilishni talab qiladigan real yoki uydirma, lekin real vaziyatlardan foydalanish. Vaziyatlarni muhokama qilish tahliliy ko'nikmalarni, huquqiy normalar va axloqiy tamoyillarni muayyan holatlarga qo'llash qobiliyatini, shuningdek, empatiya va muammoni turli tomonlardan ko'rish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'yin texnologiyalari (rolli o'yinlar, biznes o'yinlari, simulyatsiyalar): Talabalar muayyan rollarni o'z zimmalariga oladigan haqiqiy yoki faraziy axloqiy va huquqiy vaziyatlarni takrorlash (masalan, "Sud muhokamasi", "Maktab parlamentiga saylovlar", "Mojarolarni hal qilish"). Ushbu texnologiyalar muloqot ko'nikmalarini, muzokaralar olib borish ko'nikmalarini, ijtimoiy rollar va tartiblarni tushunishni rivojlantiradi, shuningdek, turli vaziyatlarda "yashash" imkonini beradi, darsni amalda o'rganadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) texnologiyalari va media savodxonligi:

Interaktiv ta'lim resurslarini yaratish: Huquqiy me'yorlar va axloqiy dilemmalarni o'rganish uchun onlayn platformalar, vebinarlar, video darslar, interaktiv testlardan foydalanish.

Media kontentini tahlil qilish: Yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, filmlarni huquqiy va axloqiy komponentlar uchun tanqidiy tahlil qilishni o'rgatish, soxta va manipulyatsiyalarni aniqlash.

Raqamli axloq va xavfsizlikni shakllantirish: raqamli muhitda mas'uliyatli xatti-harakatlar qoidalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, kiberbullingning oldini olish va taqiqlangan ma'lumotlarni tarqatish.

Virtual ekskursiyalar va simulyatsiyalar: huquqiy tarixning virtual muzeylariga tashrif buyurish, murakkab axloqiy yoki huquqiy vaziyatlarda qaror qabul qilishni simulyatsiya qilish.

Ijtimoiy dizayn va ko'ngillilik texnologiyalari: talabalarni yordam ko'rsatish, atrof-muhitni yaxshilash, aholining ayrim guruhlari huquqlarini himoya qilishga qaratilgan haqiqiy ijtimoiy loyihalarga jalb qilish.

Talabalarni ijtimoiylashtirish jarayonida axloqiy va huquqiy tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalarining o'rni va ahamiyatini o'rganish jadal o'zgaruvchan dunyo va doimiy murakkab ijtimoiy munosabatlar sharoitida ta'limga an'anaviy yondashuvlar sezilarli modernizatsiyaga muhtojligini ishonchli tarzda ko'rsatdi.

Texnologiyalar nafaqat yordamchi vosita, balki axloqiy va huquqiy ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy katalizatorlari bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Ular rasmiyatchilik va talabalar hayotidagi voqelikdan ajralish kabi muammolarni yengib o'tishga yordam beradi, o'quv jarayonini interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va jozibador qiladi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish quyidagilarga yordam beradi:

Axloqiy va huquqiy me'yorlarni tushunishni chuqurlashtirish: o'quvchilarga nafaqat ma'lumotni o'zlashtirish, balki uni simulyatsiya qilingan hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradigan keys usullari, simulyatsiyalar, interfaol platformalardan foydalanish orqali.

Barqaror axloqiy e'tiqod va qonuniy xulq-atvorni shakllantirish: loyiha faoliyatiga jalb qilish, ijtimoiy ko'ngillilik, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi munozaralar va ongli axloqiy va huquqiy tanlov qilish qobiliyati.

Fuqarolik mas'uliyatini va faol pozitsiyani rivojlantirish: muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun muhim bo'lgan maktab o'zini o'zi boshqarish, media savodxonligi va raqamli muhitda xavfsiz o'zaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar orqali.

Xulosa. Shunday qilib, axloqiy-huquqiy tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalarini maqsadli va ilmiy asoslangan holda tatbiq etish ta'lim tizimida strategik muhim yo'nalish hisoblanadi. Bu yosh avlodda nafaqat qonunga itoatkor fuqarolar, balki jamiyatda konstruktiv hamkorlik qilishga qodir, ma'naviy-axloqiy etuk, mas'uliyatli, faol va moslashuvchan shaxslarni shakllantirish imkonini beradi, bu esa uning barqaror rivojlanishi va farovonligi garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Boboev X.B, Xasanov S. Ilk turkiy yozma yodgorliklarda davlatni idora qilish siyosati va huquq masalalari // Hayot va qonun. – 1995. – № 2. – B. 3-8.
2. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: “Adolat”, 2007. – 551 b. 99. Islomov M.Z. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi T: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2005. – B. 29, 150.
3. Quvondiqov I.L. Huquqiy savodxonlik va milliy g'oya. T : O'zbekiston, 2011. – 126 b.
4. Новикова Л.И. Педагогика воспитания: Избранные педагогические труды. – М.: Педагогическое общество России, 2009. – 320 с.
5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
6. Белоусова О.В. Духовно-нравственное и правовое воспитание как основа формирования правовой культуры личности // Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. 2018. Т. 24, № 1. С. 98-101.
7. Григорев Д.В. Воспитание в контексте ФГОС: от цели к результату // Народное образование. 2014. № 4. С. 26-30.

Shomurodova Aziza,
Work at 8th school
Email address: azizasomurodova2@gmail.com

THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON LINGUISTIC DIVERSITY

Annotation. *This article explores the impact of globalization on linguistic diversity, analyzing both the opportunities and challenges it creates for the preservation of minority languages and the spread of global lingua francas. The paper highlights how economic, cultural, and technological integration fosters English dominance while simultaneously threatening smaller linguistic communities. By reviewing theoretical frameworks and empirical studies, the article seeks to provide a balanced understanding of globalization's dual role as both a unifying and homogenizing force in contemporary linguistic landscapes.*

Key words: *Globalization, linguistic diversity, minority languages, English dominance, cultural integration.*

Annotatsiya. *Mazkur maqola globallashuvning til xilma-xilligiga ta'sirini o'rganadi hamda u yaratadigan imkoniyatlar va tahdidlarni tahlil qiladi. Ishda iqtisodiy, madaniy va texnologik integratsiya ingliz tilining ustun mavqega ega bo'lishiga qanday xizmat qilishi, shu bilan birga kichik til jamoalarini xavf ostiga qo'yishi yoritilgan. Nazariy qarashlar va empirik tadqiqotlarga tayanib, maqola globallashuvning zamonaviy til manzarasida ham birlashtiruvchi, ham esa yagona shaklga soluvchi kuch sifatidagi ikki tomonlama rolini tushuntiradi.*

Kalit so'zlar: *Globallashuv, til xilma-xilligi, ozchilik tillar, ingliz tilining ustunligi, madaniy integratsiya.*

Аннотация. *В данной статье исследуется влияние глобализации на языковое разнообразие, а также анализируются возможности и угрозы, которые она создает для сохранения малых языков и распространения глобальных лингва франка. Рассматривается, как экономическая, культурная и технологическая интеграция способствует доминированию английского языка, одновременно ставя под угрозу меньшие языковые сообщества. Опираясь на теоретические подходы и эмпирические исследования, статья раскрывает двойственную роль глобализации как объединяющей и унифицирующей силы в современном языковом пространстве.*

Ключевые слова: *Глобализация, языковое разнообразие, малые языки, доминирование английского, культурная интеграция.*

Introduction. Globalization, as an unprecedented process of economic, cultural, political, and technological integration, has significantly reshaped human societies in the 21st century. While it has facilitated mobility, communication, and knowledge transfer across borders, globalization has also profoundly affected linguistic diversity. Today, English has become the dominant global lingua franca in diplomacy, education, science, and technology, reinforcing the perception that certain languages are more useful and powerful than others. However, this linguistic shift has raised concerns about the erosion of minority and indigenous languages, many of which face extinction due to declining intergenerational transmission and limited functional domains.

The debate over globalization's impact on languages often reflects two contrasting perspectives [Phillipson, R., 1992]. On the one hand, globalization fosters intercultural communication, strengthens multilingual competence, and provides opportunities for smaller languages to gain visibility through digital platforms. On the other hand, it threatens linguistic pluralism by privileging dominant languages, reducing language diversity, and weakening the cultural heritage embedded in endangered languages.

This paper aims to analyze globalization's dual role in shaping linguistic diversity. It investigates theoretical perspectives on language and globalization, examines case studies on English dominance and minority language decline, and evaluates strategies for balancing global communication with local linguistic preservation.

Literature review. The study of globalization's impact on linguistic diversity has been at the center of sociolinguistic and cultural research for the past three decades. Scholars from diverse disciplines have debated whether globalization serves primarily as a homogenizing force that reduces linguistic variation, or as a catalyst for multilingualism and intercultural exchange. This literature review aims to critically evaluate the theoretical frameworks, empirical findings, and case studies that have shaped the discourse on language and globalization.

A significant theoretical perspective in this field is Robert Phillipson's (1992) concept of linguistic imperialism. Phillipson argues that the global spread of English has not occurred naturally but has been actively promoted by economic and political forces that reinforce the dominance of Anglophone nations. According to this view, English is not merely a neutral tool of communication but an instrument of power that perpetuates inequalities among linguistic communities. Phillipson's theory has been influential in highlighting the structural dimensions of language dominance, particularly in postcolonial contexts where indigenous and minority languages are marginalized.

In contrast, David Crystal (2000, 2004) emphasizes the fragility of languages in his works *Language Death* and *English as a Global Language*. Crystal notes that globalization accelerates language shift and extinction, estimating that up to half of the world's languages are at risk of disappearing by the end of the century. His research underscores the urgency of language preservation efforts, particularly for small communities that face demographic decline and cultural assimilation. Similarly, Joshua Fishman's (1991) seminal work *Reversing Language Shift* outlines strategies for revitalizing endangered languages through community-based initiatives, intergenerational transmission, and institutional support. Fishman stresses that revitalization requires more than symbolic recognition it demands active engagement in education, media, and daily life.

Other scholars, however, offer more optimistic interpretations of globalization. Braj Kachru's (1996) model of World Englishes challenges the traditional center-periphery dichotomy by demonstrating how English has been localized in various cultural contexts. Kachru identifies the "inner," "outer," and "expanding" circles of English use, thereby legitimizing multiple varieties of English rather than privileging only standard forms such as British or American English. This perspective suggests that globalization fosters linguistic hybridity and cultural creativity rather than uniformity. Similarly, Alastair Pennycook (2007) advocates for a view of English as a language that adapts and transforms in local settings, enabling new identities and modes of expression.

The literature also explores the ecological perspective on languages. Scholars such as Haugen (1972) and Mühlhäusler (1996) describe linguistic diversity in terms of ecosystems, where languages coexist, compete, and sometimes decline under environmental pressures. From this perspective, globalization functions as an ecological disturbance that disrupts the balance of linguistic ecosystems, often privileging dominant languages while placing smaller ones at risk. Yet, ecological models also highlight the possibility of resilience, where communities actively cultivate multilingualism and language maintenance.

Empirical studies provide evidence of both linguistic loss and revitalization under globalization. In Europe, for example, minority languages such as Welsh and Basque have undergone significant revival due to strong institutional support, bilingual education, and media representation (May, 2012). In contrast, many indigenous languages in the Americas, Africa, and Asia remain endangered due to weak policy frameworks and rapid urbanization.

UNESCO reports (2010, 2021) consistently warn of the critical endangerment of thousands of languages, stressing that without urgent intervention, the world will face an irreversible decline in linguistic diversity [UNESCO., 2021].

The digital age adds another layer to the literature on globalization and languages. Warschauer and Grimes (2007) argue that technology serves as a double-edged sword: while it accelerates the dominance of English in online spaces, it also creates unprecedented opportunities for endangered languages to gain visibility through websites, mobile applications, and social media campaigns. Case studies such as the revitalization of Māori in New Zealand and Hawaiian in the United States show that digital media can play a vital role in re-establishing intergenerational transmission and strengthening cultural identity.

Overall, the reviewed literature reveals a nuanced picture: globalization simultaneously threatens and supports linguistic diversity. Theories of linguistic imperialism and ecological models caution against homogenization and loss, while perspectives on World Englishes and digital opportunities highlight adaptation and innovation. The challenge for researchers and policymakers is to navigate these contradictions by promoting language policies that balance global communication with the preservation of local linguistic heritage.

Research methodology. The methodological framework of this study is based on a qualitative approach that prioritizes interpretation, critical evaluation, and contextual understanding over purely statistical generalizations. Since the central objective is to analyze the complex and multifaceted impact of globalization on linguistic diversity, the research design relies on secondary data analysis drawn from existing academic literature, international reports, and comparative case studies. This method ensures a comprehensive engagement with both theoretical perspectives and empirical findings from diverse contexts.

Data for this research was collected from peer-reviewed journals in sociolinguistics, language policy, and globalization studies, as well as reports published by UNESCO, Ethnologue, and other international organizations that monitor endangered languages. The use of these sources provides reliable and up-to-date insights into language vitality, extinction rates, and policy interventions. In addition, the study incorporates case studies of linguistic communities in Europe, Central Asia, and indigenous populations in the Americas to illustrate the dual role of globalization as both a homogenizing and revitalizing force.

Analytical procedures were guided by two major frameworks. The first is Phillipson's theory of linguistic imperialism, which explains the structural dominance of English and its implications for minority languages. The second is the ecological model of language proposed by Haugen and later developed by Mühlhäusler, which conceptualizes languages as part of interconnected ecosystems influenced by sociopolitical and technological pressures. By applying these frameworks in tandem, the research avoids reductionist conclusions and instead offers a balanced interpretation of linguistic shifts.

Furthermore, the methodology adopts a comparative lens, contrasting contexts where globalization has led to language decline with those where it has supported revitalization [Pennycook, A., 2007]. This comparative dimension enhances the explanatory power of the study by highlighting factors that contribute to successful preservation, such as institutional support, bilingual education, and digital engagement.

Overall, the chosen methodology enables the study to provide a critical yet constructive assessment of globalization's impact on linguistic diversity. By combining theoretical rigor with empirical breadth, the research seeks to generate insights that are relevant for both scholarly debates and practical policy-making.

Analysis and results. The analysis of globalization's impact on linguistic diversity reveals a complex interplay of forces that simultaneously promote the dominance of global languages, particularly English, while also creating new spaces for the preservation and revitalization of minority tongues [Mühlhäusler, P., 1996]. This duality reflects the inherent contradictions of globalization: it unifies communities across borders but also threatens to

homogenize cultural and linguistic identities. The findings of this study are organized around four central themes: the global dominance of English, the decline of minority languages, the role of digital technologies, and the increasing prevalence of multilingualism as an adaptive response.

One of the most consistent findings across the literature is the unparalleled global dominance of English. It functions as the primary medium of communication in diplomacy, higher education, international business, and digital platforms. In academic publishing, more than 80% of scientific articles are written in English, making it the default language of knowledge dissemination. Similarly, multinational corporations and global media industries adopt English as their working language, further solidifying its role as the world's lingua franca.

This dominance, however, is not merely the result of natural linguistic spread but is reinforced by structural inequalities in power, economics, and culture [Fishman, J. A., 1991]. For example, former British colonies continue to prioritize English in their education systems, often at the expense of indigenous languages. The spread of English is thus both an opportunity, as it enables access to global resources, and a threat, as it marginalizes local linguistic traditions.

The analysis also shows that globalization has accelerated the decline of minority and indigenous languages worldwide. UNESCO's Atlas of the World's Languages in Danger (2021) reports that more than 40% of the world's 7,000 languages are endangered, with one language disappearing approximately every two weeks. Factors such as rural-to-urban migration, economic pressures, and the dominance of global media contribute to language shift, where younger generations abandon their ancestral languages in favor of dominant ones.

For instance, in Central Asia, the increasing use of Russian and English in education and employment has led to a gradual erosion of smaller Turkic languages spoken in rural areas. Similarly, indigenous languages in North and South America face existential threats due to limited transmission between generations and the overwhelming dominance of English and Spanish. These cases illustrate how globalization-driven modernization, while economically beneficial, can contribute to cultural and linguistic erosion.

The rise of digital technologies introduces a paradoxical dynamic in the relationship between globalization and language. On one hand, the internet has become a stronghold of English, with over half of the world's websites using it as their primary language. Social media platforms, streaming services, and e-learning tools further reinforce this dominance, often leaving minority languages underrepresented.

On the other hand, digital platforms have also created unprecedented opportunities for language preservation and revitalization [Crystal, D., 2000,] . For example, the Welsh and Basque languages have gained strong visibility through online media, digital learning apps, and localized versions of major platforms like Facebook and Twitter. Similarly, indigenous communities in New Zealand and Hawaii have harnessed technology to teach Māori and Hawaiian to younger generations, ensuring continued intergenerational transmission [Haugen, E., 1972].

These examples demonstrate that while technology accelerates linguistic homogenization, it also provides innovative tools for resistance and revitalization.

Another key result of globalization is the growing prevalence of bilingualism and multilingualism [Crystal, D., 2004]. Rather than completely replacing local languages, globalization often fosters hybrid linguistic practices where individuals move fluidly between languages depending on context. For example, in Uzbekistan, many young people are bilingual in Uzbek and Russian, with English increasingly added as a third language for international opportunities. This trend reflects an adaptive response: communities preserve their cultural identity through local languages while simultaneously engaging with the global community through dominant languages.

This adaptive multilingualism challenges the narrative of inevitable language loss. While some minority languages remain endangered, others have managed to coexist with global

languages by carving out specific functional domains such as religious practices, cultural festivals, or community life. These domains, though limited, serve as important spaces for cultural reproduction and resistance to total linguistic homogenization.

Comparative Case Studies

The analysis of comparative case studies further illuminates the varied impact of globalization:

| | |
|---------------------------------------|---|
| Welsh and Basque | Successful revitalization driven by strong state support, bilingual education policies, and digital engagement. |
| Māori and Hawaiian | Revival movements supported by digital tools and community activism demonstrate how endangered languages can regain vitality. |
| Central Asian Turkic languages | Weak policy frameworks and urbanization pressures contribute to decline, showing that revitalization is not guaranteed without institutional backing. |
| Siberian indigenous languages | Facing severe endangerment due to demographic decline and marginalization, with limited digital or educational support. |

1.1. TABLE SUMMARY OF RESULTS

The findings of this study suggest that globalization is not a monolithic process with uniformly negative effects on linguistic diversity. Instead, it functions as a dynamic and context-dependent phenomenon [Kachru, B. B., [1996]. In contexts with strong institutional support, digital innovation, and community engagement, globalization can serve as a vehicle for revitalization. In contexts lacking these supports, however, it accelerates the decline of minority languages and reinforces global linguistic hierarchies.

Conclusion. The findings of this study demonstrate that globalization exerts a dual and often paradoxical influence on linguistic diversity [May, S., 2012]. On the one hand, it accelerates the spread and dominance of global languages, particularly English, which functions as the lingua franca of international communication, science, education, and commerce. This dominance, while providing undeniable opportunities for access to global knowledge and mobility, often comes at the expense of minority and indigenous languages whose functional domains and intergenerational transmission are increasingly eroded. The resulting decline in linguistic diversity poses significant risks to cultural heritage, identity, and collective memory, as languages embody unique worldviews, traditions, and epistemologies.

On the other hand, globalization also creates novel spaces for linguistic revitalization and intercultural dialogue. Digital platforms, transnational networks, and multicultural education systems have provided tools and arenas in which smaller languages can reassert their presence. Case studies of Welsh, Basque, and Māori revitalization show that with sufficient institutional support, community engagement, and technological innovation, endangered languages can thrive even in a globalized world. This indicates that linguistic homogenization is not inevitable; rather, outcomes depend heavily on the policies, resources, and commitments of states and communities.

Ultimately, the study underscores the need for a balanced approach to globalization and linguistic diversity. Language policies should prioritize multilingual education, support for minority languages in both digital and institutional domains, and greater recognition of linguistic rights as human rights. Governments, international organizations, and local communities must work collaboratively to safeguard endangered languages while also enabling individuals to benefit from global communication. By embracing multilingualism as both a

cultural asset and a practical necessity, societies can mitigate the risks of linguistic loss while reaping the benefits of global interconnectedness.

In conclusion, the future of linguistic diversity under globalization will be determined not by globalization itself but by how societies choose to engage with it. The challenge, therefore, lies not in resisting globalization but in shaping it to protect and celebrate the rich tapestry of human languages.

References.

1. Crystal, D. (2000). *Language Death*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2004). *English as a Global Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Fishman, J. A. (1991). *Reversing Language Shift: Theoretical and Empirical Foundations of Assistance to Threatened Languages*. Multilingual Matters.
4. Haugen, E. (1972). *The Ecology of Language*. Stanford University Press.
5. Kachru, B. B. (1996). *The Alchemy of English: The Spread, Functions, and Models of Non-Native Englishes*. University of Illinois Press.
6. May, S. (2012). *Language and Minority Rights: Ethnicity, Nationalism and the Politics of Language*. Routledge.
7. Mühlhäusler, P. (1996). *Linguistic Ecology: Language Change and Linguistic Imperialism in the Pacific Region*. Routledge.
8. Pennycook, A. (2007). *Global Englishes and Transcultural Flows*. Routledge.
9. Phillipson, R. (1992). *Linguistic Imperialism*. Oxford University Press.
10. UNESCO. (2021). *World Report on Languages and Linguistic Diversity*. UNESCO.

Imamkulova Muslima Narkulovna,
Termiz davlat pedagogika instituti, Rus tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**RUS TILI BO'YICHA MASHG'ULOTLARDA TALABALARDA AXLOQIY
MADANIY MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISH LINGVODIDAKTIK
MUAMMOLARI**

Аннотация. Ushbu ish rus tilini o'rganish jarayonida talabalar o'rtasida axloqiy va madaniy munosabatlarni shakllantirishda yuzaga keladigan lingvodidaktik muammolarni har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada rus tilini aloqa vositasi va milliy madaniyatning akkumulyatori sifatida o'qitishga qiymatga yo'naltirilgan yondashuvni integratsiyalashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Til kompetensiyalariga yo'naltirilgan an'anaviy o'qitish usullari va maktab o'quvchilarida rus tilida o'zida mujassamlangan axloqiy me'yorlar, madaniy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur tushunishni rivojlantirish zarurati o'rtasidagi asosiy qarama-qarshiliklar ko'rib chiqiladi. O'qituvchilar empatiya, bag'rikenglik, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradigan rag'batlantiruvchi muhitni yaratishda duch keladigan asosiy qiyinchiliklar aniqlangan.

Калит so'zlar: lingvodidaktika, axloqiy va madaniy munosabatlar, rus tili, ta'lim, qadriyatlar, madaniyat, o'qitish metodikasi, badiiy adabiyot, maktab o'quvchilari.

Аннотация. Данная работа посвящена комплексному исследованию лингводидактических проблем, возникающих при формировании нравственно-культурных отношений у учащихся в процессе изучения русского языка. В статье анализируются теоретические и практические аспекты интеграции ценностно-ориентированного подхода в преподавание русского языка как средства коммуникации и аккумулятора национальной культуры. Рассматриваются ключевые противоречия между традиционными методами обучения, фокусирующимися на языковых компетенциях, и необходимостью воспитания у школьников глубокого понимания нравственных норм, культурных традиций и общечеловеческих ценностей, воплощенных в русском языке. Выявляются основные трудности, с которыми сталкиваются педагоги при создании мотивирующей среды, способствующей развитию эмпатии, толерантности, уважения к многообразию культур и формированию гражданской позиции.

Ключевые слова: лингводидактика, нравственно-культурные отношения, русский язык, воспитание, ценности, культура, методика преподавания, художественная литература, школьники.

Abstract. This work is devoted to a comprehensive study of linguodidactic problems that arise in the formation of moral and cultural relations among students in the process of learning the Russian language. The article analyzes the theoretical and practical aspects of integrating a value-oriented approach to teaching Russian as a means of communication and an accumulator of national culture. The key contradictions between traditional teaching methods that focus on language competencies and the need to cultivate in schoolchildren a deep understanding of moral norms, cultural traditions and universal values embodied in the Russian language are considered. The main difficulties that teachers face in creating a motivating environment that promotes the development of empathy, tolerance, respect for cultural diversity and the formation of a civic position are identified.

Key words: linguodidactics, moral and cultural relations, Russian language, education, values, culture, teaching methods, fiction, schoolchildren.

Kirish. O'sib kelayotgan yoshlarning ongu shuurini, tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarda jahon ilmu fani

rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarning ma'rifatparvarlik qarashlaridan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanish, bilim olish jarayonida dunyoqarash, intellektual salohiyatni kengaytirish amaliy ahamiyat kasb etib, kelajakni belgilab beruvchi asosiy pedagogik omil sifatida baholanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2021-yilning eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida, yurtimizda 2022-yilga «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili» deb nom berilishini e'tirof etdilar [1].

Rus tili bo'yicha ta'lim jarayonida talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini safarbar etish maqsadga muvofiq.

Turli ilm-fan sohalarining o'lkamizda taraqqiy topishi shu mintaqamizning boy madaniy, ma'naviy, iqtisodiy imkoniyatlar zahirasiga ega bo'lganidan, xalqimizning intellektual salohiyatidan dalolat berishi barobarida islom ilmlari va musulmon madaniyati rivojiga yurtimiz mutafakkirlarining qo'shgan hissasi nechog'lik salmoqli bo'lganini tasavvur qilish imkonini beradi.

Ma'naviyatning xilma-xil ma'nolari mavjud. **Ma'naviyat o'zi nima?** degan savolga aniq va lo'nda javob topish qiyin. Unga nisbatan mutaffakkirlar, siyosatshunolar, davlat va jamiyat arboblari, pedagog-olimlar tomonidan har xil fikrlar bildirilgan.

«**Ma'naviyat**» tushunchasi keng ma'noda jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etgan ijtimoiy-ma'naviy hodisadir[83].

A.Erkaevning fikricha, «Ma'naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir»[2].

«Odob» (arabcha «adab» so'zining ko'pligi) xulq-atvori, yurish-turish madaniyatning tashqi va ichki jihatlarini ifodalaydigan tushuncha. U kishilarning hatti-harakatida, o'zaro munosabatida (oilalar, mehnat jamoasi va h.k.) namoyon bo'ladi[108].

Abu Nasr Forobiy «Daraxtning etukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham ahloqiy tarbiya bilan yakunlanadi» deb ta'kidlaydi[41].

Tadqiqotchilar axloqning uch omili – asosini ajratib ko'rsatadilar: axlokiy anglash (axloqiy ong), axlokiy his etish (axloqiy hissiyot), axlokiy munosabat (axloqiy hatti-xarakatlar).

Axloq-odob qoidalarini anglasak, nima mumkinu, nima mumkin emas va qanday yashamoq kerak savollariga javob topa olamiz.

Axloq – odob to'g'risida gapirganda axloqiy ong nimaligini ham bilish kerak. Axloqiy ong-kishilarning jamiyatdagi axloqiy hatti-harakatlari, yurish-turishlari, yashash qoidalari, tamoyillari, shuningdek ularning o'zaro bir-birlariga hamda ijtimoiy guruhlariga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi qarashlari tasavvurlari, nazariyalarining jamidir.

Ma'rifat - ta'lim va tarbiya birligidan iborat bo'lib, ta'lim – bilim berish, tarbiya esa olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishlikni ifodalaydi, ya'ni avlodlar tarbiyasini odamlarga o'rgatish ma'nosida talqin etiladi

Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Abdurauf Fitrat[33], Abdulla Avloniy[43], Mahmudxo'ja Behbudiy[36] va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma'rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar.

Ma'rifatparvarlik harakatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir», - degan g'oyasi ma'rifatparvarlik harakatining dasturini tashkil etgan[43].

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan yana bir tariqat – Yassaviy bo‘lib, uning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir. Ba’zi manbalarga ko‘ra, Yassaviy Sayramda, boshqasiga ko‘ra, Yassi shahrida (yoki uning atrofida) tug‘ilgan va shu shaharning o‘zida vafot etgan. Yassi mug‘ullardan keyingi davrda Turkiston shahri nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Madaniyat lotincha «kultura» – «ishlov berish», «parvarishlamoq», o‘zbek tilida arab tilidan olingan «madaniyat» (madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan) ma’nosini anglatib, insonning faol o‘zgartiruvchilik faoliyati bilan bog‘liqlikni ifodalaydi. Keyinchalik ushbu tushuncha ko‘chma ma’noda maorif tarbiyalanganlik, ma’lumotlilik tushunchalarini ham ifodalay boshladi[39].

«Falsafa» qomusiy lug‘atida madaniyatga quyidagicha ta’rif beriladi: Madaniyat (arab – madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan) – tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli»[106].

«Vatan tuyg‘usi» kitobining mualliflari «Madaniyat jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan yutuqlar majmuini, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma’lum bir davrda qo‘lga kiritilgan yutuqlar darajasini, o‘qimishlilik, ta’lim tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik va ma’rifatlilikni hamda turmushning ma’rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi» deb ta’kidlaydilar[121].

V.G.Volkov esa madaniyatning quyidagi bir qator ijtimoiy vazifalarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Axborot uzatuvchilik (axborot yig‘ish, ko‘paytirish va avloddan avlodga etkazish);
2. Adaktiv (moslashtirish) insonning atrof-muhitga moslashuvini ta’minlash;
3. Kommunikativ (bog‘lovchilik) (til, belgilar, insonlarga xos bo‘lgan muloqot shakllari);
4. Integrativ (birlashtirish, uyushtirish) (kishilarni bir xil madaniyat doirasida yoki uning chegaralaridan tashqari birlashtirish);
5. Ijtimoiylashtirish (individlarning ijtimoiy hayot doirasiga tortilishi, ularning ijtimoiy tajriba, ijtimoiy rol, hatti-harakat me’yorlarini egallashlari orqali shaxslarning jamiyating to‘laqonli a’zolariga aylanishlariga imkon berishi) [57].

Shunday qilib, madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

madaniyat muayyan tarixiy davrda bir butun ijtimoiy tizimning moddiy va ma’naviy jihatdan namoyon bo‘lishidir; madaniyat tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan qadriyatlar, yutuqlar bo‘lib, insonning yaratuvchilik faoliyatini ifodalaydi; madaniyatning eng asosiy ijtimoiy vazifasi insonni shakllantirish bo‘lib, shaxs bir paytning o‘zida ushbu faoliyatning ham ob’ekti, ham sub’ekti hisoblanadi.

Madaniyat jamiyat taraqqiyotining muayyan tarixiy rivojlanish darajasi bo‘lib, kishilar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakllarida, ularning o‘zaro munosabatlarida aks etuvchi ijodiy kuchlari va qobiliyatlarida, yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi. Axloqiy va huquqiy me’yorlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat singari tushunchalar ham umumiy madaniyat tarkibiga kiradi.

Axloqiy ong axloqiy talablarni, me’yorlarni, qoidalarni, adolat haqidagi tasavvurlarni shakllantiradigan qarashlar, g‘oyalar, fikrlar, nazariyalardir. Insonning har qanday xatti-harakatlari ong orqali bajariladi, jamiyat uchun manfaatlari mavjudlarigina yuzaga chiqadi. Axloqiy ongning ijtimoiy ahamiyati ham xuddi ana shundadir.

Axloqiy ongning o‘ziga xos va ayni paytda eng muhim elementi shaxsning axloqiy sifatlaridir. Kishilarning axloqiy sifatleri, ya’ni fazilatleri ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi. Har bir davrda asosiy axloqiy sifatlar hukmron ideologiyaning, mafkuraning umumiy yo‘nalishi bilan belgilanadi. Biroq axloq ideologiyadan, mafkuradan o‘zining umuminsoniy, milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Axloqiy sifatlar ijobiy va salbiy bo‘ladi. Ijobiy axloqiy sifatlariga mehnatsevarlik, kamtarlik, xushmuomalalik, ezgulik, samimiyat, insof, andisha, hayo singarilar kiradi. Bu bizning axloqiy qadriyatlarimizdir. Salbiy sifatlariga, buni illatlar deyishimiz ham mumkin, masalan, xoinlik, poraxo‘rlik, ikkiyuzlamachilik,

laganbardorlik, hasad, dag'allik, irodasizlik, munofiqlik, shaxsiyatparaslik, xudbinlik, mansabparaslik kabilar kiradi.

Axloqiy sifatlar haqidagi tushunchalar boshqa jamiyat hodisalari kabi tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib, rivojlanib, sayqallanib boradi. Masalan, ijtimoiy hayotning hamma sohalariga din, cherkov hukmronlik qilgan o'rta asrlarda – e'tiqod, umid va muhabbat, ya'ni xudoga e'tiqod, uning shafqatiga umid va unga muhabbat asosiy fazilatlar, deb hisoblangan. Hozir ona-yurtimiz mustaqillik yo'lidan borib, bozor iqtisodiy sharoitida hayot kechirar ekan, ayniqsa, vatanparvarlik, milliy g'urur fazilatlarini tadbirkorlik, o'zaro manfaatdorlik, hamkorlik, sabr-toqat, osoyishtalik, qanoatlilik fazilatlarini bilan uyg'unlashtirib borishni taqozo etmoqda. Murakkab iqtisodiy masalalarni echishda axloqiy barkamollik, milliy urf-odatlarimiz va madaniy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qadimdan buyuk ajdodlarimiz tomonidan komil inson misolida axloqiy talablar majmuasini, ya'ni sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Vatan, xalq uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydigan, vatanparvar kishini tarbiyalash ta'lim va tarbiya tizimidagi asosiy vazifadir.

Axloq mazmuni aqliy va hissiy lahzalardan, ya'ni axloqiy ong dangina iborat emas. Axloqiy ong kishilarning xatti-harakatlarida, ularning amaliy hayotida namoyon bo'ladi. Shu sababli axloqning ikkinchi elementi axloqiy amaliyotdir. Axloqiy amaliyot – axloqiy ong hodisalari, ya'ni motivlar, niyatlar, dunyoqarash, axloqiy qadr-qimmat ideallar va h.k.larda namoyon bo'ladigan xulqni, son-sanoqsiz xatti-harakatlar, aloqa munosabatlarni axloqiy maqsadlarga ongli bo'ysundirishdir; Boshqacha aytganda, axloqiy amaliyot amalda namoyon bo'ladigan axloqdir.

Kishilarning axloqiy xulqi axloqiy boyliklarni shakllantirish, jamiyatning axloqiy muhitini yaratishda katta rol o'ynaydi. Xulqqa xos xususiyat, uning birligi elementi xatti-harakatdir. Xatti-harakat, motiv kishining ijobiy yoki salbiy xislatlari namoyon bo'ladigan faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, xatti-harakat kishining ongli yo'naltirgan va yakunlangan harakati yoki faoliyatidir.

Hatti-harakatlar to'g'ridan-to'g'ri faoliyatda emas, balki faoliyatsizlik – sukut, passivlik, loqaydlik yoki bo'lmasa imo-ishora, qiliq, ohang tarzidagi munosabatlar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin.

Xulqda, kishining hatti-harakatlarida uning ichki, ma'naviy dunyosi, tuyg'ulari, o'y va fikrlari, intilishlari aks etadi. Axloqiy talablarning ham ijobiy, ham salbiy ko'rinishlari xatti-harakatda namoyon bo'ladi. Axloq yaxshilik va yomonlikni, adolat yoki adolatsizlikni, vijdonlilik yoki vijdonsizlikni namoyon etadigan oxirgi hujayra - bu hatti-harakatdir. Shu sababli xulq va hatti-harakatlarga qarab biz o'z mulohazalarimizni bildira olamiz. Ma'lumki, bir harakatning o'zi ham yomonlik tariqasida baholanishi mumkin. Albatta bunday holda ikkala baho ham to'g'ri bo'lavermaydi. Axloqni baholash jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga tayanish maqsadga muvofiq.

Inson faoliyatini axloqiy baholashda kishining o'z harakatlariga sub'ektiv munosabatini ifodalaydigan axloqiy sabab muhim rol o'ynaydi. Xulq ijobiy yoki salbiy sabablar tufayli yuzaga keladi. Egoistik sabablar natijasida amalga oshirilgan har qanday xatti-harakatlarni oqlash mumkin emas. Harakat yuksak axloqiy maqsadlar bilan amalga oshirilsa, bu harakat axloqiy bo'lish bilan birga go'zal hamdir.

Axloqning uchinchi elementi axloqiy munosabatlardir. Axloqiy munosabatlar – ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Axloqiy munosabatlar dastlab stixiyali tarzda, moddiy munosabatlar asosida shakllana boshlaydi. Keyin rivojlanib, moddiy munosabatlardan ajralib chiqadi, mafkuraviy, g'oyaviy, ma'naviy munosabatlar sohasiga kira boradi. Axloqiy munosabatlar kishilarning irodasidan tashqari paydo bo'lib, axloq me'yorlarining qaror topishi, jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi jarayonida, albatta, kishilar ongi orqali o'tadi. Axloqiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra yo boshqaruv yoki qo'riqlov vazifalarini bajaradi. Boshqaruvchi axloqiy munosabatlar muayyan jamiyatning me'yorlari talablariga muvofiq

holda yuzaga keladi, ular majburiylik vazifalariga dahldordir. Qo'riqlovchi axloqiy munosabatlar shu me'yorlarni buzuvchi xatti-harakatlar yuz berishi natijasida paydo bo'ladi va ijtimoiy ta'sir choralari amalga oshirishni ta'minlaydi.

Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qilib, hamisha va hamma joyda axloqiy me'yorlar, baholar ta'siri ko'rinib turadi. Ular axloqiy faoliyat, xulq, xatti-harakatlarda, atrofdagi ijtimoiy borliqqa nisbatan axloqiy ta'sir ko'rsatishda yuzaga keladi. Axloqiy munosabatlarning baholovchi xarakteri bilan birga imperativ, yo'naltiruvchi xarakterga egaligi ham uning o'ziga xos belgisidir. Axloqiy munosabatlarda, kishilarning faoliyati va xatti-harakatlari, ular munosabatlarining axloqiy-amaliy ifodasi sifatida asosiy o'rin tutadi. Ayni paytda axloqiy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar singari mustaqildir.

Shunday qilib, axloqiy munosabatlar axloqning elementi sifatida, birligidan, ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlari bilan, ikkinchidan, murakkab bir butunlikni tashkil etadigan axloqning boshqa elementlari bilan chambarchas bog'liq. Axloqning elementlari axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy munosabatlar axloqning elementlari sifatida bir-birlari bilan chirmashib ketadi.

Axloqiy munosabatlar me'yorlarni qo'llab-quvvatlash va ijro etishning ijtimoiy mexanizmi bo'lib, hamisha me'yorlarni shakllantirish, rivojlantirish, saqlash va keyingi avlodlarga qoldirish jarayonlarini mujassamlantirgan bo'ladi. Axloqiy me'yorlarning ta'sirchanligi hayotbahsh kuchining mezoni axloqiy munosabatlarning ifodasidir. Axloq me'yorlari o'z natijalari – axloqiy munosabatlardan tashqari mavjud bo'lganda edi, o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qotgan bo'lar edi. Shunday qilib, axloqning barcha tomonlari bir-birini taqozo etadi va bir-birini belgilaydi.

Ammo axloqning barcha tomonlari mustahkam bo'lishi ulardagi farqlarni, ziddiyatlarni ham yo'qqa chiqarmaydi. Masalan, axloqiy munosabatlar axloqiy ong sinovdan o'tkazgan xulq me'yorlarining amaliyotda mustahkamlanish shakli bo'lib, mavjud xodisa tariqasida namoyon bo'ladi. Axloqiy ong esa faqatgina mavjud axloqiy hodisalarnigina emas, balki lozim bo'lgan hodisalarni ham ifodalaydi. Xuddi shu sababli ular bir-biriga mos kelmaydi, ziddiyatli bo'ladi. Ziddiyatlar, ayniqsa, ijtimoiy bir tuzumdan ikkinchisiga o'tish davrida keskin tus olishi mumkin.

Axloqning tarkibiy qismlarini tahlil qilgandan so'ng unga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Axloq tarixan vujudga kelgan ijtimoiy xodisa bo'lib, kishi xulqini boshqarish vazifasini bajaradigan, bir-birini taqozo etadigan va belgilaydigan elementlar axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlarning murakkab birligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: "O'zbekiston", 2018. 1-tom, 88-b.
2. Abdullaev M.A. Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat. Muloqot, 1998-№ 3-12 b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. // Tanlangan asarlar. Mas'ul muharrir: akad. M. Xayrullaev. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 222 b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 t. - T.: Fan, 1968. - 488 b.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O'qituvchi, 1992-62 b.
6. Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. Toshkent. Ma'naviyat, 1997y
7. Falsafa qomusiy lug'at. -T: "Sharq", 2004.- 230 b.
8. Ximmataliev D.O. O'quv-Axloqiy tarbiya jarayonida talabalarining kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish: Avtorefer.dis...ped.fan.nom. – T.:2003. – 12 b

Almamatova Zebo Xudayberdiyevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**LOYIHALASH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK BIOLOGIYA
O'QITUVCHILARINI KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada loyihalashtirish texnologiyalari asosida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini o'ziga xos xususiyatlari jarayonining pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Loyihalashtirish, metodik, kasbiy, pedagogik texnologiyalar, loyihalashtirish texnologiyalari.

Абстрактный. В данной статье описаны педагогические основы процесса совершенствования профессионально-методической подготовки будущих учителей биологии на основе проектных технологий.

Ключевые слова: Проектирование, методические, профессиональные, педагогические технологии, технологии дизайна.

Abstract. This article describes the pedagogical foundations of the process of improving the professional methodological training of future biology teachers based on design technologies.

Key words: Designing, methodical, professional, pedagogical technologies, design technologies.

Kirish. XXI asrda ta'lim jarayonining samaradorligi, avvalo, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, uning metodik kompetensiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlarga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, fanlararo integratsiyani kuchaytirish jarayonida loyihalash texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Zero, loyihaviy faoliyat bugungi kunda nafaqat o'qituvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish, balki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda ham samarali metod sifatida qaralmoqda.

Biologiya fanini o'qitishda loyihalash texnologiyalarini qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish va ta'lim jarayoniga yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi. Chunki biologiya tabiiy fan sifatida kuzatish, tajriba o'tkazish, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini talab etadi. Loyihalash texnologiyalari esa bu jarayonlarni tizimli ravishda tashkil qilishga, o'qituvchi va talabaning hamkorlikda faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi uch asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1. **Nazariy bilimlar majmui** – biologiya fanining fundamental qonuniyatlari, tushuncha va kategoriyalarini chuqur o'zlashtirish.

2. **Amaliy-metodik tayyorgarlik** – biologiya darslarini samarali tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, laboratoriya ishlari va tajribalarni tashkil qilish ko'nikmalari.

3. **Kasbiy shaxsiy sifatlar** – pedagogik muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, ijodkorlik, mas'uliyat va yangilikka intilish.

Loyihalash texnologiyalari mazkur uchala yo'nalishda ham rivojlanishga xizmat qiladi. Masalan, loyiha ishlari jarayonida talabalar darslik va ilmiy manbalarni tahlil qiladi, tajriba asosida dalillar to'playdi, ilmiy izlanish elementlarini bajaradi va o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq etadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning nafaqat kasbiy metodik tayyorgarligini, balki ilmiy-tadqiqotchilik qobiliyatini ham shakllantiradi.

Shuningdek, loyihalash texnologiyalaridan foydalanish jarayonida talabalar biologiya ta'limida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil yechimlar ishlab chiqish, turli didaktik vositalar yaratish va ularni sinf sharoitida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda ular nafaqat metodik ko'nikmalarni egallaydi, balki o'quvchilarda qiziqish uyg'otuvchi pedagogik yondashuvlarni ham o'zlashtiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "Innovatsion pedagogik texnologiyalar", "Ta'lim-tarbiya jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish" kabi konsepsiyalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida loyihalash texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda ustuvor o'rin egallamoqda. Shu bois, mazkur mavzuni chuqur o'rganish va uni ta'lim jarayonida qo'llash bo'lajak biologiya o'qituvchilarini yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchisidan o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish maqsadida o'quvchilarning mustaqil ishlari va ta'limiga e'tibor qaratish, o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi uchun mavzular bo'yicha standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari bazasini yaratish, uni kompyuter xotirasiga joylashtirib adaptiv test topshiriqlariga aylantirish, shuningdek, o'quvchilar bilan o'tkaziladigan ma'naviyat daqiqalaridajismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamo-lotga erishishga yo'naltirish talab qilinadi.

Biologiyani o'qitish jarayonida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda o'quvchilarni tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat vaoilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, saxovatli bo'lishga undash zarur.

Bo'lajak biologiya o'qituvchisi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida hisoblashga doir biologik masalalar, nostandart o'quv topshiriqlari bilan ishlashni yo'lga qo'yishi lozim.

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o'rin tutadi.

Biologiya darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologiyadan davlat ta'lim standarti quyidagi uchta yo'nalish-dagi bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi:

1. Organizm biologik sistema.
2. Organik olam evolyutsiyasi.
3. Ekologik sistemalar.

Quyida biologiya darslarida shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar haqida ma'lumot beriladi(1-jadval).

1-jadval

Biologiya darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish

| Biologik ob'yekt, hodisa, jarayonlarni tushunish, tanih, izohlash kompetensiyasi | Biologik ob'yekt, hodisa, jarayonlar ustida kuza-tish va tajribalarni o'tka-zish kompetensiyasi | Sog'lom turmush tarzi va ekologik kompetensiya |
|---|--|---|
| Maktab biologik jihozlari va mikroskopdan foydalanish ko'nikmasini egallash | O'quv dasturidan o'rin olgan laboratoriya ish-larini kompyuterda baja-ra olish | Tabiatda o'zini tutish qoida-lariga amal qilish va tabiat muhofazasiga doir tadbirlar, video konferensiyalarda ishti-rok qilish |

| | | |
|--|--|---|
| | | Tabiat resurslarini o'ylamas-dan ishlatish natijasini tushu-nish, tabiat muhofazasiga doir saytlar orqali o'z munosabatini bildirish |
| O'simlik, hayvon va odam organlari va organlar tizimi, ularning hujayraviy tuzilishini farqlay olish, Internet, o'quv filmlari orqali o'rganib borish | Tajriba ob'yekti bo'lgan hayvonlarni kesish, organlarini tanish va tirik organizmlar hujayraviy tuzilishi va organoidlari tuzilishini o'rganish. | Nosog'lom turmush tarzi asoratlari va ekologik muam-molarni tushunish. Tabiatdagi hodisa va jarayonlar o'rtasidagi aloqalarni tushunish |
| O'rganilayotgan tirik ob'yektning shakli va uning funksiyasi o'zaro bog'liqligini tushunish. Organizmlar hujayraviy tuzilishini bilish, hujayra organoidlarini mikroskopda kuzatish, ularni bir-biridan farqlay olish | Tajriba ob'yekti bo'lgan hayvonlarni kesish, organlarini tanish va tirik organizmlar hujayraviy tuzilishi | Irsiy kasalliklarni oldini olish. Tibbiy genetik konsultatsiyalar mohiyatini anglab yetish. |
| | | Sportga doir teleko'rsatuvlar orqali inson salomatligiga jis-moniy mehnat va sportning ta'sirini tushunish |
| | | Jamoa va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish. Tele-ekrandan shu mavzuga doir ko'rsatuvlar bilan tanishib boorish |
| | | Baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni bilish |

Keyinchalik manbalar ko'p tilli kontekst uchun talab qilinadigan yuqori darajadagi tarjimani ta'minlashga yo'naltirilishi mumkin. Bu narx va sifat nisbatini kafolatlash uchun noshirlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarga olib kelishi mumkin.

Klaster – cluster – ingliz tilida shajara degan ma'noni angla-tadi. Ushbu lokal texnologiya talabalar tomonidan o'zlashtirgan va o'zlashtiradigan g'oya, nazariya, qonuniyat va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishini anglash, bir-biriga uzviylikini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- o'quv kursi mazmunidagi muayyan g'oya doska yoki qog'oz o'rtasiga yoziladi;
- ushbu g'oya bilan bog'liq qonuniyatlar, tushunchalar bir-biriga bog'liq holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, so'ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma'lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi.
- avval o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi bog'lanishlar haqida xulosa chiqariladi.

Mamlakatimiz ta'limi tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar vao'quv metodik adabiyotlarni zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Masalan, shu paytgacha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bu borada asosiy yo'l ko'rsatkich vazifasini o'tagan. Lekin bugun ilm-fan, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanyapti, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari kengay-yapti, yangi fan tarmoqlari va innovatsion yondashuvlar o'rta ga chiqyapti.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, loyihalash texnologiyalari asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu metodika quyidagi ustuvor afzalliklarni beradi:

1. **Kasbiy bilimlarni chuqurlashtiradi** – biologiya fanining fundamental asoslarini puxta egallash, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. **Metodik tayyorgarlikni oshiradi** – dars jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarni faol o'qitish metodlarini tanlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

3. **Ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi** – talabalarni yangicha g'oyalar ishlab chiqish, mustaqil tadqiqot olib borish va natijalarni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiradi.

4. **Kommunikativ kompetensiyalarni kuchaytiradi** – loyiha ishlari jarayonida talabalar jamoada ishlash, o'z fikrini asoslash, himoya qilish va boshqalar fikrini hurmat qilishni o'rganadi.

5. **Kasbiy motivatsiyani oshiradi** – biologiya faniga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, o'qituvchilik kasbiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Shu bois, biologiya ta'limida loyihalash texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy-metodik tomondan ham yetuk, zamonaviy pedagogik kompetensiyalarga ega mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ularning metodik tayyorgarligi qanchalik kuchli bo'lsa, maktab ta'limi jarayoni ham shunchalik samarali va mazmunli kechadi.

Natijada, bo'lajak biologiya o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatini zamon talablari asosida olib borishga, innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishga va o'quvchilarni ilm-fanga qiziqitira oladigan yetuk mutaxassis sifatida jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga tayyor bo'ladilar.

Ta'lim uslubining amalga oshirilishi pedagog faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. U tayyor bilimlar tashuvchisidan o'z talabalarining bilish faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi. O'quv xonasidagi psixologik muhit ham o'zgaradi, chunki pedagogga o'z o'quv-tarbiya ishi va talabalarning ishini turli-tuman mustaqil faoliyatlariga, tadqiqot, izlanish, ijodiy xarakterdagi faoliyat ustunligiga qaratishiga to'g'ri keladi. Barcha loyihalarga tashqi baho zarurligi to'g'risida alohida shuni qayd etish lozim, chunki faqat shu yo'l bilan ularning samaradorligi, kamchiliklar borligini, o'z vaqtida tuzatish ishlarini olib borish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kuychiyeva M.A. Biologiya fanini o'qitishda fanlararo bog'lanishlarning o'rni va ahamiyati // Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - B. 34-37. (13.00.00; №10)

2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o'qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57. (13.00.00; №32).

3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189).

4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115)

*Turayeva Nargiza Nasrullayevna,
SamDAQU "O'zbek tili va adabiyoti"
kafedrası dotsenti
nargizaturayeva@gmail.com*

O'QUV JARAYONINING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLASHNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Annotatsiya. Maqolada o'quv jarayonining innovatsion texnologiyalarning qo'llashning pedagogik mohiyati yoritil o'tilgan bo'lib, Unda zamonaviy ta'lim-tarbiyaning talablari, talabalarni shaxsining rivojlanishi va o'qitish mohiyatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi tahlil qilingan. Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlari bilan o'qitish kabi texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri yoritilib, ularning afzalliklari hamda ta'limdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, o'quv jarayoni, pedagogik mohiyat, interfaol o'qitish, masofaviy ta'lim, modulli o'qitish.

Аннотация. В статье раскрывается педагогическая сущность использования инновационных технологий в образовательном процессе, анализируются требования современного образования, развитие личности учащихся и применение инновационных технологий для повышения качества образования. В статье освещается влияние таких технологий, как информационно-коммуникационные технологии и интерактивные методы обучения, на образовательный процесс, а также показаны их преимущества и значение в образовании.

Ключевые слова: Инновационные технологии, образовательный процесс, педагогическая сущность, интерактивное обучение, дистанционное обучение, модульное обучение.

Annotation. The article highlights the pedagogical essence of the use of innovative technologies in the educational process, analyzes the requirements of modern education, the development of students' personalities and the use of innovative technologies in improving the essence of education. The article highlights the impact of technologies such as information and communication technologies, interactive teaching methods on the educational process, and shows their advantages and importance in education.

Keywords: Innovative technologies, educational process, pedagogical essence, interactive learning, distance learning, modular learning.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va ularni zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda tayyorlashda asosiy vazifalarda biri bo'lib hizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida keng qo'llanilishi, interfaol metodlarning joriy etilishi hamda masofaviy ta'lim shakllarining rivojlanishi bu ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirishga olib keladi. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llashda talabalarning texnologik taffakurini shakllantirishda kreativ fikrlashda pedagog o'qituvchning o'rni katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning pedagogik mohiyati va ta'lim sifatini yaxshilashdagi roli tahlil qilinadi [1].

Mazkur maqolada ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning pedagogik mohiyati yoritilgan. Unda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning roli, o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish kabi jihatlar asosiy e'tiborda bo'lgan.

Innovatsion texnologiyalar orqali o'qitish an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, interaktiv, ijodiy va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga, o'z fikrini erkin ifoda etishiga, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [3].

Shuningdek, maqolada turli innovatsion texnologiyalar – modulli o'qitish, muammoli ta'lim, AKT (axborot-kommunikatsion texnologiyalar), interaktiv usullar va case-stadi kabi yondashuvlar misol keltirilgan va ularning pedagogik afzalliklari tahlil qilingan.

Maqola mavzusiga oid adabiyotlar tahlilida, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilinganligi aniqlanadi.

Masalan, A.X. Abdullayev (2020) innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqadi [1]. Shuningdek, Z.I. Mirzaev (2019) axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Ularning tadqiqotlarida innovatsion yondashuvlarning talaba faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va kreativlikni rivojlantirishga ta'siri alohida ta'kidlangan [2].

Metodologik jihatdan, ushbu maqolada tahliliy va solishtirma usullar qo'llanildi. Tahliliy usul yordamida mavjud adabiyotlar va ilmiy manbalar o'rganilib, mavzuning nazariy asoslari aniqlangan. Solishtirma usul esa turli innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligini taqqoslashda ishlatilgan. Shuningdek, interfaol va masofaviy o'qitish usullarining pedagogik samaradorligi haqida ma'lumotlar yig'ildi [4,5].

O'zgaruvchan ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodlar doimiy rivojlanib bormoqda. Shu bois, maqolada ko'rsatilgan metodlar zamonaviy ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni shakllantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning pedagogik mohiyati bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi [6,7]:

Kirish. Zamonaviy jamiyatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Mavjud voqeliklarga munosabat bildirgan holda, mahalliy ta'lim tizimi ham o'zgarib bormoqda, bu esa innovatsion ta'lim va o'quvchilarning ijodiy rivojlanishini malakali, ijodiy, professional darajada amalga oshira oladigan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Insonparvarlik paradigmasi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy qadriyati sifatida subyektning ijodiy salohiyatga tayangan holda kasbiy faoliyatda o'zini namoyon qilish qobiliyati e'tirof etiladi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanish samaradorligi kasbiy kompetentlik bo'lib, uning shakllanishiga uzluksiz pedagogik ta'lim yordam beradi.

Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29.12.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday degan edi: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim".

Ta'lim konsepsiyasida o'qituvchi mohiyati nafaqat bilimlarni uzatish bo'lgan kasb, balki shaxsni yaratish, insonni insonda qaror toptirishning yuksak missiyasi ekanligi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, oliy kasbiy-pedagogik ta'lim tizimining maqsadi yangi tipdagi, insonga yo'naltirilgan pedagogning uzluksiz umumiy va kasbiy rivojlanishi sifatida taqdim etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy malakasi – uning bilimlari va salohiyatining ajralmas qismidir. Faqat professional malakali o'qituvchi o'quvchining shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishning oqilona usullarini topishi mumkin. Har bir o'quvchining o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda malakali shaxs sifatida shakllanishi o'qituvchilarning ma'lumoti va kasbiy mahorati, davlat va xalq oldidagi fuqarolik javobgarligi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ta'lim dasturi O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'limning davlat majburiy standarti talablariga muvofiq boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Boshlang'ich umumiy ta'limning sifat jihatidan yangi tizimini shakllantirish o'qituvchining kasbiy mahorat darajasiga bog'liq. Boshqa tomondan, bu o'quvchilarning rivojlanishi va ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining asosiy shartlaridan biridir. Binobarin, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zini takomillashtirishga, yangi kompetensiyalarni o'zlashtirishga, ya'ni uzluksiz kasbiy ta'limni amalga oshirishga tayyor bo'lishi kerak, uning tarkibiy qismi esa o'z-o'zini rivojlantirishdir.

Adabiyotlar tahlili. "O'z-o'zini rivojlantirish" ta'rifi "kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish" tushunchasining bir qismi bo'lib, asosiy semantik yukni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda turli fan vakillari o'z-o'zini rivojlantirish muammosini o'rganishmoqda: falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "o'z-o'zini rivojlantirish" va "o'qituvchining o'zini o'zi rivojlantirishi" ko'p qo'llaniladigan tushunchalar hisoblanadi. An'anaga ko'ra, adabiyotlarda "o'z-o'zini rivojlantirish" psixologik va pedagogik bilimlar tekisligida ko'rib chiqiladi. "O'z-o'zini rivojlantirish" tushunchasining talqinlari uni shakllantirishga yagona yondashuvni aks ettiradi. Bu: "shaxsning o'zi tomonidan boshqariladigan maqsadli kognitiv faoliyat, fan, texnika, siyosiy hayot, madaniyatning har qanday sohasida tizimli bilimlarni egallash [1]," o'qituvchining yordamisiz amalga oshiriladigan jarayon [2] muayyan shaxsga, yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan, mustaqil, tizimli, kognitiv faoliyat: kognitiv qiziqishlarni qondirish, umummadaniy va kasbiy talablar va kasbiy malaka oshirish,

bu odatda ta'limning tizimlashtirilgan shakllari asosida qurilgan, ammo sub'ektning o'zi tomonidan tartibga solinadi" [3]. Oxirgi ta'rifda o'z-o'zini rivojlantirishning belgilangan maqsadlari orasida konsepsiyaning professional tarkibiy qismi aniq ko'rinadi, bu esa ushbu kontekstda "professional o'z-o'zini rivojlantirish" tushunchasi bilan sinonim ekanligini tasdiqlashga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Boloniya shartnomasiga a'zo mamlakatlardagi o'qituvchilar kasbiy faoliyati davomida kasbiy kompetensiyalar to'g'risida yagona tushunchaga ega. Uning shakllanishi kasbiy dasturni ishlab chiqish davrida boshlanadi, so'ngra o'qituvchining vazifasi ularni yangilab turishdir. Masalan, Germaniyada kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiya sohasi innovatsiya bo'lib, uning mohiyati o'z kasbini doimiy o'rganish vazifasi sifatida tushunish zarurligiga asoslanadi [4]. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar butun kasbiy faoliyat davomida o'zgarasligidan kelib chiqib, Germaniya oliy ta'lim muassasalarida o'qish davrida bo'lajak o'qituvchilar birinchi bosqichdan mustaqil tadqiqot ishlariga jalb qilinadi. M.B.Belikayeva [5] o'z tadqiqotida chet el oliy maktabida talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi oliy maktabni tugatgandan so'ng uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi; samarali ijodiy fikrlash; mantiqiy tahlil qilish qobiliyati va iste'mol qilinadigan ma'lumotlarni har tomonlama ishlab chiqish qobiliyati.

Kasbiy kompetentlik, o'z ustida ishlash, o'zini rivojlantirish va takomillashtirish muammosi mutaxassisning ustuvor xususiyati sifatida so'nggi o'n yilliklarda pedagogika fanining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu fenomenni o'rganishga mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan V.A.Adolf, A.S.Belkin, Yu.V.Vardanyan, B.S.Gershunskiy, E.F.Zeyer, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Slastenin, M.A.Xolodnaya va boshqalarning ishlari bag'ishlangan. Ularning tadqiqotlari natijalari oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlashni uning rivojlanish tendensiyalariga muvofiq qayta yo'naltirishdan iborat bo'ldi. N.Abidenova, A.Ajibayeva, Ye.Borisova, N.Demeneva, I.Makarovskaya, A.Moroz, S.Petropavlovskaya, Ye.Rogov, A.Rizbaeva, V.Slastyonin, V.Tarantey, N.Shepilova, M.Yaniskiylarning tadqiqotlarida o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-psixologik va didaktik moslashuvi masalalari o'rganilgan.

Bundan tashqari, manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogika fanida kasbiy kompetentlikni o'z ustida ishlash orqali shakllantirishga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni tizimli (V.V.Krayevskiy, V.S.Ilin va boshqalar), faoliyatli (I.A.Zimnyaya, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn va boshqalar), shaxsga yo'naltirilgan (Ye.V.Bondarevskaya, E.F.Zeyer, S.V.Kulnevich, I.S.Yakimanskaya va boshqalar), kontekstli (A.A.Verbitskiy va boshqalar), kompetensiyaviy (V.A.Bolotov, E.F.Zeyer, T.V.Ivanova, Ye.Ya.Kogan va boshqalar) yondashuvlar doirasida tizimlashtirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'qituvchining pedagogik yo'nalganligini shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan (A.A.Orlov, S.T.Kargin, I.Ya.Festoves va b.); kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (O.Yu.Yelkina, I.A.Kolesnikova, N.V.Kuzmina, N.D.Levitov, I.Ya.Lerner, A.V.Martinova, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin va b.), pedagogik ijod manbalarining mohiyatini aniqlash (V.I.Andreev, V.I.Zagvyazinskiy, Yu.N.Kulyutkin, T.S.Panina, M.M.Potashnik va b.); o'qituvchi kasbiy faoliyatining psixologik asoslarini aniqlash (L.S.Vigotskiy, A.V.Leontev, A.M.Matyushkin, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin va b.).


Har qanday tizimli obyektning o'ziga xos xususiyati elementlar o'rtasidagi rivojlangan aloqa va ularning tartiblilik bo'lib, bu uning yaxlit xususiyatini belgilaydi [6]. I.V.Blauberg tizim deganda "alohida elementlarning xossalardan tashqari o'zining alohida sistemali sifatlariga ega bo'lgan, o'zaro bog'liqlikda bo'lgan, yagona bir butunlikni ifodalovchi elementlar kompleksini" tushunadi. [7]. Obyektiv borliqni o'rganishga tizimli yondashuvdan foydalanish, muallifning fikricha, nafaqat o'rganilayotgan obyekt, uning xususiyatlari va belgilari haqida bilim olish, balki uning ichki tuzilishini ko'rib chiqish, uning kattaroq va

kengroq tizimdagi o'zni va rolini, tashqi muhit bilan bog'liqligini ko'rsatish imkonini beradi [8].

Tizimli yondashuvga tayangan holda biz bo'lajak o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishni o'qituvchi va talabaning hamkorlik va o'zaro hurmat asosida qurilgan subyekt-subyekt munosabatlari asosiy o'rin tutadigan tizim sifatida ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, tadqiqotimizga tizimli yondashuvni qo'llash boshlang'ich sinf o'qituvchisining kompetentligi tuzilmasi va uning tarkibiy komponentlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.


Tahlil va natijalar. O'z-o'zini rivojlantirish – bu o'qituvchining nazariy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud bo'lgan bilimlarni takomillashtirish va pedagogik va psixologik fanlarning zamonaviy talablari asosida yangi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash bo'yicha maqsadli ishdir. O'qituvchining o'zini o'zi o'qitishi samarali o'qitish va kasbiy muvaffaqiyatda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu nafaqat kasbiy rivojlanish yo'li, balki talabalarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish uchun ham zarurdir. O'z-o'zini rivojlantirish deganda odamlar maqsadlarga erishish uchun idrok, motivatsiya, xatti-harakatlar va his-tuyg'ularni faollashtiradigan va saqlaydigan strategik va moslashuvchan jarayonlar tushuniladi.

Etiyojlar, qiziqishlar, o'z-o'zini rivojlantirishning sabablari uning tuzilishining eng muhim elementi bo'lib, bir qator olimlar tomonidan o'z-o'zini rivojlantirishning motivatsion tarkibiy qismiga kiritilgan. G.M.Kojaspirova motivatsion, kognitiv, protsessual, tashkiliy, axloqiy-irodaviy komponentlarni o'z-o'zini rivojlantirishning tarkibiy qismlari sifatida ataydi [9]. Jumladan, o'z-o'zini rivojlantirish komponentlarini tahlil qiladigan bo'lsak unga shaxsiy, gnostik, operatsion va boshqaruv komponentlari kiradi.



Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalarini amalga oshirishning asosiy ilgari surilan qarashlari shaxsni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, uni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy-ehtiyoj jihatidan to'laqonli darajagacha takomillashtirish haqidagi falsafiy-pedagogik konsepsiyasiga e'tibor qaratish bo'lgan. O'quv-tarbiya jarayonining maqsadi bu pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuv, bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy madaniyat (pedagogik etika), axloqiy va ma'naviy qiziqishlarni shakllantirish; bilimlarni, eng avvalo, kasbiy bilimlarni faol egallash, intellektual rivojlanish (ayniqsa, pedagogik fikrlash); bo'lajak o'qituvchi shaxsini rivojlantirishga individual yondashuv hamda bo'lajak o'qituvchi shaxsini yaxlit rivojlantirishning yangi metodlari, usullari, yo'llari va vositalarini izlash iborat.

“Ta’lim – zaruriy fazilat” deb hisoblagan buyuk mutafakkirimiz A.Navoiy. Buyuk qomusiy olim Ibn Sino o’zining “Shayx Rais” risolasida pedagogik mahorat, uning pedagog faoliyatida namoyon bo’lishi haqida gapirgan. Bular go’yo pedagog amal qilishi lozim bo’lgan o’ziga xos tavsiyalardir:



O’z-o’zini rivojlantirish turli fanlarning e’tiborini tortadi, ularning har biri uni o’z nuqtai nazaridan o’rganadi. Shunday qilib, bir qator mualliflarning fikriga ko’ra, “o’z-o’zini rivojlantirish” deganda, ta’lim muassasasida tizimli tayyorgarlikdan o’tmasdan, mustaqil ish jarayonida inson tomonidan olingan ta’lim tushuniladi. O’z-o’zini rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas qismi bo’lib, u tashkil etilgan o’qishning diskret bosqichlari o’rtasidagi bog’lovchi bo’g’in rolini o’ynaydi, ta’lim jarayoniga yaxlit va yuksalish xarakterini beradi. [10]. Pedagogik jarayonning qonuniyatlari, tamoyillari va qoidalarini asoslash umumiydir, nazariy tahlilsiz pedagogik amaliyot bilan samarali shug’ullanish mumkin emas. Buyuk gumanist o’qituvchi V.A.Suxomlinskiy ham shunday yozgan: “pedagogik fan insonga ta’sir qilishning o’nlab va yuzlab bog’liqliklari va o’zaro bog’liqliklarini o’rganmaydigan darajada orqada qolmoqda. U pedagogik hodisalarning eng nozik va o’zaro bog’liqligini o’rganib, tushuntirgandagina aniq haqiqiy fanga aylanadi” [11].

Xulosa. O’z-o’zini rivojlantirish bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining kasbiy faoliyati uchun juda muhim bo’lib, zamonaviy ta’lim talablariga javob berishga va samarali o’qituvchi bo’lishga, kasbiy bilimlarni doimiy ravishda kengaytirishga va yangi pedagogik texnologiyalarni o’zlashtirishga, inklyuziv ta’lim, yangi ta’lim standartlarini joriy etish kabi kasbiy faoliyat muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishda; ijodkorlikni rivojlantirish va innovatsion pedagogik mahsulotlarni yaratishga; kasbiy o’sish uchun o’z-o’zini takomillashtirish va motivatsiyaning yuqori darajasini ta’minlashga imkon beradi. O’z-o’zini rivojlantirish kompetensiyasi o’zining kuchli va zaif tomonlarini anglash ko’nikmalarini, maqsadlarni belgilash va ularga erishish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatini, shuningdek konstruktiv tanqidni qabul qilishga va doimiy o’sishga intilishni o’z ichiga oladi. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari yangi o’qitish usullarini o’rganishga, innovatsion yondashuvlarni izlashga va professional jamoalarda ishtirok etishga tayyor bo’lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Российская педагогическая энциклопедия: в 2 т. Т. 2. / гл. ред. В. В. Давыдов. - М.: БРЭ,- С. 306.

2. Ожегов, С. И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. [4-е изд., доп.]. - М.: Азбуковник, 1999. - С. 695.
3. Коджаспирова, Г. М. Словарь по педагогике / Г. М. Коджаспирова, А. Ю. Коджаспиров. - М.; Ростов н/Д: MapT, 2005. - 448 с.
4. Standards für die Lehrerbildung: Bildungswissenschaften [Electronic resource]: Beschluss der Kultusministerkonferenz vom 22.10.2004. RL:http://lakk.stsgymmarburg.bildung.hessen.de/modul/KMK_Standards_Lehrerbildung.pdf (mode of access: 25.02.2018)
5. Беликаева, М. Б. Формы организации самообразования студентов за рубежом для формирования профессиональной мобильности / М. Б. Беликаева // Вестник Кемеровского государственного университета. - 2015. - 1-4 (61). - С. 97-100.
6. Словарь по социальной педагогике [Текст]: Учеб. пос. для студ. высш. учеб. зав. / Авт.-сост. Л. В. Мардахаев. - М.: Издательский центр «Академия», 2002. - 368 с.
7. Блауберг, В. И. Проблемы методологии системного исследования [Текст] / В. И. Блауберг. - М. - 1970. - 21 с.
8. Блауберг, В. И. Становление и сущность системного подхода [Текст] / В. И. Блауберг, Э. Г. Юдин - М. - 1973. - 270 с.
9. Словарь по социальной педагогике: Учеб. пособие / Авт.-сост. Л. В. Мардахаев. - М.: Академия, 2002. - 368 с.
10. Словарь по социальной педагогике: Учеб. пособие / Авт.-сост. Л. В. Мардахаев. - М.: Академия, 2002. - 368 с.
11. Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. - Киев, 1988. - 214 с.

Askarov Ixtiyorjon Baxtiyorovich,
Jizzax politexnika instituti
“Transport vositalari muhandisligi” kafedrası professorı, p.f.f.d.
E-mail: ixtiyor.8778@mail.ru

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik va didaktik asoslari yoritilgan. Ta‘lim jarayonida ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, innovatsion metodlar, axborot texnologiyalari va xorijiy tajribalar asosida muhandislik ta‘limida tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak muhandislar, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, pedagogik asoslar, didaktik asoslar, innovatsion metodlar, axborot texnologiyalari.*

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические и дидактические основы подготовки будущих инженеров к научно-исследовательской деятельности. Особое внимание уделяется формированию исследовательских навыков, умению принимать самостоятельные решения в проблемных ситуациях, а также интеграции теоретических знаний с практикой. Кроме того, анализируются пути развития исследовательского потенциала в инженерном образовании на основе инновационных методов, информационных технологий и зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *будущие инженеры, научно-исследовательская деятельность, педагогические основы, дидактические основы, инновационные методы, информационные технологии.*

Abstract. *This article examines the pedagogical and didactic foundations of preparing future engineers for scientific-research activities. The focus is on developing research skills, fostering independent decision-making in problem situations, and integrating theoretical knowledge with practical application. Furthermore, the study explores ways to enhance research potential in engineering education through innovative methods, information technologies, and international best practices.*

Key words: *future engineers, research activity, pedagogical foundations, didactic foundations, innovative methods, information technologies.*

Kirish. *Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasida “Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida: oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa oliy ta‘lim muassasalari oldiga bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish, bu borada pedagogik tadqiqotlarni olib borish kabi vazifalarni yuklaydi [1].*

Kreativ yondoshuv asosida bo‘lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishda belgilangan topshiriq va vazifalarni tizimli tahlil qilish, talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun fanning metodologik ta‘minotini ishlab chiqishning pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda o‘qituvchilardan har bir talabaga kreativ yondoshish va talabani individual ta‘lim olishga yo‘naltirish talab etiladi [2].

Adabiyotlar tahlili. *Pedagogikada “shart-sharoitlar” - deganda pedagogik tizimi ishlash samaradorligiga bog‘liq omillar, holatlar tushuniladi. Zamonaviy didaktikada “shart-sharoit”*

tushunchasi o'qitishning muvafaqiyatligini ta'minlovchi omillar, komponentlar yig'indisi – deb izohlagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki didaktik shart-sharoit – deganda o'quv jarayonning muhim komponenti tushuniladi, u o'zida qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan, o'quv jarayonning ma'lum o'lchovlari yig'indisini bir butun holatda umumlashtiradi.

Kreativ yondoshuv asosida o'qitishning maqsadi - obyektiv voqelikni yetarli darajada aks ettiruvchi, faoliyat ko'rsatuvchi, individual tarzda bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish har bir talabanning shaxsiy maqsadiga aylanadi. O'quv jarayonida bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish ishlari har bir talabanning ongida bajarilishi kerak va uni boshqa hech kim bajara olmaydi. Lekin bu ish o'ta murakkab va talabdan ko'p energiya talab qiladi. Shuning uchun uning muvaffaqiyati malakali o'qituvchining yordamini talab qiladi.

Kreativ yondoshuv bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish faoliyatini rejalashtirish talabanning o'zi ixtiyoriy qaroriga asoslanishi kerak, talabalarni o'z faoliyatini loyihalash va tashkil etishga undash kerak, chunki ongli tanlov va to'g'ri qaror qabul qilish jarayoni kelajakni tushunishga yordam beradi [3].

Bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashni *rivojlanishning* alohida tashkiliy, pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Zaruriy va yetarlicha shart-sharoitlarni aniqlash uchun biz "shart-sharoit" tushunchasining mohiyatiga diqqat qaratishimiz lozim.

Shart-sharoit deganda metodologlar qandaydir obyektning paydo bo'lishi, mavjudligi, o'zgarishi uchun zarur bo'lgan obyektlar (munosabatlar, narsalar, jarayonlar va shu kabilar) jamlamasini tushunadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik tadqiqotlar amaliyotida faoliyatning qandaydir turiga talabalarni samarali tayyorlashga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlar deganda shunday tayyorgarlikning mohiyat jihatini yig'uvchi qilish bilan o'quvchilar tomonidan zarur darajaga erishishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Pedagogik shart-sharoitlar dialektik o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi yetarlicha va zaruriy shart-sharoitlar yig'indisini bildiradi, o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab oladi va moslashuvchanlik bilan, ya'ni fanlararo aloqadorlik asosda o'quvchilarning doimiy yangilanib boruvchi talablarini hisobga olish bilan ajralib turadi.

Kreativ yondoshuv asosida bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashni rivojlantirishda talabalarda kreativlik qobiliyatlarini, ya'ni, talabalar tomonidan yangi bilimlarni va aqliy faoliyat usullarini o'zlashtirishning turli **darajalarini**, fikrlashning turli darajalarini ham aks ettiradi. O'qituvchi bilan talabanning o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra kreativ yondoshuv asosidagi ta'limni shartli ravishda 4 darajaga ajratish mumkin:

1-jadval

O'qituvchi bilan talabanning o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra ta'limning darajalari

| Ta'lim darajalari | Darajalar nomi | O'qituvchi va talaba faoliyati |
|-------------------|---|--|
| I daraja | <i>Oddiy nomustaqil tadqiqotchilik faoliyat</i> | talabalarining o'qituvchining tushuntirishlarini idrok etishi, muammoli vaziyatda aqliy harakat modelini o'zlashtirishi, mustaqil ishlarni bajarish, takror ishlab chiqarish xarakteridagi mashqlardir |
| II daraja | <i>Yarim mustaqil tadqiqotchilik faoliyat</i> | olingan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash va talabalarining o'qituvchi bilan birgalikda qo'yilgan ta'lim muammosini hal qilish yo'lini izlashda ishtirok etishi bilan tavsiflanadi |

| | | |
|-------------------|---|--|
| III daraja | <i>Mustaqil tadqiqotchilik faoliyat</i> | reproduktiv-qidiruv tipidagi tadqiqot ishlarini bajarishni ta'minlaydi, bunda talaba tadqiqotchilik faoliyati bo'yicha mustaqil ishlaganda, olingan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llaganida o'rtacha hisobdagi muammoning yechimini tuzsa va murakkablik darajasini mantiqiy tahlil orqali farazlarni isbotlasa -bu holda o'qituvchining yordami minimal bo'ladi |
| IV daraja | <i>Ijodiy tadqiqotchilik faoliyat</i> | Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati tasavvurini, mantiqiy tahlilni, yechishning yangi usulini topishni, mustaqil isbotlashni talab qiladigan tadqiqotchilik ishlarini bajarishni tavsiflaydi. Bu darajada mustaqil xulosalar va umumlashtirishlar, ixtirolar qilinadi |

Kreativ yondoshuv asosidagi ta'lim murakkabligiga ko'ra turli darajada bo'lishi, ya'ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi.

birinchi daraja – o'z holicha vujudga kelib qolgan muammolar bo'lib, dars mashg'ulotlarining turli shakllarida va turli vaziyatlarda surunkali holda vujudga keladi va talaba ko'rsatmalar asosida, o'qituvchi rahbarligida ilmiy ish olib boradi, mustaqil fikrlash va yechim topish darajasi past bo'ladi.

ikkinchi daraja – o'qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talaba muammolarni hal qilishda o'qituvchi ko'magidan qisman foydalanadi, ayrim hollarda mustaqil yechimlar taklif etadi.

uchinchi daraja – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

to'rtinchi daraja - muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o'zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko'ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o'rganadilar. Bu kreativ ta'limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. talaba mavjud bilimlar va uslublarni innovatsion tarzda qo'llaydi, yangi ilmiy g'oyalar yaratadi va o'ziga xos tadqiqot metodlarini ishlab chiqadi. O'qituvchi esa kuzatuvchi va ba'zan yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

Bo'lajak muhandislarlarini ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashga maqsadli o'zaro ta'sirlashuv jarayonida va talaba shaxsga quyidagi yo'nalishlarda shart-sharoitlar, imkoniyat yaratish omillari orqali erishish mumkinligi asoslandi: ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati motivlarini faollashtirish; ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati sharoitlari va mazmuni haqida talabalarda bilim va tasavvurlar tizimini shakllantirish; talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilim va ko'nikmalarini o'quv jarayoniga kiritish orqali shakllantirish [5].

Dars mashg'ulotlariga kreativ yondashish muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi. Talaba tomonidan qiyinchilikning mohiyatini tushunish, agar u o'rganilgan harakat usullarining obyektiv asoslarini tushunsa va bu asoslarning hal qilinayotgan muammoning haqiqiy shartlariga muvofiqligini kuzata olsa mumkin bo'ladi.

Bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlariga aniqlik kiritish psixologik-pedagogik adabiyotlarda muammoning qay darajada ekanligini, jamiyatning ijtimoiy tartibini, yo'nalishning malaka talablari, talabalar kreativ yondoshuv asosidagi ta'limini faollashtirish darajalari hamda mezonlarini o'z ichiga qamrab olishini nazarda tutgan, tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashni tashkil etish metodikasini takomillashtirishda quyidagi didaktik shartlarni belgilab oldik:

Kreativlik sharti: Muammoli o'qitish, loyihaviy ta'lim, interaktiv metodlar, tadqiqotga asoslangan o'rganish (Research-Based Learning) kabi usullardan foydalanish. Talabalarning mustaqil tahliliy fikrlashini va yangilik yarata olish qobiliyatini rag'batlantirish.

Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish sharti - texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan boshqarish faoliyatda va ilmiy-amaliy faoliyatda axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, axborot texnologiyalarining avtomatlashtirilgan tizimlarini kasbiy faoliyati jarayonida foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;

O'quv muhitini ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga yo'naltirish sharti - Bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda samarali natijaga erishish uchun o'quv muhitini maxsus tarzda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy izlanishga yo'naltirilgan o'quv muhit talabalarning ilmiy faolligini, mas'uliyatini, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi (A.V. Khutorskoy, V.V. Kraevskiy, Z.I. Kalmykova va boshqalar). Bu esa ularni kelgusida samarali muhandis-tadqiqotchi sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Bunday muhit: ilmiy izlanishlarga yo'naltirilgan resurslar bilan boyitilgan bo'lishi, amaliy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi texnik va texnologik vositalar bilan jihozlangan bo'lishi, hamkorlikda ishlash, fikr almashish, muammoli vaziyatlarni hal qilish imkoniyatini yaratishi kerak.

Amaliy ifodasi: maxsus jihozlangan ilmiy laboratoriyalar va tajriba markazlari, muhandislik yo'nalishlariga mos zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi, ilmiy to'garaklar, klub va seminarlar faoliyatini yo'lga qo'yish talabalarni ilmiy izlanishlarga qiziqtirish, ularni turli loyihalarda ishtirok ettirish orqali faol o'quv muhitini yaratadi.

Modellashtirish sharti – transport vositalari muhandisligi tizimlarini modellashtirishning ilmiy asoslarini hamda mazkur tizimlarni iqtisodiy, texnologik va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish usullarini ishlab chiqishda matematik, informatsion va imitatsion modellarni yaratish va tadqiq etish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim;

Didaktik ta'minot sharti - talabalarning *ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlanishini* tashkil etishda yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi shart. Bu shart o'qitish samaradorligining talaba rivojlanish darajasi va unda muhandislik kompetentligining shakllanganligiga bog'liqligini o'zida aks ettiradi. Bu shartni joriy etishda o'quv jarayonini talaba bilimlarni mustaqil individual faoliyat jarayonida oladigan tartibda tashkil etish talab qilinadi.

Ilmiy rahbarlik tizimi – bakalavrdan to DSc bosqichigacha ustoz-shogirt an'anasini to'g'ri yo'lga qo'yish. Yuqori malakli olimlar bilan hamkorlik qilish sharoitini yaratib berish.

Natijaviylik sharti – talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatidagi faolliigi, mustaqilligi, kreativligi va natijadorligi asosida baholash, natijasi va samaradorligini tahlil qilish. Bu o'qitishning shunday tashkiliy shakli va talabaning individual o'quv faoliyatini boshqarish vositasini tanlash hisoblanadiki, talabaning individual faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishni ta'minlasin. Bu o'quv materialini o'zlashtirish sifati, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilishni shunday tashkil etishki, bunda u nafaqat mashg'ulot yakuni bo'yicha, balki talabaning o'quv-biluv jarayonida amalga oshiriladi. Bu shart o'qitish samaradorligini oshirish va talabada muhandislik kompetentligining rivojlanishida uning individual faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalarini to'g'ri tanlashga bog'liqligini o'zida aks ettiradi. Bu shartda talabada individuallik asosida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining uzluksiz o'sishiga zamin yaratadi va buning uchun talabaning individual faoliyatiga rahbarlik qilish va mashg'ulot mazmunini tashkil etish talab etiladi.

Xulosa. Kreativ yondoshuv asosida bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda

o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi **didaktik sharoitlarga** amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- **motivatsion sharoit:** izlanishlarida o'z tashabbuslarini ilgari surishga rag'batlantirish, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishida individual faoliyatning o'rni va rolini asoslash, talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;

- **infratuzilmaviy sharoit:** Bo'lajak muhandislar ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini olib borishlari uchun zarur infratuzilmaviy sharoitlar bilan ta'minlash, xususan: ilmiy-laboratoriyalar, tadqiqot markazlari, texnoparklar, muhandislik maktablaridan foydalanish imkoniyatini yaratish.

- **o'quv-didaktik va metodik sharoitlar:** O'quv adabiyotlari, kutubxonalar, elektron resurslar, ilmiy axborot bazalaridan foydalanish. Kreativ yondoshuv asosida talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va talabalarning muhandislik tafakkurini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va web texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarning kreativ tarzda faoliyatini amalga oshirishning uslubiy ta'minotini ishlab chiqish. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan didaktik va pedagogik vositalar, zarur shart-sharoitlarni hamda o'quv didaktik muhitni vujudga keltirish, zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Аскарлов И. Б. (2017). Управление и планирование процессом формирования исследовательских умений и навыков будущих преподавателей профессионального образования. Школа будущего, (2), 10-15.

2. Аскарлов И. Б. (2017). Основные подходы и принципы подготовки будущих педагогов профессионального обучения к исследовательской деятельности. Актуальные научные исследования в современном мире, (2-6), 25-32.

3. Аскарлов И. Б. (2016). Подготовка к исследовательской деятельности будущего педагога профессионального обучения. In Педагогическое мастерство (pp. 39-42).

4. Альтшуллер Г.С., Верткин И.М. Как стать гением: Жизненная стратегия творческой личности. - Мн.: Беларусь, 1994. - 479 с.

5. Гирфанова Е.Ю. Стимулирование исследовательской деятельности студентов высшей школы: дис....канд. пед. наук.: - Казань, 2005, 201с.

6. Днепров Э.Д. Модернизация российского образования: документы и материалы. - М.: ГУ ВШЭ, 2002. - 198 с.

7. Никандров Н.Д. Перспективы развития образования в России. Философия образования. - 2006. - № 1 (15), - С. 4-12.

Yarmatov Raximboy Baxramovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti p.f.d., professor,
Akramova Zuxra Botir qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI EMOTSIONAL INTELEKT ORQALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini emotsional intellekt orqali rivojlantirish mexanizmlari haqida fikr yuritilib, pedagogik, psixologik, metodik va kommunikativ kompetensiyalar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, uzluksiz ta'lim tizimining o'rni va pedagogika oliy ta'lim muassasalarining roli hamda zamonaviy o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar va ularning kasbiy mahoratini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik kompetensiya, emotsional intellekt, psixologik kompetensiya, metodik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kasbiy rivojlanish, uzluksiz ta'lim, pedagogik mahorat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы развития эмоционального интеллекта профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов. Подчеркивается важность педагогических, психологических, методических и коммуникативных компетенций в повышении качества начального образования. Приводится информация о проводимых реформах, обеспечивающих профессиональное развитие будущих учителей, роли системы непрерывного образования и высших педагогических учебных заведений, а также требованиях к современным учителям и путях повышения их профессионального мастерства на основе научных исследований.

Ключевые слова: педагогическая компетенция, эмоциональный интеллект, психологическая компетенция, методическая компетенция, коммуникативная компетенция, профессиональное развитие, непрерывное образование, педагогическое мастерство.

Abstract. This article discusses the mechanisms for developing emotional intellect the professional competencies of future primary school teachers. It emphasizes the importance of pedagogical, psychological, methodological, and communicative competencies in improving the quality of primary education. The article provides information on the ongoing reforms aimed at ensuring the professional development of future teachers, the role of the continuous education system and higher pedagogical institutions, as well as the requirements for modern teachers and ways to enhance their professional skills based on scientific research findings.

Keywords: pedagogical competence, emotional intellect, psychological competence, methodological competence, communicative competence, professional development, lifelong education, teaching proficiency.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim tizimining poydevorini yaratishda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Kompetensiya tushunchasi keng qamrovli bo'lib, turli sohalarda har xil ma'nolarga ega. Umuman olganda, kompetensiya – bu shaxsning ma'lum bir faoliyat turini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga egaligini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, o'qituvchining kompetensiyasi uning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga imkon beruvchi nazariy va amaliy bilimlar majmuasi sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Kandidoz vulvovaginit (KVV) homiladorlik davrida keng tarqalgan opportunistik infeksiyalardan biri bo'lib, ayniqsa orttirilgan immuntanqisligi virusi (OIV) bilan kasallangan ayollarda uning uchrash chastotasi, kechishi va davolanishiga oid holatlar murakkablik kasb etadi. Sobel (2016) ta'kidlaganidek, immun tizimi zaiflashgan ayollarda (xususan, OIV bilan yashovchilarda) kandidoz infeksiyasining takrorlanuvchi va og'ir kechish shakllari kuzatiladi. Bu holat immunitet hujayralarining, ayniqsa CD4+ T-limfotsitlar darajasining pasayishi bilan bog'liqdir [1].

Zinchenko va Ivanova (2020) o'z tadqiqotlarida shuni aniqladiki, OIV infeksiyasi mavjud bo'lgan homiladorlarda KVV odatdagidan farqli simptomatika bilan kechadi: ko'proq ichki qichishish, kuchli ajralma va pastki qorin og'rig'i kuzatiladi [2]. Kandidozning an'anaviy tashxisi — klinik simptomlar, mikroskopik ko'rik va madaniyat tekshiruvlari orqali amalga oshiriladi. Biroq, OIV bilan og'rikan homilador ayollarda mikozlar ko'p hollarda noaniq simptomlar bilan kechgani sababli, molekulyar va immunologik usullar diagnostikada muhim rol o'ynaydi (Pappas et al., 2016) [3].

Bundan tashqari, Хамидова va Арипова (2021) o'z maqolalarida real vaqtda PCR asosida Candida albicans va Candida non-albicans turlarini aniqlash OIV fonida yuqori aniqlikka ega ekanligini ko'rsatadi [4]. Davolashda og'irligi va takrorlanuvchanligi inobatga olinadi. Workowski & Bolan (2021) tomonidan ishlab chiqilgan AQShning SO'B bo'yicha tavsiyalarida OIV bilan yashovchi ayollarda KVV holatlarida azollar (flukonazol, itrakonazol) uzoq muddatli (14 kunlik) kurslar bilan tavsiya qilinadi [5].

Sobel (2016) ta'kidlaydiki, oddiy flukonazolga chidamli shtammlar soni OIV bemorlarida ko'proq uchraydi, bu esa alternativ davolash protokollarini ishlab chiqishni taqozo qiladi [1].

Mahalliy mualliflar – Чернуха va boshqalar (2019) o'z izlanishlarida homilador ayollarda flukonazol qo'llanishining xavfsiz dozalari va antifungal vositalarning homila uchun potensial xavfini ham tahlil qilganlar [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari bir nechta muhim tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

• **Pedagogik kompetensiyalar:** Bular o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan bilim va ko'nikmalaridir.[16] Boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi, o'quv rejaları va dasturlarini bilish, darsliklar va o'quv qo'llanmalaridan samarali foydalana olish, turli fanlarni (ona tili, matematika, tabiatshunoslik va boshqalar) o'qitish usullarini egallash pedagogik kompetensiyalarning asosini tashkil etadi. Sinfni boshqarish, ijobiy o'quv muhitini yaratish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quv dasturini tahlil qila olishi, uni o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtira olishi, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) ta'lim jarayonida foydalana bilishi zamonaviy pedagogik kompetensiyalarning ajralmas qismidir.[4, b-87]. O'zbekistonda pedagogik kompetensiyalar tobora ko'proq o'quvchi-markazlashgan ta'lim, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilmogda.

• **Psixologik kompetensiyalar:** Bular o'qituvchining bolalar psixologiyasi, ularning yosh xususiyatlari, individual farqlari haqidagi bilimlarini, shuningdek, o'quvchilar bilan muloqot qilish, ularga psixologik yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini seza bilishi, ularga nisbatan empatiya ko'rsata olishi, ularning hissiy ehtiyojlarini tushuna olishi muhimdir. Pedagogik muloqot o'rnatish, o'quvchilar bilan

ishonchli munosabatlar o'rnatish, sinfda psixologik jihatdan qulay muhit yaratish psixologik kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismlaridir. O'zbekistonda psixologik kompetensiyalar o'qituvchilarga o'quvchilarning xulq-atvorini boshqarish, inklyuziv ta'limni tashkil etish va ijobiy hissiy muhitni yaratishda yordam beradi.

• **Metodik kompetensiyalar:** Bular o'qituvchining turli o'qitish metodlari va texnologiyalari haqidagi bilimlarini, ularni o'quv maqsadlariga muvofiq tanlash va qo'llay olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Darsni rejalashtirish, o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'quvchilarning bilimlarini baholash metodlarini bilish metodik kompetensiyalarning asosini tashkil etadi. O'qituvchi o'qitish metodlarini o'quvchilarning turli xil o'quv ehtiyojlariga moslashtira olishi, texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qila bilishi muhimdir.[11,b-40]. O'zbekistonda metodik kompetensiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, bunda o'qituvchilarning zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalarini o'zlashtirishlari rag'batlantiriladi.

• **Kommunikativ kompetensiyalar:** Bular o'qituvchining o'quvchilar, ularning otionalari, hamkasblari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda yetkaza olishi, o'quvchilarni tinglay bilishi, ularga konstruktiv fikr-mulohazalar bera olishi muhimdir. Nizolarni hal qilish, ijobiy munosabatlar o'rnatish ham kommunikativ kompetensiyalarning muhim qismidir. O'zbekistonda kommunikativ kompetensiyalar o'qituvchilarning barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan samarali hamkorlik qilishlari uchun zarur hisoblanadi.

Tadqiqot muhokamasi. Diagnostika usullariga to'xtaladigan bo'lsak, an'anaviy mikroskopik va madaniyat usullarining sezuvchanligi OIV bilan kasallangan homilador ayollar uchun yetarli emasligi kuzatildi. Shuning uchun molekulyar (PCR) va serologik testlar diagnostikani aniqlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Хамидова va Арипова (2021) tadqiqotlari bilan uyg'un ravishda, bizning natijalarimiz ham Candida turlarini aniqlashda PCR testlarining yuqori aniqligini tasdiqladi. Davolash yondashuvlari bo'yicha esa, antifungal terapiyani shaxsiylashtirish zarurati dolzarb masala sifatida paydo bo'lmoqda. Immun holati past bo'lgan homilador ayollarda flukonazolning uzoq kurslari yoki alternativ azollar (itrakonazol, vorikonazol) bilan davolash ko'proq samara beradi. Shunga qaramay, homiladorlikda bu dorilarning xavfsizlik profili hali ham to'liq o'rganilmagan. Bu esa shifokorlarni har bir klinik holatga individual yondashishga majbur qiladi.

Yana bir muhim jihat - profilaktika va kompleks yondashuvning zarurligi. ART (antiretrovirus terapiya) fonida kandidozning uchrash chastotasi kamaygani kuzatildi. WHO (2021) va CDC (2021) ma'lumotlariga ko'ra, ARTga erta ulanish OIV fonidagi opportunistik infeksiyalarni, jumladan KVVni nazorat qilishga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lim va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi. O'zbekiston ta'lim tizimida "Uzluksiz ta'lim" konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Uzluksiz ta'lim deganda, shaxsning hayoti davomida bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda oshirib borishi tushuniladi.[6, b-39.] Bu prinsip bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Pedagogik amaliyot doimiy ravishda rivojlanib borar ekan, o'qituvchilar ham zamon talablariga moslashishlari, yangi metodlar va texnologiyalarni o'zlashtirishlari zarur.

Uzluksiz ta'lim bo'lajak o'qituvchilarga o'zlarining kasbiy mahoratlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, yangi bilimlar olish, ilg'or tajribalarni o'rganish imkoniyatini beradi. Bu jarayon pedagogik universitetlarda olingan dastlabki bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, butun kasbiy faoliyat davomida davom etishi kerak. Uzluksiz ta'lim o'qituvchilarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish va uni amalga oshirishga yordam beradi.

Ushbu kompetensiyalar bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni ham egallash imkoniyatini beradi. O'quv jarayonida interaktiv metodlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot va master-klasslar keng qo'llaniladi. Shuningdek,

talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etilishi ularning kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, pedagogik, psixologik, metodik va kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanganligi bo'lajak o'qituvchining o'z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlaydi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bugun mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy etilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarga butun kasbiy faoliyatlari davomida o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish imkoniyati bilan bir qadar muhim vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullayeva B. S. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanish metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2016.
2. Abduqodirov A. A., Hayitov O. R. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy tendensiyalari. – Toshkent: TDPU, 2019.
3. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: TDPU, 2003.
4. Ismoilova Z. K. Boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning didaktik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2017.
5. Jumayev M. I. Boshlang'ich sinf matematika darslarida muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2014.
6. Musurmonova O. M. Uzluksiz ta'limning nazariy va metodologik asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2008.
7. Nishonova Z. T. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2010.
8. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
9. Petrovskiy A. V. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1992.
10. Sayidahmedov N. S. Pedagogik mahoratga kirish. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2002.
11. Safarova R. G. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2019.
12. To'raqulov H. A. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirishning didaktik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2015.
13. Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006.
14. Vohidov Sh. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2004.
15. Xo'jayev N. X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Sharq”, 2005.
16. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2004.
17. G'afforova T. I. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2018.
18. G'oziev E. G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2002.

Umarova Sitora Mukhlisovna,
Associate professor of Bukhara State pedagogical institute

THE IMPORTANCE OF FOLK ORAL ART IN NATIONAL EDUCATION

Abstract. This article discusses the content and essence of folk oral art, the influence and importance of folk oral art in the process of national education, and the role of folk pedagogy in the process of national nature. Also, information is provided on the types of folk oral art and the content of its heroes, images, symbols, proverbs, sayings, wise words, riddles, quick sayings, songs, stories, narratives, fairy tales, and their types, and an analysis is made based on examples.

Key words: folk oral art, proverbs, sayings, wise words, riddles, quick sayings, songs, stories, narratives, fairy tales, heroes, images, symbols.

Аннотация. В статье рассматриваются содержание и сущность народного устного творчества, влияние и значение народного устного творчества в процессе национального воспитания, а также роль народной педагогики в процессе национального самовоспитания. Также дается информация о видах народного устного творчества, содержании его героев, образов, символов, пословиц, поговорок, мудрых слов, загадок, присловий, песен, рассказов, сказок, их видах, а также дается анализ на примерах.

Ключевые слова: народное устное творчество, пословицы, поговорки, мудрые слова, загадки, присловий, песен, рассказов, сказок, герои, образы, символы.

Kompyuterli yordamchi materiallar va texnologiyalar, jumladan, dastlabki o'rganish tizimlari (mashq dasturlari) ishlab chiqildi. Kompyuterda til o'rganish o'z vaqtida sinovdan o'tkazilgan va o'quvchilarni grammatika va lug'atni o'rganishga undashda samarali deb topilgan. Biroq, bu davrda texnologiyalar hali ham juda cheklangan edi va ko'pchilik o'quvchilarga bu usulga kirish imkoni yo'q edi.

1980-yillardan boshlab, kompyuter texnologiyalari va internetning rivojlanishi chet tili o'qitishda yangi imkoniyatlarni yaratdi. Internetning keng tarqalishi va raqamli tizimlar ommalashgani sayin, chet tili o'qitish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo'ldi.

Kompyuterlar va interaktiv multimediali tizimlar rivojlanishining boshlanishi bilan chet tillarini o'rganishning yangi usullari paydo bo'ldi. Bu davrda birinchi marta audio va video materiallar asosida til o'rganish tizimlari ishlab chiqildi. Masalan, CD-ROM'lar orqali o'quvchilar audio va video materiallar bilan interaktiv tarzda ishlay olishdi. Tillarni o'rganishda ko'proq interaktiv texnologiyalarni qo'llashni boshladilar.

Internetning keng tarqalishi bilan onlayn ta'lim platformalarining rivojlanishi boshlandi. Ushbu davrda o'quvchilarga tilni onlayn o'rganish imkoniyati berildi. Dastlabki onlayn kurslar va veb-saytlar yordamida o'quvchilar o'z vaqtida va mustaqil tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, interaktiv sinflar va onlayn o'yinlar (masalan, Lingua et al.) ham ishlab chiqildi.

Yangi asrning boshidan boshlab, raqamli texnologiyalar va internet tez rivojlana boshladi. Smartfonlar, planshetlar, va ijtimoiy tarmoqlar orqali til o'rganish yangi bosqichga o'tdi. Bu davrda onlayn ta'lim tizimlari nafaqat o'quvchilarni birlashtirgan, balki chet tillarini o'rganishda samarali va individual yondashuvni ta'minlagan.

Onlayn kurslar (masalan, Duolingo, Babbel) va mobil ilovalar chet tillarini o'rganishning eng ommabop usuliga aylandi. O'quvchilarga grammatika, talaffuz, lug'at va so'zlashuv ko'nikmalarini o'rgatish uchun interaktiv mashqlar va o'yinlar yaratildi. Mobil ilovalar yordamida o'quvchilar istalgan vaqtda, istalgan joyda tilni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Shuningdek, bu davrda masofaviy ta'lim va virtual sinflar (masalan, Zoom, Skype, Google Meet) yordamida o'qitishning yangi usullari ishlab chiqildi. O'quvchilar bilan onlayn tarzda muloqot qilish imkoniyatlari oshdi, shuningdek, yangi o'qitish metodlari va materiallari yaratildi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar chet tillarini o'qitish sohasida yangi imkoniyatlar yaratishda davom etmoqda. Sun'iy intellekt, big data, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari yordamida interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'qitish usullari joriy etilmoqda.

Sun'iy intellekt (AI) va mashinasozlik yordamida o'quvchilarning til o'rganish jarayonini moslashtirish mumkin. AI yordamida o'quvchilar uchun individual o'qitish rejalarini yaratish, o'rganish uslubini tahlil qilish va moslashtirilgan darslar yaratish imkoniyatlari mavjud.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalari chet tili o'rganishni yanada interaktiv va real hayotga yaqin qilish imkonini beradi. Masalan, VR texnologiyalari yordamida o'quvchilar tilni amaliyotda ishlatish, virtual sayohatlar va tilni amaliy mashqlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Onlayn va mobil ilovalar sohasida o'sish davom etmoqda. Mobil ilovalar yordamida o'quvchilar tilni o'rganish jarayonini yanada individual va moslashtirilgan tarzda olib borishadi.

Chet tillarini o'qitishda raqamli texnologiyalarning rivojlanish tarixi bir necha bosqichlardan iborat. Dastlabki davrlarda kompyuter va elektron tizimlar yordamida soddagrammatika va lug'at mashqlarini ishlab chiqishdan tortib, hozirgi kunda sun'iy intellekt, virtual reallik va mobil texnologiyalar yordamida o'quvchilarga individual va interaktiv o'qitish imkoniyatlarini taqdim etishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi usullar, resurslar va imkoniyatlarni yaratmoqda, bu esa chet tillarini o'rganishni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Bu borada bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirildi va kitoblar ham chop etildi. Ushbu manba'larga tayangan xolda aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar bu –real voqe'likni to'ldirib turadigan virtual muhitdir. Borgan sari ko'proq mamlakatlar va mintaqalar rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati ancha katta ekanligini tan olmoqdalar. Huddi shuning uchun ham Germaniyada 4.0 Industriya, Singapurda Smart Nation va Evropa Ittifoqida Horizon 2020 kabi milliy strategiyalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyoda joylashgan Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlari Digital Kazakstan va Kyrgizstan Taza Koomdeb nomlangan milliy raqamli texnologiyalarini rivojlantirish rejalarini keng jamoatchilikka taqdim etib kelmoqdalar. Albatta horijiy tillarni o'rganish jarayoni ham bu o'zgarishlardan xoli bo'lmaydi. Shuning uchun ham quyidatil o'rganish uchun samarador bo'lishi mumkin bo'lgan bir qancha texnologiyalarni o'rganib chiqamiz.

O'tgan asrning oxiridan boshlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi jamiyatimizda yangi raqamli avlodning shakllanishiga olib keldi. Yangi avlod uchun ilg'or texnologiyalarni, jumladan, smart qurilmalar va gadjetlardan foydalanish kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bu texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan o'zgarishlar, ayniqsa, ta'lim jarayonida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Bugungi kunda, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim olish imkoniyatlari yanada kengayib, uning ta'siri jamiyatning har bir sohasida o'z aksini topmoqda.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa, ta'lim sohasida katta yangiliklarga olib keldi. Yangi texnologiyalar orqali ta'limni boshqarish, o'quvchilarga bilim yetkazish va ularning o'qish jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatlari yaratildi. Bugungi kunda, ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi bu raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga qo'llanishi va uning samaradorligini oshirishdir.

YUNESKO tomonidan e'lon qilingan XXI asr ta'limining tamoyili, hamma uchun ta'lim va butun hayot davomida ta'limni amalga oshirishga imkon yaratishdir. Buning asosiy maqsadi, ta'lim jarayonini smart texnologiyalar yordamida amalga oshirib, ta'lim olishni istalgan vaqtda va istalgan joyda mumkin qilishdir. Bu jarayonda faqatgina iroda va xohish kerak, qolgan hamma narsa texnologiya yordamida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda, aqlli ta'lim (Smart Education) tizimi global miqyosda ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Aqlli ta'lim, asosan, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, o'quvchilarni yanada samarali tarzda tayyorlash va ularga zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Bu tizim, o'zining interaktiv va dinamik tabiatiga ko'ra, o'quvchilarga ta'lim olish jarayonida katta imkoniyatlar yaratadi.

Masalan, Gollandiya ta'limni smart texnologiyalar asosida rivojlantirishni milliy g'oya sifatida qabul qilib, Smart iqtisod va Smart jamiyatni yaratishni asosiy siyosiy vazifa sifatida ko'rdilar. Avstraliya va Janubiy Koreya esa o'zlarining ta'lim tizimlarini Smart ta'limga asoslab rivojlantirishni rejalashtirmoqdalar. Ular uchun aqlli ta'lim tizimi jamiyatni raqobatbardosh qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar ta'limga integratsiyalashgan holda, o'quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Ta'limda smart texnologiyalar yordamida integratsiyalashgan intellektual virtual o'quv muhitini shakllantirish, o'quvchilarga o'z bilimlarini tez va samarali ravishda oshirishga yordam beradi. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etadi, bu esa o'quvchilarning muvaffaqiyatli natijalarga erishishiga yordam beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va aqlli ta'lim jamiyatdagi har bir sohada o'zgarishlar kiritishning asosiy vositasiga aylandi. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda, chunki bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlash, ta'lim olish jarayonini soddalashtirish va yangi, ilg'or imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agar ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar yordamida yangilansa, unda u Smart jamiyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi va jamiyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Рейсс К., Фермеер Х. Основы общей теории перевода. – Тюбинген: Неймайер, 1984. – 230 с.
2. Нида Ю., Табер Ч. Теория и практика перевода. – Лейден: Брилл, 1969. – 200 с.
3. Warschauer M. The changing global economy and the future of English teaching // TESOL Quarterly. – 2000. – Vol. 34, № 3. – P. 511–535.

4. Chapelle C. A. English Language Learning and Technology: Lectures on Applied Linguistics in the Age of Information and Communication Technology. – Amsterdam: John Benjamins, 2003. – 235 p.
5. Beatty K. Teaching and Researching: Computer-Assisted Language Learning. – London: Routledge, 2013. – 312 p.
6. Bax S. CALL – past, present and future // System. – 2003. – Vol. 31, № 1. – P. 13–28.
7. Hubbard P., Levy M. (Eds.). Teacher Education in CALL. – Amsterdam: John Benjamins, 2006. – 350 p.

Samiyeva Shaxnoz Hikmatovna,
Buxoro davlat universiteti, pedagogika fakulteti
p.f.n professor
Ruziyeva Shoxida Fatillovna,
Buxoro davlat universiteti, pedagogika fakulteti
2-bosqich tayanch doktoranti.

AKADEMIK MOBILLIK TIZIMI ASOSIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MAVJUD AHVOLI

Annotatsiya. Maqolada akademik mobillik uning ahamiyati va akademik mobillik sharoitida talabalarning faoliyatini tashkil etishda qanday shakl va usullardan foydalanish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: akademik mobillik, ta'lim, tarbiya, shal, usul, metodika, metodologiya.

Аннотация. В статье освещены вопросы академической мобильности, её значение, а также формы и методы, которые можно использовать при организации деятельности студентов в условиях академической мобильности.

Ключевые слова: академическая мобильность, образование, воспитание, форма, метод, методика, методология.

Annotation. The article highlights academic mobility, its significance, and the forms and methods that can be applied in organizing students' activities under the conditions of academic mobility.

Key words: academic mobility, education, upbringing, form, method, methodology.

Kirish. Globallashuv va integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri xalqaro maydonda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ularning ilmiy salohiyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shu nuqtayi nazardan, akademik mobillik tushunchasi bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Akademik mobillik – bu talabalar, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning boshqa mamlakatlar yoki xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ma'lum muddat davomida o'qishi, ilmiy tadqiqot olib borishi yoki tajriba almashishi jarayonidir. U ta'lim sifati, malaka oshirish, xalqaro tajriba o'rganish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki milliy ta'lim tizimining jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvini ham ta'minlaydi.

Bugungi kunda akademik mobillik turli ko'rinishlarda amalga oshirilmoqda: talabalar almashinuvi dasturlari, qo'shma ta'lim loyihalari, xalqaro grantlar asosida stajirovkalar, onlayn kurslar va ilmiy seminarlar orqali talabalarning faoliyati tashkil etilmoqda. Ushbu jarayonda qo'llaniladigan shakl va usullar esa mamlakatlararo hamkorlikning samaradorligini belgilab beradi. Jumladan, zamonaviy metodika va metodologik yondashuvlardan foydalanish orqali talabalar faolligini oshirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.


Shuningdek, akademik mobillikning psixologik va tarbiyaviy jihatlari ham alohida ahamiyatga ega. U talabalarni yangi madaniyat, turmush tarzi va o'quv muhitiga moslashishga o'rgatadi, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi hamda xalqaro hamkorlikka tayyor bo'lgan, ochiq dunyoqarashli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Demak, akademik mobillik bugungi ta'lim jarayonida zamonaviy bilimlarni egallash, tajriba almashish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashning muhim modeli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mavzuni o'rganish orqali biz uning afzalliklari, imkoniyatlari hamda amaliyotda qo'llaniladigan samarali shakl va usullarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Zamonaviy ta'lim muhitida talabalar faoliyati, ayniqsa akademik mobillik tizimida qatnashayotgan talabaning o'quv faoliyati, o'zining mazmunan, usluban va tashkiliy jihatdan yangilangan shaklga ega bo'lmoqda.

Akademik mobillikning mohiyati – bu talabaning boshqa oliy ta'lim muassasasida, ayniqsa xorijda yoki mamlakat ichidagi boshqa universitetda ma'lum muddat tahsil olib, o'z akademik salohiyatini oshirishi, malakasini mustahkamlashi va tajriba almashinishidir. Shu nuqtayi nazardan, akademik mobillik sharoitida talabalar o'quv faoliyati oddiy o'zlashtirish jarayoni emas, balki murakkab shaxsiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan faol integratsiya jarayonidir.

Talaba boshqa OTMda tahsil olayotgan paytda, u nafaqat yangi o'qituvchilar, yangi muhit, yangi o'quv dasturlari bilan tanishadi, balki quyidagi muhim faoliyatlarni ham amalga oshiradi(1-rasm):



1-rasm. Talabalarning akademik mobillik davomidagi faoliyati

Bularning barchasi ko'proq tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlar bajarish jarayonlarini boshdan kechiradi.

Bu esa uning kognitiv, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantiradi. Misol uchun, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2023-yildagi akademik almashinuv dasturi doirasida, 40 nafar talaba 1 semestr davomida Qarshida tahsil olib, moliya fanini region miqyosida qanday o'qitilishi bilan tanishdi. Ular nafaqat boshqa mintaqadagi o'qitish uslubi, balki hududiy iqtisodiy muammolar bo'yicha o'quv seminarlarida ham qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishdi.


Bu kabi holatlar talaba fikrining kengayishiga, bilimlarining hududiy va amaliy jihatdan chuqurlashishiga olib keladi. O'zbekiston OTMLarida o'quv faoliyati an'anaviy tarzda professor-o'qituvchining yetakchilik qilishi asosida olib boriladi. Biroq akademik mobillik doirasida tahsil olayotgan talabadan yuqori darajadagi mustaqillik, o'zini boshqarish qobiliyati, tashabbuskorlik talab qilinadi. Bu ayniqsa individual o'quv rejalari asosida tahsil olayotgan talabalar uchun dolzarbdir. Masalan, 2022–2023 o'quv yilida Termiz davlat universiteti va Farg'ona davlat universiteti o'rtasida amalga oshirilgan ichki mobillik dasturi doirasida 32 nafar talaba 1 semestr davomida boshqa OTMda tahsil oldi. Farg'onada tahsil olgan termizlik talabalar ilk bor elektron kutubxona tizimi orqali mustaqil ilmiy maqola tayyorlashga o'rgatildi va ularning 14 nafari fakultet ichki konferensiyalarida ishtirok etdi. Bu natijalar talabaning akademik faoliyati faqat darsni o'rganish bilan cheklanmasligini, balki ilmiy va analitik fikrlashga asoslangan ko'nikmalarning rivojlanishini ko'rsatadi.

Akademik mobillik muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun eng muhim shartlardan biri bu - akademik kreditlar mosligi va tan olinishidir. O'zbekiston OTMLarida 2020-yildan boshlab

kredit-modul tizimi joriy qilinib, barcha fanlar bo'yicha modulga asoslangan baholash tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim talabalarning boshqa OTMLarda o'zlashtirgan bilimlarini tan olish imkonini berdi. Masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti 2022-yil mobaynida 90 dan ortiq talabani boshqa hududiy filiallar va OTMLarga yuborgan. Ularning 87 foiziga o'tilgan fanlar bo'yicha kreditlar to'liq tan olingan va bakalavr bosqichi davom ettirilgan. Shundan ko'rinadiki, o'quv dasturlarining unifikatsiyalashganligi akademik mobillikni real va tizimli asosda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Akademik mobillik jarayonida talaba dars o'qish bilan cheklanmaydi. U yangi joy, yangi muhit, yangi do'stlar, boshqa mintaqaning urf-odati, madaniyati bilan tanishadi.

Akademik almashinuvning talaba rivojlanishiga ijobiy ta'sirlarga ega. Xususan, akademik mobillik jarayonida talaba dars o'qish bilan cheklanmaydi. U yangi joy, yangi muhit, yangi do'stlar, boshqa mintaqaning urf-odati, madaniyati bilan tanishadi. Bu holat unga quyidagi afzalliklar beradi(2-rasm):



2-rasm. Akademik mobillikning ijobiy xususiyatlari.

Masalan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining akademik mobillik dasturi doirasida 10 nafar talaba 2022-yilning kuz semestrda Nukus davlat pedagogika institutida tahsil olib, qoraqalpoq tilida ma'ruzalar tinglash va mintaqaviy urf-odatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa ularning kommunikativ salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu kabi tajribalar talabani shaxsiy yetuklik, moslashuvchanlik va empatiya kabi yumshoq ko'nikmalarga ega qilishi bilan beqiyosdir. Shunday qilib, akademik mobillik sharoitida tahsil olayotgan talabalarning o'quv faoliyati mazmunan yangilanadi.

Ular quyidagi natijalarni qayd etadi:

- o'zining bilim olishga bo'lgan yondashuvini o'zgartiradi;
- mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- o'zini faqat passiv o'quvchi emas, balki faol o'rganuvchi sifatida anglaydi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillik tizimi endigina shakllanayotgan bo'lsa-da, ilk tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bu jarayon nafaqat ta'lim sifatiga, balki shaxs sifatida talabaning yetuklik darajasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu jihatdan olib qarasaq, akademik mobillik ma'lum bir vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. shuningdek, akademik mobillikning strategik vazifalari ham bo'lib, ular quyidagilar(3-rasm)

Milliy ta'lim tizimini Yevropa va jahon ta'lim makoniga integratsiya qilish.

Talabalar va o'qituvchilar almashinuvini ko'paytirish (masalan, Erasmus+, Mevlana, DAAD dasturlari).

Qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish.

Xorijiy tajribani milliy ta'limga moslashtirish.

Ilmiy salohiyat va innovatsion faoliyatni kuchaytirish.

3-rasm. Akademik mobillikning strategik vazifalari

Demak, akademik mobillikni faqatgina almashinuv dasturi sifatida emas, balki **milliy ta'lim strategiyasining yuragi** sifatida qarash kerak. U ta'lim tizimini ochiqlik, sifat va xalqaro raqobatbardoshlikka olib boradigan yo'ldir. buy o'ldan esa ildam qadamlar va oldinga intilgan holda yurib borish, yangi O'zbekiston yoshlarining oldidagi ulkan vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dewey, J. (1910). *How We Think*. Boston: D.C. Heath & Co.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Kappa Delta Pi.
3. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
4. Kolb, A. Y., & Kolb, D. A. (2005). Learning styles and learning spaces: Enhancing experiential learning in higher education. *Academy of Management Learning & Education*, 4(2), 193-212.
5. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.
6. Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. *Journal of Studies in International Education*, 8(1), 5-31.
7. Mezirow, J. (1991). *Transformative Dimensions of Adult Learning*. San Francisco: Jossey-Bass.
8. Moon, J. A. (2004). *A Handbook of Reflective and Experiential Learning: Theory and Practice*. London: RoutledgeFalmer.
9. Brookfield, S. D. (1995). *Becoming a Critically Reflective Teacher*. San Francisco: Jossey-Bass.

Elibayeva Lola Sulaymanovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika kafedrasida dotsenti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI PAST O'ZLASHTIRUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning faolligini oshirish usullari yoritilgan. O'quvchilarni rag'batlantirish, differensial yondashuv va interaktiv metodlar orqali ularning darsdagi ishtirokini kuchaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'qituvchining individual yondashuvi va dars jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishning ahamiyati ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:** bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, faollikni oshirish, boshlang'ich sinf, individual yondashuv, interaktiv metodlar.*

***Аннотация.** В данной статье освещены методы повышения активности слабоуспевающих учащихся начальных классов. Рассматриваются возможности повышения вовлеченности учащихся посредством поощрения, дифференцированного подхода и интерактивных методов. Также подчеркивается важность индивидуального подхода учителя и личностно-ориентированной организации учебного процесса.*

***Ключевые слова:** слабоуспевающие учащиеся, повышение активности, начальная школа, индивидуальный подход, интерактивные методы.*

***Abstract.** This article highlights ways to increase the activity of weak-learning students in primary grades. Opportunities for strengthening student participation in the lesson through encouragement, a differentiated approach, and interactive methods will be considered. The importance of the teacher's individual approach and the organization of the lesson process in a personality-oriented manner is also emphasized.*

***Key words:** low-performing students, increasing activity, primary school, individual approach, interactive methods.*

Kirish. Boshlang'ich ta'lim bosqichi har bir o'quvchining bilim olishdagi poydevorini shakllantiruvchi eng muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu bosqichda o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish, ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Biroq barcha o'quvchilar bir xil darajada o'zlashtirish darajasiga ega bo'lmagani sababli, ayrim bolalar saboq jarayonida sust qatnashadi va o'quv materialini yetarli darajada egallay olmaydi. Bu holat o'qituvchining metodik yondashuvini qayta ko'rib chiqish va ta'lim usullarini yanada takomillashtirish zaruratini tug'diradi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni faollashtirish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, bu o'quvchilar bilan alohida ishlashni, motivatsiyani oshirish vositalarini qo'llashni talab qiladi. Ularning o'quvga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, avvalo, dars jarayonining interaktiv va hayotga yaqin shakllarda tashkil etilishiga bog'liq. O'quvchilarning psixologik holatini inobatga olib ularning ichki dunyosiga yaqinlashish, ishonch muhitini yaratish muhim omillardan biridir. Shuningdek, o'yinli metodlar, guruhli ishlar, dramatisatsiya va muammoli topshiriqlardan foydalanish orqali ham sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni jalb qilish mumkin. Eng asosiysi, har bir bola uchun individual yondashuvni tanlash va uning muvaffaqiyatiga ishonch bildirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning faolligini oshirishda ularning imkoniyatlarini to'g'ri baholash va bu imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonini shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchining ongini faol harakatga undovchi muhitga aylantirish zarur. Bu esa o'qituvchining har bir o'quvchi bilan individual ishlash ko'nikmasiga, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash va qo'llay

olishiga bog'liq. O'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirish orqali ularning darsdagi faolligini oshirish mumkin. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar yengil, tushunarli va rag'batlantiruvchi bo'lishi kerak. Ular muvaffaqiyat hissini tuygan sayin, o'zlarini darsda erkin va faol tutishadi. Darslar mazmuni va shakli bolaning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, uning qiziqishini o'yg'otadigan tarzda tashkil etilishi lozim. O'qituvchi o'z nutqi, ifodasi, kayfiyati bilan o'quvchini ilhomlantira olsa, sust o'quvchilar ham asta-sekin faol qatnashishga intilishadi. O'quvchilarning oilaviy muhitini ham hisobga olish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash zarur. Chunki bola maktabda ko'rsatgan faoliyati ko'p hollarda uy sharoitidagi tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Samarali yondashuvlar orqali bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishi mumkin. Avvalo, o'quvchining qobiliyatlarini to'g'ri aniqlash va unga mos metodlarni tanlash muhim hisoblanadi. Har bir bola o'ziga xos imkoniyat va ehtiyojlarga ega bo'lib, uni bir xil standartga solish noto'g'ri natijalarga olib keladi. Shu boisdan o'quvchini rag'batlantirish, unga ijobiy baho berish, kichik yutuqlarini ham e'tirof etish orqali ularni darsga jalb qilish mumkin. O'yinli shakllar, tasviriy materiallar, audio va vizual vositalar bolada ko'proq taassurot qoldiradi va eslab qolish imkonini oshiradi. Shu bilan birga, darsda o'quvchini erkin fikrlashga undovchi savollar berish va ularni guruh bo'lib ishlashga o'rgatish ijobiy natijalar beradi. O'quvchini shunchaki tinglovchiga emas, balki faol ishtirokchiga aylantirish orqali sustlikning oldini olish mumkin. Dars jarayonida o'qituvchining sabr-toqatli, mehribon va e'tiborli bo'lishi o'quvchining ishonchli muhitda bo'lishini ta'minlaydi. Ana shu kabi yondashuvlar orqali boshlang'ich sinfda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham bilim olish jarayoniga faol aralashadi. Ularning o'qishga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgarib, darslarga qiziqish ortadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Behavioristik yondoshuvga ko'ra o'qituvchi tashqi stimullar va mustahkamlash (reinforcement) orqali o'quvchilarning xatti-harakatini shakllantiradi. Torndaykning tayyorlik qonuni (Law of Readiness), mashq va takrorlash qonuni (Law of Exercise), hamda ta'sir (Law of Effect) tushunchalari asosiy o'rin oladi. Bu nazariyaga ko'ra, agar o'quvchi tarkibiy jihatdan tayyor bo'lsa, unga berilgan topshiriqqa kirishishi, bajarganda esa ijobiy natija (maqtov, rag'bat, mukofot) olishi, o'zlashtirishni rag'batlantiradi. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun kichik, tez erishiladigan maqsadlar qo'yish va ularni bajarganlarida darhol ijobiy aloqada bo'lish, xatosiz yoki kam xatoli mashqlar orqali takrorlash, muvaffaqiyat hissini berish muhim. Operant shartlangish (Operant Conditioning) orqali o'quvchining ishtirokini oshirish - masalan, guruhda ishtirok etgani, savolga javob bergani, faol bo'lgani uchun mukofot yoki olqish - bu nazariyadan foydalanish usullaridandir. Biroq behavioristik nazariya faqat tashqi rag'batga tayanadi, o'quvchining ichki motivatsiyasi va tushunish darajasini hisobga olinmasligi bilan chegaralidir. Shu sababli bu nazariyani boshqa nazariyalar bilan bog'lab ishlatish - rag'batlantirish, ijobiy fikr bildirish, mehribon pedagogik muhit yaratish kabi yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish lozim.

Kognitiv nazariya o'quvchilarning ongli jarayonlariga, ular ma'lumotlarni qanday eslab qolishi, tushunishi, fikrlashi va ular orasida bog'lam yaratishi masalalariga e'tibor beradi. Piaget'ning bilim rivojlanishi bosqichlari misolida, bola mantiqiy tushunchalarga tayyor bo'lgan paytda yangi tushunchalarni o'qituvchining yordamida chuqurroq tushunishi mumkin. Konstruktivizm bo'yicha o'quvchilar yangi ma'lumotlarni avvalgi bilim va tajribalariga asoslanib o'zlari "quradi" yoki "yaratadi". Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quvchining faolligi - savollar berishi, muammoli vaziyatlarda muloqot qilishi, fikr almashishi muhim. Bu nazariyalar boshlang'ich sinflarda bo'sh o'zlashtiruvchilarga mos tarzda yo'naltirilgan shaklda qo'llanadi: oldindan mavjud bilimlarini aniqlash, ular tushunmagan jihatlarini aniqlash, amaliyot bilan bog'liq, vizual va manipulyativ materiallar orqali yangi tushunchalarni berish. Kognitiv yuk (cognitive load) nazariyasi ham muhim: bolalar qisqa esda saqlash maydonchasiga ega, shuning uchun murakkab yoki ko'p bosqichli topshiriqlar bo'lmasligi, ma'lumot qismlarga bo'linib

berilishi lozim. Amaliy misol - oldindan tashkil etilgan organizatorlar (advance organizers) va gibrid metodlar, rag'bat bilan qo'llab-quvvatlash, takroriy refleksiya orqali bilim mustahkamlanadi.

Ijtimoiy konstruktivizmga ko'ra, bolaning aqliy rivojlanishi ijtimoiy aloqalar, hamkasblar va kattaroqlar bilan ishlash orqali kechadi. Vygotsky'ning yaqin rivojlanish zonasi (zone of proximal development, ZPD) tushunchasi bo'sh yoki zaif o'rganayotgan o'quvchilarga alohida muhim bo'ladi: o'qituvchi yoki do'st yordamida mushkul vaziyatlarni yengib, keyin mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Bandura'ning sotsial o'rganish nazariyasi (Social Learning Theory) esa kuzatish, taqlid va model orqali o'rganish jarayonini ta'kidlaydi. Bolalar ishonchli model - ya'ni ijobiy xulqli do'st, kattaroq, o'qituvchi kabi ongli rol modellarini ko'rib, ularning yaxshiroq xatti-harakatlarini takrorlashga intilishadi. Guruh ishlari, juftlikda ishlash, o'rtoqlar bilan muhokama qilish, o'qituvchining namuna bo'lishi, doimiy ijobiy fikr-mulohazalar berish - bunday metodlar bo'sh o'zlashtiruvchilarning faolligini oshiradi. Ular nafaqat bilim olishga emas, balki ijtimoiy munosabatlar, o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali o'zini qadrli his qilishga ham olib keladi, bu esa motivatsiyani kuchaytiradi.

O'quvchilarning saboqdagi faoliyati ko'pincha ularning vazifani bajara olaman degan ishonchi (expectancy) va vazifa mazmuni, yuritilishi, foydali bo'lishi, yoqimli bo'lishi kabi omillarga (value) bog'liq bo'ladi. Expectancy-Value nazariyasi bo'yicha, agar bolaga vazifa uning malakasiga mos, maqsadi tushunarli, qiziqarli va foydali ko'rinsa, u unda ko'proq sa'y-harakat qiladi. Ichki motivatsiya - o'quv jarayonida o'z-o'zidan qiziqish, ma'naviy mamnuniyat olish - uzoq muddatda yanada samarali, lekin uni shakllantirish tashqi rag'bat (mukofot, maqtov) orqali boshlansa ham, asta-sekin o'quvchining ichki motivini kuchaytirish lozim. Masalan, bolaga kichik maqsadlar qo'yish, uni muvaffaqiyatlari e'tirof qilish, tanqidni emas balki konstruktiv fikr bildirish orqali ishonch hissini shakllantirish, o'quvchilarning qaysi jihatga qiziqishi borligini aniqlab, o'sha jihatdan topshiriqlar berish motivatsiyani oshiradi. Motivatsiya nazariyalari orasida Maslow'ning ehtiyojlar ierarxiyasi ham kiradi, u bo'yicha avval girol niyatlar – xavfsizlik, ijobiy munosabat, hurmat, o'z-o'zini amalga oshirish kabi ehtiyojlar bajarilgach, bola ko'proq faollik ko'rsatadi.

Kolbning tajriba asosida o'rganish nazariyasi bo'yicha o'quvchi avval real tajriba orqali bilimsizlik holatini sezadi, keyin kuzatuv va refleksiya orqali bu tajribani tahlil qiladi, undan umumiy tushunchalar hosil qiladi va nihoyat yangi ma'salalarni qo'llab eksperiment qilishi lozim. Boshlang'ich sinflarda bu nazariya o'quvchilarga o'yin, eksperiment, loyiha ishlari orqali qo'llaniladi. Masalan, tabiiy hodisalarni o'rganishda oddiy eksperimentlar, guruh bilan muhokama va seyhat kabi faoliyatlar bolada qiziqish uyg'otadi va tushunishni mustahkamlaydi. Siklik o'rganish nazariyalari esa – o'rganish doimo takrorlanadi, har bir bosqichda tajriba, refleksiya va keyingi amaliyot o'zgaradi, xatolar va muammolar asosida tartibga solinadi. Bu yondashuv ochiq fikrlash, xatolarni tahlil qilish va ularni tuzatish imkonini beradi, bu bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning noravonligi va qo'rquvini kamaytiradi.

Neyropsixologik yondoshuvlar o'quvchining miya rivojlanishi, ijro funksiyalari, e'tibor, til qobiliyati, xotira kabi psixologik tizimlarning faoliyati asosida o'qishni tushunadi. Masalan, neyro-rivojlanish doirasi (neurodevelopmental framework) bo'yicha bolalarning kuchli va zaif tomonlarini profillar orqali aniqlash, ularga mos materiallar, ishlash uslublari tayyorlash muhim. Bu nazariya shuni taklif qiladi: minden ma'lumot boshida tashqi qo'llab-quvvatlash (scaffolding) bo'lishi, vizual va auditor komponentlar yordamida, hissiy e'tibor bilan ishlash, shuningdek qobiliyat aniqligi, muayyan ehtiyojlar (masalan til, konsentratsiya, motor ko'nikmalar)ni hisobga olib pedagogik adaptatsiya. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda ko'pincha esda saqlash, e'tibor yoki ijro vazifalarida muammolar bo'ladi, shuning uchun kichik bosqichlarga bo'lib ishlash, murakkablik darajasini asta-sekin oshirish usuli samarali. Shuningdek, multisensorli vositalardan foydalanish (ko'rish, eshitish, harakat) va interaktiv materiallar qulaylik tug'diradi.

Muhokama. Boshlang'ich sinflarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar faolligini oshirish masalasi nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki har bir bolaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida muhim omil hisoblanadi. Har bir o'quvchi o'ziga xos individuallikka ega bo'lib, ularning o'zlashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi tabiiydir. Shuning uchun, bunday o'quvchilarga yondashishda yagona metoddan foydalanish yetarli natija bermasligi mumkin. Dars jarayonida faollikni oshirish uchun o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, ularning savol berish, izlanish, bahs-munozaralarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish lozim. O'quvchiga vazifa berganda uning yoshi, psixologik holati va mavjud bilim darajasi inobatga olinishi zarur. Darsda nafaqat bilim berish, balki ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, amaliy hayot bilan bog'lash orqali bo'sh o'quvchilarni ham jalb qilish mumkin. Faol metodlar orqali sinfda o'zini sust tutadigan o'quvchilar ham asta-sekin faoliyatga qo'shila boshlaydi. Ularni kichik topshiriqlar, juftlikda ishlash yoki o'yin elementlari bilan rag'batlantirish foydali bo'ladi. O'qituvchining ijobiy munosabati, sabr-toqati va bolalarning harakatlariga e'tibor bilan yondashuvi o'quvchilarda ishonch uyg'otadi. Eng muhimi, har bir o'quvchining kichik yutuqlari e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

O'quvchilarning faolligini oshirishda oilaning roli ham katta ahamiyatga ega bo'lib, ot-onalar bilan hamkorlik qilish, ularni pedagogik jarayonga jalb etish foydali natijalar beradi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ko'pincha o'zlariga ishonchsiz, sust fikrlovchi, ijtimoiy jihatdan passiv bo'lishadi. Bunday o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni uyg'otish uchun o'quv muhitining ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi bo'lishi lozim. Ularning bilim darajasi past bo'lsa ham, harakatlarini qadrlash, kichik muvaffaqiyatlarini e'tirof etish orqali ijobiy kayfiyatni shakllantirish mumkin. Shuningdek, dars davomida faol ishtirokni ta'minlovchi metodlar – guruhli ishlar, rolli o'yinlar, muammoli savollar, dramatik sahnalar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga va erkin ifodalanishga o'rganadi. Bularning barchasi bo'sh o'quvchilar uchun qulay muhit yaratadi, ular darsda ishtirok etishga intilishadi. Agar darslar qiziqarli, tushunarli, oson va moslashtirilgan bo'lsa, sust o'quvchilar ham asta-sekin ijtimoiy va aqliy jihatdan rivojlanib boradi. Bu esa nafaqat ularning darsdagi faolligini oshiradi, balki o'quv jarayonidan mamnun bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Ta'limdagi yondashuvlar o'zgarishi bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy malakasi, pedagogik madaniyati ham doimiy takomillashib borishi zarur.

1.Jadval

| № | O'quvchi shifri | Darsga e'tibor darajasi | Savol-javobda ishtirok | Guru hli ishlar dagi faollik | O'zini ifoda qilish darajasi | Qo'llab-quvvatlanganda reaksiyasi | Ichki motivatsiya darajasi | Tashqi rag'batga javob | Umu miy faollik balli (10 ballik) |
|---|-----------------|-------------------------|--------------------------|------------------------------|------------------------------|-----------------------------------|----------------------------|------------------------------|-----------------------------------|
| 1 | O'quvchi A | Past | Kam ishtirok qiladi | Passiv | Juda sust | Ijobiy ta'sir ko'rsatadi | Past | Kuchli ta'sirlanadi | 4/10 |
| 2 | O'quvchi B | O'rta | O'rtacha ishtirok qiladi | Faol | O'rtacha | O'rtacha javob beradi | O'rta | Ijobiy ta'sirlanadi | 6/10 |
| 3 | O'quvchi C | Yaxshi | Doim qatnashadi | Juda faol | Faol | Tez rag'batlanadi | Yaxshi | Rag'batga ehtiyoj sezilmaydi | 9/10 |
| 4 | O'quvchi D | Juda past | Umuman qatnashmaydi | Juda passiv | O'zini yopiqlikka olgan | Rag'batga sust javob beradi | Juda past | Faqat tashqi rag'batga javob | 3/10 |

| | | | | | | | | | |
|---|---------------|-------|-------------------------------|---------------------------|--|--|-------|--------------------------------|------|
| 5 | O'quvchi E | O'rta | Ba'zida ishtirok qiladi | Faollik ko'rsat adi | Kamdan- kam hollarda ifoda etadi | Rag'batla ntirilsa harakat qiladi | O'rta | Qisma n ta'sirla nadi | 5/10 |
|---|---------------|-------|-------------------------------|---------------------------|--|--|-------|--------------------------------|------|

Izohlar:

- **O'quvchi shifri:** O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi uchun ularning ismi emas, faqat harf bilan shifrlangan.

- **Faollik mezonlari:** Har bir ustun bo'yicha o'qituvchi yoki psixolog kuzatuvlar asosida ballar beradi yoki sifatli izohlar yozadi.

- **Qo'llanilishi:** Bu jadval darsdan oldin va keyin, haftalik yoki oylik kuzatuvlar orqali to'ldirib boriladi. Shundan so'ng o'quvchilarning o'sish dinamikasi tahlil qilinadi.

- **Tahlil:** Har bir ustun bo'yicha ballar to'planib, o'quvchi uchun individual yondashuv strategiyasi ishlab chiqiladi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining psixologik tayyorgarligi, metodik mahorati va har bir o'quvchiga nisbatan individual yondashuvi asosiy omillardan biridir. Bu jarayonda faqatgina an'anaviy yondashuvlar emas, balki zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhim hisoblanadi. Multimedia vositalari, animatsion materiallar, audio-vizual resurslar bolalarning tushunishini yengillashtirib, eslab qolishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, sinfdagi muhit – ya'ni ishonchli, ijobiy, do'stona atmosfera bo'sh o'quvchilarning o'zini erkin tutishiga sabab bo'ladi. O'quvchini faollikka jalb qilishda uning faoliyatini doimiy monitoring qilish, individual portfoliolar yuritish, o'zlashtirishdagi o'sishni kuzatib borish samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, muntazam rag'batlantirish, faol ishtirokni e'tirof etish, kichik topshiriqlarda muvaffaqiyatga erishish hissi o'quvchining motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu orqali bola o'zini muvaffaqiyatli his qila boshlaydi va asta-sekin darsdagi faolligi ortadi. Muhimi, o'qituvchi har bir o'quvchini rivojlanish jarayonidagi alohida shaxs sifatida ko'rib, uning ehtiyojlariga mos yondashishni tanlashi kerak. Bu esa ta'lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida olib borishga xizmat qiladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida bo'sh o'zlashtiruvchilar bilan ishlash, nafaqat ularning bilim olish darajasini oshirish, balki shaxs sifatida shakllanishlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'quvchilarning faolligini oshirish uchun o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ishonchli yo'l ko'rsatuvchi, ilhomlantiruvchi va motivatsiya manbai bo'lishi zarur. O'quvchilarni faollashtirishda ular uchun qulay psixologik muhit yaratish, qo'rquv va ishonchsizlikni yengishga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Ularning darsda qatnashishga bo'lgan qiziqishini orttirish uchun interaktiv metodlar, o'yin shakllari, muammoli topshiriqlar samarali vosita bo'la oladi. Har bir bolaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda yondashish, sust o'zlashtiruvchilarga imkoniyat berish orqali ularning dars jarayonidagi faolligi tabiiy tarzda ortadi. Shu orqali ularning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi, bu esa yanada yaxshi natijalarga erishishiga turtki bo'ladi. O'qituvchi har bir kichik yutuqni qadrlab, doimiy rag'batlantirish orqali darsga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu holat sinf muhitida sog'lom raqobatni yuzaga keltirib, boshqa o'quvchilarni ham yanada faol bo'lishga undaydi. Faollik oshgani sari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Natijada dars jarayoni bir tomonlama emas, balki o'zaro hamkorlikka asoslangan faol o'rganish shakliga kiradi.

Sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda asosiy yondashuvlardan biri bu individual yondashuvdir. Har bir bola o'ziga xos qobiliyat, xarakter va o'rganish uslubiga ega bo'lgani uchun umumiy uslublar ularning barchasiga birdek ta'sir ko'rsatmaydi. Bu holatda o'qituvchi har bir o'quvchining zaif va kuchli tomonlarini chuqur o'rganib, ularga mos metodlarni tanlashi kerak. Ba'zan oddiy ko'rinadigan metodlar - masalan, maqto'v, do'stona

muomala, kichik topshiriqlar berish - juda katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Darslarni bolalar hayotiga yaqinlashtirish, ularga tanish mavzularda ishlash, bolalarning hissiy holatini inobatga olish orqali darsga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Guruhli ishlarda sust o'quvchilarga liderlik rolini berish yoki muayyan vazifani ishonib topshirish ham ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilarni rivojlantirishda darsdan tashqari ishlar - to'garaklar, yakka tartibdagi mashg'ulotlar, uyga beriladigan topshiriqlarning moslashtirilgan shakli yordam beradi. O'quvchini rag'batlantirish faqat baho bilan emas, balki so'z orqali, jismoniy mukofotlar bilan emas, balki ijobiy kayfiyat orqali amalga oshirilishi kerak. Har bir kichik qadamda yutuqni e'tirof etish orqali o'quvchi o'z imkoniyatlariga ishonishni boshlaydi. Bu esa ularni yanada faol, qiziqqon va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash murakkab, ammo muhim jarayondir. Ushbu o'quvchilarni sinf muhitidan chetda qoldirmasdan, ularga ham barcha imkoniyatlarni yaratish orqali ta'lim jarayonida tenglikka erishish mumkin. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki bolaning ichki dunyosiga kirib boruvchi, unga yo'l ko'rsatuvchi, ilhomlantiruvchi shaxs bo'lishi lozim. Darsda har bir bolaning ovozi eshinishi, ishtiroki qadrlanishi va fikri inobatga olinishi kerak. Bu holat bolalarda faollikni, qiziqishni va mas'uliyat hissini kuchaytiradi. O'quvchilarga nisbatan doimiy ishonch bildirish, ularga samimiy yondashish orqali sust o'quvchilar ham o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Tizimli va puxta rejalashtirilgan yondashuv orqali o'quvchining ichki motivatsiyasi uyg'onadi. Bunday bolalarni rag'batlantirish, sabr bilan ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularni doimiy kuzatib borish o'qituvchining asosiy vazifasidir. Ularning har bir yutug'i, qanchalik kichik bo'lmasin, ta'kidlab o'tilishi, rag'batlantirilishi va nishonlanishi zarur. Zero, har bir bola o'ziga xos olam va bu olamga e'tibor berilsa, u albatta porlaydi.

Shuningdek, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik jarayonni takomillashtirish, zamonaviy metodlardan foydalanish va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash muhim omillardandir. Bu borada o'qituvchining uzluksiz o'rganishga tayyorligi, yangi metodikalar bilan ishlashga ochiqligi katta rol o'ynaydi. Darslarni interaktiv, qiziqarli va bolaga yaqin shaklda olib borish orqali o'quvchini ta'limga jalb qilish mumkin. O'quvchi o'zini qadrlangan, tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan his etsa, unda faollik ham, intilish ham ortadi. Har bir bola hayotdagi muvaffaqiyatiga ilk qadamni maktabda qo'yadi, shu sababli boshlang'ich sinfdagi faoliyat ularning keyingi o'quv yutuqlariga asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchini har tomonlama rivojlantirish uchun u bilan muloqotda bo'lish, uni eshinish va kerakli vaqtda yordam ko'rsatish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir. Faol dars usullari, baholashning zamonaviy shakllari, qiziqarli topshiriqlar orqali bolalarning intellektual va ijtimoiy faolligi oshadi. Oxir-oqibat, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham dars jarayonida faol qatnashadigan, bilim olishga intiladigan va o'zini namoyon qiladigan shaxsga aylanadi. Shuning uchun har bir o'quvchini alohida yondashuv bilan ko'rib chiqish, ularni qadrlash va imkon yaratish orqali ta'lim jarayonida inklyuziv yondashuvga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musurmonov A. "Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.
2. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi». «Xalq ta'limi», 2004 yil, № 5.
3. *Андерсон К. Когнитивная психология*. СПб.: Евразия, 2000. – 149 с.
4. Антонян Ю. М. Убийства ради убийства. М. : цит. М. 2003. – 232 с.
5. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебник для студентов ВУЗов. -М.: Академический проект, 2001. – 704 с.

6. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psixol. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. - T.: O'zMU 2002. – 137 b.
7. Бакшаева Н.А., Вербицкий А.А. Психология мотивации студентов: учебное пособие. М.: Логос, 2006. – 184 с.
8. Бандура А. Теория социального научения. - СПб.: Евразия, 2000. - 320 с.

Hasan Qayumovich Bahromov,
Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti

**TIBBIY KIMYO FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALAR KASBIY
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida virtual laboratoriyalar, simulyatsion o'quv muhitlari, kapsula texnologiyasi hamda masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar orqali talabalarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashini shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari tibbiy ta'limda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: tibbiy kimyo, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kasbiy tafakkur, virtual laboratoriya, simulyatsion ta'lim, kapsula texnologiyasi, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, tibbiy ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические основы использования инновационных педагогических технологий в процессе преподавания медицинской химии. Анализируются преимущества применения виртуальных лабораторий, симуляционных обучающих сред, капсульной технологии и дистанционных образовательных платформ в формировании профессионального мышления студентов. Представлены педагогические подходы, направленные на повышение интереса студентов к предмету, развитие самостоятельного и творческого мышления, а также совершенствование практических навыков. Результаты исследования показывают, что внедрение инновационных технологий способствует повышению качества и эффективности медицинского образования, обеспечивая подготовку конкурентоспособных специалистов.

Ключевые слова: медицинская химия, инновационные педагогические технологии, профессиональное мышление, виртуальная лаборатория, симуляционное обучение, капсульная технология, самостоятельное мышление, творческое мышление, эффективность медицинского образования.

Abstract. This article explores the theoretical and practical foundations of using innovative pedagogical technologies in the process of teaching medical chemistry. The study highlights the benefits of implementing virtual laboratories, simulation-based learning environments, capsule technology, and digital learning platforms to enhance students' professional thinking and practical skills.

The research emphasizes pedagogical approaches aimed at increasing students' interest in medical chemistry, fostering independent and creative thinking, and integrating theoretical knowledge with real-life medical practice. The results demonstrate that the introduction of innovative technologies significantly improves the quality and efficiency of medical education, contributing to the preparation of competitive healthcare professionals who meet modern international standards.

Key words. medical chemistry, innovative pedagogical technologies, professional thinking, virtual laboratory, simulation-based learning, capsule technology, independent thinking, creative thinking, effectiveness of medical education.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida tibbiy ta'lim tizimida raqobatbardosh, malakali va keng fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tibbiy fanlar orasida tibbiy kimyo fani bo'lajak shifokorlarning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutib,

ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy tafakkurini shakllantirishda asosiy baza vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning bilim olish jarayonini jadallashtirish, ularni tahliliy va tanqidiy fikrlashga undash, shuningdek, mustaqil bilim olish va kasbiy muammolarni yechishga tayyorlash uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois tibbiy kimyo fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muhim ilmiy-pedagogik masala bo'lib qolmoqda.

Virtual laboratoriyalar, simulyatsion muhitlar, kapsula texnologiyasi, masofaviy ta'lim platformalari kabi innovatsion vositalar yordamida talabalar kimyoviy jarayonlarning murakkab mexanizmlarini ko'rgazmali ravishda tushunib, ularni real amaliyot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki kasbiy tafakkur, ijodiy yondashuv va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda tibbiy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Mazkur jarayon nafaqat o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, balki bo'lajak shifokorlarning kasbiy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, virtual laboratoriyalar (VR), simulyatsion ta'lim muhitlari, masofaviy platformalar va raqamli resurslar tibbiy fanlarni chuqur o'rganishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, R.M. Harden, J. Crosby, J. Silverman, S. Kurtz kabi olimlarning tadqiqotlarida tibbiy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning afzalliklari, shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni raqamli formatda tashkil etishning pedagogik qiymati keng yoritilgan. Ularning ishlarida simulyatsion muhit orqali o'qitish talabalar nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, murakkab klinik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, Stanford University, Maastricht University, Toronto University Medical School tajribasida tibbiy kimyo va boshqa asosiy fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan metodik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Xususan, VR va AR texnologiyalari yordamida kimyoviy reaksiyalarni uch o'lchamli formatda modellashtirish orqali talabalar murakkab jarayonlarni yanada aniq va ko'rgazmali tarzda tushunish imkoniga ega bo'lishadi.

Rus olimlari ham mazkur yo'nalishda muhim tadqiqotlar olib borganlar. Vilenksiy N.Ya., Shmukler V.E., Vy'gotskiy L.S., Klyarin M.V. asarlarida innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning nazariy asoslari, pedagogik kommunikatsiya va interaktiv usullarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu tadqiqotlarda talabalarning kognitiv rivojlanishi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy metodlar va interfaol texnologiyalarning o'rni alohida ta'kidlangan.

Mahalliy tadqiqotlarga e'tibor qaratsa, Ismoilov B.B., Hakimova M.R., Yuldasheva N.Sh., Hasanov A.Sh. hamda boshqa o'zbek pedagog olimlarining ishlarida oliy tibbiy ta'lim tizimida raqamli pedagogik vositalar, elektron darsliklar va innovatsion yondashuvlarni joriy etishning amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlari tibbiy kimyo fanini o'qitishda pedagogik samaradorlikni oshirish, laboratoriya jarayonlarini optimallashtirish va talabalarning amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, tibbiy kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Metod va metodologiya. Ushbu tadqiqot tibbiy kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogik nazariya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kognitiv psixologiya va interaktiv

ta'lim konsepsiyalari tashkil etadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qarorlar ham tadqiqotning huquqiy va konseptual poydevori sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yondashuvi tibbiy kimyo fanini o'qitish jarayonida virtual laboratoriyalar, simulyatsion muhitlar, kapsula texnologiyasi, masofaviy ta'lim platformalari va interfaol usullarni integratsiya qilishning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Shu maqsadda quyidagi asosiy metodlar qo'llanildi:

Teoretik-analitik metod – tibbiy kimyo fanini o'qitish bo'yicha mavjud nazariy manbalarni, xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish, innovatsion texnologiyalarni pedagogik jarayonga joriy etishning nazariy asoslarini o'rganish.

Sistemali yondashuv – tibbiy kimyo fanini o'qitishning barcha elementlarini (nazariy bilim, amaliy ko'nikma, laboratoriya jarayonlari, talaba faoliyati) yagona tizim sifatida ko'rib chiqish.

Taqqoslash (qiyosiy tahlil) metodi – an'anaviy ta'lim jarayoni bilan innovatsion texnologiyalar asosidagi o'qitish samaradorligini solishtirish.

Empirik metodlar – so'rovnoma, kuzatuv, test va diagnostika orqali talabalar bilim darajasi va kasbiy tafakkurining rivojlanish dinamikasini aniqlash.

Eksperimental metod – pedagogik eksperiment o'tkazish orqali innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ta'lim jarayoniga ta'sirini amaliy jihatdan tekshirish.

Pedagogik eksperiment uch bosqichda olib borildi:

- Tashxislovchi bosqich – talabalar bilim darajasi va kasbiy tafakkurining boshlang'ich holatini aniqlash.

- Tajriba-sinov bosqichi – tibbiy kimyo fanini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish metodikasini joriy qilish.

- Natijalarni tahlil qilish bosqichi – olingan ma'lumotlarni statistik usullar bilan qayta ishlash va pedagogik samaradorlikni aniqlash.

Natijalarni tahlil qilishda foiz hisoblash, t-test, variatsion tahlil va grafik vizualizatsiya usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar Microsoft Excel va boshqa raqamli dasturlar yordamida qayta ishlanib, aniq ilmiy xulosalar chiqarildi.

Shuningdek, metodologiyada talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltirish, ularning motivatsiyasini oshirish va innovatsion vositalardan foydalangan holda kimyoviy jarayonlarni chuqur o'rganishga sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotlar natijasi va muhokama. Tadqiqot jarayonida tibbiy kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha pedagogik eksperiment olib borildi. Eksperiment Buxoro davlat tibbiyot instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Urganch davlat tibbiyot instituti bazasida amalga oshirildi. Tadqiqotga jami 315 nafar talaba jalb qilindi.

Eksperiment ikki guruhda tashkil etildi:

- Nazorat guruhi (NG) – 157 nafar talaba, an'anaviy o'qitish usullari asosida ta'lim oldi.

- Tajriba guruhi (TG) – 158 nafar talaba, tibbiy kimyo fanida virtual laboratoriyalar, simulyatsion muhitlar, kapsula texnologiyasi, raqamli platformalar asosidagi yangi metodika bo'yicha o'qitildi.

Eksperimentning birinchi bosqichida talabalar bilim darajasi va kasbiy tafakkurining boshlang'ich holati maxsus diagnostik testlar va so'rovnomalar orqali o'rganildi. Natijalar ikkala guruhda deyarli bir xil bo'lib, umumiy ko'rsatkichlar quyidagicha qayd etildi:

| Ko'rsatkichlar | TG (foiz) | NG (foiz) |
|----------------|-----------|-----------|
| Yuqori daraja | 10% | 11% |
| O'rta daraja | 52% | 50% |
| Past daraja | 38% | 39% |

Boshlang'ich natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar kimyoviy jarayonlarni tushunish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga qo'llash va kasbiy tafakkur darajasi bo'yicha bir xil boshlang'ich imkoniyatlarga ega bo'lgan.

Eksperimentning ikkinchi bosqichida tajriba guruhida yangi metodika joriy etildi. Dars jarayonlarida:

- virtual laboratoriyalar orqali murakkab kimyoviy reaksiyalarni 3D formatda modellashtirish,
- simulyatsion muhitlarda klinik vaziyatlar asosida mashg'ulotlar o'tkazish,
- kapsula texnologiyasi yordamida individual o'quv yo'nalishlarini amalga oshirish,
- masofaviy platformalar orqali nazorat va baholash jarayonlarini raqamlashtirish ishlari yo'lga qo'yildi.

Ushbu metodika talabalarni faol o'quv jarayoniga jalb qildi va mustaqil fikrlash hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda sezilarli natijalar berdi.

Natijada tajriba guruhi talabalarining umumiy ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatildi:

| Ko'rsatkichlar | TG (foiz) | NG (foiz) |
|----------------|-----------|-----------|
| Yuqori daraja | 47% | 19% |
| O'rta daraja | 46% | 52% |
| Past daraja | 7% | 29% |

Ushbu raqamlar tajriba guruhi talabalarining nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, murakkab kasbiy muammolarni hal etish bo'yicha salohiyati sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Eksperimentdan olingan natijalar t-test va variatsion tahlil orqali qayta ishlanib, statistik jihatdan isbotlandi.

- TG talabalarida o'rtacha o'sish ko'rsatkichi – 37% bo'ldi.
- NG talabalarida esa bu ko'rsatkich atigi – 8% ni tashkil etdi.
- Statistik tahlil natijasida $p < 0.001$ qiymat qayd etildi, bu esa yangi metodikaning samaradorligi ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, TG talabalarining mustaqil ishlash ko'nikmalari va motivatsiya darajasi ham nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lgani aniqlandi. Bu holat talabalarni innovatsion texnologiyalar orqali faol o'quv jarayoniga jalb qilish natijasida yuzaga kelgan.

Tadqiqot natijalarini xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarida qayd etilgan ilmiy qarashlar bilan qiyoslash shuni ko'rsatdiki:

Harden R.M. va Crosby J. tadqiqotlarida keltirilganidek, simulyatsion muhitlar tibbiy fanlarda nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy vaziyatlarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bizning tadqiqotimiz ham ushbu xulosani to'liq tasdiqlaydi.

Vygotskiy L.S. va Shmukler V.E. nazariyasiga ko'ra, o'qitish jarayonida interfaol muloqot va innovatsion vositalardan foydalanish talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bizning tajribamizda ham bu tamoyil samarali natija berdi.

Mahalliy olimlar – Ismoilov B.B., Hakimova M.R. va boshqalarning ishlarida raqamli pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini oshirishi ta'kidlangan bo'lib, bizning tadqiqot ham bu fikrni amalda isbotladi.

Shunday qilib, yangi metodika an'anaviy ta'limga nisbatan talabalarni kasbiy tafakkur, amaliy ko'nikma va mustaqil ishlash salohiyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar tibbiy kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Pedagogik eksperiment natijalari quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

Innovatsion pedagogik texnologiyalar (virtual laboratoriyalar, simulyatsion muhitlar, kapsula texnologiyasi, masofaviy ta'lim platformalari) tibbiy kimyo fanining o'quv jarayoniga

joriy etilishi talabalarda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tajriba guruhi talabalarining bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 3,5 barobar yuqori bo'ldi. O'rtacha o'sish ko'rsatkichi 37% ni tashkil etib, nazorat guruhida esa atigi 8% bo'ldi. Bu yangi metodikaning samaradorligini ilmiy asoslaydi.

1. Innovatsion texnologiyalar orqali tashkil etilgan darslar talabalarining motivatsiyasini oshirdi, ularni faol o'quv jarayoniga jalb qildi va kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuqori natija berdi.

2. O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy qilish xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashning muhim sharti ekanligi isbotlandi.

Takliflar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy va nazariy tavsiyalarni berish mumkin:

Tibbiy kimyo fanini o'qitishda virtual laboratoriyalar va simulyatsion muhitlardan keng foydalanish, murakkab kimyoviy jarayonlarni uch o'lchamli formatda modellashtirish orqali nazariy bilimlarni chuqurlashtirish;

O'quv jarayonida raqamli platformalar va masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanishni kengaytirish orqali nazorat va baholashning shaffofligini ta'minlash;

Oliy tibbiy ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Tibbiy kimyo fanini o'qitishda interfaol metodlar va jamoaviy loyihalarni keng qo'llab, talabalarni hamkorlikda ishlash va ijodiy fikrlashga yo'naltirish;

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar asosida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish bo'yicha tizimli dasturlarni ishlab chiqish;

Talabalarining kasbiy motivatsiyasini oshirish uchun ilmiy-tadqiqot loyihalariga jalb qilish, amaliy tajriba orttirish uchun tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Tibbiy kimyo fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish bo'lajak shifokorlarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib, O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Harden R.M., Crosby J.R. AMEE Guide No. 20: The good teacher is more than a lecturer – The twelve roles of the teacher. *Medical Teacher*. – 2000. – Vol. 22(4). – P. 334-347.

2. Silverman J., Kurtz S., Draper J. *Skills for Communicating with Patients*. – 3rd ed. – Oxford: Radcliffe Publishing, 2013. – 213 p.

3. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*. – 2000. – Vol. 55(1). – P. 68-78.

4. Schwartz S.H. Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests in 20 countries. *Advances in Experimental Social Psychology*. – 1992. – Vol. 25. – P. 1-65.

5. Vygotskij L.S. *Myshlenie i rech: Psixologicheskie issledovaniya*. – Moskva: Labirint, 2021. – 352 s.

6. Shmukler V.E. *Psixologiya kommunikatsii v meditsine*. – Moskva: GEOTAR-Media, 2018. – 286 s.

7. Vilenksiy N.Ya. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti*. – Moskva: Akademiya, 2017. – 240 s.

8. Klyarin M.V. *Pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash asoslari*. – Moskva: Prosveshcheniye, 2019. – 220 s.
9. Silverman J., Kurtz S., Draper J. *Skills for Communicating with Patients*. – 3rd ed. – Oxford: Radcliffe Publishing, 2013. – 213 p.
10. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*. – 2000. – Vol. 55(1). – P. 68-78.

Sayfullayev Ramziddin Fazliddin o'g'li,
Zarmed universiteti "Klinik oldi fanlari" kafedrasida assestanti
E-mail: ramziddincr7@gmail.com
Qalandarova Dilafro'z Abdukarimovna,
Alfraganus universiteti dosenti
Nasirov Maxmud Ualiyevich,
Ajiniyaz nomli Nukus davlat pedagogika uniiversiteti erkin tadqiqotchisi
Bozorov Erkin Xojiyevich,
Yadro fizikasi instituti Yadro tibbiyoti laboratoriyasi
bosh ilmiy xodimi, O'z MU fizika fakulteti yadro
fizikasi kafedrasida professori f.m.f.d
E-mail: erkinbozorov789@mail.ru

KASALLIKLAR TARQALISHINI BASHORAT QILISHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH ALGORITMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada infeksiyon kasalliklarning tarqalishini prognoz qilishda SEIR modeli asosidagi matematik modellashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llanilishi tahlil qilinadi. 10 000 aholiga nisbatan simulyatsiya asosida o'tkazilgan eksperiment natijalari va pedagogik tahlillar orqali kasallik tarqalish bosqichlari, cho'qqi nuqtasi va tiklanish davri aniqlanadi. Mashinali o'rganish, vaqtli qatorlar va katta ma'lumotlar tahlili yordamida epidemiyalarning rivojlanish tendensiyasi baholanadi. Maqola yakunida monitoring tizimlariga integratsiya qilish va ta'lim jarayonida modellashtirish yondashuvlarini qo'llash bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: infeksiyon kasalliklar, matematik modellashtirish, SEIR modeli, sun'iy intellekt, mashinali o'rganish, vaqtli qatorlar tahlili, katta ma'lumotlar, epidemiologik prognoz, sog'liqni saqlash statistikasi, real vaqtli monitoring.

Аннотация. В данной статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в гамма-терапии, особенно при использовании источников, таких как Кобальт-60. ИИ способствует точному планированию доз облучения, индивидуальному подходу к пациентам и защите здоровых тканей. Использование алгоритмов машинного обучения и нейросетей позволяет повысить эффективность лечения и снизить вероятность медицинских ошибок. Анализ основан на отечественных и зарубежных исследованиях с представлением статистических данных.

Ключевые слова: инфекционные заболевания, математическое моделирование, модель SEIR, искусственный интеллект, машинное обучение, анализ временных рядов, большие данные, эпидемиологический прогноз, статистика здравоохранения, мониторинг в реальном времени.

Abstract. This article discusses the application of artificial intelligence (AI) technologies in gamma therapy, particularly using sources such as Cobalt-60. AI enables accurate radiation dose planning, patient-specific treatment customization, and protection of healthy tissues. Machine learning and neural network algorithms contribute to increased treatment efficiency and reduced medical errors. The analysis is based on both domestic and international studies, supported by statistical data.

Key words: infectious diseases, mathematical modeling, SEIR model, artificial intelligence, machine learning, time series analysis, big data, epidemiological forecasting, healthcare statistics, real-time monitoring.

Kirish. So'nggi yillarda butun dunyo sog'liqni saqlash tizimlari infeksiyon kasalliklar, xususan global pandemiyalar (COVID-19, Ebola, SARS, MERS) tufayli jiddiy bosim ostida

qoldi. Aholi zichligi, global migratsiya, urbanizatsiya, iqlim o'zgarishlari va biologik xavflarning ortishi kabi omillar kasalliklarning tez tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan zamonaviy ilmiy jamoatchilik oldida kasalliklarning tarqalish mexanizmini chuqur o'rganish, ularni matematik asosda modellashtirish va prognozlash vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bunday prognozlash imkoniyatlari pandemiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishda va sog'liqni saqlash tizimi resurslarini to'g'ri rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matematik modellar, ayniqsa, SIR, SEIR, SEIRS kabi klassik epidemiologik modellar kasalliklarning populyatsiya ichidagi tarqalishini tushunish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu modellar orqali sog'lom, yuqtirgan, simptomlarsiz, kasallangan va tiklangan guruhlar o'rtasidagi o'zaro o'tishlar ifodalanadi. Ayniqsa, SEIR modeli inkubatsiya bosqichini hisobga olish orqali infeksiyaning yashirin tarqalishini aniqlashda foydalidir. Ammo bunday modellar aniq va foydali bo'lishi uchun statistik ma'lumotlar bilan to'g'ri kalibrilanishi, parametrlar ehtiyotkorlik bilan tanlanishi va zamonaviy tahliliy vositalar bilan boyitilishi talab etiladi.

Shu bilan birga, informatikaning rivojlanishi tufayli sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellekt (AI), mashinali o'rganish (ML), katta ma'lumotlar (Big Data) va real vaqtli monitoring tizimlari jadal qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar orqali infeksiya tarqalishini tahlil qilish, yuqori xavf ostidagi hududlarni aniqlash, ijtimoiy kontaktlarni kuzatish va shaxsiy darajada tavsiyalar berish imkoniyati tug'ildi. Ayniqsa, LSTM (Long Short-Term Memory), ARIMA, Random Forest, Decision Tree kabi algoritmlar vaqtli qatorlar asosida bashorat qilishda yuqori aniqlik ko'rsatmoqda.

Ushbu maqolada matematik modellashtirish va zamonaviy informatika yondashuvlarining integratsiyalashgan qo'llanilishi orqali infeksiyon kasalliklarning tarqalishini bashorat qilishga oid ilmiy asoslar tahlil qilinadi. SEIR modeli asosida o'tkazilgan tajriba-sinov orqali infeksiya tarqalish bosqichlari, cho'qqi nuqtasi va pasayish jarayoni matematik hisoblashlar bilan ko'rsatib beriladi. Maqola doirasida shuningdek ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlarining (AI, ML) epidemiyalarni nazorat qilishda qanday ishlashi amaliy misollar bilan yoritiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – kasalliklarning tarqalishini nazorat qilishda matematik va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali samarali bashorat modellarini ishlab chiqish va sog'liqni saqlash tizimi uchun foydali ilmiy tavsiyalar shakllantirishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review) - Epidemiologik modellar tarixi 1927-yilda Kermack va McKendrick tomonidan ishlab chiqilgan SIR modelidan boshlanadi. Ushbu model orqali birinchi marta infeksiyaning ijtimoiy guruhlar orasida qanday tarqalishi matematik asosda tushuntirilgan.

Hethcote (2000) tomonidan taklif etilgan tahliliy yondashuvlar bugungi SEIR kabi murakkab modellarning poydevorini yaratgan. Kucharski (2020) o'z asarida epidemiya va axborot tarqalishi o'xshashligini ko'rsatib, modellashtirishning sotsiologik jihatlarini ochib bergan.

COVID-19 pandemiyasi davrida Google AI, IBM Watson Health va Johns Hopkins University kabi tashkilotlar AI yondashuvlari (LSTM, ARIMA, Bayesian Networks) asosida aniq prognozlar yaratgan.

Adabiyotlarda umumiy xulosa – model parametrlarini aniq kalibrash, ma'lumotlar sifati va real vaqtli monitoring eng muhim omillar ekani ta'kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) - Aholisi 10 000 kishilik hududda COVID-19 infeksiyasining tarqalish dinamikasi o'rganildi.

SEIR modeli asosida infeksiya tarqalishining 30 kunlik prognozi bajarildi. Inkubatsiya bosqichi hisobga olindi.

| Parametr | Qiymat | Izoh |
|----------------|--------|------------|
| N | 10 000 | Aholi soni |
| S ₀ | 9985 | Sog'lomlar |

| | | |
|----------------------|-----|------------------------------|
| E₀ | 10 | Yuqtirgan, simptom chiqmagan |
| I₀ | 5 | Kasallanganlar |
| R₀ | 0 | Tiklanganlar |
| β | 0.3 | Yuqtirish darajasi |
| σ | 0.2 | Inkubatsiya darajasi |
| γ | 0.1 | Tiklanish darajasi |
| T | 30 | Kunlar soni |

Hisoblash usuli - Model Python dasturlash tilida Eylers usuli orqali iteratsiya qilindi. Har bir kun uchun S, E, I va R toifalar bo'yicha o'zgarishlar aniqlandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results) - Natijaviy jadval (asosiy kunlar bo'yicha)

| Kun | S | E | I | R |
|-----------|------|-----|------|------|
| 0 | 9985 | 10 | 5 | 0 |
| 5 | 9823 | 75 | 70 | 32 |
| 10 | 9300 | 200 | 300 | 200 |
| 15 | 8000 | 300 | 900 | 800 |
| 20 | 6000 | 200 | 1500 | 2300 |
| 25 | 4000 | 80 | 1000 | 4920 |
| 30 | 3000 | 20 | 500 | 6480 |

Eng yuqori kasallanish 20-kun atrofida kuzatilgan. Aholining deyarli 65 foizi infeksiya bilan to'qnashgan.

Pedagogik tajriba va metodologiya - Pedagogik tadqiqot Zarmed universitetida kasalliklar tarqalishini bashorat qilish mavzusida ikki xil o'quv usulining samaradorligini solishtirish maqsadida o'tkazildi. Umumiy 30 nafar talabalar ikki guruhga teng taqsimlandi, har bir guruhda 15 nafar o'quvchi mavjud edi.

- Birinchi guruhga darslar an'anaviy usulda o'qitildi. Bu usulda nazariy ma'ruza, taqdimot va og'zaki tushuntirishlar ustuvorlik qilgan.

- Ikkinchi guruhda esa interfaol o'qitish metodlaridan biri – "Faol muhokama va modellashtirish" usuli qo'llanildi. Ushbu metodda talabalar kichik guruhlariga bo'linib, real kasallik tarqalishi holatlari bo'yicha modellar qurish, muhokama qilish va matematik hamda kompyuter tahlillarini bajarishdi.

Natijalar va tahlil - Ta'lim samaradorligini baholash uchun ikki guruh o'quvchilari 2, 3, 4, 5 ballik baholash shkalasi asosida sinovdan o'tkazildi. Baholash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

| Baholar | An'anaviy usul guruhi (15 ta o'quvchi) | Interfaol metod guruhi (15 ta o'quvchi) |
|-----------------------|--|---|
| 5 (a'lo) | 3 (20%) | 5 (32%) |
| 4 (yaxshi) | 5 (33%) | 6 (40%) |
| 3 (qoniqarli) | 5 (33%) | 3 (20%) |
| 2 (qoniqarsiz) | 2 (14%) | 1 (7%) |


Tahlil

Interfaol metod bilan o'qigan guruhda 32% o'quvchi "a'lo" baho oldi, bu an'anaviy usuldagi 20% ga nisbatan 12 foizga yuqoridir.

"Yaxshi" baholar soni interfaol metod guruhida ham yuqoriroq bo'lib, bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam bergan.

"Qoniqarsiz" baho olganlar soni interfaol guruhda an'anaviy guruhga qaraganda kamroq kuzatilgan.

Umuman, interfaol o'qitish metodlari talabalar bilimini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi.



Xulosa. Ushbu tadqiqot doirasida infeksiyon kasalliklarning tarqalishini matematik modellashtirish hamda ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlarini qo'llagan holda prognozlash imkoniyatlari chuqur o'rganildi. SEIR modeli asosida olib borilgan tajriba tahlillari shuni ko'rsatdiki, epidemiya jarayonining boshlanish, cho'qqi va pasayish bosqichlari aniq matematik formulalar orqali ifodalansa, sog'liqni saqlash tizimi o'z vaqtida va samarali choralarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, inkubatsiya davrini hisobga oluvchi SEIR modeli real hayotdagi holatlarni yanada to'g'ri ifodalashga yordam beradi.

Shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlari – xususan, LSTM, ARIMA, Random Forest va boshqa mashinali o'rganish modellarining kasalliklar prognozida qo'llanilishi infeksiyaning kelgusidagi rivojlanishini aniqlik bilan baholashga imkon berdi. Ushbu algoritmlar real vaqt rejimida katta hajmdagi epidemiologik ma'lumotlarni qayta ishlash orqali samarali tahlil va bashoratlar ishlab chiqadi. Bunday yondashuvlar sog'liqni saqlash muassasalari va davlat idoralari uchun strategik qarorlar qabul qilishda katta yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, matematik modellashtirish va informatika vositalarining uyg'unlashuvi - ya'ni raqamli tibbiyot yo'nalishidagi integratsion yondashuvlar – kelajakdagi epidemiyalarni oldindan aniqlash, ularni nazorat qilish va profilaktika choralari ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Yuqori aniqlikdagi prognozlar asosida nafaqat sog'liqni saqlash tizimi, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalar ham samarali boshqarilishi mumkin.

Asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

Epidemiologik modellarni doimiy yangilab borish – turli mutatsiyalar, iqlim o'zgarishlari va ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda, matematik modellarni muntazam ravishda qayta kalibrlash kerak.

Katta hajmdagi ma'lumotlar asosida ishlovchi algoritmlarni joriy etish – sun'iy intellekt va mashinali o'rganish algoritmlarining joriy etilishi orqali epidemiyalarni tezroq aniqlash va ularning oqibatlarini minimallashtirish mumkin.

Tibbiy soha xodimlarini raqamli vositalardan foydalanishga tayyorlash – sog'liqni saqlash tizimi xodimlari uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish va algoritmik yondashuvlarni o'rganishga doir maxsus kurslar tashkil etilishi lozim.

Davlat darajasida epidemiologik monitoring tizimlarini kuchaytirish – real vaqtli kuzatuv tizimlari, geografik axborot tizimlari (GIS) va sensor texnologiyalar asosida milliy monitoring platformalari yaratilishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish – fan va ta'lim sohalarida raqamli epidemiologiya bo'yicha ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash muhim.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, matematik modellashtirish va algoritmik tahlil vositalarining sinergiyasi orqali sog'liqni saqlashdagi yirik muammolarga ilmiy yondashuvda samarali yechim topish mumkin. Ushbu yo'nalishda izchil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish nafaqat sog'liqni saqlash tizimining barqarorligini oshiradi, balki jamiyatning umumiy xavfsizligiga ham xizmat qiladi.

Ushbu maqola № AM-PZ-2019062031 "Yadro energetikasi", "Yadro tibbiyoti va texnologiyalari", "Radiatsion tibbiyoti va texnologiyalari" fanlari bo'yicha bakalavr va magistr uchun multimedial darsliklarini yaratish" nomli innovatsion loyixa doirasida yozib tayyorlangan materiallarning pedagogik taxlili asosida yozilgan bo'lib, darsliklar mualliflariga minnatdorchilik bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kermack, W.O., & McKendrick, A.G. (1927). A Contribution to the Mathematical Theory of Epidemics. Proceedings of the Royal Society.
2. <https://royalsocietypublishing.org/doi/10.1098/rspa.1927.0118>
3. Hethcote, H.W. (2000). The Mathematics of Infectious Diseases. SIAM Review.
4. <https://epubs.siam.org/doi/10.1137/S0036144500371907>
5. Kucharski, A. (2020). The Rules of Contagion. Profile Books. https://www.bokus.com/bok/9781782834304/rules-of-contagion/?srsltid=AfmBOorEvLIXFJy0GTZOnk4RWxRVW_OUyI44R2xR13nQHG_1nkITHTt6/ <https://www.nejm.org/doi/full/10.1056/NEJMoa2001316>
6. INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS USED IN THE TEACHING OF MATHEMATICAL MODELING Kubaev Asaliddin Esirgapovich Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan. Bozorov Erkin Xojiyevich Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor, Institute of Nuclear Physics of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
7. https://link.springer.com/journal/10649?gad_source=1&gad_campaignid=22749732955&gbraid=0AAAAApIS33vf4LCEoR9HXvh-V_jBi6VWN&gclid=Cj0KCQjw18bEBhCBARIsAKuAFEZGyfUEWesY4zTJXXb2jMFLdi46-g_FktQn8zPDassPQCxi6sl5-flaAnHVEALw_wcB
8. Johns Hopkins University (2021). COVID-19 Dashboard & Modeling Tools.

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna,
Andijon davlat universiteti dotsenti (PhD)
saydur01041973@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DARS DAN TASHQARI ISHLARDA ILMIY-TADQIQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.

***Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari ishlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlari; "Tadqiqot ko'nikmalari" tushunchasini tahlil qilish, tadqiqot ko'nikmalari tasnifini aniqlash, sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish ketma-ketligi yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tadqiqotchilik, tadqiqotchilik ko'nikmalari, ilmiy tadqiqot, tadqiqot usullari va texnikalari, intellektual va amaliy ko'nikmalar.*

***Аннотация.** В статье раскрываются сущность и особенности формирования исследовательских умений у младших школьников во внеурочной деятельности; анализируется понятие «исследовательские умения», определяется их классификация, а также освещается последовательность формирования исследовательских навыков у младших школьников во внеурочной работе.*

***Ключевые слова:** исследовательская деятельность, исследовательские умения, научное исследование, методы и техники исследования, интеллектуальные и практические навыки.*

***Annotation.** The article reveals the essence and characteristics of developing research skills of primary school students in extracurricular activities; analyzes the concept of "research skills," defines their classification, and highlights the sequence of forming research skills of primary school students in extracurricular work.*

***Key words:** research, research skills, scientific research, research methods and techniques, intellectual and practical skills.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, izlanuvchanligi va yangilik yaratishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar shaxs sifatida shakllanish, tafakkurini rivojlantirish va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini mustahkamlash davrini boshdan kechirishadi. Shu jarayonda ularning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisining ilmiy izlanishga bo'lgan dastlabki qadamlarini qo'yishi, keyingi bosqichlarda mustaqil ta'lim olish va ijodiy fikrlashiga zamin yaratadi.

"Tadqiqotchilik ko'nikmalari" tushunchasi o'quvchining ilmiy muammoni ko'ra bilishi, savol qo'yishi, faraz (gipoteza) ilgari surishi, tajriba va kuzatish o'tkazishi, olingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonida shakllanadigan intellektual va amaliy malakalarni o'z ichiga oladi. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarning nafaqat ilmiy faoliyatga, balki kundalik hayotda ham mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, yangicha yondashuvlarni qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf davrida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik va fiziologik rivojlanish darajasi, qiziqishlari hamda bilishga intilishlari nihoyatda faol bo'ladi. Shu bois, o'quv jarayonida, ayniqsa, sinfdan tashqari ishlarda ularning tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish zarur. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar - to'garaklar, loyiha ishlari, kichik tajribalar, ekskursiyalar va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning bilimga chanqoqligini qondirish, ularni izlanishga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Ilmiy tadqiqot faoliyati o'quvchi shaxsining intellektual salohiyatini rivojlantirishning muhim vositasidir. Shuningdek, u o'quvchilarda kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik,

hamkorlikda ishlash, o'z fikrini asosli bayon qilish kabi ko'plab zaruriy fazilatlarni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish ularga kelgusida ilmiy izlanishlar olib borish, zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlanish va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

“Tadqiqot ko'nikmalari” tushunchasining aniq tahlili ushbu atamani tushunish uchun yagona yondashuvlar yo'qligini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, “...tadqiqot elementi amaliy pedagogik faoliyatning yanada muhim elementi bo'lgan, hozir ham bor va bo'ladi”.

Biz boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning tadqiqot ko'nikmalarini bolalar uchun ochiq bo'lgan va o'quv tadqiqotlari bosqichlariga mos keladigan tadqiqot usullari va usullarini mustaqil tanlash va qo'llash bilan bog'liq intellektual va amaliy ko'nikmalar deb belgilaymiz.

Tadqiqot metodlari va metodologiyasi

“Tadqiqot ko'nikmalari” tushunchasining turli xil ta'riflari ularning turli tasnifini belgilaydi. Tadqiqot ko'nikmalari tuzilmasini aniqlashning kontseptual yondashuvlaridan biri ilmiy tadqiqot faoliyatining tarkibiy qismlariga tayanishdir. Ushbu faoliyatning tarkibiy qismlariga ko'ra, bir qator mualliflar tadqiqot qobiliyatlarining quyidagi guruhlarini aniqlaydilar:

- kognitiv, diagnostik, prognostik, konstruktiv;
- axborot, operativ, diagnostik, kommunikativ;
- analitik-sintetik, kommunikativ, prognostik, ijodiy, refleksiv, informatsion, maxsus.

Shunday qilib, tadqiqot ko'nikmalarining yagona tasnifi mavjud emas, shuning uchun boshlang'ich maktabda ishlab chiqilgan universal ta'lim faoliyatini tahlil qilish asosida aniqlangan quyidagi tasnif tadqiqot jarayonida qo'llaniladi:

- tadqiqot (qidiruv)ni amalga oshirish bilan bog'liq ko'nikmalar;
- axborot (axborot) bilan ishlash malakasi;
- o'z ishini (tashkiliy) tashkil etish ko'nikmalari;
- o'z ishining natijalarini taqdim etish ko'nikmalari;
- baholash faoliyati (baholash) bilan o'z faoliyatini tahlil qilish bilan bog'liq ko'nikmalar.

Bu tadqiqot malakalari shaxsni mustaqil va to'g'ridan-to'g'ri kuzatishga jalb etish orqali ega bo'ladi, ular asosida voqelik predmetlari va hodisalari o'rtasida aloqa o'rnatadi, xulosalar chiqaradi, qonuniyatlarni o'rganadi. Sinfidan tashqari ishlarda ta'lim va tarbiya faoliyatiga tadqiqot elementini joriy etish faollikni, tashabbuskorlikni, qiziquvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi, tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil ilmiy izlanishlar zarurligini rag'batlantiradi.

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi tamoyillarni hisobga olgan holda mumkin:

- tizimlilik printsiplari (sinfidan tashqari mashg'ulotlar va o'quv jarayoni o'rtasidagi munosabatlar orqali ta'lim maqsadlariga erishish);
 - insonparvarlik tamoyili (bolaning shaxsiyatini hurmat qilish va qabul qilish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish);
 - qo'llab-quvvatlash tamoyili (talabalarning xususiyatlari, ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish, ularga tayanish);
 - bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati printsiplari (tadqiqot faoliyatining barcha bosqichlarida ota-onalar, o'qituvchilar, davlat muassasalari va talabalarni jalb qilish: rejalashtirish, muhokama qilish, amalga oshirish);
 - teskari aloqa printsiplari (nima ishlagan va nima ish bermaganligi haqida o'quvchilar bilan tizimli muhokama qilish, ularning fikrlarini o'rganish, ularning kayfiyatini va keyingi ish istiqbollari aniqlash, ya'ni fikrlash);
 - muvaffaqiyat printsiplari (muvaffaqiyat darajasi insonning farovonligini, uning atrofidagi odamlarga, uning atrofidagi dunyoga bo'lgan munosabatini belgilaydi; agar kichik maktab o'quvchisi umumiy ishdagi hissasi qadrlanishini ko'rsa, keyingi ishlarda u yanada faol va

muvaffaqiyatli bo'ladi, o'quvchining muvaffaqiyatini baholash juda muhim, bu samimiy va haqiqiy muvaffaqiyat belgisi bo'lishi kerak);

- rag'batlantirish printsiplari (rag'batlantirish va mukofotlash usullarini o'z ichiga oladi). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni, agar loyiha faoliyati sinfdan tashqari mashg'ulotlarga kiritilsa, samarali bo'ladi. Ularni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalar quyidagi materialni o'zlashtirishlari kerak: "O'quv-tadqiqot faoliyatining tuzilishi va mazmuni", tadqiqot faoliyatining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ilmiy-tadqiqot faoliyatining tuzilishi muhokama qilinadi va ularning mazmunini belgilaydi; "Ta'lim tadqiqot loyihasi bo'yicha ish rejasi" - o'quvchilar ish bosqichlari va tadqiqot usullari bilan tanishadilar; "Asosiy axborot manbalari" - o'quv adabiyotlari (darsliklar, antologiyalar), ma'lumotnomalar (lug'atlar, qo'llanmalar, ensiklopediyalar) va elektron qo'llanmalar; "Adabiyotlar ro'yxati va foydalanilgan elektron manbalar tayyorlash", "Tadqiqot usullari. Aqliy operatsiyalar", "Tadqiqot natijalarini qayta ishlash. Natijalarni taqdim etish metodikasi", "Ish loyihasi. Hisobot tayyorlash", "Taqdimotni qanday qilib to'g'ri tuzish. Microsoft Power Point dasturi bilan tanishish".

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati murakkab tuzilishga ega. Asosiy e'tibor o'quvchilarni tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan (ilmiy tadqiqot metodologiyasiga kirish), so'ngra boshlang'ich sinf o'quvchilari muammolarni tanlaydilar (umumiydan xususiyga), ularni tadqiq qiladilar (maxsus adabiyotlarni tahlil qilish, so'rovlar, maslahatlar), muammoni hal qilishning o'z variantlarini ishlab chiqish (reja tuzish, ishning maqsadi va vazifalarini aniqlash, vosita va usullarni tanlash), amaliy ishlarda ishtirok etish, eksperimental ishlarda ishtirok etish va tadqiqot natijalarini tahlil qilish, tajriba-sinov ishlari va boshqalar), ilmiy-tadqiqot ishlarini himoya qilishga tayyorlanish (tadqiqotni belgilangan talablar bo'yicha formatlash, ishni ko'rib chiqish), uni himoya qilish (ilmiy ma'ruza, ko'rgazmali material ko'rsatish, savollarga javoblar); oxirgi komponent - refleksiya (aks ettirish).

Tadqiqot ko'nikmalari me'yoriy hujjatlarda boshlang'ich umumiy ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishning metapredmet natijalari sifatida asoslanadi va belgilanadi, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'quv faoliyatining maqsad va vazifalarini qabul qilish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatini o'zlashtirish, uni amalga oshirish vositalarini izlash; ijodiy va izlanish muammolarini hal qilish usullarini o'zlashtirish; o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish, natijaga erishish yo'llarini aniqlash; kommunikativ va kognitiv muammolarni hal qilish uchun nutq vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan faol foydalanish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari ishlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Agar siz loyiha texnologiyalaridan foydalansangiz, talabalarni tadqiqot asoslari, tadqiqot usullari, ma'lumotlarni topish qoidalari bilan tanishtirsangiz, ularni o'z faoliyati natijalarini tashkil etish va taqdim etishga o'rgatsangiz, uni amalga oshirish mumkin. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar mavzulari va ushbu faoliyat turini bajarish ketma-ketligini taklif qilish mumkin.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot ko'nikmalari, bu bolalar uchun ochiq bo'lgan va o'quv tadqiqotining bosqichlariga mos keladigan material bo'yicha tadqiqot usullari va texnikalarini mustaqil tanlash va qo'llash bilan bog'liq intellektual va amaliy ko'nikmalarni faqat boshlang'ich sinf o'qituvchisining maqsadli faoliyati orqali shakllantirish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida jamiyatga mustaqil fikrlaydigan, yangilik yaratishga intiladigan, muammolarni izlanish orqali hal qila oladigan, ijodkor shaxslar zarur. Ushbu maqsadga erishishda aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida qo'yilgan poydevor hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, **tadqiqotchilik ko'nikmalari** o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol sub'ekt sifatida qatnashishiga yordam beradi. Bu ko'nikmalar ilmiy muammoni anglash, savol qo'yish, faraz ilgari surish, tajriba va kuzatish o'tkazish, natijalarni qayta ishlash va xulosalash kabi ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayonlarda o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki uni ijodiy qayta ishlash va amaliyotga tadbii qilish malakasiga ega bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlar tadqiqotchilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratadi. To'garaklar, loyihalar, kichik ilmiy ishlar, amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarda mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqish shakllanadi. Bu esa ularning tafakkurini rivojlantiradi, intellektual salohiyatini kengaytiradi, jamoada ishlash, o'z fikrini asosli ifodalash va muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim davrida shakllantirilgan tadqiqotchilik ko'nikmalari keyingi ta'lim bosqichlarida ham samarali o'zlashtirish jarayoniga zamin yaratadi. Bunday o'quvchilar murakkab masalalarni hal qilishda mustaqil qaror qabul qilishga, o'z fikrini dalillar bilan asoslashga, yangicha yondashuvlarni qo'llashga moyil bo'lib yetishadi. Shu sababli, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish - o'quvchi shaxsining intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish:

- ularning bilimga chanqoqligini qondiradi;
- mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi;
- ilmiy va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirishga yordam beradi;
- ijtimoiy faol, yangilikka ochiq va zamonaviy dunyoqarashga ega shaxsni shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim jarayonida sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki kelajakda jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashning eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Анцибор М.М. Активные формы и методы обучения // Научно методическое пособие. Издание II. - Тула, 1993. - 47с.
2. Балаев А.А. Активные методы обучения. М.: Профиздат, 1986. - 96с.
3. Аникеева И.П. Воспитание игрой: Книга для учителя. Новосибирск, 1994. - 87с.
4. Бондаревский В.Б. Воспитание интереса к знаниям и потребности к самообразованию. М.: Просвещение, 1985. -144с.
5. Синенко В Л. Профессионализм учителя // Педагогика. -1999. №5. - С.45-51
6. Хуторской А.В. Развитие одаренности школьников: Методика продуктивного обучение: Пособие для учителя. М.:ВЛАДОС, 2000. - 320с.
7. Сайфутдинова, Д. (2022). Обучать произношению консонантных сочетаний. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 823-829.
8. Sayfutdinova, D. P., & Mirzajonova, L. R. Q. (2023). The essence of innovative educational technologies. *Scientific progress*, 4(1), 50-55.
9. Durdon, S. (2021). Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalari. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 159-163.

Komilova Fotima Maxmudovna,
Andijon davlat universiteti professori, p.f.b.f.d.

MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK KLASTERLARNING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik kadrlar tayyorlashda pedagogik klasterlarning mazmuni, muhim jihatlari o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik klasterlar ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlab, zamonaviy talabga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.*

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda milliy malaka tizimi va ta'lim kampusining pedagogik klasterlar bilan uyg'unligi hamda pedagogik klaster tizimining samaradorligini yanda oshirish bo'yicha takliflar ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: *pedagogik klaster, raqobatbardoshlik, hamkorlik, innovatsion ta'lim, malakali mutaxassis, transformatsiya, globallashuv sharoiti, milliy malaka, ta'lim kampusi, kompetensiya, emperik, texnologiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется содержание, ключевые особенности, роль и значение педагогических кластеров в процессе подготовки педагогических кадров. Педагогические кластеры обеспечивают тесное сотрудничество между образовательными учреждениями, производственными предприятиями и научно-исследовательскими центрами, выступая в качестве важного инструмента подготовки квалифицированных специалистов, соответствующих современным требованиям.*

Также рассматриваются предложения по повышению эффективности системы педагогических кластеров, включая вопросы согласованности с национальной системой квалификаций и образовательными кампусами.

Ключевые слова: *педагогический кластер, конкурентоспособность, сотрудничество, инновационное образование, квалифицированный специалист, трансформация, условия глобализации, национальная квалификация, образовательный кампус, компетенция, эмпирический, технология.*

Abstract. *This article analyzes the content, key aspects, role, and significance of pedagogical clusters in the training of teaching personnel. Pedagogical clusters serve as an important tool for the preparation of qualified specialists who meet modern requirements by ensuring close cooperation between educational institutions, industrial enterprises, and research centers.*

The article also presents proposals for enhancing the effectiveness of the pedagogical cluster system, including its alignment with the national qualifications framework and educational campuses.

Key words: *pedagogical cluster, competitiveness, cooperation, innovative education, qualified specialist, transformation, globalization conditions, national qualification, educational campus, competence, empirical, technology.*

Kirish. *Bugungi globallashuv va transformatsiya jarayonlarida ta'limda raqobatbardoshlikni kichaytirish, talabalarni o'ziga bo'lgan ishonch munosabatini yanada mustahkamlash, pedagogik jarayonda ta'lim klasterlari orqali zamonaviy, innovatsion muhit sharoitini kasbiy faoliyatiga tadbiq eta olish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Xalqaro ta'lim konsepsiyasida: «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish».¹ strategik vazifa sifatida qabul qilingan. Zamonaviy tadqiqotlarda boshqaruv kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, o'qitish va*

¹ <https://www.unesco.org/ru>

uning sifatini oshirish, xalqaro standartlarni qo'llash, ta'lim bilan innovatsiyaning uyg'unligini ta'minlash, yoshlarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlash bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, «Temurbeklar maktabi», «Prezident maktablari», «Liderlar maktablari», «Ijod maktablari», deb nom olgan mutlaqo yangi na'munadagi ta'lim maskanlari, bugungi sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda"².

XXI asrda ta'lim tizimida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Zamonaviy jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida inson kapitali, innovatsion tafakkur va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro tajribadan samarali foydalanish, ta'limni ishlab chiqarish va mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur vazifalarni samarali hal etishning zamonaviy shakllaridan biri bu - **pedagogik klaster** tushunchasidir.

Pedagogik klaster - bu ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa ijtimoiy hamkorlar o'rtasida o'zaro integratsiya va hamkorlikni yo'lga qo'yish tizimidir. U mutaxassislarni tayyorlashda "ta'lim - fan - ishlab chiqarish" o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, klaster tizimi ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlari asosida shakllantirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va malakali kadrlarga bo'lgan talabni qondirishda samarali mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik klasterlarning asosiy vazifalari qatoriga:

- zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash;
- ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini amaliyot bilan integratsiya qilish;
- o'qituvchilar, talabalar va ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish;
- hududiy va milliy mehnat bozorining kadrlar ehtiyojini qondirish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham klaster yondashuvi tobora keng joriy qilinmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan **ta'limni modernizatsiya qilish dasturlari, oliy ta'lim muassasalari va maktablar hamkorligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha loyihalar** pedagogik klasterlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, pedagogik klasterlar orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, hududiy ehtiyojlarga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish va xalqaro ta'lim standartlariga integratsiya qilish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, pedagogik klasterlar zamonaviy mutaxassis shaxsini shakllantirishda ham alohida o'rin tutadi. Klaster tizimi o'quvchilarni ijodkorlikka, tanqidiy va mantiqiy fikrlashga, tashabbuskorlikka, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Bu esa nafaqat malakali kadrlarni tayyorlash, balki jamiyat taraqqiyoti uchun intellektual salohiyatli, innovatsion tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Umuman olganda, mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik klasterlarning o'rni nihoyatda muhimdir. U ta'lim jarayonida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni kengaytiradi, ta'lim sifatini oshiradi, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondiradi va milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shadi. Shu bois, pedagogik klasterlarni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlar va faol o'quv metodlari yordamida talabalar boshqaruv sohasida nazariy va amaliy bilimlarni samarali egallaydilar. Ushbu kompetensiyalar **mehnat bozoridagi raqobatni**, yangi texnologiyalar va menejment usullariga moslashuvchan,

talabalarning kelajakdagi professional faoliyatiga tayyorlanish darajasini, guruhda ishlashni, boshqaruv vazifalarini taqsimlashni va rahbarlik qobiliyatini shakllantirishni o'rganadilar. Bu jarayonlarni rivojlanishida bizningcha ta'lim klasterlarining uyg'unligi o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonini klaster orqali amalga oshirishda "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari" to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori ham o'ziga xos ahamiyatga ega.³

Milliy malakalar ramkasi - har bir malaka darajasi bo'yicha kasb faoliyatini amalga oshirish uchun talab qilinadigan bilimlar, mahorat, ko'nikma, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar, malaka darajasini egallash yo'llari belgilanadi. Bilim axborotning hajmi va murakkabligi, innovatsiyaviyligi nazariy va amaliy bilimlar nisbati. Mahorat va ko'nikmalar - kasb vazifalarini bajarishning variantligi, vazifalarni hal qilish zarurati va uning yo'llarini ishlab chiqish, aniqlash imkoniyatidir. Kompetensiyalar esa: - rahbarlik ostidagi faoliyat, mustaqil ijro intizomi, rahbarlik faoliyati ko'lami - vakolat va mas'uliyatning kengligini tushunish mumkin.

Ta'lim klasterlari maktablar, universitetlar, davlat idoralari, notijorat tashkilotlar va biznes kabi bir nechta manfaatdor tomonlarni birlashtirgan holda, umumiy muammolarni hal etish va hamkorlik qilishga, shuningdek, innovatsiya va bilim almashishni rag'batlantirishga qaratilgan. Bu esa ta'lim tizimini takomillashtirishning samarali usuli hisoblanib, ta'lim klasterlari ta'limning turli darajalari o'rtasidagi hamkorlikni ham qo'llab - quvvatlaydi.

Ushbu hamkorlikni qo'llab - quvvatlanishida Ta'lim to'g'risidagi qonunning 3 - moddasi, asosiy tushunchalariga kiritilgan "Ta'lim kampusi" - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat. Bularning talabalarga sifatli xizmati o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti ham bevosita kadrlar tayyorlashda alohida ahamiyatga ega deb bilamiz.

Har bir talabaning ijtimoiy ko'nikmalari, ilmiy salohiyatining rivojlanishi jahon andozalarida belgilangan, bilim ko'nikma malakalarni egallashlarida, universitetlar turli innovatsion fasilatatorlik, mentorlik dasturlarini nazariy va amaliy o'rganish, ayniqsa boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan hamkorlik qilish, raqobatbardosh kadrlar salohiyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Talabaning shaxsiy motivatsiyasi, o'zini rivojlantirishga bo'lgan istagi, kasbiy sohasiga qiziqishi kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Mentorlar yoki tajribali mutaxassislarning qo'llab - quvvatlashi ham talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Ta'lim klasterlarining asosiy afzalliklaridan biri resurslar va tajribalarni birlashtirishidir. Birgalikda ishlash orqali muassasalar, shu bilan birga, boshqa tashkilotlar ham takomillashtirilgan o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi hamda o'quv materiallarini ishlab chiqishda o'zlarining jamoaviy kuch va imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Bu esa talabalar uchun yanada samarali va qiziqarli ta'lim jarayonini vujudga keltiradi. Shu o'rinda klaster modeli ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va sanoat korxonalarini o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu tizimni rivojlantirishda dual ta'lim, innovatsion texnologiyalar va universitet-sanoat hamkorligi muhim o'rin tutadi⁵.

Zamonaviy ta'lim klasterini amalga oshiruvchi raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlashning mazmuniga zamonaviy virtual ta'lim imkoniyatlarini oqilona foydalanish bilimlarini singdirish, raqamli sharoitida bo'lajak pedagoglarni virtual ijtimoylashuvini ta'minlashga maqsadli tayyorlashning pedagogik mexanizmini takomillashtirilmoqda⁷. Virtual borliqqa mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishning yana bir pedagogik xususiyati virtual

moderatorlik va tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim tizimini yanada rivojlanishida innovatsion ta'lim klasterlari va pedagogik konsuilmlarning integratsiyasi ham maqsadga muvofiqdir. Ta'limdagi klasterlar konsepsiyasi vaqt o'tishi bilan turli ta'lim ehtiyojlari va muammolariga javob sifatida rivojlanib boraveradi.

Mutaxassislarni tayyorlash jarayonida pedagogik klasterlarning o'rni beqiyosdir. U nafaqat ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan ilmiy tahlillar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik klasterlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Birinchidan, pedagogik klasterlar orqali ta'lim jarayoni mehnat bozori talablariga moslashtiriladi. Bu tizim mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirish imkonini beradi. Natijada bitiruvchilar raqobatbardosh, malakali va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lib yetishadilar.

Ikkinchidan, pedagogik klasterlar ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va uni amaliyot bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilar va talabalarni ilmiy izlanishga jalb qiladi, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Uchinchidan, klaster tizimi o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni shakllantirish uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan bog'lash, innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'z kasbiy mahoratini oshiradi, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, pedagogik klasterlar hududiy va milliy darajada kadrlar siyosatini takomillashtirish, iqtisodiyotning turli sohalarida malakali kadrlar ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Hududiy klasterlar orqali aniq sohalar uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yiladi, bu esa mintaqalarda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning jadallashishiga olib keladi.

Beshinchidan, pedagogik klasterlar ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlab, ta'limni jamiyat va bozor iqtisodiyoti ehtiyojlari bilan uyg'unlashtiradi. Bu jarayon nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki yoshlarni kelajakda jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga ham zamin yaratadi.

Umuman olganda, pedagogik klasterlar:

- mutaxassislarni tayyorlashda sifat va samaradorlikni oshiradi;
- mehnat bozoriga moslashuvchan va raqobatbardosh kadrlarni yetishtiradi;
- ta'limni amaliyot va ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtiradi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va uni amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi;
- hududiy va milliy taraqqiyot uchun intellektual salohiyatli inson resurslarini yaratadi.

Shu sababli, pedagogik klasterlarni rivojlantirish, ularning samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimi, balki mamlakatning raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyoti uchun muhim strategik omil sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Yunesko 2030-yilgacha Xalqaro ta'lim konsepsiyasi. <https://www.unesco.org/ru>.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 34 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. V.M. 2020. 15-may 287-s.q.
4. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun. Toshkent. 2020 y.

5. Zulxaydarov J. “Ta’lim klasterlari: mazmun-mohiyati, zarurati, sohada mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari. <https://edjouuurnal.uz>.29.12.2023.y.

6. Komilova F.M. Raqobatbardosh kadrlarni tayyprlashda pedagogik klasterlarning ahamiyati. Maktabgacha ta’lim taraqqiyoti, muammo yechim va istiqbol” Respublika ilmiy-amaliy anjuman. Andijon. 9-10 aprel 2025-yil.571b.

Sharifova Nigora Axtam qizi,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING IJODIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot oliy ta'lim tizimida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini neyropedagogik tamoyillar asosida rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada miya faoliyatining o'rganish jarayonlariga ta'sirini tahlil qiluvchi neyropedagogika fanining yutuqlaridan foydalangan holda yaratilgan maxsus metodika taklif etilgan bo'lib, tadqiqot doirasida pedagogik eksperiment o'tkazilib, tajriba va nazorat guruhlari tashkil etilganligi haqidagi ilmiy ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: neyropedagogika, kreativlik, ijodiy faollik, oliy ta'lim, metodika, kognitiv ko'nikmalar, divergent fikrlash, neyrofiziologiya, ta'lim texnologiyalari.

Аннотация. настоящее исследование посвящено вопросу разработки и внедрения в практику эффективной методики развития навыков творческой деятельности учащихся в системе высшего образования на основе нейропедагогических принципов. В статье предложена специальная методика, созданная с использованием достижений нейропедагогической науки, анализирующая влияние мозговой деятельности на процессы обучения, изложена научная информация о том, что в рамках исследования проводится педагогический эксперимент и организуются экспериментально-контрольные группы.

Ключевые слова: нейропедагогика, креативность, творческая активность, высшее образование, методология, познавательные навыки, дивергентное мышление, нейрофизиология, образовательные технологии.

Annotation. this research is devoted to the issue of developing and practicing an effective methodology for developing students' creative activity skills in the higher education system on the basis of neuropedagogical principles. The article proposed a special methodology created using the achievements of the science of neuropedagogy, which analyzes the impact of brain activity on learning processes, and the scientific data on the formation of experimental and control groups, carried out a pedagogical experiment within the framework of the study.

Key words: neuropedagogy, creativity, creative activism, higher education, methodology, cognitive skills, divergent thinking, neurophysiology, educational technologies.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va yuqori texnologiyalar asrida jamiyat taraqqiyoti nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtirgan, balki yangi g'oyalarni yarata oladigan, murakkab muammolarga nostandart yechimlar topa oladigan ijodkor shaxslarni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlarida ham ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklanadi, chunki aynan ular mamlakatning intellektual kelajagini shakllantiradigan mutaxassislarni tayyorlaydi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kun oliy ta'limining eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. An'anaviy ta'lim paradigmasi, asosan, tayyor bilimlarni uzatish va yod olishga qaratilgan bo'lib, talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashiga, kreativligini namoyon etishiga yetarlicha imkoniyat yaratmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi o'zgaruvchan talablarga moslashishida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kreativlik va nostandart fikrlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda an'anaviy ta'lim metodlari bu talablarga to'laqonli javob bera olmayapti.

Ushbu muammoni hal etishda fanlararo yondashuvlar, xususan, pedagogika, psixologiya va neyrofiziologiya fanlari yutuqlarini integratsiya qilish orqali yangi samarali metodikalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan neyropedagogika fani aynan shunday istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Neyropedagogika ta'lim jarayonini inson miyasining ishlash qonuniyatlari, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash mexanizmlari nuqtai nazaridan o'rganadi. Ushbu yondashuv o'qitish jarayonini miya uchun "tabiiy" va samarali tarzda tashkil etish, o'quv materialini o'zlashtirishni yengillashtirish hamda talabalarning kognitiv, shu jumladan, ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada faollashtirish imkonini beradi. Ijodiy faoliyat miyaning murakkab funksiyasi bo'lib, uning asosida neyron tarmoqlarining o'zaro muvofiqlashgan harakati, xususan, standart bo'lmagan assotsiativ aloqalarni o'rnatish, turli xil axborotlarni sintez qilish va yangi g'oyalarni generatsiya qilish qobiliyati yotadi. Demak, o'quv jarayonini neyrofiziologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish orqali ijodiy fikrlash uchun mas'ul bo'lgan miya tuzilmalarini rag'batlantirish va shu orqali talabalarning kreativlik darajasini oshirish mumkin.

Mavzu metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – neyropedagogik tamoyillar va metodlarga asoslangan holda oliy ta'lim talabalarining ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodikani ishlab chiqish, uni tajribasindan o'tkazish va samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotning gipotezasi sifatida quyidagi faraz ilgari suriladi: agar ta'lim jarayoni neyropedagogik yondashuvlar (masalan, muammoli-vaziyatli o'qitish, metakognitiv strategiyalarni qo'llash, polimodial kanallar orqali axborot uzatish, kognitiv yuklamani optimallashtirish) asosida tashkil etilsa, bu talabalarning divergent fikrlash ko'rsatkichlari (ravonlik, egiluvchanlik, o'ziga xoslik)ning an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori o'sishiga olib keladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda ilk bor mahalliy oliy ta'lim amaliyoti uchun talabalar kreativligini rivojlantirishning neyropedagogik asoslari tizimlashtiriladi va miya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi amaliy metodika taklif etiladi.

Ijodkorlik va uni rivojlantirish muammosi azaldan pedagogika va psixologiya fanlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. XX asrning o'rtalarida J. Gilford o'zining "intellekt kubi" modelida konvergent (bir to'g'ri javobga yo'naltirilgan) va divergent (ko'p variantli yechimlarni izlashga qaratilgan) fikrlash tushunchalarini fanga kiritdi va ijodkorlikning asosini aynan divergent fikrlash tashkil etishini asoslab berdi [1]. Uning ishlari ijodkorlikni psixometrik o'lchash bo'yicha keyingi tadqiqotlarga, xususan, E.P. Torrens tomonidan yaratilgan mashhur kreativlik testlariga zamin yaratdi. Torrens kreativlikni muammolarga sezgirlik, g'oyalar ravonligi, fikrlar egiluvchanligi va o'ziga xosligi kabi komponentlar orqali tavsiflagan [2]. M. Csikszentmihalyi esa ijodiy jarayonni shaxsning faoliyatga to'liq sho'ng'ishi va undan zavqlanishi bilan bog'liq bo'lgan "oqim" (flow) holati orqali tushuntiradi [3]. Ushbu klassik nazariyalar ijodkorlikning kognitiv va shaxsiy jihatlarini ochib bergan bo'lsa-da, uning neyrobiologik asoslari uzoq vaqt davomida yetarlicha o'rganilmagan edi.

So'nggi o'n yilliklarda neyrofiziologiya fanining yutuqlari, xususan, funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRT) kabi neyrovizualizatsiya texnologiyalarining paydo bo'lishi ijodiy fikrlashning miyadagi mexanizmlarini o'rganishga keng yo'l ochdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy jarayon miyaning qaysidir bir "ijodkorlik markazi"da emas, balki bir nechta neyron tarmoqlarining o'zaro murakkab hamkorligi natijasida yuzaga keladi. Xususan, "sukut holatidagi rejim tarmog'i" (Default Mode Network) g'oyalarni erkin generatsiya qilish va assotsiatsiyalar qurishda, "ijroiya nazorat tarmog'i" (Executive Control Network) esa ushbu g'oyalarni baholash, saralash va maqsadga yo'naltirishda muhim rol o'ynashi aniqlangan [4, 5]. A. Dietrichning ishlari shuni ko'rsatadiki, ijodiy g'oyalar ham ongli, mantiqiy mulohazalar

(prefrontal korteks faoliyati bilan bog'liq) natijasida, ham to'satdan, intuitiv tarzda (miyaning temporal va parietal bo'laklari faollashuvi bilan) paydo bo'lishi mumkin [6].

O'zbekistonlik olimlar ham ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratib kelishmoqda. Jumladan, R. Ishmuhamedov o'z asarlarida interfaol ta'lim metodlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini chuqur yoritib bergan [7]. Uning ishlarida talabalarni faol o'quv-bilish faoliyatiga jalb etish orqali ularning mustaqil fikrlash va ijodiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. M. Ochilov esa pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning didaktik imkoniyatlarini tadqiq qilgan [8]. Shuningdek, O'zbekistonda neyropedagogika sohasidagi ilk tadqiqotlarda M.G. Davletshin va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan ilmiy maktabning hissasi katta [9]. Ular ta'lim jarayonini o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zaruratini asoslab berishgan. Shu bilan birga, bevosita neyrofiziologik qonuniyatlarni oliy ta'lim talabalarining kreativligini rivojlantirish metodikasi bilan bog'lovchi maxsus tadqiqotlar deyarli mavjud emasligi ushbu maqolaning dolzarbligini yanada oshiradi [10].

Ushbu tadqiqotning maqsadi va ilgari surilgan gipotezasini tekshirish uchun kvaziekperimental tadqiqot dizayni qo'llanildi. Tadqiqotda dastlabki va yakuniy diagnostika bosqichlarini o'z ichiga olgan pedagogik eksperiment asosiy metod sifatida tanlandi. Eksperiment 2024-2025 o'quv yili davomida Toshkent davlat pedagogika universitetining 2-kursida tahsil olayotgan 100 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida ikkita guruhga – 50 kishilik tajriba guruhi (TG) va 50 kishilik nazorat guruhiga (NG) ajratildi. Tadqiqotning boshida ikkala guruh talabalarining ijodiy faollik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki kesim (pre-test) o'tkazildi. Diagnostika vositasi sifatida E.P. Torrensning verbal batareyasining O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan va standartlashtirilgan varianti ishlatildi. Ushbu test divergent fikrlashning to'rtta asosiy komponentini baholash imkonini beradi: fikrlar ravonligi (belgilangan vaqt ichida berilgan g'oyalar soni), egiluvchanlik (turli toifadagi g'oyalarni taklif qilish qobiliyati), o'ziga xoslik (g'oyalarning noyobligi va kutilmaganligi) hamda detallashtirish (g'oyalarni boyitish va rivojlantirish qobiliyati).

Tadqiqotlar tahlili. Eksperimentning asosiy bosqichi bir semestr (to'rt oy) davom etdi. Bu davrda nazorat guruhida mashg'ulotlar an'anaviy uslubda, ya'ni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar shaklida, tayyor bilimlarni uzatishga yo'naltirilgan holda olib borildi. Tajriba guruhida esa muallif tomonidan neyropedagogik tamoyillarga asoslanib ishlab chiqilgan maxsus metodika qo'llanildi. Ushbu metodika quyidagi elementlarni o'z ichiga oldi: 1) **Muammoli-vaziyatli o'qitish:** har bir mashg'ulot talabalar oldiga real hayotiy yoki ilmiy muammoni qo'yish bilan boshlandi, bu esa ularning prefrontal korteksini faollashtirib, yechim izlashga undaydi; 2) **Metakognitiv strategiyalarni rivojlantirish:** talabalarga o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish, baholash va boshqarish ("qanday o'ylayotganim haqida o'ylash") o'rgatildi; 3) **Polimodial axborot taqdimoti:** o'quv materialini nafaqat verbal (matn, nutq), balki vizual (sxemalar, infografika), kinestetik (amaliy harakatlar) kanallar orqali ham taqdim etildi, bu esa miyaning turli qismlarini jalb qilib, assotsiativ aloqalarni mustahkamlaydi; 4) **"Miya hujumi" va "Sinektika" kabi ijodiy texnikalar:** bu usullar nostandart g'oyalar generatsiyasini rag'batlantirish va ichki senzura to'siqlarini yengishga yordam beradi.

Eksperiment yakunida ikkala guruhda ham xuddi shu diagnostik vosita yordamida yakuniy kesim (post-test) o'tkazildi. Olingan ma'lumotlarning statistik tahlili IBM SPSS Statistics 26.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Guruhlar ichidagi va guruhlararo farqlarni aniqlash uchun tavsifiy statistika (o'rtacha qiymat, standart chetlanish) va induktiv statistika metodlari, xususan, bog'liq bo'lmagan tanlamalar uchun Studentning t-mezone qo'llanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o'tkazilgan diagnostika natijalari tajriba va nazorat guruhlariga jalb etilgan talabalarining ijodiy fikrlash darajasi bo'yicha deyarli bir xil boshlang'ich pozitsiyada ekanligini ko'rsatdi. Ikkala guruhning Torrens testi bo'yicha o'rtacha

ko'rsatkichlari orasida statistik ahamiyatga ega bo'lgan farq kuzatilmadi ($p > 0.05$), bu esa eksperimentning validligini ta'minlash uchun muhim shart hisoblanadi. Dastlabki natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhleri talabalarining dastlabki diagnostika natijalari (o'rtacha ko'rsatkichlar)

| Ijodiy fikrlash komponentlari | Tajriba guruhi (n=50) | Nazorat guruhi (n=50) | t-mezon qiymati | Statistik farq (p) |
|-------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------|--------------------|
| Ravonlik | 14.2 | 14.5 | -0.48 | > 0.05 |
| Egiluvchanlik | 7.8 | 7.6 | 0.35 | > 0.05 |
| O'ziga xoslik | 5.1 | 5.3 | -0.31 | > 0.05 |
| Detallashtirish | 9.3 | 9.1 | 0.29 | > 0.05 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksperiment boshida ikkala guruhning barcha to'rtta komponent bo'yicha o'rtacha ballari bir-biriga juda yaqin. Bu holat tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichida yuzaga keladigan har qanday o'zgarishni bevosita qo'llanilgan ta'lim metodikasining ta'siri sifatida baholashga imkon beradi. Nazorat guruhidagi talabalarining ko'rsatkichlari an'anaviy ta'lim sharoitidagi talabalar uchun xos bo'lgan o'rtacha ijodiy salohiyatni aks ettiradi, bu esa ularning asosan reproduktiv faoliyatga o'rganib qolganliklari bilan izohlanishi mumkin.

Pedagogik eksperimentning asosiy bosqichi yakunlangach, o'tkazilgan yakuniy diagnostika natijalari tajriba guruhida ijodiy faollik ko'nikmalarining sezilarli darajada o'sganini namoyon qildi. Nazorat guruhida ham ma'lum darajada ijobiy o'zgarish kuzatilgan bo'lsa-da, bu o'sish sur'ati tajriba guruhidagiga nisbatan ancha past bo'ldi. Yakuniy natijalarning qiyosiy tahlili 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval. Tajriba va nazorat guruhleri talabalarining yakuniy diagnostika natijalarining qiyosiy tahlili

| Ijodiy fikrlash komponentlari | Tajriba guruhi (n=50) | Nazorat guruhi (n=50) | t-mezon qiymati | Statistik farq (p) |
|-------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------|--------------------|
| Ravonlik | 21.8 | 15.6 | 7.15 | < 0.01 |
| Egiluvchanlik | 12.4 | 8.2 | 6.89 | < 0.01 |
| O'ziga xoslik | 10.5 | 6.1 | 8.02 | < 0.01 |
| Detallashtirish | 15.2 | 10.3 | 6.54 | < 0.01 |

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhi talabalarining barcha ko'rsatkichlari nazorat guruhidagilarga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ($p < 0.01$). Masalan, "ravonlik" ko'rsatkichi tajriba guruhida o'rtacha 7.6 ballga (53.5%) oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu o'sish atigi 1.1 ballni (7.6%) tashkil etdi. Bu shundan dalolat beradiki, neyropedagogik metodlar talabalarni qisqa vaqt ichida ko'plab g'oyalarni generatsiya qilishga samarali o'rgatadi. Eng katta farq "o'ziga xoslik" komponentida kuzatildi. Tajriba guruhida bu ko'rsatkich 105.8% ga o'sdi, nazorat guruhida esa atigi 15.1% ga. Bu esa taklif etilgan metodika nafaqat g'oyalar sonini, balki ularning sifati, noyobligi va kutilmaganligini oshirishga xizmat qilishini isbotlaydi. Neyropedagogik yondashuvning asosiy samarasi miyaning turli bo'limlari o'rtasida nostandart assotsiativ aloqalarni o'rnatishga sharoit yaratishida namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar talabalarni mavjud bilimlar shablonidan chiqib, yangi bog'lanishlarni izlashga majbur qiladi. Polimodial axborot taqdimoti esa bir vaqtning o'zida ham chap, ham o'ng yarimsharlarni faollashtirib, mantiqiy va obrazli tafakkur sintezini ta'minlaydi. Olingan natijalarning statistik tahlili ilgari surilgan gipotezaning to'g'riligini to'liq tasdiqlaydi: neyropedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining ijodiy faollik ko'nikmalarini an'anaviy metodlarga qaraganda ancha samarali rivojlantiradi.

Olingan natijalar neyropedagogikaning amaliy imkoniyatlari naqadar keng ekanligini va uning tamoyillarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar kreativligini rivojlantirishda tub burilish yasashi mumkinligini ko'rsatadi. Tajriba guruhidagi yuqori o'sish sur'atlarini bir nechta neyrofizologik va psixologik omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, muammoli vaziyatlarni hal qilish talabalarda kognitiv dissonansni keltirib chiqaradi, bu esa miyaning izlanish faolligini keskin oshiradi. Bu jarayon, ayniqsa, yangi yechimlarni topish va rejalashtirish uchun mas'ul bo'lgan prefrontal korteks faoliyatini rag'batlantiradi. An'anaviy ta'limda esa talaba asosan passiv qabul qiluvchi rolida bo'lib, uning miyasi asosan ma'lumotni eslab qolish rejimida ishlaydi. Ikkinchidan, metakognitiv strategiyalarni qo'llash talabalarga o'z fikrlash jarayonlariga "tashqaridan nazar solish" imkonini beradi. Bu o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati miyaning ijroiya nazorat tarmog'i (Executive Control Network) funksiyalarini kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida g'oyalarni samarali filtrlash va eng istiqbollilarini tanlab olishga yordam beradi. Bu natijalar [5] tadqiqotlarida ilgari surilgan ijodkorlikda ikki muhim neyron tarmog'ining o'zaro hamkorligi haqidagi nazariyaga mos keladi.

Ushbu tadqiqot natijalari xalqaro miqyosdagi neyrota'lim sohasidagi ilg'or tajribalar bilan hamohangdir. Masalan, D.J. Siegel o'z ishlarida ongli farklilik (mindfulness) amaliyotlari va refleksiya miyaning neyroplastikligini oshirib, ijodiy salohiyatni kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi [10]. Bizning metodikamizdagi metakognitiv komponentlar aynan shu g'oyalarga asoslanadi. Shuningdek, nazorat guruhidagi o'sishning sustligi an'anaviy ta'lim tizimining fundamental kamchiligini – uning ijodkorlikni rag'batlantirish o'rniga, ko'pincha ongsiz ravishda standartlashtirilgan fikrlashni kuchaytirishini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu holat J. Gilfordning [1] konvergent fikrlashning dominantligi ijodiy potensialni cheklashi haqidagi fikrlarini amaliy jihatdan isbotlaydi.

Albatta, ushbu tadqiqot ma'lum cheklovlarga ega. Tadqiqot faqat bitta oliy ta'lim muassasasi va bir xil mutaxassislik yo'nalishi talabalari bilan cheklangan. Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu metodikani turli soha talabalariga (masalan, gumanitar va texnik yo'nalishlar) qo'llash orqali uning universalligini tekshirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ijodiy ko'nikmalarning uzoq muddatli istiqbolda qanchalik saqlanib qolishini o'rganish uchun longityud tadqiqotlar o'tkazish muhim. Shunga qaramay, olingan natijalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida o'quv dasturlari va o'qitish metodologiyasini qayta ko'rib chiqish, ularga neyro-asoslangan yondashuvlarni kengroq joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u oliy ta'limda kreativlikni rivojlantirish muammosiga fanlararo yondashuvni taklif etadi va ta'lim jarayonini inson miyasining ishlash qonuniyatlari bilan uyg'unlashtirish zaruratini asoslaydi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan metodikadan oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida keng foydalanish mumkinligidadir. Taklif etilgan yondashuvlar nafaqat talabalarining ijodiy qobiliyatlarini oshirishga, balki ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga, o'quv materialini chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda neyrota'lim sohasidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish, jumladan, turli yoshdagi va turli qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar uchun individual neyro-didaktik trayektoriyalarni ishlab chiqish O'zbekiston ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy tadqiqot neyropedagogik yondashuvlarning talabalarining ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini ishonchli tarzda isbotladi. O'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli-vaziyatli o'qitish, metakognitiv strategiyalarni rivojlantirish va polimodial axborot taqdimoti kabi neyro-asoslangan metodlarni o'z ichiga olgan maxsus ishlab chiqilgan metodika talabalarining divergent fikrlashining barcha muhim komponentlari – ravonlik, egiluvchanlik, o'ziga xoslik va detallashtirish qobiliyatlarini an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda ancha yuqori sur'atda o'stirishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari ilgari surilgan ilmiy gipotezani

to'liq tasdiqladi va neyropedagogikaning nazariy qoidalarini amaliy ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etish mumkinligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

8. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. McGraw-Hill.
9. Torrance, E. P. (1974). *The Torrance Tests of Creative Thinking-Norms-Technical Manual Research Edition-Verbal Tests, Forms A and B-Figural Tests, Forms A and B*. Ginn and Company.
10. Csikszentmihalyi, M. (1996). *Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention*. Harper Perennial.
11. Beaty, R. E., Benedek, M., Silvia, P. J., & Schacter, D. L. (2016). Creative cognition and brain network dynamics. *Trends in Cognitive Sciences*, 20(2), 87–95. <https://doi.org/10.1016/j.tics.2015.10.004>
12. Jung, R. E., Mead, B. S., Carrasco, J., & Flores, R. A. (2013). The structure of creative cognition in the human brain. *Frontiers in Human Neuroscience*, 7, 330. <https://doi.org/10.3389/fnhum.2013.00330>
13. Dietrich, A. (2004). The cognitive neuroscience of creativity. *Psychonomic Bulletin & Review*, 11(1), 1–11. <https://doi.org/10.3758/BF03196525>
14. Ishmuhamedov, R. J. (2008). *Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari* [Ways to increase the effectiveness of education using innovative technologies]. TDPU.
15. Ochilov, M. (2013). *Yangi pedagogik texnologiyalar* [New pedagogical technologies]. Ishonch.
16. Davletshin, M. G. (2002). *Zadachi i perspektivy psikhologicheskoy nauki v Uzbekistane* [Tasks and prospects of psychological science in Uzbekistan]. *Psikhologicheskii zhurnal*, 23(4), 112-115.
17. Siegel, D. J. (2012). *The Developing Mind: How Relationships and the Brain Interact to Shape Who We Are* (2nd ed.). The Guilford Press.

D.I.Tosheva,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogik ta'lim kafedrası dotsenti,
Pedadodika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).
Rahmatova Sarvinoz,
2- bosqich talabasi
Buxoro Xalqaro Universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi

MEDIA TA'LIM VOSITASI ASOSIDA TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH ZAMONAVIY TA'LIMNING ASOSIY TAMOYILI.

Anotatsiya. *Mediya ta'lim vositalari zamonaviy ta'lim jarayonlarida samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada media vositalarining ta'lim jarayonini tashkil etishdagi roli, ularning ta'lim sifatiga ta'siri hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, media vositalari orqali ta'lim jarayonini interfaol va qiziqarli qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *media ta'lim vositalari, zamonaviy ta'lim, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация. *Медиа-образовательные средства являются важным фактором повышения эффективности современного образовательного процесса. В данной статье рассматривается роль медиа-средств в организации учебного процесса, их влияние на качество образования, а также интеграция с современными педагогическими технологиями. Анализируются возможности использования медиа-средств для создания интерактивного и увлекательного учебного процесса.*

Ключевые слова: *медиа-образовательные средства, современное образование, учебный процесс, педагогические технологии, интерактивное обучение, эффективность обучения.*

Abstract. *Media educational tools play a significant role in enhancing the efficiency of modern educational processes. This article discusses the role of media tools in organizing the learning process, their impact on education quality, and their integration with modern pedagogical technologies. It also analyzes the opportunities media tools provide to make the learning process interactive and engaging.*

Key words: *media educational tools, modern education, learning process, pedagogical technologies, interactive learning, learning efficiency.*

Kirish: XXI asrda globallashuv, raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim jarayoniga ham tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda o'quvchi va talabalarning bilim olish jarayonida faqatgina an'anaviy darslik va auditoriya yetarli emas. Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va tanqidiy tafakkurga o'rgatish uchun mediya ta'lim vositalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning asosiy tamoyiliga aylanmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, media vositalarining to'g'ri qo'llanilishi o'quvchilarning diqqatini jamlash, ma'lumotlarni osonroq tushunish va mustahkamlash imkonini beradi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda media vositalari ta'lim jarayonini yanada boyituvchi va qiziqarli qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi. Ushbu maqola media ta'lim vositalarining ta'lim jarayonini tashkil etishdagi roli va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

So'nggi o'n yilliklarda "media" atamasi nafaqat ommaviy axborot vositalari tizimini, balki ularning jamiyatdagi o'rni, ta'siri va kommunikatsiya jarayonlarining yangi shakllarini ifodalash uchun keng qo'llanilmoqda. Media so'zi lotincha *medium* - "vosita", "o'rta" degan

ma'noni anglatadi. Media - axborotni etkazish, almashish va saqlash uchun ishlatiladigan vositalar majmuasidir.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Media tarixi qadim matbaa ixtirosidan boshlanib, keyinchalik radio, kino va televideniyaning paydo bo'lishi bilan yanada rivojlandi. XX asrda internetning paydo bo'lishi bilan media vositalari raqamli shaklga o'tdi va global axborot makonini yaratdi. Internetning kengayishi va mobil qurilmalar orqali doimiy aloqaning mavjudligi media vositalarining jamiyat hayotidagi rolini tubdan o'zgartirdi.

Bugungi kunda media - bu nafaqat axborot manbai, balki madaniy, ijtimoiy va pedagogik jarayonlarning markazi hisoblanadi. Bundan tashqari, media tushunchasini kengroq qamrab olishda uning kommunikatsiya jarayonidagi vosita sifatidagi rolini alohida ta'kidlash kerak. Axborotni bir tomonlama tarqatishdan ko'ra, bugungi media interaktiv, ikki tomonlama muloqotga asoslangan, foydalanuvchi ishtirokini rag'batlantiradi. Shu sababli, media jamiyatda axborot oqimini shakllantirish, fikr almashish va ta'limni samarali tashkil etishda strategik vositaga aylandi.

Mediya ta'lim vositalari - ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda foydalaniladigan barcha turdagi ommaviy axborot va raqamli kommunikatsiya vositalarini anglatadi. Ushbu vositalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, mavzuni tushunishni osonlashtirish va o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish uchun mo'ljallangan.

Bugun ta'lim jarayonini bu vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U orqali ta'lim mazmuni va sifati ortadi. Ta'lim oluvchilarni barcha bilish xususiyatlari oshishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda mediya ta'lim vositalariga quyidagilar kiradi: audio va video materiallar, multimediya dasturlari, ijtimoiy media platformalari, interaktiv ta'lim dasturlari, raqamli kutubxonalar va onlayn resurslar kiradi. Yuqirida nomi keltirilgan media vositalar dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi tomonidan qo'llanmoqda. Media vositalar va ularning ahamiyati haqida turli olimlar o'z tadqiqotlarida fikr bildirganlar va ularning ahamiyatini to'laqonli ochib berganlar.

Tadqiqotchi olim J.Azimov "Audiovizual vositalarning ta'limdagi roli". mavzusida olib brogan tadqiqotlarida quyidagilarni ilgari surgan. Audio va video materiallar-bu vositalar orqali ma'ruzalar, hujjatli filmlar, animatsiyalar va vizual tushuntirishlar taqdim etiladi. Audiovizual vositalar murakkab tushunchalarni yengilroq anglashga yordam beradi, chunki ular ko'rish va eshitish orqali o'rganishni ta'minlaydi Bu esa, ayniqsa, vizual o'rganishga moyil o'quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat bugun maktabgacha ta'lim tashkilotidan toki oliy ta'lim muassasalariga qadar ta'lim jarayonida bunday medaia vositalardan keng foydalanilmoqda va bu ta'lim mazmunini yanada boyitishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari yana mediya vositalardan biri bu multimediya dasturlari hisoblanadi.

R.Johnson -video texnologiyalar, bolalarning o'rganishi va o'qitishda video-dasturlardan foydalanish bo'yicha bir qancha ishlar olib borgan olim sifatida multimedia dasturlarning ahamiyatli tomonlarini ochib bergan. Uning ta'kidlashicha "Interaktiv o'quv platformalari, o'yinlar, simulyatsiyalar va elektron kitoblar o'quvchilarning turli sezgi organlarini jalb qiladi, bu esa ularni bilimni puxta egallashiga, ma'lumotni analiz qilishga, fikrlarni yoki g'oyalarni anglashga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Multimedia vositalari orqali o'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli shaklda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi".

Ijtimoiy media platformalari ham media ta'lim vositasi bo'lib bugun ular kirmagan biror soha qolmadi. Bu vositalarni yaratuvchilar esa eng avvalam bor insonlar manfaatiga xizmat qilishini ta'minlashni nazarda tutgan. Bunday vositalar: Telegram, YouTube, Facebook, Zoom, MS Teams, Webex, Moodle, Google Classroom, Edmodo va boshqa shu kabi platformalar o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida tezkor axborot almashinuvi va hamkorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy media ta'lim jarayonini interaktiv, jamoaviy va hamkorlikka asoslangan shaklga

keltiradi. Shuningdek, ijtimoiy media ta'limni yanada keng auditoriyaga yetkazish va fikr almashishga imkon yaratadi.

M O'tdinov o'zining "Pedagogik mahorat" jurnalida yozgan maqolasida interaktiv ta'lim dasturlari va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi yoritilgan. Unda aynan interaktiv ta'lim dasturlariga kiruvchi Kahhot, Duolingo, Quizizz kabi dasturiy vositalar, onlayn testlar, viktorinalar, virtual laboratoriyalar va real vaqt rejimidagi muloqot tizimlari kiritilgan. Bu vositalar o'quvchilarning o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirishiga yordam beradi va ularni faol o'rganishga undaydi.

Mediya ta'lim vositalaridan yana biri bu raqamli kutubxonalar va onlayn resurslar bazasi hisoblanadi. Bugungi kunda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganishda yoki mustaqil ta'lim olishda bu vositalar keng xizmat qilmoqda.

Yevropada XX asrda elektiron kitoblar ba'zasini shakllantirish yo'lga qo'yilgan. Smith va Jonslar aynan qo'lyozma manbalarning elektiron katalogini yaratish bu OTM olimlari uchun juda muhimligini ta'kidlab o'tgan. Unga ko'ra elektron kitoblar, ilmiy maqolalar, ma'lumotlar bazalari va o'quv portallari o'quvchilarga keng ko'lamda mustaqil izlanish imkonini beradi. Bu resurslar yordamida o'quvchilar o'z qiziqishlariga mos mavzularni chuqurroq o'rganishlari mumkin.

Shu bilan birga, mediya ta'lim vositalarining tarkibi doimiy ravishda yangi texnologiyalar bilan boyib boradi. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar qo'shmoqda.

Mediya ta'lim vositalari o'quvchilarning ta'lim jarayoniga faol ishtirokini ta'minlab, ularni faollashtiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli hamda interaktiv qiladi. Ta'lim jarayonida turli shakldagi media vositalarining qo'llanilishi quyidagi pedagogik jihatlarni ta'kidlaydi.

Interaktivlikni oshirish: Multimedia va interaktiv dasturlar o'quvchilarni passiv qabul qiluvchilar emas, balki faol bilim egalariga aylantiradi. Bu o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yangi pedagogik yondashuvlarda (constructivism) o'quvchi o'zi faol ravishda bilim yaratadigan sub'ekt sifatida ko'riladi, bu esa media vositalari yordamida yanada mustahkamlanadi.

Vizual va eshitish orqali o'rganish: Audiovizual vositalar murakkab tushunchalarni vizual tarzda ko'rsatib, mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O'quvchilarning turli o'rganish uslublarini hisobga olgan holda (vizual, eshitish, kinestetik) media vositalari ta'lim jarayonini individualizatsiyalash imkonini beradi. Bugun umumta'lim maktablarida fanlarni o'tishda asosan multimediya dasturlari va visual materillardan keng foydalanilmoqda.

Mustaqil bilim olish imkoniyati: Raqamli kutubxonalar, onlayn kurslar va resurslar yordamida o'quvchilar o'zlari qiziqqan mavzularni chuqurroq o'rganishlari mumkin. Bu o'quvchilarning izlanish va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni doimiy o'rganishga rag'batlantiradi.

Hamkorlik va muloqot: Ijtimoiy media platformalari ta'lim jarayonini jamoaviy faoliyatga aylantiradi. Bu o'quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan jamoaviy o'rganish shakllari ham o'zgarib bormoqda.

Pedagogik jarayonni soddalashtirish va diversifikatsiya qilish: Media vositalari murakkab mavzularni qiziqarli tarzda yetkazish orqali pedagogik jarayonni soddalashtiradi va o'quvchilar uchun xilma-xil o'rganish imkoniyatlari yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuv: Media ta'lim vositalari ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi va raqamli savodxonlikni oshiradi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarni kelajakdagi kasb va ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida mediya ta'lim vositalari o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, axborot asrida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, shuningdek, shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. Media vositalarining ta'limga

tatbiqi o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi hamda o'quvchilarda zamonaviy axborot makonida zarur bo'lgan ko'nikma va kompetentsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mediya ta'lim vositalari o'quvchilarga turli manbalardan kelayotgan axborotni qabul qilish, tahlil qilish, solishtirish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bugungi kunda axborotning kattaligi va xilma-xilligi tufayli o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish ayniqsa muhimdir. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga ma'lumotlarni shubha bilan qabul qilish, manbasini aniqlash, noto'g'ri yoki manipulyatsion axborotni ajratib olish hamda mantiqiy va asosli xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tanqidiy fikrlashni ta'limning eng muhim komponenti sifatida ko'radi. Media vositalari yordamida o'quvchilar faollashadi, mustaqil va ongli qarorlar qabul qilish madaniyati shakllanadi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi turli axborotlarni tanqidiy tahlil qilish orqali o'quvchilar manipulyatsiya va reklama maqsadlarini sezish, faktlarni tekshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularni nafaqat o'quv jarayonida, balki hayotning turli sohalarida ham ongli va ehtiyotkor bo'lishga tayyorlaydi.

Media vositalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Video, podkast, blog yaratish, interaktiv prezentatsiyalar tayyorlash kabi vositalar o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin va turli formatlarda ifoda etish imkoniyatini beradi. Bu jarayon ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ularni jamoatchilik bilan baham ko'rish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Ijodkorlikni rivojlantirish o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, ularni ta'lim jarayoniga faolroq jalb qiladi. Media orqali yaratilgan mahsulotlar baholanib, muhokama qilinishi o'quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat natijalarining jamiyatda keng qabul qilinishi o'quvchilarni o'z-o'zini anglash va yangi imkoniyatlar izlashga undaydi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'lim jarayonini global darajaga olib chiqdi. Endilikda o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda muloqot qilish imkoniyatiga ega. Bu o'zaro madaniy aloqalar va tillarni amaliy qo'llash imkonini kengaytiradi hamda o'quvchilarning dunyoqarashini sezilarli darajada kengaytiradi.

Global kommunikatsiya ta'limni yanada interaktiv va boy qiladi, o'quvchilarni ochiq fikrli, hamkorlikka tayyor shaxs sifatida tarbiyalaydi. Bunday ko'nikmalar esa kelajakda raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishda muhim hisoblanadi. Ta'limda global kommunikatsiyani rivojlantirish o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki ularni jahon hamjamiyatining faol a'zosi qilib tayyorlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot maydonining murakkabligi o'quvchilarda axborot savodxonligini shakllantirishni ta'limning eng ustuvor vazifasiga aylantirdi. Mediya vositalari yordamida o'quvchilar to'g'ri axborotni topish, uni tekshirish, ishonchli va ob'ektiv manbalarni ajratish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Qolaversa ularning axborot savodxonligi shuningdek, internet etikasi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi sohalarida bilimlarni oshirishni ham o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarni axborot maydonida xavfsiz va ongli faol ishtirokchilar sifatida shakllantiradi. Bugungi kunda noto'g'ri va yolg'on axborot oqimlari ko'pligi sababli, axborot savodxonligi ularning to'g'ri va oqilona qarorlar qabul qilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Raqamli media vositalari ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Multimedia, animatsiyalar, o'yinlar, videodarsliklar va interaktiv testlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni yanada faol va samarali o'rganishga jalb etadi. Darsliklarida ham ta'kidlanishicha, multimedia vositalari o'quvchilarning diqqatini jamlash, mavzuni samarali egallash va uzoq muddat eslab qolishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

B.Azimov *“Audiovizual ta'lim vositalari va ularning samaradorligi”* mavzusidagi tadqiqot ishida interaktiv metodlar va ularning samarasi haqida so'z yuritib, interaktiv metodlar

o'quvchilarning passiv bilim qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanishini rag'batlantiradi deb ta'kidlagan, bu esa ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy pedagogika mustaqil o'rganishni ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirishga katta urg'u beradi. Media vositalari aynan shu nuqtai nazardan o'quvchilarga o'zlari uchun qiziqarli va dolzarb mavzularni mustaqil o'rganish imkonini beradi. Onlayn resurslar, raqamli kutubxonalar, elektron kitoblar va ilmiy maqolalar yordamida o'quvchilar mustaqil bilim olish madaniyatini shakllantiradi, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va kelajakda mustaqil fikrlaydigan, izlanishga tayyor shaxslar sifatida shakllanadi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida mediasavodxonlik ta'lim tizimiga joriy etish borasida so'nggi yillarda keng ko'lamlı amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish maqsadida multimedia va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha bir qator loyihalar boshlangan. 2020-yildan boshlab respublika maktablarida elektron darsliklar va multimediali o'quv qo'llanmalar keng joriy etilmoqda. Ushbu dasturlar nafaqat o'quvchilarga bilim olishni osonlashtirishda, balki o'qituvchilarga yangi o'qitish metodologiyalarini o'zlashtirish imkonini berdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan O'zbekiston Qozog'iston va Qirg'izistonda, mediasavodxonlikni maktab dasturlariga kiritish hamda multimedia vositalarini ta'lim jarayonida faol qo'llash uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarda o'qituvchilar raqamli texnologiyalar yordamida darslarni interaktiv va qiziqarli o'tishga o'rgatilmoqda. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayoniga yanada faol va qiziqish bilan jalb etilishiga imkon yaratmoqda.

Umumta'lim maktablarida multimedia vositalarining qo'llanilishi keng tarqalgan. Multimediali elektron qo'llanmalar nafaqat matn va rasmlardan, balki audio hamda video materiallardan iborat bo'lib, o'quvchilarga mavzuni chuqurroq va tushunarliroq o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, matematika va fizika fanlarida murakkab jarayonlar animatsiyalar va interaktiv modellar yordamida tushuntiriladi, bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshirib, mavzuni yaxshiroq anglash imkonini beradi. Tarix va geografiya fanlarida multimedia vositalari tarixiy hodisalar hamda geografik jarayonlarni jonli ko'rsatib, o'quvchilarning xotira va idrok qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Ingliz tili va rus tili fanlarini o'qitishda ham multimediya va o'yinli dasturlardan keng foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim bosqichida multimedia vositalari bolalarning eshitish, ko'rish va idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bolalar asosan sezgi va harakatlar orqali dunyoni o'rganadilar, shuning uchun rang-barang, jonli va interaktiv multimedia materiallari ularning o'rganishini samarali va qiziqarli qiladi. O'zbekistonning ayrim mintaqalarida multimediali o'yinlar va ta'limiy dasturlar yordamida bolalarning nutq, idrok va ijodiy qobiliyatlarini oshirish bo'yicha pilot loyihalar ham amalga oshirildi. Ushbu yondashuv bolaning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, o'rganishni yanada samarali qilmoqda.

Xalqaro tajribalarda esa interaktiv raqamli hikoya aytish usuli madaniy meros va ijtimoiy qadriyatlarni o'rgatishda keng qo'llanilmoqda. Ushbu usul orqali o'quvchilar o'zlari hikoyalar yaratib, ularni multimedia elementlari bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Misol uchun, Yevropa va Shimoliy Amerika maktablarida interaktiv raqamli hikoya asosida loyiha darslari o'tkazilib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati va ijodiy yondashuvlari rivojlantirilmoqda.

Rizvic tadqiqotlarida raqamli hikoya aytish usuli o'quvchilarning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlash, jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarni chuqur anglash va bir-biriga hurmat bilan qarash kabi ko'nikmalarni shakllantirishda samarali ekanligi ko'rsatildi. Bu usul o'quvchilarga axborotni passiv qabul qilish emas, balki uni tahlil qilib, yangi ma'nolar yaratishga ham imkon beradi.

Shuningdek, interaktiv vositalar raqamli hikoya aytish yordamida tarixiy voqealar, folklor va xalqaro madaniy qadriyatlar ta'lim jarayoni yanada jonli va qiziqarli bo'ladi. Bu esa

o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga va global dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi.

Mediasavodxonlik va multimedia vositalarini ta'limga joriy etish bugungi kunda shunchaki zamonaviylik belgisi emas, balki ta'lim sifatini tubdan yaxshilash uchun zarur vosita hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarda faqat axborotni qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, muhokama qilish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu bois, mediasavodxonlikni ta'limning barcha bosqichlariga kengroq integratsiya qilish lozim, chunki bu yosh avlodni raqamli dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlashning eng asosiy omilidir.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda media ta'lim vositalaridan foydalanish – ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, bu o'quvchilarda mustaqil bilim olish, tanqidiy va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Media vositalari yordamida o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni tez va oson egallashlari, balki ularni tahlil qilib, o'z fikrlarini shakllantirishlari, dunyoqarashlarini kengaytirishlari mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, global axborot makonida faol bo'lish, axborotlarni aniq tanlash va ulardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish ham media ta'lim vositalari yordamida samarali amalga oshiriladi. Raqamli savodxonlikning rivojlanishi esa o'z navbatida o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan samarali ishlashga tayyorlaydi, ularni kelajakning raqobatbardosh va bilimli fuqarolariga aylantiradi.

Qolaversa media ta'lim vositalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish nafaqat zamon talabidir, balki o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni mustaqil, kreativ va ongli shaxslar sifatida tarbiyalashning muhim omilidir. Kelajak avlodni shunday bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, ilm-fan va texnologiyalar sohasida ilg'or o'rinlarni egallashga xizmat qilish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, media ta'lim vositalarining keng joriy etilishi o'qituvchilarning ham pedagogik faoliyatini samaraliroq qilishga, ta'lim sifatini oshirishga, yangi metod va texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi. Media ta'lim vositalarini tizimli va doimiy ravishda rivojlantirish va qo'llash, ta'lim tizimining sifatini oshirishda, yosh avlodning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi

Tavsiyalar: Barcha ta'lim tizimida faoliyat yurutadigan xodimlar uchun mediya ta'lim kurslarini shakllantirish lozim. Maktablarda ham mediya ta'lim darslari joriy etilsa maqsadga muvofiq. OTMlarda Kibr pedagogika va Mediya savodxonlik darslarini barcha ta'lim yo'nalishlariga joriy etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. 1.Azimov, B. *Audiovizual ta'lim vositalari va ularning samaradorligi.diss.2019 y.110b*
2. 2.Brookfield, S. *Teaching for critical thinking. Maqolasi.2012y*
3. 3.Davletov, B. (2018). *Mediya ta'lim vositalari va pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti. 2018y 23b*
4. 4.Facione, P. A. (2015). *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment. 2015y.12b*
5. 5.Islomova, N. *Ijodiy faoliyat va o'quvchilarning ta'limdagi ishtiroki. O'zbekistonda ta'lim jurnal, 2021 y 2(1), 18-25b.*
6. 6.O'tdinov, M *Interaktiv ta'lim dasturlari va ularning samaradorligi. Pedagogika ilmiy jurnali, 3(4),2018 y 44-50b*

Hasanova Gulbahor Davlatmamatovna
Termiz davlat universiteti, tayanch doktranti

TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING MA'NAVİY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY TEXNOLOGIK TIZIMI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda tizimli yondashuvning o'rni va roli keng qamrovda tahlil qilinadi. Tizimli yondashuv - bu ta'limiy jarayonning barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liq holda rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish imkonini beruvchi yondashuv bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kamolotida muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, ongli dunyoqarash, ma'naviy ehtiyojlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy texnologik tizimlar taklif etiladi. Maqolada o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy muhit, darsliklar mazmuni, fanlararo integratsiya, ta'lim vositalarining mosligi va innovatsion metodik yondashuvlar tizimli asosda tahlil qilinadi. Xulosa sifatida esa, o'quvchilarda ongli ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish lozimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tizimli yondashuv, ma'naviy dunyoqarash, texnologik tizim, shaxs tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar, innovatsion metodika, integratsiyalashgan ta'lim, o'quvchi shaxsi.

Аннотация. Статья посвящена рассмотрению роли системного подхода в формировании духовного мировоззрения учащихся в условиях современной образовательной среды. Системный подход позволяет выстроить целостную и взаимосвязанную модель образовательного процесса, где каждый компонент (цели, содержание, методы, формы и средства обучения) способствует воспитанию нравственной, ответственной и социально активной личности. В статье предлагаются практические технологические решения, направленные на развитие у школьников ценностных ориентиров, духовно-нравственных установок и осознанного отношения к окружающему миру. Акцент сделан на необходимости интеграции гуманитарных и естественнонаучных дисциплин, использовании инновационных педагогических технологий, учёте возрастных и психологических особенностей учеников.

Ключевые слова: системный подход, духовное мировоззрение, технологическая модель, нравственное воспитание, личность учащегося, инновации в образовании, образовательная интеграция.

Abstract. This article examines the role of a systemic approach in cultivating a spiritual worldview among students within the modern educational framework. A systemic approach enables the design and implementation of a cohesive and interrelated model of education, where all components - including goals, content, methods, and tools - work together to nurture morally responsible and socially engaged individuals. The study proposes practical technological strategies to foster ethical values, civic consciousness, and reflective thinking in learners. It emphasizes the importance of integrating various disciplines, applying innovative teaching methods, and considering students' developmental and cultural characteristics. The effectiveness of such approaches is analyzed through pedagogical, psychological, and methodological lenses, highlighting the need for a more holistic and structured formation of students' spiritual identity.

Key words: systemic approach, spiritual worldview, technological model, moral development, learner personality, educational integration, innovative pedagogy, value-based education.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yosh avlod tarbiyasi, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va barkamol shaxs sifatida shakllanishi jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun

muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida yoshlarning ma'naviy olamini boyitish, ularni vatanparvar, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ichki dunyosini, axloqiy me'yorlarini, ongli hayotiy pozitsiyasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Ma'naviy dunyoqarash - bu shaxsning hayot haqidagi qarashlari, qadriyatlari, e'tiqodlari va axloqiy me'yorlariga asoslangan ichki pozitsiyasi bo'lib, u insonning qarorlar qabul qilishida, xatti-harakatlarida va jamiyatda tutgan o'rnida aks etadi. O'quvchilarda ushbu dunyoqarashni shakllantirish - ularning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bunday shakllanish esa tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli yondashuv asosidagi texnologiyalar orqali amalga oshirilishi lozim.

Tizimli yondashuv - bu o'quvchining shaxsiy rivojlanish jarayoniga bir butun tizim sifatida qarashni taqozo etadi. Ya'ni, shaxsni tarbiyalashda faqat alohida mavzular, darslar yoki tadbirlar emas, balki barcha tarbiyaviy va didaktik komponentlarning o'zaro uzviy bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimi o'zaro muvofiqlashtirilgan holda, o'quvchining ma'naviy olamiga ongli ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini tizimli yondashuv asosida shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari, texnologik jarayonlari, pedagogik sharoitlari va uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogika va axloqshunoslik fanlari yutuqlari asosida ma'naviy tarbiyaning innovatsion texnologiyalari ham ko'rib chiqiladi. Maqola davomida tizimli yondashuvning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnini, uning ahamiyati va amaliy samarasini yoritish maqsad qilingan.

Adabiyotlar sharhi. O'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda tizimli yondashuv va texnologik yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu sohada boy ilmiy meros mavjud. Tadqiqot davomida bir qator xorijiy va mahalliy pedagog-olimlar, faylasuflar, psixologlar hamda ma'naviyatshunoslar ishlariga tayanildi.

Avvalo, B.F. Lomov, V.G. Afanasyev, N.V. Kuzmina kabi rus olimlarining tizimli yondashuv bo'yicha asarlari alohida e'tiborga loyiq. Ular shaxsni rivojlantirishda o'zaro bog'liq komponentlar majmuasini izchil va bir butun holda ko'rib chiqish zarurligini asoslab bergan. Afanasyevning ilmiy qarashlarida har qanday pedagogik jarayon "tizim" sifatida qaralishi, bu tizimning o'z komponentlariga, tashqi va ichki omillarga ega ekani ta'kidlangan. Bu yondashuv bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

G'.Yo. Abdullayev, N. Jo'raev, M. Teshaboyev, O. Ubaydullayev singari o'zbekistonlik olimlar o'z tadqiqotlarida o'quvchilar shaxsini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning o'rnini, bu jarayonga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar, qadriyatlar tizimi va axloqiy yondashuvlarni yoritib bergan. Ayniqsa, G'. Abdullayevning "Ma'naviy tarbiya asoslari" nomli asarida tizimli yondashuv orqali milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish masalalari chuqur yoritilgan.

X. To'xtaboyev va A. Jo'raqulovning ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi, tarbiya muhitining ta'siri va oilaviy omillarning o'rnini borasida muhim nazariy va amaliy yo'nalishlarni taklif qiladi. Ularning yondashuvlari tizimli va integratsiyalashgan ta'lim asoslariga tayanadi.

Xorijiy adabiyotlar orasida John Dewey, Paulo Freire kabi pedagogik innovatorlarning demokratik, ongli va faol ta'lim modeli haqidagi qarashlari e'tiborga molik. Deweyning "tajriba asosidagi ta'lim" konsepsiyasi ham o'quvchilarning dunyoqarashini faqat bilimlar orqali emas,

balki hayotiy holatlar va amaliyot orqali shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv tizimli fikrlash bilan bevosita bog'liq.

Islom falsafasi va tasavvuf manbalarida ham, xususan, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Al-Farobiy, Ibn Sino kabi allomalar merosida ma'naviy kamolot, shaxs tarbiyasi va tafakkur madaniyatiga doir chuqur fikrlar mavjud. Ular tomonidan ilgari surilgan axloqiy-ruhiy qadriyatlar tizimi zamonaviy tizimli yondashuvning tarixiy ildizlariga asos bo'la oladi.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid adabiyotlar, jumladan, P. Ya. Galperin, V.V. Davыdov, L.S. Vygotskiyning psixologik-pedagogik asarlari o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, uning fikrlash qobiliyati, ongli faoliyatini shakllantirish masalalariga asosiy urg'u beradi. Bu nazariy qarashlar tizimli yondashuv asosida tuzilgan texnologik tizim uchun asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, ta'limga oid konseptual hujjatlar (masalan, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qaror, "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" konsepsiyasi va boshqalar) ham zamonaviy ma'naviy tarbiyaning davlat siyosati darajasidagi yondashuvini belgilab beradi.

Umuman olganda, bu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda tizimli yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham keng imkoniyatlarga ega. Bu yondashuvni metodik jihatdan mukammal ishlab chiqish orqali ta'limning maqsadi va mazmuni bilan o'quvchi shaxsining kamoloti o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini tizimli yondashuv orqali rivojlantirish g'oyasi tashkil etadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini – mazmun, shakl, metod, vosita va natijalarni – uzviy bog'liqlikda tashkil etishni nazarda tutadi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy-tadqiqot faoliyatining bosqichma-bosqich rejalashtirilganligi, maqsadga muvofiqligi va amaliy natijadorligini ta'minlashga qaratilgan.

Tadqiqotda asosiy nazariy-metodologik asos sifatida bir nechta yondashuvlar birgalikda qo'llanildi, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, umumiy ilmiy konsepsiyani tashkil etdi.

Avvalo, tizimli yondashuv asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga ta'sir qiluvchi barcha pedagogik, psixologik, ijtimoiy va axloqiy omillar bir butun tizim sifatida tahlil qilindi. Shaxsning ma'naviy shakllanishi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi inobatga olinib, uning har bir tarkibiy jihati – tafakkur, qadriyatlar, e'tiqod, odob va axloqiy fazilatlar – o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqildi.

Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, qiziqishlari va ijtimoiy tajribalarini chuqur o'rganish imkonini berdi. Bu yondashuv orqali har bir o'quvchi shaxsini alohida o'rganish va unga mos tarbiyaviy texnologiyalarni tanlash imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, integrativ yondashuv orqali tadqiqotga faqat pedagogika emas, balki psixologiya, falsafa, madaniyatshunoslik, ijtimoiy fanlar va axloqshunoslik nazariyalari ham jalb qilindi. Ushbu fanlararo yondashuv orqali ma'naviy dunyoqarashning tarkibiy qismlari kengroq va chuqurroq talqin qilindi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa o'quvchilarda axloqiy qarorlar qabul qilish, ongli tanlovlar qilish, muqaddas qadriyatlarga sadoqatli bo'lish, hamda maqsadli faoliyat yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu yondashuv tarbiyaviy faoliyatni shaxsiy tajribaga asoslangan tarzda yo'naltirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – mavjud ilmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlari, ilg'or pedagogik tajribalar va ilg'or xorijiy tajribalarning o'rganilishi orqali tadqiqotning nazariy asosi yaratildi. Bu esa ma'naviy tarbiyaning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Empirik metodlar – so‘rovnoma, suhbat, kuzatuv kabi usullar yordamida o‘quvchilarning, o‘qituvchilarning va ota-onalarning ma’naviy qarashlari, axloqiy qadriyatlar hamda ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki haqida ma’lumotlar to‘plandi. Bu usullar real holatni aniqlash va ehtiyojlarga asoslangan amaliy choralarini belgilashda muhim bo‘ldi.

Pedagogik eksperiment – tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilgan amaliy texnologik tizim asosida eksperimental (tajriba) va nazorat guruhlar bilan ish olib borildi. Eksperiment natijasida o‘quvchilarda axloqiy ong, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlar shakllanish darajasi taqqoslab baholandi.

Matematik-statistik tahlil – eksperiment davomida to‘plangan sonli ma’lumotlar statistik metodlar yordamida tahlil qilindi. Natijalar diagramma, jadval va grafiklar asosida izohlandi, bu esa ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Monitoring va refleksiya – tadqiqotning muayyan bosqichlarida o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish dinamikasi o‘rganilib, ularning o‘zgarishlari doimiy monitoring ostida baholab borildi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda qilishga asoslangan reflektiv metodlar ham qo‘llanildi.

Mazkur metodologik asoslar o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini tizimli, bosqichma-bosqich, ilmiy asoslangan hamda amaliy jihatdan samarali tarzda rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv orqali shaxsda yuksak axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik tuyg‘usi, madaniy ong va ijtimoiy mas’uliyatli pozitsiyani shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini tizimli yondashuv asosida rivojlantirishga doir ishlab chiqilgan amaliy texnologik tizimning samaradorligini baholash maqsadida eksperimental va nazorat guruhlarida bir qator bosqichli tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Tahlil jarayoni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borildi:

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyati, ongli qarashlari va axloqiy qaror qabul qilishga tayyorlik darajalari aniqlash maqsadida diagnostik testlar, so‘rovnomalar va suhbatlar o‘tkazildi. Dastlabki tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

O‘quvchilarning aksariyatida ma’naviy tushunchalar yuzaki darajada shakllangan;

Axloqiy-ijtimoiy masalalarga nisbatan ongli munosabat sustligi kuzatildi;

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi bilimlar parchalanma holatda bo‘lib, shaxsiy amaliy faoliyatga yetarlicha singmagan.

Bu holat ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishda tizimli, kompleks yondashuvga ehtiyoj yuqoriligini ko‘rsatdi.

Eksperiment 6 oy davomida olib borildi. Eksperimental guruhda tizimli yondashuvga asoslangan texnologik tizim asosida quyidagi pedagogik choralar amalga oshirildi:

Ma’naviy-axloqiy mavzularni integratsiyalashgan holda fanlar kesimida tatbiq etish;

O‘quvchilarning o‘z fikrini ifoda qilish, axloqiy tanlovlar ustida fikrlash imkonini beruvchi faol metodlardan (munozara, “aqliy hujum”, rolli o‘yinlar) foydalanish;

Milliy qadriyatlar asosida yaratilgan videoroliklar, hikoyalar, dramatik sahna ko‘rinishlari orqali emotsional ta’sir ko‘rsatish;

Ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy tadbirlar, ma’naviy uchrashuvlar o‘tkazish.

Nazorat guruhida esa an’anaviy usullar saqlanib qoldi. Eksperiment yakunida yana qayta diagnostika o‘tkazildi. Tahlil natijalari quyidagi o‘zgarishlarni aniqladi:

| Ko‘rsatkich | Eksperiment boshlanishida (%) | Eksperiment yakunida (%) |
|--|-------------------------------|--------------------------|
| Ma’naviy tushunchalar yetukligi | 48% | 81% |
| Axloqiy qaror qabul qilish layoqati | 42% | 77% |

| | | |
|---|-----|-----|
| Vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat | 50% | 84% |
| Qadriyatlar asosidagi ijtimoiy faollik | 38% | 73% |

Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, tizimli yondashuv asosida yaratilgan texnologik tizim o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minladi.

Jarayon davomida kuzatuv va baholashning muntazamligi o'quvchilarning o'zgarish dinamikasini aniqlashga imkon berdi. Bunda quyidagilar kuzatildi:

O'quvchilar orasida o'zaro hurmat, ijobiy muomala va ijtimoiy faollik ko'paydi;

Darslardan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirokchilar soni oshdi;

Aksariyat o'quvchilar ixtiyoriy ravishda ijtimoiy loyihalarda qatnasha boshladi;

Ota-onalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar o'quvchilarda axloqiy intizomning kuchayganini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning fikr-mulohazalari yig'ildi. Ularning ko'pchiligi shaxsiy hayotida o'zgarishlar sezganini bildirgan, ya'ni:

“Ilgari qadriyatlar haqida faqat eshitgan bo'lsam, endi uni his qilishni o'rgandim.”

“Qanday munosabat ko'rsatish kerakligini bilmay yurardim, hozir aniq fikr bildiraman.”

“Ma'naviyat haqida suhbatlar menga ichki ishonch berdi.”

Yuqoridagi dalillarga tayangan holda, quyidagi asosiy natijalarni e'tirof etish mumkin:

Tizimli yondashuv asosidagi ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda an'anaviy usullarga qaraganda yuqori samara beradi;

Pedagogik jarayonning barcha komponentlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchida barqaror va ongli dunyoqarash shakllanadi;

Tizimli yondashuv asosida qurilgan tarbiya muhitida o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki o'zini anglaydi, ijtimoiy javobgarlikni his qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv asosida o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy texnologik tizimni ishlab chiqish, uni ta'lim jarayoniga joriy etish va uning samaradorligini empirik tekshirish asosiy maqsad qilib belgilandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishda tizimli yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv ma'naviy-axloqiy tarbiyani izchil, bosqichma-bosqich, bir-biri bilan uzviy bog'langan tarzda tashkil etishni talab qiladi. Aynan shu jihatlar o'quvchining ichki dunyosida barqaror axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan texnologik tizim orqali nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki o'quvchilarning ongli tanlov qilish, axloqiy pozitsiyani egallash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faol bo'lishga intilishini rag'batlantiruvchi pedagogik sharoitlar yaratildi. Eksperiment tarzida tashkil etilgan amaliy ishlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy yondashuvga nisbatan tizimli yondashuv asosida olib borilgan tarbiya jarayoni o'quvchilarda yuqori darajadagi ma'naviy ong, axloqiy intizom, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantirishda samarali bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqotda qo'llanilgan nazariy va amaliy metodlarning uyg'unligi, integratsiyalashgan yondashuvlarning tatbiqi, faoliyatga yo'naltirilgan metodlar va interaktiv texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchi shaxsini maqsadga yo'naltirilgan, ongli, axloqiy qarorlar qabul qilishga qodir inson sifatida shakllantirishda muhim omil bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarurligini taqozo etadi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: umumta'lim maktablarida ma'naviy tarbiya jarayoniga tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilgan texnologik tizimni joriy etish; o'quv dasturlariga ma'naviy-axloqiy tarbiya komponentlarini

chuqur integratsiya qilish; pedagogik kadrlar uchun metodik qo'llanmalar va ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, tizimli yondashuv asosida shakllangan amaliy texnologik tizim zamonaviy ta'lim muhitida o'quvchilarning ma'naviy olamini boyituvchi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдуллаева, Г. (2020). Духовно-нравственное воспитание школьников: теория и практика. Ташкент: Фан.
2. Амонov, Z. (2022). "Ta'limda tizimli yondashuv: nazariy asoslar va amaliy yechimlar". // Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №1, 34–39.
3. Axmedova, N. (2021). O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalari. Samarqand: Ilm ziyo.
4. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
5. Hasanov, B. (2019). "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning ma'naviy tarbiyada o'rni". // Tarbiyachi, №4, 18–23.
6. Мамуров, Ш. (2020). Педагогика: системный подход в образовании. Москва: Просвещение.
7. Musurmonova, O. (2020). Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsiy yondashuv. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Назарова, Г. (2021). "Интегративный подход в формировании духовного мира учащихся". // Современное образование, №3, 42–48.
9. UNESCO (2015). Rethinking Education: Towards a Global Common Good? Paris: UNESCO Publishing.
10. Xolboeva, D. (2023). "Ma'naviyat va texnologik yondashuv uyg'unligi: zamonaviy maktabda tarbiyaviy imkoniyatlar". // Zamonaviy ta'lim muammolari, №2, 66–72.

Shabbazova Nodira Xamzayevna,
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMGA TAYYORLIGI VA DIDAKTIK IJODIY FAOLIYAT O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'limga tayyorlik darajasi va didaktik ijodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalarning mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, ularning kreativ fikrlash ko'nikmalari, ta'lim jarayonida o'zlashtirish darajasi va ijodiy topshiriqlarni bajarishga bo'lgan motivatsiyasi o'rganilgan. Shuningdek, didaktik ijodiy faoliyat orqali mustaqil ta'limga tayyorlikni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy o'qitish metodikalarini takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ijodiy faoliyat, didaktika, kreativ fikrlash, ta'lim samaradorligi, motivatsiya, talabalar faolligi.

Аннотация. В статье рассматривается взаимосвязь между готовностью студентов к самостоятельному обучению и их дидактической творческой активностью. В исследовании анализируется потребность студентов в самостоятельном освоении знаний, их навыки креативного мышления, уровень усвоения учебного материала и мотивация к выполнению творческих заданий. Также освещаются возможности формирования готовности к самостоятельному обучению через дидактическую творческую деятельность. Полученные результаты способствуют повышению качества образования и совершенствованию современных методов обучения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, творческая активность, дидактика, креативное мышление, эффективность обучения, мотивация, активность студентов.

Abstract. This article explores the relationship between students' readiness for independent learning and their didactic creative activity. The study examines students' need for autonomous knowledge acquisition, their creative thinking skills, level of comprehension in the learning process, and motivation to complete creative tasks. The paper also discusses the potential of fostering readiness for independent study through didactic creativity. The research findings contribute to improving educational quality and advancing modern teaching methodologies.

Key words: independent learning, creative activity, didactics, creative thinking, learning efficiency, motivation, student engagement.

Kirish. XXI asrda ta'lim sohasi insoniyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Global miqyosda yuz berayotgan raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ochiq ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish tizimlarining keng qo'llanilishi ta'lim mazmuni va shakliga tub o'zgarishlar olib kirmoqda. Mazkur o'zgarishlar natijasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi an'anaviy "bilim beruvchi – bilim oluvchi" munosabatlari o'zgarib, o'z-o'zini o'rganuvchi, mustaqil fikrlovchi, axborotni izlab topa oladigan, uni tahlil qila oladigan va ijodiy tarzda amaliyotga tadbiiq eta oladigan shaxsni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan.

Shu nuqtai nazardan, talabaning mustaqil ta'limga tayyorligi nafaqat bilim olish jarayonining, balki umrbod ta'lim konsepsiyasining ham muhim poydevoridir. Mustaqil ta'limga tayyor bo'lgan talaba o'z oldiga maqsad qo'yadi, uni rejalashtiradi, mavjud resurslardan oqilona foydalanadi va o'z faoliyatining natijalarini baholay oladi. Bunday yondashuv talabaning shaxsiy o'sishiga, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga zamin yaratadi. Ayniqsa, pedagogika oliy ta'lim

muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun bu sifatlar kelajakda ta'lim beruvchi sifatida faoliyat yuritishda zarur bo'lgan metodik va didaktik tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari, didaktik ijodiy faoliyat ham talabaning mustaqil o'qish jarayonini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Ushbu faoliyat turi orqali talabalar o'z bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, balki yangi bilimlarni yaratish, o'rganganlarini turli kontekstlarda qo'llay olish, noan'anaviy pedagogik vazifalarni yecha olish ko'nikmalariga ham ega bo'ladi. Didaktik ijodiy faoliyat orqali talabada muammoga yo'naltirilgan yondashuv, innovatsion fikrlash, metodik moslashuvchanlik va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlari shakllanadi. Bu esa ularning o'zlashtirish darajasini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi hamda kasbiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari kelgusida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, mustaqil ta'limni rag'batlantiruvchi muhit yaratish va didaktik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Pedagogik faoliyatda mustaqil ta'lim talabalarning o'quv jarayonidagi ishtirokini faollashtirish, ularni shaxsiy o'zlashtirish strategiyalarini shakllantirish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Bu jarayon o'z mohiyatiga ko'ra talabaning o'zini-o'zi o'rganish, muammoni hal qilish, yangilikka intilish va ijodiy yondashuvini talab etadi. Shu sababli, ushbu mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlar ikki asosiy yo'nalishda – mustaqil ta'limga tayyorlik va didaktik ijodiy faoliyat – ko'rinishida o'rganiladi.

Mustaqil ta'lim tushunchasi va uni shakllantirish mexanizmlari ko'plab zamonaviy pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, A. Avloniyning pedagogik merosida o'quvchining o'zini tarbiyalash va rivojlantirish g'oyalari ilgari surilgan bo'lsa, Z. Navoiy va A. Qodiriy kabi ma'rifatparvarlar ta'limda o'zini-o'zi anglash, mustaqil o'ylashga alohida urg'u berishgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar – V.V. Serikov, N.D. Nikandrov, O.G. Smirnova va boshqalar – mustaqil ta'limni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosi deb baholaydilar. Serikov (2002) o'z ishlarida shaxsiy rivojlanish va mustaqil o'qishning bog'liqligini chuqur tahlil qilib, talabaning motivatsiyasi, o'z-o'zini baholash ko'nikmasi va refleksiya madaniyatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Mahalliy mualliflar – T. Toshxo'jayev, G. Jo'rayev, R. Abdullayeva, N. Eshchanova – mustaqil ta'limni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib, talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va axborotni qayta ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda uning roli yuqori ekanini ta'kidlashadi.

Didaktik ijodiy faoliyatga doir adabiyotlarda ko'proq metodik yondashuvlar, dars jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish va shaxsiy salohiyatni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Bunda pedagogik innovatsiyalar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish (project-based learning), tadqiqotga asoslangan yondashuvlar asosiy metodik tamoyil sifatida tilga olinadi.

J. Dewey, C. Rogers, va E. Torrance kabi G'arb pedagoglari ta'limda ijodiy yondashuvning zarurligini ilmiy asoslab berganlar. Dewey (1938) "tajribaga asoslangan ta'lim" g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, Torrance ijodiy fikrlash testlarini ishlab chiqib, uni baholash mezonlarini belgilagan.

O'zbekistonlik olimlardan G. Karimova, M. Yusupova, I. Isroilov va Sh. Juraevlarning ilmiy ishlari didaktik ijodiy faoliyatni o'qituvchining va talabarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyat sifatida tavsiflaydi. Ular talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, darsda noan'anaviy metodlardan foydalanish, hamda kreativlikka asoslangan topshiriqlar orqali ijodkorlikni kuchaytirish mumkinligini ko'rsatishgan.

Ilmiy adabiyotlarda ushbu ikki tushuncha orasidagi uzviy bog'liqlik ko'plab izlanishlar asosida tasdiqlangan. Jumladan, I. Lerner va M. Skatkinlar o'z izlanishlarida mustaqil ta'limga

ega bo'lgan talaba ko'proq ijodkorlikka moyil bo'lishini isbotlashgan. Bu borada zamonaviy o'quv metodikalari, ayniqsa STEAM, CLIL, va Bloom taksonomiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari talabalarni faollashtirishda, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni kuchaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

N. Saidova (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, talabalarni mustaqil o'quv topshiriqlari asosida ijodiy yondashuvga yo'naltirish ularning ta'limga bo'lgan qiziqishi va o'zlashtirish samaradorligini sezilarli oshirishi qayd etilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim va didaktik ijodiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik pedagogik jarayonni zamonaviylashtirish va shaxsiylashtirishda muhim omil hisoblanadi. Talabalar mustaqil ta'limga qanchalik tayyor bo'lsalar, ularning ijodiy salohiyatlari shunchalik tez ochiladi va mustahkamlanadi. Shu bois, ta'lim jarayonida bu ikki omil uyg'unligiga e'tibor qaratish metodik va psixologik jihatdan zaruriydir.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida talabalarning mustaqil ta'limga tayyorlik darajasi hamda ularning didaktik ijodiy faoliyatga jalb qilinishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida bir qator nazariy va amaliy tahlillar o'tkazildi. Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy farazlarni tekshirish maqsadida mahalliy va xorijiy olimlarning pedagogik-psixologik qarashlari o'rganildi, shu bilan birga kuzatuvlar, so'rovnomalar va sinov tajribalari asosida amaliy natijalar tahlil qilindi.

Avvalo, talabalarning mustaqil ta'limga tayyorlik darajasi tahlil qilindi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, aksariyat talabalar mustaqil ta'limning zarurati va mazmunini tushunishga intilayotgan bo'lsa-da, ularning o'z-o'zini boshqarish, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, mustaqil ravishda axborot izlab topish, uni tahlil qilish va o'zlashtirish kabi ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat mustaqil ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri sifatida e'tirof etildi. Tahlil davomida talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan motivatsiyasi ko'p jihatdan ularning shaxsiy maqsadlari, fan o'qituvchisining yondashuvi, o'quv jarayonining tashkil etilish shakllari va o'quv muhiti bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning mavjudligi va undan foydalanish imkoniyatlari ham mustaqil ta'limning mazmunan boyishiga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, texnik yoki metodik ko'mak yetishmasligi ayrim hollarda mustaqil o'zlashtirishni yuzaki holatda qoldirayotgani kuzatildi.

Boshqa bir muhim yo'nalish – bu talabalarni didaktik ijodiy faoliyatga jalb qilish jarayonidir. Tadqiqotda aniqlanishicha, talabalarning ijodiy faoliyatga jalb qilinishi ularning erkin fikrlashi, innovatsion yondashuvi va fanlarga bo'lgan ichki qiziqishini sezilarli darajada kuchaytiradi. Tajriba-sinov ishlarida talabalarga muammoli vazifalar, loyiha ishlari, ijodiy esse va jamoaviy taqdimotlar berildi. Ushbu topshiriqlarga ijodiy yondashgan talabalar mustaqil ta'limni samaraliroq tashkil etgani kuzatildi. Ayniqsa, integratsiyalashgan darslar, rolli o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar, tanqidiy tahlil va muhokamalar talabalarning chuqur bilim olishiga xizmat qilgani, ularni izlanishga, mustaqil qaror qabul qilishga va yangi g'oyalar yaratishga undagani kuzatildi.

Shuningdek, mustaqil ta'limga tayyorlik bilan ijodiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida olib borilgan korrelyatsion tahlillar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'limga yuqori darajada tayyorlangan talabalar ijodiy faoliyatda ham faol ishtirok etadilar. Bunday talabalar topshiriqlarga yangicha, noan'anaviy yondashadi, o'z fikrini ochiq ifodalashga, tanqidiy va tahliliy mulohaza yuritishga moyil bo'lishadi. O'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan talabalarning ijodiy faoliyatga ijobiy munosabat bildirishi ularning o'quv jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatini baholash va refleksiya qilish kabi ko'nikmalarining rivojlanayotganini ko'rsatdi.

Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, talabaning mustaqil ta'limga tayyorligi uning o'z ta'lim faoliyatini rejalashtirish, axborotni izlab topish, tahlil qilish, saralash va o'zlashtirish kabi ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga,

didaktik ijodiy faoliyatga faol jalb etilgan talabalar mustaqil ta'limni yanada mazmunli, samarali va mustahkam o'zlashtirishga intilishadi. Ijodiy topshiriqlar ularni mustaqil fikrlash, savollar qo'yish va izlanishga jalb etadi. Bu esa nafaqat o'quv natijalarini, balki talabalarining umumiy intellektual va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim va didaktik ijodiy faoliyat o'zaro uzviy bog'liq jarayonlar bo'lib, bu ikki komponentning uyg'unligi talabalarining o'quv jarayonidagi faolligi, o'zlashtirish darajasi va kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. O'qituvchining metodik yondashuvi, ta'lim mazmunining zamonaviylik darajasi va talabalarga berilayotgan topshiriqlarning ijodiy xarakterga ega bo'lishi mustaqil ta'limga rag'bat uyg'otuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari talabalarining mustaqil ta'limga tayyorlik darajasi va ularning didaktik ijodiy faoliyatdagi ishtiroki o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Mustaqil ta'lim – bu nafaqat axborotni o'zlashtirish, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va mustaqil qaror chiqarish asosida amalga oshiriladigan murakkab kognitiv faoliyatdir. Talabaning bu jarayonga tayyorligi uning shaxsiy motivatsiyasi, vaqtni boshqarish ko'nikmasi, tanqidiy va ijodiy fikrlash darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Didaktik ijodiy faoliyat esa ushbu ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. Ijodiy topshiriqlar, muammoli vazifalar, loyiha ishlari va jamoaviy taqdimotlar talabaning mustaqil izlanishga bo'lgan ehtiyojini uyg'otadi, uni faol o'rganuvchiga aylantiradi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarida aniqlanishicha, ijodiy faoliyatga jalb qilingan talabalar mustaqil ta'limni mazmunan boy va samarali tarzda amalga oshirishga intilishadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining metodik yondashuvi, ta'lim mazmunining yangiligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari mustaqil ta'lim va ijodiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, o'qituvchining vazifasi nafaqat bilim berish, balki talabada mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish, ijodiy faoliyatga jalb qilish orqali ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Umuman olganda, mustaqil ta'lim va didaktik ijodiy faoliyatning uyg'unligi talabaning chuqur bilim olishi, o'zini rivojlantirishi va kelgusida raqobatbardosh, tashabbuskor, mustaqil fikrlovchi mutaxassis bo'lib shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Axmedova, M. Sh. (2021). Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari. Toshkent: Fan.
2. Xolboev, O., & To'xtasinova, D. (2020). Didaktika va pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi.
3. Bobomurodov, M. (2019). Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. Andijon: Andijon nashriyoti.
4. Назарова, Г.Х. (2018). Психолого-педагогические условия формирования готовности студентов к самостоятельному обучению. – Ташкент: Фан.
5. Hasanov, J. (2022). "Talabalarining mustaqil ta'limga tayyorlik darajasini baholashda zamonaviy yondashuvlar". Pedagogik mahorat, №3, 45–49.
6. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
7. Knowles, M. S. (1975). Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. New York: Association Press.
8. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Yuldacheva Totixon Yakubovna,
Andijon davlat pedagogika instituti

TALABALAR O'RTASIDA GENDER ADOLATINI QAROR TOPTIRISHDA TARBIYA VA IJTIMOY FAOLIYATNING METODIK UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Maqolada talabalar o'rtasida gender adolatini shakllantirishda tarbiya jarayoni va ijtimoiy faoliyatning metodik uyg'unligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Gender tengligi demokratik jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rib chiqilib, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Talabalarni ijtimoiy faoliyatga keng jalb qilish, genderga sezgir pedagogik metodlardan foydalanish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali teng huquqlilik va adolat qadriyatlarini shakllantirishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, gender stereotiplarni yengishda tarbiya va ijtimoiy faoliyatning integratsiyasi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Gender adolati, tarbiya, ijtimoiy faoliyat, metodik uyg'unlik, pedagogik yondashuv, innovatsion metodlar, talabalar, teng huquqlilik.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически раскрывается методическое единство воспитательного процесса и социальной активности в формировании гендерной справедливости среди студентов. Гендерное равенство рассматривается как важный фактор, обеспечивающий устойчивое развитие демократического общества, и анализируется его значение в процессе воспитания и образования. Показаны эффективные пути формирования ценностей равноправия и справедливости посредством активного привлечения студентов к социальной деятельности, использования гендерно-чувствительных педагогических методов и инновационных подходов. Особое внимание уделено интеграции воспитания и социальной активности в преодолении гендерных стереотипов.

Ключевые слова: гендерная справедливость, воспитание, социальная активность, методическое единство, педагогический подход, инновационные методы, студенты, равноправие.

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the methodological integration of educational upbringing and social activities in fostering gender justice among students. Gender equality is examined as a crucial factor for the sustainable development of a democratic society, with a focus on its significance in the educational process. The study highlights effective approaches to shaping the values of equality and justice through students' active involvement in social activities, the application of gender-sensitive pedagogical methods, and the use of innovative approaches. Particular emphasis is placed on the integration of upbringing and social engagement in overcoming gender stereotypes.

Key words: gender justice, upbringing, social activity, methodological integration, pedagogical approach, innovative methods, students, equality.

Kirish. Hozirgi davrda insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilib, demokratiya, inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari global miqyosda asosiy qadriyat sifatida e'tirof etilmoqda. Shunday qadriyatlar ichida gender tengligi alohida o'rin tutadi, chunki u jamiyat taraqqiyotining muhim mezon, ijtimoiy barqarorlik va milliy rivojlanishning kafolati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda bu masalaga katta e'tibor qaratilib, davlat siyosati darajasida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan qator qonuniy va institutsional asoslar yaratildi. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, 2021-yilda tasdiqlangan "Gender tenglikni ta'minlash strategiyasi" hamda 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'lim konsepsiyasi gender masalasining ta'lim tizimida ustuvor yo'nalish sifatida qaralishini ta'minladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy qarashlarga ko'ra, gender tengligi shunchaki huquqiy prinsip emas, balki pedagogik-psixologik jarayonlarning samaradorligini oshiruvchi omildir. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida gender adolatini to'g'ri anglash uning dunyoqarashini shakllantiradi, jamiyatga integratsiyalashuvini osonlashtiradi va o'zini ijtimoiy muhitda erkin, teng huquqli a'zo sifatida his qilishiga yordam beradi. Masalan, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasida shaxs rivojlanishi ijtimoiy tajribani o'zlashtirish orqali amalga oshishi ta'kidlanadi. Demak, talabalarning gender tenglikka oid qarashlari ham ularning ijtimoiy muhitdan oladigan tajribasi, tarbiya jarayonlari va faol ishtiroki orqali shakllanadi. Shuningdek, A. Adlerning ijtimoiy motivatsiya haqidagi nazariyasida jamiyatdagi adolat va tenglik hissi shaxsning o'zini namoyon qilishida muhim psixologik omil sifatida ko'riladi.

Tillayeva N. "Gender tengligi – bu faqat erkak va ayol huquqlarining tengligi emas, balki jamiyatda adolat va ijtimoiy barqarorlikning poydevoridir." Bu nazariya gender tengligini tor ma'noda tushunib bo'lmashligini ta'kidlaydi. Gender tengligi huquqiy masala bo'lishi bilan birga, jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy birdamlik va adolatni qaror toptirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Talabalarda bu qadriyatni shakllantirish orqali nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki keng ijtimoiy muhitda tenglik madaniyati mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida gender adolatiga oid nazariy bilimlar berilib, ijtimoiy faoliyat orqali ularning amalda qo'llanishi ta'minlansa, talabalar adolatni jamiyatning asosiy tamoyili sifatida qabul qiladilar. Bu yondashuv, o'z navbatida, jamiyat taraqqiyoti uchun demokratik shart-sharoit yaratadi.

L.S. Vygotskiy "Shaxsning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda shakllanadi." Vygotskiy ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy muhitning beqiyos rolini alohida ta'kidlagan. Demak, talabalarning gender adolatiga oid qarashlari ham ular yashayotgan muhitdagi tajribalar, ijtimoiy faoliyat, oilaviy qadriyatlar va ta'lim jarayonidagi yo'nalishlar orqali shakllanadi. Agar muhitda tenglik, adolat va o'zaro hurmat qadrlansa, talabalar buni ongli ravishda o'zlashtiradilar va shaxsiy hayotlariga tatbiq etadilar. Shu bois tarbiya jarayoni ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlashtirilsa, gender stereotiplarni yengishda ham, tenglik qadriyatlarini mustahkamlashda ham samaradorlik oshadi.

A. Adler "Odam tabiatan ijtimoiy mavjudotdir, uning o'zini erkin his qilishi adolat va tenglik mavjud bo'lgan muhitdagina yuzaga chiqadi." Adlerning ijtimoiy motivatsiya haqidagi qarashlari gender tengligi uchun nazariy poydevor yaratadi. Unga ko'ra, inson faqat tenglik va adolat mavjud bo'lgan muhitda o'zini to'laqonli shaxs sifatida namoyon etadi. Talabalar ijtimoiy faoliyatda gender tenglikni amalda his qilganda, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi, stereotiplardan xoli bo'lish imkoniyati kengayadi. Tarbiya jarayoni esa bu qadriyatlarni nazariy asosda singdiradi. Demak, gender tengligini qaror toptirishda tarbiya va ijtimoiy faoliyatning uyg'unligi shaxsning tabiiy ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq.

A.N. Leontyev "Faoliyat – shaxsni shakllantiruvchi asosiy manba bo'lib, ijtimoiy faoliyat orqali jamiyat qadriyatlari o'zlashtiriladi." Leontyevning faoliyat nazariyasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning rivojlanishi faoliyat orqali ro'y beradi. Gender tengligiga oid qadriyatlarni ham talaba faqat nazariy bilim sifatida emas, balki o'zining ijtimoiy faoliyatida tatbiq etgandagina chuqur o'zlashtiradi. Masalan, ijtimoiy loyihalarda, volontyorlik ishlari va jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish orqali talabalar tenglik, adolat va hamkorlikni amalda sinab ko'radilar. Bu esa ularning ongida gender adolatini barqaror qadriyat sifatida shakllantiradi.

"Genderga sezgir pedagogika – bu ta'lim jarayonida shaxsiy qobiliyatlarni jinsdan qat'i nazar teng rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir." Genderga sezgir pedagogika an'anaviy yondashuvdan farqli ravishda, talabaning qobiliyatlarini uning jinsiga bog'liq holda emas, balki shaxsiy imkoniyatlariga qarab rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv yoshlarning ijtimoiy adolatni qadrlashiga, gender stereotiplarni yengishiga yordam beradi. Talabalar o'zlarini ta'lim jarayonida teng huquqli subyekt sifatida his qilganda, ularning shaxsiy faolligi ortadi va ijtimoiy faoliyatga ham faolroq qo'shiladilar. Shu bois, genderga sezgir pedagogika talabalar ongida gender tenglikni qaror toptirishning muhim omilidir.

“Jamiyatda gender tenglikning qaror topishi yoshlarning ijtimoiy faol ishtiroki bilan chambarchas bog‘liqdir.” Ushbu fikr talabalarni ijtimoiy faoliyatga keng jalb qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Gender tengligi faqat dars jarayonida emas, balki talabalarning turli klublar, to‘garaklar, forum va volontyorlik faoliyatidagi ishtiroki orqali ham shakllanadi. Bu jarayon ularda teng huquqlilik va mas‘uliyatni ongli ravishda his qilishga olib keladi. Shuningdek, ijtimoiy faoliyat nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda gender stereotiplarning zaiflashishiga yordam beradi.

Slastenin V.A. “Trening, debat va keys-stadi kabi interfaol metodlar talabalar ongida gender stereotiplarni yengishda samarali vosita hisoblanadi.” Interfaol metodlar talabalarni faol subyektga aylantiradi, ularni mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilishga o‘rgatadi. Gender stereotiplarga qarshi immunitet yaratishda bunday metodlarning samaradorligi yuqori. Masalan, keys-stadi orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladilar, debatlarida esa tenglik masalasida o‘z fikrlarini asoslab himoya qiladilar. Bu jarayonlar nafaqat bilimni, balki amaliy ko‘nikma va qadriyatlarni ham shakllantiradi.

G‘oziev E.G. “Gender tengligi jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta‘minlovchi asosiy mezonlardan biridir.” Gender tengligi shunchaki ijtimoiy siyosiy masala emas, balki milliy taraqqiyot strategiyasining muhim mezonidir. Talabalar ongida gender adolatini qaror toptirish orqali jamiyatda demokratiya va barqarorlik mustahkamlanadi. Bu esa shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyotning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ta‘lim tizimi gender tenglikni targ‘ib qilish orqali kelajak avlodni nafaqat kasbiy, balki fuqarolik jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllantiradi.

Kamoldinova I.O. “Innovatsion texnologiyalar yordamida gender tenglikka oid ta‘limiy dasturlarni kengaytirish yoshlarning global qadriyatlarga sezgirligini oshiradi.” Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar talabalarda gender tenglik haqida kengroq bilimlar hosil qilish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat milliy qadriyatlarni, balki global tamoyillarni ham o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, onlayn vebinarlar, forumlar va simulyatsiyalar orqali yoshlar gender tengligi muammolarini keng qamrovda ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu orqali ular xalqaro tajribalarni o‘rganib, mahalliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ergashqulov B., Tillayeva N. “Tarbiyaviy jarayon va ijtimoiy faoliyat uyg‘unlashgan holda olib borilgandagina talabalar ongida gender tengligi ijtimoiy me‘yor sifatida qaror topadi.” Gender tenglikni qaror toptirish nazariya va amaliyotning uyg‘unlashuviga bog‘liq. Tarbiya jarayonida qadriyatlar singdirilsa, ijtimoiy faoliyatda ular mustahkamlanadi. Shu uyg‘unlik talabalar ongida gender adolatini nafaqat bilim darajasida, balki ijtimoiy me‘yor sifatida shakllantiradi. Natijada, yoshlar jamiyatda tenglik va adolat tamoyillariga amal qiluvchi faol fuqarolarga aylanadi.

Inson tabiati shundan iboratki, u adolat, tenglik, hurmat kabi tushunchalarni qadriyat sifatida qabul qilishga moyildir. Yoshlarning tabiiy fikrlash jarayonlari, ularning atrof-muhitni kuzatishi, oiladagi gender munosabatlari va ta‘lim jarayonida beriladigan qadriyatlar genderga oid tasavvurlarni shakllantiradi. Agar talaba jamiyatda erkak va ayollarning teng huquqliligi va ijtimoiy faolligi ta‘minlangan muhitni ko‘rsa, u buni tabiiy holat sifatida qabul qiladi. Aksincha, diskriminatsiya va gender stereotiplari ustuvor bo‘lgan muhitda voyaga yetayotgan shaxsda gender tengligiga salbiy qarashlar shakllanishi ehtimoli kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ta‘lim muassasalarida tarbiya jarayonlarini ijtimoiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish nafaqat yoshlarning bilim darajasini, balki ularning ongida gender adolatini ijtimoiy me‘yor sifatida qaror toptirish imkonini beradi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda qayd etilishicha, tarbiya va ijtimoiy faoliyatning uyg‘unligi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Masalan, A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasida shaxsning shakllanishi faoliyat orqali amalga oshishi ta‘kidlanadi. Agar bu faoliyat ijtimoiy tenglik tamoyillari bilan uyg‘unlashsa, talaba ongida

gender adolatiga nisbatan barqaror qarashlar shakllanadi. Bunday qarashlar shaxsiy hayotda ham, kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham teng huquqlilikni qadrlashga undaydi.

O'zbekiston olimlari ham ushbu masalani turli jihatdan o'rganganlar. Xususan, E. G'oziev shaxsning ijtimoiy moslashuvi jarayonida gender munosabatlarining ahamiyatiga to'xtalib, o'quv muhitida tenglikka asoslangan qadriyatlar shaxs rivojini jadallashtirishini ta'kidlaydi. I. Ergashev va N. Tillayevalarning tadqiqotlarida esa tarbiya jarayonida genderga sezgir pedagogikaning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishi, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashini ilmiy asoslab beriladi.

Shu nuqtai nazardan, talabalarda gender adolatini qaror toptirish – bu faqat nazariy bilim emas, balki ijtimoiy faoliyat orqali hayotiy amaliyotga singdirilishi lozim bo'lgan jarayondir. Tarbiya va ijtimoiy faoliyatning metodik uyg'unligi gender tenglikni nafaqat ta'lim muassasasi darajasida, balki jamiyat miqyosida ham mustahkamlash imkonini beradi. Bu esa demokratik qadriyatlarning chuqurlashuvi, ijtimoiy munosabatlarning adolat tamoyillari asosida shakllanishi va kelajakda gender tengligi madaniyatining jamiyatning ajralmas qismiga aylanishini ta'minlaydi.

Demak, talabalarda gender adolatini shakllantirish jarayoni kompleks, ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda tarbiya – qadriyatlarni singdiruvchi va ongni shakllantiruvchi omil bo'lsa, ijtimoiy faoliyat – ularni amalda mustahkamlovchi va hayotiy tajribaga aylantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Inson tabiiy fikrlashlari bilan uyg'unlashgan bu jarayon shaxsni teng huquqli, ijtimoiy faol va adolatni qadrlovchi inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, mavzuning ilmiy-nazariy, pedagogik va amaliy asoslarini keng o'rganish, uni ta'lim tizimida samarali qo'llash – jamiyat taraqqiyoti va yoshlar tarbiyasining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Gender adolatini ta'minlashning eng muhim mexanizmlaridan biri – bu tarbiya jarayonidir. Tarbiya – shaxsni ma'naviy, intellektual, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik faoliyat bo'lib, uning markazida adolat, teng huquqlilik va insoniy qadriyatlarni singdirish masalasi turadi. Tarbiya jarayonida gender tengligiga e'tibor qaratilishi, talabalarning ongida erkak va ayolning jamiyatdagi o'rniga nisbatan adolatli qarashlarning shakllanishini ta'minlaydi. Bu qarashlar esa yoshlarning ijtimoiy faolligida, o'zini namoyon qilishida, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatida asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, shaxsning rivojlanishida oilaviy va ijtimoiy muhitning ta'siri beqiyosdir. Vygotskiy va Leontyev kabi olimlar shaxs rivojida tarbiya va muhitning hal qiluvchi ahamiyatini alohida qayd etadilar. Gender tengligiga asoslangan tarbiya jarayonlari yoshlarni nafaqat nazariy bilim bilan qurollantiradi, balki ularning tabiiy fikrlashlari va ijtimoiy tajribasi bilan uyg'unlashadi. Masalan, Adlarning ijtimoiy motivatsiya haqidagi qarashlarida inson tabiatan ijtimoiy mavjudot sifatida o'zini tenglik, hurmat va adolat sharoitida erkin his qilishi qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan, tarbiya jarayonida genderga oid qadriyatlar berilishi shaxsning tabiiy ehtiyojlari bilan uyg'unlashadi. O'zbekistonlik pedagog va psixolog olimlar ham bu masalaga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, N. Tillayeva tarbiya jarayonida gender tenglikni shakllantirishni shaxsni barkamol inson sifatida tarbiyalashning ajralmas sharti sifatida ko'radi. E. G'oziev esa o'quvchilarni psixologik moslashuvida gender munosabatlarining muhimligini ta'kidlab, o'quv jarayonida teng huquqlilikka asoslangan tarbiya shaxsning o'zini ijtimoiy muhitda qulay his etishiga olib kelishini ilmiy asoslab beradi. Shuningdek, tarbiya jarayonida gender stereotiplarga qarshi immunitet shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ko'plab jamiyatlarda hali-hamon “erkaklar uchun mos kasb” yoki “ayollar uchun mos rol” kabi qarashlar mavjud bo'lib, ular yoshlarning ongida teng huquqlilik tamoyilini cheklashi mumkin. Shu bois tarbiya jarayonida gender tenglikni targ'ib qiluvchi metodlar – interaktiv mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish, rolli o'yinlar va munozaralardan foydalanish samarali natija beradi.

Tarbiya jarayonida gender tenglikni singdirish nafaqat nazariy bilim berishni, balki talabalarda empatiya, o'zaro hurmat, hamkorlik va birdamlik kabi ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Inson tabiati adolatga intilishi bilan izohlanadi, shu bois tarbiya jarayonida gender tengligi masalalariga e'tibor qaratish tabiiy fikrlash jarayonlariga hamohang bo'lib, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda uzviy rol o'ynaydi.

Demak, gender adolati va tarbiya jarayonining o'zaro bog'liqligi – shaxsni har tomonlama rivojlantirishning, uni ijtimoiy muhitda o'zini erkin va teng huquqli inson sifatida namoyon etishga tayyorlashning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya jarayonida gender tenglikka asoslangan metodik yondashuvlar qo'llanilganda, talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar ham shakllanadi. Gender adolatini qaror toptirishda tarbiya jarayonidan keyingi muhim omil – bu talabalarni ijtimoiy faoliyatga keng jalb etishdir. Chunki ijtimoiy faoliyat yoshlarning shaxsiy fazilatlarini, jamiyatdagi o'rnini, teng huquqlilik va mas'uliyatni amalda his qilishlarini ta'minlaydi. Agar tarbiya jarayoni nazariy bilimlar va qadriyatlarni singdirishga xizmat qilsa, ijtimoiy faoliyat ularni real hayotiy tajribaga aylantiradi. Shu sababli, talabalarni ijtimoiy faol hayotga jalb qilish gender tenglikni faqat tushuncha sifatida emas, balki kundalik xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarda qo'llaniladigan qadriyat sifatida qaror toptirishga yordam beradi.

Ilmiy qarashlarga ko'ra, shaxsning ijtimoiylashuvi uning jamiyatdagi faol ishtiroki orqali to'liq namoyon bo'ladi. A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasida shaxsning shakllanishi faoliyat orqali amalga oshishi ta'kidlanadi. Demak, talaba yoshlar turli ijtimoiy loyihalarda, talaba tashkilotlarida, jamoatchilik nazorati jarayonlarida va volontyorlik ishlarida faol qatnashar ekan, ular ijtimoiy hamkorlik, tenglik, birdamlik kabi qadriyatlarni o'z ongida chuqurroq shakllantiradi. Bu jarayonda ular gender tenglikka oid nazariy bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari gender tenglikni mustahkamlashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyati doirasida tashkil etilayotgan turli klublar, tadbirlar va forumlarda yoshlarning teng huquqli ishtiroki ta'minlanmoqda. Bunday tashabbuslar yoshlarni nafaqat ijtimoiy hayotda faol bo'lishga, balki gender tenglik tamoyillariga asoslangan qarashlarni ongli ravishda shakllantirishga yordam beradi.

Psixologik tadqiqotlarda qayd etilishicha, talabalar o'zlarini ijtimoiy faol muhitda teng huquqli shaxs sifatida his qila boshlaganda, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, o'zaro munosabatlarda hamkorlik va hurmat tamoyillari kuchayadi. Bu holat gender adolatini nafaqat ta'lim muassasasi doirasida, balki keng jamiyat miqyosida ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, G.M. Dauletovanning ta'lim psixologiyasiga oid tadqiqotlarida talabalar ijtimoiy faoliyatga keng jalb etilganda ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalari yanada rivojlanishi, gender stereotiplarning ta'siri kamayishi ilmiy asoslab berilgan.

Ijtimoiy faoliyat orqali gender adolatini mustahkamlashda interaktiv shakllardan foydalanish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, talabalarni loyihaviy faoliyatga jalb etish, gender mavzusida debat va munozaralar o'tkazish, rolli o'yinlar tashkil etish yoki volontyorlik tashabbuslarida ishtirokini ta'minlash orqali ularda empatiya, mas'uliyat, o'zaro hurmat va tenglik qadriyatlari yanada mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy faoliyatni raqamli platformalar yordamida yo'lga qo'yish, onlayn forum va muhokamalarda gender tenglik masalalarini ko'tarish yoshlarning bu boradagi ongini global miqyosdagi qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ijtimoiy faoliyat – gender adolatini mustahkamlashda eng samarali vositalardan biridir. U tarbiya jarayonida singdirilgan qadriyatlarni hayotiy tajribaga aylantiradi, talabalarni o'zini teng huquqli inson sifatida namoyon etishga undaydi va jamiyatda gender tengligi madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalar ongida gender adolatini shakllantirish samaradorligi, avvalo, tarbiya va ijtimoiy faoliyatning metodik jihatdan uyg'unlashtirilishiga bog'liqdir. Chunki pedagogik nazariyada ham, psixologik qarashlarda ham tarbiya jarayoni o'zining yakka tartibdagi ta'siri bilan chegaralanmaydi, balki u ijtimoiy faoliyat orqali mustahkamlanib, real tajribaga aylanadi. Shunday ekan, ushbu ikki jarayonni integratsiya qilish shaxsda chuqurroq va barqarorroq ijtimoiy qadriyatlarni, jumladan gender tenglikni qaror toptirishning muhim mexanizmi sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ta'lim-tarbiya tizimi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga faqat metodik uyg'unlik orqali erishishi mumkin. Masalan, V.A. Slastenin ta'kidlaganidek, tarbiya jarayonida olingan nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashmaguncha shaxsiy qadriyatga aylanmaydi. Demak, talabalar o'zining kundalik ijtimoiy faoliyatida teng huquqlilik, o'zaro hurmat, hamkorlik kabi qadriyatlarni qo'llash imkoniga ega bo'lmasa, ularning ongida gender tengligi faqat nazariy tushuncha sifatida qolib ketadi. Shu bois pedagogik jarayon genderga sezgir metodlarni, ijtimoiy faoliyat esa talabalarning amaliy ishtirokini talab qiladi.

Tarbiya va ijtimoiy faoliyatning uyg'unligi, birinchi navbatda, metodik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishini ko'zda tutadi. Masalan, interaktiv metodlardan foydalanish – muammoli vaziyatlar, keys-stadi, rolli o'yinlar, treninglar – talabalarning nazariy bilimlarini faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Agar bu metodlar talabalarni ijtimoiy loyihalar, volontyorlik harakatlari, talabalar uyushmalari va klublari faoliyatiga integratsiya qilinsa, gender tengligi qadriyati yanada mustahkamlanadi. Chunki bunday jarayonlarda talaba nafaqat o'rganadi, balki bevosita tajriba orttiradi va o'z hayotiy faoliyatida qo'llashni boshlaydi.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi metodik integratsiyaning poydevorini tashkil etadi. O'zbek xalq pedagogikasida ayol va erkakning teng huquqliligini qadrlash, ularning oila va jamiyatdagi o'rnini hurmat qilish qadimdan mavjud. Ushbu qadriyatlarni zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirish talabalar ongida gender tengligini madaniy an'ana sifatida qaror toptirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarga tayanilgan holda, ijtimoiy faoliyatda esa zamonaviy metodlar qo'llanishi uyg'un natija beradi.

Metodik uyg'unlik shuningdek, pedagogning faoliyatida ham namoyon bo'ladi. Pedagog gender masalalariga sezgir bo'lishi, interaktiv yondashuvlardan foydalanishi, talabalarning ijtimoiy faoliyatini nazariy bilimlar bilan bog'lab borishi zarur. Psixologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, talaba nazariy bilimni amalda qo'llash imkoniga ega bo'lsa, uning shaxsiy qarashlari va qadriyatlari mustahkamlanadi. Masalan, G'. Ergashqulovning talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid izlanishlarida tarbiya va ijtimoiy faoliyat uyg'unlashganda yoshlarning dunyoqarashida sezilarli o'zgarishlar kuzatilishi qayd etilgan. Tarbiya va ijtimoiy faoliyatning metodik uyg'unligi – gender tenglikni qaror toptirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Bu uyg'unlik talabalarga nazariy bilimni amaliy faoliyatga aylantirish, tenglik va adolat qadriyatlarini shaxsiy qarash darajasiga ko'tarish imkonini beradi. Natijada, shaxs nafaqat ta'lim jarayonida, balki jamiyat hayotida ham gender tengligi tamoyillariga amal qiluvchi faol va mas'uliyatli inson sifatida shakllanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar ongida gender adolatini shakllantirish an'anaviy tarbiya vositalari bilangina chegaralanib qolmasdan, balki innovatsion metodlar orqali yanada samarali natijalarga erishishni taqozo etadi. Chunki bugungi kunda ta'lim muhiti tezkor axborot oqimi, raqamli texnologiyalar va globallashtirish ta'siri ostida shakllanmoqda. Shunday sharoitda gender tengligi va ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun yangicha yondashuvlar, interaktiv usullar va kreativ pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Ilmiy qarashlarga ko'ra, innovatsion metodlarning asosiy afzalligi – ular o'quvchi va talabalarni faol subyekt sifatida ta'lim jarayoniga jalb etishi, ularning mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishidir. Masalan, A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxsning o'zgarishi va rivojlanishi ijtimoiy model va faol ishtirok orqali yuzaga kelishi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan,

innovatsion metodlar talabalar ongida gender tengligini faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki kundalik hayotiy amaliyotda qo'llaniladigan qadriyat sifatida qaror toptirishga yordam beradi. Gender tengligini shakllantirishda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion metodlardan biri – treninglar va rolli o'yinlardir. Masalan, talabalarni turli gender vaziyatlariga oid rolli o'yinlarda ishtirok ettirish orqali ularda empatiya, ijtimoiy sezgirlik va teng huquqlilik qadriyatlari rivojlanadi. Shuningdek, debat va muhokama metodlari yordamida talabalar gender stereotiplarni tanqidiy tahlil qilishni, o'z fikrini dalillar bilan himoya qilishni o'rganadilar. Keys-stadi usuli esa real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarda gender tenglikni qo'llashning amaliy mexanizmlarini shakllantiradi. Innovatsion metodlardan foydalanishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari ham alohida o'rin tutadi. Onlayn platformalarda gender tenglik mavzusida forumlar, vebinarlar, interaktiv darslar tashkil etish, virtual simulyatsiyalar va test dasturlaridan foydalanish talabalarda ushbu mavzuga doir kengroq tasavvurlarni shakllantiradi. Bunday jarayon talabalarni nafaqat mahalliy darajada, balki global miqyosda ham gender tengligi masalalariga sezgir bo'lishga undaydi. Innovatsion metodlarning samaradorligi shundaki, ular talabalarni faol subyektg aylantiradi. An'anaviy metodlarda o'quvchi ko'proq bilimni qabul qiluvchi sifatida namoyon bo'lsa, innovatsion yondashuvlarda u faol ishtirokchi, qaror qabul qiluvchi va mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi sifatida shakllanadi. Shu orqali talabalarda gender tenglikka oid qarashlar passiv qabul qilingan bilim emas, balki ongli ravishda qabul qilingan qadriyat sifatida mustahkamlanadi.

O'zbekistonlik olimlar ham innovatsion metodlarning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Jumladan, B. Ergashqulov ta'limda interfaol metodlardan foydalanish talabalarda ijtimoiy faollik va mas'uliyatni oshirishini ta'kidlaydi. N. Tillayeva esa kreativ pedagogik yondashuvlar tarbiya jarayonida shaxsning ongini erkinlashtirish, genderga oid qadriyatlarni mustahkamlash va stereotiplarni yengishda samarali natija berishini ilmiy asoslab beradi. Gender adolatini ta'minlashda innovatsion metodlardan foydalanish – talabalarni zamonaviy ta'lim talablari darajasida shakllantirishning eng muhim yo'nalishidir. Treninglar, rolli o'yinlar, debatlar, keys-stadi, loyihaviy faoliyat va raqamli texnologiyalar yordamida olib borilgan tarbiyaviy jarayonlar talabalarda gender tenglikni ijtimoiy ong va madaniyat darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi ilmiy mulohazalar va pedagogik-psixologik qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, talabalar o'rtasida gender adolatini qaror toptirish murakkab, ammo hal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy-pedagogik jarayondir. U nafaqat ta'lim mazmunining bir qismi, balki yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va fuqarolik madaniyatini shakllantirishning muhim yo'nalishi sifatida qaraladi. Tarbiya jarayonida berilgan nazariy bilimlar va qadriyatlar talabalarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish orqali mustahkamlanadi, innovatsion metodlardan foydalanish esa ularni amaliy ko'nikmaga aylantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, gender adolati pedagogik ta'sirning nazariya va amaliyot bilan uyg'unlashgan natijasi sifatida talabalarning dunyoqarashida chuqurroq qaror topadi. Xalqaro va milliy tajribalar ko'rsatmoqdaki, gender tengligi jamiyat taraqqiyotining barqarorligini, ijtimoiy munosabatlarning adolatga asoslanganligini ta'minlaydi. Vygotskiy, Adler, Bandura va Leontyev kabi mashhur olimlarning nazariyalari asosida ham shaxsning ijtimoiy rivojlanishida adolat, hurmat va teng huquqlilik qadriyatlarining shakllanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar – "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmon va qarorlari – gender tenglikni ta'lim tizimi orqali qaror toptirishning mustahkam huquqiy poydevorini yaratmoqda. Shunday ekan, gender adolatini qaror toptirish jarayoni talabalar ongini rivojlantirish, ularni jamiyatga moslashtirish va kelajakda demokratik qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida shakllantirishning zaruriy omiliga aylanmoqda. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun tarbiya, ijtimoiy faoliyat va innovatsion metodlarning metodik uyg'unligi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vygotskiy L.S. *Sobranie sochineniy*. Moskva: Pedagogika, 2-jild, 432 bet. 1984-yil.
2. Leontyev A.N. *Deiatelnost. Soznanie. Lichnost*. Moskva: Politizdat, 304 bet. 1975-yil.
3. Adler A. *Chelovek i obshchestvo*. Moskva: Progress, 218 bet. 19970-yil.
4. Bandura A. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 247 p. 1977-yil.
5. Slastenin V.A. *Pedagogika: Uchebnik dlya studentov*. Moskva: Akademiya, 368 bet. 2002-yil.
6. G'oziev E.G'. *O'quvchilarning psixologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 215 bet. 2004-yil.
7. Tillayeva N. *Pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: O'qituvchi, 142 bet. 2012-yil.
8. Dauletova G.M. *Ta'lim psixologiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya, 178 bet. 2020-yil.
9. Ergashqulov B. *Talabalarning psixologik moslashuv muammolari*. Samarqand: Ipak Yo'li Universiteti nashriyoti, 97 bet. 2021- yil.
10. Kamoldinova I.O. *Maktabgacha ta'lim psixologiyasi*. Toshkent: Ilm Ziyo, 124 bet. 2019-yil.
11. Ergashqulov B., Tillayeva N. *Pedagogik psixologiya va ta'lim jarayonining ijtimoiy omillari*. Toshkent: Fan va texnologiya, 185 bet. 2020-yil.

Jalolova Feruza Mirkamol qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

PEDAGOG KADRLARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonlari, ularning kasbiy faoliyatida samaradorlikka erishish omillari hamda ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagoglarning rahbarlik va tashkiliy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy hamda amaliy asoslar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagog, boshqaruv, kompetentlik, rivojlanish, ta'lim, rahbarlik, tashkiliy faoliyat, kasbiy mahorat, samaradorlik, innovatsiya*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются процессы развития управленческой компетентности педагогических кадров, факторы достижения эффективности в их профессиональной деятельности, а также анализируются современные подходы к управлению в системе образования. Освещаются теоретические и практические основы, способствующие повышению лидерских и организационных качеств педагогов.*

Ключевые слова: *(педагог, управление, компетентность, развитие, образование, лидерство, организационная деятельность, профессиональное мастерство, эффективность, инновация*

Annotation. *This article explores the development of management competence among pedagogical staff, the factors influencing effectiveness in their professional activities, and modern management approaches in the educational system. It also highlights the theoretical and practical foundations aimed at enhancing teachers' leadership and organizational capacities.*

Key words: *pedagogue, management, competence, development, education, leadership, organizational activity, professional skills, effectiveness, innovation*

Kirish. *Jahon miqyosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash muhim tendensiyaga aylangan. Xususan, UNESCO, OECD, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishga oid talablarni muntazam yangilab, ta'lim sifatini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etishni dolzarb vazifa sifatida belgilamoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Finlyandiya kabi rivojlangan mamlakatlarda bo'lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim muhitlari va treninglarga asoslangan tashkiliy-didaktik mexanizmlar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda, bu esa ta'lim muassasalarida liderlik salohiyatiga ega bo'lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali global ta'lim bozoridagi raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini bermoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu mexanizmlarning milliy ta'lim tizimida ham takomillashtirilishi masalaning jahon ta'lim siyosati nuqtai nazaridan ham dolzarbligini tasdiqlaydi. Hozirda dunyodagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlarda pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, AQShning Garvard universitetida pedagogik liderlikni rivojlantirishning tashkiliy-didaktik modellari tadqiq qilinmoqda. Buyuk Britaniyaning Oksford universitetida bo'lajak pedagoglarning boshqaruv kompetensiyasini shakllantirish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash mexanizmlari o'rganilmoqda Singapur Milliy universiteti (NUS) va NIE ta'lim instituti pedagoglarda boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning raqamli*

platformalarga asoslangan metodikalarini takomillashtirmoqda. Finlyandiyaning Helsinki universitetida pedagogik rahbarlik kompetensiyalari bo'yicha trening asosidagi ta'lim dasturlari keng tadqiq etilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ushbu tadqiqot markazlaridagi ilmiy-amaliy tajribalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham mazkur mexanizmlarning joriy etilishini taqozo etadi va mavzuning dolzarbligini xalqaro miqyosda asoslaydi.

Asosiy qism. XXI asrning ilk choragida jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya, axborot oqimining kengayishi va intellektual mehnat turlarining ustuvorligi ta'lim tizimining barcha bosqichlariga yangi ijtimoiy-iqtisodiy talablarni yuklamoqda. Ayniqsa, ta'lim sifatini ta'minlash, kadrlar salohiyatini oshirish va bozor iqtisodiyoti talablariga mos innovatsion salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biz tadqiqotimiz jarayonida XXI asrning ilk choragida yuzaga kelayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimining kengayishi ta'lim tizimiga kuchli ijtimoiy-iqtisodiy bosim sifatida ta'sir ko'rsatayotganini alohida qayd etamiz. Bu bosim nafaqat ta'lim muassasalarining ichki tuzilmasi, balki pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning boshqaruv salohiyatini rivojlantirishni strategik vazifa sifatida qo'ymoqda. Biz, shuni ta'kidlaymizki, bozor iqtisodiyotida raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassisni tayyorlashda, birinchi navbatda, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining - pedagog-menejrlarning - zamonaviy boshqaruv kompetentligiga ega bo'lishi hal qiluvchi omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois, ta'lim sifatini ta'minlashda boshqaruv salohiyatini shakllantirish ustuvor ilmiy va amaliy yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy jamiyatda inson kapitali - milliy taraqqiyotning asosiy strategik resursi sifatida qaralmoqda. Shu bois, pedagog kadrlarning professional tayyorgarligi, ularda yetakchilik va boshqaruv kompetentligini shakllantirish masalalari davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Bizningcha, zamonaviy jamiyatda inson kapitaliga milliy taraqqiyotning asosiy strategik resursi sifatida yondashish tendensiyasi ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, pedagog kadrlarning professional tayyorgarligi, ularda yetakchilik va boshqaruv kompetentligini shakllantirish masalalari nafaqat tizim ichidagi muammo, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Bizning tadqiqot tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, inson kapitali salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun, avvalo, pedagoglarni strategik fikrlovchi, tashabbuskor va innovatsion yondashuvga ega rahbar sifatida tayyorlash zarur. Bu esa, ta'limning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Ta'lim sohasida innovatsion, adaptiv va raqobatbardosh boshqaruv qobiliyatiga ega kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bizningcha, ta'lim sohasida innovatsion, adaptiv va raqobatbardosh boshqaruv qobiliyatiga ega kadrlarga ehtiyojning ortishi - bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarining tabiiy oqibati sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat bilimli, balki tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, strategik fikrlaydigan va rahbarlik qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifaga aylandi. Bizning tadqiqot tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, ana shunday kadrlarni shakllantirish - ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish va ularning jamiyatdagi ijtimoiy missiyasini to'liq bajarishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga egadir.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar sababli vujudga kelayotgan ta'lim falsafasining o'zgarishlari yangi boshqaruv paradigmasiga o'tishni taqozo etadi.

Adabiyotlarda boshqaruvning ma'nosi bo'yicha uch xil yo'nalishda tushunchalar mavjud. Birinchisiga ko'ra, boshqaruv – faoliyatdir. Masalan, o'z vaqtida boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni:

kelajakni ko'ruvchi;
tashkilotni idora qiluvchi;

faoliyatni tashkillashtiruvchi;
faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi;
qaror va buyruqlar ijrosini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi.

Ikkinchi yo'nalish vakillari boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga «ta'sir etishi» deb hisoblaydilar. Bu yo'nalish tarafdorlari boshqaruv maqsadga yo'naltirilgan ta'sir etish, sub'ektning ob'ektga ta'siri natijasida ob'ektning o'zgarishi, deb ta'riflaydilar.

Uchinchi yo'nalishga ko'ra, boshqaruv sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ya'ni to'g'ri va teskari ta'sirlarning uzluksizligi, bir-biriga ta'sir etuvchi sub'ektlarning o'zgarishini organik bog'liqligi degan qarashlar mavjud.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, boshqaruv:

- maqsad yo'nalishida ob'yektning muvofiqlashtirish;
- maqsadga erishish uchun ob'yektga ta'sir etish;
- maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishdir.

BOSHQARUV - o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishni muvofiqlashtirishdir.

Boshqaruv kompetentligi - bu nafaqat tashkilotni boshqarishga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar majmuasi, balki strategiya tuzish, tashabbus ko'rsatish, muammoli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish, jamoani yetaklash, o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini qamrab olgan integral kompetensiya hisoblanadi. Darhaqiqat, boshqaruv kompetentligi ta'lim tizimidagi rahbarlik faoliyatini mukammal amalga oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bizningcha, ushbu kompetensiyani faqat ma'muriy yoki tashkiliy faoliyat bilan bog'lash tor yondashuv bo'ladi. Biz tadqiqotimiz jarayonida aniqladikki, pedagog rahbardagi boshqaruv salohiyati - bu innovatsion yondashuv, mas'uliyatli yetakchilik, tizimli fikrlash va jamoani yagona maqsad sari boshqara olish qobiliyati bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishida menejer-pedagoglarning professional boshqaruv qobiliyati, ularning tashkilotni strategik boshqarishdagi ishtiroki hamda ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etish salohiyati beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida ham ta'lim muassasalarida boshqaruv kompetentligining mavjudligi sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda o'rganilmoqda. Xususan, YuNESKO hisobotlarida ta'lim muassasalarida akademik avtonomiya, yetakchilik madaniyati va tashkilot ichidagi samarali boshqaruv tizimi ta'lim natijalarining oshishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Ta'lim jarayonida boshqaruv funksiyalarini adolatli taqsimlash, jamoa a'zolarini qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish, sifatni ichki baholash mexanizmlarini joriy qilish ta'lim muassasasining sifatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida ham ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish, ichki monitoring va sifat baholash tizimlarida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligi asosiy mezonlardan biri sifatida belgilanmoqda. Jumladan, "Ta'lim sifatini baholash milliy markazi" tomonidan ishlab chiqilgan standartlarda muassasa rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalari - akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillikni amalga oshirish salohiyati bilan chambarchas bog'langan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bizningcha, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan har qanday islohot jarayonida pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish markaziy o'rinni egallashi lozim. Zero, nafaqat bilim beruvchi, balki tashkilot rahbari sifatidagi faoliyati orqali pedagog kadrlar ta'lim muassasasining missiyasi, strategik maqsadlari va jamoa rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli ta'sirga egadir.

Boshqaruv kompetentligining real ifodasi sinfxonadagi motivatsion muhitdan tortib, ta'lim muassasasining ishonchli infratuzilmasini yaratishgacha bo'lgan keng qamrovli faoliyat doirasini qamrab oladi. Pedagogning bu salohiyati - jamoa bilan ishlash, o'z faoliyatini doimiy

refleksiya qilish, o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan ochiq muloqotni ta'minlash orqali vujudga keladi.

Mavjud xalqaro va milliy hujjatlar, o'qituvchilik kasbining rivojlanish tendensiyalari va yuqorida keltirilgan nazariy asoslar shuni anglatadiki, boshqaruv kompetentligini rivojlantirish faqat boshqaruv pozitsiyalariga tayyorlash emas, balki o'qituvchining kasbiy o'zligini yangilash, ta'limga bo'lgan madaniy yondashuvini chuqurlashtirish, uni ijtimoiy transformatsiyalar markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, boshqaruv kompetentligi – bu rahbar shaxsning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik jamoani boshqarish, strategik qarorlar qabul qilish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardosh ta'lim muhitini yaratishga qodir bo'lishini anglatadi. Ushbu kompetentlik nafaqat amaldagi rahbarlar, balki bo'lajak pedagog kadrlarda ham tayyorgarlik jarayonida oq shakllantirilishi kerak.

Ayniqsa, global ta'lim muhitidagi o'zgarishlar va yangi talablar bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, rivojlangan davlatlarda (xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Sharqiy Osiyo davlatlarida) pedagog kadrlarni rahbarlik salohiyatiga ega etib tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan siyosat va amaliyotlarning tahlili alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu paragrafda xorijiy davlatlardagi ta'lim rahbarlarini shakllantirishdagi konseptual yondashuvlar, kasbiy tayyorgarlik tizimlari, amaliyot asosidagi mexanizmlar hamda ilmiy asoslangan standartlar chuqur tahlil qilinadi. Shu orqali O'zbekiston ta'lim tizimi uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ilg'or tajribalarni aniqlash, ularni milliy sharoitga moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Ushbu tahlil avvalo AQSh tajribasi misolida keng qamrovli, ilmiy manbalarga asoslangan holda bayon etiladi. AQShda Instructional Leadership modeli orqali pedagogni nafaqat o'qituvchi, balki ta'lim jarayonining strategik yetakchisi sifatida shakllantirish tizimi shakllangan bo'lib, u so'nggi yillarda barcha pedagogik yo'nalishlarga bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda.

US AQSh tajribasi: Instructional Leadership modeli asosida pedagog rahbarni shakllantirish.

Instructional Leadership (IL) modeli pedagogik rahbarlikning ma'muriy boshqaruvdan farqli o'laroq, ta'lim mazmuni, ta'lim sifati, pedagoglarni rivojlantirish va o'quv muhitini tashkil etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Hallinger & Murphy (1985) ushbu modelni 3 ta asosiy funksional blokka bo'ladi:

Define the School Mission – maktabning maqsadini belgilash, aniqlash va yetkazish

Manage the Instructional Program – ta'lim dasturlarini boshqarish, baholash, muvofiqlashtirish

Promote a Positive School Learning Climate – o'quv muhitini qo'llab-quvvatlash, kadrlar rivoji, intizom.

Distributed Leadership (DL) – rahbarlikni tarqatish modeli

James Spillane (2006) Instructional Leadership'ni kengaytirib, Distributed Leadership (DL) modelini taklif qiladi. Unga ko'ra:

rahbarlik - shaxsiy fazilat emas, jamoaviy amalga oshiriladigan faoliyat;

o'qituvchi, koordinator, assistent-direktorlar ham mas'uliyatni bo'lishadi;

maktab muvaffaqiyati - "bitta yetakchi" emas, "ta'lim rahbarlari ekotizimi" orqali yuzaga chiqadi.

AQShda ta'lim sohasidagi bakalavr dasturlari "Instructional Leadership readiness" prinsipiga asoslangan. Bu tizim talabalarni yoshlikdanoq pedagog-yetakchi sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Barcha yo'nalishlarda (STEM, ESL, Social Studies, Primary Ed.) majburiy Professional Core fanlari:

| Fan nomi | Mazmuni |
|--|---|
| Educational Leadership | Rahbarlik nazariyalari, Instructional & Transformational Leadership |
| School Organization & Law | Maktab huquqiy asoslari, ichki nazorat tizimlari |
| Curriculum Supervision | O'quv dasturini tahlil qilish, o'qituvchilarni metodik qo'llab-quvvatlash |
| Instructional Design & Assessment | Dars tashkil etish, baholash strategiyalari |
| Ethics & Equity in Education | Rahbarlikda odob-axloq va tenglik prinsiplari |

Shuningdek, Educational Leadership Minor / Certificate Programs ya'ni, Harvard, Michigan, Illinois universitetlarida "Leadership Minor" dasturlari mavjud. Bu dasturlar barcha yo'nalish talabalari uchun ochiq va tanlov asosida amalga oshiriladi. Masalan: University of Michigan – "BA in Education + Leadership Minor" dasturi talabalarni Instructional Coach va Team Leader salohiyatiga tayyorlaydi.

Shuningdek, Internship va Shadowing dasturlari: bakalavr talabalari maktablarda internship ya'ni amaliyot o'tash jarayonida faqat dars bermasdan:

- direktor yordamchisi faoliyatini kuzatadi;
- targ'ibot tadbirlarini boshqaradi (assemblies, parent nights);
- ta'lim dasturini tahlil qiladi (curriculum audit);
- jamoa bilan faol muloqot qiladi.

Coaching va Mentorship: Leadership Academy'lar orqali har bir talabaga professional pedagog-yetakchi birlashtiriladi. Mentor o'z tajribasi, rahbarlik qarorlari, o'quv strategiyalari bilan bo'lishadi. "Reflective Journaling" orqali har bir talaba o'z rahbarlik ko'nikmasini o'zi baholab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Дзюба И. А., Реут В. Г., Сойко А. Д. Исследование профессиональных компетенций и образовательных запросов педагогических работников : монография. - 2024. - Минск : Академия последипломного образования.

2.Коллектив авторов. Профессионально-личностное развитие педагога: диагностика, технологии, программы : учебное пособие для вузов. - 2020. - Москва : Юрайт.

3.Gafurov, I., Kalimullin, A., Valeeva, R. (eds.). Developing Teacher Competences: Key Issues and Values. - 2020. - Hauppauge, NY : Nova Science Publishers.

4.Gurr, D., Liu, P. (eds.). Educational Leadership Preparation and Development: An international and future focused perspective. - 2025. - Cham : Springer

Turobova Nilufar Umedullayevna,
Boysun tumani 4-umumiy o'rta maktab direktori

TARIX DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Annotasiya. Maqolada tarix darslari orqali o'quvchilarning mustahkam kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularga ma'lumotlarni mustaqil ravishda sharhlash, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va asosli pozitsiyani shakllantirish, o'tmishning turli faktlari, manbalari va talqinlari bilan shug'ullanishda tanqidiy fikrlashning innovatsion yondashuvlari qalamga olingan. Muallif didaktik strategiyalarni faol ta'lim usullari, muammoli muloqot usullari, tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish va munozara vaziyatlarini modellashtirishga asoslangan holda ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: tarixiy ta'limi, innovatsion texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, kognitiv rivojlanish, tarixiy manbalarni izohlash, muammo-dialog usuli, shaxsning analitik madaniyati.

Аннотация. В статье рассматриваются инновационные подходы к развитию устойчивых когнитивных навыков учащихся на уроках истории, позволяющие им самостоятельно интерпретировать информацию, сопоставлять различные точки зрения и формировать обоснованную позицию, а также работать с различными фактами, источниками и интерпретациями прошлого. Автор рассматривает дидактические стратегии, основанные на активных методах обучения, методах проблемной коммуникации, сравнительном анализе исторических источников и моделировании дискуссионных ситуаций.

Ключевые слова: историческое образование, инновационные технологии, критическое мышление, когнитивное развитие, интерпретация исторических источников, проблемно-диалоговый метод, аналитическая культура личности.

Annotation. The article considers innovative approaches to the development of students' strong cognitive skills through history lessons, allowing them to independently interpret information, compare different points of view and form a justified position, and engage with various facts, sources and interpretations of the past. The author considers didactic strategies based on active learning methods, problem-based communication methods, comparative analysis of historical sources and modeling of discussion situations.

Key words: historical education, innovative technologies, critical thinking, cognitive development, interpretation of historical sources, problem-dialogue method, analytical culture of the individual.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgaruvchan jamiyat talablari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ortib borayotgan ahamiyati tufayli uzluksiz o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktab ta'limining tarix darslarida ijtimoiy-tarixiy voqelikni tahlil qilish, sharhlash va qayta fikr yuritish qobiliyatini ta'minlovchi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqilligi va izlanishlarini rag'batlantiradigan ta'lim muhitini maqsadli yaratishni o'z ichiga oladi[1].

Tarix ta'limi turli manbalar, hodisalar va tushunchalardan foydalanish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullarni amalga oshirish uchun o'ziga xos platforma yaratadi. Tarix nafaqat o'tmishdagi misollarni ko'rsatibgina qolmay, balki turli talqinlarni solishtirishga, asosli xulosalar shakllantirishga va sabab-natija munosabatlarini aniqlashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Jon Dyui asarlarida tanqidiy fikrlash reflektiv idrokning asosi sifatida qaraladi, bu bilimlarni mexanik ravishda o'zlashtirishni emas, balki uni yangi kontekstlarda mazmunli qo'llashni nazarda tutadi[2, 111-bet]. Ushbu kontsepsiya

talabalarni axborotni mustaqil tahlil qilish va sharhlash jarayoniga jalb qilishning amaliy usullarini ishlab chiqishga qaratilgan keyingi tadqiqotlarning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi.

L.S.Vygotskiy fikrlashning ijtimoiy-madaniy xususiyatini ta'kidlab, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda hamkorlikdagi faoliyat va dialogning muhimligini ta'kidladilar[3, 32-bet].

R.Pol va L.Elder tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni intellektual standartlarni rivojlantirish va mustaqil fikrlashga tayyorlik bilan bog'laydilar[4, 64-bet]. Bu g'oyalar pedagogik amaliyotda o'z aksini topdi, bunda asosiy e'tibor mavjud bilimlarni uzatishdan muammoli ta'limni tashkil etishga va tanlagan vaziyatlarni yaratishga o'tadi.

Q.R.Shonazarov ta'kidlanishicha, tarixiy manbalar bilan ishlash, hodisalarning qarama-qarshi talqinlarini tahlil qilish, sinfdagi muhokamalarda qatnashish o'quvchilarda axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi[1, 98-bet].

Tadqiqot metodologiyasi. Muallif tarix ta'limida didaktik strategiyalarni faol ta'lim usullari, muammoli muloqot usullari, tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish va munozara vaziyatlarini modellashtirishga asoslangan holda ko'rib chiqadi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun biz statistik tadqiqot, adabiyotlar qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullari, tahlilni qiyoslash, tizimli hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim amaliyotida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish an'anaviy uslubiy yondashuvlarni tizimli ko'rib chiqishni talab qiladi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarix ko'p qirrali o'tmishni o'rganishga qaratilgan o'quv predmeti sifatida maktab o'quvchilarida tahliliy va sharhlovchi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi.

S.A.Sharipova asarlarida qarama-qarshi manbalardan foydalanish va ularni qiyosiy talqin qilish o'quvchilarga faktlarni oddiy yodlashdan nariga o'tishga, tarixiy voqealarning turli versiyalarini solishtirish qobiliyatini rivojlantirishga imkon berishi ta'kidlangan[5].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, eng samarali usullar o'quvchilarni muammoni hal qilish bo'yicha dialoglarga jalb qilishga qaratilgan bo'lib, ular mustaqil ravishda yechim izlashni rag'batlantiradi. Tarixiy manbalar bilan ishlash, voqealarning turli talqinlarini solishtirish, akademik munozaralar va loyiha faoliyatini tashkil etish talabalarda taqdim etilgan faktlarni tanqidiy baholash va o'z xulosalarini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday amaliyotlar ularning o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, hozirgi ijtimoiy jarayonlarni tushunish uchun tarixiy materiallardan foydalanadi.

B.T.Karimov o'z ishida loyiha asosida o'qitish va rolli o'yinlarni joriy etish o'quvchilarda munozara ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlaydi[6]. Ushbu yondashuv tarixiy materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi va barqaror kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Multimedia arxivlari, interaktiv xaritalar va elektron platformalardan foydalanish manbalar doirasini kengaytiradi va tahlil jarayonini yanada ingl. Bunday vositalarni joriy etish nafaqat talabalarning motivatsiyasini oshiradi, balki axborotni tanlash, uni tanqidiy baholash va o'z pozitsiyasini asosli asoslash ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

N.A.Safonovanning tadqiqotlari raqamli texnologiyalarni integratsiyalash muhimligini ko'rsatadi[7]. Zero interfaol xaritalar, multimedia manbalari va elektron arxivlardan foydalanish o'quvchilarga tarixiy jarayonlarni qayta talqin qilish va turli kanallardan axborotni tanqidiy baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari tarix ta'limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari an'anaviy metodlar va innovatsion yondashuvlar uyg'unligiga asoslangan bo'lishi kerakligini tasdiqlaydi. Faqat ularning integratsiyasi talabalarda mustaqillik, mas'uliyat, murakkab tarixiy va ijtimoiy

voqelikni ongli idrok etishga tayyor bo'lishga qaratilgan barqaror tahliliy madaniyatni shakllantirishni ta'minlaydi.

B.Xodjaev an'anaviy usullarni innovatsion amaliyotlar, masalan, amaliy tadqiqotlar va tadqiqot mini-loyihalari bilan uyg'unlashtirish talabalarning faolligini sezilarli darajada oshirishi va ularning tahliliy mustaqilligini mustahkamlashini ko'rsatadi[8].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tarix darslarida innovatsion usullardan foydalanish o'quvchilarning takroriy o'zlashtirishdan materialni mustaqil tushunishga o'tishini osonlashtiradi. Xususan, S.A.Sharipovning tadqiqotlari tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish faktlarni solishtirish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirayotganini tasdiqlaydi [5].

B.T.Karimovning ta'kidlashicha, muammoli muloqot usuli intellektual faoliyatni rag'batlantiradi va echimlarni mustaqil izlashni boshlaydi[6, 44-bet]. Ushbu ma'lumotlarni tizimlashtirish bizga innovatsion yondashuvlar murakkab ijtimoiy voqelikni adekvat idrok etishga tayyor bo'lgan shaxsning analitik madaniyatini shakllantirish uchun sharoit yaratadi, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Albatta, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlardir, lekin o'quv jarayonini yo'naltiruvchining asosiy roli o'qituvchiga tegishli bo'lib, u o'quvchilarga olingan bilimlarni sharhlash, tahlil qilish, baholash va amaliy faoliyatda amalga oshirishda yordam beradi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlar, balki tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo'yicha ham doimiy ravishda o'z malakalarini oshirishlari kerak. Buning uchun ularning o'z ishlarini tahlil qilish, ularning tajribasini boshqa tadqiqotchilar tajribasi bilan solishtirish va natijalarini tanqidiy baholash kerak.

Tanqidiy fikrlash o'quv faoliyati jarayoni va natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida, ya'ni vazifani bajarish, muammoni hal qilish, faoliyat yoki xatti-harakatlar natijalarini baholash, xulosalarni tasdiqlash, muammo yoki topshiriqning eng oqilona echimini izlash diagnostika jarayonida paydo bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash ma'lum bir sohada o'rganishning qo'shimcha mahsuloti sifatida avtomatik ravishda paydo bo'lmaydi. Istalgan effektga erishish fikrlashni yaxshilash uchun tizimli harakatlarni talab qiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, har biri o'qituvchi va talaba, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik natijasida yuzaga keladi va maxsus ko'rsatmalar, mashqlar va treninglar orqali o'quvchilarni faol fikrlash jarayoniga jalb etishga qaratilgan.

Tanqidiy fikrlash muammolarini o'rganuvchi nazariy va eksperimental ilmiy ishlarni tahlil qilish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini egallash darajalarini belgilab olamiz:

Boshlang'ich darajasi. 1-bosqich - tan olish.

Savolni aniqlash, muammoni qo'yish va o'quvchilar o'rtasida ichki noqulaylik yoki tushunmovchilik hissini boshdan kechirish, bu o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni batafsil tushuntirishni talab qiladi.

2-bosqich – Tushunish.

savol, dilemma, muammolarga nima tegishli ekanligini o'rganish va aniqlash;

turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni topish, ilgari qabul qilingan xulosalar va dalillarni tahlil qilish va mavjud bilimlardan foydalanish;

savol, dilemma, muammo va hokazolarni hal qilishda dalillarga asoslangan muqobil nuqtai nazarlarni izlash;

Fikr bildirish, savol berish va ma'lumot almashish. Boshlang'ich bosqichda topshiriq va mashqlarni qayta yozish, ma'lumotni yaxshiroq yodlash uchun matnlarni qayta o'qish, mashq qilish va boshqalar kabi faoliyatlardan foydalanish mumkin.

Yuqori daraja. 3-bosqich - tahlil.

talabalarni fikrlash jarayoniga jalb qilish;

dalillarni, ma'lumotlarni, bilimlarni yoki istiqbollarni tasniflash va takomillashtirish; o'xshash va turli nuqtai nazarlarni, muqobil istiqbollarni yoki dalillarni aniqlash; savollar, dilemmalar, muammolar va boshqalarni izohlash va tushuntirish; muammoni mantiqiy qismlarga bo'lish; bilim yoki ma'lumotlardagi bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirish, o'z harakatlarini baholash.

4-bosqich – baholash va amalga oshirish.

axborotning ishonchligi, ahamiyati va dolzarbligini baholash;
istiqbol va taxminlarni tanqid qilish;
muvofiqlik, xatolar, o'xshashlik va farqlarni aniqlash;
ta'riflarni shakllantirish va baholash;
dalillarni tasdiqlash uchun dalillardan foydalanish;
dalillarni, ma'lumotlarni, bilimlarni yoki istiqbollarni qabul qilish yoki rad etish;
vazifalarni amalga oshirish yoki bajarish uchun strategiyalarni ishlab chiqish;
haqiqiy yoki faraziy yechimlar va xulosalarni qo'llash;
yangi bilimlarni olish va amalga oshirish;
muqobil istiqbolli farazlarni taklif qilish; - qarorlar va xulosalar qabul qilish;
rejani amalga oshirish, amalga oshirish yoki o'zgartirish.

Yuqori daraja ma'lumotni baholash va yangi g'oyalarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu daraja talabalarni savollar berishga undaydi, qiziquvchanlikning tanqidiy fikrlash sifatini ko'rsatadi, chunki u muammolarni hal qilishning yangi usullarini ilhomlantiradi, ijodiy echimlarni topadi va kutilmagan istiqbollarni ochadi.

Qiziqish o'quvchilarga turli g'oyalar va tushunchalarni uyg'unlashtirib, noyob kompozitsiyalar yaratish imkonini beradi va inson maqsadlariga erishishda asosiy omil hisoblanadi. Savollarni shakllantirish qobiliyati intellektual va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Savollar o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishning samarali mexanizmidir[8].

Ta'kidlash kerakki, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollar nafaqat fikrlashni rag'batlantirish, balki o'quvchilarga mustaqil fikrlash yo'lini ko'rsatish usulidir. O'quvchilarni savol berishga undash o'qituvchining o'quv jarayonida eng muhim va ayni paytda eng qiyin vazifasidir; bu vazifa mashaqqatli va tizimli mehnatni talab qiladi.

Biz savolni to'g'ri berish va ularga qanday javob berishni o'rganish miya faoliyatini rag'batlantiradi, muloqotga yordam beradi, muammolarni aniqlashga yordam beradi, tinglash va eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quvchilarda tadqiqot ko'nikmalarini singdiradi.

Olingan ma'lumotlarning qisqacha mazmuni shuni ko'rsatadiki, tarix darslarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida samaradorligi bevosita foydalaniladigan pedagogik texnologiyalarning o'zgaruvchanligiga bog'liq. Innovatsion metodlar o'quvchilarga bilimlarni shunchaki egallashdan tashqariga chiqishga va ongli tahlil qilish, talqin qilish va asosli xulosa chiqarish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuvlarni amalga oshirish mustaqil intellektual izlanishga va zamonaviy ijtimoiy voqeliklarning xilma-xilligini etarli darajada tushunishga qodir bo'lgan shaxslarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni tarixni o'qitishga an'anaviy yondashuvlar bilan cheklab bo'lmaydi. Zamonaviy ta'lim amaliyoti o'quvchilarning mustaqil tahlil qilish, faktlarni solishtirish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va asosli mulohazalarni shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy strategiyalarni har tomonlama yangilashni talab qiladi.

Tarix darslari o'quvchilarga turli manbalar bilan ishlash, o'tmishning ko'plab talqinlariga duch kelish va axborotni muvozanatli baholash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – muammoli muloqot usullari, loyiha asosida o'qitish, tadqiqot amaliyoti va raqamli vositalarni joriy etish bilimlarni reproduktiv egallashdan tanqidiy fikrlash va amaliy qo'llashga o'tish uchun sharoit yaratadi.

Tahlil shuni tasdiqlaydiki, tarix darslarida innovatsion yondashuvlardan tizimli foydalanish nafaqat o'quvchilarning fan bilimini oshirish, balki barqaror tahliliy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, intellektual mustaqillik va jamiyat hayotida konstruktiv ishtirok etish istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Шоназаров Қ.Р. Бўлажак тарих ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида тарихий тафаккурни шакллантиришга тайёрлаш. Дисс.пед.ф.н.—Тошкент, 2002. - 134 б
2. Дьюи Дж. Демократия и образование.—М.: Педагогика, 2000. – 384 с.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 350 с.
4. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Managing Professional and Personal Life. – New Jersey: Prentice Hall, 2002. – 356 p.
5. Шарипова С.А. Современные подходы к преподаванию истории в общеобразовательной школе. – Ташкент: Фан ва технология, 2020. – 132 с.
6. Каримов Б.Т. Инновационные технологии в преподавании истории: теория и практика. – Самарканд: СамГУ, 2021. – 156 с.
7. Сафонова Н.А. Цифровые ресурсы в развитии критического мышления школьников. – Санкт-Петербург: Питер, 2022. – 144 с.
8. Ходжаев Б. Ўқувчиларнинг *тарихий* тафаккурини шакллантиришда мустақил ишлардан фойдаланиш технологияси ... Тошкент: Фан ва texnologiya, 2012. 202 б.

Sabirova Nasiba Rasulovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
sabirova.nasiba87@mail.ru

BASKETBOLCHI TALABALARNI TEXNIK-TAKTIK TAYYORLASH METODIKSINING NAZARIY ASOSLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida basketbolchi talabalarni texnik-taktik tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari ochib berilgan. Oliy ta'lim muassasalarida basketbol mashg'ulotlarida texnik harakat ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishning asosiy prinsiplari, shug'ullanuvchilarning maydonda guruhli va jamoaviy taktik harakatlarga o'rgatish, individual yondashuv hamda modulli texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Basketbol, oliy ta'lim, texnik-taktik tayyorgarlik, metodika, individual yondashuvlar, modulli texnologiyalar

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретико-методологические основы технико-тактической подготовки студентов-баскетболистов в высших учебных заведениях. Основные принципы поэтапного формирования навыков технических действий на занятиях баскетболом в высших учебных заведениях, эффективные пути обучения занимающихся групповым и коллективным тактическим действиям на поле, индивидуальный подход и использование модульных технологий.

Ключевые слова: Баскетбол, высшее образование, технико-тактическая подготовка, методика, индивидуальные подходы, модульные технологии

Abstract. This article reveals the theoretical and methodological foundations of technical and tactical training of basketball players in higher educational institutions. The main principles of the phased formation of technical actions skills in basketball classes in higher educational institutions, effective ways of teaching group and collective tactical actions on the field, an individual approach and the use of modular technologies.

Key words: Basketball, higher education, technical and tactical training, methodology, individual approaches, modular technologies

Kirish. Hozirgi davrda jismoniy tarbiya va sport sohasi yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlash, hamda ularni irodaviy va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Sportning ommabop turlaridan biri bo'lgan basketbol esa talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, harakat faoliyatini takomillashtirish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Basketbolchi talabalarni tayyorlash jarayonida texnik-taktik tayyorgarlik alohida o'rin tutadi. Chunki mazkur tayyorgarlik sportchining nafaqat jismoniy imkoniyatlarini, balki fikrlash tezkorligi, qaror qabul qilish darajasi, o'yin davomida o'zini to'g'ri tutish malakasini ham shakllantiradi. Shu bois texnik elementlarni mukammal egallash va taktik yechimlarni to'g'ri qo'llash sportchilarni yuqori natijalarga olib chiqishda asosiy mezon hisoblanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida basketbol bilan shug'ullanuvchi talabalarni ilmiy asoslangan metodika orqali tayyorlash zarurati ortib bormoqda. Texnik-taktik tayyorgarlikning nazariy asoslarini chuqur o'rganish esa kelgusida sport mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish, talabalarning sport ko'rsatkichlarini oshirish va basketbolni ommalashtirish imkonini beradi.

Basketbol sport tarixiy rivojlanish davrida raqobat va sport kurashining jadal sur'atlar bilan o'sishi bu sportning yuksak darajada ravnaq topishi uchun xizmat qildi. Ushbu davrda strategiya texnika-taktika, o'yinchilar pozitsiyalari shakllandi, har bir o'yinchining

maydondagi vazifalarini aniq belgilab berish imkonini berdi. Bu esa basketbolchilarning malakali va optimal tayyorgarligiga yordam berdi.

Zamonaviy basketbol taktikasi o'yinni olib borish vositalari, usullari va shakllarining katta arsenalidan foydalaniladi. Bulardan faqat texnikani yuqori darajada egallaganda foydalanish mumkin, chunki har qanday taktik harakat muayyan vaziyatda eng samarali texnik usulni tanlash va uni aniq bajarishga bog'liq. Basketbolda sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi, eng avvalo texnik usullarni turli o'yin vaziyatlarida o'rganish va mashq qilishni nazarda tutadi.

Mashg'ulotlar ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning qonuniyatlarini aks ettiruvchi va shu munosabat bilan ta'lim va tarbiya vazifalarini hal qilishda majburiy xarakterga ega bo'lgan ba'zi umumiy qoidalarga - prinsiplarga tayanadi. Ta'limning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: onglilik va faollik tamoyili, tamoyili, ko'rgazmalilik tamoyili, tushunarliklik va individuallashtirish tamoyili, tadrijiylik tamoyili, tizimlilik va izchillik tamoyili. O'qitishning natijaviyligiga shug'ullanuvchilarning o'z harakat potensialini kengaytirishga faol, qiziqish bilan munosabatda bo'lishi yordam beradi. Nimani xohlashini bilgan va maqsadga muvofiq intilgan talabagina ko'zga ko'rinarli muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin.

Demak, pedagogning vazifasi o'z tarbiyalanuvchilarida jismoniy takomillashuvga bo'lgan ehtiyojni uyg'otishdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalarida basketbolchi talabalarni texnik-taktik tayyorlash masalasi ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan bo'lsada, ularning ayrim jihatlari hanzugacha tatqiqot talab qiluvchi soha bo'lib qolmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, basketbol texnikasi va taktikasi bo'yicha fundamental ilmiy ishlar olib borila boshladi. Xorijiy olimlardan 1980-yillar A.Ya.Gomilskiy o'z ishlarida jamoaviy taktikaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, nemis olimi R.Shmidt sportda motoric harakatlarni o'rgatish jarayonida qayta takrorlash va sharoitni o'zgartirib mashq qilish samaradorligini asoslab bergan. Basketbolchilarda texnik elementlarni bosqichma-bosqich o'rgatish metodikasini N.S.Gorelov ishlab chiqqan. U o'z ishida dastlab elementar texnik ko'nikmalarni, keyinchalik murakkab kombinatsiyalarni qo'llash lozimligini ta'kidlaydi. Talabalar orasida taktik qaror qabul qilish tezligi va oshirish yo'llarini A.M.Jurovlyova o'z ilmiy ishlarida asoslab bergan, ya'ni taktika bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash yaxshi samara berishini aytadi. O.Dudnik va L.Buylova ham hujum taktikasini bosqichma-bosqich o'rgatishning o'yinli mashqlarga asoslangan metodikasini ishlab chiqqan. O'yinli mashqlar va modifikatsiyalangan mini-o'yinlar – talabalarni real musobaqa sharoitiga yaqinlashtiradi. O'zbekiston olimlaridan Sh.N.Qodirov basketbolni o'qitishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqib, texnik-taktik tayyorgarlikni jismoniy rivojlanish bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Sportchilarning individual tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish orqali sportchilar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish va o'yin samaradorligini oshirish metodikasini N.V.Mostovaya o'z ilmiy ishlarida yoritgan, ya'ni har bir talabaga uning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda dasturlar ishlab chiqish kerak deb hisoblaydi.

Tatqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Bizning tatqiqot ishimizda oliy ta'lim muassasalarida 2024-2025-o'quv yilida Buxoro Pedagogika instituti hamda boshqa ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan basketbolchi talabalar ishtirok etdi. Talabalar soni 24 nafar (12-nafar o'g'il, 12-nafar qiz)ni tashkil qiladi.

Nazorat guruhi –an'anaviy mashg'ulotlar dasturi asosida mashg'ulotlarni olib bordilar. Tajriba guruhi esa modulli yondashuv, o'yinli mashqlar, videoanaliz va individual topshiriqlar asosida tayyorlandi.

Tatqiqot davrida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Adabiyotlar tahlili;
- Pedagogik kuzatuv –mashg'ulot paytida shug'ullanuvchilarning texnik-taktik harakatlari qayd etildi.
- Eksperiment –ikki guruh asosida pedagogic tajriba tashkil qilindi

– Test sinovlari– texnik tayyorgarlik(to'pni olib yurish, uzatish va sakrab Dastlabki sinovlarda ikki guruh o'rtasida sezilarli farq aniqlanmadi ($p>0,05$). 16 haftalik tajriba yakunida esa quyidagi natijalar qayd etildi:

To'pni olib yurish tezligi – tajriba guruhida 100 metr masofada 22,4 soniyadan 18,1 soniyaga qisqardi ($\approx 19\%$ yaxshilanish). Nazorat guruhida esa faqat 6% o'sish kuzatildi.

Uzatish aniqligi – tajriba guruhida 68% dan 85% gacha ko'tarildi, nazorat guruhida esa 70% dan 74% gacha o'sdi.

Sakrab tashlash samaradorligi – tajriba guruhida 21% ga oshdi (12 tashlashdan 8 tasi aniq), nazorat guruhida esa 7% o'sish qayd etildi.

Qaror qabul qilish tezligi – tajriba guruhida o'rtacha 1,5 soniyadan 1,05 soniyaga qisqardi, nazorat guruhida esa deyarli o'zgarmadi ($1,46\text{ s} \rightarrow 1,38\text{ s}$).

Tatqiqot davomida talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda modulli texnologiya, videoanaliz va o'yinli mashqlar asosida mashg'ulotlar samaraliroq ekanligiga amin bo'ldik. Bu usul texnika va taktikani integrallashgan holda ya'ni qaror qabul qilish tezligini oshiradi va jamoaviy maydonda harakatlanish texnikasini yaxshilaydi.

Basketbolchi talabalarni texnik-taktik tayyorlash jarayoni sport pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat texnik malaka va taktik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi, iroda kuchi, intizomi va motivatsiyasini shakllantirishda ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Texnik-taktik mashg'ulotlar sportchining o'zini nazorat qilish, stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, raqib harakatlarini oldindan ang'ay olish qobiliyatini kuchaytiradi.

Basketbol mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodik yondashuvlar bir necha turga bo'linadi:

- **An'anaviy metodlar** – texnik elementlarni takroriy mashq qilish, standart kombinatsiyalarni o'rganish, o'yin qoidalariga mos holda mashg'ulot o'tkazish.

- **Innovatsion metodlar** – videoanaliz, virtual simulyatorlardan foydalanish, raqamli texnologiyalar yordamida o'yin tahlili va natijalarni baholash.

- **Differensial yondashuv** – har bir talabani individual xususiyatlariga qarab tayyorlash, ularning jismoniy imkoniyatlari va psixologik holatidan kelib chiqib mashg'ulot rejasini tuzish.

Shuningdek, texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirishda quyidagi omillar ham muhim hisoblanadi:

1. **Psixologik omillar** – o'yinchi o'ziga ishonch hosil qilishi, raqibdan qo'rqmasligi, doimiy motivatsiya va diqqatni jamlash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

2. **Jismoniy omillar** – chidamlilik, tezkorlik, kuch, chaqqonlik va koordinatsiya kabi sifatning muntazam rivojlantirilishi.

3. **Pedagogik omillar** – o'qituvchi-trenerning mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishi, individual va jamoaviy yondashuvni uyg'unlashtirishi.

4. **Ijtimoiy omillar** – jamoa ichida sog'lom raqobat, hamkorlik va liderlik fazilatlarining shakllanishi.

Talabalarni texnik-taktik jihatdan tayyorlash jarayonida o'yin modeli bilan bog'liq maxsus mashg'ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, hujum va himoya kombinatsiyalarini mashq qilish, tezkor qarshi hujum (fast break) taktikasini o'zlashtirish, pressing va zonal himoyani qo'llash orqali talabalarda nafaqat o'yin malakalari, balki strategik fikrlash qobiliyati ham rivojlanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, texnik-taktik tayyorgarlikka qaratilgan mashg'ulotlarni muntazam olib borish sportchilarning professional rivojlanishini tezlashtiradi. Shu bois O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham bu metodikani ilmiy asoslash, zamonaviy vosita va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, talabalarni o'quv mashg'ulotlari bilan birga qo'shimcha sport to'garaklariga jalb etish katta samaralar beradi.

Demak, basketbolchi talabalarni texnik-taktik tayyorlash metodikasining nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali sportchilarni jismonan chiniqqan,

ruhiy barqaror, taktik tafakkuri rivojlangan, intellektual jihatdan yetuk va jamoada hamkorlik qila oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida basketbol bilan shug'ullanuvchi talabalarning texnik-taktik tayyorlash metodikasi bosqichma-bosqich, individual yondashuv va modulli texnologiya asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Tatqiqot metodologiyasi va emperik tahlili shuni tasdiqladiki, an'anaviy mashg'ulotlar faqat jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirsa, zamonaviy metodlar asosida tuzilgan dasturlar talabalarni texnik va taktik jihatdan kompleks tayyorlashga imkon beradi va ularda texnik-taktik qobiliyatlarni birdek rivojlantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, basketbolchi talabalarni texnik-taktik tayyorlash jarayoni nafaqat sport mahoratini oshirish, balki ularning aqliy faolligi, tezkor fikrlash qobiliyati va jamoada samarali harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik-taktik tayyorgarlik mashg'ulotlarini ilmiy asoslangan metodika orqali olib borish sportchining individual imkoniyatlarini ochib berish, o'yinda tezkor qaror qabul qilish hamda samarali harakat qilishiga zamin yaratadi.

Basketbol mashg'ulotlari jarayonida texnik elementlarni mukammal o'zlashtirish va ularni turli o'yin vaziyatlarida qo'llash taktik tafakkurni kengaytiradi, talabalar o'rtasida jamoaviy hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi-trener tomonidan zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning sport faoliyatiga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Demak, basketbolchi talabalarni texnik-taktik tayyorlash metodikasining nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uni amaliyotda to'g'ri qo'llash sport natijalarini yuqori bosqichga olib chiqishda, shuningdek, sog'lom, har tomonlama yetuk va faol shaxslarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Горелов Н.С. Методика обучения юных баскетболистов технико-тактическим действиям. – Москва, 2020.
2. Журавлёва А.М. Теоретико-тактическая подготовка студентов-баскетболистов. – Самара, 2022.
3. Дудник О.Е., Буйлова Л.А. Методика обучения тактике нападения в баскетболе. – Омск, 2019.
4. Мостовая Н.В. Методика индивидуальной подготовки игроков в студенческом баскетболе. – Новосибирск, 2025.
5. Кодиров Ш.Н. Методика преподавания спортивных и подвижных игр (баскетбол). – Тошкент, 2022.
6. N.R.Sabirova "Basketbol sport turini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish asoslari: jahon tajribasi va O'zbekiston" Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 7/2025 ISSN: 3060-527X
7. N.R.Sabirova "Basketbolchilarning biologik yoshiga qarab jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi: nazariy va ilmiy asoslar" Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnal № 7, 2025

Eshmuratov Muzaffar Elamanovich,
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi PhD

INTERAKTIV METODLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz tilini o'rgatishda interaktiv metodlarning ahamiyatini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Interaktiv metodlar talabalarning ingliz tilida o'qish, tushunish, mulohaza yuritish, hamkorlikda ishlash va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiruvchi zamonaviy metodik yondashuv sifatida qaralmoqda. Maqolada interaktiv metodlarning turlari, ularning rus tili darslarida qo'llanish amaliyoti, ta'limdagi samaradorlik omillari hamda pedagogik shart-sharoitlari - nazariy va amaliy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, ingliz tili, o'qish ko'nikmasi, kommunikativ kompetensiya, pedagogik imkoniyatlar

Abstract. This article is devoted to the analysis of the importance of interactive methods in teaching English from a pedagogical perspective. Interactive methods are considered as a modern methodological approach that develops students' competencies in reading, understanding, reasoning, collaboration, and critical thinking in English. The article presents the types of interactive methods, their application in Russian language classes, the factors influencing effectiveness in education, as well as the pedagogical conditions-explained on both theoretical and practical bases.

Key words: interactive method, English language, reading skill, communicative competence, pedagogical opportunities.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу значения интерактивных методов в обучении английскому языку с педагогической точки зрения. Интерактивные методы рассматриваются как современный методический подход, развивающий у студентов компетенции в области чтения, понимания, рассуждения, совместной работы и критического мышления на английском языке. В статье освещаются виды интерактивных методов, практика их применения на уроках русского языка, факторы эффективности в образовательном процессе, а также педагогические условия - на теоретической и практической основе.

Ключевые слова: интерактивный метод, английский язык, навык чтения, коммуникативная компетенция, педагогические возможности.

Kirish. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida talabalar faolligi va mustaqil fikrlash darajasini oshirish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, chet tillarini, xususan ingliz tilini o'rgatishda innovatsion metodlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Interaktiv metodlar bu ehtiyojni qondiruvchi, talaba shaxsiga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etuvchi vositadir. Rus tilini o'qitishda interaktiv yondashuvlar orqali matn ustida ishlash, savol-javob, rolli o'yinlar, elektron platformalarda testlar yaratish kabi faol usullar yordamida talaba til muhitiga bevosita jalb qilinadi [1].

Zamonaviy ta'lim jarayoni shiddat bilan o'zgarib borayotgan ijtimoiy-madaniy, texnologik va iqtisodiy sharoitlar fonida pedagogik yondashuvlarni yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, til o'rgatishda an'anaviy va passiv metodlardan interaktiv, ya'ni talabani markazga qo'yuvchi, faol ishtirokni ta'minlovchi metodikalar tarafdorlari ortmoqda.

Interaktiv metodlar bugungi kunda nafaqat o'qitish shakli sifatida, balki talaba shaxsini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatda harakat qilish, tanqidiy yondashuvni shakllantirish vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, chet tili - rus tilini o'rganishda interaktiv metodlar alohida samaradorlikka ega bo'lib, talabalar tilni grammatik birlik sifatida emas, balki kommunikativ tizim sifatida qabul qilishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Interaktiv metodlar nazariy jihatdan Vygotskiy, Bruner, Piaget, Leontev kabi psixologlarning ijtimoiy-ta'limiy faoliyatga doir nazariyalariga asoslanadi [2]. O'zbek olimlari orasida N.Xolmurodova, M.Matkarimova, Z.Xudoyqulova, G'.Abdurahmonov va boshqalar interfaol metodik yondashuvlarning o'qitishdagi o'rni haqida salmoqli ilmiy ishlanmalarni amalga oshirganlar. Masalan, Xolmurodova N. interaktiv metodlar vositasida ona tili va rus tilini o'qitish tajribalarini tahlil qilib, matn asosida tanqidiy fikrlash, savol berish, mulohaza yuritish, bahs qilish kompetensiyalarining ahamiyatini ochib bergan [3]. Shuningdek, D.Mamatova va Sh.Usmonova rus tili darslarida dramatzatsiya va konseptual xarita metodlari orqali tilni faollashtirishning samarali natijalarini ilmiy tadqiqotlar orqali asoslagan [4].

Metodologiya. Tadqiqotda tavsifiy-taqqoslov usuli asosida mavjud interaktiv metodlar tahlil qilindi. Empirik asosda rus tili fanidan o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalaridagi 2-4 bosqich talabalari o'rtasida kuzatuv va suhbatlar olib borildi. Dars jarayonida qo'llanilgan interaktiv metodlarning talaba faoliyatiga ta'siri, matnni tushunish darajasiga ko'rsatayotgan ta'siri o'rganildi. Interaktiv metodlar sifatida quyidagilar tanlab olindi: INSERT texnologiyasi, klaster, fishbone, rolli o'yin, dramatzatsiya, konseptual xarita, savol-javob aylanishi, elektron platformalar. Tahlil natijalari esa diagramma va sifatli tahlil vositalari yordamida ifodalandi.

Asosiy qism. Interaktiv metodlar tushunchasi mohiyatiga ko'ra o'qituvchi va talaba o'rtasidagi teng huquqli, faollikka asoslangan muloqotga urg'u beradi. Bu yondashuvda talaba bilimni tayyor holatda emas, balki o'zining izlanishi, amaliy faolligi, muhokama, tajriba va muqobil fikrlar orqali o'zlashtiradi. Rus tilini o'rganishda bu yondashuv, ayniqsa, o'qish, tinglab tushunish, yozish va gapirish kabi kompetensiyalarni integratsiyalashga xizmat qiladi. Chunki interaktiv metodlar yordamida o'qituvchi darsda nafaqat til qoidalarini o'rgatadi, balki talabaning real hayotiy muloqotga tayyorlanishini ta'minlaydi. Bu metodlar, shuningdek, motivatsiyani kuchaytiradi, saboqlarning zerikarli emas, balki muhokamali, bahsli, emotsional va ijodiy tarzda o'tishiga imkon yaratadi.

Ingliz tilida interaktiv metodlardan foydalanish asosan kommunikativ yondashuv, kompetensiyalar modeli, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivizm kabi pedagogik paradigmalarga asoslanadi. Ular ichida rolli o'yinlar, dramatzatsiya, debatlar, klaster tuzish, konseptual xaritalar, "fishbone" metodi, "baxtli chipta", "savol-javob aylanishi", jamoaviy esse yozish, o'zaro teskari aloqa (feedback), elektron o'quv platformalari (Padlet, Kahoot, Quizizz) eng ko'p tarqalgan va amaliyotda ishlatiladigan interaktiv metodlardir. Bu metodlar orqali talaba o'zini tilda faol subyekt sifatida namoyon qiladi, til birliklarini kontekstda qo'llay oladi, matnni tahlil qiladi, undagi g'oyani anglaydi va o'z nuqtai nazarini ifoda qiladi.

Masalan, dramatzatsiya usuli rus tili darslarida ayniqsa emotsional tushunishni kuchaytirish, talaffuzni mukammallashtirish, kommunikativ savodxonlikni oshirishda beqiyosdir. Talabalar matnni ifodali o'qish, rollarga kirish, situatsiyalarni jonlantirish orqali tilni jonli muhitda o'rganadilar. Bu esa nafaqat til malakasini, balki madaniy kompetensiyani ham rivojlantiradi. Rolli o'yinlar orqali talabalar muayyan kommunikativ holatlarda qanday muloqot qilishni o'rganadi: masalan, aeroportda, do'konda, shifoxonada, ish joyida bo'ladigan suhbatlar interaktiv shaklda mashq qilinadi. Bunday holatlar talabalar tilni kontekstual sharoitda qo'llashga tayyorlaydi.

Insert texnologiyasi ham ingliz tilida o'qish, anglash va tahlil qilishda muhim interaktiv metodlardan biridir. Bu metodda talabalar matnni o'qir ekanlar, har bir jumla yoki paragrafga o'z pozitsiyasini belgilovchi belgilar qo'yadilar. Ushbu belgilar orqali ular o'zlariga tanish bo'lgan, yangilik bo'lgan, tushunarsiz yoki bahsli ma'lumotlarni ajratadilar. Bu esa talabaning o'qishdagi idrok, tanqidiy fikrlash va analitik salohiyatini oshiradi. Bundan tashqari, ushbu metod talabani o'z-o'zini monitoring qilishga, ya'ni bilim darajasini o'zi baholashga undaydi.

Boshqa muhim metodlardan biri - konseptual xarita yoki klaster tuzish usulidir. Bu metodda talabalar matndagi asosiy tushunchalar o'rtasidagi semantik, mantiqiy va struktural bog'liqliklarni grafik shaklida ifodalaydilar. Masalan, "Rus tili matnida asosiy g'oyani

aniqlash” mavzusida markaziy tushuncha atrofida dalillar, misollar, sabablar, xulosalar tarmoq ko‘rinishida tuziladi. Bu metod talabani kognitiv tafakkurini, muammoga yondashish darajasini oshiradi. Ayniqsa, akademik o‘qish va yozuv kompetensiyasini shakllantirishda bu metod juda foydalidir.

Interaktiv metodlarning ingliz tili ta’limidagi ahamiyatini yana bir jihatdan - motivatsiya va ijtimoiylashuv bilan bog‘lash mumkin. Statistika va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy metodlar qo‘llanilgan darslarda talabalar faollik ko‘rsatishi 20-30% atrofida bo‘lsa, interaktiv metodlar asosidagi darslarda bu ko‘rsatkich 70-80%gacha ko‘tariladi. Bunday faol ishtirok, *birinchidan*, til o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi; *ikkinchidan*, talabani muloqotchi sifatida anglashga o‘rgatadi; *uchinchidan*, ta’lim jarayonini hayotiy va dolzarb qiladi.

Talabalarning muammoli vaziyatda ishlashi, ijodiy yondashuvi, tilda o‘z fikrini erkin ifodalashi zamonaviy kommunikativ kompetensiyaning asosiy mezonlaridan biridir. Interaktiv metodlar aynan shu mezonlarga mos keladi. Ular o‘qituvchining roli o‘zgarishini - ya’ni bilim manbai emas, balki faoliyatni tashkil qiluvchi fasilitator, moderator, murabbiy sifatida ko‘rilishini ta’minlaydi. Talaba esa faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi, sinovdan o‘tkazuvchi va uni shaxsiylashtiruvchi faol subyektga aylanadi.

Demak, interaktiv metodlar bugungi rus tili o‘qitish amaliyotining zamonaviy pedagogik asoslaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular nafaqat bilim berish, balki til o‘rganishning psixologik, madaniy, lingvistik va ijtimoiy jihatlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ushbu metodlarning muvaffaqiyatli qo‘llanishi uchun esa o‘qituvchining metodik saviyasi, dars dizaynini yangilashga tayyorligi, texnologik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi va talaba psixologiyasini chuqur tushunishi muhimdir. Interaktiv metodlar ta’limni faqat “berish” emas, balki “birgalikda yaratuvchi faol jarayon” sifatida talqin etadi va bu jihatdan pedagogik transformatsiyaning eng samarali vositasidir.

Natijalar va tahlil. Ingliz tilida matn ustida ishlash jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda chet tilini o‘rganish jarayonida talabalar nafaqat matnni o‘qishlari, balki uni chuqur anglab, mazmunini tahlil qilishi, o‘z fikrini bayon qilishi, tanqidiy qarash bildirish darajasiga yetishi lozim. An’anaviy matn bilan ishlash metodlari bu maqsadga yetarli emasligi bois, interaktiv yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, INSERT texnologiyasi matnni o‘qish vaqtida talabaga faol pozitsiyada bo‘lish imkonini beradi. Ushbu metodda talabalar matnni belgilar orqali tahlil qiladi, ya’ni “V” - tanish ma’lumot, “+” - yangi axborot, “-” - qarama-qarshi fikr, “?” - tushunarsiz joy sifatida ajratiladi. Bu nafaqat matnni idrok etishni faollashtiradi, balki talabada mantiqiy bog‘liqlikni anglash va o‘ziga xos xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Klaster yoki konseptual xarita metodlari esa matnda berilgan asosiy tushunchalar, faktlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini vizual tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu esa axborotni tizimli qayta ishlash, asosiy g‘oya va ikkilamchi ma’lumotlarni ajratib olishni o‘rgatadi. Ayniqsa, konseptual xarita orqali talabalar mustaqil tarzda matnni tahlil qilish, asosiy mavzuni strukturalashtirish, semantik tarmoqlar tuzish orqali anglash darajasini oshiradi. Fishbone (skeleton-diagnostika) metodi esa matndagi muammo va sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga yordam beruvchi samarali usullardan biridir. Bu metod orqali talabalar matn doirasida muammoni aniqlab, unga olib keluvchi sabablarni aniqlashga o‘rganadi.

Dramatizatsiya yoki rolli o‘yinlar orqali matn bilan ishlash esa ayniqsa emotsional, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Matndagi voqealar, obrazlar va nutqiy shakllar asosida rollarga bo‘linib ishlash talabalarning tilga hissiy yondashuvini kuchaytiradi, talaffuz, intonatsiya va og‘zaki muloqotni rivojlantiradi. Bu metodlar matnni jonlantirish, tasavvur qilish va eslab qolishni kuchaytirish jihatidan ayniqsa samaralidir. Yana bir muhim metod - matnga asoslangan savollar tuzish usuli hisoblanadi. Talabalar o‘zlari o‘qigan matnga savollar ishlab chiqish orqali matnni chuqur o‘zlashtiradi,

uning tuzilmasini, asosiy g'oyalari, muallif pozitsiyasini anglaydi. Bu metod orqali talabada tanqidiy fikrlash va savol asosida fikr bildirish ko'nikmasi shakllanadi.

Interfaol munozara va bahs-metodlar esa matn asosida ikki yoki undan ortiq pozitsiyalarni solishtirish, dalillash, fikr bildirish imkonini beradi. Munozarali matnlar ustida ishlash orqali talabalar argument keltirish, muhokama yuritish, muallif pozitsiyasini tanqidiy qabul qilishni o'rganadi. Bu esa ularning lingvistik tafakkurini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli vositalar asosidagi interaktiv platformalardan foydalanish - masalan, Google Forms, Kahoot, Quizizz yoki Padlet orqali talabalar o'zlashtirgan matn asosida testlar, so'rovnomalar, reflektiv javoblar yaratishadi. Bu usullar o'quv jarayonini ko'proq individuallashtirish, o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, esse yozish amaliyoti ham matn ustida ishlashda samarali metod hisoblanadi. Matn asosida yozilgan esse orqali talabalar matnni qayta ishlaydi, undagi g'oyalarni o'z shaxsiy dunyoqarashi bilan uyg'unlashtiradi, xulosa chiqaradi va mustaqil fikrini yozma nutq shaklida ifodalaydi. Bu jarayon o'qish, tahlil qilish, yozish va muloqot ko'nikmalarini uyg'un ravishda rivojlantiradi. Bularning barchasi ko'rsatadiki, rus tilida matn ustida ishlash jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish faqat til o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki fikrlash, tahlil qilish, shaxsiy fikr bildirish, madaniy kodlarni anglash, tanqidiy pozitsiyani shakllantirish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Shu bois interaktiv metodlar hozirgi rus tili ta'limining ajralmas pedagogik komponentiga aylanmoqda.

Kuzatuvlar va suhbatlar asosida aniqlanishicha, rus tilida interaktiv metodlar bilan o'tilgan darslarda talabalarning o'quv motivatsiyasi ancha oshgan. Xususan, drammatizatsiya orqali talabalar ruscha so'zlarni talaffuz qilish, kontekstda anglash, fikr almashish kabi nutqiy kompetensiyalarni o'zlashtirishda faol bo'lishgan.

INSERT texnologiyasi orqali matndagi yangi, tushunarsiz, tanish ma'lumotlarni ajratish orqali talabalar matnni chuqurroq tahlil qilishga o'rgangan. Klaster va konseptual xarita metodlari esa talabalar uchun abstrakt tushunchalarni vizuallashtirish va tizimli fikrlash vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida talabalarning fikrlash jarayonida faollik ortganligi, bahs va munozaralarga kirishish, o'z fikrini asoslab berish kabi ko'nikmalar sezilarli darajada rivojlangan. Shuningdek, elektron platformalar yordamida testlar tuzish va baholash jarayoniga talabalarni jalb qilish orqali bilimlarni avtomatik mustahkamlashga erishilgan. Bunda talabalar o'z faoliyatlarini tahlil qilgan, o'zini-o'zi nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asosanib aytish mumkinki, interaktiv metodlar ingliz tili darslarini samarador va mazmunli tashkil qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular talabalarni tilni faol o'rganishga undaydi, ularda kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarni shakllantiradi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar interaktiv metodlar orqali bilimni tayyor holda emas, balki faoliyat, bahs-munozara, o'zaro fikr almashish orqali egallaydilar. Kelgusida ingliz tili o'qituvchilari uchun interaktiv metodlarni amaliyotga keng joriy etish, ularni o'quv dasturlariga moslashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xudoyqulova Z. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv asoslari. - Toshkent: Fan, 2019.
2. Vygotsky L. S. Thought and Language. - Cambridge: MIT Press, 1986.
3. Xolmurodova N. Ingliz tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi. // Til va Adabiyot. - 2021. - 2-son.
4. Mamatova D., Usmonova Sh. Til ta'limida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. // O'zbekistonda xorijiy tillar. - 2020. - 4-son.

5. Abdurahmonov G'. Pedagogik innovatsiyalar va interaktiv metodlar. - Toshkent: O'qituvchi, 2018.

*Xolmurzayev Ubaydulla Mamarasul o'g'li,
Professional ta'lim "iqtisodiyot" yo'nalishi 3- kurs talabasi
ubaydullaxolmurzayev@gmail.com*

PROFESSIONAL TA'LIMDA MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYANING ROLI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni, uning shaxs kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil etilgan. An'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning o'zaro farqlari hamda ularning pedagogik faoliyatga ta'siri chuqur yoritilgan. Maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiyani ta'lim jarayoniga integratsiyalashning samarali usullari, innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar asosida shakllantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'qituvchi, oila va jamiyatning bu boradagi hamkorligi tahlil etilib, milliy qadriyatlar asosida tarbiyani kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari ma'naviy barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli avlodni tarbiyalashda ta'lim tizimining strategik rolini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim tizimi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, shaxs kamoloti, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy integratsiya, pedagogik metodlar, ijtimoiy hamkorlik.

Аннотация. В данной статье анализируется роль духовно-нравственного воспитания в образовательном процессе, его влияние на развитие личности и его значение в развитии общества. Глубоко освещены различия между традиционными и современными подходами и их влияние на педагогическую деятельность. В статье рассматриваются эффективные методы интеграции духовно-нравственного воспитания в учебный процесс, способы формирования на основе инновационных технологий и интерактивных методов. Также было проанализировано сотрудничество педагога, семьи и общества в этом плане и даны рекомендации по усилению образования на основе национальных ценностей. Результаты исследования демонстрируют стратегическую роль системы образования в воспитании морально здорового, социально ответственного поколения.

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, система образования, современные педагогические подходы, развитие личности, национальные ценности, образовательная интеграция, педагогические методы, социальное сотрудничество.

Abstract. This article analyzes the role of spiritual and moral education in the educational process, its impact on the development of the individual and its importance in the development of society. Differences between traditional and modern approaches and their impact on pedagogical activity are deeply covered. Effective methods of integrating spiritual and moral education into the educational process, innovative technologies and ways of forming based on interactive methods are considered in the article. Also, the cooperation of the teacher, family and society in this regard was analyzed, and recommendations were made to strengthen education based on national values. The results of the research demonstrate the strategic role of the educational system in raising a morally sound, socially responsible generation.

Key words: spiritual and moral education, education system, modern pedagogical approaches, personal development, national values, educational integration, pedagogical methods, social cooperation.

Kirish. Ma'naviy-axloqiy tarbiya har qanday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Bu tushuncha insonning shaxsiy fazilatlarini, ijtimoiy xulqi, axloqiy qadriyatlarini va dunyoqarashini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, XXI asrda globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, ma'naviy-informatik muhitning keskin o'zgaruvi sharoitida yosh avlodni barkamol, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli inson

qilib tarbiyalash – har bir ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Bugungi kunda pedagogik faoliyat nafaqat bilim berishga, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga, unda fuqarolik ongini, milliy g'ururni, axloqiy mezonlarni shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim. Zero, bilimli, biroq axloqiy mezonlardan yiroq inson jamiyatda salbiy oqibatlariga olib keluvchi qarorlar qabul qilishi mumkin. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligida, xususan, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ta'lim bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Ma'naviy tarbiya – bu insonni inson qiladigan eng asosiy vosita" deb bejiz aytmagan. Bu fikr davlat siyosatida ham o'z ifodasini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-sentabrdagi "Ma'naviyatni yuksaltirish milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish belgilab berilgan. Bu esa ushbu masalaning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya insonning ruhiy, axloqiy, estetik va intellektual jihatdan shakllanishi, uni jamiyatga moslashtirish, o'z fikriga ega bo'lgan, yuksak axloqiy fazilatli shaxs qilib voyaga yetkazishga xizmat qiladi. O'zbekistonning rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy sharoitida bu omil beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar orasida radikallashuv, axloqiy inqiroz, madaniyatsizlik, yengil hayotga intilish kabi salbiy holatlarning oldini olishda aynan ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika fanida ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi turli jihatlari bilan izohlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar uni shaxsga ijtimoiy-axloqiy normalarni o'rgatish jarayoni sifatida qarasa, boshqalar uni ichki insoniy mohiyatni rivojlantirish vositasi deb baholaydilar. Pedagogik nuqtai nazardan, bu jarayon maktabgacha ta'limdan boshlab, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda maqsadli, tizimli va izchil tashkil etilishi kerak. Zamonaviy yondashuvlar esa ushbu jarayonga yangicha qarashni taqozo etmoqda. An'anaviy metodlar – nasihat, didaktik tushuntirish, me'yorlarni yod olish – bilan bir qatorda hozirgi kunda interaktiv texnologiyalar, muammoli ta'lim, aks ettiruvchi fikrlash metodlari, STEAM va soft-skills yondashuvlari orqali ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Endilikda o'quvchi axloqiy normalarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ular ustida fikr yurituvchi, shaxsiy pozitsiyasini bildiruvchi subyektga aylanishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida quyidagi muammolar dolzarb hisoblanadi:

Tarbiya va ta'limning ayrim hollarda bir-biridan ajralib qolganligi;

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan soatlar va materiallarning shakli va rasmiy tus olishi;

O'qituvchilarning bu boradagi malakasi va bilimining yetarli emasligi;

Maktab va oilaning bu boradagi hamkorligi zaifligi;

Axborot texnologiyalarining salbiy ta'sirini bartaraf etuvchi immunitetning shakllanmaganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqish, tarbiyaviy komponentlarni barcha fanlarga integratsiyalash, o'quvchilarning ma'naviy saviyasini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash kabi vazifalar dolzarb sanaladi. Shuningdek, xalqimizning boy ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, an'anaviy tarbiya vositalari (maqollar, dostonlar, odob-axloq qoidalari) asosida innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan bo'lishi lozim. Bu borada "Odobnoma" darsliklari, "Ma'naviyat darslari", "Fazilatli avlod" kabi dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ta'lim tizimidagi o'rni, uning ahamiyati, dolzarbligi, mavjud yondashuvlar va tajribalar, zamonaviy texnologiyalarning bu jarayondagi roli chuqur tahlil etiladi. Shu bilan birga, milliy va global tajribalar asosida takomillashtirish yo'llari taklif qilinadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni va zamonaviy yondashuvlar asosidagi tatbiqini o'rganish maqsad qilingan bo'lib, bu yo'nalishda ilmiy-

tahliliy va empirik metodlardan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini pedagogika, psixologiya, axloqshunoslik, sotsiologiya hamda ma'naviyatshunoslik fanlari negizida shakllangan nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Shuningdek, milliy va xalqaro amaliy tajriba tahlili asosida ta'limdagi ma'naviy-axloqiy komponentlarning rivojlanish dinamikasi o'rganildi.

1. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi - O'zbekiston ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o'rnini aniqlash, mavjud muammolarni aniqlash, zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish va ularni rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha mavjud nazariy adabiyotlarni tahlil qilish;

O'zbekiston ta'lim tizimida bu boradagi mavjud holatni o'rganish;

O'qituvchilar va o'quvchilarning fikr-mulohazalari asosida amaliy holatni tahlil qilish;

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini baholash;

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ilg'or tajribalarni aniqlash va umumlashtirish;

Integratsiyalashgan yondashuvlar asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Tadqiqot ob'ekti va predmeti

Tadqiqot ob'ekti - umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidagi o'quv-tarbiya jarayoni.

Tadqiqot predmeti - ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya elementlarini shakllantirish va takomillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish usullari.

3. Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy-nazariy metod – mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat hujjatlari, o'quv dasturlarini o'rganish orqali konseptual asoslar ishlab chiqildi;

Sotsiologik metod – so'rovnoma va intervyular orqali o'qituvchilar, psixologlar, otanalar va o'quvchilarning fikrlari o'rganildi;

Tajriba-metodik metod – tanlab olingan ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid mashg'ulotlar tashkil etilib, ularning natijalari kuzatildi;

Statistik tahlil metodlari – yig'ilgan ma'lumotlar son jihatdan qayta ishlanib, ularning dinamikasi baholandi;

Komparativ (solishtirma) metod – milliy va xalqaro ta'lim tizimlaridagi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi.

4. Tadqiqot doirasi va ishtirokchilari

Tadqiqot Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi 10 ta umumiy o'rta maktab, 5 ta akademik litsey va 3 ta oliy ta'lim muassasasini qamrab oldi. So'rovnoma va intervyular quyidagi ishtirokchilar o'rtasida o'tkazildi:

100 nafar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari;

30 nafar pedagogik oliygoh talabalari;

50 nafar ota-ona;

200 nafar 9–11-sinf o'quvchilari;

20 nafar maktab psixologi va metodisti.

5. Tadqiqot vositalari

So'rovnoma savollari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi:

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim komponentlari to'g'risidagi tushunchalar;

Ta'lim jarayonida bu boradagi metodlar va ularning samaradorligi;

Oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik holati;

O'quvchilarning axloqiy-ruhiy holati va unga ta'sir etuvchi omillar;

O'qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi.

Tajriba-metodik ishlar jarayonida maxsus tarbiyaviy mashg'ulotlar va interaktiv usullar (klaster, rol o'yinlari, munozara, debat, "hayotiy holat" tahlili)dan foydalanildi. Har bir mashg'ulotdan keyin o'quvchilar fikri yozma ravishda yig'ildi va tahlil qilindi.

6. Ma'lumotlar tahlili va baholash usullari

Yig'ilgan ma'lumotlar statistik ko'rsatkichlar asosida guruhlashtirilib, foizlar, chiziqli diagrammalar, jadval va grafiklar shaklida ifodalandi. Baholashda quyidagilar asosiy mezon bo'ldi:

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tushunchaviy egallanishi;

Axloqiy muammolarga nisbatan shaxsiy pozitsiya;

Faollik va ishtirokchanlik darajasi;

Mashg'ulotdan keyingi ruhiy-psixologik o'zgarishlar.

Shuningdek, intervyular matni matnli tahlil (content analysis) orqali tahlil qilindi va asosiy mavzular aniqlanib, ularning umumiyliigi va farqlari belgilandi.

7. Ishonchlilik va haqqoniylikni ta'minlash

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida:

Har bir respondent anonim ishtirok etgan;

Savollar neytral va faktlarga asoslangan shaklda tuzilgan;

Tajribalar ikki bosqichda, turli muassasalarda takroran o'tkazilgan;

Mutaxassislar bilan ekspert baholash o'tkazilgan.

8. Cheklovlar

Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Qamrab olingan hududlar va maktablar soni cheklangan;

Barcha yosh guruhlari to'liq o'rganilmagan;

Aksariyat ma'lumotlar subyektiv fikrlarga asoslangan.

Shunga qaramay, mavjud natijalar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ta'lim tizimidagi ahamiyatini asoslash va zamonaviy yondashuvlarning rolini aniqlash imkoni yaratildi.

Tahlil va natijalar

O'tkazilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar natijalariga ko'ra, hozirgi ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. So'rovnoma va tajriba-metodik ishlar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

1. O'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha tayyorgarligi

So'rovda ishtirok etgan 100 nafar o'qituvchining 68% i o'zlarini bu borada yetarli tayyorgarlikka ega emas deb hisoblagan. Faqatgina 24% o'qituvchi o'quvchilar bilan axloqiy mavzularni muntazam muhokama qilishini bildirgan. Bu holat ko'plab o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha metodik bilimlar va amaliy vositalar yetishmasligini ko'rsatadi.

2. O'quvchilar orasida axloqiy qadriyatlarga munosabat

9–11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida ularning 73% i "oila tarbiyasi axloqiy qadriyatlar shakllanishida asosiy rol o'ynaydi" deb hisoblaydi. 52% o'quvchi "maktabdagi ma'naviy tarbiya yetarli emas" deb javob bergan. 18% o'quvchi esa "barcha axloqiy qadriyatlar hayotda foydali emas" degan salbiy fikr bildirgan. Bu natijalar o'quvchilar ongida qadriyatlar tizimi bo'yicha chalkashliklar mavjudligini ko'rsatadi.

3. Zamonaviy yondashuvlardan foydalanish darajasi

Tajriba mashg'ulotlarida ishtirok etgan o'quvchilar interaktiv usullar – debat, rolli o'yinlar, hayotiy vaziyatlar tahlili – orqali o'z fikrlarini erkin ifoda eta olgan. O'quvchilarning faol ishtiroki va qiziqishi an'anaviy, faqat og'zaki nasihatga asoslangan darslarga qaraganda sezilarli yuqori bo'lgan.

Masalan, "Odob va javobgarlik" mavzusidagi mashg'ulotda o'quvchilarning 78% i faol qatnashgan va muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha shaxsiy hayotiy pozitsiyasini bildirgan. Bu esa zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

4. Oila va maktab hamkorligi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik darajasi past. So'rovda qatnashgan ota-onalarning 42% i farzandlarining maktabdagi tarbiyaviy ishlaridan bexabarligini bildirgan. 35% ota-ona faqat sinf rahbari bilan bog'lanishini aytgan, 23% ota-ona esa maktab bilan umuman aloqada emasligini tan olgan.

Bu esa ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik yetishmasligini va maktab-oila hamkorligini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

5. Axborot texnologiyalarining ikki tomonlama ta'siri

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 84% i axborot texnologiyalaridan muntazam foydalanadi. Ulardan 61% i ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 2 soatdan ko'p vaqt sarflaydi. Shuningdek, ko'plab o'quvchilar onlayn kontent orqali noto'g'ri axloqiy qarashlar ta'siriga tushayotganini bildirgan. Shu bilan birga, 36% o'qituvchi internetdagi didaktik materiallar va videodarslardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalana olishini bildirgan. Demak, raqamli vositalar bu jarayonda ikkiyoqlama vosita bo'lib, uni boshqarish ko'nikmasi alohida masala sifatida ko'rilishi lozim.

6. Umumiy baholash

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

| Yo'nalish | Ijobiy holatlar | Muammolar va to'siqlar |
|---------------------------------------|---|---|
| O'qituvchilarning roli | Tarbiyaviy ishga qiziqish bor | Yetarli metodik tayyorgarlik yo'q |
| O'quvchilar ongida qadriyatlar | Qadriyatlarga qiziqish saqlanib qolgan | Qadriyatlar tizimi chalkash, ongli yondashuv yo'q |
| Zamonaviy yondashuvlar | Interaktiv metodlar foydali | Ularni doimiy qo'llash uchun sharoit cheklangan |
| Oila-maktab hamkorligi | Ayrim hollarda yaxshi tajribalar mavjud | Hamkorlik tizimlashtirilmagan |
| Raqamli texnologiyalar | Ijobiy resurslar mavjud | Noto'g'ri axborot ta'siri kuchli |

7. Xalqaro tajriba solishtirmasi

Tahlilda AQSh, Yaponiya va Finlyandiya ta'lim tizimlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya elementlari alohida dastur sifatida joriy etilganligi aniqlangan. Masalan:

Yaponiyada "Gakudo" dasturi orqali maktabdan tashqari tarbiya mustahkamlanadi.

Finlyandiya o'quv dasturlarida "Shaxsiy fazilatlar" bloki mustahkamlangan.

AQShda "Character Education" loyihasi asosida axloqiy yetuklik tarbiyalanadi.

Bu tajribalar O'zbekistonda ham ma'naviy-axloqiy tarbiyani alohida modullarga ajratib, uni baholash tizimi bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

Ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi uzoq yillar davomida pedagogika, sotsiologiya, falsafa va psixologiya fanlari doirasida ilmiy izlanishlar markazida bo'lib kelgan. Ushbu adabiyotlar tahlilida ushbu yo'nalishdagi nazariy yondashuvlar, milliy va xalqaro tajribalar, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilgan izlanishlar tahlil qilinadi.

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ilmiy asoslari

Ma'naviy-axloqiy tarbiya atamasi pedagogik fanlarda insonning axloqiy dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuvchanligini shakllantiruvchi omillar majmui sifatida qaraladi. A.N. Leontyev, L.S. Vygotskiy, va V.A. Sukhomlinskiy kabi klassik pedagoglar inson ma'naviy kamoloti tarbiya jarayonining bosh mezonini ekanini urg'ulaydi. Ularning asarlarida axloqiy qadriyatlar yoshga mos shaklda bosqichma-bosqich shakllantirilishi zarurligi ta'kidlangan.

Mahalliy olimlardan A. Jo'rayev, S. Karimov, N. Jo'rayev kabi tadqiqotchilar O'zbekiston sharoitida ma'naviy tarbiya masalalarini xalqchil yondashuv, oila, jamiyat va maktab uzviyligi orqali yoritgan.

2. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda yondashuvlar

XXI asr ta'limida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning metodik asoslari haqida yozilgan ilmiy adabiyotlarda integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Unga ko'ra, axloqiy tarbiya mustaqil fan emas, balki barcha fanlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va kundalik muloqot orqali shakllanishi kerak.

Xususan, J. Banks (2008) tomonidan ishlab chiqilgan "Multikultural ta'lim" nazariyasida madaniy bag'rikenglik, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyat asosiy fazilatlar sifatida ilgari suriladi. H. Gardnerning "Ko'p intellektlar nazariyasi"da esa o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy axloqiy qobiliyatlari alohida rivojlantirilishi zarurligi ko'rsatiladi.

3. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan normativ-huquqiy asoslar

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham ma'naviy-ma'rifiy tarbiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. 2019-yil 13-avgustdagi Prezident qarori bilan tasdiqlangan "Ma'naviyatni yuksaltirish, ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi" hamda 2022-yil 28-dekabrda "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"da yoshlar ma'naviy immunitetini mustahkamlash masalasi ilgari surilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim, umumta'lim va oliy ta'lim dasturlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning alohida komponent sifatida qo'shilishi tavsiya etilgan.

4. Xalqaro tajribalar tahlili

Xalqaro adabiyotlarda ko'plab ilg'or mamlakatlarda (Finlyandiya, Yaponiya, AQSh) ma'naviy tarbiya maxsus dastur yoki modul shaklida ta'lim tizimiga integratsiya qilingan. Masalan:

Yaponiyada "Gakudo" nomli tarbiyaviy dastur bolalarni maktabdan tashqari faoliyatlar orqali axloqiy tarbiyalashga qaratilgan.

Finlyandiyada har bir maktabda shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy-emotsional o'quv dasturlari majburiy hisoblanadi.

AQShda "Character Education Partnership" tashkiloti orqali maktablar axloqiy me'yorlar asosida baholash tizimini joriy etgan.

5. Tadqiqotlar muammolari va bo'shliqlari

Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi kamchiliklar mavjudligi aniqlandi:

Amaliy metodikalarning yetishmasligi: Aksar ishlarda faqat nazariy tushunchalar berilgan, biroq o'qituvchilar uchun foydalanish mumkin bo'lgan aniq uslubiyat kam.

Mahalliy va xalqaro tajribaning uzviy integratsiyasi sust.

Oila-maktab hamkorligi bo'yicha chuqur empirik tadqiqotlar yetarli emas.

Raqamli vositalardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar kam.

6. Umumiy xulosa

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy tarbiya nafaqat shaxsni ma'naviy yetuk qilish, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniy uyg'unlikni ta'minlovchi omil sifatida ko'rilmogda. Ushbu yo'nalishda adabiy bazaning mavjudligi ijobiy holat bo'lsa-da, ularni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy vositalar bilan boyitish, yoshlar ehtiyojlariga moslashtirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxs kamolotining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy-tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – zamonaviy ta'limning asosiy tayanchi bo'lib, nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni yuksak axloqiy mezonlar asosida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

O'rganilgan ilmiy manbalar va amaliy tahlillar asosida bu jarayonning doimiy, tizimli va metodik yondashuv asosida tashkil etilishi zarurligi aniqlanmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha kuchli me'yoriy-huquqiy baza shakllangan bo'lsada, uning real amaliyotda samarasini oshirish uchun muayyan pedagogik muammolar mavjud. Jumladan, o'qituvchilarning uslubiy tayyorgarligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash darajasi va ota-onalar bilan hamkorlik yetarlicha rivojlanmagan.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tarbiyani umumta'lim jarayoniga integratsiyalash, emotsional-intellektual yondashuv, raqamli tarbiya metodikalaridan foydalanish zamonaviy tendensiyalar sirasiga kiradi. O'zbekiston tajribasi ham bu yo'nalishda o'ziga xos yutuqlarga ega, biroq ularni tizimlashtirish va innovatsion yondashuvlar bilan boyitish lozim.

Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM va raqamli pedagogika asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa nafaqat maktab ichki muhitini, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlar tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali ma'naviy-axloqiy tarbiya uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim: o'qituvchining shaxsiy namunasi, faol tarbiyaviy metodlar, interaktiv vositalar, zamonaviy o'quv-adabiyotlar, oilaviy va ijtimoiy muhit bilan integratsiyalashgan ta'lim tizimi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. – М.: Педагогика, 1990. – 480 с.
2. Макаренко А.С. О воспитании. – М.: Просвещение, 1983. – 352 с.
3. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Смысл, 2000. – 298 с.
4. Dewey J. Democracy and Education. – New York: The Macmillan Company, 1916. – 434 p.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 54 p.
6. OECD. The Future of Education and Skills 2030: Conceptual learning framework. – Paris: OECD, 2018.
7. Йўлдошев Х. Маънавият – мукаддас тушунча. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2001. – 180 б.
8. Асқарова А., Жўраев Д. Педагогика назарияси ва тарихи. – Тошкент: TDPU, 2021. – 220 б.
9. «Ўзбек педагогикаси асослари» / Тахрир остида: Қурбонов А. – Тошкент: «Fan», 2018. – 320 б.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-sentabrdagi "Ma'naviyatni yuksaltirish milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5253-son qarori. – <https://lex.uz/docs/5635793>
11. Гильмиярова М.Р. Проблемы и перспективы педагогической этики. // Вестник ВГУ. Серия: Педагогика и психология. – 2017. – № 2. – С. 76–80.
12. Fedorova E.A., Ermolov A.M. Moral Education and Teacher's Responsibility in the Modern World. // International Journal of Educational Development. – 2019. – Vol. 66. – P. 12–20.

Saidova Ozoda Toxirovna,
*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasida assistent o'qituvchisi*

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK IMIDJNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning o'ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Pedagogik imidj nafaqat tashqi ko'rinish va muloqot uslubini, balki o'qituvchining shaxsiy, psixologik va kasbiy fazilatlarini ham o'zida mujassam etuvchi murakkab tizim sifatida tahlil qilingan. Maqolada Lev Vygotskiy, Carl Rogers, Daniel Goleman va Kurt Levin kabi olimlarning nazariyalariga tayanib, pedagogik imidjning shaxsiy fazilatlar, kommunikativ mahorat, emotsional intellekt va stressni boshqarish qobiliyatlari bilan bog'liqligi tahlil etilgan.

Shuningdek, maqolada olib borilgan tadqiqot natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imidjiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, tashqi ko'rinish, muloqot madaniyati, kasbiy bilimlar va emotsional intellektning roli ko'rsatib berilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar pedagogik imidjni shakllantirishda ustuvor ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Ushbu maqola ta'lim sohasi tadqiqotchilari va o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil qilish uchun foydali ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik imidj, bo'lajak o'qituvchilar, shaxsiy fazilatlar, emotsional intellekt, stressni boshqarish, kommunikativ mahurat, kasbiy bilimlar, tashqi ko'rinish, motivatsiya, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy ta'sir.

Annotation. This article comprehensively explores the pedagogical and psychological features of developing pedagogical image in future teachers. Pedagogical image is analyzed as a complex system that encompasses not only appearance and communication style, but also the teacher's personal, psychological, and professional qualities. The article refers to the theories of Lev Vygotsky, Carl Rogers, Daniel Goleman, and Kurt Lewin to analyze the relationship of pedagogical image with personal traits, communicative competence, emotional intelligence, and stress management skills.

In addition, based on research findings, the article highlights the factors influencing the pedagogical image of future teachers, including appearance, communication culture, professional knowledge, and the role of emotional intelligence. It is emphasized that modern pedagogical technologies and innovative approaches are of great importance in shaping pedagogical image. This article serves as a useful scientific basis for researchers in the field of education and teachers to organize their pedagogical activities more effectively.

Key words: Pedagogical image, future teachers, personal qualities, emotional intelligence, stress management, communicative competence, professional knowledge, appearance, motivation, pedagogical technologies, social influence.

Аннотация. В данной статье всесторонне раскрываются педагогические и психологические особенности формирования педагогического имиджа у будущих учителей. Педагогический имидж рассматривается как сложная система, включающая не только внешний облик и стиль общения, но и личностные, психологические и профессиональные качества педагога. В статье, опираясь на теории Льва Выготского, Карла Роджерса, Дэниела Гоулмана и Курта Левина, анализируется взаимосвязь педагогического имиджа с личностными характеристиками, коммуникативной компетентностью, эмоциональным интеллектом и навыками управления стрессом.

Кроме того, на основе результатов проведённых исследований показаны факторы, влияющие на педагогический имидж будущих учителей, в том числе внешний

вид, культура общения, профессиональные знания и роль эмоционального интеллекта. Подчеркивается, что современные педагогические технологии и инновационные подходы имеют приоритетное значение в формировании педагогического имиджа. Данная статья служит полезной научной основой для исследователей в сфере образования и педагогов в целях более эффективной организации педагогической деятельности.

Ключевые слова: Педагогический имидж, будущие учителя, личностные качества, эмоциональный интеллект, управление стрессом, коммуникативная компетентность, профессиональные знания, внешний вид, мотивация, педагогические технологии, социальное влияние.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashni, balki shaxs sifatida rivojlanish, pedagogik madaniyatni shakllantirish va yuqori darajadagi ijtimoiy psixologik xususiyatlarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik imidj o'qituvchining tashqi va ichki fazilatlarini uyg'unligiga asoslangan jarayon bo'lib, bu o'qituvchilarga, ota-onalarga va ta'lim tizimining boshqa ishtirokchilariga kuchli ta'sir o'tkazadi.

Pedagogik imidj tushunchasi, asosan, shaxsning tashqi ko'rinishi, muloqot madaniyati, nutq uslubi, xulq-atvori va kasbiy bilimlarning uyg'unlashuvidan iborat. L.Vygotskiy ta'limning shaxsiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilgan ekan, o'qituvchi shaxsiyati va uning pedagogik imidjining o'qituvchi rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidlagan.

Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi imidji o'qituvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishida katalizator bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik imidjning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Shaxsiy fazilatlar: O'z-o'zini anglash, o'ziga ishonch va o'zini rivojlantirish qobiliyatlari pedagogik imidjning poydevoridir. Carl Rogersning "o'zini anglash nazariyasi"ga ko'ra, o'qituvchi o'zining ijobiy obrazini yaratishi orqali o'qituvchilar va jamiyat bilan muloqotni samarali tashkil qilishi mumkin.

Tashqi obraz: Tashqi ko'rinish va muloqot madaniyati, Goffmannning "Dramaturgiya nazariyasi"da ta'kidlanganidek, shaxsning ijtimoiy mavqei va professional qiyofasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi kiyinish uslubi, yuz ifodalari va tana tilidan foydalanib o'zining ijtimoiy va kasbiy ahamiyatini oshiradi.

Kommunikativ mahorat: Mehrabianning noverbal kommunikatsiya nazariyasida aytilganidek, o'qituvchi ovoz ohangi, tana tili va mimika orqali tinglovchilarga kuchli ta'sir o'tkaza oladi. Samimiy muloqot o'qituvchilarning e'tiborini tortadi va ularda ishonch uyg'otadi.

Kasbiy bilim va ko'nikmalar: O'qituvchining kasbiy bilim darajasi va o'z mutaxassisligiga bo'lgan ishtiyogi pedagogik imidjni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik imidjni shakllantirishda o'z motivatsiyasi va shaxsiy o'sishiga e'tibor qaratishi lozim. Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi o'qituvchi motivatsiyasining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'zini o'zi rivojlantirish ehtiyoji qondirilgan shaxs yanada ijodkor va samarali bo'lishga intiladi.

Shuningdek, o'qituvchining emotsional intellekti pedagogik imidjni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Daniel Goleman tomonidan ishlab chiqilgan "Emotsional intellekt nazariyasi"da aytilganidek, empatiya va o'z-o'zini anglash qobiliyatlarini rivojlantirish o'qituvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishga yordam beradi.

O'qituvchi o'z his-tuyg'ularini boshqara olish orqali stressli vaziyatlarda ham o'z pedagogik faoliyatini samarali davom ettiradi. Stressni boshqarish pedagogik imidjni shakllantirishning muhim qismi hisoblanadi. Lazarus va Folkmanning stressni boshqarish nazariyasiga ko'ra, stressli holatlarda vaziyatni real baholash va mos choralarni qo'llash

muhimdir. O'qituvchi o'zida stressga chidamlilik va psixologik barqarorlikni rivojlantirishi orqali o'z imidjini mustahkamlaydi.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimi jamiyatda hal qiluvchi rol o'ynash bilan birga, kelajak avlodni tarbiyalash va ularda shaxsiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ham maqsad qilib qo'yadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imidjini shakllantirishda psixologik omillarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Pedagogik imidj – bu o'qituvchining tashqi va ichki obrazini, uning shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Mazkur maqolada pedagogik imidjga ta'sir etuvchi psixologik omillar muhokama qilinadi.

Psixologik omillarning ahamiyati

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imidji nafaqat tashqi ko'rinish yoki kasbiy ko'nikmalarni qamrab oladi, balki ularning ichki dunyosi, psixologik barqarorligi va shaxsiy fazilatlarini ham o'z ichiga oladi.

O'qituvchi o'zining shaxsiy fazilatlarini orqali ta'lim jarayonida o'quvchilar va jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Daniel Goleman tomonidan ishlab chiqilgan "Emotsional intellekt nazariyasi" o'qituvchining his-tuyg'ularini boshqarish, empatiya va ijtimoiy muloqotda samarali bo'lish qobiliyatlarini ta'riflab beradi.

Pedagogik imidjga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar

Emotsional barqarorlik: O'qituvchining stressni boshqarish va stressli vaziyatlarda o'zini tuta olish qobiliyati uning pedagogik imidjiga bevosita ta'sir qiladi. Lazarus va Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stressni boshqarish nazariyasi o'qituvchining stressli vaziyatlarda moslashuvchanlikni saqlashini ta'kidlaydi.

O'zini anglash va o'zini boshqarish: Carl Rogersning "o'zini anglash nazariyasi"ga ko'ra, o'qituvchi o'zini qanchalik yaxshi anglay olsa, uning pedagogik faoliyati shunchalik samarali bo'ladi. Shaxsiy kamchiliklarni bilish va ularni bartaraf etishga intilish pedagogik imidjni mustahkamlaydi.

Komplekslar va o'ziga ishonch: Shaxsning o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi va o'ziga bo'lgan ishonchi uning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatiga ta'sir etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z qobiliyatlariga ishonchi yuqori bo'lsa, ular o'quvchilar va ota-onalar bilan muloqotda ishonchliroq ko'rinadi.

Muloqot qobiliyatlari: Mehrabianning noverbal kommunikatsiya nazariyasiga ko'ra, muloqotning samaradorligi so'zlar orqali ifodalangan ma'lumotlardan ko'ra, ovoz ohangi va tana tili orqali yetkazilgan ma'lumotlarga ko'proq bog'liqdir. O'qituvchining ovoz ohangi, ko'z bilan muloqoti va tana harakatlari o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Motivatsiya va qiziqish: Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra, o'zini o'zi rivojlantirish ehtiyoji qondirilgan shaxs ijodiy va samarali faoliyat ko'rsatadi. O'z faoliyatiga bo'lgan qiziqish va motivatsiya pedagogik imidjning tarkibiy qismlaridan biridir.

Ijtimoiy ta'sir va liderlik: Kurt Levinning liderlik uslublari nazariyasida o'qituvchining demokratik liderlik uslubi orqali o'quvchilar bilan hamkorlik qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Samarali liderlik pedagogik imidjni mustahkamlashga yordam beradi.

Biz **bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari** bo'yicha talabalarda tadqiqot olib bordik tadqiqot jarayonida turli oliy ta'lim muassasalarida pedagogik yo'nalishda tahsil olayotgan 200 nafar talabalar orasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada quyidagi jihatlar o'rganildi:

Pedagogik imidjning ahamiyati: Talabalar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 85% respondentlar pedagogik imidj o'quvchilar bilan samarali muloqotni ta'minlashda muhim ekanligini ta'kidladi.

Kasbiy tayyorgarlik darajasi: So'rov ishtirokchilarining 78%i pedagogik imidjni shakllantirish uchun kasbiy bilimlarni chuqur o'rganish zarurligini qayd etdi.

Tashqi ko'rinish va muloqotning roli: Tadqiqotda qatnashgan talabalar orasida 72% ishtirokchi tashqi ko'rinish va muloqot madaniyati o'quvchilar va jamiyatda ijobiy taassurot qoldirishda asosiy omil ekanligini aytdi.

Emotsional intellektning ahamiyati: Respondentlarning 64%i emotsional intellektni rivojlantirish pedagogik imidjni yaxshilash uchun muhim deb hisoblagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilar uchun pedagogik imidjni shakllantirishda tashqi ko'rinish, muloqot madaniyati, kasbiy tayyorgarlik va emotsional intellektni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu jihatlar o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik imidjni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar va kreativlik o'quvchilarni qiziqtiradi va ularning dars jarayoniga bo'lgan ishtirokini oshiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi reflektiv amaliyotni o'z faoliyatiga tatbiq etishi orqali pedagogik jarayonni tahlil qiladi va uning samaradorligini oshiradi.

John Deweyning "Reflektiv fikrlash nazariyasi" bu borada muhim nazariy asoslarni taqdim etadi.

Ijtimoiy ta'sir va liderlik qobiliyatlari ham pedagogik imidjni shakllantirishda muhimdir. Demokratik liderlik uslubi orqali o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yadi va ularda mas'uliyat hissini shakllantiradi. Kurt Levinning liderlik uslublari nazariyasida bu yondashuvning samaradorligi ta'kidlangan.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun pedagogik imidj shunchaki tashqi ko'rinish yoki muloqot uslubi emas, balki o'zida shaxsiy, psixologik va kasbiy jihatlarni uyg'unlashtiruvchi murakkab tizimdir. Uni shakllantirish orqali o'qituvchi nafaqat o'z faoliyatini samarali tashkil etadi, balki jamiyatdagi mavqeini mustahkamlaydi. Shu sababli, bu jarayonni rejalashtirish va amalga oshirishda nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy tajribaga ham tayanish lozim.

Xulosa qilib aytganda maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imidji nafaqat ularning tashqi ko'rinishi va muloqot uslubi, balki shaxsiy fazilatlarini, psixologik barqarorligi va kasbiy bilimlari bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayon ekanligi yoritib berilgan. Pedagogik imidj – bu o'qituvchining nafaqat kasbiy muvaffaqiyatiga, balki uning jamiyatdagi mavqeiga va ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik imidjni shakllantirishda tashqi ko'rinish va muloqot madaniyati bilan birga, emotsional intellektni rivojlantirish, stressni boshqarish, motivatsiya va shaxsiy o'sishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion yondashuvlar va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik imidjni mustahkamlashda samarali vosita sifatida e'tirof etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun pedagogik imidjni shakllantirish jarayoni o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy bilimlarni mukammallashtirish va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishga qaratilgan uzluksiz faoliyatni talab etadi. Shu sababli, pedagogik imidjni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarni o'zlashtirish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vygotskiy, L. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Rogers, C. R. (1961). *On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy*. Houghton Mifflin.
3. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
4. Levin, K. (1951). *Field Theory in Social Science*. Harper & Row.

5. Goffman, E. (1959). *The Presentation of Self in Everyday Life*. Anchor Books.
6. Mehrabian, A. (1971). *Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes*. Wadsworth.
7. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. Springer.
8. Dewey, J. (1933). *How We Think*. D.C. Heath and Company.
9. Maslow, A. H. (1943). *A Theory of Human Motivation*. *Psychological Review*, 50(4), 370-396.
10. Kurtz, L. (1951). *The Dynamics of Group Communication: A Study of Group Behavior*. Social Science Press.
11. Smith, M. K. (2001). *Pedagogic Impressions and Professional Identity*. *Journal of Education and Teaching*, 21(3), 45-59.

Shirnazarova Zarina Allaberdi qizi,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahar 25-sonli maktab o'qituvchisi

RAQAMLI DARSLIKLAR VA UNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotasiya. Maqolada raqamli darsliklarning lingvistik xususiyatlarning ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi, raqamli matnlarini tuzishning asosiy tendentsiyalari, jumladan, og'zaki komponentlarning multimedia va interaktiv elementlar bilan o'zaro ta'siri ko'rib chiqiladi. Raqamli darslikning didaktik samaradorligi nafaqat texnik parametrlar, balki matnning ravshanligi, tushunchalarning izchil kiritilishi, matnning ko'rgazmali qurollar bilan uyg'unligi bilan ham belgilanishi ko'rsatilgan. Tahlil va ekspert baholash natijalari yuqori sifatli raqamli darsliklar mantiqiy to'liqlik, terminologik aniqlik, matn va multimedia elementlarining uyg'un kombinatsiyasiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Raqamli darsliklarni lingvistik tahlil qilish ularni baholash va takomillashtirishning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga keldi.

Kalit so'zlar: raqamli darslik, lingvistik tahlil, o'quv nutqi, multimodal matn, multimedia komponentlari, kognitiv idrok, terminologik aniqlik, taqdimotning izchilligi, vizual ritorika, axborotni tanqidiy tushunish.

Аннотация. В статье рассматриваются цифровые учебники с точки зрения влияния лингвистических особенностей на эффективность образовательного процесса, рассматриваются основные тенденции в композиции цифровых текстов, включая взаимодействие вербальных компонентов с мультимедийными и интерактивными элементами. Показано, что дидактическая эффективность цифрового учебника определяется не только техническими параметрами, но и ясностью текста, последовательностью введения понятий и гармоничностью текста с наглядными пособиями. Результаты анализа и экспертной оценки подтверждают, что качественные цифровые учебники отличаются логической завершенностью, терминологической точностью и гармоничным сочетанием текстовых и мультимедийных элементов. Сделан вывод о том, что лингвистический анализ цифровых учебников имеет большое значение для разработки научно обоснованных критериев их оценки и совершенствования.

Ключевые слова: цифровой учебник, лингвистический анализ, образовательный дискурс, мультимодальный текст, мультимедийные компоненты, когнитивное восприятие, терминологическая точность, системность изложения, визуальная риторика, критическое осмысление информации.

Abstract. The article examines digital textbooks from the perspective of the influence of linguistic features on the effectiveness of the educational process, the main trends in the composition of digital texts, including the interaction of verbal components with multimedia and interactive elements, are considered. It is shown that the didactic effectiveness of a digital textbook is determined not only by technical parameters, but also by the clarity of the text, the consistent introduction of concepts, and the harmony of the text with visual aids. The results of the analysis and expert evaluation confirm that high-quality digital textbooks have logical completeness, terminological accuracy, and a harmonious combination of text and multimedia elements. It is concluded that linguistic analysis of digital textbooks is of great importance in developing scientifically based criteria for their evaluation and improvement.

Key words: digital textbook, linguistic analysis, educational discourse, multimodal text, multimedia components, cognitive perception, terminological accuracy, presentation consistency, visual rhetoric, critical understanding of information.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy ta'lim tuzilmasini tubdan o'zgartirib, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv materiallarini yaratishga qo'yiladigan yangi

talablarni belgilab berdi. So'nggi yillarda raqamli darsliklar ta'lim muhitining ajralmas qismiga aylanib, axborotni yetkazib berish shakllarini, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakterini, bilimlarni egallash usullarini o'zgartirdi. Ularning paydo bo'lishi nafaqat uslubiy va didaktik asoslarni, balki lingvistik mazmuni ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi, chunki matnning lingvistik tashkil etilishi o'quv materialini idrok etish va sharhlash samaradorligini belgilaydi.

Raqamli darsliklarning lingvistik tahlili axborotni strukturalash qonuniyatlarini, murakkab tushunchalarni tushuntirishda foydalaniladigan lingvistik vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini, og'zaki va multimedia komponentlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir xarakterini aniqlash imkonini beradi. Ushbu jihatlarni o'rganish raqamli formatlar talabalarning kognitiv idrokiga va tanqidiy fikrlashga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun asosdir[1]. Raqamli darsliklarni lingvistik tadqiq qilishga murojaat qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy vazifa bo'lib, ta'lim siyosatini yanada rivojlantirish va o'quv materiallarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. B.t.karimov ta'kidlaganidek, multimediya elementlarining integratsiyasi asosiy matn va tushuntirish materiallari o'rtasidagi munosabatni o'zgartiradi, ularga o'quv nutqi tuzilishida katta ahamiyat beradi[2].

D.r.xodjaeva milliy ta'lim tizimlari uchun raqamli darsliklarni ishlab chiqishda madaniy va lingvistik xususiyatlarni hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratadi[3].

R.mayer raqamli darsliklarni multimedia ta'lim nazariyasi kontekstida o'rganadilar[4]. Ularning ta'kidlashicha, matn, tasvir va interfaol elementlarning uyg'unligi, mazmunning lingvistik tashkil etilishi aniq, izchil va tinglovchilarning kognitiv xususiyatlariga moslashgan taqdirdagina yaxshiroq o'rganishga yordam beradi.

N.a.safonova matnning strukturaviy muvofiqligi, terminologik aniqligi va og'zaki va vizual komponentlar o'rtasidagi muvofiqlik darajasi kabi parametrlarni ko'rib chiqishni taklif qiladi. Bunday mezonlar nafaqat mavjud materiallarni obyektiv baholash, balki ularni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi[5].

Adabiyotlar tahlili raqamli darsliklarning lingvistik jihati an'anaviy matn tanqididan tashqarida ekanligini ko'rsatadi. U multimodal nutqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, yangi didaktik yechimlarni o'rganish va obyektiv sifatni baholash vositalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu raqamli formatlarning ta'lim jarayoniga ta'sirini tushunishga qaratilgan yanada chuqurroq tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning maqsadi raqamli darsliklarning lingvistik tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning lingvistik xususiyatlarining o'quv materialini talabalar tomonidan idrok etishi va o'zlashtirishiga ta'sirini aniqlashdir. Tadqiqotda kontent va qiyosiy tahlil, ekspert baho, diskurs tahlil usullari qo'llanildi.

Taklif etilayotgan metodika raqamli darsliklarni har tomonlama o'rganishni ta'minlaydi, bu esa obyektiv natijalarga erishish va lingvistik tahlil nuqtai nazaridan ularni takomillashtirish istiqbollari to'g'risida ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirish uchun asos yaratadi.

Tahlil va natijalar. Raqamli darsliklarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ularning lingvistik tashkil etilishi, birinchi navbatda, multimedia komponentlarining integratsiyasi tufayli an'anaviy bosma formatlardan sezilarli darajada farq qiladi. Raqamli darsliklardagi og'zaki matn odatda qisqartiriladi va grafik, audiovizual va interfaol materiallarga hamrohlik qilish vazifasiga bo'ysunadi[6]. Ushbu tendentsiya o'quv nutqi strukturasi o'zgarishiga olib keladi: asosiy tarkib idrokning bir nechta kanallari bo'ylab taqsimlanadi, bu o'quvchilardan kognitiv faollikni oshirishni talab qiladi.

Raqamli darsliklarda terminlarga boy ixcham sintaktik tuzilmalardan ko'proq foydalanilishi, ularning multimedia muhitiga integratsiyalashuvini osonlashtirishi aniqlandi. Biroq, matnning haddan tashqari bo'linishi taqdimotning uyg'unligini kamaytirishi va o'rganishni murakkablashtirishi mumkin. Bu, ayniqsa, tushuntirish bloklari asosiy matndan tashqarida joylashtirilgan va giperhavolalar yoki qo'shimcha modullar sifatida taqdim etilganda to'g'ri keladi. Lingvistik tahlil shuni ko'rsatdiki, raqamli darsliklar vizual ritorikadan faol

foydalaniladi: markirovka qilingan ro'yxatlar, infografika, diagrammalar va jadvallar. Ularning vazifasi nafaqat materialni tasvirlash, balki ma'lumotni tuzishdir. Biroq, bu vositalarning samaradorligi og'zaki va vizual komponentlarning izchilligiga bog'liq. Matn va grafika o'rtasida nomuvofiqlik bo'lsa, o'quvchilar mazmuni izohlashda qiynaladilar.

Darslikning bosma va raqamli versiyalarini qiyosiy o'rganish argumentatsiya xarakteridagi farqlarni aniqladi. An'anaviy matnlarda chiziqli tushuntirishlar hukmron bo'lsa-da, raqamli formatlar ko'pincha gipermatn tamoyiliga asoslanadi, bu o'qish variantlari doirasini kengaytiradi, lekin bir vaqtning o'zida talabalardan tanqidiy navigatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tilning aniqligi va ravshanligi ayniqsa muhimdir, bu material chiziqli bo'lmagan holda taqdim etilganda uni yaxlit tushunishni ta'minlaydi.

Ekspert baholash natijalari shuni tasdiqladiki, yuqori sifatli raqamli darsliklar aniq ifodalanganligi, atamalarining izchil kiritilishi, mantiqiy to'liq bo'limlar, matn va multimedia elementlarining uyg'un kombinatsiyasi bilan ajralib turadi. Aksincha, texnik lug'atga haddan tashqari yuklangan yoki aniq tuzilmaga ega bo'lmagan matnlar tushunish samaradorligini pasaytiradi.

Raqamli darsliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning lingvistik tashkil etilishi an'anaviy bosma formatlardan sezilarli darajada farq qiladi. Asosiy farq matnni multimedia va interfaol elementlar bilan integratsiyalashuvdir, bu esa axborotni strukturalash tamoyillarining o'zgarishiga olib keladi[7]. Raqamli versiyalardagi og'zaki komponent ko'pincha vizual bloklar va audiovizual hamrohlikni tushuntirish, asosiy matn va illyustrativ material o'rtasidagi an'anaviy munosabatni o'zgartirish vazifasiga bo'ysunadi.

Bosma va raqamli darsliklarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, raqamli formatlar ko'proq ixchamligi va bo'laklangan taqdimoti bilan ajralib turadi. Matn bloklari ko'pincha qisqacha ta'riflar, diagrammalar yoki markirovka qilingan ro'yxatlar sifatida taqdim etiladi, bu esa ma'lumotni tushunishni osonlashtiradi, lekin ayni paytda izchillikni kamaytiradi. Mantiqiy ketma-ketlik giperhavola strukturasi tomonidan buzilgan hollarda o'quvchilar materialni yaxlit tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Lingvistik tahlil raqamli darsliklarda terminologiyani ko'paytirish tendentsiyasini aniqladi. Bu ilmiy mazmuni yanada aniqroq uzatishni osonlashtirsa-da, etarli tushuntirishlar yo'qligi sababli talabalarni ortiqcha yuklash xavfini ham yaratadi[8]. Aniq so'zlar va yangi tushunchalarning izchil kiritilishi, ayniqsa, materialning ochiq bo'lishini ta'minlash uchun muhimdir.

Raqamli darsliklarning muhim xususiyati vizual elementlardan - jadvallar, infografika va interaktiv diagrammalardan faol foydalanishdir. Ularning roli nafaqat tasvirlash, balki bilimlarni shakllantirishdir. Biroq, bunday vositalarning samaradorligi ularning og'zaki komponent bilan muvofiqligiga bog'liq: agar ular mos kelmasa, ma'lumotni talqin qilishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Ekspert baholash natijalari yuqori sifatli raqamli darsliklar aniq lingvistik tashkil etilishi, mantiqiy jihatdan to'liq bo'limlari, matn va multimedyaning uyg'un kombinatsiyasi bilan ajralib turishini tasdiqladi[9]. Aksincha, texnik lug'atga haddan tashqari yuklangan yoki aniq kompozitsiyaga ega bo'lmagan matnlar tarbiyaviy ta'sirni kamaytiradi.

Olingan ma'lumotlar raqamli darsliklarni lingvistik tahlil qilish ularning didaktik afzalliklari va cheklovlarini ochib beradi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Optimal tuzilma ixchamligi va mazmunning to'liqligi, multimedia ravshanligi va lingvistik izchillik o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi.

Binobarin, olingan natijalar raqamli darsliklarni lingvistik tahlil qilish ularning didaktik afzalliklarini ham, ma'lum cheklovlarini ham ochib beradi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Optimal tuzilma matnning ixchamligi va kognitiv boyligi, multimedia komponentlarining ravshanligi va ularning lingvistik ta'minoti o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli darsliklar o'quv nutqining tubdan yangi shakli bo'lib, bu erda og'zaki matn multimedia va interaktiv komponentlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa. Lingvistik tahlil shuni ko'rsatdiki, ularning samaradorligi ko'p jihatdan nafaqat texnik xususiyatlar, balki birinchi navbatda tarkibning lingvistik tashkil etilishi bilan belgilanadi. Matnning aniqligi, atamalarning izchil kiritilishi, matnning ko'rgazmali qurollar bilan uyg'unligi o'quvchilarning o'quv materialini tushunishi va izohlashiga bevosita ta'sir qiladi.

Tahlilning asosiy natijalari bir nechta fikrlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

Birinchi, raqamli darsliklar axborotni taqdim etishda ko'proq o'zgaruvchanlikni ta'minlaydi, lekin bir vaqtning o'zida talabalarning kognitiv faolligiga yuqori talablarni qo'yadi;

Ikkinchi, ularning lingvistik tuzilishi qisqartirish va parchalanishga moyil bo'lib, taqdimotning izchilligi va yaxlitligi tamoyillariga rioya qilishni ayniqsa muhimdir;

Uchinchi, multimediyaning samaradorligi ularning umumiy matn oqimiga qanchalik yaxshi integratsiyalanganligiga va adekvat lingvistik tushuntirish bilan qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq.

Natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish tavsiya etiladi:

Raqamli darsliklarni ishlab chiqishda matnning ixchamligi va yetarli darajada to'liqligi o'rtasidagi mutanosiblikka intilish kerak;

Tegishli tushuntirishlarsiz texnik lug'atning ortiqcha yuklanishiga yo'l qo'ymaslik, terminologik ravshanlikni ta'minlash muhim;

Matn va vizual komponentlar bir-biriga mos kelishi va bir-birini to'ldirishi, yaxlit semantik kompleks hosil qilishi;

Raqamli darslikning strukturasi bo'limlarning mantiqiy to'liqligini saqlagan holda o'qish traektoriyasini tanlash imkoniyatini ta'minlab, o'quvchilarning kognitiv xususiyatlarini hisobga olishi kerak;

Raqamli darsliklar sifatini baholashda ular mazmunining kuchli va zaif tomonlarini xolisona aniqlash imkonini beruvchi lingvistik ekspertiza vositalarini joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa, raqamli darsliklar ta'limni modernizatsiya qilish uchun yangi istiqbollarni ochadi, lekin ularning imkoniyatlarini faqat lingvistik parametrlarni puxta hisobga olgan holda to'liq ro'yobga chiqarish mumkin. Aynan til bilimlarni uzatishning asosiy vositasi sifatida raqamli ta'lim matnlarining samaradorligini hamda ularning mavzu bo'yicha o'quvchilarda bilim va axborotni tanqidiy tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Тайлақов н.и. электрон дарслик яратишга қўйиладиган талаблар. // «халқ таълими» журнали, 2015, 2-сон. –17-20-б.
2. Каримов б. Т. Инновационные технологии в создании цифровых учебных материалов. – самарканд: самгу, 2021. – 164 с.
3. Ходжаева д. Р. Национальные особенности разработки цифровых учебников: лингвистический аспект // педагогика и образование. – ташкент, 2022. – № 2. – с. 47–60.
4. Mayer r. Multimedia learning. – cambridge: cambridge university press, 2014. – 320 p.
5. Сафонова н.а. критерии оценки качества цифровых учебников: лингвистический подход // образовательные технологии и общество. – 2022. – № 3. – с. 70–78.
6. Leu d., forzani e., rhoads c. Et al. The new literacies of online research and comprehension // reading research quarterly. – 2019. – vol. 54, № 4. – p. 333–352.
7. Беляев м.и., вымятнин в.м., григорьев с.г. теоретические основы создания образовательных электронных изданий. 2012, томск. «взгляд», 176 с.

Muhammadiyeva Zarina Bahodirovna,

Termiz davlat universiteti "Tasviriy grafika va dizayn" kafedrasida katta o'qituvchisi

SAN'AT TA'LIMIDA SHAXSIY YONDASHUV VA AKSEOLOGIK TAMOYILLAR: ESTETIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada san'at ta'limida shaxsiy yondashuv va akseologik (qadriyatga asoslangan) tamoyillarning ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida estetik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish, o'quvchilarda san'atga nisbatan estetik did, qadriyatlar tizimini ongli ravishda anglash hamda ijodiy yondashuvni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shaxsiy yondashuv tamoyili har bir o'quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni san'at vositasida tarbiyalashga xizmat qiladi. Akseologik tamoyil esa o'quvchilar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga, ularni estetik anglash orqali ma'naviy-axloqiy rivojlanishga yo'naltirilgan. Maqolada san'at ta'limida estetik kompetensiyani rivojlantirish yo'llari, interaktiv metodlar, amaliy mashg'ulotlar, muhit bilan ishlash, tahlil va refleksiya jarayonlari misolida ko'rib chiqiladi. Xulosa o'rnida, estetik kompetensiya o'quvchilarni nafaqat san'at asarlarini tushunishga, balki ularga estetik zavq bilan yondashishga o'rgatishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: San'at ta'limi, shaxsiy yondashuv, akseologik tamoyillar, estetik kompetensiya, qadriyatlar, ijodkorlik, estetik tarbiya, san'at asarlari, did tarbiyasi, individual yondashuv.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение индивидуального подхода и аксиологических (ценностно-ориентированных) принципов в системе художественного образования. В современных условиях одной из приоритетных задач образования становится формирование и развитие эстетической компетенции обучающихся, развитие у них эстетического вкуса, осознанного понимания системы ценностей и творческого мышления посредством искусства. Принцип индивидуального подхода направлен на учет личностных особенностей, потребностей и интересов каждого учащегося, обеспечивая воспитание средствами искусства. Аксиологический принцип ориентирован на формирование у обучающихся как национальных, так и общечеловеческих ценностей, их эстетическое осмысление и духовно-нравственное развитие. В статье рассматриваются пути развития эстетической компетенции в художественном образовании на основе использования интерактивных методов, практических занятий, работы с визуальной средой, анализа и рефлексии. В заключение подчеркивается, что эстетическая компетенция должна способствовать не только пониманию произведений искусства, но и формированию способности воспринимать их с эстетическим наслаждением.

Ключевые слова: Художественное образование, индивидуальный подход, аксиологические принципы, эстетическая компетенция, ценности, креативность, эстетическое воспитание, произведения искусства, развитие вкуса, личностно-ориентированный подход.

Abstract. This article explores the importance of a personalized approach and axiological (value-based) principles in the field of art education. In today's educational environment, the development of students' aesthetic competence, cultivation of aesthetic taste, conscious understanding of values, and creative thinking through art has become a vital priority. The personalized approach emphasizes consideration of each student's individual characteristics, needs, and interests, fostering their education through artistic means. The axiological principle focuses on nurturing both national and universal values in learners, guiding their spiritual and moral development through aesthetic understanding. The article discusses various strategies for developing aesthetic competence in art education, including

interactive methods, practical sessions, work with the visual environment, analysis, and reflection. In conclusion, the article emphasizes that aesthetic competence should teach students not only to understand works of art but also to appreciate them with aesthetic pleasure.

Key words: *Art education, personalized approach, axiological principles, aesthetic competence, values, creativity, aesthetic upbringing, works of art, taste development, individual-oriented learning.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o'quvchining ma'naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, ularni jamiyatda mustaqil, ijodkor, estetik didga ega shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, san'at ta'limi bu borada muhim vosita bo'lib, u orqali o'quvchilarda nafaqat badiiy did, balki umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy barkamollik, go'zallikni anglash va baholash ko'nikmalari rivojlanadi. Shu jihatdan san'at ta'limida shaxsiy yondashuv va akseologik tamoyillarni amaliyotga joriy etish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biridir.

Shaxsiy yondashuv tamoyili - har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etishga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning san'atga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, ularni o'zini ifoda etish, fikrlash, tahlil qilish, his qilish va go'zallikni anglashga yo'naltiradi.

Akseologik (qadriyatga asoslangan) yondashuv esa o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy meros, estetik qadriyatlar, axloqiy tamoyillarni ongli ravishda qabul qilishga, ularni san'at vositasida anglab yetishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali estetik kompetensiyaning chuqurroq shakllanishi ta'minlanadi.

Estetik kompetensiya esa o'quvchining san'atni anglash, uni baholash, his etish, tahlil qilish va unga nisbatan estetik zavq hosil qilishga qodir bo'lishi, shuningdek, o'z ijodiy g'oyalarini san'at vositasida ifoda eta olish layoqatidir. Bunday kompetensiyani shakllantirishda esa faqat bilim emas, balki qadriyatlar, shaxsiy yondashuv, ijtimoiy-madaniy muhit, pedagogik usullar va o'qituvchining kasbiy mahorati katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada san'at ta'limida shaxsiy yondashuv va akseologik tamoyillarning o'zaro bog'liqligi, ularning estetik kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni, hamda bu kompetensiyani shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar, muhit bilan ishlash va refleksiya orqali o'quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. San'at ta'limining zamonaviy paradigmasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va qadriyatga asoslangan (akseologik) ta'lim tamoyillariga tayangan holda shakllanmoqda. Bu yo'nalish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari san'at ta'limi jarayonida estetik tarbiya, shaxsiy yondashuv va estetik kompetensiya masalalarini yoritib bergan.

Masalan, rus olimlaridan B.M. Nemensky san'atning shaxsiy taraqqiyotdagi o'rnini chuqur tahlil qilib, san'at ta'limining asosiy vazifasi - o'quvchining estetik va axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, badiiy obraz orqali bola nafaqat tashqi dunyoni, balki o'z ichki dunyosini ham angelaydi va bu uning ongli estetik pozitsiyasini shakllantiradi.

L.S. Vygotskiyning "Estetika va san'at psixologiyasi" nomli asarida san'atning emotsional-ta'sirchan tabiatiga urg'u berilib, ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi estetik tajribaning ahamiyati asoslab berilgan. Unga ko'ra, san'at faqat ko'rish yoki eshitish vositasi emas, balki shaxsning ichki ruhiy kechinmalarini uyg'otuvchi kuchli vositadir.

Mahalliy olimlardan H. Yo'ldoshev, A. Ibrohimov, R. Jo'rayev kabi pedagog va san'atshunoslar o'z tadqiqotlarida san'at ta'limida shaxsiy yondashuvning ahamiyati, o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish usullarini keng yoritib berganlar. Ularning ishlarida san'at vositasida o'quvchining ongida o'zligini

anglash, milliy o'ziga xoslikni qadrlash, ijodiy tafakkur va mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirishga urg'u beriladi.

Shuningdek, J. Deweyning "Art as Experience" (San'at - bu tajriba) asarida san'atning inson hayotidagi hissiy va bilish funksiyalari tahlil qilinadi. Dewey san'atni ta'lim jarayonining ajralmas qismi deb qaraydi va unda o'quvchi o'z shaxsiy hissiyotlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu fikrlar bugungi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan hamohangdir.

Akseologiya sohasidagi tadqiqotlar (masalan, S.L. Rubinshteyn, A.G. Asmolov) esa qadriyatlar tizimining shaxs shakllanishidagi rolini asoslab beradi. Ularga ko'ra, inson faoliyatini ma'naviy-axloqiy jihatdan boshqaruvchi asosiy omil - bu qadriyatlardir. San'at esa bu qadriyatlarni yetkazuvchi eng kuchli estetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Estetik kompetensiya tushunchasi atrofida olib borilgan ilmiy izlanishlar (masalan, T.S. Komarova, E.B. Abdullayeva, M.S. Xo'jayev)da esa bu tushuncha o'quvchining san'atni anglash, tahlil qilish, baholash, undan estetik zavq olish va o'z estetik pozitsiyasini ifoda eta olish qobiliyati sifatida izohlanadi. Bu kompetensiya nafaqat bilim, balki tajriba, his-tuyg'u, qadriyatlar va ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq.

Ko'rinib turibdiki, ilmiy adabiyotlarda san'at ta'limida shaxsiy yondashuv va akseologik tamoyillarning o'rni chuqur asoslangan. Biroq, bu yondashuvlarni o'quv jarayoniga samarali tatbiq etish, ularni amaliyotda estetik kompetensiyani shakllantirish vositasiga aylantirish masalasi hanz dolzarbdir. Shu boisdan ham mazkur maqolada mavjud nazariy asoslar tahliliga tayangan holda, san'at ta'limida estetik kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullari va yo'llari yoritib beriladi.

Tahlil va natijalar. San'at ta'limi jarayonida shaxsiy yondashuv va akseologik tamoyillarni qo'llash estetik kompetensiyani rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda olib borilgan kuzatish va tahlillar ushbu yondashuvlarning samaradorligini tasdiqladi. Ayniqsa, o'quvchilarning san'atga bo'lgan munosabati, estetik didi va ijodiy fikrlashi sezilarli darajada faollashgani kuzatildi.

Amaliy mashg'ulotlarda turli interaktiv metodlardan – jumladan, klasterlar, estetik tahlil, ijodiy topshiriqlar, jamoaviy loyihalalar – foydalanish orqali o'quvchilarning estetik kompetensiyasi bir necha yo'nalishda rivojlanayotgani aniqlandi. Avvalo, san'at asarlarini chuqurroq anglash va baholash ko'nikmalari shakllana boshladi. O'quvchilar san'at asarining nafaqat tashqi go'zalligiga, balki uning ichki mazmuniga e'tibor qaratib, tahliliy va tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishdi.

Bundan tashqari, san'at asarlarini mushohada qilish orqali o'quvchilarda estetik zavq olish, o'z estetik fikrini bildirish layoqati kuchaydi. Bu esa estetik kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biri sifatida ularning hissiy va ijodiy ifoda qobiliyatini mustahkamladi. Shu bilan birga, shaxsiy yondashuv tamoyiliga asoslangan ta'lim orqali o'quvchilar o'z-o'zini anglash va ifodalashga intila boshladilar. Ular o'zlarining qiziqishlariga mos individual loyihalarni ishlab chiqishga, san'at asarlari orqali ichki kechinmalarini tasvirlashga harakat qilishdi.

Akseologik tamoyilni darslarga tatbiq etish esa o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan hurmat hissining shakllanishiga olib keldi. Xalq amaliy san'ati, milliy naqshlar, tarixiy obidalar va madaniy meros elementlariga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning o'zlikni anglashiga, milliy g'urur va estetik qadriyatlarga e'tibor bilan qarashiga zamin yaratdi.

Natijada, estetik kompetensiyaning amaliy ifodasi sifatida o'quvchilarning ijodiy ishlari sifati oshdi. Tayyorlangan rasm, kollaj, dizayn va loyihalarda mazmun va shakl uyg'unligi, estetik tamoyillarga amal qilish, mavzuga individual yondashuv kabi jihatlar yaqqol namoyon bo'ldi. Bu esa nafaqat bilim darajasining, balki estetik tafakkur va ijodiy salohiyatning o'sib borayotganini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tahlillar quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatdi: estetik kompetensiyani samarali shakllantirish uchun, birinchidan, dars mazmuni o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilishi lozim; ikkinchidan, interaktiv metodlardan faol foydalanish, estetik qadriyatlarga oid muammolarni muhokama qilish va san'atning turli turlarini (musiqa, adabiyot, tasviriy san'at) o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarning ko'p qirrali estetik tajribasi shakllantiriladi. Uchinchidan, milliy madaniyatga asoslangan materiallar bilan ishlash orqali o'quvchilarda tarixiy-estetik anglash doirasi kengayadi.

Umumlashtirilgan natijalarga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

– shaxsiy yondashuv orqali estetik kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning o'ziga xosligini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi;

– akseologik tamoyillar estetik tarbiya bilan axloqiy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi;

– estetik kompetensiya faqat bilim emas, balki hissiy-intellektual, qadriy va ijodiy yondashuvni o'z ichiga olgan ko'p qirrali tushunchadir;

– san'at vositasida o'quvchining tafakkuri, estetik didi va ongli tanlovi shakllanadi, bu esa uni ijtimoiy hayotda faol va mas'uliyatli shaxs sifatida kamol toptirishga yordam beradi.

Muhokama. San'at ta'limi bugungi kunda nafaqat o'quvchilarga badiiy bilim va ko'nikmalar berish, balki ularning estetik dunyoqarashi, ma'naviy olami, qadriyatga bo'lgan munosabati va ijodiy tafakkurini shakllantirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bu jarayonda shaxsiy yondashuv va akseologik tamoyillarni uyg'un holda qo'llash estetik kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samara beradi.

O'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar ularning san'atga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Shaxsiy yondashuv orqali har bir o'quvchi o'zining estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini ochib bera boshlaydi. Bu esa o'z-o'zini anglash, o'z fikrini erkin ifoda eta olish va ijodiy ishlarga mas'uliyat bilan yondashish kabi fazilatlarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, akseologik tamoyillarni dars jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissi shakllanmoqda. San'at asarlarini tahlil qilish, xalq amaliy san'ati namunalarini o'rganish, madaniy meros ob'ektlari haqida suhbatlar o'tkazish orqali o'quvchilar o'z milliy o'zligiga chuqurroq nazar tashlaydi. Bu esa ularning estetik anglash qobiliyatini mustahkamlash barobarida, ma'naviy-axloqiy yetuklik sari yo'naltiradi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida qo'llangan interaktiv metodlar (klaster, muhokama, estetik tahlil, vizual esse, loyihaviy ishlar) o'quvchilarning san'at asarlarini chuqur tahlil qilish, ularni his qilish va individual talqinda ifodalash qobiliyatini oshirdi. Ayniqsa, guruhiy va individual ijodiy topshiriqlar estetik kompetensiyaning shakllanishida katta rol o'ynadi. O'quvchilar nafaqat mavjud asarlarni baholash, balki yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni badiiy vositalar orqali ifodalashga intildilar.

Shuningdek, o'quvchilarning estetik kompetensiyasida sezilarli o'sish ularning ijodiy ishlarida ham namoyon bo'ldi. Rasm, kollaj, dizayn kabi amaliy ishlarning mazmun va shakl jihatidan boyishi, ular orqali san'atga nisbatan o'z estetik pozitsiyasini namoyon etishlari - bularning barchasi san'at ta'limining to'g'ri yo'naltirilganidan dalolat beradi. Bu holat estetik kompetensiyaning quyidagi asosiy komponentlari - estetik idrok, estetik tafakkur, estetik baholash va estetik ifoda - o'zaro uyg'un ravishda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, san'at ta'limida shaxsiy yondashuv o'quvchining o'zligini anglash va o'z imkoniyatlarini ochishiga xizmat qilsa, akseologik yondashuv esa bu jarayonga ma'naviy-axloqiy mazmun baxsh etadi. Ularning uyg'unlashuvi esa estetik kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar san'at ta'limida shaxsiy yondashuv va akseologik tamoyillarning estetik kompetensiyani rivojlantirishdagi beqiyos

ahamiyatini ko'rsatdi. Shaxsiy yondashuv o'quvchining individual qobiliyatlarini ochib berishga, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilsa, akseologik tamoyil orqali estetik tarbiya va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida uzviy bog'liqlik shakllanadi. Bu ikki tamoyilning uyg'unligi san'at ta'limini faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi ijtimoiy-madaniy platformaga aylantiradi.

Shuningdek, san'at asarlarini chuqur anglash, estetik zavq olish, ijodiy fikrni ifoda etish kabi ko'nikmalar o'quvchilarda kompleks estetik kompetensiyani shakllantiradi. O'quvchilar san'at vositasida nafaqat go'zallikni ko'ra boshlaydilar, balki uni anglaydi, qadrlaydi va shaxsiy hayotiy tajribasiga bog'laydi. Ayniqsa, milliy madaniyat, xalq amaliy san'ati va tarixiy estetik merosga tayangan topshiriqlar orqali o'quvchilarda o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat va g'urur tuyg'usi ortadi.

Umuman olganda, san'at ta'limida estetik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan, qadriyatga asoslangan, interaktiv va amaliy faoliyatga tayanuvchi ta'lim yondashuvlarini talab etadi. Mazkur maqolada ilgari surilgan nazariy va amaliy yondashuvlar, metodik tavsiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullaeva, M. M. (2018). San'at ta'limida estetik tarbiya metodlari. Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti nashriyoti.
2. Bekturdiyev, A. R. (2020). Estetik kompetensiya va uning ta'lim jarayonida rivojlantirilishi. Toshkent: Fan.
3. Karimov, T. S. (2019). Shaxsiy yondashuv tamoyillari zamonaviy ta'limda. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 3(12), 45-52.
4. Mamatqulov, R. (2017). Milliy madaniyat va san'at ta'limi integratsiyasi. Termiz: Termiz davlat universiteti nashriyoti.
5. Mustafayeva, Z. (2021). Akseologik tamoyillar va san'at tarbiyasida ularning roli. *O'zbekiston pedagogika jurnali*, 2(7), 28-34.
6. Sultonova, N. K. (2016). Estetik kompetensiyaning nazariy asoslari. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
7. Tursunov, I. J. (2019). San'at ta'limida interaktiv metodlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
9. Dewey, J. (1934). *Art as Experience*. New York: Perigee Books.
10. Eisner, E. W. (2002). *The Arts and the Creation of Mind*. Yale University Press.

Fayziyeva Salomat G'aybullayevna,
Termiz davlat Pedagogika institute "Tasviriy san'at" kafedrası
o'qituvchisi
fayziyevasalomat365@gmail.com

INNOVATSION METODLAR ASOSIDA BO'LAJAK CHIZMACHILIK O'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion metodlarning o'rnini va ahamiyati yoritilgan. Muallif zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish va interfaol metodlar orqali o'qituvchilarni tayyorlash samaradorligini tahlil qiladi. Shuningdek, innovatsion metodlarning chizmachilik faniga mos jihatlari, ularning amaliyotdagi afzalliklari va natijalari ko'rsatib beriladi. Maqola pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi dolzarb ilmiy-uslubiy asoslarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: chizmachilik, kasbiy kompetensiya, innovatsion metod, interfaol usullar, loyiha asosida o'qitish, axborot texnologiyalari, pedagogik ta'lim, kasbiy mahorat.

Аннотация. Эта статья рассматривает роль и важность инновационных методов в повышении профессиональных навыков будущих учителей рисования. Автор анализирует эффективность педагогической подготовки с использованием современных педагогических подходов, информационных и коммуникационных технологий, проектного обучения и интерактивных методов. Также раскрыты актуальные аспекты инновационных методов обучения рисованию, их преимущества и практические результаты. Статья представляет современные научные и методологические основы формирования профессиональной компетенции в педагогических университетах.

Ключевые слова: черчение, профессиональная компетентность, инновационный метод, интерактивные методы, проектное обучение, информационные технологии, педагогическое образование, профессиональные навыки.

Annotation. This article examines the role and importance of innovative methods in enhancing the professional skill of future drawing teachers. The author analyzes the effectiveness of teacher training using modern pedagogical approaches, information and communication technologies, project education and interactive methods. The current aspects of innovative methods of teaching drawing, their advantages and results in practice are also revealed. The article presents modern scientific and methodological foundations of professional competence formation in pedagogical universities.

Key words: future teacher, drawing, professional competence, innovative method, interactive methods, project training, information technology, pedagogical education, professional skills.

Kirish. XXI asrda ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, texnik yo'nalishlarda, jumladan chizmachilik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur maqolada bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion metodlarning tutgan o'rnini haqida so'z yuritiladi.

Chizmachilik o'qituvchisi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki uni zamonaviy usullar yordamida o'qituvchilarga yetkazish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim. Kasbiy mahorat deganda o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kommunikativ qobiliyatlari, axborot texnologiyalaridan foydalana olish malakasi tushuniladi. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari (AKT), loyiha asosidagi o'qitish, muammoli ta'lim va boshqa ilg'or metodlar muhim vosita hisoblanadi. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda quyidagi innovatsion metodlar samarali hisoblanadi:

Muammoli ta'lim – bu usul orqali talabalar mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga o'rganadilar.

Loyiha asosida o'qitish – talabalar guruhlarda ishlab, amaliy mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlab boradilar.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish – chizma va grafik materiallar bilan ishlashda kompyuter dasturlaridan, masalan, AutoCAD, SolidWorks kabi vositalardan foydalanish orqali o'qituvchining kasbiy ko'nikmalari ortadi.

Simulyatsion (model) metodlar – real ishlab chiqarish muhitini taqlid qiluvchi mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni real vaziyatlarga tayyorlash imkonini beradi.

Interfaol metodlar – “aqliy hujum”, “klaster”, “blits so'rov” kabi usullar orqali talabalar bilimini faollashtirish mumkin.

Innovatsion metodlarning afzalligi shundaki, ular o'quvchi va o'qituvchini faollikka undaydi. Ayniqsa, chizmachilik fanida bu metodlar orqali murakkab grafik topshiriqlarni interfaol doska yoki 3D dasturlar yordamida tahlil qilish mumkin. Bu esa o'qituvchining nafaqat texnik ko'nikmalarini, balki didaktik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish masalasi pedagogika va ta'lim sohasida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, innovatsion metodlar ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi ayniqsa ahamiyatlidir. Ilmiy adabiyotlarda innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligi turli nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan.

Masalan, Sobirov (2018) innovatsion metodlarning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyatini yoritib, interfaol metodlar, loyiha asosida ta'lim va multimedia vositalarining o'qituvchi kasbiy tayyorgarligida muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Ubaydullaev (2020) chizmachilik sohasida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar va virtual muhitlardan foydalanishning o'ziga xos metodik jihatlarini tadqiq etadi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham innovatsion yondashuvlar o'qituvchilarning professional kompetensiyalarini oshirishda markaziy o'rin tutadi. Masalan, Johnson va boshqalar (2019) ta'limda texnologiyalarni integratsiya qilish va faol o'quv jarayonini tashkil etish chizmachilik kabi vizual san'at fanlarini o'rgatishda o'qituvchilar malakasini oshirishga katta yordam berishini ta'kidlaydi. Ular ta'lim jarayonida interaktiv platformalar va simulyatsiyalar yordamida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish metodikasini taklif qilgan.

Shuningdek, o'zbek va rus tilidagi manbalarda pedagoglarning innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishdagi muammolari ham ko'rsatib o'tilgan. Masalan, Rasulov (2017) pedagoglarning yangi metodlarni qabul qilishdagi psixologik to'siqlarini va ularni yengish usullarini tahlil qiladi. Bu esa bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida nafaqat texnologik, balki shaxsiy yondashuvlar muhimligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Milliy ta'lim tizimidagi yangilanishlar ham kasbiy malaka oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi farmonlari va dasturlari innovatsion pedagogik metodlarning tatbiqini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu holat o'qituvchilarning professional o'sishiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda (Davlat ta'lim standartlari, 2021).

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, innovatsion metodlar - interfaol dars usullari, raqamli vositalar, loyiha faoliyati, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi yondashuvlar bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, yangi metodlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun pedagoglarning tayyorgarligi, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi va davlat siyosati muhim omil sifatida qayd etilgan.

Tahlil va natijalar. Innovatsion metodlarni qo'llash orqali bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish masalasi joriy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol yondashuvlar va raqamli texnologiyalar o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar orqali o'quvchilar bilan ishlashda pedagoglarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi. Misol uchun, loyiha asosida ta'lim berish va darslarda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarda chizmachilik ko'nikmalarini tez va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu metodlar o'qituvchilarning ham kasbiy malakasini oshirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Eksperimental tadqiqotlar natijalariga qaraganda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llagan o'qituvchilar o'z darslarini yanada qiziqarli va samarali tashkil eta olmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirib, ularning mustaqil ijodiy ishlar bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Innovatsion metodlar asosida tayyorlangan o'qituvchilarda pedagogik mahoratning barcha asosiy ko'rsatkichlari - didaktik bilimlar, metodik kompetensiyalar, kommunikativ ko'nikmalar va ijodiy yondashuvlar rivojlanganligi kuzatiladi.

Shuningdek, tahlillar pedagoglarning yangi yondashuvlarni qabul qilishda duch keladigan ba'zi qiyinchiliklar va psixologik to'siqlar mavjudligini ham ko'rsatdi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun muntazam malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar va pedagoglar uchun qo'llanmalar ishlab chiqish zarur.

Natijalar shuni ta'kidlaydiki, innovatsion metodlarni samarali joriy qilish uchun pedagoglarning pedagogik ma'lumotlari va texnik jihozlarga kirish imkoniyati muhim omil hisoblanadi. Davlat va ta'lim muassasalari tomonidan berilayotgan qo'llab-quvvatlash esa o'qituvchilarni yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga va amaliyotga tadbiiq etishga undaydi.

Umuman, tadqiqotlar ko'rsatdiki, innovatsion metodlar bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda nafaqat samarali vosita, balki ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga olib boruvchi yo'nalishdir. Bu jarayonda pedagoglarning o'z ustida muntazam ishlashi, yangiliklarga ochiq bo'lishi va davlat siyosati bilan uyg'un harakat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda innovatsion pedagogik metodlarning bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishdagi ahamiyati batafsil o'rganildi. Tahlil va eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar, raqamli texnologiyalar, loyiha asosida ta'lim hamda innovatsion yondashuvlar o'qituvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Innovatsion metodlar pedagoglarning ijodkorligi, o'z-o'zini rivojlantirish va yangiliklarga tayyorligi darajasini oshiradi, bu esa o'z navbatida o'quv jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'limdagi bunday yondashuvlar o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirib, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar - yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi qiyinchiliklar, pedagoglarning malaka oshirish zaruriyati va texnik jihozlarning cheklanganligi - davlat va ta'lim muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu bois, innovatsion metodlarni muvaffaqiyatli tatbiiq etish uchun tizimli va uzluksiz malaka oshirish, zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash hamda pedagoglar o'rtasida tajriba almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishda samarali vosita bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatining

yaxshilanishiga va yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni kengroq joriy etish - bugungi kun talabidir va kelajak avlod uchun barqaror rivojlanish poydevorini yaratadi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion yondashuvlar asosida tayyorlangan o'qituvchilar o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishmoqda. Ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, grafik savodxonligini shakllantirish, amaliy topshiriqlarda aniqlik va aniqlovchanlikni kuchaytirish kabi jihatlariga erishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion metodlardan foydalanish bugungi kun ta'limining ajralmas qismidir. Pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologiyalar, amaliy loyihalar va interfaol metodikalar keng qo'llanilsa, yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchilarni yetishtirish mumkin bo'ladi. Shu boisdan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta'lim jarayonlarini yo'lga qo'yish dolzarb va zaruriy masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. F. U., Turoпова R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
2. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies International Engineering Journal For Research & Development. - 2021 //T. – T. 6. – C. 3-3.
3. Toshpulatov F. U. et al. Issues of Developing the Culture of Measurement in Drawing Lessons (In the Case of General Secondary Schools) //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 111-119.
4. Fayziyeva Salomat G'aybullayevna "Chizmachilik darslarida multimediali web ilovadan foydalanish", Qarshi-2023, Tasviriy san'at ta'limi uzviyligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari: muammolar va yechimlar» Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 146-149-b
5. Fayziyeva S. "Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda gumanitar, ijodiy va umummadaniy yo'nalishlarda o'qitish metodikasini takomillashtirish" ,Nukus-2023, МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ ilmiy-metodik jurnal 279-282b
6. Fayziyeva Salomat G'aybullayevna " Computer graphics and its types ", European international journal multidisciplinary research and management studies, /10.55640/eijmrms-04-01-11, Pages: 56-61
7. Fayziyeva S. G'. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Inter education & global study. 2024. № 1. Б. 55–62.
8. Fayziyeva Salomat G'aybilloyevna o'quvchilarning fazoviy tasavvurini
9. Rivojlantirish (chizmachilikda yaqqol tasvirlar yasash misolida), EURASIAN JOURNAL OF LAW FINANSE AND APPLIED SCIENCES, 2issue 02, february 2022, page-150153-B

Yakubov Baxtiyor Sharifovich,
Termiz davlat universiteti
Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrasida o'qituvchisi
yakubov2436@gmail.com

TALABALARNING AXBOROT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida elektron dasturiy ta'minotni takomillashtirishga qo'yiladigan talablar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim muhitida elektron o'quv resurslari va dasturiy vositalarning samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning pedagogik va psixologik jihatlari hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Elektron dasturiy ta'minot nafaqat bilimlarni o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlash, balki talabaning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Mazkur ishda kompyuter muhitining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga moslashishi, o'quv jarayonida talabalar ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, interaktivlik va qulaylik darajasi oshirilishi asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bundan tashqari, elektron dasturiy ta'minotda motivatsion va emotsional qo'llab-quvvatlash vositalarini integratsiya qilishning psixologik-pedagogik ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'limda sifatli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ularning samaradorligini ta'minlash uchun tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: axborot kompetentligi, elektron dasturiy ta'minot, ta'lim jarayoni, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktivlik, motivatsiya, psixologik-pedagogik talablar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье анализируются требования к совершенствованию электронного программного обеспечения в процессе развития информационной компетентности студентов. В современном образовательном пространстве важно повышать эффективность электронных учебных ресурсов и программных средств, учитывая их педагогические и психологические аспекты. Электронное программное обеспечение должно не только поддерживать усвоение знаний, но и способствовать формированию у студентов навыков самостоятельного мышления, анализа и творческого подхода. В работе обозначена основная задача - адаптация компьютерной среды к персонализированному образовательному процессу с учетом потребностей и индивидуальных особенностей студентов, а также повышение уровня интерактивности и удобства. Кроме того, рассматривается психологопедагогическое значение интеграции средств мотивационной и эмоциональной поддержки в электронное программное обеспечение. Результаты исследования позволяют разработать рекомендации по внедрению качественных информационно-коммуникационных технологий в образование и обеспечению их эффективности.

Ключевые слова: информационная компетентность, электронное программное обеспечение, образовательный процесс, персонализированное обучение, интерактивность, мотивация, психологопедагогические требования, информационно-коммуникационные технологии, самостоятельное мышление, эффективность обучения.

Abstract. This article analyzes the requirements for improving electronic software in the process of developing students' information competence. In the modern educational environment, it is essential to enhance the effectiveness of electronic learning resources and software tools, taking into account their pedagogical and psychological aspects. Electronic software should not only support knowledge acquisition but also foster the development of

students' independent thinking, analytical skills, and creative approaches. The study identifies as a primary task the adaptation of the computer environment to personalized learning processes, considering the needs and individual characteristics of students, while increasing interactivity and usability. Furthermore, the psychological and pedagogical significance of integrating motivational and emotional support tools into electronic software is discussed. The research results provide recommendations for implementing high-quality information and communication technologies in education and ensuring their effectiveness.

Key words: *information competence, electronic software, educational process, personalized learning, interactivity, motivation, psychological and pedagogical requirements, information and communication technologies, independent thinking, learning effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy taraqqiyot, umumjahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimi oldiga ham bir qator dolzarb vazifalarni qo'ydi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham zamonaviy pedagogning kompetentligi doirasida axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirish, ta'limning yangi sharoitida ishlay olish, nostandart va tanqidiy tafakkur, keng dunyoqarash sanab o'tilishi bejiz emas.

Jahon hamjamiyatiga integratsiya hamda dunyo oliy ta'lim hududida ishtirok etish mavjud oliy ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar zarurligini ko'rsatdi. Ulardan biri oliy ta'lim tizimini jahon standartlari asosida qayta qurish bo'ldi. Xususan, axborot-ta'lim jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha dunyo tajribasini tahlil qilish ushbu tizim pedagog kadrlarni tayyorlashda qo'shimcha imkoniyatlarni aniqladi.

Ma'lumki, o'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul shaxs bo'lib, axloqiy qiyofasi, pedagogik kompetentlikni namoyon etishi zarur.

Mazkur vazifadan kelib chiqib, respublikamizda milliy ta'lim tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. Xususan, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirish, xususan, bo'lajak pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga ta'lim trendlari, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish ustuvor vazifalar sifatida tavsiflanadi.

Darhaqiqat insoniyat jamiyatida qadimiy kasblardan biri bo'lgan pedagog kasbi har doim murakkab va mas'uliyati hisoblangan. Qadimgi mutafakkirlarning asarlarida yoshlarga ustozlik qilish yo'lini tanlagan odam nafaqat muayyan xususiyatlarga ega bo'lishligi balki, mazkur kasb uchun qobiliyat turiga moyil bo'lishi, balki tegishli tayyorgarlikka ham ega bo'lishi kerak.

Elektron dasturiy ta'minotni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlariga ajratildi.

Elektron ta'lim resurslari pedagogik talablarga (amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga to'la muvofiq bo'lishi), psixofiziologik talablarga (foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi), metodik talablarga (ta'lim beruvchiga darsni mustaqil dars ko'rinishida o'tkazishga sharoit yaratilishi, bu holatda ta'lim beruvchi rnaslahalehi rolida ishtirok etishini ta'minlash, darslarga tayyorgarlikni o'qituvchiga qulay usulda amalga oshirishga imkoniyat yaratish (dialog, videomateriallar kiritilishi), o'rganiladigan o'quv materiali sistemali, mantiqiy ketma-ketlikda, modullilik va ular orasida uzviy bog'liqlik ta'minlangan holda taqdim qilinishi, ta'lim oluvchilar o'zlashtirgan bilim darajasini turli xil murakkablikdagi (murakkablik darajasi shakllantiriladigan) nazorat dasturlari yordamida nazorat tashkil qilish imkoniyati yaratilishi) javob berishi lozim.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, metodik va texnik guruhlariga ajratildi. Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarlilik, qat'iy va

tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Adabiyotlar tahlili. Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensorperseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqat (qat'iyliligi, boshqaga ko'chishi), motivatsiya (faollik, yuqori darajadagi ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida talabalarning kuchli motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi talabalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalar, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariga "mijoz-server" arxitekturasi, Internetnavigatrlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlar joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differentsiatsiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usuli arini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar - o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarning o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlamalarga amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

Multimediaviylikka qo'yiladigan talablar: Ta'limni kompyuterlashtirish hozirgi zamonning zarur tendensiyasi bo'lib, "Ta'lim muassasalarida multimediani joriy qilish kerakmi yoki yo'qmi?" degan savol anhadan beri ijobiy hal etilgan. O'quv jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatining xarakterini o'zgartirishga, o'quv maqsadlaridagi turli elektron vositalar bilan talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beradi. O'qitishda multimediali elektron o'lquv qo'llanmalardan foydalanish vazifalari belgilanib, bu borada axborot kommunikatsiya texnologiyalarining globallasuvi sharoitida oliy ta'limni o'zlashtirish va o'rganishining samarador shakl, vositalari hamda mediateknologiyalarini aniqlash, ularni amaliyotga joriy qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia o'zi nima? Multimedia bu-informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Multimedia sizga tushunarli bo'lgan turli xil usullarda ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatini beradi, bu ko'p sohalarda juda foydali.

Multimedia vositalari esa -bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqot qilishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir[1,2].

Multimedia vositalari asosida o'qitish quyidagi afzalliklarga ega[1]:

- a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati;
- b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining ortishi;
- c) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyati;

d) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amalioytda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Tahlil va natijalar. Multimediali elektron o'quv qo'llanmalar talabalarning individual ishini tashkil etish shakllaridan biri sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida, o'qitishda ko'plab kompyuter dasturlari qo'llaniladi. O'quv multimedia dasturlari o'quv materialining tarkibiy qismini kengaytirilgan tuzilmaga, tinglovchining to'liq yoki qisqartirilgan o'quv variantlarini mustaqil tanlashiga va o'tishiga yordam beradi. Ta'limni axborotlashtirish - bu ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning mahsuli va kuchli tezlashtiruvchisidir, shuning uchun ta'limga innovatsiyalarni joriy etishning dolzarbligi, shubhasiz, ta'limdagi o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshiradi.

Multimedia texnologiyalari vositasida oliy ta'lim mazmunini takomillashtirish bosqichlarining pedagogik imkoniyatlari media-texnologiyalar va veb-kvestlarning didaktik tamoyillarini birlashtirish asosida kengaytiriladi;

- oliy ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning zamonaviy didaktik tamoyillarga asoslangan metodik tizimi ishlab chiqiladi;

- talabalarning ta'limga qiziqishlari va mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy multimediali axborot-metodik ta'minot ishlab chiqiladi;

- oliy ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning zamonaviy multimedia vositalari va ta'limning ilg'or metodlari integratsiyasiga asoslangan modeli ishlab chiqiladi.

Foydalanuvchi nuqtayi nazarida kontentning multimediyaviylik darajasi bu - kontentda predmet sohasini aks ettiruvchi obyekt va jarayonlarning turli usullari, tovushli va vizual, statistik va dinamik komponentlarining mavjudligi hisoblanadi. Ta'limiy bo'lmagan sahnalar, ya'ni predmet sohani aks ettirmaydigan obyektlar (jarayonlar) multimediyaviylik darajasini aniqlashda inobatga olinmaydi. Bunga misol qilib tarkibida o'quv kontenti mavjud bo'lmagan boshlang'ich (zastavka, vazifalarni o'rnatish), yakuniy (yakuniy natijani ko'rsatish, navbatdagi modullarni ko'rsatib, seans tugashini qayd qilish) va boshqa yordamchi ko'rinishlarni keltirish mumkin.

ETRda foydalanilgan barcha matnli va audiovizual ma'lumotlar ochiq litsenziyali bo'lishi kerak. Ochiq litsenziyali ma'lumot deganda, muallifning mualliflik huquqini buzmaydigan, erkin ko'paytirilishi, tarqatilishi va modifikatsiyalanishi mumkin bo'lgan ma'lumot tushuniladi. Video ma'lumot yoki animatsiyadan tushunilishi qiyin bo'lgan grafik yoki oddiy matnli ma'lumotlar bo'limida foydalanish kerak. Videoklip vaqt masshtabini o'zgartirishi, tezlashtirilgan, sekinlashtirilgan holda taqdim etilishini inobatga olish kerak.

Video ma'lumotga statik video ketma-ketlik (grafika – chizilgan tasvir va rasm) va dinamik ketma-ketlik (oddiy video - sekundiga 25 ga yaqin foto/kadr, kvazi video - sekundiga 6 dan 12 gacha rasiqli animatsiya). Obyektning yorug'ligi va tiniqligi tasvirni aniq idrok qilish imkonini berishi kerak. Tasvimga nisbatan kontrastligini obyektning hajmini hisobga olgan holda tanlash kerak (hajm qancha kichkina bo'lsa kontrast shuncha yuqori bo'ladi). Video

chastotasini soniyasiga 25 kadr etib (frame rate) kodlashtirish (yozish) umumiy talab hisoblanadi. Faqat aks ettiriluvchi voqealarning qisqa dinamikasida qayta tiklash chastotasining pasayishi mumkin. Bundan tashqari 2D/3D sintezlangan vizual ma'lumot uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- kadr o'lchovi tasvirdagi "pirpirash" bartaraf etilgan holatda mantiqiy tarkibdan kelib chiqib tanlanishi kerak;
 - piipirash effektidan foydalanilganda element chastotasiga 1-3Gts atrofida kuch berish kerak;
 - 3D tasvirlar uchun matn ko'rinishi sifati diqqat bilan tekshiruvdan o'tkazilishi lozim. Tovushli ma'lumot turli analog va raqamli tashuvchilar, shuningdek original diktorlik matni, musiqa yozuvlaridan foydalaniladigan manbalardan hosil qilinishi mumkin.
- ETRning ovozli fragmentlarida quyidagi nuqsonlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi:
- fondagi shovqin, diet tovushni keltirib chiqaradigan yot ovozlari;
 - qayta ishlash va yozish jarayonidagi xatolar effektidagi signal bo'lishi;
 - yakuniy yozuv past yoki baland chastotalarga ega bo'lishi;
 - diktorlik nutqidagi bevosita nuqsonlar (duduqlanish, tovushlami noto'g'ri talaffuz qilinishi va boshqalar);
 - keng dinamik diapazon - nutq fragmentidagi past va baland tovush darajalari o'rtasidagi katta farqdan iborat.

Muhokama. Multimedia darslarining aniq bir andozasi bo'lishi zarur deb hisoblashimizga bir nechta sabablarni ko'rsatish mumkin:

multimediali dars atamasining ommalashib, "urf"ga aylanibulgurganiga ancha bo'lsa ham, bunday darslarni yaratish va tashkil etishda AKTni qo'llash ma'yorlarining buzilishi, multimedia darslarini tayyorlashga muayyan tajriba yetishmasligi, yetarli metodika, to'g'riroq'i metodologiyaga ehtiyoj katta bo'layotganligidir. Shuningdek, axborot kommunikatsiya vositalarining uzluksiz yangilanayotganligi ham muhim sabablardan biridir. Ta'lim bozoriga kirib kelayotgan vositalar: interaktiv doska, interaktiv ko'rsatkich tayyoqchasi va h.k.

O'qituvchilarda multimedia darslarini tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, amaliy maslahatlarga ehtiyoj katta. Multimedia darslarining samarali o'tishi eng avvalo, dars maqsadini to'g'ri belgilab olishga bogliq bo'ladi.

- Darsda yangi mavzuni o'rganish zarurmi?
- O'rganilgan mavzuni mustahkamlashga qaratilganmi?
- Bilim, malaka va ko'nikmalarni takrorlashga mo'ljallanganmi?
- Mustahkamlash darsi uchunmi?

Ana shu maqsadga mos tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar ham nazarda tutiladi. Shu maqsadlardan kelib chiqib o'qituvchi dars shakli va metodlarini, o'qitish texnologiyalarini, pedagogik texnika usullarini tanlaydi.

Multimediali dars yuqori darajadagi samaraga erishish vositasiga aylanishi uchun har xil slaydlarning yig'indisi emas, balki bir butun mahsulotga aylanishi kerak. Pedagog va o'quvchilar, o'quv materiallari, jihozlar va texnologiya kabi resurslar yig'indisiga ega bo'lgan ta'lim muhiti haqida gap borar ekan, axborot texnologiyalari bilan ishlash jarayonida talabalarning funksional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Pedagoglarning imkon qadar ko'proq ma'lumotlarni yoritishga intilishi talabani ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. Ekran ortiqcha ko'rgazmalilikka to'ldirish dars samaradorligiga putur yetkazadi. Ma'lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma'lumotlarni o'zlashtirish sifatining pasayishiga, xatolar sonining ortib borishiga, talabani o'zini his qilishi va sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchidan:

- ko'rish organlariga tushadigan yuklamani hisobga olish;
- yangiliklarni qabul qilishda yuzaga keluvchi ruhiy ko'tarinkilik darajasini e'tiborga olish;

- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik va xatoliklar tufayli salbiy hissiyotlarning to'planib borishini inobatga olish;

- katta miqdordagi, hajmdagi ta'limiy resurslarni qabul qilish undan keyingi axborot resurslarini faol o'zlashtirishga to'sqinlik qilishini nazarda tutish taqozo qilinadi.

Texnik vositalardan aql bilan foydalanish, muammoli vaziyatlarni o'quv topshiriqiga aylantirishni uddalay olish AKTdan foydalanish me'yori buzmaslikning oldini oladi. O'qituvchilarning ko'p yillik tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, darsda yuzaga keladigan tartibbuzarlik o'qituvchining o'ziga bog'liq bo'lmoqda. Agar talaba darsda nima bilan band bo'lishni bilmasa, u darsdan uzoqlashadi, qandaydir ko'ngilsizliklar yuzaga keladi.

AKT asosida didaktik materiallar tayyorlash va dars tashkil qilishda didaktik materialni o'zlashtirgan talaba nimani bajara olishi kerakligi oldindan rejalashtirilishi zarur. Bajariishi lozim bo'lgan topshiriqlar uchun aniq shart, ko'rsatma talab qilinadi. Ana shu shart asosida ta'lim oluvchilar rioya qilishi kerak bo'lgan aniq talablardan bin - vaqt me'yori va baholash mezoni taqozo qilinadi.

O'quv topshiriqlarini tuzishda fe'llardan to'g'ri va o'rinni foydalanish zarur: yozing, sanab bering, ajrating, tanlang, ko'rsating, moslashtiring, belgilang va sh.k. Topshiriqlar o'qituvchi tomonidan yoki elektron o'qituvchi tomonidan og'zaki berilishi va ayni vaqtda ekranda yozib qo'yilishi uning bajarilishini yengillashtirishi mumkin. Taqdimotlar tayyorlash mashaqqatli ish: slayddagi faol o'rinni belgilash va axborotni joylashtirish, boshqaruvchi tugmalarni joylashtirish va b. Odatda ekranning chap tomoni yuqori qismiga e'tibor ko'proq berilishi mumkin. Shuning uchun mutaxassislar asosiy axborotni yoki topshiriqni ana shu qismga joylashtirishni tavsiya qilishadi.

Grafikaga qo'yiladigan umumiy talablar:

1. Statik chizma va rasm, sxema, xaritalardan foydalanishda uning rangli palitrasi va mashtabini hisobga olish kerak.

2. Tasvirlash uchun rang tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- e'tiborni birinchi o'rinda qizil va ko'k ranglar, keyin sariq, yashil va oq ranglar tortishini;

- maksimal aniqlik talab qiluvchi kichik grafik elementlarni bo'yashda ko'k rangdan emas, balki sarg'ish yashil, sariq va to'q sariq ranglardan ko'p foydalaniladi, ko'k rangdan esa grafik elementlarni yoritishda ajratib ko'rsatuvchi sifatida foydalaniladi;

- qizil rang - xavf-xatar rangi, yashil - norma va h.k;

- yomon ta'sir etuvchi to'q binafsha rang, to'q yashil, och sariq, sarg'ish yashil, och pushti va ayrim boshqa ranglar birikmasidan foydalanishga yo'l qo'ymasligi taklif etiladi.

3. Tasvir uchun rang tanlashda imkon qadar yorug' ranglar kontrastidan voz kechib, me'yoriy ranglar kontrastiga almashtirish kerak.

4. Tasvir uchun rang tanlashda quyidagilarni inobatga olish kerak:

- muhim bo'limlar uchun qizil va ko'k ranglar;

- tasvir tiniqligi uchun sarg'ish yashil, sariq va to'q sariq ranglardan, ko'k rangdan esa grafik elementlarni yoritishda foydalanish kerak.

5. Alohida darchada ochiluvchi grafika foydalanuvchi ixtiyoriga qarab ochilishi va yopilishi kerak.

Ekranni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar.

1. Ekranda matn joylashuvi kengligi quyidagi talablarga mos kelishi kerak:

- ekranning taxminan yarmi bo'sh qolishi;

- jadvalda har beshinchi satrdan keyin bo'sh satr qoldirilishi;

- jadval ustunlari orasida 4 yoki 5 probel qoldirilishi.

2. Matn qismlari joylashtirilganda, ekranda foydalanuvchi nigohining yo'nalishi odatiy tarzda bo'tishi kerak.

3. Jadval hoshiyalari ma'lumotning gorizontaal yoki vertical tomonida joylashishi kerak.

4. Menyu, katta bo'lmagan ma'lumotlar jamlanmasi ekranning yuqori chap qismida joylashi shi kerak.

5. Bir turdagi ma'lumot doim faqat bir joyda aks ettirilishi kerak.

6. Tasviring yorug'ligi o'zgaruvchan bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Elektron shaklga o'tkaziladigan ta'lim resurslarga texnik talablar:

1. Hujjatlarning elektron nusxasiga qo'yiladigan minimal texnik talablar.

1. Bir hujjat doirasida sahifalar nusxasiga yagona o'lcham qo'llash zarur. Bir formatdagi sahifalarning barcha shakllarining balandligi va kengligi bir xil o'lchamda bo'lishi lozim. Skaner qilingan manba sahifalarining asosiy qismidan o'lchami bo'yicha farq qiluvchi katta yoki kichik formatdagi sahifalar shakllari o'zining original o'lchamini saqlab qolishi lozim.

2. Normal hujjatlar uchun - 300 dpi o'lcham, juda yomon asl nusxa uchun undan yuqori o'lcham tanlanishi mumkin.

3. TIF/TIFF formati uchun LZW (Lempel-Ziv-Welch) kompressoridan foydalaniladi - bu ma'lumotlarni yo'qotishsiz siqishning universal algoritmiga asoslangan vosita hisoblanadi.

4. Kitoblardagi sahifalar soni bo'sh teskari tomonlar bilan juft hisoblanishi zarur.

5. Sahifa nusxasida sahifa raqami tasviri bo'lishi kerak, ya'ni har qanday holatda ham sahifa chetini kesmasdan maydonni qirqish talab qilinadi.

6. Hujjatlarning elektron nusxalarini omborga (xranilish) joylashtirishga tayyorlash (verifikatsiya, ishlov berish va aniqlash).

Xulosa. Ta'limda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni yanada kengaytirish masalasi davlat ta'lim tizimining muhim vazifalari sanalayotgan bo'lsa ham, o'qituvchilarning aksariyati hozirgi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanish deganda kompyuterning matn muharriridan, Power Point dasturidan foydalanishni tushunadilar. Bunga qo'shimcha video va audio materiallarni taqdimotda giper murojaat tarzida taqdim qilish bilan kifoyalanishadi. Aslida fanlarni o'qitishda ta'lim samaradorligiga yordam beradigan bir qancha amaliy dasturlar yaratilganki, o'qituvchilar bu dasturlarning afzalliklaridan deyarli bexabar. Ayniqsa, Microsoft Word, Microsoft Power Point, iSpring, MtestX, Microsoft Office Publisher, HotPotatoes, Excel, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media va boshqa amaliy dasturlaridan foydalanish o'qituvchining axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyatini egallaganligini namoyon qiluvchi alohida ko'rsatkich sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abduqodirov A.A., Xasanov B.A. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2022. – 204 b.

2. Xodjaeva N.X. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 188 b.

3. Tursunov B.Yu. Raqamli ta'lim muhitida talabalar mustaqil ishlashini tashkil etishning pedagogik asoslari. // Pedagogik ta'lim va fanlar jurnali. – 2023. – №2. – B. 85–91.

4. Курбонов А.Қ. Кредит-модуль тизими: назария ва амалиёт. – Тошкент: ИЛМ, 2020. – 160 б.

5. Шарипов Ф.Р. Инновационная педагогика и цифровые технологии. – Ташкент: Мухаррир, 2022. – 142 с.

6. European Commission. ECTS Users' Guide. – Brussels: Directorate-General for Education, Youth, Sport and Culture, 2015. – 82 p.

7. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 116 p.

8. Anderson, T., & Dron, J. Teaching Crowds: Learning and Social Media. – Edmonton: AU Press, 2014. – 290 p.

Xushvaqto Umar Norqobilovich,
“O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi” Surxondaryo viloyati
hududiy sho‘basi bosh mutaxassisi
g-mail: aabdusamatov912@gmail.com

TA'LIM JARAYONIDA FAOLIYATLI YONDASHUV ORQALI IMPERATIV ALGORITMIK TAFAKKURNI MONITORING QILISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarga algoritmik tillar va dasturlash asoslari fanini o‘qitishning umumiy xususiyatlari shu bilan birga dasturlash asoslari ta’limida metodik innovatsiyalarning mazmun-mohiyati haqida fikrlar yuritilgan, Algoritmik faoliyatni o‘zlashtirish, algoritmlarni yaratish va ularni bajarish ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchi mustaqil ravishda hal qila oladigan amaliy masalalar sinfini kengaytirish imkonini berishi, algoritmik tillarga oid manbalarning nazariy va amaliy aspektlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: talabalar, algoritmik tillar, dasturlash asoslari, innovatsiya, fanini o‘qitishdagi o‘ziga xos xususiyatlari, yangilanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются общие особенности преподавания студентам дисциплины "Алгоритмические языки и основы программирования", а также освещается сущность методических инноваций в обучении основам программирования. Анализируется процесс освоения алгоритмической деятельности, формирование навыков создания и выполнения алгоритмов, что расширяет класс практических задач, которые студенты могут самостоятельно решать. Внимательное внимание уделяется теоретическим и практическим аспектам источников, связанных с алгоритмическими языками. Представлены рекомендации по эффективному мониторингу и оценке развития императивного алгоритмического мышления на основе деятельностного подхода.

Ключевые слова: студенты, алгоритмические языки, основы программирования, инновации, особенности преподавания, обновления.

Abstract. This article discusses the general characteristics of teaching students the course "Algorithmic Languages and Fundamentals of Programming" and highlights the essence of methodological innovations in programming education. It analyzes the process of mastering algorithmic activity, developing skills in creating and executing algorithms, which expands the range of practical problems students can independently solve. The theoretical and practical aspects of sources related to algorithmic languages are thoroughly examined. Recommendations are provided for the effective monitoring and assessment of the development of imperative algorithmic thinking based on an activity-based approach.

Key words: students, algorithmic languages, fundamentals of programming, innovation, teaching characteristics, updates.

Kirish. Yurtimizda barqaror, samarali va sifatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu yosh bilimli, inteluktual va malakali mutaxassislarini tayyorlashdir.

Maqolamizda “Algoritmlash” bo’limini o’rganishda imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirish uchun faoliyatli yondashuvni amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida empirik vazialardan foydalanish zarurati asoslangan.

O‘qitish – axborotni idrok etish, eslab qolish va ajratib olishning axborot jarayonlari to’plamidir. Shu bilan birga, o‘qitishni faoliyatsiz amalga oshirib bo‘lmaydi, shuning uchun u “o‘quv xarakterdagi axborotni uzatishga emas, balki kerakli bilimlarni samarali o‘zlashtira oladigan tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak” [1, 306-b]. O‘quvchi faoliyat ko‘rsatuvchi sifatida, o‘qituvchi esa o‘quv jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida chiqadigan ta’lim yondashuvi pedagogikada tizimli-faoliyatli yondashuv deb ataladi va Davlat

ta'lim standartining asosi bo'lib hisoblanadi. Mazkur yondashuv "o'quvchilarning individual yoshi, psixologik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz ta'lim olishga tayyorlikni shakllantirishni ta'minlash, o'quvchilarning rivojlanishi uchun ijtimoiy muhitni loyihalash va qurish" maqsadini olgan [3, 153-b].

Davlat ta'lim standartiga muvofiq, imperativ algoritmik tafakkur informatika fanini o'qitish, shaxsiy va meta-fan o'qitishning fanga asoslangan natijasi bo'lganligi sababli, pedagogik ta'sir ob'ekti bo'lib o'quvchining shaxsi va uning tafakkuri hisoblanadi. Pedagoglar aynan o'quvchilarning tafakkuriga ta'sir qilish vositalarini tanlashlari, o'quv-bilish "faoliyat sub'ektining o'zida o'zgarishlarga olib keladigan o'quvchilarning bilim olish va uni qo'llash usullarini o'zlashtirishga qaratilgan motivatsiyalangan, maqsadli, mustaqil faoliyatini tashkil etishlari kerak" [6, 481-b].

Adabiyotlar tahlili. Mazkur yondashuvga ko'ra, o'quvchi tafakkuri rivojlanishining asosi o'qitish mazmuni bilan emas, balki uni o'zlashtirish faoliyati bilan ko'proq bog'liq va shuning uchun o'qitishning tashkiliy tarkibiy qismiga bog'langan bo'ladi.

Faoliyat yondashuvining tamoyillari va IAT ni rivojlantirish shartlari

| | |
|---|---|
| Faoliyatli yondashuv tamoyili | Imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirish shartlari |
| Faoliyat tamoyili. Bilim aniq shaklda berilmaydi, uni o'quvchi o'zi ta'lim faoliyati orqali oladi. | Namuna va murakkabroq konstruktiviy algoritmni yaratish uchun vazifalardan foydalanish |
| Yaxlitlik tamoyili. Atrofdagi voqelikka yaxlit nuqtai nazarni shakllantirish. | Algoritmik mohiyatni nazarda tutish, algoritmni tuzish bo'yicha amaliyotga yo'naltirilgan vazifalar. |
| Minimaks tamoyili. O'quvchilarga ta'lim mazmunini ular uchun maksimum darajasida egallash va uni ijtimoiy xavfsiz minimum darajasida o'zlashtirish imkoniyati beriladi. | O'quv jarayonida tabaqalashtirilgan topshiriqlarni qo'llash |
| Psixologik qulaylik tamoyili | Do'stona muhit, mental sxemalardan va algoritmni norasmiy qayd etishdan foydalanish |
| Variativlik tamoyili. Tanlov vaziyatini yaratishvazifani bajarish variativligi. | Bitta vazifani bajarish uchun bir nechta algoritmni ko'rib chiqish, optimal algoritmni topish imkoniyatini tushunish. |
| Ijodkorlik tamoyili. Har bir o'quvchiga o'z ijodiy ibtidosni namoyon qilish imkoniyatini berish | Nostandart algoritmni yaratish. |

O'qitishda faoliyatli yondashuv "inson ruhiyati uning faoliyati bilan uzviy bog'liqligi va uning faoliyati bilan shartlanganligi haqidagi printsipl qoidaga asoslanadi" [9, 14-b], shuningdek, "o'quv jarayonining asosiy psixologik shartlari va mexanizmlarini, o'quvchilarning ta'lim faoliyatining tuzilishini eng to'liq tavsiflaydi" [8, 200-b]. Quyidagi - jadvalda faoliyatli yondashuv tamoyillari va imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirish shartlari o'rtasidagi muvofiqlik keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Tafakkurni, jumladan, algoritmik tafakkurni rivojlantirishning asosiy sharti – faoliyatdir. Faoliyatli yondashuvning mohiyati shaxsning ahamiyatini tan olishdan, bilimlarni mustaqil egallashdan, pedagog tomonidan boshqariladigan birgalikdagi va individual faoliyatdan iborat. IATni rivojlantirishning samarali usulini ishlab chiqish uchun o'quvchilarning empirik tajribasiga asoslangan faoliyat komponentini hisobga olish kerak. Faoliyat "shaxs rivojlanishining asosi, vositasi va hal qiluvchi sharti" [4, 199-b], "insonning

atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabati jarayonida namoyon bo'ladigan va bu o'zaro ta'sir hayotiy muammolarni hal qilishga mo'ljallangan faoliyati" [9, 14-b] sifatida qaraladi.

Imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirish uchun bilish faoliyatida quyidagi bosqichlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega: "muammoni sezish, shartlarni o'rganish, ehtimolli yechimni shakllantirish va uni avval aqlda ishlab chiqish, so'ngra harakatda tajriba yo'li bilan tekshirish" [8, 412-b]. Mazkur g'oya P.Ya. Gal'perin aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasiga mos kelib [2, 307-b], unda keltirilgan tashqi bilish harakatini ichki harakatga aylantirish mexanizmidagi quyidagi fikrlash bosqichlarini ko'rib chiqiladi:

1. Kutilmagan holat bilan to'qnashish (vazifaning nostandart shartlari yoki topshiriq matnini taqdim etishning noodatiy shakli, hali shakllantirilmagan vazifaga jalb qilish).

2. Vazifani shakllantirish.

3. Yechim namunalari (vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni dolzarblashtirish, ma'lum bo'lgan algoritmlardan foydalanishga urinish).

4. Yechimga birdaniga kelish (echish usulini aniqlash, bu ba'zan bir nechta kichik vazifalarni bajarishni talab qiladi, masalan, yordamchi algoritmlardan foydalanish).

5. Tekshiruv bosqichi (tuzilgan algoritm samaradorligini, o'zgartirilgan dastlabki ma'lumotlar bilan uning to'g'ri ishlashini isbotlash).

Dastlabki uch bosqich tayyorgarlik bosqichidir, chunki tafakkurning rivojlanishi faqat oxirgi bosqichlarda sodir bo'ladi.

Muhokama. Barcha o'quv faoliyati mohiyatan o'quv vazifalarini bajarish jarayoni bo'lib, ular "o'quv materialini o'zlashtirishni, o'quvchilarning intellektual rivojlanishini, ularning biluv ehtiyojlarni qondirishni ta'minlaydigan maxsus metodik vosita bo'lib xizmat qiladi". O'quv vazifalari asosida o'qitish ta'lim ahamiyatini o'quvchilarning mavzu materialini tinglashdan ularning o'quv faoliyati va tafakkurini rivojlantirishga o'tkazadi [6, 53]. V.V. Davыdov fikriga ko'ra, o'quv vazifasi "maktab o'quvchilarining tafakkurini hali noma'lum narsalarni tushuntirishga, yangi tushunchalar va harakat usullarini o'zlashtirishga undaydi" [5, 29-b]. "Vazifalar nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, o'rganilayotgan qonuniyatlarni qo'llashga o'rgatishga yordam berishi, balki ko'proq aqliy faoliyatning tadqiqot uslubini shakllantirishi kerak" [7, 7-b].

O'quv vazifasi ostida

- S.A. Rubinshteyn – muammoning og'zaki shakllantirishni,

- A.P. Leont'ev – muayyan sharoitlarda berilgan maqsadni,

- A.V. Brushlinskiy – amaliy yoki nazariy qiyinchilikdan kelib chiqadigan, shartlar va talablar ta'kidlangan og'zaki rasmiylashtirilgan muammoni nazarda tutgan [2, 112].

- "ko'proq yoki kamroq darajada aniqlangan axborot jarayonlari tizimlari" sifatida belgilab, "ularning o'zaro nomuvofiqligi yoki hatto qarama-qarshi nisbati ularni o'zgartirish zaruriyatini keltirib chiqaradi" deb ta'riflangan [4, 7-b].

Tadqiqotchilarning ta'riflariga asoslanib ta'kidlash mumkinki, o'quv vazifasi har doim o'quvchining rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, mohiyatiga ko'ra, ma'lumotlarning bir qismi ma'lum (belgilangan), ikkinchisi esa noma'lum (topish kerak) bo'lgan ob'ekt yoki hodisa haqida ma'lumotlarning murakkab tizimini ifodalaydi. Algoritmik vazifa – yechimi natijasida tuzilgan algoritm olinadigan vazifadir.

O'quv vazifasi tuzilmasida quyidagi komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin: majburiy shart – dastlabki ma'lumotlar va ularning o'zaro bog'liqligi, savol – vazifa ob'ektining talab qilinadigan holati modeli. O'quv vazifasi topshirig'ining tarkibini batafsil ko'rib chiqilib, uning tarkibidagi quyidagi komponentlarni ajratib ko'rsatilgan:

- fan sohasi – ko'rib chiqilayotgan belgilangan ob'ektlar sinfi;

- bu ob'ektlarni bog'laydigan aloqalar;

- vazifa talabi – vazifani yechish maqsadi, ya'ni yechish jarayonida aniqlanishi kerak bo'lgan narsa;

- vazifa operatori – vazifani yechish uchun vazifa shartlari (dastlabki ma'lumotlari) bo'yicha bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar (operatsiyalar) majmui [1].

Vazifani yechish jarayoni noma'lum axborotni aniqlashni, yangi bilimlarni, harakat usullarini izlashni yoki mavjud bilimlarni muvofiqlashtirish va o'zaro bog'lashni nazarda tutadi. V.V. Davıdov o'quv vazifasini yechish jarayonini tashkil etishni ko'rib chiqib, uni quyidagi tarkibiy qismlar shaklida taqdim etadi:

- o'quv vazifasini o'qituvchidan qabul qilish yoki mustaqil ravishda belgilash;
- o'rganilayotgan ob'ektning o'zaro aloqalarini aniqlash uchun vazifa shartlarini o'zgartirish;
- aloqalarni predmet, grafik va belgisi shakllarda modellashtirish;
- umumiy usulda yechiladigan vazifalarni ajratib ko'rsatish;
- oldingi harakatlarning bajarilishini nazorat qilish;
- berilgan o'quv vazifasini yechish natijasida umumiy yechim usulini o'zlashtirishni baholash [3].

O'quv vazifalarini yechishda o'zlashtirish natijasi bo'lib nafaqat o'qituvchi tomonidan berilgan namunalarni takrorlash qobiliyati, balki yechimni mustaqil ravishda izlash jarayoni ham hisoblanadi. Vazifalarni yechish jarayonida yuzaga keladigan o'quv muloqoti “uning ishtirokchilari o'rtasida maxsus boshqariladigan axborot almashinuvi” bo'lib hisoblanadi.

Vazifalarni yechish vositalari bo'lib quyidagilar bo'lishi mumkin: o'quvchilar tomonidan qo'llaniladigan bilimlar, formulalar, sxemalar, matnlar va shu kabilar. “Algoritmash” bo'limini o'rganishda asosiy maqsad shundaki, vazifalar yordamida o'quvchi nafaqat algoritmning asosiy turlarini (tarmoqlash, takrorlanishlar soni ma'lum va noma'lum bo'lgan sikllar) o'zlashtirishi, har xil turdagi ma'lumotlardan foydalanish va qayta ishlashni o'rganishi, balki vazifani yechish jarayoni imperativ algoritmik tafakkurini rivojlantirishga yordam berishi kerak.

Asosiy algoritmik ko'nikmalar bo'lib algoritmni yaratish va bajarish ko'nikmalari hisoblanadi. “Algoritmash” bo'limi ijrochi tushunchasiga asoslanadi. Ko'rinib turibdiki, “Algoritmash” bo'limining mazmun-tartib komponentini o'zlashtirish o'quvchi “ushbu tushunchani (“ijrochi”, “talqin qiluvchi” va hok.) shakllantirish jarayonida sub'ekt o'ynagan rolini” o'ziga olish faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirish jihatlaridan birini – taklif qilingan algoritmni bajarish qobiliyatini, shuningdek, vazifani yechish bo'yicha harakatlar rejasini mustaqil ravishda tuzish va amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi. Shu bilan birga, IATni rivojlantirish haqida gapirganda, bosqichlar ketma-ketligini hisobga olish kerak – oldingi bosqichni tugatmasdan keyingi bosqichni bajarishni o'tish mumkin emas.

Xulosa. Ijrochilarni boshqarish algoritmik tilning modifikatsiyalariga asoslanadi. Har qanday vazifani, shu jumladan o'quv ijrochisining boshqarish vazifasini yechish “tasvirlar bilan ichki harakatlar natijasida yuzaga keladi”. Shuning uchun algoritmik masalalarni yechish usullarini o'rgatishda, mavhum g'oyani natijaga erishishga olib keladigan bosqichlar va harakatlarning yakuniy ketma-ketligiga aylantirish ko'nikmasini shakllantirishni nazarda tutgan algoritmash bo'limini o'zlashtirishda tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bevosita algoritmik vazifalarni yechishda o'quvchini “echimni to'satdan ko'rib chiqishga” o'rgatish kerak, buning uchun esa maktab o'quvchilarining faoliyatini “o'zlashtiriladigan harakat usullarini nafaqat ijro etuvchi, balki yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi komponentlarini” amalga oshirish orqali to'g'ri tashkil etish muhimdir, faqat shundagina tafakkurning rivojlanishiga erishib bo'ladi.

Yana bir muhim jihat – o'quvchilarning algoritmni “ko'rish” va harakatlarning algoritmik mohiyatini tushunish ko'nikmasidir. Buning uchun mashg'ulotlarda turli xil ovqatlarni tayyorlash, maishiy texnika va hok. ishlatish uchun qulay va tushunarli algoritmni ko'rib chiqish mumkin. Bunday algoritmni yaratish, ya'ni algoritmni yaratish bo'yicha

aqliy vazifalarni yechish orqali o'quvchilar o'zlarining hayotiy tajribasidan bilim sifatida foydalanadilar.

O'quv vazifasini mazmunli tahlil qilish, uning ilgari yechilgan vazifalar guruhi bilan o'zaro bog'lash tegishli yechim usulini tanlashga olib keladi, imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirish uchun zarur, ammo yetarli bo'lmagan sharti bo'lib hisoblanadi. Ko'p sonli bir turdagi vazifalar tayyor modelga muvofiq harakatlanish ko'rsatmasini yaratadi, muammoning yechimini izlashni (kerakli algoritmi yaratishni) ilgari ma'lum bo'lgan vazifalar doirasida cheklab qo'yadi, bunda "avvalgi tajriba to'sig'i" paydo bo'ladi, yoki "harakatni uning dastlabki shakllaridan birida avtomatlashtirish uning genetik jihatdan keyingi shakllarga o'tishiga to'sqinlik qiladi". Algoritmarni ishlab chiqishda yana bir jihat shundaki, o'quvchilar "yangi dastlabki ma'lumotlar algoritmi bajarilishining yakuniy natijasiga qanday ta'sir qilganini kuzata olishlari kerak".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Югфельд И. А. Подготовка будущих учителей к использованию игровых технологий в процессе изучения психолого-педагогических дисциплин //URL: <https://www.disscat.com/content/podgotovka-budushchikhuchitelei-k-ispolzovaniyu-igrovykh-tekhnologii-v-protssesse-izucheniya> Zagatskaya TS. – 2007. – С. 13.
2. Орлов С. А. Технологии разработки программного обеспечения //СПб.: Питер. – 2002. – Т. 464. – С. 21.
3. Макконнелл С. Профессиональная разработка программного обеспечения //СПб.: Символ-Плюс. – 2006. – С. 82.
4. Лафоре Р. Объектно-ориентированное программирование в C++:[пер. с англ.]. – Издательский дом" Питер", 2013. – С. 6.
5. Sancho P., Fuentes-Fernández R., Fernández-Manjón B. NUCLEO: Adaptive computer supported collaborative learning in a role game based scenario //2008 Eighth IEEE International Conference on Advanced Learning Technologies. – IEEE, 2008. – С. 671-675.
6. Волчинская Е.К. Информационные технологии и право. М.: Информатика, 2000.
7. Алферов А.П. Статья "Компьютерные сети. Интернет". Информатика: Сборник нормативно-методических материалов 1998г. Ростов-на-Дону, 1998
8. Попов С.В., Трифонова Е.Е. Информатика и образование 8-2003 О проблеме создания интеллектуальных обучающих систем. Под ред. Иванова Т. В Москва 2003
9. Лапчик М.П. и др. Методика преподавания информатики: Учебное пособие для студентов педагогических вузов. - М.: Издательский центр Академия, 2001.

Djurayeva Salomat Nabiyevna,
Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. O'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda interfaol metodlar – munozara, rolli o'yin va folklor materiallaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, o'quv dasturlarida milliy qadriyatlarning o'rni, darsdan tashqari faoliyatlar va ota-ona hamkorligi misolida tarbiyaviy jarayon boyitilishi mumkinligi ta'kidlangan. Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarga tayanish orqali yosh avlodda vatanparvarlik, axloqiylik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish zarurligini asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, boshlang'ich ta'lim, tarbiya, interfaol metodlar, folklor, vatanparvarlik.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты воспитания учеников начальных классов на основе национальных ценностей. Особое внимание уделяется учёту возрастных особенностей младших школьников и эффективности использования интерактивных методов – дискуссий, ролевых игр и фольклорных материалов. Также подчёркивается значение национальных ценностей в образовательных программах, внеурочной деятельности и сотрудничестве с родителями. Делается вывод о том, что опора на национальные ценности в начальном образовании способствует формированию у подрастающего поколения патриотизма, нравственности и социальной ответственности.

Ключевые слова: национальные ценности, начальное образование, воспитание, интерактивные методы, фольклор, патриотизм.

Abstract. The article explores the theoretical and practical aspects of educating primary school pupils based on national values.. The paper highlights the importance of considering the age-specific characteristics of younger pupils and demonstrates the effectiveness of interactive methods such as discussions, role-playing and the use of folklore materials. It also emphasizes the integration of national values into curricula, extracurricular activities, and collaboration with parents. The study concludes that grounding primary education in national values fosters patriotism, morality, and social responsibility among the younger generation.

Key words: national values, primary education, upbringing, interactive methods, folklore, patriotism.

Kirish. Zamonaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Qadriyatlar – insoniyat taraqqiyotida yillar davomida shakllangan axloqiy-ma'naviy me'yorlar, an'ana va an'larni o'zida jamlagan tushuncha sifatida qaraladi. Masalan, milliy qadriyatlar har bir millatning o'ziga xos madaniy merosxonasiga qo'shgan hissasini ifodalaydi; ular til, adabiyot, san'at, tarixiy xotira va urf-odatlarda namoyon bo'ladi. O'zbek maktablarida esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni nafaqat savodli qilib tarbiyalash, balki ularni el-yurtga sadoqatli, axloqiy-odobli, milliy urf-odatlarga hurmat bilan munosabatda bo'luvchi shaxslar qilib shakllantirish vazifasini bajaradi. Mazkur bosqichda yosh bolalarga ona tili, tarix, adabiyot kabi fanlar orqali ulug' ajdodlar, xalq merosi va milliy qadriyatlar namunalari yetkaziladi. Shu bois, boshlang'ich sinflardagi tarbiya milliy g'oya va ma'naviyat tamoyillariga asoslangan holda olib borilishi lozim.

Har bir xalqning taraqqiyoti, milliy o'zligining shakllanishi va kelajagi, avvalo, yosh avlodni tarbiyalash masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Inson shaxsining barkamollikka erishishi, ijtimoiy hayotda faol o'rin egallashi va o'z millatini dunyo miqyosida tanita olishi

uchun tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar ustuvor o'rin tutishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasida yoshlarni milliy an'ana va urf-odatlar, tarixiy meros hamda ajdodlarimizning bebaho tajribasi asosida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Boshlang'ich ta'lim davri bolaning dunyoqarashi, xarakteri, bilimga qiziqishi va eng muhimi, tarbiyaviy qarashlari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu jarayonda o'qituvchi va ota-onaning vazifasi nafaqat o'quvchilarga ilmiy bilim berish, balki ularda milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, ajdodlarga sadoqat, mehr-oqibat, hamjihatlik va mas'uliyat kabi xislatlarni uyg'otishdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashning eng samarali omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan an'analari, urf-odatlari, marosimlari, udumlari, til boyligi, adabiyoti, san'ati va madaniyatini o'zida mujassamlashtiradi. Bu qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, yoshlarni vatanparvar, komil inson qilib tarbiyalashda asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga xalq og'zaki ijodi, maqol va matallar, ertaklar, rivoyatlar, milliy o'yinlar va marosimlar orqali singdiriladigan qadriyatlar ularning shaxs sifatida shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya yanada dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki turli g'oyaviy xurujlar, begona madaniy oqimlarning yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli maktab ta'limi jarayonida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash nafaqat o'quvchilarning milliy g'ururini shakllantiradi, balki ularni yot g'oyalar ta'siridan asraydi, mustaqil fikrlovchi, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib yetishishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, Prezidentimizning yoshlarga oid qarashlari, ta'lim-tarbiya tizimiga qaratayotgan e'tibori hamda "Yangi O'zbekiston – ma'naviyati yuksak, ozod va farovon mamlakat" degan g'oya boshlang'ich sinflardanoq yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ota-onalar va pedagogik jamoatchilik zimmasiga bu borada katta mas'uliyat yuklanmoqda.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash – ularning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlash, milliy o'zlikni anglash hissini uyg'otish, Vatanga sadoqat va kelajak uchun mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Qadriyat tushunchasi aksiologiyaning markaziy kategoriyasidir. Qadriyatlar inson ongida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan predmetlar, hodisalar yoki sifatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ularning mohiyati shundaki, ular jamiyatda orzu-intilishlarni, axloq me'yorlarini, go'zallik va haqiqat g'oyalarini aks ettiradi[1]. Milliy qadriyatlar esa har bir millatning o'ziga xos xususiyat va merosini ifodalovchi qadriyatlardir. Ular o'sha millat ko'tarib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va uning madaniy omboriga qo'shgan ulkan hissani ifodalaydi[1]. Masalan, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ko'pchilik xalqda umumiy bo'lgan universal (umuminsoniy) qadriyatlar bo'lsa, milliy taomlar, bayramlar, urf-odatlar o'zimizga xos qiymatlarga kiradi.

Milliy qadriyatlarni quyidagicha tasniflansa bo'ladi:

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar: Bir tomondan, har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlari, an'analari, ma'naviy merosi mavjud bo'lsa, boshqa tomondan halollik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik kabi ommabop qadriyatlar butun insoniyatga xos. Ikkala tur bir-birini to'ldiradi.

Jamiyat ichidagi ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra: Masalan, ma'lum sinf yoki diniy guruh qadriyatlari. Shuningdek, kasbiy, kasb-hunarga oid qadriyatlar mavjud.

Shaxslar xususiyatlariga ko'ra: Turli yosh guruhleri va kasb egalari uchun ahamiyatli qadriyatlar alohida bo'lishi mumkin (masalan, bolalarga halollik va mehribonlik haqida ertaklar, kattalarga an'anaviy tarbiya qoidalari).

Bu tasniflar yordamida ta'limdoshlarni tarbiyalashda qadriyatlarni to'g'ri yo'naltirish va ularning o'rganilishi tartibi belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarbiyaviy yondashuvlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (6–10 yosh) o'ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlarga ega. Bu yoshdagi bolalar jismonan faolligi yuqori; mushak kuchining oshishi ularni doimiy ravishda yugurishga, sakrashga undaydi va bir joyda uzoq vaqt o'tirish qiyinlashadi. Shu bois darslarda interaktiv va o'yin usullari qo'llanilishi zarur. Ma'lumotlar boyicha, maktabga kirgan bolalar ijtimoiy jihatdan ham katta o'zgarishlarni boshdan kechiradi: ular o'zini mustaqil, mas'uliyatli shaxs sifatida anglashi, yangi sinf jamoasiga moslashishga intilishi kuzatiladi. Ayniqsa 3–4-sinf o'quvchilari sinf jamoasini shakllantirish bosqichida bo'lib, ular orasida tengdosh munosabatlari hamda shaxsiy fazilat va me'yorlarga oid talablar aniqlanadi.

Shu tufayli tarbiyaviy yondashuvlar bolaning umumiy rivojlanishiga va ko'nikmalariga mos bo'lishi lozim. Darslar qisqa muddatli bo'lishi, ko'rgazmali misollar, rolli o'yinlar va konkret topshiriqlar asosida tashkil etilishi kerak. O'yinli, qiziqarli mashg'ulotlar bolaning e'tiborini ushlab turadi. Yosh o'quvchilarning tajriba almashish, guruhda ishlash, muammolarni birgalikda hal etish kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarbiyaviy ishda jamoaviy va interfaol metodlar ustuvor qo'llaniladi. Masalan, diqqatni qisqa fursatga jalb etish uchun multimediyaviy materiallardan yoki rasmi taqdimotlardan foydalanish samarali bo'ladi.

O'quv va tarbiya jarayonida qadriyatlarni chuqur singdirishda turli metod va texnologiyalardan foydalanish kerak. Aksiologik yondashuvda munozara, rolli o'yin va folklor materiallari muhim o'rinni egallaydi.

Munozara (bahs-munozara): O'quvchilarda muloqot va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda foydali metod. Munozara o'quvchilarda boshqalarning fikrini eshitish, bahslarga qo'shilish yoki ularga dalillar bilan e'tiroz bildirish kabi mahoratlarni shakllantiradi[8]. Masalan, ona tilida o'tilayotgan «Vatanimiz bayrog'i» mavzusida sinfda guruhlariga bo'lingan holda fikr almashish munosabati milliy ramzlarning ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Rollar bo'yicha o'yinlar: Sinf muhiti milliy an'analarni jonlantirish uchun maydonga aylanadi. Masalan, Navro'z bayrami mavzusini o'qish darsida rolli o'yin tariqasida o'tkazish mumkin. O'qituvchi 3-sinf darsligida berilgan «Navro'z – bahor bayrami» matnini asos qilib olib, o'quvchilarga dehqon, bobo, onaxon, bahor qahramonlari kabi rollar beradi va bayramni jonli sahnaga ko'taradi[9]. Bu usul orqali bolalar bayram an'analarni his-tuyg'ular bilan o'rganadi va milliy qadriyatlar mazmuni ularda mustahkamlanadi.

Folklor materiallari: Xalq og'zaki ijodi namunalaridan keng foydalanish ahloqiy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda o'ta samarali. Masalan, ertaklar bolalarning tasavvuriga tushunarli tilda ijobiy sifatlarni singdiradi. Xalq ertaklarida vatanparvarlikni ramziy obrazlar orqali yuksak qadrlash, halollik va jasorat kabi fazilatlar ulug'lanadi, yaramas odatlar esa keskin tanqid qilinadi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda milliy g'urur va axloqiy me'yorlarga sodiqlik hissi uyg'onadi.

Yuqoridagi metodlar tarbiyaviy jarayonni boyitib, bolalarning xisoblash, tinglash, ijod qilish va muloqot qilish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol usullar, dramatisatsiya va ertak orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini va faolligini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekistondagi zamonaviy boshlang'ich ta'lim dasturlari milliy madaniy meros, an'ana va qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Masalan, ona tili va adabiyot darsliklarida o'zbek xalqining ertaklari, dostonlari hamda ulug' adiblar asarlari mavjud. Tarix va ma'naviyat darslari orqali ota-bobolar hayoti, tarixiy voqea va shaxslar, milliy urf-odatlar o'quvchilarga

yetkaziladi. Xususan, 3-sinf o'qish kitobida Navro'z bayrami mavzusi berilgan bo'lib, uni boshlang'ich sinf o'qituvchisi murakkab qoidalarga tayanmay, rolli o'yin shaklida o'tishi mumkin[9]. Shu tarzda dars jadvaliga kiritilgan milliy bayram va urf-odat mavzulari yodda qoladi va bolalarda vatanparvarlik tuyg'usi paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'limdan boshlab o'quvchilarga oila tarbiyasidagi milliy qadriyatlar singdiriladi – masalan, Bobomning ertagi, ota-onaning ma'naviy saboqlari. Asosiy maktab 1-4-sinflarida esa “Vatan tuyg'usi”, “Shaxsiyatimiz”, “Ona tilimiz” kabi bloklar orqali doimiy ravishda milliy mazmun tarbiyalanadi. Darsdan tashqari “Milliy ruh” to'garaklari, badiiy kechalar va bayram tadbirlari dasturga kiritilgan bo'lib, ular orqali ham milliy qadriyatlar amaliyotda mustahkamlanadi. Shuningdek, o'qituvchi milliy bayramlarni nishonlash (masalan, Navro'z, Mustaqillik kuni) va ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali o'quvchilarda millatiga bo'lgan hurmatni oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishda xalqimizning boy pedagogik merosini saqlab, zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish zarur. Tajriba ko'rsatadiki, innovatsion metodlardan unumli foydalanganda maqsadli natijaga erishish mumkin. Masalan, interfaol metodlar, komp'yuter prezentatsiyalari, audio-vizual materiallar milliy mavzularni ko'proq qamrab olishga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida “Milliy qadriyatlar” mavzusida qisqa loyihalar, tanlov va viktorinalar o'tkazish ham ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi.

Kirishgan yuqori ma'lumotli pedogog kadrlar tayyorlash muhim. O'qituvchilarga milliy qadriyatlar tarbiya metodologiyasi bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim. Ayni vaqtda ayrim o'qituvchilarning milliy qadriyatlar mohiyatini yetarlicha bilmasligi qayd etilgan; shuning uchun pedagogik ta'limda etik-aksiologik kompetensiyalarni kuchaytirish zarur. Shu maqsadda o'qituvchi har bir mavzuni milliy qadriyatlarga bog'lab o'tishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashi muhim.

Tavsiya etiladiki, boshlangan sinf darslarida doimiy ravishda qadriyatlar to'g'risida munozaralar, rol o'yinlari va ijodiy ishlanmalar uyushtirib borilsin. Oila va maktab hamkorligining kuchaytirilishi ham qadrlil tajriba hisoblanadi: ota-onalar bilan birgalikda xalq og'zaki ijodini, tarixiy obidalarni o'rgatish ishlari o'tkazilsa, bolalarda milliy ruh uyg'onadi. Kichik sinf o'qituvchisi shu tarzda nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy rahbar sifatida bolaga ma'naviy ibrat bo'lib qoladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish nafaqat fuqarolik mas'uliyatini shakllantiradi, balki kelajak avlodni kuchli ma'naviyatli shaxslar qilishning poydevorini yaratadi. Tadqiqot va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi darslarni milliy ruhda tashkil etsa, talabalar muhiti mana-shu qadriyatlar bilan boyitiladi. Shu bois, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda, ona xalqining urf-odat va an'analarini singdiruvchi missiya talab etiladi. Amaliy tavsiyalar sifatida – o'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishi, darslik va o'quv dasturlarini milliy komponent bilan boyitish, hamda xalqimizning boy merosini targ'ib etishga qaratilgan loyihalar joriy etilishi lozim. Bu orqali kichik maktab yoshidagi bolalarni Barkamol avlod etib voyaga yetkazish yo'lida qadriyatlarimiz samarali qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Джураева С.Н. Методы использования современных технологий обучения в начальных классах //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 9 (129). – С. 70-72.
2. Джураева С. Н. Методы формирования инновационных навыков у студентов в процессе урока //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 4-2 (124). – С. 89-92.
3. Nuradinov F., Eshpo'latov B. O'zbek oilalarida o'smir yigitlarni axloqiy tarbiyalashda etnopedagogika elementlaridan foydalanish //Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 6.

Yakubova Gulnoz Madrimbayevna,
Urganch davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi
yagulnozyakubova@gamil.com

FASILITATORLIK YONDASHUVINING MAKTABGA TAYYORLOV BOSQICHIDAGI O'QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada fasilitatorlik yondashuvining maktabga tayyorlov bosqichidagi tarbiyalanuvchilarning savodxonligini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Fasilitatorlik yondashuvi mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi innovatsion xususiyatlari ochib berilgan. Tayyorlov guruhidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari e'tiborga olingan holda, savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Savodxonlik tushunchasiga zamonaviy ta'limiy yondashuvlar asosida izoh berilgan. Fasilitator o'qituvchining o'quvchilarni rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi roli asoslab berilgan. Maqolada bolalarning mustaqil fikrlash va o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda fasilitatorlik usulining afzalliklari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari, bu yondashuv orqali savodxonlikni bosqichma-bosqich shakllantirish imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi. Yakunda maktabga tayyorlov bosqichida zamonaviy metodika sifatida fasilitatorlik yondashuvini joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: fasilitatorlik, savodxonlik, tayyorlov guruh, maktabgacha ta'lim, metodika, kompetensiya, bolaning rivojlanishi, pedagogik yondashuv

Abstract. This article analyzes the role of the facilitator approach in shaping literacy among preparatory group learners. The essence of the facilitation model and its innovative features in the educational process are explored. Methodological approaches aimed at developing literacy are reviewed considering the psychological and pedagogical characteristics of preschool children. The concept of literacy is explained based on modern educational theories. The role of the facilitator as a motivator and guide for learners is theoretically substantiated. The article highlights the advantages of the facilitator method in developing children's independent thinking and communication skills. The findings confirm the potential for gradually forming literacy competencies through this approach. In conclusion, recommendations are provided for implementing the facilitator approach as a modern methodology in the preparatory stage of education.

Key words: facilitation, literacy, preparatory group, preschool education, methodology, competence, child development, pedagogical approach

Аннотация. В данной статье анализируется роль фасилитаторского подхода в формировании грамотности у воспитанников подготовительной группы. Раскрыта сущность фасилитаторской модели и её инновационные особенности в образовательном процессе. Методические подходы к развитию грамотности рассматриваются с учётом психолого-педагогических особенностей детей дошкольного возраста. Понятие «грамотность» объясняется на основе современных педагогических теорий. Обоснована роль фасилитатора как мотиватора и направляющего в обучении. В статье подчеркиваются преимущества фасилитаторского метода в развитии у детей навыков самостоятельного мышления и коммуникации. Полученные результаты подтверждают возможность поэтапного формирования грамотности с помощью данного подхода. В заключение предложены рекомендации по внедрению фасилитаторского подхода как современной методики на этапе подготовки к школьному обучению.

Ключевые слова: фасилитаторство, грамотность, подготовительная группа, дошкольное образование, методика, компетентность, развитие ребёнка, педагогический подход

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish, ayniqsa, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-4477-sonli qarorida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish, bolalarning maktabga tayyorgarligini oshirish hamda ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan[1]. Bu esa pedagogik yondashuvlarni yangilash, an'anaviy o'qituvchi markazli metodlar o'rniga fasilitatorlik yondashuvini keng joriy etishni taqozo etmoqda. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Prezident farmonida "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida ta'limda zamonaviy metodikalar asosida ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'limni majburiy bosqich sifatida rivojlantirish ko'zda tutilgan[2]. Unda ta'lim jarayonlarida bolani markazga qo'yish, mustaqil fikrlash, muloqot va savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Maktabga tayyorlov bosqichida bolalarning savodxonlik darajasi ularning keyingi bosqichlardagi o'quv yutuqlari, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. UNESCO hisobotlariga ko'ra, maktabgacha ta'limda savodxonlikni shakllantirishda interaktiv yondashuvlar asosiy rol o'ynaydi[3]. Shu nuqtai nazardan, fasilitatorlik yondashuvi bolalarni faol subyekt sifatida tarbiyalash, ularda mustaqil o'qish va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim metodik vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Hozirgi kunda ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarida savodxonlikni o'rgatish an'anaviy, o'qituvchi markazli yondashuvlar orqali olib borilmoqda. Bu esa bola faolligini cheklaydi, o'z fikrini mustaqil ifoda etish, suhbat qurish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga to'sqinlik qiladi[8]. Fasilitatorlik yondashuvi esa bolaning ichki faolligini ochish, o'rganishni tabiiy va muloqotga asoslangan jarayon sifatida tashkil etishga imkon yaratadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini savodxonlikka o'rgatishda fasilitatorlik yondashuvi nafaqat dolzarb, balki zamonaviy pedagogika talablariga javob beradigan yondashuv ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Fasilitatorlik yondashuvi ta'lim jarayonida o'qituvchining rolini o'zgartiradi va uni bilim beruvchidan ko'ra, yo'naltiruvchi hamda yordamchi sifatida ko'radi[6]. Bu yondashuvda o'quvchilar faol subyektlar bo'lib, o'z bilimlarini mustaqil izlab topadilar hamda muammolarni hal qilish jarayoniga jalb qilinadilar. Zamonaviy pedagogika sohasida fasilitatorlik yondashuvi ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali metod sifatida tan olinmoqda[4].

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'ziga xos psixologik va pedagogik rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, ularning o'rganish jarayoni asosan o'yin va interaktiv faoliyatga asoslangan[5]. Ushbu yoshdagi bolalar uchun muloqot, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi[9]. Tayyorlov guruhdagi bolalarni savodxonlikka o'rgatishda individual yondashuv va faol o'rganishni rag'batlantirish zarur[3].

Savodxonlik tushunchasi nafaqat o'qish va yozishni o'rganishni, balki til, muloqot va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi[10]. Zamonaviy ta'lim metodikalari savodxonlikni faqat axborotni qabul qilish emas, balki uni qayta ishlash, tahlil qilish va qo'llash jarayoni sifatida ko'radi[11]. Bu yondashuv bolalarda yuqori darajadagi o'quv kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi[12].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fasilitatorlik yondashuvi yordamida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, savollar berish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi[7]. Maktabgacha ta'limda bu yondashuv bolalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga yo'l ochib, ularni faol va qiziqarli o'rganishga jalb qiladi[13]. Shuningdek, fasilitatorning rolini to'g'ri belgilash pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[14].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini fasilitator sifatida savodxonlikka o'rgatish metodikasining samaradorligini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullarni uyg'unlashtirgan aralash metod (mixed methods) qo'llanildi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida O'zbekistonning turli hududlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 5-7 yoshdagi 100 nafar bolalar va 20 nafar pedagoglar tanlandi. Ishtirokchilar tasodifiy usul bilan tanlab olindi.

Ma'lumotlar yig'ish uchun maxsus ishlab chiqilgan savodxonlik testlari, so'rovnomalar, darslarda kuzatuv va tarbiyachilar hamda ota-onalar bilan intervyular ishlatildi. Test va so'rovnomalar xalqaro standartlar va ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar asosida tayyorlandi. Kuzatuv varaqlari va intervyu savollari ekspertlar tomonidan tasdiqlandi.

Miqdoriy ma'lumotlar SPSS dasturi yordamida statistik usullar orqali tahlil qilindi. Sifatli ma'lumotlar esa mazmuniy tahlil usuli bilan tahlil qilinib, asosiy mavzular va tendensiyalar aniqlandi.

Natijalar tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda fasilitatorlik metodikasining samaradorligini ko'rsatdi. Bu metodika maktabgacha ta'limda pedagogik jarayon sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar. Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini fasilitator sifatida savodxonlikka o'rgatish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarida sezilarli o'sishlarni ko'rsatdi. Miqdoriy tahlil natijasida bolalarning o'qish va yozish ko'nikmalari o'rtacha 25% ga yaxshilanganligi aniqlanib, bu metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Shuningdek, sifatli ma'lumotlar bolalarning mustaqil fikrlash, savollar berish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarining rivojlanganligini ko'rsatdi. Pedagoglar tomonidan taqdim etilgan intervyular metodikaning dars jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini, o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik va muloqotning kuchayganligini qayd etdi. Bu natijalar Vygotskning ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan izohlanadi, unda o'rganish ijtimoiy muhitda shakllanadi[5].

Fasilitatorlik yondashuvining o'quvchilarning faolligini oshirishda muhim rol o'ynashi aniqlanib, bu yondashuvda pedagoglar o'zlarini bilim beruvchidan ko'ra, yordamchi va yo'naltiruvchi sifatida tutadi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, metodikaning ba'zi cheklovlari ham qayd etildi. Masalan, pedagoglarning fasilitatorlik rolini to'liq anglab yetmasligi va bu yondashuvni samarali qo'llash uchun qo'shimcha malaka oshirish zarurati mavjudligi ta'kidlandi⁶. Bundan tashqari, tayyorlov guruhidagi ba'zi bolalarda e'tiborning cheklanganligi metodika samaradorligini biroz pasaytirganligi kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini fasilitator sifatida savodxonlikka o'rgatish metodikasining maktabgacha ta'limda samarali va dolzarb yo'nalish ekanligini ko'rsatadi. Ushbu metodika bolalarning nafaqat savodxonlik ko'nikmalarini, balki ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

| N | Fasilitatorlik yondashuvi asosiy ustunliklari | Ahamiyat darajasi (%) |
|----------|--|------------------------------|
| 1 | Savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish | 90% |
| 2 | Mustaqil fikrlash va ijodkorlik | 85% |
| 3 | Muloqot qobiliyatlarini oshirish | 80% |
| 4 | Pedagogning fasilitatorlik roli | 95% |
| 5 | Individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish | 75% |
| 6 | Interaktiv vositalar va o'yinlardan foydalanish | 70% |
| 7 | Kelgusidagi tadqiqotlar va rivojlanish imkoniyatlari | 60% |

Ushbu jadvaldan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

Fasilitatorlik yondashuvi - bu o'quv markazida o'qituvchi emas, balki o'quvchi turadigan zamonaviy ta'lim metodidir. Ushbu yondashuvning asosiy ustunliklari shundaki, u:

Pedagogning rolini o'zgartiradi - o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, yordamchi rolini bajaradi.

Savodxonlik va tafakkurni rivojlantiradi - o'quvchilar mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot va savodxonlik ko'nikmalarini egallaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan - har bir o'quvchining individual xususiyatlari, psixologik holati va ehtiyojlari inobatga olinadi.

Zamonaviy usullarga tayangan - interaktiv vositalar, o'yinlar, texnologiyalar orqali o'qitish jarayoni jonlantiriladi.

Kelajak rivojlanishiga zamin yaratadi - izlanish, tadqiqot qilish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu tadqiqot natijalari tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini fasilitator sifatida savodxonlikka o'rgatish metodikasining maktabgacha ta'lim tizimida samarali ekanligini tasdiqladi. Fasilitatorlik yondashuvi bolalarda nafaqat o'qish va yozish ko'nikmalarini oshirishga, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ma'lumotlar asosida ta'lim jarayonida pedagoglarning fasilitatorlik rolini to'g'ri bajarishi bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan cheklovlar pedagoglarning fasilitatorlik malakalarini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida doimiy ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish va pedagoglarning yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga e'tibor qaratish lozim.

Bundan tashqari, tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, faol o'rganish metodlarini keng qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bolalarning e'tiborini jamlash va ularni mustaqil faoliyatga jalb qilish uchun interaktiv vositalar va o'yinlar qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Kelgusida ushbu metodikaning samaradorligini oshirish maqsadida kengroq miqyosda, boshqa yosh guruhlari va hududlarda ham tadqiqotlar olib borilishi tavsiya qilinadi. Shu bilan birga, pedagoglarning fikr-mulohazalari asosida metodikaning amaliy qiyinchiliklari va imkoniyatlari yanada chuqur o'rganilishi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini fasilitator sifatida savodxonlikka o'rgatish metodikasi maktabgacha ta'limda innovatsion va samarali yondashuv bo'lib, bolalarning ko'p qirralik rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5799-sonli Farmoni. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-iyundagi 345-sonli Qarori. Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent, 2020.
3. National Association for the Education of Young Children. (2020). *Developmentally Appropriate Practice*. Washington, DC: NAEYC. -B.45.
4. O'Connell, T., & Dymont, J. (2015). Facilitating Learning: The Importance of Facilitation Skills in Education. *Journal of Educational Practice*, 6(18), -B.15-16.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. -B.56.

Matchanova Nazokat Qudrat qizi,
UrDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi
nazokatmatchanova@gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish muammosi yoritilgan. Kreativ fikrlash talabalarning kasbiy shakllanishida muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada kreativlik tushunchasining nazariy asoslari va pedagogik talqini tahlil qilingan. Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va amaliy topshiriqlarning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ijodiy mashg'ulotlar va loyiha faoliyatining samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida kuzatish va tajriba metodlari qo'llanilib, natijalar ilmiy jihatdan umumlashtirilgan. Olingan ma'lumotlar talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda qo'llash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Maqola yakunida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, talaba, maktabgacha ta'lim, innovatsiya, interfaol metod, ijodkorlik, loyiha faoliyati, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема развития креативного мышления студентов направления «Дошкольное образование». Креативное мышление рассматривается как важный фактор профессионального становления студентов. В статье проанализированы теоретические основы и педагогическая интерпретация понятия креативности. Раскрыто значение интерактивных методов, инновационных технологий и практических заданий в развитии креативного мышления у студентов. Кроме того, обоснована эффективность творческих занятий и проектной деятельности. В ходе исследования применялись методы наблюдения и эксперимента, результаты которых были научно обобщены. Полученные данные показали возможность их применения для развития творческого потенциала студентов. В заключении статьи даны предложения и рекомендации по развитию креативного мышления студентов направления «Дошкольное образование».

Ключевые слова: креативное мышление, студент, дошкольное образование, инновация, интерактивный метод, творчество, проектная деятельность, педагогическая технология.

Abstract. This article explores the issue of developing creative thinking among students majoring in Preschool Education. Creative thinking is considered as an important factor in the professional formation of future specialists. The article analyzes the theoretical foundations and pedagogical interpretation of the concept of creativity. The significance of interactive methods, innovative technologies, and practical tasks in developing students' creative thinking is revealed. In addition, the effectiveness of creative activities and project-based learning is substantiated. Observation and experimental methods were applied during the research, and the results were scientifically summarized. The findings indicate the applicability of these approaches to enhance students' creative potential. The article concludes with proposals and recommendations for developing creative thinking among Preschool Education students.

Key words: creative thinking, student, preschool education, innovation, interactive method, creativity, project activity, pedagogical technology.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. XXI asr ko'nikmalari qatorida kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalar muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda bo'lajak pedagog kadrlarning kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi nafaqat

ularning shaxsiy intellektual rivojlanishi, balki kelajakda tarbiyalaydigan yosh avlodning ijodkor, tashabbuskor va yangilikka intiluvchan bo'lib voyaga yetishida ham asosiy omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularni innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish, kompetensiyaga yo'naltirilgan metodlarni keng joriy etish hamda ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Mazkur hujjat zamonaviy pedagogik jarayonlarda kreativlikni rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari bo'lajak tarbiyachilar sifatida bolalarning shaxsiy rivojlanishida, ijodkorligini ochishda va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Shu bois ularning o'zlari ham yuqori darajadagi kreativ fikrlash salohiyatiga ega bo'lishlari talab etiladi. Kreativ fikrlash - bu muammolarga noodatiy yondashish, yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud bilimlar asosida yangilik yaratish va ijodiy qarorlar qabul qilish jarayonidir.

Bugungi kunda pedagogika fanida kreativ fikrlashni rivojlantirishning turli metodlari mavjud. Ulardan eng samaralilari sifatida interfaol usullar (aqliy hujum, klaster, sinkveyn, rol o'ynash), innovatsion texnologiyalar (gamifikatsiya, raqamli ta'lim vositalari, STEAM yondashuvi), shuningdek, ijodiy mashg'ulotlar, loyiha ishlari va refleksiya jarayonlari ko'rsatib o'tiladi. Mazkur metod va texnologiyalarni samarali qo'llash orqali talabalarni yangi g'oyalar yaratishga, mustaqil fikrlashga va ijodiy faoliyatga jalb etish mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi - maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish usullarini tahlil qilish, ularning afzalliklarini ko'rsatish va ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Maqolada kreativlik tushunchasining nazariy asoslari, uning pedagogik jarayondagi ahamiyati va talabalar kreativ salohiyatini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metodlar tizimlashtiriladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirishning innovatsion va amaliy usullari kompleks tarzda yoritilib, ularning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalarida esa talabalar kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda kreativ fikrlash masalasi ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, xorijiy olimlardan G.Gardner, J.Guilford va E.Torrance kabi tadqiqotchilar kreativlikni shaxsning muammolarga noodatiy yechim topish, yangicha g'oya yaratish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qiladilar[2]. Ularning tadqiqotlarida kreativ fikrlash jarayonida divergent tafakkur, tasavvur, ijodiy tasvirlash va original yondashuv muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar ham kreativlik tushunchasini keng yoritib bermoqdalar. Jumladan, O'zbekistonlik pedagog olimlar A.Abdugodirov, R.Nishonov va Sh.Abdullaeva tadqiqotlarida talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda interfaol metodlarning, ayniqsa "aqliy hujum", "klaster" va "rol o'ynash" kabi usullarining samaradorligi asoslab berilgan[3].

Prezident farmon va qarorlarida ham bu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-79-son Farmonida maktabgacha va maktab ta'limi tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, pedagoglarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda kompetensiyaga asoslangan ta'limni keng tatbiq etish vazifalari belgilangan[1].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda STEAM yondashuvi, gamifikatsiya va raqamli ta'lim vositalarining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Masalan, D.Cropley va M.Runco tadqiqotlari ijodiy muhit yaratish, talabalarni mustaqil qaror

qabul qilishga o'rgatish va amaliy topshiriqlar orqali ularda kreativ fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi [4].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatlar uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur. Bunda, bir tomondan, kreativlik tushunchasining ilmiy asoslari mustahkamlanishi, ikkinchi tomondan esa, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar asosida talabalarni amaliy faoliyatga jalb etish katta ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotlar quyidagilardan iborat:

STEAM yondashuvi va blok o'yinlar. Tajribaviy tadqiqotlarda, masalan, Tayvanda, STEAM asosidagi blok o'yinlari kreativ tasavvur (creative imagination) va ijro etish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. 3-6 yoshdagi bolalar ustida olib borilgan o'yinlar natijasida bolalarning fantaziyasi hamda muammoni hal qilishda mantiqli yondashuvi yaxshilangan bo'lgan[6].

Promoting creativity in early childhood education tadqiqotda 25 maktabgacha ta'lim muassasasi o'qituvchilari va 25 talaba (maktabgacha yo'nalishi) asosiy sifatida intervyu va savolnomalar yordamida kreativlikni rag'batlantirish bo'yicha fikrlar yig'ilgan. Unda bolalar emotsiyalarini va fikrlarini ifoda eta olishlari, muammolarni hal qilishlik, sabab-natija bog'liqligini tushunish va voqealarga yoki holatlarga boshqacha nuqtai nazardan qarash kabi kreativ fikrlash komponentlari ahamiyati ta'kidlangan[7].

Philosophy for Children (P4C) dasturida eronlik tadqiqotlar P4C dasturini maktabga tayyor bolalar guruhida foydali deb topgan. 5-6 yoshdagi bolalar bilan 16 dars davomida olib borilgan faoliyat orqali kreativ fikrlashning turli o'lchovlari (Torrance'ning kreativlik mezonlari) bo'yicha (tasavvur, original g'oyalar yaratish, fikr almashish) ijobiy natijalar olingan[8].

Critical Thinking Technology tadqiqotida esa 5-6 yoshdagi bolalarga mo'ljallangan darslar, muammolarga asoslangan topshiriqlar, guruhda muhokama va refleksiya savollari orqali bolalarning tahliliy fikrlash, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlari sezilarli darajada oshgani qayd etilgan. Tajriba va nazorat guruhlari bilan solishtirganda, eksperimental guruhning o'sishi statistik jihatdan ma'lum darajada bo'lgan[9].

Xorijiy tadqiqotlar ko'pincha eksperimental yoki quasi-eksperimental dizayn (nazorat va eksperimental guruhlar) orqali olib borilgani sababli, metodologik jihatdan kuchli dalillarga ega. Masalan, STEAM blok o'yinlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda vaqt davomida (longitudinal) kuzatuv natijalari tahlil qilingan[10].

Ichki va xorijiy tajribalar bir jihatdan kreativlikni rag'batlantirishda metodlar kombinatsiyasining samarali ekanligini ko'rsatadi - interfaol metodlar, refleksiya, muammoli topshiriqlar, ijodiy va kichik guruh ishlari.

Mahalliy sharoitda ilmiy ishonchlilik va metodologik daraja biroz pastroq bo'lishi mumkin (masalan, nazariy tahlil, motivatsion so'rovnomalardan foydalanish), ammo ularning amaliy samarasini ko'rish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

Bolalar yoshiga qarab kreativ fikrlashni baholash mezonlari xil-xil, standartlangan testlar kamroq qo'llanadi.

Muddati qisqa tajribalar, ba'zan faqat bir necha oydan iborat guruh faoliyati, uzoq muddatli barqarorlikni tekshirish imkonini bermaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda malumotlar ko'pincha sifatli metodlarga tayanadi, ammo statistik tahlil va o'lchovli eksperimentlar kamroq kuzatiladi.

Muhokama va natija. Tadqiqot jarayonida olib borilgan mashg'ulotlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va ijodiy topshiriqlardan kompleks foydalanish samarali natijalar beradi. Birinchidan, "aqliy hujum", "klaster" va "sinkveyn" kabi interfaol metodlar talabalarni erkin fikrlashga, o'z g'oyalarini tezkorlik bilan ilgari surishga va

muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga undadi[2]. Mashg'ulotlar davomida talabalar ijodiy fikrlar oqimini erkin ifodalashga o'rgandilar va yangi qarorlar qabul qilish jarayonida hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirdilar. Bu esa Guilford va Torrance tomonidan ilgari surilgan divergent tafakkurni rivojlantirish nazariyasi bilan uyg'unlashadi[3]. Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarda yuqori samaradorlik berdi. Xususan, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarda fanlararo bog'liqlikni ko'rish, muammolarga kompleks yondashish va ijodiy qarorlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu natijalar xorijiy tajribalar bilan hamohang bo'lib, masalan, Tayvanda o'tkazilgan tadqiqotlarda STEAM blok o'yinlari bolalarda kreativ tasavvur va ijro etish qobiliyatini sezilarli oshirganligi qayd etilgan[4].

Shuningdek, gamifikatsiya elementlari – o'yinli topshiriqlar, ball tizimi, kreativ musobaqalar – talabalarning motivatsiyasini oshirdi, mustaqil izlanishga va ijodiy musobaqalashuvga rag'batlantirdi. Bu esa Copley va Runco tadqiqotlarida keltirilganidek, ijodiy muhit va musobaqaviy vaziyat kreativlikni rag'batlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi[5].

Uchinchidan, refleksiya jarayonlari talabalarni o'z ijodiy faoliyatini baholashga, kuchli va zaif tomonlarini ko'rishga va o'z ustida ishlash yo'llarini aniqlashga o'rgatdi. Mashg'ulot oxirida o'tkazilgan muhokamalar talabalar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilish, samaradorligini baholash va kelajakda yanada takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Bu jarayon metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi muhim jihatlar aniqlangan:

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda motivatsiya va ijtimoiy psixologik muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabalar o'z fikrini erkin bildirish va ijodiy qarorlarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lgan muhitda kreativlik darajasi yuqori bo'ladi.

Interfaol metodlar talabalarda ijodiy hamkorlik, tezkor fikrlash va muammoni noodatiy hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalar, xususan STEAM va gamifikatsiya, talabalarda tanqidiy tafakkur, ijodkorlik va amaliy faoliyatni uyg'otadi.

Refleksiya jarayonlari va ijodiy muhokamalar esa talabalarni metakognitiv rivojlanishga yo'naltiradi, o'z ijodiy faoliyatini ongli ravishda boshqarishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-79-son Farmonida belgilanganidek, ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish orqali maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari yanada kengayadi[1].

Olingan natijalar xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari bilan uyg'un bo'lib, kreativ fikrlashni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv samarali ekanligini ko'rsatdi. Biroq, ayrim cheklovlar ham mavjud: mashg'ulotlarning qisqa muddatli bo'lishi, talabalar sonining cheklanganligi hamda nazorat guruhlari bilan solishtirish imkoniyatlarining cheklanganligi tadqiqotning umumlashtirilgan xulosalarini kengroq ko'lamda qo'llashga ozgina to'sqinlik qiladi.

Shunga qaramay, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi va kelgusida bu yo'nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biridir. Kreativ tafakkur shunchaki ijodiy g'oyalar oqimini shakllantirish emas, balki muammoni turlicha tahlil qilish, noodatiy yechimlarni topish, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi[2]. Shu bois, kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ham ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar (aqliy hujum, klaster, sinkveyn va boshqalar) talabalarni erkin fikrlashga, guruhda samarali ishlashga, ijodiy g'oyalarni ishlab chiqishga rag'batlantiradi. Innovatsion texnologiyalar (STEAM, gamifikatsiya, raqamli vositalardan foydalanish) esa talabalarda tanqidiy va kreativ tafakkurni rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni anglash va amaliy faoliyatga tayyor bo'lish imkonini beradi[4]. Refleksiya va muhokama jarayonlari esa talabalarda metakognitiv ko'nikmalarni, ya'ni o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-79-son Farmonida ham ta'kidlanganidek, ta'lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etish, ijodiy fikrlaydigan va zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir[1]. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu islohotlar mazmuniga uyg'un bo'lib, talabalarda kreativ salohiyatni shakllantirish va uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijasi sifatida quyidagi tavsiyalar keltiriladi:

O'quv dasturlariga kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan alohida mavzular, amaliy mashg'ulotlar va loyiha ishlari kiritilishi lozim.

Pedagogik texnologiyalar asosida interfaol metodlar (rol o'yinlari, debatlar, ijodiy vaziyatli topshiriqlar) keng joriy etilishi tavsiya etiladi.

STEAM va gamifikatsiya yondashuvlarini maktabgacha ta'lim yo'nalishida faol qo'llash orqali talabalarni mustaqil izlanishga va innovatsion qarorlar ishlab chiqishga yo'naltirish mumkin.

Talabalar bilan muntazam refleksiya mashg'ulotlarini tashkil etish orqali ularning o'z ijodiy faoliyatini baholash va takomillashtirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Ta'lim muassasalarida ijodiy muhit yaratish, ya'ni talabalarga erkin fikr bildirish, yangi g'oyalarni sinab ko'rish va xatolardan o'rganish imkonini beruvchi sharoitni ta'minlash zarur.

Professor-o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari bo'yicha trening va seminarlar tashkil etilishi foydali bo'ladi.

Kelgusida ushbu tadqiqotni kengroq ko'lamda – turli oliy ta'lim muassasalari, katta miqdordagi ishtirokchilar va nazorat guruhlari asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish nazariy va amaliy asoslarini ochib berdi hamda bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli "2023–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – T.: Prezident.uz, 2023.
2. Abduqodirov A., Nishonov R., Abdullaeva Sh. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. -B.156.
3. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – B.538.
4. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. – Lexington, MA: Ginn and Company, 1974. – B.190.
5. Chen M., Wang Y., Hsu C. Enhancing preschoolers' creativity through STEAM-based block play activities // Journal of Early Childhood Education Research. - 2025. - Vol. 14, №2. -B.129.
6. Copley D. H., Runco M. A. Creativity and Education: An International Perspective. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. -B.272.
7. Atikah C., Biru L. T. STEAM-based Learning to Enhance Early Childhood Creativity // International Journal of STEM Education for Sustainability. – 2024. – Vol. 4, №1. -B.175.

Karimov Eldor Erkinovich,

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 1-son politexnikum direktori

O'ZBEKISTONDA BUTUNJAHON PROFESSIONAL TA'LIM SAMMITINI O'TKAZISHNING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda o'tkaziladigan Butunjahon Professional Ta'lim Sammitining ilmiy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Sammit, mamlakatning professional ta'lim tizimini rivojlantirish, global standartlarga mos keladigan yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga katta hissa qo'shadi. Maqolada sammitning tajriba almashish, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim usullarini takomillashtirishdagi roli hamda global muloqotga kirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekistonning ta'lim sohasidagi pozitsiyasini mustahkamlash va yosh avlodni zamonaviy kasblarga tayyorlashda sammitning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: butunjahon professional ta'lim sammiti, professional ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, ta'lim tizimi, xalqaro hamkorlik, malakali kadrlar, tajriba almashish, ta'lim standartlari

Аннотация. В данной статье анализируется научное и практическое значение Всемирного саммита профессионального образования в Узбекистане. Саммит внесет значительный вклад в развитие системы профессионального образования страны, удовлетворение потребностей в высококвалифицированных кадрах, соответствующих мировым стандартам, внедрение инноваций в области образования и расширение международного сотрудничества. В статье подчеркивается роль саммита в обмене опытом, улучшении методов исследований и образования, а также в доступе к глобальному диалогу. Также будет подчеркнута важность саммита для укрепления позиций Узбекистана в сфере образования и подготовки молодого поколения к современным профессиям.

Ключевые слова: Всемирный саммит профессионального образования, профессиональное образование, научные исследования, инновации, система образования, международное сотрудничество, квалифицированные кадры, обмен опытом, образовательные стандарты

Annotation. This article analyzes the scientific and practical significance of the World Summit of Professional Education in Uzbekistan. The summit will greatly contribute to the development of the country's professional education system, to meet the need for highly qualified personnel to meet global standards, to introduce innovations in education, and to the expansion of international cooperation. The article highlights the summit's role in sharing experiences, improving scientific research and educational methods, and opportunities for access to global dialogue. The importance of the summit is also emphasized in strengthening Uzbekistan's position in education and preparing the younger generation for modern professions.

Key words: world professional education summit, professional education, scientific research, innovation, education system, international cooperation, qualified personnel, experience sharing, educational standards

Kirish. Butunjahon professional ta'lim sammiti (BPTS) – bu global miqyosda professional ta'limni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va bilim almashishni tashkil qilishga oid alaqidor tashkilotlar, davlat va maxsus ta'lim muassasalari uchun muhim platforma hisoblanadi. O'zbekiston, o'zgaruvchan global ta'lim muhitida o'z o'rnini mustahkamlash va professional kadrlarni tayyorlashda yangi bosqichga chiqish nihoyasida bunday xalqaro sammitni o'tkazishni maqsad qilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamonda professional ta'lim sohasi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun professional ta'lim tizimini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masalaga aylangan. Shunday sharoitda Butunjahon professional ta'lim sammiti o'tkazish nafaqat ilmiy izlanishlar, balki amaliy tajribalar almashish uchun ham katta imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Hukumatimizning ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibori, O'zbekistonni globallashtirish jarayonida raqobatbardosh davlatga aylantirish va malakali kadr tayyorlash maqsadidagi chora-tadbirlar, Butunjahon Professional Ta'lim Sammitini o'tkazishni yanada dolzarblashtirib yuboradi. Ushbu adabiyotlar talqini mazkur sammitning ilmiy va amaliy ahamiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan ilmiy manbalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur sohada kasbiy ta'limning ilmiy asoslari quyidagi adabiyotlarda o'rganilgan.

- A.Ünalning qarashlarida professional ta'limning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ko'rsatilgan bo'lib, ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni qabul qilishning ahamiyati tahlil qilinadi. D. Zainidinovanning "Innovative Approaches to Vocational Education in Uzbekistan" nomli maqolasida ijtimoiy-iqtisodiy talablar va zamonaviy metodologiyalar asosida O'zbekistondagi professional ta'lim tizimining rivojlanishini ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur o'rganishlar bo'yicha xalqaro tajribalar va hamkorlik masalalari OECDning "Skills Strategy Framework: Key Competencies for the Future" hisobotida professional ta'lim tizimlarini qanday ravishda rivojlantirish va global hamkorlikni o'rnatish bo'yicha tavsiyalar berilgan. "Global Education Monitoring Report 2019: Migration and Education." Ushbu hisobotda ta'limni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik va ta'lim tizimlarini takomillashtirish zarurligi muhokama qilingan.

Jahon miqyosida professional ta'lim uchun innovatsiyalar yaratishning zaruriyati va ahamiyatiga oid muammolar "Innovations in Vocational Education and Training for Sustainable Development" Nomli maqolada professional ta'lim va tizimlariga innovatsiyalarni joriy etishning zarurligi va optimallashtirish usullari tahlil qilingan.


S.Mamatkulovning "Adapting Vocational Education to Employment Needs in Uzbekistan" nomli maqolasi O'zbekistondagi professional ta'lim dasturlarining ish beruvchilar ehtiyojlariga mos kelishini tahlil qiladi.

M.Khamraevning "The Role of Global Conferences in Shaping National Education Policies." Maqolasida global konferentsiyalarning milliy ta'lim siyosatlariga ta'siri va ahamiyatini yoritadi.

Ushbu adabiyotlar talqini, O'zbekistonda Butunjahon Professional Ta'lim Sammitini o'tkazishning ilmiy va amaliy ahamiyatini tushunishda keng qamrovli asos yaratadi. Sammit, nafaqat O'zbekistonning professional ta'lim tizimini rivojlantirish, balki xalqaro standartlarga mos keluvchi malakali kadrlarni tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Mavzu metodologiyasi. Ma'lumki, globallashtirish dunyoda, ilmiy-texnologik rivojlanish va iqtisodiy o'zgarishlar tez sur'atlarda amalga oshib bormoqda. Ushbu jarayonda professional ta'lim, ya'ni kadrlarning muayyan sohaga doir bilim va ko'nikmalari, iqtisodiyotning barcha sohalarida muayyan ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda professional ta'lim va ta'lim tizimining rivojlanishi bo'yicha ko'plab olimlar o'z fikrlarini va nazariyalarini ilgari surmoqda. Bu sohada ishlayotgan muhim nazariyalar va olimlar fikrlari keltirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Professional ta'limni rivojlantirishga oida ilmiy nazariyalar

Lev Vygotskiy ijtimoiy-g'oyaviy o'rganish nazariyasi orqali ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit va madaniyatning ta'sirini ta'kidlaydi. Bu nazariya, o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarga erishishi uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro aloqalar va muloqot o'rnatishning ahamiyatini ko'rsatadi. Vygotskiy fikricha, bilish jarayoni ijtimoiy kontekstga bog'liq bo'lib, ta'limda hamkorlik va muloqot orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish zarur.

David Kolbning tajriba orqali o'rganish nazariyasi professional ta'lim jarayonida amaliy tajribalarni o'rganishning muhimligini ta'kidlaydi. Kolb o'rganishning to'rt bosqichidan (tajriba olish, shag'allash, tajribani tahlil qilish va amalda qo'llash) tashkil topgan o'rganish siklini ishlab chiqdi. Ushbu nazariya, talabalarni amaliy tajriba va haqiqiy muammolarga yechim topishga rag'batlantirishi mumkin.

Albert Bandurining ijtimoiy o'rganish nazariyasi, o'rganish jarayoni ko'rinish va namuna ko'rsatish orqali amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu nazariya, professional ta'limda mentorlik va tajriba almashinuvi orqali o'quvchilarni malakali kadrlar sifatida tayyorlashda o'ta ahamiyatlidir.

John Dewey, ta'lim jarayonini amaliy tajribalarga asoslanishi kerakligini va o'rganish jarayonida faol ishtirok etishni ta'kidlagan. Deweyning g'oyalari, o'quvchilarga zamonaviy masalalarni yechish, yaratuvchanlik va mustaqil fikr yuritish imkoniyatini berish zarurligini ko'rsatadi. U, professional ta'limda amaliyot va nazariyaning integratsiyasi muhimligini belgilaydi.

Benjamin Bloom o'rganish maqsadlarini bir necha darajalarga bo'lish orqali ta'lim jarayonini tashkil etishning samarali usulini ishlab chiqdi. Uning nazariyasi o'quvchilarning bilim, tushuncha, qo'llash, tahlil, sintez va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdoriy va sifat jihatlarini belgilaydi. Ushbu nazariya professional ta'limda o'quv dasturlarining rivojlanishini va malakali kadrlarga e'tibor qaratish zarurligini tushuntiradi.

Apprenticeship nazariyasi professional ta'limning tarixiy shakllaridan biri bo'lib, o'rganayotgan shaxs va malakali mutaxassis o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tajriba almashinuvi asosida rivojlanadi. Ushbu modelda, amaliyot va nazariy o'qitish muvozanati o'rnatilgan, shuning uchun talabalar haqiqiy ish muhitida kerakli ko'nikmalarni o'rganadilar.

O'zbekistonda professional ta'limni rivojlantirish jarayonida, yuqoridagi olimlar va ularning g'oyalari, ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish, zamonaviy pedagogik metodlarni tatbiq etish va global ta'lim tendensiyalariga mos keluvchi mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyalar, o'quv jarayonini yanada samarali va maqsadga muvofiq tashkillashtirishda qo'l keladi.

O'zbekistonda professional ta'limni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotga moslashuvchan va sifati yuqori kadrlarni tayyorlash uchun muhimligini bugungi transformatsiya jarayonlari taqazo etmoqda.

Uzluksiz ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarishda professional ta'limning o'ziga xos ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- iqtisodiyotni rag'batlantirish;
- imkoniyatlar yaratish;
- soha holatini mijozlarga moslashtirish;
- ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash;
- innovatsiya va tadqiqot;
- professional mehnat muhitini yaxshilash kabilar shular jumlasidandir.

Ushbu ahamiyatlilikning mazmun-mohiyati quyidagicha ko'rib chiqildi:

1. Iqtisodiyotni rag'batlantirish: Professional ta'lim, ishchi kuchining sifati oshirish orqali ichki va tashqi bozorlarda raqobatdoshlikni oshirishga yordam beradi. Yangiliklarni joriy etish, zamonaviy texnologiyalarni qabul qilish va samarali ishlash uchun qulay sharoit yaratadi.

2. Imkoniyatlar yaratish: Kadrlarning sifatli tayyorlanishi, kasblar bo'yicha talablar va bozor ehtiyojlarini ko'rib chiqish, yoshlarga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ish bilan ta'minlanishini osonlashtiradi.

3. Soha holatini mijozlarga moslashtirish: Professional ta'lim, soha va mijoz talablarini o'rganib, mutaxassislarning baholanishi, ixtisoslashgan kasblarni rivojlantirish ila moslashuvchan va qurilma shaklida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash: Kadrlarning yuqori malakali tayyorlanishi, ijtimoiy adolat prinsiplariga muvofiq baham ko'rilishi, yoshlarni kasbga yo'naltirish va ijtimoiy faolligini oshirish yo'lida katta ahamiyatga ega.

5. Innovatsiya va tadqiqot: Professional ta'lim, innovatsion loyihalar va tadqiqotlarni rivojlantirish uchun doimiy ravishda ilm-fan va amaliyot o'zara integratsiyasini ta'minlash imkonini beradi.

6. Professional mehnat muhiti: Biznes va ta'lim orasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ishlab chiqarish va ta'limni muvofiqlashtirish, o'quvchilarni ishlab chiqarish jarayoniga shaldor ravishda jalb qilish ularning professional ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili asosida O'zbekistonda professional ta'limni rivojlantirish masalasining dolzarbligi nuqtayi nazaridan quyidagi ta'rif keltirildi:

O'zbekistonda professional ta'limni rivojlantirish - bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, texnologik yuksalishiga erishish, bog'lanishni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim strategik element hisoblanadi. Professional ta'lim tizimi mukammal boshqarilishi, zamon talablariga javob berish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, bozor talablariga moslashish Hamda milliy iqtisodiyotning shu turdagi kadrlar bilan ta'minlanishi o'z navbatida, mamlakatning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida so'zlagan nutqida bugungi globallashuv sharoitida ta'limning barcha sohalar uchun asosiy drayver ekanligini ta'kidlab, pedagoglarning o'zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini o'tkazish bo'yicha bergan taklifi, butunjahon miqyosida O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi uchun qo'ygan dadil qadimining yana bir muhim bosqichi hisoblanadi.

Hozirgi zamonda professional ta'lim sohasi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun professional ta'lim tizimini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masalaga aylangan. Shunday sharoitda Butunjahon professional ta'lim sammiti o'tkazish nafaqat ilmiy izlanishlar, balki amaliy tajribalar almashish uchun ham katta imkoniyat yaratadi.

1. Sammitning ilmiy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- Professional ta'lim tizimi tahlili va samaradorligini oshirish

Butunjahon professional ta'lim sammiti doirasida xalqaro olimlar, mutaxassislar va ta'limchilar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, O'zbekistondagi ta'lim tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llarini izlashadi. Bu esa ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

- Xalqaro tajribalarni o'zlashtirish

Sammit orqali dunyodagi eng yaxshi amaliyotlar va innovatsion ta'lim texnologiyalari O'zbekistonga kirib keladi, bu esa ilmiy yangiliklarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

2. Sammitning amaliy ahamiyati esa quyidagilarda o'z aksini topadi:

-Iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha:

Professional ta'limning sifatli va samarali bo'lishi mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarida samaradorlikni oshiradi.

-Yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha:

Sammit natijasida yangi kasblarga talab va professional ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilishi mumkin. Bu yoshlar orasida bandlikni oshirishda muhim qadam hisoblanadi.

-Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha:

Butunjahon sammiti O'zbekistonni xalqaro miqyosda tanitish va dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi. Natijada:

1. Tadqiqotlarni rag'batlantirish.

2. Mamlakatlar o'rtasidagini almashinuv.

3. Ustoz va mutaxassislarning ko'nikmalarini oshirish.

4. Kadr tayyorlashda samaradorlik.

5. Zarur metodikalar va texnologiyalarni joriy etish.

6. Xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishiga keng yo'l ochiladi.

Xulosa. O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini tashkil etish, ta'lim tizimini va kadr tayyorlash jarayonlarini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadbir, hamda zamonaviy ta'lim standartlariga javob beruvchi professional kadrlarni tayyorlash, jahon miqyosida raqobat va innovatsiyalarni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. BPTSni o'tkazish, O'zbekistonni professional ta'lim sohasida yangi yuksalish va global standartlarga javob berish yo'lidagi muhim qadamlarni siyosatlashtirishimizni ko'rsatadi. O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini o'tkazish mamlakatdagi ta'lim sohasini ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Sammit professional ta'lim tizimini takomillashtirish, mehnat bozori talablariga javob berish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, bu tadbir orqali mamlakat xalqaro hamkorlik sohasida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini tashkil etish, ta'lim tizimini va kadr tayyorlash jarayonlarini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadbir, hamda zamonaviy ta'lim standartlariga javob beruvchi professional kadrlarni tayyorlash, jahon miqyosida raqobat va innovatsiyalarni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. BPTSni o'tkazish, O'zbekistonni professional ta'lim sohasida yangi yuksalish va global standartlarga javob berish yo'lidagi muhim qadamlarni siyosatlashtirishimizni ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. UNESCO. (2015). "Global Education Monitoring Report 2016: Education for People and Planet: Creating Sustainable Futures for All." UNESCO Publishing.

2. OECD. (2019). "Skills Outlook 2019: Thriving in a Digital World." OECD Publishing, Paris. DOI: 10.1787/9789264313835-en
3. European Commission. (2018). "The Future of Learning: Preparing for the Future of Work." Retrieved from <https://ec.europa.eu> (<https://ec.europa.eu/>)
4. World Bank. (2020). "World Development Report 2020: Learning to Realize Education's Promise." World Bank Publications, Washington, DC.
5. Исмоилова, М. (2021). "Ўзбекистонда миллий таълим тизимининг глобаллашуви: Мэсалалар ва ечимлар." Журнал «Таълим ва инновациялар», 4(2), 45-56.
6. Камолов, А. (2022). "Профессионал таълим: Янгиликлар ва замонавий тенденциялар." Халқаро илмий журнал, 7(3), 123-130.
7. United Nations. (2020). "Education for All: Achievements and Challenges." United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO).
8. Афзалова, Н. (2021). "Халқаро тажрибасини назарда тутиб профессионал таълимни ривожлантириш." «Таълим ва жамият» журналы, 5(1), 34-42.
9. Мамадалиева, С. (2022). "Global trends in vocational education and training: Challenges and opportunities for Uzbekistan." International Journal of Education and Future Studies, 3(1), 15-22.

Jurayev Bobomurod Tojiyevich,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SAYIDO NASAFIYNING MA'NAVY-AXLOQIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIKADAGI O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sayido Nasafiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ularning mazmun-mohiyati hamda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik ahamiyati tahlil qilingangan. Shoir ijodida rostgo'ylik, vafodorlik, qanoat, ilm, hunar va mehnat kabi fazilatlar inson kamolotining bosh omillari sifatida talqin etilgan. U shaxsning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat qozonishi, obro'-e'tibor topishi hamda baxtli hayot kechirishi, avvalo, uning axloqiy pokligi va ma'naviy boyligiga bog'liq, degan fikrni ilgari suradi. Bugungi kunda ham ma'naviy-axloqiy tarbiya davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish hisoblanib, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda Sayido Nasafiy g'oyalari nazariy-metodologik manba vazifasini o'tamoqda. Maqolada shuningdek, shoirning adolat va ilmga chaqiruvchi she'riy misralari zamonaviy ta'lim jarayoniga qanchalik mos tushishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Sayido Nasafiy, axloq, ma'naviyat, pedagogika, mehnat, hunar, qanoat, rostlik, vafodorlik, tarbiya.

Аннотация. В данной статье анализируются духовно-нравственные взгляды Саидо Насафий, их сущность и педагогическое значение в современном воспитательном процессе. В его произведениях такие качества, как правдивость, верность, скромность, знание, ремесло и труд рассматриваются как ключевые факторы совершенствования личности. По мнению поэта, успех человека в обществе и его достойное место в жизни напрямую связаны с нравственной чистотой и духовным богатством. В условиях современной образовательной системы духовно-нравственное воспитание определено как приоритетное направление государственной политики. В этой связи идеи Саидо Насафий служат методологической основой для формирования духовно зрелой, нравственно устойчивой и патриотичной молодежи. В статье также показано, что поэтические строки Саидо, призывающие к справедливости и знанию, не утратили своей актуальности и сегодня.

Ключевые слова: Саидо Насафий, духовность, нравственность, педагогика, труд, ремесло, скромность, верность, образование.

Annotation. This article examines the moral and ethical views of Sayido Nasafiy, their essence, and their pedagogical significance in the context of modern education. In his works, values such as honesty, loyalty, modesty, knowledge, craftsmanship, and labor are interpreted as the primary determinants of human perfection. According to the poet, an individual's success in society and his honorable position in life are directly linked to moral integrity and spiritual richness. In today's educational system, moral and ethical upbringing is recognized as a priority direction of state policy, making Sayido's ideas a valuable theoretical and methodological foundation for fostering spiritually mature, morally resilient, and patriotic youth. The article also highlights how Nasafiy's poetic calls for justice, knowledge, and diligence continue to resonate with contemporary pedagogical practice.

Key words: Sayido Nasafiy, morality, spirituality, pedagogy, labor, craftsmanship, modesty, loyalty, education, ethical upbringing.

Kirish. Sayido Nasafiy ijodida inson kamolotining asosi sifatida axloq va ma'naviyat masalalariga katta urg'u berilgan. Uning fikricha, insonning qimmatini uning xulqi, rostgo'yligi, pokvijdonligi va ma'naviy tozaligida namoyon bo'ladi. Shoir asarlarida adolat, vafo, rostlik, qanoat kabi insoniy fazilatlar targ'ib etilgani, hukmdorlar zolimligi va poraxo'rliqi qoralangani uning axloqiy-pedagogik g'oyalari qanchalik keng qamrovli bo'lganidan dalolat beradi.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida ham ma'naviy-axloqiy tarbiya ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Yosh avlodni yuksak axloqli, ma'naviy barkamol, insonparvar va vatanparvar qilib

tarbiyalash davlat siyosati darajasida belgilangan. Shu ma'noda Sayido g'oyalari bugungi kun pedagogikasi uchun dolzarb hisoblanib, yoshlarni nafaqat bilimli, balki yuksak axloq egalari sifatida shakllantirishda metodologik va ma'naviy manba vazifasini o'taydi.

Sayido Nasafiy aslida Nasaf (hozirgi Qarshi) shahridan bo'lib, XVII asrning birinchi yarmining oxirlarida Buxoroda hunarmand oilasida tug'ilgan. Bolalik va o'smirlik yillari qashshoqlik va mashaqqat bilan o'tgan. Uning turmush sharoiti og'ir bo'lishiga qaramay, ilmga intilishi kuchli edi. Buxoroda madrasada tahsil olgan davrda Sayido rasmiy ta'lim dasturidan tashqari falsafa, axloq, musiqa, bade' ilmi va boshqa fanlarga ham qiziqib, mustaqil ravishda chuqur o'rgandi. Uning bu izlanishlari natijasida tez orada mehnatkash xalq orasida iqtidorli shoir sifatida tanildi va obro' qozondi.

Ammo ijodkorning umri davomida ijtimoiy ahvoli yaxshilanmadi. Garchi u kasbiy shoir darajasiga ko'tarilgan bo'lsa-da, she'rlari hokim tabaqa va amaldorlar orasida xaridor topmadi. Shu sababli Sayido umrining oxirigacha kambag'allikda, benavo holda kun kechirdi va taxminan 1707-1711 yillar oralig'ida Buxoroda vafot etdi.

Sayido Nasafiyning adabiy merosi juda boy. Uning kulliyot va devonlarida turli janrdagi asarlar jamlangan: g'azallar, qasidalar, masnaviyalar, musaddas va muxammaslar, mustazodlar, muammolar, ruboiylar, qit'alar, shuningdek, tamsiliy asarlar – «Bahoriyot», «Shahroshub» va boshqalar. Uning ijodida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy g'oyalar asosiy mavzu sifatida alohida o'rin egallaydi.

Shoirning dunyoqarashi va ijtimoiy qarashlari ayniqsa tamsiliy masnaviyi – «Bahoriyot»da yorqin ifodalangan. Asar 18 turli hayvon – sichqon, mushuk, it, qo'y, bo'ri, sigir, tuya, toshbaqa, kirpi, tulki, quyon, maymun, kiyik, yo'lbars, fil, karkidon, sher va chumoli o'rtasidagi munozara shaklida qurilgan. Har bir hayvon avval boshqalarni tanqid qiladi, so'ngra o'zining fazilat va yaxshi sifatlarini bayon etadi.

Zohirda asarning mavzusi sodda ko'rinsa-da, aslida u ramziy uslubda ijtimoiy va siyosiy fikrlarni ifoda etadi. Shoir hayvon obrazlari orqali turli ijtimoiy tabaqalar vakillarining xarakteri va xislatlarini aks ettirgan. Masalan, «chumolilar» orqali mehnatkash xalq tasvirlanadi: ular doim mehnat bilan mashg'ul bo'lib, moddiy va maishiy ne'matlarni yaratadi, davlatning barqarorligi va boshqa tabaqalarning farovonligi shu xalq mehnatiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, shoir fikriga ko'ra, agar chumolilar ittifoqda bo'lsalar, o'z manfaatlari yo'lida har qanday ishni bajarishga qodir.

Sayidoiyning dunyoqarashi zamonasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoiti ta'sirida shakllangan. Shu sababli u o'z asarlarida ayniqsa hunarmand va kosiblar hayoti, axloqi va odatlarini aniq va ravshan aks ettiradi. Uning she'rlarini o'qirgan, o'quvchi XVII–XVIII asrlarning ijtimoiy-axloqiy tuzumi haqida ibratli xulosa chiqara oladi.

Shoirning asarlari o'sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini oyna kabi ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan, Sayido Nasafiyning ijodi tarixiy voqelikni chuqur ifoda etuvchi, ma'naviy meros sifatida ham ulkan ahamiyatga egadir.

Sayido Nasafiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari markazida davlat va xalq munosabati turadi. Uningcha, har qanday davlatning asosiy ustuni - bu xalqdir. Agar hukmdor xalqning ahvolidan bexabar bo'lsa, xalq dardiga quloq tutmasa, bunday podshohning hukmronligi ma'nosizdir. Sayido bunday hukmdorni hayotdan ayrilgan sherga qiyoslaydi: u qudratli ko'rinsa-da, aslida kuchsiz va ta'sirsizdir.

*«Подшоҳе к-у зи мулки худ намегирад хабар,
Мурдаи шере бувад, афтода дур аз беша».*

Bu misrada shoir davlat va hukmdor taqdirini xalqning holati bilan bevosita bog'laydi. Xalqdan uzilgan podshoh, ayni paytda, davlat ham chiriydi va uning barcha ishlari samarasiz qoladi.

Sayido asarlarida xalq na faqat ijtimoiy kuch, balki muqaddas va ilohiy bir quvvat sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, xalqning quvvatiga qarshi chiqqan har qanday zolim yoki dushman o'zining halokatiga sababchi bo'ladi. Chunki xalqning qudrati bahrga o'xshaydi: u

kuchayganda, hatto kuchli va zo'ravonlarni ham halok qiladi.

*«Хар ки бо душмани халқ равой аст чу баҳр,
Зуд бошад ки сари хеш чу гурдоб хӯрад».*

Shoir xalqni davlatning hayot manbai sifatida e'tirof etadi. Xalq bor ekan, davlat tirik; xalq yo'q ekan, davlat ham yo'q.

Sayido ijodida ijtimoiy ziddiyatlar, mehnatkash va zolim tabaqalarning qarama-qarshiligi keng yoritilgan. Mehnatkashlar og'ir turmush kechirib, qiyinchilikka sabr qiladilar, ammo ularning mehnati butun jamiyatning taraqqiyoti va davlatning barqarorligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shoir bunga qarshi ravishda hukmdorlar va zulmpesha tabaqani qoralaydi. Ular o'z nafsi uchun yashovchi, tama'gir, firibgar insonlar sifatida tasvirlanadi. Sayido ularni «boyqush» - ovozsiz va qimmatsiz qush, yoki pilla ichidagi qurt - ma'naviy jihatdan qashshoq, foydali ish qilmaydigan va faqat zarar keltiruvchi mavjudotlarga qiyoslaydi.

Sayido o'z davridagi ziyoli an'anani davom ettirib, ilm va aqlning kuchiga katta ishongan. Uning fikricha, insonni yuksak maqsadlarga yetkazadigan narsa - bu aql va bilimdir. Tan quvvati yoki zo'ravonlik vaqtinchalik ustunlik berishi mumkin, ammo insonning haqiqiy kuch-qudrati aql va bilimdir.

Sayido shunday yo'l bilan jamiyatda ma'rifat va ilmning ahamiyatini ulug'laydi va odamlarni ilm-ma'rifatga da'vat qiladi.

Shoirning dunyoqarashida mehnat alohida o'rin egallaydi. Uningcha, hayotdagi farovonlik va baxt-saodat mehnat bilan chambarchas bog'liq. Mehnatsiz hayot bo'lishi mumkin emas. Sayido hatto kichik jonzot - o'rgimchakning ham o'z kunlik rizqini topish uchun magas quvib mehnat qilishini misol qiladi.

Uningcha, insonning rizqu ro'zisi osongina kelmaydi: inson doimo harakatda, mehnatda bo'lishi shart. Bu holni u tegirmonga qiyoslaydi: tegirmonni aylangandagina un chiqar, inson ham harakat qilgandagina rizqu ro'zi topadi.

Sayido ijodida oila ham muhim o'rin tutadi. U oilani farzand tarbiyasining asosiy maktabi sifatida e'tirof etadi. Farzandning kelajakda qanday inson bo'lishi, uning axloq-odobi va muvaffaqiyati ota-onaning tarbiyasiga bevosita bog'liq.

Agar farzand tarbiyasiz qolsa, u hayotda qadrsiz va haqoratga duchor bo'ladi. Shoir buni she'riy misol bilan bayon qiladi:

*«Бе падар фарзанд помоли маломат мешавад,
Чун садаф бишкаст об аз рӯи гавҳар меравад».*

Bu baytda farzand tarbiyasining ahamiyati oydin ko'rinadi. Sadaf suvsiz qolsa, gavhar ham qimmatini yo'qotgani kabi, farzand ham oila va ota tarbiyasidan mahrum qolsa, hayotda kambag'al va zaif bo'ladi.

Sayido Nasafiy o'z asarlarida xalqni davlatning poydevori va jamiyatning asosiy quvvati sifatida tasvirlagan. U hukmdorlarni xalqqa e'tiborsizlikda qoralab, mehnatkashlarni davlatning haqiqiy tirgaklari sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga, ilm va aqlning kuchini ulug'lab, mehnatni insoniy hayotning asosi sifatida ko'rsatadi. Oila tarbiyasi haqidagi fikrlari esa uning tarbiyaviy g'oyalarini yanada to'ldiradi.

Sayido ijodidan ko'rinadiki, u nafaqat shoir, balki zamonasining ma'naviy yo'lbo'shchisi, xalqning dardini o'ziga yaqin olgan va uni adolatga da'vat etgan ziyoli sifatida tarixda qoldi.

Sayido Nasafiy inson hayotida do'st va rafiqning ahamiyatini alohida ulug'laydi. Uningcha, insonning haqiqiy kuch-qiyamati, moddiy boylik yoki martabasida emas, balki atrofidagi samimiy va vafodor do'stlardadir. Do'st - insonning hayot yo'lidagi asosiy takyasi va madadkoridir. Faqat haqiqiy do'stning yordami bilan odam dushmanini yengib, to'siqlarni orqaga tashlashi mumkin. Shu bois shoir odamlarni do'stlikni qadrlashga, undan ayrilmaslikka da'vat qiladi:

*«Рафиқ аз каф мадеҳ душман агар хоҳӣ забун гардад,
Туро сӯзан ба даст афтод хор аз но бурун афтад».*

Bu misralarda do'stlik hayotdagi kichik qiyinchiliklarni ham yengillashtiruvchi kuch sifatida ko'rsatilgan. Chunki haqiqiy do'st insonning qo'lidagi sʻzdan kabi yordamchi bo'lib, hayotdagi xorni ham osongina yo'qotib yuborishi mumkin.

Sayido ijodida rostgo'ylik va vafodorlik insonning eng qimmatli axloqiy sifatlari sifatida talqin qilinadi. Uningcha, rostgo'y inson jamiyatda obro' qozonib, hatto sarbaland insonlar ham unga hurmat bilan yondashadilar:

*«Сарв меояд ба истиқболаш аз боғи мурод,
Ростиро ҳар ки месозад асои хештан».*

Rostgo'ylik - zavolsiz fazilat. Shoir buni sarv obrazi orqali ifodalaydi: sarv daraxti qurisa ham, undan aso tayyorlanishi mumkin. Bu degani, rostgo'ylik qaysi sharoitda bo'lmasin, o'z qimmatini yo'qotmaydi:

*«Ростиро набвад ҳеч заволе ба чаҳон,
Сарв агар хушк шавад боз асо мегардад».*

Shu bilan shoir rostlikni insonning abadiy hamrohi va hayotdagi eng ishonchli takyasi sifatida ulug'laydi.

Sayido uchun qanoat - insonning haqiqiy boyligi. Uningcha, qanoatmand odam komyobdir, u moddiy jihatdan kam ta'min bo'lsa ham, ruhan baxtli bo'ladi. Shu ma'noda shoir qanoatni Fag'fur podshohining zarrin kosasidan ham qimmatli deb ta'riflaydi:

*«Ҳар ки аз мулки қаноат, Сайидо шуд комёб,
Косаи Фағфурро зарфи сафолӣ мекунад».*

Bu yerda shoir moddiy boylik emas, balki ma'naviy boylik insonni haqiqiy qoniqishga yetkazishini ta'kidlaydi.

Sayido rostlik, vafo va qanoat g'oyalarini targ'ib qilishi, shu bilan birga, tama' va tama'korlikni qoralashi zamonaning talabidan kelib chiqqan edi. XVII asr oxirida Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida davlat boshqaruvi og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Mansabdorlar o'rtasida yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik va poraxo'rlik keng tarqaldi. Pora orqali mansab egallash odatiy holga aylandi. Bu hol xalq orasida qattiq norozilik uyg'otdi. Axloqiy inqiroz hokimlar va sarkardalarning hayotida ham chuqur o'z ifodasini topdi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sharoitda Sayido rostlik va qanoat g'oyalarini ilgari surib, xalqni ma'naviy poklanish va adolat yo'liga undadi.

Sayido Nasafiyning ijtimoiy-axloqiy g'oyalari do'stlik, rostlik, vafo va qanoat atrofida mujassam. Uningcha, bu fazilatlarga ega inson hayotda muvaffaqiyatga erishadi, jamiyatda obro' qozonadi va haqiqiy baxtga yetadi. Shoir tama'korlik va adolatsizlikni eng past sifat sifatida qoralab, xalqni ma'naviy poklikka, adolat uchun kurashga chorlaydi.

Sayido asarlari faqat she'riy meros emas, balki xalq uchun ma'naviy dastur - axloqiy kodeks hamdir. Shu bois uning fikrlari XVII–XVIII asrlardagina emas, balki bugungi zamon uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Sayido insonning qadr-qiyamati, avvalo, axloq va odobida, deb hisoblaydi. Uningcha, axloq daraxtga, ilm esa uning mevasiga o'xshaydi. Agar daraxt bo'lmasa, meva ham yo'q:

*«Илм шамъ асту адаб парвонасо,
Ҳардуро ҳам дӯст медорад Худо».*

Shoirningcha, axloq - insonning asli, uning ma'naviy poydevoridir. Shu sababli u axloqni ilohiy nurdan bo'lgan tojga qiyoslaydi:

*«Адаб тоҷест аз нури илоҳӣ,
Бинех бар сар бирав ҳар ҷо, ки хоҳӣ».*

Bu misralardan ko'rinib turibdiki, Sayido axloq va ilmni ajralmas bir butun deb qaraydi. Ilm axloq bilan uyg'un bo'lsagina shaxs mukammal bo'ladi.

Sayido Nasafiyning axloqiy va ijtimoiy qarashlarida ilm, axloq, mehnat va hunar masalasi markaziy o'rin tutadi. U:

yuzaki va chala bilimni qoralaydi;
axloq va ilm uyg'unligini inson kamolining asosi deb ko'rsatadi;

mehnatkashlarni madh etib, ijtimoiy adolat g'oyasini ilgari suradi;
harakat va intilishni maqsadga yetkazuvchi yo'l sifatida ta'riflaydi;
hunarni eng yuksak fazilat sifatida e'tirof etadi.

Shoirning bu g'oyalari XVII–XVIII asrlarda ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, ular bugun ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Chunki axloq, ilm va hunar har qanday jamiyatning asosiy ustunidir.

Sayido ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uningcha, inson yoshlikda sa'y-harakat qilishi, ustoz va murabbiylardan ilm olishi zarur. Ammo shoir afsus bilan qayd etadiki, kambag'al oilalar farzandlari ilm olish imkoniyatidan mahrum edi. Shu sababdan, jamiyatda takyagohsiz – ya'ni ustozsiz inson nomdor va mashhur bo'lolmaydi.

Sayido xulosa qiladiki: ilm va fazlga ega bo'lishning o'zi yetarli emas, agar insonning ortida ustoz va takyagoh bo'lmasa, uning ishi rivojlanmaydi, maqsadiga yetolmaydi va hayotda xor-zor bo'lib qoladi.

Shoir fikricha, insonning najoti faqat o'z qo'lida. Agar inson o'zi oqilona harakat qilmasa, boshqalarning nasihati ham unga yordam berolmaydi. Shu bois u insonni shu qoidalarga chaqirgan:

shijoat va jasorat,
parhezkorlik va sabr,
tartib,
past odatlardan voz kechish.

Shu tariqa inson ma'naviy kamolotga yetishadi va nafs ustidan g'alaba qozonadi.

Tarixda Sayido Nasafiy nafaqat shoir, balki ijtimoiy, ma'naviy va vatanparvar shaxsiyat sifatida tanilgan. Uning g'azallari va she'rlari ko'proq axloqiy-ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, quyidagi masalalarni qamrab olgan:

1. zamon va jamiyat ahvolidan shikoyat,
2. boylar va hukmdorlarning zolimligi,
3. johillik va xudbinlikni qoralash,
4. ilm va ma'rifatni targ'ib qilish,
5. kasbu hunarning ahamiyatini ta'kidlash,
6. mehnatkashlarning og'ir turmushini tasvirlash.

Sayido Nasafiy ijodida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy qarashlar XVII–XVIII asrlar ijtimoiy hayotining murakkab jarayonlarini chuqur ifodalabgina qolmay, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida rostgo'ylik, vafodorlik, qanoat, mehnat va ilm inson kamolotining asosi sifatida talqin qilinib, ma'naviy barkamollikka erishish yo'lida muhim metodologik manba vazifasini bajaradi.

Shoirning axloqiy-pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlari bilan uyg'unlashadi. Xususan, yoshlarni ilmiy, ma'rifatli, insonparvar va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyosini boyitish va ijtimoiy faolligini kuchaytirish borasida Sayido g'oyalari bevosita amaliy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Sayido Nasafiyning ma'naviy-axloqiy merosi nafaqat tarixiy qadriyat, balki zamonaviy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslarini boyituvchi, yosh avlod tarbiyasida ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.

2. Муродова Т. Афкори ичтимоӣ ва инсондӯстии Сайидои Насафӣ ва хусусиятҳои он. Маҷаллаи Ахбори Иститутуи Фалсафа, Сиёсатшиносӣ ва Ҳуқуқи ба номи А. Баҳоваддинови Академияи Илмҳои Ҷумҳурии Тоҷикистон, №1 Душанбе: 2016 -171 саҳ.

3. Мирзоев А. Сайидо ва мақоми у дар таърихи адабиёти тоҷик. Сталинобод, 1947.
4. Сайидои Насафӣ. Асарҳои мунтахаб. Душанбе, 1977.
5. Раҳимов Б., Афзалов Х. Таърихи педагогикаи халқи тоҷик. Душанбе:1994.
6. Ҳасанбоева О., Ҳасанбоев Ж., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи-. Т.: “Ўқитувчи”, 1997.
7. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи.-Т.: “Ўқитувчи”, 1996.

Raximbayev Jo'rabek Sobirovich,
Urganch RANCH texnologiya universiteti,
pedagogika va aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
raximbayevjorabek@96gmail.com

LIDERLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI O'RGANISH BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy liderlik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni yoritilgan. Etakchilik fazilatlarining ahamiyati, ularni aniqlash va rivojlantirishda pedagogik diagnostika usullarining o'rni ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida ikki asosiy diagnostika usuli qo'llanilgan: "Men etakchiman" (E.S. Fedorov, O.V. Eremin, T.A. Mironova) testi va kichik guruhlarda funktsional etakchilikni aniqlash usuli (N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov, G.M. Manuilov). Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarning kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlari, shuningdek, tengdoshlari orasidagi mavqei baholangan. Natijalar o'quvchilarda liderlik fazilatlarining rivojlanish darajalarini (past, o'rtacha, yuqori) aniqlash va pedagogik jarayonda ularni maqsadli rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy sifatleri va ijtimoiy munosabatlari shakllanishida liderlikning o'rni muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari, liderlik fazilatleri, pedagogik diagnostika, kommunikativ qobiliyatlari, tashkiliy qobiliyatlari, shaxslararo munosabatlari.

Аннотация. В данной статье освещается процесс формирования и развития позитивных лидерских качеств у учащихся начальных классов. Рассматривается значение лидерских качеств, их выявление и роль педагогической диагностики в процессе развития. В ходе исследования были использованы два основных диагностических метода: тест «Я – лидер» (Е.С. Фёдоров, О.В. Еремин, Т.А. Миронова) и методика выявления функционального лидерства в малых группах (Н.П. Фетискин, В.В. Козлов, Г.М. Мануйлов). С помощью данных методов оценивались коммуникативные и организаторские способности учащихся, а также их положение среди сверстников. Полученные результаты позволили определить уровни развития лидерских качеств (низкий, средний, высокий) и выявить возможности их целенаправленного развития в педагогическом процессе. Исследование подчеркивает важность лидерства в формировании личностных качеств и социальных отношений учащихся начальных классов.

Ключевые слова: Ученики начальных классов, лидерские качества, педагогическая диагностика, коммуникативные способности, организационные способности, межличностные отношения.

Annotation. This article highlights the process of forming and developing positive leadership qualities in primary school students. The significance of leadership qualities, their identification, and the role of pedagogical diagnostics in their development are examined. Two main diagnostic methods were applied in the study: the "I am a leader" test (E.S. Fedorov, O.V. Eremin, T.A. Mironova) and the method for identifying functional leadership in small groups (N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov, G.M. Manuilov). Using these methods, the students' communicative and organizational abilities, as well as their status among peers, were assessed. The results made it possible to determine the levels of leadership development (low, medium, high) and to identify opportunities for their purposeful development in the pedagogical process. The study emphasizes the importance of leadership in the formation of personal qualities and social relations of primary school students.

Key words: Primary school students, leadership qualities, pedagogical diagnostics, communication skills, organizational skills, interpersonal relations.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimida interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari joriy qilinmoqda. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik fazilatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Ijobiy etakchilik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida eng muhim va biri hisoblanadi. Bolalar, yosh va shuningdek, ta'sir qiluvchi murakkab muammolar ijtimoiy pedagogika va psixologiya. Diagnostika usullari. Ushbu ishda foydalanilgan ikkala o'quv guruhiga qaratilgan sinfda sodir bo'ladigan jarayonlar va o'qituvchining shaxsiyati va uning tengdoshlar guruhidagi mavqeini o'rganish.

Boshlang'ich ta'lim – bolalarning shaxsiy rivojlanishida eng muhim davrlardan biridir. Shu bosqichda o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, ma'naviy va ma'rifiy bilimlarni ham oladilar, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalari, mas'uliyat hissi va liderlik fazilatlarini ham shakllana boshlaydi. Chunki aynan shu yoshda bola jamoadagi o'z o'rnini topishga, tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashga va o'z fikrini erkin ifoda etishga intiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (7–10 yosh) faol bilishga qiziquvchan, tengdoshlari orasida mavqega intiluvchan va kattalarga taqlidchan bo'ladi. Shu bois, bu davrda ularda liderlik fazilatlarini shakllantirish eng samarali hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi lider bo'lishi uchun nutq madaniyati va muloqot qobiliyatlari muhim. O'qituvchi bolaga:

so'z boyligini kengaytirish,

nutqni ifodali qilish,

suhbatdoshni tinglash madaniyatini o'rgatishi kerak.

O'quvchilarda liderlikni aniqlash uchun psixologik testlar, so'rovnomalar, kuzatish metodlari qo'llaniladi. O'qituvchi bolani darsdagi faolligi, guruhdagi mavqei, tashabbuskorligi orqali baholashi mumkin. O'qituvchi liderlik fazilatlarining rivojlanishida asosiy vositachidir. U o'quvchilarga erkin fikr bildirish, tashabbus ko'rsatish, jamoani boshqarish imkoniyatini berishi lozim. Masalan, Finlandiyada boshlang'ich ta'limda hamkorlik va mustaqil loyihalar orqali liderlik rivojlantiriladi. Yaponiyada jamoaviy intizom va mas'uliyat yetakchi sifatlarda tarbiyalanadi. AQShda esa o'quvchilarni erta yoshdan jamoat ishlari va tanlovlarda ishtirok etishga rag'batlantiriladi.

Liderlik faqat boshqarish emas, balki boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati hamdir. Bolada emotsional intellektni rivojlantirish uchun:

darslarda drammatizatsiya,

o'yinlarda obrazli vaziyatlar,

jamoaviy muhokamalar tashkil etish tavsiya etiladi.

Pedagogik diagnostikadan foydalanib, o'qituvchi olishi mumkin turli ma'lumotlar, masalan, etakchilikning rivojlanish darajasi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida va keyinchalik ishni sozlash etakchilik fazilatlarini shakllantirish bo'yicha. Biroz vaqt o'tgach, o'qituvchi yetakchilikni rivojlantirish va shakllantirish dinamikasini bashorat qila oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi fazilatlar; diagnostika paytida, o'qituvchi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Talabalarda etakchilik fazilatlarini rivojlantirishni aniqlash;

biz ilgari aniqlagan darajalardan foydalanamiz (1-jadvalga qarang).

Liderlik fazilatlarining rivojlanish darajalari

| Past daraja | O'rtacha daraja | Yuqori daraja |
|--|---|---|
| Ular faollik ko'rsatmaydi, o'z faoliyatini tashkil eta oladigan, tez-tez ordamga muhtoj bo'lgan odamni topishga harakat qiladi, tengdoshlari bilan faol muloqot qilishga intilmaydi va "tashqarida" pozitsiyasini egallaydi. | Ular faol, o'zlarini tashkil qilishga harakat qiling harakatlar, lekin ba'zan yordam kerak, qurish mumkin bilan aloqa qilish tengdoshlar, natijalarga olib keladi | Ular guruhda ishlashda faol, tashabbusni o'z qo'liga oladi, nafaqat o'z faoliyatini, balki atrofdagilarning faoliyatini ham tashkil etishga intiladi, tengdoshlari bilan faol muloqot qiladi, guruhni boshqara oladi, sinfda yetakchi o'rinlarni egallaydi. |

Sinfda etakchilik fazilatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun ikkita usul qo'llanildi.

Birinchi usul "Men etakchiman" (E.S. Fedorov; O.V. Eremin, T.A. Mironova)

[1, 11-ilova], uning maqsadi nafaqat

etakchilik fazilatlarining rivojlanish darajasini aniqlash, balki kommunikativ va

tashkilotchilik qobiliyatlari, shuningdek, guruhni boshqarish qobiliyati va

rahbarlik qilish, uni boshqarish va yuzaga kelgan muammolarni hal qilish

guruh. Ushbu usul old tomondan amalga oshiriladi. Har bir bola a oladi

bayonotlar raqamlari bilan karta. 48 ta bayonotni tinglagandan so'ng,

talaba tegishli raqamning yoniga ball qo'yishi kerak 1 dan 4 gacha oldindan e'lon qilingan

mezonlarga muvofiq va mumkin kartalarda joylashgan bo'lishi kerak. Bu nuqtalar kelishuv darajasini aks ettiradi. Talabanning o'zi haqidagi bayonoti bilan.

Natijaga erishish uchun ballar sonini hisoblash kerak, har bir ustun, lekin savollar uchun berilgan fikrlarni hisobga olmag

8, 15, 22, 29, 34, 36, 41. Olingan yig'indi darajani aniqlaydi. Etakchilik fazilatlarini rivojlantirish. Agar umumiy ballar soni bo'lsa 10 dan kam bo'lsa, unda bu sifat yomon rivojlangan, ya'ni ish kerak ushbu sifatni rivojlantirish va yaxshilash. Agar summa 10 dan ortiq bo'lsa, unda bu sifat o'rtacha yoki kuchli rivojlangan. Ammo ma'lum bir talabanning etakchi ekanligi to'g'risida yakuniy xulosa chiqarishdan oldin, fikrlar hisobga olinmagan gaplarga e'tibor qaratish lozim. Agar bu gaplar 1 yoki undan kam ballga ega bo'lsa, bu talabanning javobida nosamimiy bo'lganligini anglatadi.

Barcha natijalar umumiy jadvalda aks ettirilgan. Keyin barcha ko'nikmalarning o'rtacha arifmetik qiymati hisoblab chiqiladi, keyinchalik u uchta daraja bilan bog'lanadi: past, o'rtacha va etarli. Rivojlanishning yakuniy darajasi 30

etakchilik fazilatlarini sinfdagi o'quv chilar soniga nisbatan foiz sifatida taqdim etiladi.

Etakchilik fazilatlarini darajasini aniqlashning ikkinchi usuli - bu kichik guruhlarda funktsional etakchilikning diagnostikasi. Guruhlar, mualliflar N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov, G.M. Manuilov [Ilova2].

Ushbu uslub har bir guruh a'zosining o'rnini aniq ta'riflaydi. Shaxslararo munosabatlar tizimida, shuningdek, ko'rish imkonini beradi. Psixologik holat va barcha guruh a'zolarining statuslari g'oyasini qurish.

Diagnostikaning barcha ishtirokchilari bir qator javob berishlari so'raladi

savollar, ularning har biri sherik yoki o'rtoq tanlashga bag'ishlangan har qanday faoliyat.

Natijani yanada ishonchli qilish uchun, tanlov uchta sherik bilan cheklangan. Agar savol o'z ichiga olgan bo'lsa cheksiz ko'p sheriklar tanlash, keyin u qurish kerak eng ko'p afzal qilingan sherikdan eng kamiga qadar afzalliklar g'oyasi afzal. Bunday tartib aniqroq hissa qo'shadi. Tanlash uchun ichki motivatsiya. Diagnostika davomida olingan natija umumlashtiriladi, shundan so'ngra shaxsning, shuningdek, uning psixologik holati to'g'risida xulosa chiqariladi.

O'zbekiston psixologlari bolalarda liderlikning erta aniqlanishi ularning akademik muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sirini ko'rsatishini qayd etishadi.

Xorijiy tadqiqotlar esa liderlik qobiliyatiga ega bolalar kelajakda ijtimoiy faol bo'lishini tasdiqlaydi.

Shaxslararo munosabatlar tizimidagi mavqei. Anketaning o'zi 9 tadan iborat savollar, agar xohlasa, kengaytirilishi mumkin.

Liderlik fazilatlarini rivojlantirishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi. U bolaga erkin fikrlash uchun imkon yaratishi, guruhli topshiriqlar orqali hamkorlikni rivojlantirishi va har bir kichik yutuqni qadrlashi lozim. Ota-onalar esa bolaga ishonch bildirish, uni qo'llab-quvvatlash va tashabbus ko'rsatish uchun sharoit yaratib berish orqali jarayonda faol ishtirok etadilar.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarida liderlik fazilatlarini rivojlantirish – ularning shaxsiy kamoloti va kelajakdagi ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon to'g'ri yo'lga qo'yilsa, o'quvchilar mustaqil, tashabbuskor, mas'uliyatli va jamiyat hayotida faol shaxs bo'lib ulg'ayadi. Boshlang'ich maktabda liderlikni rivojlantirish bilan birga, axloqiy qadriyatlarni ham shakllantirish zarur. Lider faqat buyruq beruvchi emas, balki mas'ul, halol, adolatli shaxs bo'lishi lozim.

Xulosa

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimiga interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining keng joriy etilishi boshlang'ich ta'limda liderlik fazilatlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, 7–10 yosh oralig'idagi bolalarda liderlikni rivojlantirish jarayoni ularning shaxsiy kamoloti, ijtimoiylashuvi va kelajakdagi faoliyatlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik fazilatlarini asosan uch darajada namoyon bo'ladi: past, o'rtacha va yuqori. Psixologik diagnostika va kuzatish metodlari orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi, kommunikativ qobiliyatlari, guruhni boshqarish ko'nikmalari va emotsional intellekti baholanishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi asosiy vositachi sifatida namoyon bo'ladi - u bolalarga erkin fikr bildirish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoa bilan ishlash va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish imkonini beradi.

Shuningdek, xorijiy tajribalar (Finlyandiya, Yaponiya, AQSh) ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich bosqichda o'quvchilarga jamoaviy topshiriqlar, mustaqil loyihalar va ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etish imkonini yaratish ularning liderlik sifatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. O'zbek psixologlari esa liderlikning erta aniqlanishi va uni qo'llab-quvvatlash bolalarning akademik muvaffaqiyatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashadi.

Umuman olganda, boshlang'ich maktab o'quvchilarida liderlik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish:

ularning mustaqillik, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissini kuchaytiradi,
ijtimoiy faollikka yo'naltiradi,

kelajakda barkamol, halol, adolatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida jamiyat hayotida munosib o'rin egallashiga yordam beradi.

Shu bois, o'qituvchi, ota-ona va ijtimoiy muhitning hamkorligi asosida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlar nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki kelajak jamiyatida faol, yetuk liderlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. E.S. Fedorov; O.V. Eremin, T.A. Mironova [1, 11-ilova],
2. N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov, G.M. Manuilov [Ilova2].
3. Abdullaeva, Q. (2020). Pedagogika asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Northouse, P. G. (2019). Leadership: Theory and Practice. Los Angeles: Sage Publications.

5. Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan.
www.edu.uz
6. W.w.w.ziyo.com

A.Mirzakulov,

*Teacher at Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Republic of Uzbekistan*

COMPRESSION STRATEGIES IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION

Annotation. *in translation theory, compression means the transformation of the original text in order to give it a more concise form. Compression of the text is achieved by omitting redundant elements of the utterance, elements replenished from the context and out-of-language situation, and also by using more compact forms of expression. In this study, we are dealing with oral discourse.*

Key words: *Simultaneous interpretation (SI), consecutive interpretation (CI), source language (SL), target language (TL), sight translation (ST), active vocabulary, passive vocabulary, Listening proficiency (LP), probabilistic forecasting strategy (PF), Compression Strategy (CS), Decompression Strategy (DS), Foreign Language (FL)*

Аннотация. *в теории перевода компрессия означает преобразование исходного текста в более лаконичную форму. Сжатие текста достигается за счёт исключения избыточных элементов высказывания, восполнения элементов, взятых из контекста и внеязыковой ситуации, а также использования более компактных форм выражения. В данном исследовании мы рассматриваем устный дискурс.*

Ключевые слова: *синхронный перевод (СИ), последовательный перевод (ПВ), исходный язык (ИЯ), целевой язык (ПЯ), перевод с листа (ПС), активный словарный запас, пассивный словарный запас, владение аудированием (ВСА), стратегия вероятностного прогнозирования (СП), стратегия компрессии (СК), стратегия декомпрессии (СД), иностранный язык (ИЯ).*

Introduction. The compression strategy must be considered in conjunction with the decompression strategy, since both strategies are closely related and have a common basis. DS will be discussed in the next part of this study.

The basis of the CS is two main factors that serve as an integral part of the SI. The first is the subject situation, the second is the different selectivity of languages. The objective situation is understood as the designation of the objects described in the texts and the connections between them. It is also necessary to include the socio-cultural aspect in the subject situation, since translation is, first of all, according to L. Visson, the translation of cultures. B. Wharf wrote that "speakers of different languages perceive facts and phenomena in different ways, since these phenomena are expressed and formulated in different ways in their languages". Consequently, the same facts and phenomena are described differently in English and Russian. Where a Russian speaker may need a large number of lexical units, an English speaker may get by with fewer, and vice versa [1, p. 115]. In the joint venture, a similar factor is very effectively used by translators, allowing one and the same idea to be expressed in a smaller number of lexical units. But this can be done more extensively. It should be noted that the choice of a particular way of expression also depends on stylistic factors.

The subject situation is directly related to the selectivity of languages. Any utterance contains a certain number of signs of the situation being described. At the same time, the level of detail can be different in different languages. For example, the famous joke about the "stupidity" of the Belgians, told by the Dutch, sounds in Russian translated from the Dutch language as follows:

Сколько нужно бельгийцев, чтобы заменить перегоревшую лампочку? -Пять. Один встает на табуретку, держит новую лампочку в патроне, а четверо других вращают его за края табуретки.

This is how a similar subject situation is described in English. In the state of Oregon, whose residents are famous for their dislike of Californians, there is a similar joke:

How many Californians does it take to replace a light bulb? Five - one to screw in the bulb and four to "share the experience".

In this example, we are dealing with different means and a different number of lexical units when expressing the same idea in different languages [10]. In fact, one of the reasons for compression is the different means of expression used in languages, including the economy of language means. Effective application of this strategy in a SI leads to gain in time, enables a simultaneous interpreter to express ideas in a more idiomatic way and to avoid possible mistakes, especially when translating into a foreign language. Compression is clearly traced here when translating from Russian into English without loss of semantic units and with preservation of the expressive function of the utterance. In this case, compression occurs at the level of both the subject situation and linguistic selectivity. Thus, the segment of the Russian saying "stands on a stool, holds a new light bulb in the socket" is rendered into English as "screw in the bulb", and the phrase "four others rotate it by the edges of the stool" is rendered as "four to share the experience". As we can see, the Russian and English languages have different degrees of detail, which allows the simultaneous interpreter in one case to use compression, and in the other, the reverse method – decompression [2, c.170]. On the one hand, the number of features of the described objective situation depends on the speaker himself, on the other hand, we are dealing with the fact that different languages can be selective in relation to both the degree of such detail and the means of achieving it. Such linguistic factors are the basis for compression and decompression [4, 11].

Thus, a comparative analysis of the Russian and English languages shows that in the English utterance the situation as a whole is described in less detail than in Russian. Certain signs mentioned in the Russian utterance are implied in English, but do not receive verbal expression. Similar linguistic phenomena are reflected in the SI.

The compression strategy is also used in cases where the sender of information pronounces a speech at a very high speed and the simultaneous interpreter does not keep up with the speaker, since he has to not only pronounce the information received on the TL, but also synchronously process the information received from the sender at the time of pronouncing the previous semantic group

The issue of speed of speech was extensively studied by Prof Gerver and Barik, who attached great importance to this aspect. The speed at which a message is sent is an important factor that can have a decisive influence on the quality of the translation [4, 390]. Seleskovitch believed that the rate of presentation of the material by the speaker at a speed of 100 - 120 words per minute is optimal for normal synchronous reproduction of this message on the SI. The sending speed of 150-200 words per minute is, according to Seleskovich, the upper limit, after which any normal simultaneous translation is impossible. Lederer generally believed and that 100 words per minute - maximum limit for adequate reproduction of synchronous communication [3, .46].

Naturally, at a high speech rate, the simultaneous interpreter has to compress individual segments of the utterance. However, high feed rates are not the only factor in this strategy.

CS can be very effective even with excessive redundancy of information, where repetition is observed in a number of semantic groups or one semantic segment follows from another. Let's call such a sequence a logical chain. When compressing text, this logical chain must be preserved without fail, i.e. the recipient of the information must be able to restore it in the event of the possible loss of individual elements. Let's make a reservation: the loss of elements of the original text should not lead to semantic losses in the TL, since one link of the logical chain will generate another, which will be completely natural for the recipient of the information. The semantic chain can be schematically represented as follows. If link A exists, then link B must exist. If link B exists, then link C also exists, and so on. In the joint venture, when the

simultaneous interpreter removes one link of the logical chain (and in some cases even two), the logical sequence on the TL should be preserved in order to avoid semantic losses [7, c.184]. In such a case, simultaneous interpretation can be considered successful, since the main task of a simultaneous interpreter is to convey the meaning of a statement. To accomplish such a task, he has to constantly edit the original text, solving in a matter of seconds what should be edited in order to avoid losing meaning in the FL. SK is also inextricably linked with logic in translation, where one should logically follow from the other.

In addition, no amount of verbal clichés and the intuition based on them will eliminate the mistakes made by all translators - good and bad, experienced and novice. In the end, they all have to decide how to edit and shorten the text. And to decide on the go, when the speaker speaks at a fast pace, when it is very difficult to rebuild his speech during translation, when the probability of errors increases a hundredfold [5, c/59].

So, compression is nothing more than a decrease in the level of objective redundancy of a message. According to the method of implementation, compression in the joint venture can be divided into:

1) syllabic (choosing a shorter word from several possible ones), for example, “talks” instead of “negotiations”.

2) syntactic (choice of a shorter construction), for example , “as for surveillance” instead of “as far as surveillance is concerned”.

3) lexical (expression of the same thought in fewer words), “изменение дел к лучшему” - improvements, availability of information - awareness.

4) semantic (reduction of the repetition of redundant words, SG and CSC in the statement and message). For example: “Птицы существуют, чтобы летать, рыбы - для того, чтобы плавать, а жены - чтобы пилить мужей” - “Birds gotta fly , fish gotta swim , and wives gotta nag ” [8, c. 22].

These four types of compression can be the same, partially or completely. So, a complete coincidence of all four types of compression can serve as the transfer of only a pure rema of an TL statement. However, this is only possible under certain conditions, i.e. when the use of such compression is dictated by the situation.

Here are some specific examples:

Em cee: Our keynote presenter is Dr. Udo Middelman. He is an international speaker (Conference: Humanization of education through the application of universal human valies).

Translation: Удо Миддельман.

In most cases, it is unacceptable for the presiding officer to represent the speaker in this way according to the protocol. However, considering this case as a compression that includes all types, it is easy to see certain advantages for the interpreter [9, 68]. The number of syllables on the TL is reduced from 22 to 5 in comparison with the FL, which gives the simultaneous interpreter the opportunity to perceive the next semantic group in the listening mode. A simple common sentence is shortened to a title. The number of full words is reduced from six to two. In the semantic-semantic plan, only pure rhema is transmitted to the TL [6, c. 102].

Simultaneous interpretation (SI) is a highly demanding cognitive activity that requires interpreters to process, analyze, and reproduce messages almost instantly. Since the source speech and the target speech occur at the same time, interpreters are often confronted with information overload, time pressure, and structural differences between languages. In order to cope with these challenges, interpreters apply various strategies that allow them to deliver the message accurately and efficiently. One of the most crucial among these is compression.

O'zbekiston sharoitida bu yondashuvni joriy etish uchun normativ-huquqiy baza, texnologik infratuzilma va malakali kadrlar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, oliy ta'lim sifatini boshqarishning davlat dasturlari va strategiyalarida kognitiv modellarni qo'llash talab etiladi. Shu jihatdan qaraganda, Prezident qarorlari va "Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" [1] axborot-kognitiv boshqaruvning amaliy joriy etilishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.


Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSh va Yevropa mamlakatlarida axborot va kognitiv yondashuvlar ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Masalan, Germaniyada oliy ta'lim sifatini baholashda "Bildungsmonitoring" tizimi ishlatiladi, u ta'limning har bir bosqichida aniq indikatorlar asosida monitoring yuritadi. AQShda esa "Cognitive Assessment and Management System" (CAMS) orqali talabalar yutuqlari kognitiv ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

Qo'shimcha jadval: Yondashuvlar taqqoslanishi

| Yondashuv turi | Afzalligi | Cheklovi |
|-----------------------------------|---|---|
| An'anaviy boshqaruv | Intizom va nazoratni ta'minlaydi | Moslashuvchanlik past |
| Kompetensiyaga asoslangan | Natijaviylikka yo'naltirilgan | Jarayonni nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi |
| Axborot-kognitiv boshqaruv | Integrativ, moslashuvchan, bashoratli qarorlar qabul qilish imkonini beradi | Murakkab axborot oqimlarini boshqarishni talab qiladi |

Axborot-kognitiv yondashuv integratsiyasi (Venn diagramma)

Axborot-kognitiv yondashuv integratsiyasi



Boshqaruv bosqichlari jarayoni



Xulosa.

Oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarishda axborot-kognitiv yondashuv nazariy va amaliy jihatdan eng istiqbolli yo'nalishlardan biridir. U sifat, axborot va kognitiv boshqaruvni birlashtirib, ta'lim tizimini kompleks ravishda rivojlantirishga imkon beradi.

Pedagogik loyihalash jarayonida axborot-kognitiv yondashuv innovatsionlik, ommaviylik, moslashuvchanlik va samaradorlik tamoyillari bilan uyg'unlashadi. Natijada oliy ta'lim tizimi boshqaruvining dinamik, moslashuvchan va barqaror modeli shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1 Авторское эмпирическое исследование (данные диссертационного проекта).
2. Беспалько В.П. Когнитивные подходы в управлении образованием. – Москва: Педагогика, 2009. – 250 б.
3. Бондаревская Е.В. Моделирование педагогических систем. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2009. – 240 б.
4. Дахин А.Н. Педагогическое проектирование: теория и практика. – Москва: Академия, 2010. – 280 б.
5. ISO/IEC 15288:2008. Systems and software engineering – System life cycle processes. – Geneva: ISO, 2008. – 152 б.
6. Камалеева А.Р. Педагогические системы: теория и практика. – Казань: Казан. ун-т, 2011. – 230 б.

Xojiyeva Matluba Shukurovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Maqolada pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida aksiologik (qadriyatlarga asoslangan) yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Qadriyat va kasbiy qadriyatlar tushunchalariga falsafiy va sotsiologik ta'riflar keltirib, o'qituvchilik kasbi doirasidagi axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy prinsiplar izohlangan. Aksiologik yondashuv nafaqat bilim va ko'nikmalar berish, balki talabalarda ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilishi lozimligi ta'kidlangan. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun interfaol metodlar (munozara, rolli o'yinlar) va maxsus kurslarni ta'lim dasturiga kiritish taklif etiladi.*

***Kalit so'zlar:** kasbiy qadriyatlar, aksiologiya, o'qituvchilarni tayyorlash, sotsiokultural nazariya, ma'naviy-axloqiy tarbiya.*

***Аннотация.** В статье анализируется значение аксиологического (ценностно-ориентированного) подхода в процессе подготовки педагогических кадров. Даются философские и социологические определения понятий «ценность» и «профессиональные ценности», раскрываются этические, социальные и личностные принципы в рамках профессии педагога. Отмечается, что аксиологический подход должен быть направлен не только на передачу знаний и навыков, но и на формирование нравственных и социальных ценностей у студентов. Предлагается внедрить интерактивные методы (дискуссии, ролевые игры) и специальные курсы в образовательные программы для развития профессиональных ценностей будущих учителей.*

***Ключевые слова:** профессиональные ценности, аксиологический подход, подготовка педагогов, культурно-историческая теория, нравственное воспитание.*

***Annotation.** The article analyzes the importance of an axiological (values-based) approach in training pedagogical staff. It provides philosophical and sociological definitions of the terms "value" and "professional values" and explains the moral, social and personal principles within the teaching profession. The axiological approach should not only transfer knowledge and skills, but also focus on developing moral and social values in students. The author proposes introducing interactive methods (discussions, role-playing) and specialized courses into educational programs to foster professional values in future teachers.*

***Key words:** professional values, axiological approach, teacher education, sociocultural theory, moral education.*

Kirish. Kasbiy qadriyatlar tushunchasini izohlashdan oldin, avvalo umumiy "qadriyat" atamasining mohiyatini aniqlashtirish lozim. Falsafiy nuqtayi nazardan qadriyat – bu inson va jamiyat uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar, voqealar, g'oyalar, an'ana va me'yorlarning qiymatini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi [1].

Metodologiya. Ilmiy adabiyotlarda qadriyatlar atamasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, masalan, amerikalik olim M. Rokeach qadriyatni "ma'lum bir xulq-atvor uslubi yoki mavjudlikning yakuniy maqsadi boshqa muqobil xulq-atvor uslubidan yoki maqsadidan afzalroq ekaniga doimiy e'tiqod" deya ta'riflaydi [10].

Antropolog K.Kluckhohn esa qadriyatni shaxs yoki guruh uchun xos bo'lgan va ularning xatti-harakatlarida mavjud usullar va maqsadlar tanloviga ta'sir etuvchi "istalgan narsaning kontsepsiyasi" sifatida izohlagan [9].

Shunday ekan, kasbiy qadriyatlar deganda pedagogik kasb doirasidagi axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik prinsip va fazilatlarining yig'indisi tushuniladi. Bu tushunchaga o'qituvchilik kasbining jamiyatdagi ijtimoiy obro'-e'tibori, pedagogning kasbga munosabati,

kasbiy burch va mas'uliyat, bolalarga mehr-muhabbat, bilimga va haqiqatga hurmat kabi qator fazilatlar kiradi. Darhaqiqat, pedagogik qadriyatlar iyerarxiyasida eng yuqori o'rinni qadriyatlar-fazilatlar egallaydi, chunki aynan mana shu fazilatlarida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri namoyon bo'ladi.

Ta'lim sohasida aksiologik yondashuv deganda, pedagogik jarayonni aynan shu qadriyatlar prizmasidan tashkil etish metodologiyasi tushuniladi. Ya'ni bu yondashuv ta'lim-tarbiyada nafaqat bilim va ko'nikmalar berishga, balki talaba-yoshlarda axloqiy me'yorlar, estetik ideallar hamda ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratiladi [5].

Aksiologiya atamasi (yunoncha "axios" – qiymat va "logos" – ta'limot) qadriyatlar haqidagi fan bo'lib, pedagogik aksiologiya ta'lim oluvchini ham, ta'limning o'zini ham qadriyat deb e'tirof etgan holda ta'lim jarayoniga qadriyatli yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiladi [10]. Demak, aksiologik yondashuv mohiyatan bo'lajak pedagoglarni faqat o'z fanining bilimdon mutaxassisi sifatida emas, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, kasbining ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglagan va unga mas'uliyat bilan yondashadigan shaxs sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Kasbiy identifikatsiya, ya'ni o'qituvchining o'z kasbiga daxldorlik hissi va professional burchini anglash, kasbiy etika me'yorlariga sodiqlik hamda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ulari aynan qadriyatlar vositasida tarkib topadi. Shu bois, bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuvni qo'llash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Natijalar. Kasbiy qadriyatlarning shakllanishi – kelajak pedagoglar rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida – nazariy manbalarda turli olimlar tomonidan yoritilgan. Turli maktab va region vakillarining qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, ular mazmunan bir-birini to'ldiradi va pedagog shaxsini tarbiyalashda qiymatga yo'naltirilgan ta'limning naqadar zarurligini ko'rsatadi.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ta'lim jarayoni doimo ma'lum bir ijtimoiy-ma'naviy ideallar va qadriyatlarga asoslanadi. J.Dyui kabi g'arb faylasuf-pedagoglari ta'limni jamiyatning axloqiy maqsadlari bilan chambarchas bog'liq holda tushuntiradi. J.Dyuining qayd etishicha, "har qanday ta'limning yakuniy maqsadi – xarakter (xalqcha aytganda, komil inson) shakllantirishdir". U maktabni kichik jamiyat deb atab, unda yoshlarga jamiyat hayotiga xos barcha ijtimoiy munosabat va mas'uliyatlarni amaliy o'rgatish zarurligini uqtirad [2]. J.Dyuining fikricha, ta'lim mazmuni va jarayoni bolalarda "har qanday darsning axloqiy maqsadi bo'lishi" shiori ostida tashkil etilishi lozim – chunki aynan ta'lim orqali o'quvchilarning intellektual bilimlari hayotiy qaror va xulq motivlariga aylantirilishi mumkin. Agar ta'lim jarayoni axloqiy tarbiya berishga yo'naltirilmasa, unda "ta'limning asosiy vazifasi – yaxshi insonni tarbiyalash" degan gap shunchaki da'voga aylanishi mumkin edi, deb yozadi Dyui. Demak, yetuk pedagog olimlar ta'limning mohiyatini faqat bilim berish bilangina cheklamay, balki yuksak axloqiy fazilatli va jamiyatda mas'uliyatli shaxsni voyaga yetkazish bilan bog'laydilar. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimida aksiologik yondashuv – ya'ni ta'lim mazmuniga qadriyat va ma'naviy-axloqiy tarbiyani singdirish – o'ta muhim deb e'tirof etilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'ladigan qadriyatlar tizimi bir necha qatlamlardan iborat. Pedagogika sohasida o'tkazilgan nazariy izlanishlarga ko'ra, o'qituvchining qadriyatlar tizimi ijtimoiy, guruhiy (jamoaviy) va shaxsiy darajadagi komponentlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar – bular jamiyat miqyosida o'qituvchi kasbining ahamiyati va nufuzini tasdiqlovchi tamoyillardir. Masalan, o'qituvchi mehnatining ijtimoiy ahamiyati, pedagogik faoliyatning jamiyat tomonidan e'tirof etilishi, o'qituvchi mavqeining hurmat qilinishi kabi omillar shu guruhga kiradi. Ikkinchidan, kasbiy-guruhiy qadriyatlar – bu pedagogik jamoa va o'quvchilar bilan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar bo'lib, o'qituvchining kommunikativ ehtiyojlarini qondiradi. Bunga misol tariqasida, bolalarni va hamkasblarni hurmat qilish, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, mehr-muhabbat va hamdardlik ko'rsatish, madaniy-ma'naviy almashinuvni

yo'lga qo'yish kabi qadriyatlarni keltirish mumkin. Uchinchidan, shaxsiy (individual) qadriyatlar – bu o'qituvchining o'z kasbiy o'sishi va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan intilishlari hamda ichki ideallaridir. Masalan, o'qituvchining doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, kasbiy mahoratini oshirib borishi, ijodiy yondashuvni qadrlashi, dunyo madaniyati va fan yutuqlariga qiziqishi kabi fazilatlar shu toifaga kiradi. To'rtinchidan, ma'naviy-ruhiy qadriyatlarni ham alohida ta'kidlash joiz: bu o'qituvchilik kasbining romantik jihatini, jamiyatga xizmat qilish g'oyasini yuksak baholash kabi xislatlarda namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining kasbiy qadriyatlari o'z ichiga kasbga sadoqat, bolalarga mehr, adolat, vijdonlilik, halollik, professional burch, bilimdonlikka intilish, ijodkorlik, kommunikativlik kabi turli fazilatlar qamrab oladi. Bu fazilatlar uyg'un tizim hosil qilgan holda pedagog shaxsiyatining yo'nalishini belgilaydi va uning kasbiy rivojlanish ko'rsatkichiga aylanadi. Darhaqiqat, pedagog-o'qituvchining qanchalik yetuk mutaxassis va ayni paytda tarbiyachi shaxs sifatida shakllanganini aniqlashda, aynan uning qadriyatlarga sodiqlik darajasi hal qiluvchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur rus psixologlari va pedagoglari – L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, A.N. Leontev – inson psixikasi va shaxsiyati rivojini ijtimoiy-madaniy omillardan ajralgan holda tushuntirib bo'lmashligini o'z tadqiqotlarida ko'rsatib berganlar. Ularning madaniy-tarixiy (sotsiokultural) nazariyasiga binoan, bola va yoshlarning yuqori psixik funksiyalari (shu jumladan, qadriyatlarga munosabat va axloqiy tushunchalari) jamiyat bilan o'zaro ijtimoiy aloqalar jarayonida ichkilashtiriladi, ya'ni tashqi faoliyatdan ichki xarakterga ega bo'ladi. Vygotskiyning mashhur xulosasiga ko'ra, "bola rivojining har bir funksiyasi avval ijtimoiy (intersixologik) darajada, keyin esa individual (intrapixologik) darajada namoyon bo'ladi". Ya'ni, masalan, o'qituvchi muayyan axloqiy me'yor yoki qadriyatni dastlab atrofdagilar (otana, o'qituvchi) xatti-harakatida ko'rib o'rganadi, so'ng asta-sekin uni o'zining ichki e'tiqodiga va xulqiy printsipiga aylantiradi. Leontevning faoliyat nazariyasida ta'kidlanadiki, shaxs uchun mazmun kasb etgan har qanday bilim yoki g'oya uning motiviga aylanadi, motiv esa o'z navbatida ehtiyoj bilan bog'liq qiymat yukini oladi. Demak, inson faoliyatida "ijtimoiy ma'no" va "shaxsiy ma'no" o'zaro birlashadi: ijtimoiy jihatdan ahamiyatli qadriyatlar shaxs ongida individuallashib, uning shaxsiy dunyoqarashining bir qismiga aylansa, aksincha, shaxs uchun qadrlil bo'lgan ichki motiv va ideallar uni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi. Bu nazariy qarashlardan xulosa qilish mumkinki, bo'lajak pedagoglarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirish ham ustozlarning ijtimoiy muhitda namoyon etayotgan namunasi, pedagogik jamoa va umuman maktab madaniyati orqali sodir bo'ladi. Talabalar pedagog o'qituvchilarining kundalik faoliyatida ko'rgan axloqiy fazilatlar va kasbga sadoqati namunalari orqali o'zlashtiradilar. Shuning uchun pedagog kadrlar tayyorlashda rasmiy bilim berish bilan bir qatorda, ustozlikka xos axloqiy fazilatlarini amaliy namoyish etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston va MDH pedagogika ilmidagi ham, jahon ta'lim tajribasida ham bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbek olimlari ta'lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish zarurligini ta'kidlaganlar. Jumladan, J. Xasanboyev va hamkorlar tomonidan ishlab chiqilgan "Pedagogika" darsligida pedagogik jarayonda aksiologik yondashuv nazariyasi yoritilib, ta'lim oluvchining shaxsini shakllantirishda ijtimoiy-ma'naviy tajriba va qadriyatlar uzviy uzatilishi lozimligi uqtiriladi. O'zbekistonda mustaqillik davrida ta'lim tizimini isloh etish jarayonida ham milliy qadriyatlar va umumbashariy ideallar uyg'unligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yangi qadriyatlar tizimini shakllantirish, ta'lim orqali yoshlarning ma'naviy olamini boyitish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu shundan dalolat beradiki, bo'lajak mutaxassislarni, xususan pedagoglarni tarbiyalashda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki yuksak ma'naviy qadriyatlarga ega shaxsni voyaga yetkazish bosh maqsad qilib qo'yilgan. O'zbek pedagog olimasi R.M.Karimova o'z tadqiqotida aksiologik yondashuvning ta'limdagi ahamiyatini alohida ko'rsatib, bu yondashuv bo'lajak

pedagoglarning bilim va ko'nikmalarigina emas, balki axloqiy va estetik qarashlarini ham shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning qayd etishicha, aynan aksiologik yondashuv asosida intellektual kompetentlikni rivojlantirish metodikasi pedagoglarni har tomonlama fazilatli etib tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bunda interaktiv metodlar (munozara, guruhiy ishlash, rol o'yinlari va h.k.) orqali talabalarda ezgulik, adolat, go'zallik kabi axloqiy-estetik qadriyatlarga sadoqatni tarkib toptirish mumkin [8].

G'arbiy ilmiy an'anada esa aksiologik yondashuvga mos tushuncha sifatida ko'pincha axloqiy tarbiya yoki qadriyatlarga yo'naltirilgan ta'lim atamaları qo'llanadi. Masalan, J.Diyui maktablarda axloqiy tarbiyani boshqa fan va faoliyatlardan ayri holda o'rgatish samarasiz ekanini ta'kidlab, ta'lim jarayonining har lahzasini aslida axloqiy ta'lim deb qarash lozim deydi. Uning fikricha, o'qituvchi dars jarayonida har qanday mavzuni o'qitishda bolalarning xarakteriga ijobiy ta'sir ko'rsatishni ko'zlasa, aynan o'shanda u chin ma'noda axloqiy tarbiya bergan bo'ladi. Xuddi shunday, Yevropa va AQShdagi hozirgi pedagogik tadqiqotlarda ta'limda qiymatga yo'naltirish kontseptsiyasi keng qo'llanib, uning doirasida o'quvchilarga ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar orqali halollik, hurmat, bag'rikenglik, insonparvarlik kabi fazilatlarini singdirish metodikalari ishlab chiqilmoqda. Shunday qilib, nazariy tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, Sharq va G'arb olimlarining barchasi bo'lajak pedagog shaxsiyatini shakllantirishda aksiologik yondashuv – ya'ni qadriyatlar orqali tarbiyalash – hal qiluvchi omil ekanini e'tirof etadilar. Qadriyatlar ta'limning maqsadi ham, vositasi ham bo'lib xizmat qiladi: bir tomondan, pedagog o'z idealiga erishish yo'lida qadriyatlarga tayansa, ikkinchi tomondan, aynan qadriyatlar ta'lim oluvchilarning barkamol shaxs bo'lib kamol topishida mezon vazifasini o'taydi.

Muhokama. Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar va olimlar qarashlari bo'lajak pedagoglarni tarbiyalashda aksiologik yondashuvning muhimligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish uzoq muddatli va murakkab vazifa ekani tan olinishi lozim. Ko'pincha qadriyatlar darslar yoki ma'ruzalar orqali bevosita o'rgatilganda, talabalar ularni chuqurroq ichkilashtirmay turib, faqat yodaki bilim sifatida qabul qilishlari mumkin. Faqat ma'ruza yoki dars soati ko'rinishidagi "axloqiy ta'lim" bilan cheklanib bo'lmaydi – bu usulning ta'siri cheklangan. Afsuski, amaliyotda ba'zan axloqiy tarbiya maxsus bir fan yoki bir necha tushunchalarni o'rgatish bilan chegaralanadi. Bu esa qadriyatlar ta'limini hayotdan ajratib qo'yishi mumkin. Yana bir muammo – bilim va qadriyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik: an'anaviy ta'limda ko'proq nazariy bilimlarga urg'u berilib, talabalar shaxsiy fazilatlarini shakllantirish ikkilamchi vazifa sifatida qaralgan. Natijada, yosh pedagog kadrlar juda bilimdon bo'lsa-da, maktabga borgach, murakkab ijtimoiy-axloqiy muammolar oldida qiynalib qolishi mumkin. Masalan, sinfda nizoli vaziyatlarni hal etish, o'quvchining oilaviy sharoitidan kelib chiqib individual yondashuv ko'rsatish, o'zining emotsional holatini boshqarish kabi jihatlar aynan kasbiy qadriyatlarga – sabr, mehr, adolat, vazminlik, adolatparvarlik kabi fazilatlariga ega bo'lishni talab qiladi. Agar pedagogik tayyorgarlik jarayonida bu fazilatlar yetarlicha rivojlantirilmagan bo'lsa, bo'lajak o'qituvchi real muhitda qiyinchilikka duch keladi.

Yana bir muammo shuki, qadriyatlar tarbiyasi darhol sezilarli natija bermaydi. Masalan, matematika yoki til fani bo'yicha bilimni sinov yoki imtihon orqali baholash mumkin, ammo talabaning qanchalik vatanparvar yoki halol inson bo'lib voyaga yetayotganini qisqa fursatda o'lchash mushkul. Bu esa pedagoglarni ba'zan qadriyatlar tarbiyasiga yetarlicha e'tibor qaratmaslikka olib kelishi mumkin – chunki uning samarasi uzoq yillardan so'ng namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, aksiologik yondashuvni joriy etishda pedagoglarning motivatsiyasi va ishonchi muhim ahamiyatga ega: ular bu yondashuvning samarasiga qat'iy ishonsagina, bardavom va izchil tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradilar.

Aksiologik yondashuvni joriy etish bo'yicha muammolar mavjud bo'lsa-da, uning ta'limiy va ijtimoiy foydalari ulkandir. Avvalo, ta'lim jarayonini qadriyatlarga yo'naltirish kelajak o'qituvchilarining kasbiy identitetini mustahkamlaydi. Qadriyatlarga ega bo'lgan shaxs aniq hayotiy pozitsiyaga ega bo'ladi, o'z kasbining jamiyat uchun ahamiyatini chuqur anglaydi

va unga daxldorlik hissini tuyadi. Masalan, pedagog-o'qituvchi o'z ishini faqat maosh yoki majburiyat deb emas, balki jamiyat oldidagi bir burch deb qabul qilsa, uning mehnatida fidoyilik va mas'uliyat seziladi. Bu esa bevosita ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi – zero, o'z ishiga fidoyi va vijdonan yondashadigan o'qituvchi o'quvchilarga yanada ko'proq ijobiy ta'sir o'tkaza oladi.

Ikkinchidan, aksiologik yondashuv pedagogik jamoalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantiradi. Agarda pedagoglar doimo o'zaro hurmat, hamkorlik, adolat kabi kasbiy qadriyatlarga tayansalar, ta'lim muassasasida ijobiy psixologik muhit hukm suradi. Bunday muhitda bo'lajak pedagog-talabalar ham o'zlarini erkin va qadrlangan holda his etadi, ijodiy va professional o'sishga intiladi. Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, ijobiy qadriyatlar singdirilgan muhitda ta'lim samaradorligi oshadi, yoshlarda ezgu g'oyalarga ishonch shakllanadi va ular professional faoliyatda ham shu qadriyatlarga tayangan holda ishlaydi. Aksiologik yondashuvga asoslangan holda olib borilgan tarbiya natijasida yosh pedagoglarning ijtimoiy mas'uliyati yuksaladi – ular nafaqat o'z sinfi va maktabi, balki butun jamiyat oldidagi burchini his qilgan holda yashay boshlaydi. Bu esa keng ma'noda jamiyatdagi ma'naviy muhitni yaxshilashga, yuksak ma'naviyatli fuqarolarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, qadriyatlarga tayanish bo'lajak pedagoglarning shaxsiy hayotida ham muhim rol o'ynaydi: ular kasbiy faoliyatdagi muammolarni hal etishda ham axloqiy prinsiplariga suyangan holda to'g'ri qarorlar qabul qilishga moyil bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kelgusida pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga aksiologik yondashuvni samarali integratsiya qilish uchun quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi o'quv rejalarga “Pedagogik aksiologiya”, “Kasbiy etika va qadriyatlar” kabi maxsus fanlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu fanlar orqali talabalarga qadriyatlar nazariyasining falsafiy asoslari, o'qituvchining axloqiy majburiyatlari, kasb etikasi qoidalari chuqur o'rgatiladi. Shu bilan birga, barcha pedagogik maxsus fanlarning mazmunini qayta ko'rib chiqib, ularda mavzuga doir ahloqiy masalalar muhokamasini qo'shish lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlarni shakllantirish uchun an'anaviy ma'ruza-uslubiyotlardan tashqari, munozara, debat, rolli o'yinlar, keys-study kabi interaktiv yondashuvlar juda samaralidir. Masalan, “Murakkab tarbiyaviy vaziyat”lar bo'yicha rolli o'yinlar tashkil etilib, talabalarga maktab hayotida uchrashi mumkin bo'lgan axloqiy dilemmalar (o'quvchining noxush xulqi, ota-ona bilan muloqot, sinfda nizolar va h.k.) beriladi va ular jamoada hal etishga urinadilar. Bu jarayonda talabalarda muammoni qadriy yondashuv asosida hal etish ko'nikmasi shakllanadi: masalan, bolaga jazoni qo'llashda ham adolat va mehrni unutmaslik, hamkasb bilan tortishuvda ham hurmatni saqlash kabilar. Interfaol mashg'ulotlar talabalarning o'z fikrini ochiq aytishi, boshqalar fikrini tinglashi va bahslashib to'g'ri xulosaga kelishi uchun sharoit yaratadi. Natijada, ularning tanqidiy tafakkuri rivojlanadi va shu bilan birga axloqiy pozitsiyalari mustahkamlanadi.

Pedagogik ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar o'zlari ham namuna ko'rsatib, talabalarga ustozlik fazilatlarini shaxsiy namuna orqali singdirishlari lozim. Bu borada tajribali o'qituvchilar bilan muntazam uchrashuvlar, mahorat darslari o'tkazilishi yaxshi samara beradi. Talabalar bunday ustozlarning hayot yo'li va qadriyatlari haqida eshitib, ulardan ilhom oladilar. Mentorlik (ustozlik) tizimini kuchaytirish zarur: har bir pedagogika yo'nalishi talabasiga bir nafar tajribali pedagog birlashtirilib, uning bilan norasmiy muloqotlar, maslahatlashuvlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, maktablarda amaliyot o'tash davrida ham praktik rahbar o'qituvchilar nafaqat dars berish uslubini, balki o'z kasbiga munosabatdagi ijobiy fazilatlarini ham ko'rsatib berishlari muhim. Yoshlar ustozlariga taqlid qilib, ularning qadriyatlarini o'zlashtiradilar – bu sotsiopsixologik qonuniyat ta'lim jarayonida e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish uchun ularni turli ijtimoiy-tarbiyaviy loyihalarga jalb etish lozim. Masalan, talabalarning yetim bolalar

uyi, qariyalar uyi kabi muassasalarda ko'ngilli ravishda faoliyat olib borishi tashkil qilinishi mumkin. Shuningdek, maktablarda sinf rahbarligi bo'yicha kichik amaliyotlar joriy etilib, talabalarga biror sinf bilan ishlash, tadbirlar uyushtirish vazifasi topshirilsa, ular mas'uliyatni amaliy his etadilar. Bunday tajribalar nafaqat ularning pedagogik ko'nikmalarini, balki mehr-oqibat, javobgarlik kabi shaxsiy fazilatlarini ham o'stiradi.

Yuqoridagi takliflar bo'lajak pedagoglarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini tizimli va samarali yo'lga qo'yishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Albatta, bu borada har bir ta'lim muassasasi o'z sharoitidan kelib chiqib innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishi ham mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, olib borilgan nazariy tahlillar bo'lajak pedagoglarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirishda aksiologik yondashuv muhim va samarali ekanini tasdiqlaydi. Kasbiy qadriyatlar – bu nafaqat pedagogik faoliyatga yo'l-yo'riq beruvchi mezonlar, balki bo'lajak o'qituvchining butun shaxsiyatini shakllantiruvchi asosiy omillardir. Qadriyatlar tizimi shakllangan taqdiridagina, yosh pedagog o'z kasbining ijtimoiy mohiyatini chuqur anglab yetadi, professional burch va javobgarlikni zimmasiga olishga tayyor bo'ladi, o'z ishiga vijdonan yondashadi. Shuning uchun pedagogik ta'lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda, qadriyatlarga yo'naltirilgan tarbiyani izchil amalga oshirish zarur.

Aksilogik yondashuv – bu bugungi globallashuv va axborot asrida pedagog kadrlarni tayyorlashda e'tiborni insonparvarlik, ma'naviyat va professional etika tamoyillariga qaratish demakdir. Kelajak avlodga ta'lim beruvchi ustozlar o'zlari yuksak kasbiy qadriyatlarga ega bo'lsalargina, ular shogirdlar qalbiga ezgu fazilatlarini joylay oladilar. Shu bois, pedagogik oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida qiymatga yo'naltirilgan dasturlarni kuchaytirish, ta'lim siyosatida "avvalo ma'naviyat, avvalo tarbiya" degan shiorni ustuvor qilish lozim. Zero, kasbiy mahorat va kasbiy qadriyatlar uyg'un holda shakllangandagina, haqiqiy professional pedagog – ya'ni jamiyatga nafi tegadigan, bilimdon va bir vaqtning o'zida yuksak insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan o'qituvchi yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Valixanova N. A.. Qadriyatlarning o'qituvchi faoliyatidagi uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi roli va o'rni //Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – T. 8. – S. 110-113.
2. Dewey J. Moral principles in education. – BoD-Books on Demand, 2023.
3. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
4. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения "Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.
5. Леонтьев А. Н., Леонтьев А. Н. Деятельность. сознание. личность. – Политиздат, 1975. – С. 5-7695.
6. Norboyeva M. Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar //Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 7.
7. Олимов Ш.Ш., Ходжиева М.Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе //Молодежь и XXI век-2020. – 2020. – С. 228-231.
8. Karimova R. M. Aksiologik yondashuvning ta'limdagi ahamiyati.// Pedagogika va psixologiya jurnali. 2022. 2(4), 45-51.

Zubaydulloyeva Madinabonu Kamol qizi,
Buxoro innovatsiyalar universiteti
pedagogika, psixologiya va sport kafedrasida o'qituvchisi

JADID MA'RIFATCHILARINING PEDAGOGIK QARASHLARI VA ULARNING XX ASR BOSHLARIDAGI BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLIKLARIDA IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid ma'rifatchilarining pedagogik qarashlari hamda ularning XX asr boshlarida yaratilgan boshlang'ich ta'lim darsliklarida o'z ifodasini topishi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangicha yondashuvlar, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'rifat, milliy qadriyat va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan g'oyalari yoritiladi. Shuningdek, o'sha davr darsliklarining mazmuniy va metodik xususiyatlari o'rganilib, ularning bugungi ta'lim tizimi uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: jadid ma'rifatchilari, pedagogik qarashlar, boshlang'ich ta'lim, XX asr boshlaridagi darsliklar, milliy qadriyat, ma'rifat, metodik xususiyat.

Annotation. This article analyzes the pedagogical views of the Jadid enlighteners and their reflection in the primary school textbooks created in the early 20th century from a scientific-pedagogical perspective. It highlights the innovative approaches proposed by the Jadids, their ideas aimed at combining enlightenment, national values, and modern knowledge in the educational process. Furthermore, the content and methodological features of the textbooks of that period are examined, and their significance for the modern education system is revealed.

Key words: Jadid enlighteners, pedagogical views, primary education, early 20th century textbooks, national values, enlightenment, methodological features.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические взгляды джадидских просветителей и их отражение в учебниках начального образования, созданных в начале XX века, с научно-педагогической точки зрения. Освещаются новаторские подходы джадидов, их идеи, направленные на сочетание просвещения, национальных ценностей и современных знаний в учебно-воспитательном процессе. Кроме того, анализируется содержание и методические особенности учебников того периода, раскрывается их значение для современной системы образования.

Ключевые слова: джадидские просветители, педагогические взгляды, начальное образование, учебники начала XX века, национальные ценности, просвещение, методические особенности.

Kirishio XX asr boshlarida Turkiston hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy jarayonlar xalq hayotida tub burilish yasadi. Ana shu davrda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy, balki ilm-fan, ma'rifat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jadid ma'rifatchilari o'z davrining ilg'or ziyolilari sifatida xalqni jaholatdan qutqarish, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga da'vat etish, ta'lim tizimini isloh qilish g'oyalarini ilgari surdilar. Ularning pedagogik qarashlari, eng avvalo, xalqning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishini ta'minlashga, yangi maktablar va darsliklar yaratish orqali zamonaviy o'quv jarayonini shakllantirishga qaratilgan edi. Shu ma'noda jadidlar faoliyatini o'rganish, ayniqsa, ularning boshlang'ich ta'limga oid darsliklari mazmunini tahlil qilish bugungi ta'lim jarayonlari uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Jadid ma'rifatchilari ilgari surgan pedagogik qarashlar o'z ildizlarini xalqning tarixiy taraqqiyotidan, Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari merosidan, shuningdek, o'sha davrning Yevropa ta'lim tajribalaridan olgan edi. Ular ta'lim jarayonida nafaqat diniy bilimlarni, balki dunyoviy fanlarni ham o'rgatish zarurligini ta'kidladilar. Bu o'sha davr uchun mutlaqo yangi

yondashuv bo'lib, avvalgi maktab va madrasalardagi an'anaviy ta'lim mazmunidan tubdan farq qilardi. Jadidlarning asosiy maqsadi yosh avlodni ilmiy, zamonaviy tafakkurga ega, milliy g'urur va qadriyatlarga sodiq insonlar qilib tarbiyalash edi.

O'sha davrda mavjud bo'lgan maktablarning ko'pchiligida o'qitish faqatgina diniy bilimlarni yodlashga qaratilgan bo'lib, dunyoviy fanlar, ilmiy-amaliy ko'nikmalar deyarli o'qitilmas edi. Natijada jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan savodli, keng dunyoqarashli, ilm-fan yangiliklarini o'zlashtirgan mutaxassislar yetishib chiqmasdi. Jadid ma'rifatchilari buni chuqur anglab, xalqning orqada qolish sabablarini ta'lim tizimidagi qoloqlik bilan bog'ladilar. Shu bois ular yangi usul maktablarini tashkil etdilar va ular uchun yangicha darsliklarni yaratishga kirishdilar. Ushbu darsliklar nafaqat savod o'rgatishga, balki o'quvchilarni keng dunyoqarashga ega, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan va zamonaviy bilimlarni egallagan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qildi.

Jadidlarning pedagogik qarashlari o'z davri uchun ilmiy-nazariy asoslangan g'oyalar bo'lib, ular yosh avlod tarbiyasida shaxsiy faollik, mustaqil fikrlash, milliy va insoniy qadriyatlarga hurmat kabi tamoyillarni ilgari surdilar. Ularning darsliklarida o'quvchilarga ona tili, tarix, hisob, geografiya, tabiatshunoslik kabi fanlardan zamonaviy bilimlar berilgan. Shuningdek, axloqiy-tarbiyaviy mavzularga alohida e'tibor qaratilib, bolalarni halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga intilganlar. Jadid ma'rifatchilarining ta'limiy faoliyatida kitob va darsliklar asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Chunki ular xalq ongini yuksaltirishning eng samarali yo'li sifatida ta'lim va kitobxonlikni ko'rgan edilar.

XX asr boshidagi boshlang'ich ta'lim darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, ularning mazmunida milliy qadriyatlar bilan birga, umuminsoniy bilim va g'oyalar uyg'unlashganini ko'ramiz. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari yaratgan darsliklarda o'quvchilarga ona tilida savod o'rgatish, dunyoviy fanlar asoslarini o'zlashtirish, zamon bilan hamnafas bo'lish kabi g'oyalar yetakchi o'rin tutgan. Ularning yozgan "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Adabiyot yoxud milliy she'rilar" kabi asarlari nafaqat o'quv qo'llanma, balki pedagogik dasturilamal sifatida xizmat qilgan.

Bundan tashqari, jadid darsliklari shakl va uslub jihatdan ham yangicha bo'lgan. Avvalgi madrasalarda darsliklar ko'proq diniy matnlarni yod olishga asoslangan bo'lsa, jadidlar yaratgan kitoblarda mashqlar, savol-javoblar, amaliy topshiriqlar kiritilgan. Bu esa o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, jadid darsliklarida xalqning urf-odatlarini, milliy qadriyatlari, ijtimoiy hayotdagi dolzarb masalalar ham yoritilib, o'quvchilarni hayotga tayyorlashga qaratilgan edi.

Bugungi kunda jadid ma'rifatchilari merosini o'rganish, ularning pedagogik qarashlarini tahlil qilish ta'lim tizimimiz uchun juda muhimdir. Chunki ular ilgari surgan ko'plab g'oyalar hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Xususan, ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, zamonaviy fan va texnologiyalarni o'rgatish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirish kabi masalalar jadidlar faoliyatida alohida o'rin tutgan.

Shu bois jadidlarning pedagogik qarashlari va ularning darsliklarini o'rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi ta'lim islohotlariga ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki har qanday ta'lim tizimi o'z ildizlari va tarixiy tajribasiga tayanib rivojlanadi. Jadid ma'rifatchilari yaratgan darsliklar mazmuni va pedagogik tamoyillari esa o'zbek xalqining ta'lim tarixida o'chmas iz qoldirgan, milliy maktab va darsliklar taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab bergan. Ularning merosi zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham ibrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Jadid ma'rifatchilarining pedagogik qarashlari va ularning XX asr boshlaridagi boshlang'ich ta'lim darsliklarida ifodalanishi masalasi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda turli davrlarda muayyan darajada o'rganilgan. Avvalo, XX asr boshlaridayoq jadidchilik harakati vakillari - Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy,

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi ma'rifatparvarlarning o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, yangi usul maktablari va ularning darsliklariga oid fikrlar ilgari surilgan. Bu asarlar o'sha davrning bevosita manbalari sifatida mazkur muammoni o'rganishda muhim ahamiyatga ega[1].

Sovet davri tarixshunosligi va pedagogikasida jadidchilik harakatiga turlicha yondashuvlar kuzatilgan. Ba'zi tadqiqotlarda jadidlarning pedagogik faoliyati ma'lum mafkuraviy cheklovlar asosida talqin etilgan bo'lsa-da, ayrim olimlar, xususan, O'zbekiston pedagogika fanining yirik vakillari ularning ta'lim tizimidagi islohotchi faoliyatini e'tirof etgan. Shu bilan birga, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadid ma'rifatchilarining darsliklari, pedagogik qarashlari, milliy ta'lim taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bo'yicha qator maqola va monografiyalar yaratildi.

Mustaqillik yillarida mazkur masala yangicha, xolisona yondashuv asosida o'rganila boshlandi[4]. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik merosiga qayta baho berildi va ularning pedagogik faoliyati milliy uyg'onish jarayonining muhim qismi sifatida tadqiq qilina boshlandi. Hozirgi kunda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatchilarning ilmiy-pedagogik qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar kengayib bormoqda. Ularning darsliklari, metodik qo'llanmalari va ta'lim jarayonida qo'llagan yangicha uslublari zamonaviy pedagogika fanida alohida yo'nalish sifatida tadqiq etilmoqda[6].

So'nggi yillarda tarixchi va pedagog olimlar tomonidan jadidchilik harakati, xususan, boshlang'ich ta'limga oid darsliklarning mazmuni, ularning uslubiy xususiyatlari, pedagogik tamoyillari, shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayoni uchun dolzarbligi haqida qator ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar yozildi. Bu tadqiqotlarda jadidlarning milliy uyg'onishdagi roli, ta'lim tizimini isloh etishdagi xizmatlari, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyatlari chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga, ayrim jihatlar - masalan, darsliklarning zamonaviy metodik talablarga qanchalik mosligi, ulardagi milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy bilimlarning uyg'unligi kabi masalalar hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, tadqiqot uchun keng imkoniyatlar mavjud[3].

Umuman olganda, muammoning o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatadiki, jadid ma'rifatchilarining pedagogik qarashlari va darsliklari masalasi ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, ularning bugungi ta'lim tizimidagi amaliy ahamiyatini ochib berish, yangi pedagogik yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilish hozirgi tadqiqotlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir[5].

Natijalar va tahlil: O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, jadid ma'rifatchilarining pedagogik qarashlari, ularning yaratgan boshlang'ich ta'lim darsliklari o'z davri uchun yangicha yondashuvlarga asoslangan bo'lib, xalqni ma'rifatli qilish, bolalarni ilmga qiziqtirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi. Ularning darsliklarida diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarning o'qitilishi, zamonaviy pedagogik usullar qo'llanilishi o'sha davr ta'lim tizimida tub burilish yasagan[2].

Natijalar shuni ko'rsatadiki:

Jadid darsliklari shakl va mazmun jihatidan o'z davri uchun yangilik bo'lgan;

Darsliklarda ilmiy-amaliy bilimlar bilan bir qatorda axloqiy-tarbiyaviy g'oyalar ham yoritilgan;

O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, savol-javoblar orqali o'qitish, mashqlar berish kabi metodik usullar keng qo'llangan;

Jadidlarning pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tizimida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Quyidagi jadvalda jadid ma'rifatchilarining ba'zi mashhur darsliklari va ularning pedagogik xususiyatlari keltirilgan:

| Muallif | Asar nomi | Yaratilgan yili | Asosiy mazmuni | Pedagogik xususiyatlari |
|-------------------------------------|-------------------------------------|-----------------|---|---|
| Abdulla Avloniy | Turkiy guliston yoxud axloq | 1913 | Axloqiy-ta'limiy mavzular, yoshlarni tarbiyalash masalalari | Axloqiy tarbiya, vatanparvarlik va insonparvarlikni targ'ib etish |
| Abdulla Avloniy | Maktab gulistoni | 1912 | Ona tili va adabiy bilimlarni o'rgatishga qaratilgan | O'quvchilarni savodxonlikka o'rgatish, milliy she'riy namunalar asosida ta'lim berish |
| Mahmudxo'ja Behbudiy | Padarkush (drama, darslik sifatida) | 1911 | Ijtimoiy-ma'naviy muammolarni yoritish | Sahna orqali ta'lim-tarbiya berish, ijtimoiy muammolarni o'quvchiga yaqinlashtirish |
| Munavvarqori Abdurashidxonov | Adabiyot yoxud milliy she'rlar | 1909 | Milliy she'riy asarlar, adabiyot asoslari | Ona tili va adabiyot ta'limida milliy ruhni shakllantirish |
| Abdurauf Fitrat | Muallimlar uchun qo'llanma | 1916 | O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar | O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik ko'rsatmalar |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, jadid ma'rifatchilari yaratgan darsliklar mazmuni nafaqat savod o'rgatishga, balki o'quvchilarda milliy ongni shakllantirish, mustaqil fikrlash va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa ularning pedagogik qarashlarining asosiy tamoyillari – milliylik, ma'rifatparvarlik, zamonaviylik va tarbiyaviylik bilan chambarchas bog'liqdir.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, jadiclarning boshlang'ich ta'lim darsliklari bugungi ta'lim jarayonida ham qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa va tavsiyalar: Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqadiki, jadid ma'rifatchilari XX asr boshlarida ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga intilgan, xalqning savodxonligini oshirish, milliy ongni yuksaltirish va zamonaviy bilimlarni singdirishga qaratilgan pedagogik qarashlarni ilgari surganlar. Ularning yaratgan darsliklari mazmun va shakl jihatidan o'z davri uchun yangilik bo'lib, o'quvchilarning nafaqat savodini chiqarish, balki ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, mustaqil fikrlashga o'rgatish vazifasini bajargan.

Jadiclarning pedagogik merosi bugungi ta'lim tizimi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ularning darsliklarida milliy qadriyatlar bilan zamonaviy bilimlarning uyg'unlashgani, metodik uslublarda o'quvchini faol ishtirokchi sifatida ko'rish tamoyili hozirgi ta'lim jarayonida ham dolzarbdir. Shu bois jadid ma'rifatchilari tajribasidan foydalanish, ularning g'oyalarini bugungi ta'lim mazmuniga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992.

2. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adabiyot yoxud milliy she'rlar. – Toshkent: Fan, 2003.
4. Fitrat A. O'zbek maktablari uchun qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 1995.
5. Rajabov Q. Jadidchilik harakati va uning ma'rifiy mohiyati. – Toshkent: Fan, 2000.
6. To'xtaxo'jaeva M. O'zbek jadidchiligi va ma'rifat tarixi. – Toshkent: Universitet, 2010.

Ermatova Gulsanam Nabijon qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti erkin tadqiqotchisi
[*guliermatova96@gmail.com*](mailto:guliermatova96@gmail.com)

IJTIMOY ISH XODIMLARINING TIBBIYOT SOHASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola ijtimoiy ish xodimlarining zamonaviy tibbiyot tizimidagi rolini, ularning professional faoliyatining asosiy yo'nalishlarini va sog'liqni saqlash sohasidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqot adabiyotlar tahlili va nazariy yondashuvlar asosida ijtimoiy ish xodimlarining tibbiy muassasalardagi funksiyalari, bemorlar bilan o'zaro hamkorligi va sog'liqni saqlash xizmatlarining samaradorligini oshirishdagi hissasi ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy ish xodimlarining tibbiyot sohasidagi faoliyati nafaqat bemorlarning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirishga, balki umumiy davolanish jarayonining samaradorligini oshirishga ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish xodimi, tibbiyot, sog'liqni saqlash, bemorlar bilan ishlash, ijtimoiy yordam, tibbiy xizmat

Аннотация. В статье анализируется роль социальных работников в современной системе здравоохранения, основные направления их профессиональной деятельности и их значение в сфере здравоохранения. На основе анализа исследовательской литературы и теоретических подходов рассматриваются функции социальных работников в медицинских учреждениях, их взаимодействие с пациентами и их вклад в повышение эффективности услуг здравоохранения. Результаты показывают, что деятельность социальных работников в сфере здравоохранения оказывает существенное влияние не только на удовлетворение социально-психологических потребностей пациентов, но и на повышение эффективности всего лечебного процесса.

Ключевые слова: социальный работник, медицина, здравоохранение, работа с пациентами, социальная помощь, медицинская служба

Abstract. This article analyzes the role of social workers in the modern medical system, the main areas of their professional activity and their importance in the field of health care. Based on the analysis of the research literature and theoretical approaches, the functions of social workers in medical institutions, their interaction with patients and their contribution to improving the efficiency of health care services are considered. The results show that the activities of social workers in the medical field have a significant impact not only on meeting the socio-psychological needs of patients, but also on improving the efficiency of the overall treatment process.

Key words: social worker, medicine, health care, work with patients, social assistance, medical service

Kirish. Zamonaviy tibbiyot tizimining rivojlanishi nafaqat texnologik yutuqlar va yangi davolash usullarining joriy etilishi bilan bog'liq, balki insonparvarlik yondashuvining kuchayishi va bemorlarning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlariga e'tibor berishning ortishi bilan ham belgilanadi. Bu jarayonda ijtimoiy ish xodimlarining roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy ish xodimlarining tibbiyot sohasidagi faoliyati XX asrning o'rtalaridan boshlab tizimli ravishda rivojlana boshlagan bo'lib, hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda tibbiy muassasalarning ajralmas qismi hisoblanadi [1].

Tibbiy ijtimoiy ish - bu ijtimoiy ish kasbi sohasining maxsus yo'nalishi bo'lib, tibbiy muassasalarda bemorlar va ularning oilalari bilan professional ishlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish, resurslarni mobilizatsiya qilish va sog'liqni saqlash tizimida navigatsiya qilishga yordam berishni o'z ichiga oladi. Bu soha psixososial davolash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy diagnostika va ijtimoiy reabilitatsiya kabi turli aspektlarni qamrab oladi [2]. Ijtimoiy ish xodimlarining tibbiyot sohasidagi ahamiyati shundaki, ular tibbiy yordam ko'rsatish

jarayonida holistik yondashuvni ta'minlab, bemorning nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy ehtiyojlarini ham hisobga olishga yordam beradi.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ta'kidlashicha, sog'lik nafaqat kasallikning yo'qligi, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikning to'la holati hisoblanadi. Bu ta'rifdan kelib chiqib, tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida ijtimoiy omillarni hisobga olish zaruriyati yanada oshib bormoqda. Ijtimoiy ish xodimlarining faoliyati aynan shu yo'nalishda muhim hissa qo'shadi [3]. Ularning professional kompetensiyalari bemorlarning ijtimoiy holatini baholash, muammolarni aniqlash, resurslarni topish va turli xizmatlar o'rtasida koordinatsiyani ta'minlash imkonini beradi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili va nazariy yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xalqaro manbalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda sog'liqni saqlash sohasidagi professional adabiyotlar tahlil qilingan. Adabiyotlarni tanlash mezonlari sifatida manbalarning ilmiy ishonchlik darajasi, nashr etilgan yil va mavzuga mos kelish darajasi hisobga olingan.

Kirish . Muammo bayoni va tadqiqotning dolzarbligi: Bugungi kunda globallashuv, migratsiya va xalqaro aloqalarning keng yoyilishi bilan, ko'ptillilik - bir kishi bir necha tilga egalik qilish holati - juda keng tarqalgan hodisaga aylandi. Shu bilan birga, ko'p til o'rganishda yoki til muhitlarida til sistemalarining o'zaro ta'siri, ya'ni tillararo interferensiya (cross-linguistic interference / interlanguage transfer) muammosi yuzaga keladi. Interferensiya til o'rganuvchining maqsad tili (target language) ustida ona tili yoki boshqa tillarning struktural va semantik xususiyatlari ta'sir qilishi natijasida yuzaga keladigan xatolarni bildiradi.

Tillararo interferensiya o'quv jarayonini sekinlashtirishi, talaffuz, morfologik va sintaktik xatolarga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz va rus tillarida omonim so'zlarning bir tilga xos ma'nosi boshqa tilga xato ko'chirilishi mumkin. Yana bir misol, polshalik-ingliz bilingvlar uchun interlingual homograflar nutqni tushunishda chalg'ituvchi ta'sir ko'rsatgani tadqiq etilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, til ta'siri faqat ona tilidan maqsad tilga emas, balki maqsad tillar o'rtasida ham bo'lishi mumkin; ya'ni, agar shaxs ko'p chet tillari bilan ishlasa, bu tillar ham bir-biriga ta'sir qilishi mumkin (L2 - L3 interferensiya). Misol uchun, ingliz tilidan so'ng fransuz tilini o'rganishda rus tilining tuzilmalari intervening bo'lishi mumkin

Tadqiqotning maqsadi - ko'ptillilik sharoitida tillararo interferensiyani kamaytirish usullari va strategiyalarini aniqlash, ularning samaradorligini amaliy misollar bilan tahlil qilish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Terminlar va nazariy asos

Interferensiya (Transfer / Cross-linguistic influence): bir tilning boshqa tilga ta'siri, bu ijobiy (positive transfer) yoki salbiy (negative transfer) bo'lishi mumkin.

Interlanguage (o'rganilayotgan tilga o'rtacha til): til o'rganuvchining maqsad tili va ona tilining aralashmasi bo'lishi mumkin bo'lgan sistematik til tizimi (Selinker).

Kontrastiv tahlil (Contrastive analysis): tillar o'rtasida farqlarni aniqlash va interferensiya ehtimolini oldindan bashorat qilishni maqsad qilgan yondashuv.

Shuningdek, psixolingvistik tadqiqotlar tilni nazoratlash (language control) va inhibitsiya (inhibition) mexanizmlari orqali interferensiyani kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi - polyak-ingliz bilingvlar misolida interlingual homograflar ta'siri inhibitsiya mexanizmlari bilan boshqarilishi mumkinligi tajriba ma'lumotlari bilan aniqlangan.

Usullar (Methods)

Ushbu maqola nazariy-tahliliy bo'lishi bilan birga, adabiyotlarni tahlil qilish va misollar orqali yondashuvlarni ko'rsatishni maqsad qiladi. Quyida ishlatilgan usullar:

Adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish (literature review): so'nggi va klassik manbalardagi interferensiya, til ta'siri, kontrastiv analiz va pedagogika bo'yicha maqolalar tahlil qilindi (masalan, Borecka 2016; Gibriel 2020 Lukmanova va boshqalar 2023).

Strukturaviy tartibda tahlil: interferensiya komponentlari - fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis - bo'yicha adabiyotlarda qayd qilingan muammolarni kategorizatsiya qilish.

Amaliy misollarni tanlash va sharhlash: turli tilda o'rganish muhitlaridan (masalan, o'zbek-ingliz, rus-ingliz, o'zbek-rus yoki o'zbek-turk) ariza misollarini adabiyotlardan yoki o'quvchilarning real xatolaridan tanlab, interferensiya mazmunini ko'rsatish.

Strategiyalarni sintez qilish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish: adabiyot va misollardan kelib chiqib, samarali metodlar va amaliy tavsiyalar bayon qilinadi.

Natijalar (Results)

Quyida adabiyotlar tahlili va misollardan olingan asosiy natijalar keltiriladi:

1. Interferensiyaning komponentlari bo'yicha tasnifi va tendensiyalari

| Komponent | Ko'p uchraydigan interferensiya turi | Misol / manba |
|---------------------------|--|--|
| Fonetika prosodiya | Talaffuz xatolari, intonatsiya noto'g'ri xizmatlashuvi | Multilingual prosodic interference tajribasi |
| Leksika | Homonim / homograf so'zlarda noto'g'ri ma'no tanlash, so'z birikmalarida noto'g'ri tarjima | English-Russian homonyms tadqiqoti; Polyak-ingliz interferensiya |
| Morfologiya | So'z shakllarini noto'g'ri qo'llash (plural, suffixes) | Xitoy tilidan rus tiliga o'qiyotgan talabalar ko'p morfologik xatolar qiladi |

| | | | |
|-------------------------|---|---|--|
| Sintaksis tartib | / | Soʻz tartibi notoʻgʻri, predlog, bogʻlovchi, relativ jumlar notoʻgʻri qoʻllanilishi | Simultaneous Turkish–Italian bilingvlar sintaksis interferensiya namunalari) |
|-------------------------|---|---|--|

Misol: Xitoy tilidan keyin rus tilini oʻrganayotgan talaba “Я не могу спать спокойно, потому что полночь в коридоре часто шумят” jumlasida “полночь” soʻzi ayollik jinsiga mansub boʻlgani uchun toʻgʻri grammatik tore tutish kerak edi, lekin talaba ona tili (xitoy turi) strukturalarini rus tiliga koʻchirish orqali notoʻgʻri jins qoʻllagan (misol Lukmanova va boshqalar).

2. Inhibitsiya va nazorat mexanizmlari

Polsha-ingliz bilingvlarning tajriba natijalari shuni koʻrsatdiki, interlingual homograflar nutqni tushinishda interferensiyani yaratadi ekan, lekin tilni nazorat qilish/inhibitsiya mexanizmlari shu interferensiyani qisman yoʻq qilishi mumkin. Yaʼni, soʻz tanlash jarayonida notoʻgʻri maʼnolarni oʻchirib yuborish yoki “bloklash” orqali interferensiya kamaytiriladi.

Shuningdek, tadqiqotlar koʻrsatdiki, koʻp til bilan ishlaydigan shaxslar qisqa muddatli eʼtibor va kognitiv nazorat imkoniyatlarini yanada takomillashtiradi, bu esa interferensiyani boshqarish imkonini oshiradi.

3. Ilk til → ikkinchi / uchinchi til oʻrganishda taʼsir

Tomoschuk va hamkasblar (2021) tadqiqotiga koʻra, L2 va L3 tillari oʻrtasida interferensiya darajasi til oʻrganish sharti (masalan, qaysi til orqali qoʻllanma berilganligi) orqali sezilarli nazorat qilinadi. Agar L3 oʻrganishda L2 tilidan foydalangan boʻlsangiz, L2 taʼsiri L3 ga kuchliroq boʻladi.

Shuningdek, tillarning genealogik yaqinligi ham interferensiya ehtimolini oshiradi – masalan, turk va ozbek tillari yaqinligi tufayli ular oʻrtasida “pozitiv transfer” boʻlishi mumkin, lekin bu baʼzida notoʻgʻri koʻchirish va interferensiyaga ham sabab boʻladi.

Muhokama (Discussion)

Quyida biz yuqoridagi natijalarni sharhlab, pedagogik tavsiyalarni va cheklovlar hamda kelajak uchun izlanish yoʻllarini koʻrib chiqamiz.

1. Natijalar va tahlil

Tadqiqotlar koʻrsatdiki, interferensiya barcha til komponentlarida yuz beradi, lekin morfologiya va sintaksisda xato qilish ehtimoli yuqori boʻlishi mumkin, chunki til strukturalari kognitiv jihatdan murakkab va farqli boʻladi.

Psixolingvistik jihatdan, nazorat va inhibitsiya mexanizmlari (til nazorati) muhim rol oʻynaydi - bilingvlar ikki tilni parallel faollashtirsa ham, notoʻgʻri maʼnolarni bloklash orqali interferensiyani kamaytiradi. L2 → L3 interferensiya xavfi, til oʻrganish sharti va tillarning oʻzaro aloqasi orqali boshqarilishi mumkin. Shuning uchun, L3 ni oʻrgatishda L2 taʼsirini nazorat qilish muhim.

2. Pedagogik tavsiyalar

Quyidagi strategiyalar koʻp tillik muhitida tillararo interferensiyani kamaytirishda foydali boʻlishi mumkin:

a) Kontrastiv tahlil va xatolarga yoʻnaltirilgan yondashuv

Oʻqituvchilar va oʻrganuvchilar tillar oʻrtasidagi farqlarni oldindan tushunib olishlari kerak. Masalan, agar siz oʻzbek ona tiliga ega boʻlsangiz va ingliz tilini oʻrganayotgan boʻlsangiz, soʻz tartibi farqlari, artikl tizimining yoʻqligi, nosoz plural shakllar kabi joylar oldindan taʼkidlanadi.

Xatolar tahlili (error analysis) orqali oʻrganuvchining faol xatolarini aniqlab, ularning sabablarini (interferensiya) koʻrsatish muhim. Borecka (2016) interlingual xatolarni leksik va grammatik kategoriyalarda tahlil qilgan.

b) Tilni toza kontekstlarda alohida ishlatish

“Bir vaqt – bir til” qoidasi boʻyicha mashgʻulotlar oʻtkazish (masalan, sinf ichida faqat ingliz tilida, yoki faqat rus tilida).

Har bir tilga alohida media resurslar (kitob, audio, video) tayyorlash - o'quvchilar tilga "egallik" hissini hosil qiladi va "kod-almashish" ehtimolini kamaytiradi.

c) So'z birliklarini kontekstda o'rganish

So'zlarni parallel tarjima qilish o'rniga, collocation, idiom, frazeologizm va iboralar yordamida kontekstda o'rganish. Bu interferensiya riskini kamaytiradi.

Masalan, "take part in" (inglizchada) "ishtirok etmoq"ni (o'zbekchada) parallel yodlash emas, balki "he took part in the competition" kabi kontekst jamlanmalarida ishlatish.

d) Amaliy nutq va dinamik yondashuv

O'rganuvchilarga tilni amaliy ravishda - suhbat, rol o'yinlari, auditor nutqlari, debatlar orqali ishlatish.

Kod-almashishni mutlaqo taqiqlash emas, balki kontekstga qarab nazoratli kod-almashishni rag'batlantirish (masalan, yangi so'zlar, iboralar kiritishda)

Tilni nazorat qilish (self-monitoring) va metakognitiv strategiyalarni o'rgatish - o'quvchilarga o'zlarining xatolarini kuzatish, qaysi til aralashgani, nima ta'sir qilgani haqida tahlil qilish.

3. Cheklovlar va kelajak yo'nalishlari

Ushbu maqola empirik tadqiqot (masalan, eksperiment, test) o'tkazmadi - faktlar va misollar adabiyotlardan va nazariy tahlillardan olindi.

Har til juftligi yoki til kombinatsiyasi uchun interferensiya turi farq qiladi - misollar va strategiyalarni moslashtirish zarur.

Kelajakda eksperimental tadqiqotlar - masalan, ikki guruh (nazorat va tajriba) o'quvchilar orasida interferensiyani kamaytirish metodlarini sinash - foydali bo'ladi.

Shuningdek, neyrolingvistik metodlar (eyetracking, EEG, fMRI) orqali bilingvlarning til faollashtirish va nazorat mexanizmlarini o'rganish mumkin - bu kelajak tadqiqot yo'nalishi.

Xulosa. Ko'ptillilik sharoitida tillararo interferensiya til o'rganish jarayonida jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Adabiyotlar va misollar tahliliga ko'ra, interferensiya fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis komponentlarida yuzaga keladi. Psixolingvistik tadqiqotlar til nazorati va inhibitsiya mexanizmlari orqali interferensiyani kamaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Pedagogik jihatdan, kontrastiv tahlil, xatolar tahlili, tilni toza kontekstlarda ishlatish, so'zlarni kontekstda o'rganish, nutq amaliyoti va metakognitiv strategiyalar interferensiyani bartaraf etishda samarali bo'lishi mumkin. Biroq, har bir til juftligi uchun metodlar moslashtirilishi lozim, va empirik tadqiqotlar (eksperiment, test) orqali metodlarning samaradorligi sinovdan o'tkazilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Cross-Linguistic Influence in Second Language Phonology. Khudoyorov, O. T. (2025). Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 3(5), 123-126. webofjournals.com

2. Daniqulova, N. A. (2025). Cross-Linguistic Interference: Errors in Learning English among Uzbek Students. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 3(7), 50-57. grnjournal.us

3. Abu Dosh, R., & Al-Mahameed, Y. S. (2024). Cross-Linguistic Interference in the Syntactic and Semantic Acquisition of Arabic Language. International Journal of Linguistics, Literature and Translation, 7(2), 76-85. al-kindipublisher.com

4. Interference and Inhibition in Bilingual Language Comprehension: Evidence from Polish-English Interlingual Homographs. (2016). Journal - PubMed. PubMed

5. Cross-linguistic interference in late language learners: An ERP study. (2021). Journal - PubMed. PubMed

6. On the Concept of 'Interference' in Linguistic Literature. Eshimbetova, G. D., & Nurumbetova, G. A. (2023). Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 4(7), 176-185. [wos.academiascience.org](https://www.wos.academiascience.org)
7. Identifying Phonological Interference of Indonesian Multilingual Learners at Reading Test with Genre-Based Approach Perspective and AI Tool. Lina Aris Ficayuma (2023-2024). Jurnal Pendidikan dan Teknologi Indonesia. journals.id
8. The Influence of Cross-Language Similarity on within- and between-Language Stroop Effects in Trilinguals. (2011). PubMed. [PubMed](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/)

Marimbayeva Bibidona Rinat qizi,
Urganch Davlat Universiteti
Kimyoviy texnologiyalar magistraturasini tugatgan.
Repetitor o'qituvchi

TA'LIMNING INNOVATION USULLARI ORQALI O'QUV MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISH.

Annotatsiya. Ushbu maqolada an'anaviy ta'lim metodlarini baholash va o'qishga har qanday insoni jalb eta oladigan foydali usullar taklif qilishdir. Asosan o'qitish ikkita komponentni o'z ichiga olishi kerak, ma'lumot yuborish va qabul qilish. O'qituvchi o'zi tushungan tarzda bilimni berishga harakat qiladi. Diqqatni jamlab, vaxtni to'g'ri taqsimlab o'tiladigan mavzu o'quvchilar tomomndan to'liq o'zlashtiriladi. Bugunki kunda smartfonlar, AI dasturlar, algoritimga asoslangan ijtimoiy tarmoqlar talabalarni diqqatni bo'lib, ta'lim olish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Biz shuning uchun ta'lim jarayonini gadjetlardan va internetdan foydalangan holatda, ularga bog'lab ta'lim metodini profisionallashtirsak, talabalarda o'qishga qiziqish yanada oshadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, multimedia, interaktiv ta'lim, Pomodoro Technique, intellekt, talabalarga yo'naltirilgan faol texnologik yondashuv, qisqa muddatli xotira

Аннотация. Целью данной статьи является оценка традиционных методов обучения и предложение полезных методов, способных привлечь к обучению любого человека. В основе обучения лежит два компонента: передача и получение информации. Преподаватель стремится донести знания так, чтобы он понимал их. Предмет, преподаваемый сосредоточенно и с правильным распределением времени, полностью усваивается студентами. Сегодня смартфоны, программы искусственного интеллекта, алгоритмические социальные сети разъединяют внимание студентов и влияют на процесс обучения. Поэтому, если мы профессионализируем образовательный процесс, используя гаджеты и Интернет, подключая их к ним, интерес студентов к обучению ещё больше возрастёт.

Ключевые слова: современные технологии, мультимедиа, интерактивное обучение, метод «Помидора», интеллект, личностно-ориентированный активный технологический подход, кратковременная память.

Abstract. This article aims to evaluate traditional teaching methods and propose useful methods that can attract anyone to study. Basically, teaching should include two components: sending and receiving information. The teacher tries to convey knowledge in a way that he understands. The subject that is taught with concentration and proper distribution of time is fully mastered by students. Today, smartphones, AI programs, algorithm-based social networks divide students' attention and affect the learning process. Therefore, if we professionalize the educational process by using gadgets and the Internet, connecting them to them, students' interest in studying will increase even more.

Key words: modern technologies, multimedia, interactive learning, Pomodoro Technique, intelligence, student-centered active technological approach, short-term memory.

Kirish. Ta'lim - bu insoniyatga to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan nurdir. Ilmni mukammal darajada o'quvchiga talabaga yetkazib berish uni ilmi qiladi. Ilmi bo'lgan inson hayotida har qanday vaziyatlarda aqlli qaror qabul qila oladi, ilm o'sishga rivojlanishga hissa qo'shishidan qat'iy nazar, tinchlikni baxtli hayotni ham ta'minlab beradi. Har qanday tinch jamiyatda katta o'zgarishlar va uzluksiz taraqqiy etadigan davlatga aylanadi. Ta'lim metodi bo'yicha olimlarimiz turlicha ilmiy izlanishlar qilishgan. Jumladan, Sokrat o'z usulni ishlab chiqqan, bu usul savol-javob orqali o'quvchilarni fikrlashga undashga asoslangan. Bugungi

kunda modernizatsiyalashgan hayotda ma'lomotlar ko'p va sharoit juda yaxshi. Har bir inson ilmga ega bo'lishi uchun xohish bo'lsa shuning o'zi yetarli.

O'zbekistonda ta'lim uchun katta shart sharoitlar yaratilgan. Siz bilimingiz orqali grant asosida Universitetlarda o'qishingiz va pul mablag'lari yutib olishingiz mumkin. Hozirgi kunda kitobxonlik tanlovi, turli xil fan olimpiadalari va IELTS dan yuqori ball olgan o'quvchilarga imtihon puli qaytarib berilishi bu har bir yosh avlod uchun katta motivatsiya va ularni o'qitishga undaydi. Ta'lim ustuvorligi biz yoshlarning eng katta yutug'imiz. Har bir o'quvchi talaba va ilmiy izlanuvchilar yaratilgan shart sharoitlardan foydalanib o'z hayotiga va davlatimiz rivojlanishiga xissa qo'shishi bu buyuk bir iftixordir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi; Rus psixologi L.Vigotskiy bolalar rivojlanishida ijtimoiy va madaniy omillarning rolini o'rganib, yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) konsepsiyasini taqdim etgan.

Shveysariyalik psixolog J. Piage bolalar psixikasining rivojlanish bosqichlarini o'rganib, o'quvchilarning o'zlarining bilimlarini qanday qurishini tushuntirib bergan.

Amerikalik psixolog va pedagog Benjamin Bloom o'quvchilarda turli ko'nikmalarni rivojlantirish uchun Bloom taksonomiyasini ishlab chiqqan.

Amerikalik psixolog Howard Gardner ko'p sonli intellektlar nazariyasini taklif qilib, har bir o'quvchi har xil usulda o'rganishini va turli qobiliyatlarga egaligini ta'kidlagan. Zero, ta'lim jarayonida innovatsion g'oyalar asosida tashkil qilish o'quvchi va talabalarni darsga qiziqishini oshirib, ilm olish hamda uni davomiy o'rganishga olib keladi.

Darslarni yanada qiziqarli qilish uchun loyihaga asoslangan ta'lim, o'yinga asoslangan ta'lim va so'rovga asoslangan ta'lim kabi faol va talabaga asoslangan usullardan foydalaniladi. Muvofiqlik va faollikni oshirish uchun haqiqiy dunyo aloqalarini, amaliy tajribalarni va ijodiy ifodani qo'shadi. Shuningdek, talabalarning tanlovini qo'llab-quvvatlash, faol ishtirok etishga imkon berish va o'rganishni dinamik va esda qolarli qilish uchun texnologiyadan foydalanish kerak.

Talabalarga yo'naltirilgan faol texnologik yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

1. O'yinga asoslangan ta'lim. O'rganishni qiziqarli qilish va motivatsiyani oshirish uchun raqamli va raqamli bo'lmagan o'yinlardan foydalanish.

2. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL). Talabalar mavzularni chuqur o'rganish imkonini beruvchi real loyihalar ustida ishlaydi.

3. So'rovga asoslangan ta'lim. Talabalarga savol berish va javoblarni topish tavsiya etiladi, bu esa chuqurroq tushunishga olib keladi.

4. Hamkorlikda o'rganish. Talabalar bir-birlarini o'rganish va o'rgatish uchun guruhlariga bo'lingan Jigsaw kabi usullardan foydalanish. Muvofiqlik va faollikni oshirish

5. Amaliy o'rganish. Shunchaki ma'ruza o'qish o'rniga, talabalarni ma'lumotni saqlashga yordam beradigan amaliy mashg'ulotlar va tajribalarga jalb qilish.

6. Ijodiy ifoda. Darslarni esda qolarli va qiziqarli qilish uchun san'at, rol o'ynash va boshqa ijodiy usullarni birlashtirish. O'quvchilarning qiziqishini jalb qilish uchun ma'lumotni sir yoki o'ylantiruvchi dilemma ichida ramkaga solish.

7. Dinamik sinfni rivojlantirish. Talabalarga tanlovlar berish. Talabalarga tanlov taxtalari yoki turli xil o'rganish yo'llarini taqdim etish orqali o'z ta'limlarida o'z fikrlarini bildirishlariga imkon berish.

8. Interaktiv ta'lim. Darslarni munozaralar, munozaralar va guruh faoliyati orqali interaktiv qilish orqali passiv o'rganishdan uzoqlashish.

9. Texnologiyadan foydalanish. Darslarni hayotga tatbiq etish va talabalarga o'rganishning yangi usullarini taqdim etish uchun texnologiya vositalari va multimedia vositalarini birlashtirish.

Tahlil va natijalar: Ta'lim jarayonlari hozirgi kunda turli hil usublardan iborat. Multimediali va o'yinga asoslangan turlari o'qitishni samaradorligini oshiradi. Hozirga paytda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning diqqatni chalg'ityapti va bilim olishiga to'sqinlik

qilyapdi. Qancha kitob o'qishidan qat'iy nazar esda saqlolmaydi, xotira yaxshi rivojlanmagan.


Hozirda ko'pchilik qisqa muddatli xotiradan ozor chekadi. Oddiy ma'lumotlarning tez yoddan chiqishi, dars davomida eshitgan ma'lumotlarni eslab qololmaslik, kerak paytda lozim bo'lgan ma'lumotlarni esga tushura olmaslik shular jumlasidan. Bunda shaxs axborotni uzluksiz mantiqiy matn sifatida emas, balki kichik "klip"lar (videolar, rasmlar, qisqa jumlar) shaklida qabul qiladi. Fikr yuritish izchil emas, balki parchalanib ketgan bo'ladi. Bu tushuncha "klip" - qisqa video yoki fragment ma'nosidan olingan.

Mazkur xotira xususiyatlari:

1. Uzun matnlarni o'qishga qiyinchilik.
2. Tez-tez mavzuni almashtirish.
3. Axborotni chuqur tahlil qilmasdan yuzaki qabul qilish.
4. Tezkor va qisqa informatsiyaga o'rganib qolish (masalan: TikTok, Reels, reklamalar).

Yuqoridagi salbiy holatlarni bartaraf qilishda, "Pomodoro Technique" usuli bilan dars o'tishdan samarali foydalanish mumkin.

1980-yillarda Francesco Cirillo tomonidan yaratilgan «Pomodoro Technique» bilan turli metodlar qo'llash o'qish samaradorligini oshiradi. Pomodoro Technique yoki Pomidor Texnikasi – vaqtdan samarali foydalanish metodi bo'lib, belgilangan vazifaga maksimum diqqat e'tibor bilan, ortiqcha ruhiy bosimlarsiz erishish uchun ishlab chiqilgan. Jarayon juda sodda: belgilangan loyihaga sarflamoqchi bo'lgan vaqtingizni qisqa, 25 daqiqalik «davr»larga bo'lib olasiz va xar bir shunday davrdan keyin kichik, 5 daqiqalik tanaffus qilasiz. Ya'ni, 25 daqiqa ishlab, 5 daqiqa dam olasiz. Xar bir 25 daqiqa «pomodoro» deb ataladi. Bu so'z italyanchasiga pomidor degani bo'lib, bu metodni yaratgan Francesco Cirillo dastlab pomidor shaklidagi oshxona soatidan foydalangani uchun shunday atalgan. Keyinchalik bu butun jarayon nomiga aylanib ketgan. Xar 4 ta «pomodoro» keyin, kattaroq, 15-20 daqiqalik tanaffus qilinadi va ish jarayonidagi kamchilik va yutuqlar yozib chiqiladi.



Biz shu usulni dars o'tayotgan paytda 25 daqiqa dars o'tilib, keyin 5 daqiqa shunchaki dam olishga vaqt bersak, bunda o'quvchi yoki talaba zerikmaydi. 25 daqiqada o'rganish uchun ketgan energiya joyi to'ladi. Dars oxirigacha o'quvchilar diqqat bilan tinglashadi, darsga qiziqish saqlanib qoladi. Men bu metod bilan ingliz tili dars o'tgan payt o'quvchilarda qo'llab ko'rdim. Dars judayam qiziq o'tdi va o'quvchilar charchashmadi. Darsga bo'lgan qiziqishi ortdi va dars oxirigacha to'liq har bir ma'lumotni diqqat bilan eshitishdi. Bu texnikasiz o'tilgan darsda o'quvchilar dars tugashini kutishar va charchashar edi. Ma'lumotlar uzluksiz qabul qilishda, biologik jihatdan olib qaraganda miya charchaydi va tanaga dam

beradi lekin buni o'quvchilar huddi o'zi darsni tugashini kutgandek va o'qish yoqmay qolgandek tuyuladi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur usul orqali biz talabalarda bilim olish jarayoni tezlashtirishimiz va ularning diqqatini jamlashimiz, intizomga o'rgatamiz. Ixtiyoriy diqqat har bir talabada muvaffaqiyat uchun asos bo'ladi. Hozirda bilim olish uchun sharoitlar juda ko'p: sun'iy intellekt orqali, turli hil ijtimoiy tarmoqlar orqali va xakozo . Lekin qaytarma aloqa, to'g'ridan - to'g'ri ta'sir bolishi, o'quv motivlarini rivojlantirish uchun ta'lim beruvchi tomonidan ta'limning innovation usullari o'z o'rnida qo'llanilishi lozim .

Tavsiyalar: Bu metodni faqat dars payti emas har qanday vaqtda qo'llash ishning samaradorlikini oshiradi va siz charchash nimaligini bilmaysiz. Siz har bir ishni tugallaganingiz o'zizga motivatsiya uyg'otib siz o'zingizni dangasa his qilmaysiz va bu sizda intizom shaklanishiga sizga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Брушленский А.А. Мышление и прогнозирование. Москва. Прогресс 1999.- 273 с.
2. Гильфорд Ж. Психология мышления. Три стороны интеллектов. Под.ред. А.М.Матюшкина. Москва. Прогресс. 2001. – 299 с.
3. Тализина Н.Ф., Карпов Ю.В. Педагогическая психология Москва. изд-во. Моск. ун-та, 2008. – 337 с.
4. Шадриков В.Д. Ментальное развитие человека. Москва. Аспект- Пресс. 2007. - 292 с.
5. Корнилова Т.В. Подходы к изучению когнитивных стилей// Вопросы психологии. № 6. 2002. 31- 87 с

Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich,
Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
Namangan davlat texnika universiteti

TEXNIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARDA FALSAFIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada texnika yo'nalishidagi talabalarda falsafiy tafakkurni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Falsafa fanining texnik ta'limdagi o'rni va ahamiyati, uning talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi metodologik hamda amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, texnik mutaxassislar tayyorlashda falsafaning ilmiy-tadqiqot faoliyatini yo'naltiruvchi asos sifatidagi roli ko'rsatib beriladi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar asosida falsafani samarali o'qitishning dolzarb masalalari ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: falsafiy tafakkur, texnika ta'limi, metodologik asos, nazariy tahlil, amaliy yondashuv, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические и практические аспекты формирования философского мышления у студентов технических направлений. Освещена роль и значение философии в техническом образовании, её методологические и практические возможности в расширении мировоззрения студентов, развитии их логического и самостоятельного мышления. Кроме того, показана роль философии как основы, направляющей научно-исследовательскую деятельность при подготовке технических специалистов. В статье также раскрываются актуальные вопросы эффективного преподавания философии на основе современных педагогических технологий, интерактивных методов и инновационных подходов.

Ключевые слова: философское мышление, техническое образование, методологическая основа, теоретический анализ, практический подход, самостоятельное мышление, педагогические технологии, инновационное обучение.

Abstract. The article analyzes the theoretical and practical aspects of developing philosophical thinking in students of technical fields. The role and significance of philosophy in technical education, as well as its methodological and practical potential in broadening students' worldview and fostering their logical and independent thinking, are highlighted. Furthermore, the article demonstrates the role of philosophy as a foundation guiding research activities in the training of technical specialists. It also discusses the pressing issues of effective teaching of philosophy based on modern pedagogical technologies, interactive methods, and innovative approaches.

Key words: philosophical thinking, technical education, methodological basis, theoretical analysis, practical approach, independent thinking, pedagogical technologies, innovative learning.

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida insoniyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy munosabatlar va madaniy hayotda yuzaga kelayotgan yangiliklar, avvalo, fan va texnikaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan texnika yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlarni nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassis sifatida, balki keng dunyoqarashli, ma'naviy barkamol va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalaga aylanmoqda. Texnik soha talabalariga falsafa fanini o'qitishning asosiy maqsadi – ularning tafakkurini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda turli hayotiy va kasbiy vaziyatlarda mantiqiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Falsafa fani muhandislik ta'limi jarayonida nafaqat

nazariy bilim manbai, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltiruvchi metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki falsafa – inson va jamiyat haqidagi umumiy qonuniyatlarni o'rganuvchi, tafakkurni teranlashtiruvchi, ijtimoiy va tabiiy fanlarni umumlashtiruvchi bilim sohasi hisoblanadi.

Bugungi kunda texnika yo'nalishidagi talabalar ko'plab maxsus fanlarni o'zlashtirayotgan bir vaqtda, falsafiy bilimlarni chuqur anglash orqali ilmiy izlanishlarga yangicha yondashish, turli muammolarning yechimida tizimli fikrlash va ijodiy qarashlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari, energetika, muhandislik ishlari va boshqa zamonaviy texnika sohalarining rivoji falsafiy tafakkurni talab etadi. Chunki texnologiyaning har qanday yutug'i avvalo jamiyat va inson hayotiga ta'sir ko'rsatadi, bu jarayon esa falsafiy tahlil va bahoni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, texnika oliy ta'lim muassasalarida falsafa fanini samarali o'qitish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Falsafiy tafakkurni shakllantirish nazariy jihatdan – bilim va g'oyalarni tizimlashtirishni, amaliy jihatdan esa ularni kundalik hayot va kasbiy faoliyatda qo'llashni anglatadi. Bu esa nafaqat talabalarning dunyoqarashini boyitadi, balki ularni mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatli bo'lish va ijtimoiy faol fuqarolar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. Mazkur ilmiy ishning tadqiqot obyekti sifatida texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va ularning falsafiy tafakkurni shakllantirish jarayoni tanlanadi. Zamonaviy texnika oliy ta'lim muassasalarida faqat maxsus fanlarni chuqur o'rganish emas, balki talabalarda keng dunyoqarashni shakllantirish, ijtimoiy-falsafiy bilimlarni texnik tafakkur bilan uyg'unlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy tafakkur texnika sohasidagi kelajak mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois tadqiqot jarayonida talabalarning o'quv faoliyatiga falsafiy bilimlarning ta'siri, ular tomonidan ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlari, shuningdek, falsafa fanining texnika ta'limidagi o'rni va samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot predmeti sifatida esa texnika yo'nalishida o'qiyotgan talabalar ongida falsafiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, didaktik vositalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqiladi, bunda asosiy e'tibor texnika fanlari bilan falsafiy bilimlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishga qaratiladi.

Tadqiqot davomida falsafiy, pedagogik va psixologik yondashuvlar uyg'unlashtirilib, nazariy tahlil orqali falsafa, pedagogika va texnika ta'limiga oid ilmiy adabiyotlar, konsepsiyalar, davlat ta'lim standartlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida texnika yo'nalishidagi talabalar bilan ijtimoiy-gumanitar sohada ta'lim olayotgan talabalar o'rtasida falsafiy tafakkurning shakllanish xususiyatlari solishtirilib, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. Sotsiologik kuzatuv va so'rovnomalar asosida talabalar orasida falsafaga bo'lgan qiziqish, unga munosabat va o'zlashtirish darajasi o'rganilib, ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Pedagogik tajriba asosida esa falsafani o'qitishda interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, guruhiy ishlar va zamonaviy texnologiyalar sinov tariqasida qo'llanib, ularning samaradorligi baholanadi. Yig'ilgan ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, umumlashtirilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi. Umuman olganda, tanlangan metodlar tadqiqot natijalarini ilmiy asoslashga, texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda falsafiy tafakkurni shakllantirishning samarali yo'llarini ko'rsatib berishga hamda falsafani o'qitishda metodologik yangiliklarni tatbiq etishga xizmat qiladi. Bu yondashuv falsafa fanining texnika ta'limida shunchaki nazariy emas, balki amaliy va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan yo'naltiruvchi kuch sifatida o'z o'rnini topishiga imkon yaratadi.

Muhokama va natijalar. Texnika yo'nalishidagi talabalarda falsafiy tafakkurni shakllantirish masalasi zamonaviy oliy ta'limning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida

qaralmoqda. Chunki texnik bilimlarning o'zi insoniyat taraqqiyotini to'liq tushuntirib bera olmaydi. Aristotelning fikricha, har qanday ilmiy faoliyatning poydevorida falsafiy mushohada, ya'ni sabab va mohiyatni anglash turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, texnika ta'limida falsafiy tafakkurni rivojlantirish talabalarda nafaqat ilmiy-texnik kompetensiyalarni, balki ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni ham shakllantiradi. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, falsafiy tafakkur texnika yo'nalishidagi talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi va ularni faqat muayyan kasbiy yo'nalishga emas, balki umuminsoniy qadriyatlar asosida faoliyat yuritishga ham tayyorlaydi. Masalan, Ulug'bek, Beruniy va Ibn Sino kabi Sharq mutafakkirlari ilmiy kashfiyotlarni falsafiy qarashlar bilan uyg'unlashtirgan. Ularning asarlarida texnik va tabiiy fanlar doimo falsafiy tushunchalar bilan boyitilganini ko'ramiz. Bu tarixiy tajriba bugungi ta'lim jarayoni uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ham falsafiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Masalan, konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, talaba bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni o'z tajribasi va tafakkuri orqali qayta quradi. Bunday yondashuv texnika yo'nalishidagi talabalarda falsafiy masalalarni amaliy muammolar bilan bog'lash imkonini beradi. Shuningdek, "tanqidiy tafakkur pedagogikasi" konsepsiyasi talabalarni muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga, dalillarni tahlil qilishga va asosli qarorlar chiqarishga o'rgatadi.

Amaliy tajriba ko'rsatadiki, falsafa fanini interaktiv metodlar asosida o'qitish texnika yo'nalishidagi talabalarda mustaqil mushohada yuritish, muammolarga tizimli yondashish, ilmiy-ijodiy qarashlarni shakllantirish imkonini beradi. Guruhli muhokamalar, falsafiy bahslar, keys-stadi va loyiha asosidagi topshiriqlar orqali talaba o'z kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan ijtimoiy va axloqiy qarorlar qabul qilish malakasini hosil qiladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya sharoitida falsafiy tafakkur talabalarni texnologiyaning jamiyatga ta'siri, inson hayotidagi o'rni va istiqbollari haqida chuqurroq o'ylashga undaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnika yo'nalishidagi talabalarda falsafiy tafakkurni shakllantirish nafaqat nazariy bilimlarning chuqurlashishiga, balki dunyoqarashni kengaytirishga, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bunday yondashuv talabalarning intellektual salohiyatini oshiribgina qolmay, ularni kelajakda jamiyat oldida mas'uliyatli, axloqan yetuk va ilmiy-ijodiy yondashuvga ega mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa. Texnika yo'nalishidagi talabalarda falsafiy tafakkurni shakllantirish jarayoni zamonaviy oliy ta'lim tizimining eng muhim maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Chunki texnik bilimlarning o'zi mutaxassisni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantira olmaydi. Buning uchun falsafiy tafakkur zarur bo'lib, u talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni hayotiy voqeliklarni chuqur anglash, mantiqiy va mustaqil fikrlash, muammolarga tizimli yondashish hamda ilmiy-ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega etadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, falsafiy tafakkurni rivojlantirish texnika yo'nalishidagi ta'lim jarayonida ikki asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, kasbiy bilimlarni umumiy metodologik asos bilan mustahkamlaydi; ikkinchidan, talabalarning axloqiy-ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Ulug'bek asarlarida ham ilmiy bilimlar doimo falsafiy mushohada bilan uyg'unlashgani qayd etilgan. Bu tajriba zamonaviy ta'lim jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shuningdek, texnika yo'nalishidagi ta'limda falsafaning qo'llanishi zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashganda samaradorlik yanada ortadi. Interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlash mashqlari, keys-stadi, loyihaviy topshiriqlar hamda axborot texnologiyalariga tayangan holda falsafa darslarini tashkil etish talabalarda chuqur mushohada, keng fikrlash doirasi va ijodiy izlanishga moyillikni shakllantiradi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va texnologik taraqqiyot sharoitida talabalarning texnik

faoliyatga faqat amaliy emas, balki ijtimoiy, axloqiy va falsafiy nuqtai nazardan ham yondasha olishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, texnika yo'nalishidagi talabalarda falsafiy tafakkurni shakllantirish ularning kasbiy malakasini oshirish bilan birga, intellektual salohiyatini, ijtimoiy mas'uliyatini va insonparvarlik qadriyatlariga sodiqligini ta'minlaydi. Bu esa kelajakda nafaqat texnik sohada yuqori malakali mutaxassislarni, balki jamiyat taraqqiyotiga ongli hissa qo'sha oladigan, keng dunyoqarashli va axloqan yetuk shaxslarni shakllantirishning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu bois falsafiy tafakkurni rivojlantirish texnika ta'limi tizimida strategik ahamiyat kasb etadigan pedagogik va ma'naviy jarayon sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Форобий А. Фозил одамлар шахри. – Т.: Фан, 1993. – 280 б.
2. Ибн Сино Абу Али. Донишнома. – Т.: Фан, 1980. – 412 б.
3. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Т.: Фан, 1973. – 356 б.
4. Гегель Г. В. Ф. История философии: в 3 т. – М.: Мысль, 1990. – Т. 1–3.
5. Фромм Э. Инсоннинг ўзлигини излаш. – Т.: Шарқ, 2006. – 240 б.
6. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. – М.: Наука, 1994. – 512 с.
7. Поппер К. Открытое общество и его враги. – М.: АСТ, 2002. – 640 с.
8. Дьюи Дж. Демократия и образование. – Нью-Йорк: Macmillan, 1916. – 434 p.
9. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982. – 350 с.

Sultonova Maxfirat Akramovna,
Namangan davlat texnika universiteti o'qituvchisi

MASOFAVIY TA'LIM 6-7 SINIF O'QUVCHILARINING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRUVCHI VA TO'LDIRUVCHI TA'LIM SHAKLI SIFATIDA (O'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISH MISOLIDA)

Anotatsiya. Mazkur maqolada masofaviy ta'lim 6–7-sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning mavjud bilimlarini samarali tarzda to'ldirish vositasi sifatida o'rganiladi hamda ushbu jarayonda O'zbekiston tarixini o'rganish misolida ta'limning interaktiv, individual va differensial yondashuvlariga asoslangan metodik yechimlar tahlil qilinadi; bunda muallif tomonidan, ayniqsa, masofaviy ta'lim muhitida kognitiv faoliyatni rag'batlantiruvchi strategiyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish samaradorligi va pedagogik monitoringning roliga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, bilish qobiliyati, O'zbekiston tarixi, 6–7-sinf, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kognitiv rivojlanish, pedagogik monitoring, innovatsion yondashuv, tarixiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье дистанционное обучение рассматривается как средство развития познавательных способностей учащихся 6–7-х классов и эффективного дополнения их имеющихся знаний. На примере изучения истории Узбекистана анализируются методические решения, основанные на интерактивном, индивидуальном и дифференцированном подходах к обучению. Особое внимание автор уделяет стратегиям, стимулирующим когнитивную активность в условиях дистанционной образовательной среды, эффективности использования современных информационно-коммуникационных технологий, а также роли педагогического мониторинга.

Ключевые слова: дистанционное обучение, познавательные способности, история Узбекистана, 6–7-е классы, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, когнитивное развитие, педагогический мониторинг, инновационный подход, историческое мышление.

Abstract. This article examines distance learning as a means of developing the cognitive abilities of 6th–7th grade students and effectively supplementing their existing knowledge. Using the case of studying the history of Uzbekistan, the paper analyzes methodological solutions based on interactive, individual, and differentiated approaches to teaching. The author pays special attention to strategies that stimulate cognitive activity in the distance learning environment, the effectiveness of using modern information and communication technologies, and the role of pedagogical monitoring.

Key words: distance learning, cognitive abilities, history of Uzbekistan, 6th–7th grades, interactive methods, information and communication technologies, cognitive development, pedagogical monitoring, innovative approach, historical thinking.

Kirish. Hozirgi davrda ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan keskin transformatsiyalar, raqamli resurslar va onlayn o'qitish platformalarining keng qo'llanilishi ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich va o'rta maktabning 6–7-sinf o'quvchilari uchun masofaviy ta'lim modeli nafaqat o'qitishning yangi shakli sifatida, balki ularning aqliy faoliyatini kengaytirish, mustaqil izlanish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu kontekstda, O'zbekiston tarixini masofaviy shaklda o'rgatish orqali yosh avlodga tarixiy tafakkur, milliy merosga hurmat va madaniy identifikatsiya xissini rivojlantirish imkoniyatlari sezilarli darajada oshmoqda. 6–7-sinf yosh toifasi o'quvchilarining psixologik va kognitiv xususiyatlari, ularning bilim olish

jarayonlaridagi faollik darajasi hamda 337 pedagogic yondashuvlarga bo'lgan ehtiyoji ushbu ta'lim shaklining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masofaviy o'qitish, shuningdek, o'quv jarayonini interaktiv, individual va moslashtirilgan ta'lim vositalari bilan boyitgan holda, o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini maksimal darajada faollashtiradi. Ushbu maqolada mazkur masofaviy ta'lim shaklining 6–7-sinf o'quvchilari bilim darajasini oshirishga ta'siri hamda O'zbekiston tarixini o'rgatishda qo'llanilishi batafsil ko'rib chiqiladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili. Masofaviy ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar dunyo miqyosida keng rivojlangan bo'lib, bu jarayonlar turli mamlakat olimlari tomonidan o'ziga xos yondashuvlar va nazariy asoslar bilan mustahkamlangan. Xususan, Yaponiyada masofaviy ta'lim tizimlari, ayniqsa, yosh o'quvchilar uchun interaktiv va multimedia vositalarining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni Masuda va Koyama (2015) tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib, ular o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirishda onlayn platformalarning samaradorligini ta'kidlaydilar. Xitoy olimlari, masalan, Li va boshqalar (2018), masofaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish usullarini individualizatsiya qilish va ularning kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan texnologik yechimlarni taklif qilgan. Koreys tadqiqotchilari Kim va Pak (2020) esa masofaviy ta'limda o'quvchilarni motivatsiyalash hamda ularning ta'lim jarayoniga faol jalb qilinish mexanizmlariga e'tibor qaratib, o'quv jarayonini interaktiv va o'zaro ta'sirga asoslangan shaklda tashkil etishning ahamiyatini ko'rsatadilar. Shuningdek, fransuz pedagoglari, xususan Dubois (2017), masofaviy ta'limda transformatsion pedagogika konsepsiyasini ilgari surib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi metodik yondashuvlarga urg'u beradi. Italiyalik olim Rossi (2019) esa masofaviy ta'lim tizimlarining madaniy va kontekstual jihatlarini hisobga olgan holda, o'quvchilarning bilish jarayonlaridagi faol ishtirokini ta'minlash uchun innovatsion didaktik modellarni ishlab chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi. Masofaviy ta'lim shakli, ayniqsa 6–7-sinf o'quvchilari kontekstida, ularning bilish jarayonlarini yanada samarali rivojlantirish va o'rganishni to'ldiruvchi pedagogik vosita sifatida integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi, chunki ushbu yosh davri o'quvchilarning kognitiv salohiyati, motivatsion tuzilmalari hamda o'rganishga bo'lgan individual ehtiyojlari murakkab va ko'p qirrali bo'lishi sababli, masofaviy ta'limning interaktiv, o'zaro ta'sirga asoslangan mexanizmlari orqali bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliy hayotga tadbqiq etish qobiliyatlarini shakllantirishning zamonaviy didaktik tamoyillari bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tarixini o'rganish jarayonida masofaviy ta'lim vositalarining qo'llanilishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tarixiy tafakkurini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, ta'lim mazmunini o'quvchining yoshiga va bilish xususiyatlariga mos ravishda differensiallashtirish, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda o'quv jarayonining monitoringi, diagnostikasi va baholanishi innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, masofaviy ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metod va uslublar, xususan, multimedia resurslar, interaktiv darsliklar va onlayn platformalarning pedagogik samaradorligi, o'quvchilarning tarixiy ma'lumotlarni qabul qilishdagi faolligini oshirishga xizmat qilib, ular o'rtasida bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va mustahkamlash uchun zamin yaratadi; bunday jarayonlarda o'quvchilar nafaqat eslab qolish va qayta tiklash ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki tarixiy voqealarni tahlil qilish, ularning sabablari va oqibatlarini chuqur tushunish, shuningdek, o'z fikrini mustaqil ravishda ifodalashga o'rgatiladi, bu esa tarix fanini o'rganishda kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik jarayon davomida o'quvchilarning individual o'rganish uslublari va bilish strategiyalarini hisobga olgan holda, masofaviy ta'lim tizimlari o'quv materiallarini o'zlashtirishni shaxsiylashtirish imkonini yaratadi, bu esa har bir o'quvchining o'ziga xos

qobiliyatlari va o'rganish tezligini inobatga olgan holda, o'quv jarayonini maksimal samarali va mazmunli qilishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, masofaviy ta'limning 6–7-sinf o'quvchilari uchun O'zbekiston tarixini o'rganishda rivojlantiruvchi va to'ldiruvchi ta'lim shakli sifatida qo'llanilishi nafaqat pedagogik nazariyalar va metodik yondashuvlar asosida, balki amaliy jihatdan ham mustahkam ilmiy asosga ega bo'lib, u o'quvchilarning o'z bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirish, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda, shuningdek, ularning ta'lim jarayoniga yuqori darajada motivatsiyalashgan holda jalb etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar.

Mazkur ilmiy izlanish doirasida masofaviy ta'lim shaklining 6–7-sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va to'ldirish jarayonlarida tutgan o'rni va funksional imkoniyatlari o'rganilgan bo'lib, bunga asosiy e'tibor o'quv jarayonining kognitiv-iqtidordagi transformatsiyalari hamda pedagogik faoliyatning didaktik parametrlarining interaktiv axborot-kommunikatsiya platformalari orqali amalga oshirilishiga qaratildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'limning integratsiyalashgan didaktik uslublari, jumladan, multimediya vositalari, modul asosidagi o'quv kontentlari va onlayn baholash tizimlari, yosh o'quvchilarning tarixiy faktlarni qabul qilishda, ularni tahlil qilishda va tarixiy sabab-oqibat munosabatlarini o'zlashtirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish hamda kognitiv refleksiya ko'nikmalarini yanada rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, metodologik nuqtai nazardan, o'quvchilarning bilish jarayonidagi individual psixogenetik xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvlarning tatbiqi, didaktik mazmunning moslashtirilishi va o'quv faoliyatining samaradorligini baholashda validatsiyalangan monitoring tizimlarining qo'llanilishi pedagogik jarayonni optimallashtirishga xizmat qilgan.

Keng qamrovli sifatli va miqdoriy indikatorlar asosida amalga oshirilgan kompleks tahlil natijalari, shuningdek, ekspert va pedagoglarning metodik faoliyatiga oid baholashlar, masofaviy ta'lim platformalarining interaktiv komponentlari orqali o'quvchilar bilimlarini o'zlashtirishning dinamik o'zgarishlarini aks ettirib, o'quvchilarning individual rivojlanish xaritalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya vositalarining pedagogik potentsialini yaqqol namoyish etdi. Buning natijasida, o'quv jarayonining har bir bosqichida olingan ma'lumotlar yordamida o'quvchilarning kognitiv faolligini va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan didaktik yondashuvlar samaradorligi aniqlandi. Shuningdek, ta'lim jarayonining bu shakli o'quvchilarning o'z bilimlarini mustahkamlashga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuch

Xulosa.

Xulosa qilib aytish darkorki, masofaviy ta'lim shakli 6–7-sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va to'ldirishda samarali pedagogik vosita vazifasini bajaradi, bu esa ta'lim jarayonining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tarixiy ma'lumotlarni chuqur anglash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, masofaviy ta'limning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitilgan metodik yondashuvlari, interaktiv o'quv materiallari va muntazam baholash tizimlari o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish va o'z bilimlarini doimiy ravishda rivojlantirishga bo'lgan intilishlarini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, masofaviy ta'lim shaklining pedagogik mazmuni va metodik imkoniyatlari yosh o'quvchilarni tarix fanini nafaqat nazariy darajada o'zlashtirishga, balki tarixiy voqealar va jarayonlarni keng qamrovda tahlil qilib, ularning sabab-oqibat aloqalarini mustaqil ravishda aniqlashga yo'naltiradi, bu esa bilish jarayonining chuqurlashuvi va pedagogik jarayonning differensiallashtirilishini ta'minlaydi. Shu sababli, mazkur ta'lim shakli o'quvchilarning kognitiv, metakognitiv va motivatsion salohiyatlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga imkon beruvchi samarali platforma sifatida qaralishi lozim. Ushbu pedagogik

yondashuvni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, ularni amaliy ta'lim jarayonlariga integratsiyalash orqali, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish istiqbollari yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Anderson, J. R. (2010). *Cognitive Psychology and Its Implications*. New York: Worth Publishers.
2. Bates, A. W. (2015). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Tony Bates Associates Ltd.
3. Gagne, R. M. (1985). *The Conditions of Learning and Theory of Instruction*. New York: Holt, Rinehart & Winston.
4. Jonassen, D. H. (1999). *Designing Constructivist Learning Environments*. In C. M. Reigeluth (Ed.), *Instructional-design theories and models* (Vol. 2, pp. 215-239). Lawrence Erlbaum Associates.
5. Kozulin, A., & Presseisen, B. Z. (1995). *Mediated Learning Experience and Psychological Tools: Vygotskian Perspective*. In D. Kirshner & J. Whitson (Eds.), *Constructivism in Education* (pp. 41-59). Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
6. Laurillard, D. (2013). *Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology*. Routledge.
7. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning*. Cambridge University Press.
8. Moore, M. G. (1993). *Theory of Transactional Distance*. In D. Keegan (Ed.), *Theoretical Principles of Distance Education* (pp. 22-38). Routledge.
9. Pea, R. D. (2004). *The Social and Technological Dimensions of Scaffolding and Related Theoretical Concepts for Learning, Education, and Human Activity*. *The Journal of the Learning Sciences*, 13(3), 423-451.
10. Schunk, D. H. (2012). *Learning Theories: An Educational Perspective*. Pearson Education.
11. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1).
12. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
13. Yoon, H. J. (2018). *The Effects of Digital Learning on Middle School Students' Cognitive Development*. *Journal of Educational Technology & Society*, 21(2), 77-89.
14. Zhang, D., Zhao, J., Zhou, L., & Nunamaker, J. F. (2004). *Can e-learning Replace Classroom Learning?* *Communications of the ACM*, 47(5), 75-79.
15. Kim, Y., & Park, H. (2019). *Interactive Multimedia for Enhancing Historical Thinking in Middle School Students*. *Asia-Pacific Education Researcher*, 28, 243-252.
16. Dede, C. (2006). *Online Teacher Professional Development: Emerging Models and Methods*. Harvard Education Press.

Valiyev Sarvar Abdusalimovich,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi

TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish jarayonining pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ajdodlar an'analarini o'quv jarayoniga singdirish orqali yosh avlodda vatanparvarlik, millatparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini kuchaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etish, o'quvchi shaxsida milliy g'urur va o'zlikni anglash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quvchi-yoshlar, pedagog, ma'naviy, ma'naviy savodxonlik, iftixor tuyg'usi, milliy istiqlol, istiqlol g'oyasi, ilm-fan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические особенности процесса формирования у студентов чувства национальной гордости. Освещены вопросы укрепления патриотизма, национальной самосознания и социальной ответственности молодежи через интеграцию национальных ценностей, исторического наследия и традиций предков в образовательный процесс. Также изложены теоретические и практические основы формирования у учащихся навыков национальной гордости и самосознания посредством использования интерактивных методов обучения и эффективной организации воспитательных мероприятий.*

Ключевые слова: *Учащая молодежь, педагог, духовность, духовная грамотность, чувство гордости, национальная независимость, идея независимости, наука.*

Annotation. *This article analyzes the pedagogical features of the process of developing a sense of national pride among students. It highlights the issues of strengthening patriotism, national identity, and social responsibility in youth through the integration of national values, historical heritage, and the traditions of ancestors into the educational process. Theoretical and practical foundations of fostering students' skills of national pride and self-awareness are also presented by means of interactive teaching methods and the effective organization of educational activities.*

Key words: *Student youth, pedagogue, spirituality, spiritual literacy, sense of pride, national independence, idea of independence, science.*

Kirish. *Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish, o'qitish intensivligi va samaradorligini oshirish, ularni jahon andozalariga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. talabalarda milliy ongini shakllantirishning bevosita ishtirokchilari va mas'ullari hisoblanuvchi pedagoglarning qanday xislatlarga ega bo'lishi muhimligini o'rganib chiqdik:*

Birinchidan, tarbiyachi o'zi yashayotgan jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lishi, boshqalarga har jihatdan o'rnak bo'lishi, o'quvchilar buni ko'rib, unga havas qilib, unga intilishlari lozim bo'ladi. Agar o'qituvchi ma'naviy qoloq, janjalkash yoki darslarga kechikib kelsa, ta'magirlik qilsa, bunday o'qituvchi auditoriyada hech qanday natijaga erisha olmaydi.

Ikkinchidan, bugungi kunda bilimdon pedagogning o'z mustaqil fikri bo'lishi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi talaba aynan shu betakror fikrlash sharoitidagina erkin fikr yuritishga, o'zi mustaqil mushohada yuritib davr yangiliklarini anglashga, o'z yuragini qo'rqmasdan ochib, tushunmaganini so'rab olishga o'rganadi. Bu esa o'zicha tahlil qilib anglagan

ma'lumotining xotirada yaxshi saqlanishiga va boshqalarga tashviqot-targ'ibot qila olishida yaxshi ko'mak beradi.

Uchinchidan, professor-o'qituvchilarimiz o'zi yashayotgan jamiyatda bilimi, yangiliklarni tez anglaganligi, millatimiz tarixi va madaniyatini chuqur bilishi, vatanparvarligi bilan ajralib turishi kerak. Sodaroq qilib aytganda, pedagog o'zi yashayotgan jamiyat a'zolari orasida ma'naviy savodxonligi bilan ajralib turishi kerak bo'ladi.

To'rtinchidan, pedagogning o'zi milliy istiqbol g'oyasini, millatimizning buyukligini, bebaho milliy madaniyatimiz va davlatchiligimizning tarixini mukammal va teran bilishi, O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonishi kerak bo'ladi. Milliy iftixor tuyg'usini o'quvchilar ongiga singdirishga qo'l urgan tarbiyachining fikrlari sayoz, ishonchsiz bo'lsa, zamonaviy topqir o'quvchi buni tez anglab etadi va unga ishonmaydi, mehnatlar zoyi ketadi.

Beshinchidan, zamonaviy tarbiyachi-pedagog darsga yangicha o'qitish texnologiyalarini olib kirishi, o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishda noan'anaviy usullardan ko'proq foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oltinchidan, pedagogdan har qanday dars o'tishda yaxshi natijalarga erishishning bosh omillaridan biri – auditoriya bilan til topishish va sog'lom muhitni yarata olishlik talab etiladi [1].

Vatan, yurt ravnaqini o'zi o'qitayotgan fani bilan bog'lab, bolalarda millat kejasida mas'uliyat hissini tarbiyalashga erishishi kerak bo'ladi. Chunki, hozirgi zamon o'quvchisi ko'plab ma'lumotlarga, shart-sharoitlarga va imkoniyatlarga ega, ular bilan ishlash, talab-takliflarini chuqur o'rganib muomala qilish, til topisha olish pedagogikada yaxshi natijalarga erishishga olib keladi.

Psixologiyada e'tiqod tushunchasi bilan bevosita bog'liq imon so'zi borki, uning lug'aviy ma'nosi "ishonch" dir. "Vatanni sevmoq - imondandir" - deyiladi hadislarda. Vatanfurushlarni, ota-onaga qo'l ko'taradiganlarni "iymonsizlar" deb ataladi xalq orasida. Tug'ilib o'sgan erni muqaddas bilish, kindik qoni to'kilgan tuproqni sevish, yurtni sog'inish, Vatan uchun vijdonan mehnat qilish – imonlilik belgisidir.[2]

Imon, e'tiqod va qiziqishlar insonda dunyoqarashni shakllantiradi. Bizning holatimizda o'quvchining dunyoqarashi – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u tarbiyalanuvchini o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha denyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'zi tanlagan yo'liga, kasbiga, e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Shu xislatlarni, dunyoqarashni tarbiyalashning zamirida esa milliy ongni shakllantirish yotadi.

Yoshlarda milliy ongni shakllantirishda asosan ular o'qiydigan, o'rganadigan barcha turdagi ma'lumotlar (kitoblar, ommaviy-axborot vositalari, muloqot jarayonlari, bevosita ularga o'qitiladigan fanlar) - shakllanadigan yangicha tasavvurlar, yangicha tarbiya va yangicha dunyoqarash uchun zamindir.[2]

Demak, ko'zlagan maqsadimizga erishishda yoshlarning ma'lumotlilik darajasi ham muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish nafaqat o'qituvchilarimizning, balki bevosita ota-onalarning savodxonligi, ularning tarbiyalanganlik darajalari bilan ham bog'liqdir.

Shaxs ma'naviyati, tarbiyasi, dunyoqarashi – asosan oiladan boshlanadi. Milliy iftixor tuyg'usi dastlab farzandlarimizga bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali singdiriladi. Oilasini sevgan, yaqinlarini e'zozlagan tarbiyalanuvchi shaxs hech qachon Vatanga qarshi bo'lmaydi, uni sevadi, ardoqlaydi, kelajagi uchun kurashadi [3].

Milliy iftixor tuyg'usi, avvalambor, o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarimizni turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, o'zaro muloqotda Sharqona madaniyat va zamonaviy shakllarni uyg'unlashtirish, xalqimizga

ota-meros mehnat tarbiyasi, uning farovon hayotning asosi sifatida qadrlanishiga erishish orqali shakllanib boradi.

Ota-ona oilada bolaning nima ish bilan shug'ullanishi, qanday kitoblarga qiziqishi, qanday filmlar tomosha qilishi, qanday musiqaga qiziqishi, kasb tanlashdagi intilishlari kabi harakatlarini kuzatib, ularni nazorat qilib, maslahatlar berib borishi lozim bo'ladi.[4]

Zamonamizning yana bir unchalik e'tibor qaratilmayotgan, lekin e'tibor berishni talab qiladigan tomoni shundaki, hozir o'zbek oilalarida avvalgiday ko'p bolalilik an'anasi kamayib bormoqda. Avval ko'proq bolalar aka-ukalari, opa-singillari bilan yaqin bo'lib, tarbiyada ularning ta'siri ko'proq sezilgan bo'lsa, hozirgi kunda asosan ota-ona bitta yoki ikkita farzandining yaqin maslakdoshi bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda, ayniqsa, ota-onaning savodxonlik darajasi ham inobatga olinishi kerak bo'ladi.

Oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odatlarimiz va an'alarimizni hayotimizga singdirish, bolalarimizda qadriyatlarimizga mehr-muhabbat uyg'otish, "Vatan ostonadan boshlanadi", - degan purma'no hikmatning mag'zini chaqish, milliy iftixor tuyg'usini singdirishning qanday natijalarga olib kelishi, barkamollikka erishgan farzandimiz oilasining yuzini yoriq qilishi kabi tushunchalarning ma'nosini, avvalo, ota-onalarimiz anglab etsalar, bolalarimiz bilan ta'lim muassasalarida ishlash osonroq kechadi, deb o'ylaymiz.[5]

O'zbek oilalarida tarbiyaning yana bir muhim jihati shundaki, bobolar va buvilar bola tarbiyasida bevosita ishtirok etadilar. O'zbek farzandiga kattalarni hurmat qilish kerak, degan gap kam aytiladi, chunki unga ota-onasining o'zidan kattalarga muomalasi, qariyalarni tashlab qo'ymaslik, kasallarning holidan xabar olish, chorasizlarga yordam berishni jonli misollarda har kun ko'radi. Bu xislatlar bizga ota-bobolarimizdan meros va bizning milliy iftixorimizdir.

Tarixda ham, masalan, Amir Temur shahzodalarning tarbiyasi bilan yoshi ulug' buvilari shug'ullanishlarini lozim topgan, Shohruh Mirzoning, nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzolarning tarbiyasi bilan Saroy Mulk xonim shug'ullanganlar.

O'zbekistonda oila hamisha davlat himoyasida, oilada bolalarning sog'lom tarbiya topishlari uchun, o'qish va kasb o'rganishga sharoitlar yaratilishi uchun hukumatimiz tomonidan qator ishlar qilinmoqda. Yillarning "Oila", "Ayollar", "Sog'lom avlod", "Onalar va bolalar", "Salomatlik yili" deb atalishi va shu munosabat bilan qator tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilganligi bunga yaqqol misoldir[6].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish jarayonida bu muammoning psixologik jihatlarini o'rganish, yoshlarning dunyoqarashlari, qiziqishlari, iqtidorlarini inobatga olib, tarbiyachi va ota-onalarning ta'sirini kuchaytirish orqali harakat qilinsa, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, milliy ongni shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, o'quvchilarda milliy ongni shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'zi yashayotgan jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo'lishi yo'lida kurashish, turli millat va elatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro inoqlikning qaror topishiga o'z ulushini qo'shishga intilish ko'nikmalarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o'z qadr-qimmatini anglab etishga undaydi.[6]

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-avgustagi PQ - 3907 sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli qarori "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish" kansepsiyasi.

4. O'zbekiston Yoshlar ittifoqi: "O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar" – O'zbekiston Respublikasi qonuni Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida 25-modda. Toshkent "O'zbekiston" 2017.

5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: "Yangi asr avlodi", 2001.

6. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. T.: "Akademiya", 2005.

Qurbonov Adxamjon To'lanboy o'g'li,
Namangan davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

TEXNIKA TA'LIMIDA DUAL TIZIM: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI SARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnika ta'limida dual tizimni joriy etishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Jahon tajribasi hamda mahalliy tadqiqotlar misolida ishlab chiqarish va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning afzalliklari yoritilgan. Dual tizimning o'quv rejalarini integratsiyalash, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi metodik, tashkiliy va pedagogik omillar ko'rib chiqilgan. Muallif texnika ta'limi sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun dual tizimni joriy etishda kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *texnika ta'limi, dual tizim, nazariya va amaliyot uyg'unligi, o'quv rejasi, integratsiya, innovatsion universitet, pedagogik yondashuv.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические основы внедрения дуальной системы в техническое образование. На примере международного и национального опыта раскрываются преимущества сотрудничества между производством и образовательными учреждениями. Анализируется роль дуальной системы в интеграции учебных планов, обеспечении гармонии теории и практики, а также факторы методического, организационного и педагогического характера, влияющие на её эффективность. Автор подчёркивает необходимость комплексного подхода к внедрению дуальной системы для повышения качества технического образования и подготовки конкурентоспособных специалистов.*

Ключевые слова: *техническое образование, дуальная система, гармония теории и практики, учебный план, интеграция, инновационный университет, педагогический подход.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical foundations of implementing the dual system in technical education. Drawing on both international and local research, it highlights the benefits of cooperation between industry and educational institutions. The paper analyzes the role of the dual system in integrating curricula, ensuring the harmony of theory and practice, and addressing methodological, organizational, and pedagogical challenges that affect its effectiveness. The author emphasizes the importance of a comprehensive approach in introducing the dual system to enhance the quality of technical education and train competitive specialists.*

Key words: *technical education, dual system, harmony of theory and practice, curriculum, integration, innovative university, pedagogical approach.*

Kirish. *Bugungi kunda texnika ta'limini modernizatsiya qilish va uni zamon talablariga moslashtirish masalasi global ta'lim siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarish sohasi va ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviy hamkorlik yuqori malakali, amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashning asosiy omilidir. Shu nuqtayi nazardan, texnika ta'limi jarayoniga dual tizimni joriy etish dolzarb pedagogik va tashkiliy masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. An'anaviy texnika ta'limi, asosan, nazariy bilimlarning ustuvorligiga asoslanib kelgan bo'lsa, dual tizim o'quvchi va talabalarda nazariya bilan bir qatorda real ishlab chiqarish muhitida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu esa ta'lim jarayonini mehnat bozori talablariga yanada yaqinlashtiradi, o'zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy samaradorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, innovatsion universitetlar sharoitida mazkur tizim ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish o'rtasida uzviy bog'liqlikni mustahkamlash orqali o'quv jarayonida sinergik*

muhit yaratish imkonini beradi. Xalqaro tajribada ham dual tizim o'zining samaradorligi bilan e'tirof etilgan. Masalan, avstriyalik olim X. Sloane ta'kidlaganidek(1), dual ta'lim modeli nazariy bilimlarni amaliyot bilan oddiy ketma-ket bog'lashdan iborat bo'lib qolmasdan, balki bilimlarning reflektiv konstruksiyasiga asoslangan faol ta'lim konsepsiyasini namoyon etadi. Uning fikricha, amaliyot shunchaki tayyorgarlik vositasi emas, balki bilim hosil bo'ladigan faol muhitga aylanishi lozim. Demak, texnika ta'limida dual tizimni samarali tatbiq etish, bir tomondan, nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unlashuvini ta'minlansa, ikkinchi tomondan, talabalarning kasbiy shakllanishida faol muhit yaratadi. Shu bilan birga, dual tizimni joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ishlab chiqarish muhitining o'zgaruvchanligi, amaliyotchi mutaxassislar va pedagoglarning tayyorgarlik darajasi, o'quv dasturlarining milliy ta'lim standartlariga mosligi hamda pedagogik-metodik ta'minotning mukammal emasligi ilmiy yechimini talab qiladigan masalalar sirasiga kiradi. Pedagogik-metodik asoslar nafaqat o'quv metodlarini, balki ularning strukturaviy va funksional uyg'unligini ham qamrab olishi zarur. Shundagina texnika ta'limida dual tizimning samaradorligi ta'minlanadi. Mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilishi O'zbekiston sharoitida texnika ta'limi sifatini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda innovatsion taraqqiyot yo'lida samarali kadrlar siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, texnika ta'limida dual tizimni joriy etish jarayonida o'quv rejalar va dasturlarni integratsiyalash masalasi bugungi ilmiy-pedagogik izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. Texnika ta'limida dual tizimni joriy etish masalasida xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli metodik yondashuvlar ilgari surilgan. Jumladan, shveysariyalik olim E. Gonon ta'kidlaganidek(2), dual tizimni universitet sharoitida tatbiq etishda metodik asoslar kasbiy identifikatsiya va akademik bilim o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni inobatga olishi lozim. Uning fikricha, ta'lim jarayonida ikki darajali xususiyat – amaliy kasbiy ko'nikmalar va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini uyg'unlashtirish metodologik zaruratdir. Shuningdek, Gonon konsepsiyasida didaktik vositalardan foydalanish, baholash mezonlarini aniq belgilash hamda universitet va ishlab chiqarish o'rtasida pedagogik hamkorlikni ta'minlashga oid masalalar to'liq ishlab chiqilmagan.

Rossiyalik metodist T.V. Kudryavtseva(3) esa masalaga tizimli yondashishni taklif etib, innovatsion universitetlarda dual ta'lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv, mehnat vazifalariga asoslangan modullashtirish va ta'limni individuallashtirish orqali samarali yo'lga qo'yish mumkinligini qayd etadi. Uning modelida modullashtirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar ustuvor deb hisoblanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishdagi murakkab texnologik muhitni ta'lim jarayoniga moslashtirish, korxonalar va universitetlar o'rtasida resurslar hamda mas'uliyat taqsimotini belgilash yetarlicha tahlil qilinmaganligi sababli, bu yondashuv ayrim hollarda universitet zimmasiga ortiqcha pedagogik yuklama yuklashi, ishlab chiqaruvchi sub'yektlarni esa faqat amaliyot bazasi sifatida ko'rishga olib kelishi mumkin.

Mahalliy tadqiqotlar orasida M. Yusupovaning (4) ishlari alohida e'tiborga loyiq. U o'z tahlillarida innovatsion universitetlarda texnika ta'limiga dual tizimni joriy qilish ikki yo'nalishda ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi: bir tomondan, ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirilgan ta'limni tashkil etish, ikkinchi tomondan, zamonaviy metodik vositalar asosida ongli faoliyatni shakllantirish imkonini beradi. Yusupova konsepsiyasi kompetensiyaviy, interfaol va reflektiv yondashuvlarga tayanadi. Biroq, uning modelida milliy kontekstdagi ishlab chiqarish sub'yektlarining pedagogik madaniyat darajasi, infratuzilma muammolari va ta'lim standartlarining uyg'unlashmaganligi kabi jihatlar yetarlicha yoritilmagan.

Tanqidiy yondashuv asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion universitetlarda texnika ta'limiga dual tizimni joriy etishning pedagogik-metodik asoslari quyidagi metodologik yo'nalishlar orqali takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Didaktik dizaynni ishlab chiqarish muhitining real talablariga moslashtirish;
2. O'qituvchilarning pedagogik, psixologik va texnologik ko'nikmalarini rivojlantirish;
3. Nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o'rtasidagi refleksiv bog'liqlikni kuchaytirish;
4. Modulli va kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash tizimini takomillashtirish;
5. Raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Aks holda, dual tizimning joriy etilishi ko'plab hollarda faqat tashqi ko'rinishda amalga oshiriladigan, formallikka asoslangan jarayon bo'lib qolishi, natijada pedagogik islohotning asl mohiyatida bo'shliqlar yuzaga kelishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Texnika ta'limi tizimida dual modelni samarali tatbiq etishda muhim metodik va pedagogik jarayonlardan biri - o'quv rejalarini hamda dasturlarni ishlab chiqarish muhiti bilan uyg'unlashtirish hisoblanadi. An'anaviy yondashuvda bunday rejalar odatda akademik fanlarning ketma-ketligi va normativ yuklamalarga asoslanib tuziladi. Dual tizim esa mazkur yondashuvni qayta ko'rib chiqishni talab etadi, ya'ni o'quv rejalarini ishlab chiqarishda talab etiladigan haqiqiy kompetensiyalar va kasbiy faoliyat funksiyalariga moslashtirish zarur bo'ladi. Bunda nazariya va amaliyot o'rtasidagi uyg'unlik, takroriylikdan holilik hamda metodik muvozanatni ta'minlash asosiy mezon sifatida qaraladi.

Germaniyalik tadqiqotchi M. Fischer fikricha (5), dual tizimda o'quv rejalarini integratsiya qilish jarayoni faqat ta'lim elementlarini birlashtirish emas, balki o'quv faoliyati mazmunini, kompetensiyaviy natijalarni va kasbiy muhitni yagona pedagogik kontekstda uyg'unlashtirishni anglatadi. Bu yondashuv integratsiyani keng qamrovli sotsio-pedagogik jarayon sifatida izohlaydi. Shunga qaramay, Fischer konsepsiyasida mehnat bozoridagi tezkor o'zgarishlar, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi hamda dasturlarni moslashtirish mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan. Aslida esa, o'quv rejasi nafaqat integratsiya, balki refleksiv yangilanish mexanizmlarini ham qamrab olgan holda tuzilishi lozim.

Avstriyalik olim B. Markovitschning qarashlarida (6) dual tizim uchun o'quv rejalarini modullashtirish, funksional tahlil asosida shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lash zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Uning modeli ishlab chiqarishdagi real vazifalarga yo'naltirilgan modullar orqali samarali integratsiyaga erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, unda akademik bilimlarning chuqurligi, fundamental fanlar va kasbiy modullar o'rtasidagi kognitiv aloqadorlik hamda didaktik muvozanat masalalari yetarli darajada ochib berilmagan. Bu esa amaliyotning haddan ziyod ustuvorligi natijasida nazariy asoslarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Rossiyalik pedagog olim A.M. Novikov (7) integratsiya jarayonining nazariy poydevorini ishlab chiqqan holda, dual tizimda o'quv rejalarini shakllantirishda ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan ta'limiy kompetensiyalar o'rtasida normativ va konseptual uyg'unlikni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi. Uning yondashuvi kasbiy tayyorgarlikning tizimlilikini va metodik asoslanganligini ko'rsatadi. Ammo bu konsepsiyada talabaning individual o'quv yo'nalishi, shaxsiylashtirilgan ta'lim trayektoriyasi va refleksiv o'zlashtirish imkoniyatlariga yetarli e'tibor qaratilmaganligi bois, u shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga to'liq mos kelmaydi.

O'zbekistonlik olim A.B. Shirinovning qarashlarida esa dual tizimni joriy etishda o'quv rejalarini ishlab chiqarish texnologiyalari va amaliy ehtiyojlarga mos ravishda qayta konstruksiya qilish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shirinovning konsepsiyasi milliy kontekstdagi texnologik va amaliy jihatlarni asoslaydi. Shu bilan birga, unda bilimlarning epistemik tuzilishi, ilmiy asoslanishi va ularning sotsiomadaniy talqinlari yetarlicha ochib berilmagan. Holbuki, ta'lim dasturlari nafaqat texnik, balki axloqiy, gumanistik va kommunikativ o'lchovlarga ham ega bo'lishi talab etiladi.

Shunday qilib, texnika ta'limida dual tizimni joriy etishda o'quv rejalarini integratsiya qilish faqat struktural uyg'unlik bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayon metodik moslik, maqsadlilik, kompetensiyalar uyg'unligi va ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Integratsiya ko'p qirrali jarayon bo'lib, u normativ, sotsio-pedagogik va refleksiv xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Natijada, ta'limni faqat didaktik tuzilma

sifatida emas, balki epistemologik va sivilizatsion rivojlanish strategiyasi sifatida qarash imkoniyati yuzaga keladi.

Bundan tashqari, dual tizimni samarali tatbiq etish uchun asosiy shartlardan biri - o'quv rejalarini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirgan holda metodik yaxlitlikni ta'minlashdir. An'anaviy o'quv rejalarida akademik mazmunning mustahkamligi asosiy o'rinda bo'lsa-da, bu holat ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqlikni chegaralab qo'yishi mumkin. Shu bois, dual tizimdagi integratsiya faqat strukturaviy yaqinlashuv emas, balki metodologik, kognitiv va kommunikativ sintezni ham qamrab olishi talab etiladi.

Kanadalik ta'lim nazariyotchisi B. Whelanning ta'kidlashicha (8), dual ta'lim modelining markaziy tayanchi - bu bilimlarni amaliy tajriba orqali o'zlashtirish imkoniyatini shakllantirishdir. Bunday imkoniyat faqatgina o'quv dasturlari ishlab chiqarish sikllari bilan muvofiqlashtirilgandagina ro'yobga chiqadi. Shu nuqtai nazardan, Whelan konsepsiyasi ta'lim jarayonida o'quv rejalarini va ishlab chiqarish ehtiyojlari o'rtasida metodologik sinxronlikni zaruriy pedagogik shart sifatida ko'rsatadi. Biroq, uning yondashuvida o'quv dasturlarining axloqiy-aksiologik izchilligi hamda umumdidaktik tamoyillar bilan epistemik uyg'unligi yetarlicha asoslanmagan. Aslida, ta'lim tizimi faqatgina ishlab chiqarish ehtiyojlariga xizmat qiluvchi utilitar vosita emas, balki mustaqil intellektual va madaniy muhitni shakllantiruvchi ijtimoiy institut sifatida ham qaralishi lozim.

Yaponiyalik tadqiqotchi K. Matsushita integratsiyalashgan o'quv rejasini "ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi pedagogik ko'priq" sifatida ta'riflab, uni kontekstual bilimlarni egallash va kasbiy muammolarni yechishga yo'naltirilgan kompetensiya bloklari asosidagi tizim deb izohlaydi. Matsushita konsepsiyasi o'quv materiallarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, unda fundamental fanlarning nazariy asoslari, mustaqil tahliliy tafakkur va ularning kasbiy kontekstda sintez qilinishi masalalari yetarlicha ochib berilmagan. Ayni paytda texnika ta'limi innovatsion yechimlar ishlab chiqishda aynan mana shu bilimlar sinteziga tayanadi.

Fransiyalik olim J.-L. Derouet (9) esa bunday jarayonda sotsiopedagogik tafovutlarni inobatga olish zarurligini alohida qayd etadi. Unga ko'ra, "rejalarning integratsiyasi, eng avvalo, bilimning normativ formati bilan amaliyotning ijtimoiy dinamikasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishni talab etadi". Derouet konsepsiyasi dual tizimda o'quv rejalarini va ishlab chiqarish muhiti o'rtasidagi ijtimoiy tengsizliklar, kasbiy asimmetriyalar hamda pedagogik muvozanatni nazariy asoslash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, uning yondashuvi ko'proq sotsiologik diskursga yo'naltirilgan bo'lib, amaliy metodik tavsiyalar bilan yetarli darajada boyitilmagan.

O'zbekistonlik olim R. G'ulomova esa milliy ta'lim muhiti kontekstida dual tizimdagi integratsiyani shunday izohlaydi: "Mazkur tizim uchun ishlab chiqiladigan o'quv rejalarini - bu o'quv fanlari va ishlab chiqarish jarayonlarining modulli asosda uyg'unlashtirilgan, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik konstruktsiyadir". Uning yondashuvi kompetensiyaviy va modulli asoslangan bo'lsa-da, zamonaviy ilmiy paradigmalar - masalan, raqamli savodxonlik, ijtimoiy innovatsiyalar va transdisiplinarlik kabi konsepsiyalarning o'quv dasturlariga qanday qo'shilishi masalasi ochiq qolmoqda.

Texnika ta'limida dual tizimni samarali qo'llash, avvalo, o'quv rejalarini va dasturlarini konseptual hamda metodik asosda qayta integratsiya qilish orqali ta'minlanadi. Bu integratsiya faqat mavzu va modullarni formativ tarzda birlashtirish bilan chegaralanib qolmasligi, balki ta'lim jarayonini dunyoqarashlar, metodologik paradigmalar va talabaning ijtimoiy roli nuqtai nazaridan qayta shakllantirishni ham o'z ichiga olishi lozim. Aks holda, o'quv rejalarini ishlab chiqish jarayoni faqat tashqi texnologik qiyofa kasb etib, chuqur tarbiyaviy va intellektual mazmundan xoli bo'lib qoladi.

Bundan tashqari, dual tizimdagi integratsiya jarayoni moddiy-texnik resurslar, kadrlar salohiyati va ta'lim muhiti barqaror rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Shu sabab, mazkur modelni samarali tatbiq etishda integratsiya jarayonini metodologik, didaktik va boshqaruviy

jihatdan kompleks tahlil qilish zaruriy pedagogik vazifa sifatida ko'rilishi lozim. Nemis tadqiqotchisi D. Baethgen ta'kidlaganidek (10): "O'quv reja va ishlab chiqarish texnologiyasi o'rtasidagi integratsiya - bu oddiy kontent uyg'unligi emas, balki uzluksiz muloqot, ko'nikmalar ehtiyojini ilg'ash va ta'lim standartlarini kasbiy me'yorlarga moslashtirishdan iborat murakkab ijtimoiy hamda akademik jarayondir". Baethgenning konsepsiyasi institutlararo hamkorlikni yangi pedagogik makon sifatida talqin etishi bilan qadrlidir, biroq unda diaktik integratsiyaning psixologik poydevori, talabning individual o'zlashtirish dinamikasi va refleksiv kompetensiyalar bilan uzviy aloqasi yetarlicha yoritilmagan.

Texnika ta'limida dual tizimni joriy etish jarayoni o'quv rejalari va dasturlarini zamonaviy ishlab chiqarishning real ehtiyojlari bilan integratsiyalash muammosini markaziy vazifa sifatida ilgari suradi. Bunday uyg'unlik, bir tomondan, nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmalar bilan sintezini ta'minlasa, boshqa tomondan, ta'lim jarayonining strukturaviy hamda mazmuniy jihatdan transformatsiyasini talab etadi. Chunki dual tizim mohiyatan ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi uzviy va tizimli aloqaga asoslanadi. Shu sababdan, tizimning samaradorligi avvalo o'quv rejalari va dasturlarining ishlab chiqarish muhiti bilan qay darajada muvofiqlashtirilganligiga bevosita bog'liq.

Afsuski, amalda tatbiq etilayotgan o'quv rejalari ko'pincha tor akademik yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqilmoqda va bu holat ularning real sektor talablari bilan mos kelmasligiga olib kelmoqda. M. Karimov ta'kidlaganidek: "Dual ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan o'quv rejalari ishlab chiqarishdagi texnologik sikllarni hisobga olgan holda tuzilishi lozim, aks holda ular faqat rasmiy hujjat darajasida qolib ketadi". Ushbu fikr o'z mohiyatida dolzarb bo'lsa-da, unda rejalarning ishlab chiqarish bosqichlari bilan bog'lanish mexanizmlari yuzasidan aniq metodik yechimlar ko'rsatib berilmagan. Metodologik asoslanganlikdan xoli bo'lgan sharoitda integratsiya umumiy tavsiyalar darajasidan ortmay qoladi.

S. Murodova esa ta'lim dasturlarini transformatsiya qilish zarurligini alohida qayd etadi: "Amaliyot bilan uzilmagan o'quv dasturlari texnika ta'limida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashga xizmat qilmaydi, ularni ishlab chiqarish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish esa ta'lim sifatining poydevoridir". Bu yondashuvda integratsiyani ta'minlash g'oyalari mavjud bo'lsa-da, ularning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari yetarlicha aniqlashtirilmagan. Aslida, dual tizim doirasida ishlab chiqiladigan dasturlar kompetensiyaviy model asosida qurilishi, ularning modulli, moslashuvchan va interaktiv shaklda loyihalaniishi talab etiladi.

Bundan tashqari, integratsiya jarayonida sektorlararo hamkorlik mexanizmlarining aniqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. A. Berdimurodov bu borada: "Texnika ta'limida dual tizimga asoslangan integratsiyalashgan dasturlarni yaratishda ta'lim muassasalari, korxonalar va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy hamkorlik mexanizmlari ravshan belgilanishi lozim" deya ta'kidlaydi. Biroq bu yondashuvda mexanizmlarning huquqiy-normativ poydevori, resurs bilan ta'minlash tizimi va monitoring mezonlari aniq yoritilmagan. Shu bois, u ko'proq nazariy qarash darajasida qolmoqda.

Shundan kelib chiqib, texnika ta'limida dual tizimni samarali joriy etishda quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

1. O'quv modullarini ishlab chiqarish sikllariga mos ravishda tashkil etish, ularning real mehnat sharoitlari bilan uyg'unligini ta'minlash;
2. Fanlararo yondashuv asosida kompetensiyaviy modelni shakllantirish orqali integratsiyalashgan va maqsadli o'quv mazmunini yaratish;
3. Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida institutsional hamkorlikni aniq mexanizmlar orqali tartibga solish, amaliy hamkorlik shartnomalari, qo'shma laboratoriyalar va ta'lim klasterlarini yo'lga qo'yish;
4. Integratsiyalashgan dasturlar samaradorligini baholash uchun monitoring tizimlarini transformatsiya qilish.

Shu nuqtai nazardan, dual tizimni joriy etish bir martalik tashabbus emas, balki dinamik, tizimli va uzluksiz yangilanib boruvchi ilmiy-metodik jarayon sifatida qaralishi lozim. Bu jarayon nafaqat mavjud nazariy qarashlarga tanqidiy yondashuvni, balki yangi pedagogik modellar va metodologiyalarni ishlab chiqishni ham taqozo etadi. Shundagina texnika ta'limi sohasi raqobatbardosh, innovatsion va ishlab chiqarish talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi davrda dual tizim texnika ta'limining nafaqat didaktik modeli, balki ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi strategik omil sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu sabab, o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiya qilish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biridir.

Xulosa

Shunday qilib, texnika ta'limida dual tizimni joriy etish jarayonida o'quv reja va dasturlarni integratsiyalash masalasi ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab etadi. Bunday integratsiya nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat bozori talablari va nazorat-baholash tizimlari bilan uyg'unlikni ko'zda tutishi, balki pedagogik, didaktik hamda ilmiy-metodologik asoslar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lishi zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy yondashuvlarda ko'pincha umumiy nazariy qarashlar ustuvor bo'lib, real ishlab chiqarish jarayonlari va ta'limning ichki didaktik mexanizmlarini uyg'unlashtirishga oid empirik izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

Bugungi kunda texnika ta'limi uchun zamonaviy, adaptiv va kontekstual integratsiyalashgan o'quv rejalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv, bir tomondan, ta'limni real ishlab chiqarish sharoitlariga yaqinlashtirsa, boshqa tomondan, kompetensiyaviy model, modul asosidagi ta'lim va interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, milliy kontekst, ishlab chiqarish infratuzilmasining darajasi va pedagogik madaniyat xususiyatlari ham inobatga olinishi zarur. Demak, dual tizim texnika ta'limida nafaqat yangi metodik model, balki ishlab chiqarish bilan ta'lim o'rtasidagi strategik hamkorlikni mustahkamlovchi mexanizm sifatida qaralishi lozim. Shu yo'l bilan raqobatbardosh, innovatsion tafakkurga ega va amaliy faoliyatga tayyor mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sloane H. Berufliche Bildung im Wandel. – Wien: Böhlau Verlag, 2016. – 136 b. (B. 71).
2. Gonon E. Dual Berufsbildung und Hochschule. – Zürich: Seismo Verlag, 2018. – 124 b. (B. 44).
3. Kudryavtseva T.V. Dual ta'lim tizimi: pedagogik modellar va rivojlanish strategiyalari. – Moskva: Pedagogika, 2019. – 148 b. (B. 59).
4. Yusupova M. Texnik ta'limda dual tizimning milliy modeli. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 104 b. (B. 81).
5. Fischer M. Berufliches Lernen im Dualen System. – Bonn: BIBB Verlag, 2017. – 154 b. (B. 87).
6. Markowitsch B. Modulare Curricula im Technischen Bildungsbereich. – Wien: ÖBA, 2015. – 128 b. (B. 59).
7. Novikov A.M. Obrazovatel'noye prostranstvo i dual'naya model'. – Moskva: Nauka, 2016. – 134 b. (B. 102).
8. Shirinov A.B. Oliy texnika ta'limida dual tizim amaliyoti. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 96 b. (B. 77).

Marhabo Sayfulloyevna Ashurova,
Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy va siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
ashurova.marhabo84@buxdu.uz

TURKISTON JADIDLARI VA TARBIYA VOSITALARI

Annotasiya. *Ushbu maqoladan anglaniladiki jadidlarning yangi usul maktablari o'z maqsadiga erisha oladigan, yoshlarni o'z atrofiga chorlay olgan edi. Buxoro jadidlari milliy istiqbol uchun kurash, ta'lim tizimini isloh qilish, eng qobiliyatli talabalarni dunyoning rivojlangan mamlakatlariga o'qishga yuborish, chet el texnologiyalarini yurtimizda joriy qilish, tijoratni yo'lga qo'yish kabi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqqan.*

Kalit so'z va iboralar: *milliy tarbiya, tarbiya, ta'lim jarayoni, jadidchilik, madrasa, oliy maktab, usuli savtiya maktabi, Yosh buxoroliklar tashkiloti.*

Аннотация. *В статье показано, что новометодные школы джадидов смогли достичь своих целей и привлечь в свой круг молодёжь. Бухарские джадиды поднимали такие актуальные вопросы, как борьба за национальную независимость, реформирование системы образования, отправка наиболее талантливых студентов на учёбу в развитые страны мира, внедрение зарубежных технологий в нашей стране, налаживание торговли.*

Ключевые слова и фразы: *национальное воспитание, воспитание, образовательный процесс, джадидизм, медресе, Высшая школа, методическая школа, организация молодых бухарцев.*

Annotation. *This article shows that the new method schools of the Jadids were able to achieve their goals and attract young people to their circle. The Bukhara Jadids raised such pressing issues as the struggle for national independence, reforming the education system, sending the most talented students to study in developed countries of the world, introducing foreign technologies in our country, and establishing commerce.*

Key words: *national education, upbringing, educational process, daddism, madrasa, Higher School, Method savtia School, Organization of young bukharians.*

Kirish. Yangi usul maktablari – musulmon maktablarining dasturlarini va ta'lim usulini isloh qilib, bolalarga o'z ona tilida xat-savod o'rgatishga qaratilgan o'quv muassasalari bo'lib, ilk bor Qrimning Boqchasaroy shahrida tatar ma'rifatparvari Ismoilbek Gaspirinskiy tomonidan 1884-yilda tashkil etilgan va unga usuli savtiya tadrijiya (rivojlanuvchi tovush usuli) deb nom berilgan. Ismoilbek Gaspirinskiy 1884-yilda Qrimning Boqchasaroy shahrida usuli jadida maktabini ochib, 12 bolaning savodini 40 kunda chiqarib, bolalarning ota-onalar oldida o'quvchilardan imtihon olib shuhrat qozondi. U an'anaviy maktabning 5 yillik tahsilini 2 yilda o'quvchilarga bera olgan. Ismoilbek Gaspirinskiy taklif qilgan usulda maktab tashkil etgan va gazeta nashr qilgan yoshlar jadidlar deb atala boshlangan. Boshqacha aytganda, musulmonlar jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar "jadidlar" deb atalgan[1]. Ammo ular o'zlarini jadid deb atamas edilar. Ko'pincha ular o'zlarini taraqqiyparvarlar, munavvarlar va keyinchalik yoshlar deb atashgan[2].

"Jadid" termini arabchadan olingan bo'lib, yangi, yangilik tarafdori degan ma'noni bildiradi[3]. Ular tomonidan tashkil etilgan maktablar ham yangi usul yoki jadid (usuli jadida) maktablari deb nom olgan. An'anaviy maktabdagi o'qitish usuli yod olish, ya'ni harflar va matnlarni o'qituvchi ovozdin ilib olinib, takrorlash usuliga asoslangan bo'lib, unda savod chiqarish qiyin kechar edi. Ismoilbek Gaspirinskiy ilgari surgan savtiya, yangi usul, ya'ni tovush usuli harflarni tovush chiqarib o'qish tartibi esa oson va tez savod chiqarish imkonini berar edi. Shu sababli bu yangi ta'lim tizimi usuli savtiya (tovush usuli), usuli jadid (yangi usul)

nomlarini olgan edi[4]. yangi usulda o'qish va yozish barobar o'rgatilganligi, ayniqsa, muhim edi.

Ismoilbek Gaspirinskiy Turkistonda yangi usul maktablari tashkil qilinishi, yangi usul afzalliklari haqida Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga jo'natgan maktubiga rad javobini oladi. Shundan keyin u Buxoro amiri Abdulahadxonga murojaat etib, yangi usuldagi maktablar ochishga izn so'raydi. Amir Abdulahadxonga murojaat etib, yangi usuldagi maktablar ochishga izn so'raydi. Amir Abdulahadxon 1893 yilning boshida Boqchasaroy I.Gaspirinskiy bilan tanishib, uzoq suhbatlashadi va uni Buxoroga taklif etadi. Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilgan I.Gasprinskiy 1893 yilning may oyida Buxoroga tashrif buyuradi. Ta'kidlash joizki, 1883 yil 12 oktyabarda I.Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan. "tarjimon" jurnaliga amir Abdulahadxon ham obuna bo'lgan[2]. Amirning Shahrisabzdagi yozgi qarorgohida bo'lib o'tgan suhbat chog'ida I.Gasprinskiy fikrlariga keskin qarshilik bildirilmasa-da, ularni amalga tadbiiq etish oson kechmadi. Buning asosiy sababi Buxoro amiri Rossiya imperiyasi hukumatidan izn olmay turib, biror masalani shaxsan hal etish erkidan mahrum edi[5]. Buxoro yangi usul maktablarining tashkil etilishi 1900-1903 yillarga to'g'ri keladi. Aynan shu yillarda tatar o'qituvchilari tomonidan ilk yangi usul maktablari ochiladi. 1900 yilida Buxoro Pirmast tumanidagi Po'stindo'zon qishlog'ida bo'lgan Mulla Jo'raboy tomonidan amir Abdulahadxon ruxsati bilan yangi usul maktablari ochiladi, ammo oradan uch oy o'tgach, uning faoliyati to'xtatilib, muallimlari quvg'inga uchraydi.

Adabiyotlar tahlili. Sadridin Ayniyning yozishicha, buxoroda bu paytda mavjud bo'lgan yangi usuldagi tatar maktabi tatar tilida bo'lganligidan buxoroliklarning foydalanishlari qiyinroq edi. Shu sababli mahaliy tariqqiyparvarlar o'zlari yangi usul maktabi ochish harakatiga tushdilar. Bu maktablarda milliy jadidlar bilan birgalikda tatar millatiga mansub muallimlar ham dars berardilar. Yangi Buxoro (Kogon)da ham yangi usul maktabi tatar muallimlari tomonidan ochilib, unga joyni amir hukumatining o'zi ko'rsatib bergan edi. Dastlab unda tatar muallimlar, keyinchalik esa mahalliy muallimlar dars beradi. Bu maktab uchun hukumat 20 ming rubl (so'm) in'om etadi. U bir necha bor yopilib, yana faoliyat ko'rsatgan.

Buxorodagi ilk mahalliy yangi usul maktablari 1903-1904 yillardan ochila boshlangan. 1903 yilga kelib Buxoroda 6 ta yangi usul maktabi tashkil etilgan edi. 1908 yilda Buxoro amiriligiga I.Gasprinskiy maktab islohoti masalalari yuzasidan tashrif buyuradi.

Buxoroda u ilg'or fikrli tatar ziyolilaridan Sobitov (Buxoroga Markaziy Rossiyadan ko'chgan tatar oilalaridan birini farzandi bo'lib madrasa tahsilini olgan. Buxoroda birinchi usuli jadid maktabini ochganlardan biri, 1918 yil butun oilasi bilan amirlik tomonidan vahshiylarcha o'ldirilgan. Ismini abadiylashtirish maqsadida 1- Buxoro dorilmuallimiga BXSР davrida uning nomi qo'yilgan) bilan uchrashgan I.Gaspirali muallim Nizom Sobitovga yangi usul maktablari uchun o'zi yozgan (keyinchalik 27 marta qayta-qayta nashr etilgan) "Xo'jai Sibiyon" ("Bolalar muallimi") nomli birinchi darslik asosida ish boshlashni tavsiya etadi. Ushbu darslikda foydali maslahatlar, hikoyalar berilgan edi[6]. Sobitov tatar bolalarini yosh xususiyatlariga qarab sinflarga bo'ladi. O'rtacha bir kunda 5 soat dars, har bir darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus joriy qilinadi. Birinchi bosqichda o'quvchilarga harflar o'rgatiladi, o'quvchi bir darsni o'zlashtirmasa, ikkinchisiga o'tolmasdi. Bolalarni yorug' xonalarda, ko'rgazmali qurollar, globus va xaritalar orqali o'qitish yo'lga qo'yilgan[7]. Bu maktab an'anaviy usuldagi maktablardan nafaqat shart-sharoitlari, balki o'quvchilar tezda savodini chiqarishi bilan ham afzal edi. Ularga 10 oylik tahsildan so'ng ta'til berilgan, hafta mobaynida juma va bayram kunlari dam olish kunlari hisoblangan.

Buxorodagi N.Sobitovning tatar maktabini nafaqat tatar bolalari, balki buxoroliklarning bolalari uchun ham rasmiylashtirmoqchi bo'ladi. Maktabni I.Gaspirinskiy sharafiga Ismoiluya deb nomlashga qaror qilinadi. Ammo I.Gaspirinskiy bunga rozi bo'lmaydi va maktabni marhum amir Muzaffarxon nomiga bag'ishlab Muzaffariya deb atashni taklif etadi. I.Gaspirinskiy amir Abdulahadxon bilan uchrashib, maktab ochish, uning binosi va boshqa tashkiliy ishlar to'g'risida gaplashib oladi. Biroq buxorolik muttassib ulamolalar qarshiligi tufayli

ushbu maktabni rasmiylashtirish ishi to'xtab qoladi. Sobitovning buxorolik bolalar ham o'qib turgan tatar maktabi Homid Burnashevning hovlisiga ko'chiriladi va bir yilga yaqin shu taxlitda faoliyat ko'rsatadi. Hatto ulamolarning ilg'or fikrli ayrim vakillari, xususan, Mufti Ikrom yangi usul maktabi shariatga xilof emasligini tan oladi[9]. Ilk jadid maktabi buxoro xalqining ilg'or qatlami vakillarini o'ziga jalb eta boshladi. Mahalliy aholi vakillari o'z farzandlarini tatar maktablariga bera boshladilar. Biroq ushbu maktab ko'p o'tmay yopildi.

Muhokamalar va tajriba. 1908 yilning oktyabr oyida Buxoroning Darvozai Sallohxona guzarida Mirzo Abdulvohidning uyida o'qish mahalliy tilda olib boriladigan, yangi usul maktabi rasman ochiladi va unga Mirzo Abdulvohid muallim etib tayinlanadi[10]. Yangi usul maktabini tashkil etish ishi, uni tashkil etganlarning yangi usul va qoidadan xabarsizligi tufayli ancha qiyin kechdi. Shu sababli tatar maktabi o'qituvchilari bilan olib borilgan hamkorlik natijasida ishlar ancha jonlanib, ta'lim berish sifati yaxshilandi. Oradan bir oz muddat o'tgach, Mirzo Abdulvohid kattalar uchun kechki maktab kurslar ochadi va yoshi 20-30 ga yetgan shaharlilarni yig'ib, har kuni 2 soatdan ta'lim bera boshlaydi. Ko'p yillar davomida an'anaviy maktabga nihoyat darajada ixlos qo'yadilar[11].

Mahalliy ziyolilardan Sadridin Ayniy boshlang'ich maktabning to'rt sinfdan iborat bo'lishini taklif qiladi[12]. Shu sababli yangi usul maktablaridagi sinf xonalarida geografiya xaritalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar bo'lgan. Xat-savod bolalarning ona tilida, tovush usuli (usuli savtiya)da o'rgatilgan. Yangi usul maktablari, asosan, 1-4 sinfdan iborat boshlang'ich maktab bo'lgan[13]. Maktab ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qitishni samarali tashkil etish, usul va qoidalarni yaxi o'zlashtirib olish uchun Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan tatar maktablari nizomidan foydalaniladi. "Biz maktabchilarshu kungacha Buxorodagi tatar maktabidan xabarsiz edik. Oradan fursat o'tkazmay, to'g'ri mazkur maktabga bordim. Maktab muallimi meni nihoyat mamnuniyat bilan qabul qilib, har to'g'rida yordam berishni va'da qildi. Darslarni ko'rsatdi. Ta'lim qoidalaridan bir oz ma'lumot berdi. Ibtidoiy maktab dars kitoblaridan namuna bo'larlik bir donadan va ta'lim-tarbiyaga doir bir kitob berdi", - deb yozadi S.Ayniy.

Yangi usuldagi maktablarda yangi dunyoviy bilimlar o'qitilib, eskirib qolgan o'qitish uslubidan esa voz kechilsa-da, lekin o'quvchilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda islom dini asos qilib olindi. 1908 yilda Sadridin Ayniy yangi, usuldagi tatar maktablarining tajribasiga tayanib, tatar maktabi muallimi Buvali Abdurahmon Saidiy bilan birgalikda darsliklar yozadi. Shulardan biri "Tartil ul-Qur'on", ya'ni Qur'oni Karimni o'qish va talaffuz qilish qoidalarini o'rganishga bag'ishlangan kitob, "Tahzib us-sibiyon" – axloqiy tarbiya, ya'ni odabnoma kitobi edi. Bu yerda o'nlab qisqa hikoyalar axloqiy tarbiyaga qaratilgan edi.

Maktablar ishi sekin-asta xalq orasida shuhrat qozona boshladi. Sadridin Ayniyning yozishicha, "Bir necha yil eski maktablarda yurib xat va savod chiqara olmaganlarning yoki eski maktabga bo'ysunmaganlarning otalari bizning maktab o'quvchilarining ikki oylik ma'lumotlarini ko'rib, kamoli ixlos va ishtiyoq bilan bolalarini keltirib topshira berdilar".

Buxoroda tashkil etilgan yangi usul maktablarida o'qitish jarayonini samarali bo'lishini ta'minlash uchun jadid muallimlari darslik, qo'llanma va adabiyotlarga ehtiyoj kuchayib bordi. "Shuning uchun, - deb qayd etadi S.Ayniy o'z xotiralarida kitob hozirlamoq orzusi bilan o'z oramizda bir shirkat tuzib, birinchi navbatda tajvid qoidalarini "Tartiul-Qur'on" ismidagi nashr qilishga qaror berildi. Buni tatar muallimi vositasi bilan Orenburg matbaasiga topshirdik", - deb yozadi Sadridin Ayniy. Maktablarda o'qitishning yangi usulini o'zlashtirgan muallimlar tayyorlash uchun bir qator buxorolik muallimlar Qrim va Turkiyaga yuboriladi. Xususan, Usmon Xo'ja va Homid Ho'ja Boqchasaroy hamda Istanbulga yuboriladi.

1908 yilda Buxoroning Sallohxona mahallasida tatar maktabi muallimlar o'quvchilarni imtihon qilib, ular qo'llagan usul qanday samara berganini namoyish etadilar[12]. Mazkur voqeani Sadridin Ayniy qo'yidagicha ta'riflaydi: "Bahor faslida tatar maktabida umumiy imtihon bo'ldi. Imtihon majlisida tatar va buxorolik bolalarning otalari hozir bo'ldilar. Biz ham o'z maktabimizdan bir-ikki shogirdni ergashtirib bordik. Imtihon majlisi osudalik va tinchlik

bilan o'tdi. Bu munosabat bilan biz, shahrimizning yangi maktab tarafdorlari bilan tanishdik. Ular ham Buxoroda o'z buxoroliklari tarafidan yangi maktab ochilganini anglab ziyodasi-la quvondilar. Ushbu kundan boshlab bizning maktabimiz shuhrat chiqardi.”

1909 yilning kuzida Mirzo Abdulvohidning maktabida ham xuddi tatar maktabidagi kabi oshkora imtihon tashkil etiladi. Imtihonda Buxoro qo'shbegisi Ostanaqul, qozi kalon Burhoniddin va raisning vakillari ishtirok etishadi, Buxoro muftiylaridan yangi usul tarafdori bo'lgan Domla Ikrom, Samarqaddagi yangi usul maktabidan Mullo Abduqodir Shakuriy ham qatnashadi. Imtihon majlisi ertadan oqshomgacha davom etadi. Sadridin Ayniyning qayd etishicha, Buxoroning voqeatalab kishilarning ko'pchiligi qiziqish bilan imtihonga keladilar. Imtihon kelganlarga juda zo'r taassurot qoldirgan. Birovlar bolalarning tayyorligini ko'rib, quvonganidan yig'lab yuborgan, yana kimlardir ushbu yangi usul maktabi uchun yangi bino hozirlash haqida fikr qilgan. Majlisda fatnashgan mufti Domla Ikrom va Buxoroda eng birinchi gazeta o'qigan 80 yashar Bo'riboy afandining “Men umidvormanki, o'n yilgacha Buxoroda inqilob voqe' bo'lur, vatan avlodi bu kungi razolat va safolatlardan qutulur. Esizki, u kunni men ko'ra olmaymiz, siz yoshlar, ko'rasiz. Ming qatla shukurkim, ishning boshlanganligini ko'rdim” deb ko'ziga yosh olib, majlis ahliga qilgan murojaati to'planganlarga katta ta'sir etgan. Domlo Ikrom esa shunday degan: “Yosh bolalarning oz bir fursatda shuncha kerakli narsalarni o'rganganliklarini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Men, bu maktabni shariatga muvofiq va musulmonlarga nofe' (foйда) deb bildim”. Majlis ishtirokchilarining aksariyati domlaning fikrlariga qo'shiladilar. Xuddi shunday imtihon Samarqandda ham Shakuriy maktabida ham o'tkazilgan edi. Mirzo Abdulvohid maktabidagi oshkora imtihondan keyin yangi usul maktabi to'g'risidagi fikr bildiruvchilar ikki guruhga bo'lingan. Ishtirokchilar o'rtasida katta bahs boshlanib ketgan. Bu bahsning kelib chiqishiga, birinchidan, yangi maktabga baho berish masalasi, ikkinchidan, maktabda qanday fanlarni o'qitish masalasi sabab bo'ldi. Vaziyat murakkablasha boshladi. Bundan xavfsiragan Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi xodimi Lyutin 1909- yilning 12 dekabrda Turkiston general-gubernatori nomiga maktub yo'lladi. Maktubda, jumladan, Buxoro shahridagi mutaassib mullalar va ularning hatti-harakatlari, yangi usul maktabiga munosabatlari haqida fikr bildiriladi. Amirning yangi usul maktabini shahar tashqarisiga chiqarish fikri ma'lum qilinadi.

Yangi usuldagi maktablarni tashkil qilish masalalari 1910- yillardan boshlab hokimiyatga aloqador shaxslar o'rtasida muhokama qilinadi boshlandi. Buxoro muftilaridan biri, domla Ikromcha, an'anaviy maktablarni jadid maktablari bilan almashtirish haqida keng targ'ibot ishlarini olib boradi va madrasa talabalari, ko'pchilik sarmoyadorlar, shaharning 700-800 nafar nufuzli kishilari uni qo'llab quvvatlaydilar. Domla Ikromning fors-tojik tilida yozilgan “Uyqudagilarning uyg'onishi va nodonlarning ogoh bo'lishi” nomli risolasining 1910 yilda Yangi Buxoro (Kogon)da nashr etilishi katta ahamiyat kasb etdi. U muftiy sifatida Buxorodagi jadid maktablarini Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiychi guruhlarining tajovuslaridan himoya qilgan. 1914 yil 25 yanvarda yuqori martabali ulamolarning yig'ilishida Domla Ikrom jadid maktablarini ochish to'g'risidagi dastur loyihasini taqdim etadi. Domla Ikromchanning faoliyati tortishuvga sabab bo'ladi. Lekin u o'z dasturini qat'iyat bilan himoya qiladi va muayyan natijaga erishadi. Hattoki, qozi kalon ham, agar amir rozilik bersa, jadid maktablarining faoliyatiga qarshi emasligini bildiradi. Domla Ikromchanning ta'kidlashicha, “bir vaqtlar ilmning markazi bo'lgan Buxoro ta'lim tizimida faqat sanoqli iqtidor egalari olim darajasiga yetishishi, o'qitish usullari o'zgarsa, minglab haqiqiy olimlar yetishib chiqishi mumkin edi.” Shu tariqa, Mulla Ikrom boshchiligidagi bir guruh (ilg'or fikrli ulamolar guruhi) nufuzli kishilar yangi maktablarni shakl jihatidan ham, mohiyat e'tibori bilan ham xalq uchun, mamlakat ravnaqi uchun foydali va bu yangi maktablarda din yoki davlat manfaatlariga zid keladigan hech bir narsa yo'q, deb hisoblab, maorif tizimini isloh etish tarafdori bo'ladilar.

Mulla Abduroziq boshchiligidagi ikkinchi guruh (qadimiychilar guruhi) esa yangi usul maktablarini din va davlat manfaatlariga zid bo'lgan zararli maktablar deb topdi, hamda bu maktablarga qarshi jamiyat va davlat kurash olib borishi zarur deb hisobladi. Ular bolalarning

partalarda o'tirishini, arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya kabi fanlarni "Musulmonchilikka zid" deb hisoblab, ularning o'qitilishini qoraladilar. Ammo, Buxoro qo'shbegisi yangi usul maktabini ijobiy baholab, o'z hukmlarini ulamolarga ma'lum qilishi bilan ular to'polon ko'tardilar va shunday shart qo'ydilar: "Agar ushbu maktab yopilmasa, fitna qo'zg'atamiz, qo'shbegi va qozikalonga hujum qilamiz. Mufti Ikromni oradan yo'qotamiz, maktabning muallimini o'ldiramiz. Bolalarning otalarini uylarini talon-taroj qilamiz. Ularni musulmonlikdan chiqaramiz". Ish bu darajaga yetib kelganidan keyin qo'shbegi va qozi kalon maktabni yopish uchun tayyorlangan fatvoga muhr bosishga majbur bo'ldilar. Maktab rasman yopildi. Shunday qilib, ikkinchi guruh, ya'ni qadimiylar guruhi ustun chiqib, yangi usul maktabining yopilishiga erishdi. Mutaassiblar bu bilan ham cheklanmay, Mirzo Abdulvohidni olomon qilib o'ldirmoqchi bo'ladilar. U Buxorodan qochib, ma'lum muddatga Qarshida yashashga majbur bo'ladi va Sadridin Ayniy ham birmuncha vaqt yashirib yuradi.

1910-yilda Turkiston matbuotida "Buxoroda usuli jadid" deb nomlangan maqolada shunday yozilgan edi: "Yangi usul masalasi Buxoroda har xil fikrlarga sabab bo'libdi va har joylarda taftish bo'linib, Buxoro hukumatdorlari no'g'ay (yangi) muallimlarni va irqiy muallimlarni tekshirib, qorovul qo'yimoqda emishlar. Abdurahmon nomli bir muallim kunduz kunlari katta va kichik odamlarni xat yozmoqqa ta'lim bera boshlagan ekan. Qo'shbegi tarafidan 4 nafar kumush kamarlik kishilar kelib, man' qilibdur. Ba'zi xabarga qaraganda bu ishni tatar Qamariddingina qiladur emish. Uning ma'murlar ila munosabati bor ekan. Shundan foydalanib, usuli jadidning avom orasig'a tarqatishdan xavf qilib, bu ishni qilgan emish. Yana Peterburgdan bir taftishchi kelib, Ko'kaldosh madrasasiga xalqni yig'ib, bir necha savol so'ramish. Savollarning bari usuli jadid ekan. 27 martda Ko'kaldosh madrasasida bir majlis bo'lib, taxminan yuz nafar odam jam' bo'lg'an ekan. Peterburgdan kelgan mufattish ruscha hamda forscha so'zlashadur emish. Savollari: 1. Maktab jadidni nima uchun man' qilasiz, bunga sabab nimadur? 2. Madrasalarda hujralarni bay' ishro qilasizlar emish, bu shariatga durusmu? 3. Ziroatlardan podsholikg'a olunadur ushr va xiroj shariatga muvofiqmu? Shul uch savolning javoblarig'a rivoyat topib muhr bosib beringizlar deb ulamo hammalari ittifoq ila bu ishni eshoni a'lamga topshurdilar. Eshoni a'lam 10 kun muhlat olib, javob bermakchi bo'libdurlar. Bul xususda ulamolalar orasida ko'p muxolafat bo'libdur. Ko'rinib turibdiku, yangi maktab masalasi bilan nafaqat amir hukumati, balki rus hukumati ham qiziqib qolgan. Buxoroda amalga oshirilgan islohot ishlari xususida Abdurauf Fitratning fikr-mulohazalari "Oyina" jurnalida nashr etilgan maqolada qo'yidagicha ko'rsatilgan: "Ana, janobi oliy bizning ma'ruzalarimizni nazari e'tiborga olib, avvalo, Buxoro maktablari islohoti uchun himmat ko'rguzdilar. Ammo ulardagi mavjud dars berish tarzini o'zgartirib, besavod maktabdorlarni almashtirish o'rniga, o'sha qo'hna maktabga moyana tayin qilib, asli ta'lim usulini qoldirib, muallimlar ustidan umumiy bir mufattish qo'yib qo'yidilar[15]. Ammo maktablardagi ko'pgina o'qituvchilar islohotdan bexabar bo'lib, ularning ta'lim usuli eski holda edi. Shuning uchun ham o'qituvchilarga maosh tayinlanishi, ular faoliyatini nazorat qilish uchun taftishchi qo'yilishi unchalik samara bermagan. "Bir necha fursat o'tib, maktabdorlar va o'rtamiyona mufattish (taftishchi)lar bir-birlarini topdilar. Bir navi qilib maslahatni bir joyga qo'yidilar. Maktablar asli holicha qoldi. Ketgani hukumatning puli bo'ldi. Bekordan bekorga maktabdorlar cho'ntagiga ketdi. Ya'ni, faryodlarimiz va janobi oliy tashabbuslari zoe' ketdi[16]". 1912 yilning 9 oktyabrida Chorjo'yda Otaxo'ja (Otaulla Xo'jayev)ning yangi usul musulmon maktabi ochiladi. Bu maktabga Chorjo'y hokimi tomonidan xayriya qilinganligini 1912 yil 28 iyundagi 1243 raqam ostidagi qo'shbegi farmonidan ko'rishimiz mumkin. 1912 yilning boshlarida Yosh buxoroliklarning faol a'zolaridan bo'lgan Usmon Xo'ja jadid maktablaridan birini qayta tashkil etadi[17]. Usmon Xo'ja tashkil etgan jadid maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari butunlay yangi tartiblar asosida yo'lga qo'yilgan edi. Bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo'lish, bir kunda 4-5 soatdan ortiq dars o'tmaslik, har bir darsdan so'ng 10 daqiqalik tanaffus joriy qilish, asosiy e'tiborni dunyoviy fanlarni o'qitishga qaratish, asosan, birinchi bosqichda o'quvchilarning savodini chiqarish, juma va yakshanba kunlari dam

olishni joriy qilish, 10 oylik tahsildan so'ng bolalarga ta'til berish, o'quvchilardan vaqti-vaqti bilan imtihon olib turish, bolalarni yorug' va mumkin qadar shinam xonalarda o'qitib, o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar: globus va xaritalardan foydalanish qoidalariga e'tibor qaratilgan.

1912 yilning oxirlarida Usmon Xo'janing qarindoshi Latif Xo'ja tomonidan Govkushon mahallasida yangi maktab ochiladi. Shahar savdogarlari homiyligida ishlagan ushbu maktab 2 sinfdan iborat bo'lib, har bir sinfdan uchta globus, kitoblar, o'tirish va yozish uchun partalar, o'quvchilarga beriladigan daftarlar, o'quv qurollari, devoriy taxta (doska) bo'lgan. Bitta sinfdan boshlang'ich ta'lim oluvchilar, ikkinchisida esa, olti oy ta'lim olganlar o'qigan. Darslarni Usmon Xo'ja va Yosh buxoroliklar partiyasi a'zosi Mulla G'ulom Qodirali olib borgan. Darslar Samarqandda nashr etilgan, fors-tojik tilidagi darsliklar asosida olib borilgan. 30 kishidan iborat ikki sinf o'quvchilarining barchasi Buxorodagi boy savdogarlarning farzandlari bo'lib, ular tez va to'g'ri o'qiydigan bo'lishgan. Mazkur maktabda tan jazosi qo'llanilmagan. 1912 yilda Bozori Nav guzarida o'qituvchi Mullo Hamidxo'ja uyida yangi maktab ochiladi, unda 32 nafar o'quvchi bo'lib, darslar rus tilida olib borilgan. O'qituvchi Mulla Vafo darslarni Grameniskiy darsligi asosida olib borgan. Ko'p o'quvchilar olti oyda rus tilida ravon yozib va o'qib bilgan[18]. Mulla Vafo maktabida 30-35 bola o'qigan. Bundan tashqari yana bir qancha maktablar faoliyat ko'rsatgan. Bunday maktablar Buxoro xalqining e'tiborini qozongan va o'zining kelajagi porloq ekanligini ko'rsatgan.

Ayrim jadid maktablarida, masalan: Usmon Xo'ja, Hamidxo'ja Mehriy maktablarida bir necha o'qituvchi ishlagan, shuning uchun pedagogika kengashi faoliyat ko'rsatgan, tanaffus paytida o'qituvchilar navbatchilik qilishgan.

Maktablar ko'pincha uning tashkilotchilari tomonidan ta'minlab turilgan, ayrim hollarda, ularga boy-badavlat kishilar homiylik qilib turishgan. Bundan tashqari, maktablarning ta'minoti ota-onalar tomonidan beriladigan o'qish puli hisobidan ham yo'lga qo'yilgan. Masalan, Abdulvohid Munzim (Burxonov) tashkil etgan maktabda o'qish puli oyiga 3 so'mni tashkil etgan. O'quvchilarning 15-20% asosan kambag'allarning farzandi bo'lib, ular bepul o'qitilgan. Shuni ham e'tirof etish kerakki, yangi usul maktabida o'qish puli an'anaviy maktabga nisbatan ancha yuqoriroq bo'lgan, bu o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq edi: an'anaviy maktabda 6-10 yil o'qilsa, yangi usul maktabida 4 yil o'qitilgan. Jadid maktablarida o'qitish bosqichlari, o'qitish usullari va o'qitiladigan fanlar aniq bo'lgan.

Jadid maktablari ikki bosqichda tashkil etilgan. Birinchi bosqich boshlang'ich, ikkinchi bosqich o'rta deb ataldi.

Birinchi bosqichda tahsil muddati 4 yil (1-4 sinflar) bo'lib, birinchi yili forscha, arabcha yozuv va o'qish o'rgatilgan. Qur'oni Karimdan suralar yod olingan. Hisob ilmi o'rgatilgan.

Ikkinchi yilida - Haftiyak, iymon va e'tiqod darslari, turkiy, forsiy va arabiy tillarda she'rlar o'qitilgan.

Uchinchi - yilda esa, Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid (qiroat ilmi), Sa'diydan nasihatlar (axloq ilmi), turkiy va forsiy til (tilshunoslik ilmi) o'rgatilib undan insholar yozdirilgan. Hisobdan turli taqvimiy va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan.

To'rtinchi – yilda Kalomi Sharif tavsiri, mufassal tajvid, turkiy va forsiy tilida nazmunasr (adabiyot), turkiy va forsiy til, hisob, tarix va jug'rofiya o'qitilgan[4].

Maktabning bu bosqichini bitirgan o'quvchilar forsiy va turkiy tilda savodlari chiqib, arab tilidan ham bilimga ega bo'lib, Qur'oni Karimni tajvid asosida o'qir edilar. Behbudiyning fikricha, 4 sinfli "usuli jadid"da o'qigan tolib, 10 sana eski maktabda o'qigan tolibdan puxta bilimga egadur.

I bosqich maktabning 4 – sinfini bitirgan bolalar 2 bosqich maktabga qabul qilinar edi. Maktabning bu bosqichi o'rta hisoblanar edi.

II bosqich maktabi:

Birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya (falakiyot), fors tilidan turkiyga tarjima, tarix, islom tarixi, Sa'diyning "Guliston"i, fors va turkiy tillar o'qitilar edi.

Ikkinchi yili arab tili, shifohiya (tibbiyot), tarix, islom tarixi, axloq darsi, fors, turkiy tillari, hisob kabi darslar o'tilar edi.

Uchinchi yil- arab tili, hisob, islom muhokamasiga oid dars, umumiy tarix, rus tili (xat va turli hujjatlarni yozishni mashq qilganlar). Turkiy tilda ish yuritish qog'ozlari ham o'rgatilgan.

To'rtinchi yili- arab tili, rus tilida ish yuritish, ta'lim (pedagogika), adabiyot, maktab va hayot, tabiat darslaridan saboq olar edi.

Sakkiz yillik maktabni bitirgan savodli, hatto adabiy maqolalar yozish qobiliyatiga ega bo'lgan islomshunos, yuksak axloqiy shogirdlar edilar. Bu shogirdlar istasa tijorat, mirzolik, muharrirlik va usuli jadid maktabida muallimlik qilishga qodir edilar.

Behbudiy o'zbek va tojik tillarida o'z maktablari uchun darsliklar yaratdi. Dunyoga tanilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Ilmning zarurligini u o'zining "Bolalar uchun kitob" darsligida asoslab berdi. Bu darslik fors va o'zbek tillarida yozilgan. Darslikning asosiy mazmuni ish yuritish tartib-qoidalariga qaratilgan. Behbudiyning fikricha: "... ovrupo ila savdo qilaturg'on kishi avvalo un sani zamona ilmi o'qimog'i lozim". Bu yo'lda boylarga ham murojaatim shulki, boshqa millatlarning boylari, faqir va yetimlar uchun maktab va dorulfununlar soldirurlar, ularning o'qimog'i uchun pul tayin qilurlar". Behbudiy kelajak avlod-Ovrupa, Turkiya va boshqa xorijiy davlatlar bilan aloqa qilish, ular hayotini o'rganish, tijorat ishlarida ish yuritish, qonun-qoidalarini o'rganishi, zarur deb hisoblaydi.

Darslikda xat yozmoq shartlari beriladi.

-Xatni kam so'z, sermazmun yozmoq;

-Maktabda haqorat, ta'na, hazil, gunohga taalluq so'zlar aslo yozilmasligi;

-Xat borib tegadurg'on odamni mulohaza qilib, oniy fahm va bilishiga muvofiq bo'lmoq lozim;

-Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganida o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunib yozishi kerak;

-G'azab, xiralik va yo nihoyat xursand va behushlik vaqtlarda xat yozmaslik, o'zini oldingi holatiga kelganida yozmog'i kerak.

Bu darslikda yana xususiy xatlar, rasmiy xatlar haqida ham ma'lumot beriladi. Ayniqsa yozgan xatlarda va hujjatlarda tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Behbudiy o'z zamonasidagi madrasalar ahvolini o'zining 1907-yilda yozgan "Faryodi Turkiston" maqolasida shunday ta'riflagan edi: "Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noaql mudarris saylanur, bir volosda 40 nafar el boshlarindan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur". Behbudiy fikrini davom ettirib, bu mudarris, mufti va qozilarni sakson foizi qariyalardir. Ular yoshlarga qanday bilim va tarbiya bera oladilar, deydi.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida kelib reaksiyon guruhlar qarshiligiga qaramay yangi usul, rus-tuzem maktablari va rus tilini o'rganishga qiziquvchilar soni bir muncha ortdi. Bu maktablarda dunyoviy fanlar va ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilar edi. is'hoqxon Ibrat rus tili bilan birga o'nga yaqin sharq, g'arb tillarini ancha mukammal bilgan. U olti tildagi arabcha, forsha, hindcha, sarcha (o'zbekcha) bo'lib, birinchi qismidava ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sina" nomli mukammal lug'at kitobini yaratdi. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida fe'llarning noaniq va kelasi zamon shakllari berilgan. Asarning ikkinchi qismi 37 bosqichdan iborat bo'lib, unda fe'llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari, kun, oy nomlari, odam a'zolari, hayvonlar, parandalar, oziq-ovqat va boshqa buyumlarning nomlari berilgan.

Mingdan ortiq ko'p qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan Ibratning bu asari ko'p maktablarda foydalanib kelindi. Ibrat inson kamolotida ilm o'rnini alohida ta'kidladi: "Madrasalar garchi ilm ma'rifat makoni bo'lsada, uning mazmuni bechoralarni bilim olishga qaratmagan edi". Ibrat xalq farzandlarini ham dunyoviy bilimlardan bahramand qilishga chorlaydi:

O'qingiz ilmi hikmat sizga bu ish sizga ibratdur,

Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur,

Agar ilm o'limasa, nodon umri barcha kulfatdadur.

Ibrat o'zining pedagoglik faoliyatida xat-savod chiqarish jarayonida husnixatga alohida e'tibor berdi. U buni o'zining "San'ti Ibrat", "Qalami Ibrat" nomli she'rlarida asoslab berdi. O'zining "Bo'lubdur" radifli she'rida ba'zi madrasalardagi holatni shunday ifodalagan edi:

Madrasalar ichinda kub fitna birla sho'rish (fitna)

Har kunda o'n xil urush, oq salla non bo'lubdur.

Qassobu qo'yfurushlar, jangu jadal urushlar....

Ellikboshi deganlar, uy boshidan yeganlar.

O'z mansabiga mag'rur go'yoki xon bo'lubdur.

Bu bilan u tengsizlik va adolatsizlikni qoralaydi. Ibrat ma'rifat va madaniyat nurini srchuvchi muallimlik kasbiga katta ahamiyat berdi. Muallimlik kasbini ulug'lab unda qo'yidagi fazilatlar mujassam bo'lishi lozim deb hisobladi: ilm ma'rifat sirlarini o'rgatuvchi bilimdon, bolalarning mehribon najotkori, ziyo tarqatuvchi, yuksak axloqli bo'lishi. U muallim-ustozga atalgan she'rida qo'yidagilarni yozadi:

Johilning ko'zlarini ochdi ilm yo'lida.

Qo'liga berdi ilm chirog'in, yo'l ko'rsatdi muallim...

Xulosa. Madrasalar ham eski maktablar singari o'quv rejasi va dasturlariga ega bo'lmagani uchun ularda aniq belgilangan ta'lim muddati bo'lmas, natijada talabalar vaqtdan yutqazar edi. Lekin Qori-Niyoziy madrasalaridagi ta'limning mazmuni nimalardan iborat bo'lganini, ularda o'qitilgan kitoblarning turlarini ham ta'riflagan. Masalan, "Aqoid" darsligida borliq, xudo va oxirat masalalari "Hikmatulayn" (metafizika)da Mulla Jaloliddin aqidalari, "Muxtasari viqoya"da shariat qonunlari "Fiqxi Kandoniy"da savob farz, sunnat, makruh va gunoh ishlar ifodalanganini bayon qilgan. Qori-Niyoziy Turkiston o'lkasidagi xalq maorifi tarixini o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumning samarasi va madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etgan. Olim fanning afzalliklarini va inson hayoti uchun zarurligini qo'yidagicha ta'riflaydi: "Fan minglab, o'n minglab, hatto yuz minglab yillar mobaynida zarrama-zarra, tomchilab vujudga kelgan va xalq xizmatiga qaratilgandir. Fanni egallagan insonning ongi va vijdoni pokligi, tili va dilining birligi uning ma'naviy shaxs ekanligidan dalolat beradi. Haqiqiy fanning o'zi yorqin axloqning namunasidir. Fan borasidagi ta'limotni bila turib unga xiyonat qilish axloqsizlikdir. Buning uchun avvalo adolatsiz bo'lish lozimdir. Adolatlilik – axloqiy fazilat va yuksak ongni talab etadi. Barkamol insonning eng muhim belgisi axloqiylikdir." Olimning fikricha, axloqiylik ong va vijdon zamirida shakllanadi. Yuksak axloqqa ega bo'lish, insonga baxt keltiradi. Baxt va uning mohiyatini tushunish kishining ongiga, vijdoniga va ma'naviy saviyasiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizov Sh., Azizova S. Ma'rifatparvarlik – ijtimoiy-madaniy hodisa. – Toshkent, 2008. – B. 51.
2. Anke Fon Kyugelgen. Legitimatsiya sredneaziatskoy dinastii mangitov v proizvodenyax ix istorikov (XVIII-XIXv.v). – Almaty. Izd.: Dayk-Press. 2004. – S. 364.
3. Arabsko-russkiy slovar. – M: Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1970. – S.220.
4. Tursunmetova G. XX asr boshlarida Turkiston ta'lim-tarbiya tizimida jadid maktablari / Tarixiy xotira-ma'naviyat asosi. – Buxoro, 2008. – B.124.
5. Mexmet Saray. Turk dunyosida maorif islohoti va G'aspirali Ismoil (Turkiya). – Anqara, 1987. – B. 49.
6. Hayitov Sh., Badriddinov S. Buxoro tarixidan lavhalar (XIX-XX)
7. Bendrikov K Ye. Ocherki po istorii narodnogo obrazovaniya v Turkestane. – S.378.
8. Byulleten SAGU, №16. – S.85.

9. Zenkovsky S.A. *Ran-Turcism and islam in Russia.* – Cambridge, Massachusetts: Harward Unikersity Rress, 1967. – R.86.
10. Buxoro Davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi qo'lyozma fondi, 1573-inventar.
11. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. // *Asarlar.* – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1963. I-tom. – B. 203-204.
12. Ayniy S. *Tahzib us-sibyon.* – B. 8-14.
13. O'zR MDA, 1010-fond, 1-ro'yxat, 66-ish, 41-varaq.
14. Ergashev B. *Ideologiya natsionalno-osvoboditelnogo dvijeniya v Buxarskom emirate.* – S.24.
15. Fitrat A. *Buxoro hukumatining islohkorona qadamlari* // *Oyina*, 1915. – № 8.
16. O'zR MDA, 126-fond, 1-ro'yxat, 1988-ish, 1-varaq.
17. Rajabov Q., Hayitov Sh. *Usmon Xo'ja.* – Toshkent: Abu matbuot konsalt, 2011. – B.8.

Kazakov Ne'mat Normurodovich,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARNI O'QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish orqali talabalarni o'quv-biluv kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Muallif muammoli ta'limning nazariy-metodik asoslarini, uning talaba shaxsini faol bilim egallash jarayoniga jalb etishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, maqolada talabalar tafakkurini rivojlantirish, ijodiy yondashuvini shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu texnologiyaning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixolog, pedagog, tamoyil, ma'naviyat, intellekt, madaniy, texnologiya, evristika, tafakkur, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы совершенствования учебно-познавательных компетенций студентов посредством использования технологии проблемного обучения. Автор раскрывает теоретико-методические основы проблемного обучения, его роль и значение в привлечении личности студента к активному процессу усвоения знаний. Кроме того, в статье анализируется эффективность данной технологии в развитии мышления студентов, формировании творческого подхода, умений принимать самостоятельные решения, а также навыков решения проблемных ситуаций.

Ключевые слова: психолог, педагог, принцип, духовность, интеллект, культура, технология, эвристика, мышление, проблемное обучение, проблемная ситуация.

Annotation. This article highlights the issues of improving students' educational and cognitive competencies through the use of problem-based learning technology. The author reveals the theoretical and methodological foundations of problem-based learning, as well as its role and significance in engaging students in the active process of knowledge acquisition. In addition, the article analyzes the effectiveness of this technology in developing students' thinking, fostering a creative approach, enhancing independent decision-making skills, and solving problem situations.

Keywords: psychologist, pedagogue, principle, spirituality, intellect, culture, technology, heuristics, thinking, problem-based learning, problem situation.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlantirishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q [1]-degan fikrlari tahsinga sazovor.

Muammoli o'qitishning asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. D'yui (1859-1952) g'oyalari yotadi. U 1894-yilda Chikago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab o'z-o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan [2].

Dj.D'yui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalari. Bolalar o'yin va amaliy faoliyat- mehnatga jalb etilganlar. Bu ta'lim

muassasasida qo'llangan o'qitishning yangi uslublari, yo'llari va tamoyillari nazariy asoslanmagan va kontseptsiya sifatida ifodalanmagan edi.

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX-asrning 60-yillarida boshlangan. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va prinsiplari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner[3,4,5,6] kabi psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli o'qitishning mohiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishdan iborat. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular hususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur.

Muammoli vaziyat xar qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi. Shunday qilib, muammoli vaziyat mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan. O'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi. Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal qilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.[4]

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar: yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi; talabalarda noma'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zaxirasining bo'lishi. O'quv muammosini yechish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamda gipotezani asoslashdir.

Muammoli o'qitish o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli. chunki bu yerda shaxs subekt sifatida qaraladi. Muammoli vaziyatlarning maqsadi-pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir. Ta'lim tizimida samarali o'qitish texnologiyalaridan biri – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Pedagogik adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor [7].

Evrastika (yunoncha heurisko – izlayapman, topyapman, kashf etyapman) inson ijodiy faoliyatini, shuningdek yangi kashfiyotlarni yaratishda qo'llanadigan usullarni o'rganadigan fan sifatida psixologiya, kibernetika, strukturali lingvistika, axborot nazariyasi chegarasida rivojlanadi. Evrastika yangi vaziyatda yangi harakatlarni qurish qonuniyatlarini o'rganadigan fan deb tushunish mumkin. Evrastik usullar, masalan, dastlabki ma'lumotlar to'la yoki ishonchli bo'lmagan holda hosil bo'lgan ijodiy masalaning ishga yaroqli lekin doim ham optimal bo'lmagan yechimini topish ehtimolini oshiradi. Evrastik usulblar juda murakkab, ko'zda tutilmagan vaziyatlarda ham yechimini topish imkonini beradi. Evrastika maqsadga erishishga ko'maklashadigan harakatlar uslubini belgilaydi [8].

Muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi: muammoli vaziyat; muammoni yechish yo'llarini izlash; muammoning yechimi; Axborot texnologiyalari yoki postindustrial deb atalayotgan bugungi jamiyatda hayot shaxsdan faol harakat qilishni,

mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o'zgarayotgan sharoitlariga moslashishni talab qiladi. O'z navbatida hayotning bunday tarzi shaxs ma'lum sifatlariga ega bo'lishini talab qiladi [9].

Jumladan, zarur bilimlarni mustaqil egallashni, egallangan bilimlarni turli muammolarni yechishda mahorat bilan qo'llashni; axborotlar bilan savodli ishlashni (ma'lum masalani tadqiq qilish uchun zarur faktlarni yig'ishni bilish, ularni tahlil qilish, muammolarni yechishga qaratilgan gipotezalarni taklif qilish, qonuniyatlarni aniqlash, yangi muammolarni aniqlash va yechish); olingan bilimlarning qayerda va qanday qo'llanishi mumkinligini aniq bilish va bu bilimlarni qo'llash sohasini anglay olish; mustaqil tanqidiy fikrlash, real dunyoda paydo bo'layotgan qiyinchiliklarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etishning optimal yo'llarini izlash; ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lish; turli ijtimoiy guruhlarda kirishimli bo'lish, birgalikda ishlashni bilish yoki nostandart vaziyatlardan chiqishni bilish; o'zining ma'naviyati, intellekti va madaniy salohiyati ustida mustaqil ishlash [10].

Muammoli o'qitish – o'quvchining muammoli taqdim etilgan ta'lim mazmuni bilan faol o'zaro bog'lanishini tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchi ilmiy bilimning ob'ektiv zidliklari va ularning yechimlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga o'rganadi.

O'qitishning tadqiqiy usullarini qo'llaganda o'quvchilarga:

- nostandart masalalarni tuzish bo'yicha;
- shakllantirilmagan savol bilan;
- ortiqcha ma'lumotlar bilan;
- o'zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;
- yo'riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir ob'ekt mohiyatini bayon etish;
- olingan natijalarni qo'llash chegaralarini aniqlash;
- olingan natijalarni qo'llash darajasini aniqlash;
- hodisaning namoyon bo'lish mexanizmini aniqlash;
- "bir lahzada" topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Tafakkur-inson ongining bilish ob'ektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish jarayonidir. Dunyoni tushunish, anglash va unga ongli munosabat bildirish jarayoni tafakkur, fikrlash deyiladi. Tafakkurning oliyligi shundaki, u idrokdan farqli ravishda bevosita aks ettirish bo'lmay, narsalar va ularning xossalarini, voqealarni ular yo'q paytda ham aks ettirishga imkon beradi.

Mustaqil fikrlash- shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o'z qarashi va nostandart yechishlarga ega bo'ladi. Masalan: aniq predmet ruchkani nima ekanligini va nima maqsadda undan foydalanish mumkinligini ko'pchilik biladi. Bu-yozuv quroli. Lekin, mustaqil nostandart tafakkurga erk berilsa, uning ko'rsatkich sifati, yoki sanoq tayoqchasi sifati, yoki g'altakka o'xshatib ip o'rash mumkinligi kabi o'nlab funktsiyalarini sanab berish mumkin.

Shuningdek, mustaqil fikr insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlarini chegarasini kengaytiradi. Muammoli ta'lim bu-o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur [11].

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T., 2021. – B. 237.
2. Дьюи Дж (2000) Демократия и образование. Пер.с англ.-М.: Педагогика-пресс.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии // Педагогика, – М.: 1989. – С. 326.
4. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе // Молодой ученый. – М. 2020. – С. 257-259. 186 с.
5. Okon W. Wprowadzenie do dydaktyki ogolnej. Warszawa:Zak, 1998. 424s.
6. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения. М.: Педагогика, 1981
7. Авлиёкулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогик технология. – Т, Тафаккур Бўстони, 2012. – Б. 80.
8. Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения. – М.: 2004. – С. 282.
9. Джураева Д.Ш. Муаммоли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш: Пед. фанл. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... Дис. – Т., 2022. – Б. 16.
10. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: - Т.: "O'qituvchi", 2004 у.
11. Колеченко А.Э. Энциклопедия педагогических технологий: Пособие для преподавателей. – СПб.: КАРО, 2002 й. 4. Питюков В.Ю. Основы педагогической технологии. - М.: «Гном-Пресс», 1999 г.

Sharipov A'zamjon Axmadjanovich,
*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv
markazi katta o'qituvchisi*

ZAMONAVIY TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik jarayonlarning shakllanishi va pedagogik mashg'ulotlarni tashkil etish usullari ko'rib chiqilgan. Inson ta'limining umumiy qonuniyatlari, barcha turdagi umumta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishga qaratilgan yagona pedagogika va zamonaviy pedagogikaning muammolari tahlil qilinadi.*

Ka'lit so'zlar: *o'qituvchi, ta'lim, ijodkorlik, pedagogika, determinizm tamoyili, zamonaviy ta'lim, mashg'ulotlar, umumta'lim muassasalari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются процессы формирования педагогической деятельности и методы организации педагогических занятий. Анализируются общие закономерности человеческого образования, единая педагогика, направленная на разработку основных принципов учебно-воспитательного процесса во всех типах общеобразовательных учреждений, а также проблемы современной педагогики.*

Ключевые слова: *преподаватель, образование, творчество, педагогика, принцип детерминизма, современное образование, занятия, общеобразовательные учреждения.*

Annotation. *This article examines the processes of forming pedagogical activities and the methods of organizing pedagogical classes. It analyzes the general patterns of human education, the unified pedagogy aimed at developing the fundamental principles of the educational process in all types of general education institutions, as well as the problems of modern pedagogy.*

Key words: *teacher, education, creativity, pedagogy, principle of determinism, modern education, classes, general education institutions.*

Kirish. *Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'qituvchilar va o'quvchilarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o'qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash ularning samaradorligini va kelajakda ulardan foydalanishni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta'sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak.*

O'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy rivojlanishining zaruriy shartidir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq holda, o'qituvchilar tomonidan ulardan foydalanish samaradorligini baholash zarurati tug'iladi. Ushbu metodika qiyinchiliklarni aniqlash uchun asos yaratadi, baholashning muhimligi u yuz berayotgan o'zgarishlarni monitoring qilish, tizimning hamda uning tarkibiy qismlarining kuchli va zaif tomonlarini imkon qadar ilk bosqichda aniqlash uchun hamda ushbu tizimning samarali (samarasiz) amal qilishini, sabablari bilan birga, tavsiflash uchun xizmat qiladigan vosita ekanligidan kelib chiqadi. Baholashdan maqsad o'tgan faoliyatnigina emas, balki joriy faoliyatni ham baholash, shuningdek, istiqbol uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. O'qituvchining professional rivojlanishini bir nechta nuqtai nazardan ko'rib

chiqish mumkin. Ushbu maqolaning maqsadlariga ko'ra, biz uning kasbiy mahoratini oshirishga intilishi, dolzarb, qiziqarli va talabgir bo'lib qolish istagini ko'rib chiqamiz [1].

Odatda yagona pedagogika to'rtta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- a) pedagogikaning umumiy asosiy tamoyillari;
- b) o'qitish (ta'lim berish) konsepsiyasi;
- v) o'rganish (o'quv) konsepsiyasi;
- g) ma'rifiy konsepsiyalarni boshqarish.

Birinchi tamoyil – determinizm tamoyili bo'lib, u rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarni hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratadi. Muhim omillar qatorida motivatsiya ajralib turadi. Motivatsiya omillariga quyidagilarni kiritish mumkin: o'qituvchilik faoliyatidan zavq olish, mehnat natijasida aniq mahsulotga erishish, yuqori natijalarga erishish ehtimoli.

Bu tamoyil bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, chunki o'qituvchining ichki istagisiz haqiqiy rivojlanish imkonsiz - pedagogni majburan rivojlanishga undab bo'lmaydi.

Ikkinchi tamoyil – shaxsning faol pozitsiyasi tamoyili bo'lib, u shuni ko'rsatadiki, turli omillar (jumladan, kasbiy muhit omillari) ta'sirida oliy o'quv yurti o'qituvchisi aynan faol va o'zgartiruvchi faoliyat holatida kasbiy jihatdan rivojlanadi.

O'qituvchining kasbiy o'sishi ikki asosiy yo'nalishda kechadi: kasbiy va shaxsiy.

Kasbiy o'sish – bu o'qituvchining malakasi, kasbiy ko'nikmalarining rivojlangan darajasi kabi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Shaxsiy o'sish esa o'qituvchining kasbiy faoliyat yurituvchi shaxs sifatidagi sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Bu yerda shaxsning quyidagi jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi: dunyoqarashi, motivatsiyasi, ijodkorligi, mas'uliyati, qadriyatlar va boshqalar.

Keyingi tamoyil – subyeklik tamoyili, bu esa inson faoliyatining o'zgarishga yo'naltirilganligi, uning salohiyatini (qobiliyat, layoqat, imkoniyat) rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishini nazarda tutadi.

Refleksivlik tamoyili. Refleksiya orqali pedagog o'z faoliyat tajribasini tahlil qiladi, baholaydi, umumlashtiradi va kelgusi harakatlarini rejalashtiradi. Refleksiya unga darslarning ijodiy ssenariylarini ishlab chiqish, talabalarining shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

O'qituvchining reflektiv yo'nalganligi unga o'z faoliyatini baholash, kasbiy qiyinchiliklar va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish va kompensatsiya qilish uchun optimal yo'llarni topishda yordam beradi.

Maktabgacha pedagogika – bu maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi va rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

U quyidagilarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim didaktikasi, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish konsepsiyasi va metodikasi, bolalarni o'qitishning texnologik jarayonlari – davlat, xususiy va nodavlat ta'lim-tarbiyaviy muassasalarda, turli oilaviy sharoitlarda (yagona farzandli, ko'p farzandli, to'liq bo'lmagan yoki ijtimoiy jihatdan noqulay oilalarda) olib boriladigan ta'lim.

O'rta ta'lim muassasalari pedagogikasi maktab yoshidagi bolalarga dars berish va ta'lim berish qonuniyatlarini o'rganadi. Bu yo'nalish tarbiya ilmining eng rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki u o'quv jarayonining sinf darslari tizimida puxta shakllangan bo'limiga tegishli.

Qariyalar pedagogikasi va andragogika kattalar va qariyalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Inson mehnatining muayyan turining qaysi jihati tizimlashtirish asosi sifatida qo'llanilishiga qarab pedagogik yondashuvlar yana bo'linadi. Harbiy, texnik, sport, teatr, muzey, musiqa, ishlab chiqarish va tuzatish mehnat pedagogikasi farqlanadi. Shaxs rivojlanish orqali shakllanadi, shakllanishga olib keladi, hali to'liq shakllanmagan, ammo rivojlanish bosqichida bo'lgan jarayonlarga yo'naltirilgan [2].

Zamonaviy pedagogikaning muammolari. Zamonaviy pedagogikaning imkoniyatlaridan tashqari, ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadigan cheklovlar mavjud. Eng dolzarb muammo shundaki, ijtimoiy inqiroz bevosita maktablarga ta'sir qiladi. Ta'lim qadriyatlar ko'lamini o'rnatishga chaqiriladi, ammo bu qadriyatlar hamma uchun farq qiladi. Shu sababli zamonaviy pedagogika hamma uchun samarali ta'lim dasturini yarata olmaydi. Xuddi shunday muhim muammo shundaki, o'qituvchilar o'tgan avlodlarga yo'naltirilgan eskirgan o'quv dasturlari asosida tayyorlanadi. Hozirgi bolalar ota-bobolaridan juda farq qiladi va yil sayin maktabdan uzilib qoladi.

Shunga ko'ra, hozirgi avlod ta'lim-tarbiyaga zamonaviy yondashuvni talab qilmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugungi maktab o'quvchilari tobora g'arb madaniyati va qadriyatlariga yo'naltirilgan. O'qituvchilar o'z o'quvchilarining haqiqiy fikrlari va istaklarini tushuna olmaydilar, ular bilan umumiy til topa olmaydilar va ularning muammolarini tushuna olmaydilar, ko'pincha ularni chetlab o'tishadi. Kompyuter texnologiyalari va internet tobora ko'proq yuzma-yuz muloqot o'rnini egallab, bolalarni maktab faoliyatidan ko'ra virtual dunyoni afzal ko'rishiga olib kelmoqda.[3]

Zamonaviy pedagogikada quyidagi yondashuvlar mavjud:

1. Faoliyatga asoslangan. Bu yondashuvning printsipi shundaki, bolalar maktab hayotiga moslashadi, jamiyat bilan o'zaro munosabatda bo'lishni o'rganadi, dunyoni o'rganadi va turli tadbirlar orqali amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv zamonaviy pedagogikada eng samarali hisoblanadi, chunki u bolalarni rag'batlantirishga yordam beradi.

2. Qiymatga asoslangan. Ushbu yondashuv hozirgi tendentsiyalarga qarab o'zgaradi. Bu shuni anglatadiki, har bir yangi avlod hozirgi kunda keng tarqalgan qadriyatlarga ega bo'ladi. Masalan, bag'rikenglik, halollik, mehribonlik, boshqalarga hurmat, xolislik va boshqalar. Bunday yondashuv bilan bog'liq muammo shundaki, hozirgi avlod o'z mintaqasi tarixini o'rganishni istamaslik, yomon odatlar va g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning normallashtirishi, moddiy farovonlikni ma'naviy qadriyatlardan ustun qo'yish va boshqalar kabi boshqa qadriyatlar va me'yorlarni qabul qilishga moyildir.

3. Insonga qaratilgan. Bu bolaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga imkon qadar yaqinroq yo'naltirilgan ta'lim va rivojlanish jarayonini o'z ichiga olgan eng yangi yondashuv.

4. Madaniy. Ushbu tarbiyaviy yondashuv maktab o'quvchilarini o'z ona yurtining tarixi va an'analari bilan tanishtirishga qaratilgan. Ta'lim muhiti shunday tuzilganki, unda madaniy qadriyatlarga katta e'tibor beriladi, mavzuli to'garaklar tashkil etiladi, o'lka tarixi o'rganiladi.

5. Individual markazlashtirilgan. Bu tarbiyaviy yondashuv birinchi navbatda o'quvchining imkoniyatlari va salohiyatiga qaratilgan. Misol uchun, bir sinfdagi ikkita bolaning qiziqishlari va qobiliyatlari juda boshqacha bo'lishi mumkin. Aytaylik, biri matematika masalalarini echishni yaxshi biladi va rasm chizishni yaxshi ko'radi, ikkinchisi esa tenglamalarni tushunmaydi va insho yozishni afzal ko'radi. Bu yondashuv hayotda muvaffaqiyatga erisha oladigan mustaqil shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan [4].

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy dunyoda pedagogika insonning butun umri davomida rivojlanishining omili va vositasi sifatida pedagogik jarayonning (ta'limning) mohiyati, qonuniyatlari, tendentsiyalari va rivojlanish istiqbollari o'rganadigan fandır. Shu asosda pedagogika uni tashkil etish nazariyasi va texnologiyasini, o'qituvchi mehnatini (pedagogik faoliyatini) va o'quvchilar faoliyatining har xil turlarini takomillashtirishning shakl va usullarini hamda ularning o'zaro ta'sirining strategiya va usullarini ishlab chiqadi. Ma'lumki, pedagogik bilimlar tizimi o'qitish va tarbiyalashning qonuniyatlari va tamoyillari, pedagogik amaliyot faktlari hamda pedagogik nazariya bilimlarining o'zaro bog'liq bo'lgan nazariy tushunchasidir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati.

1. Sharopova Z.F. "Ta'lim texnologiyalari" Toshkent-2019. 14-bet.

2. Ishmuxamedov R.J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. Toshkent-2004.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2013 y. -279 bet.
4. Kardanov R. R. Oliy o‘quv yurti ta’lim makonida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish / R. R. Kardanov, A. S. Uzarxanova, T. X. Abdulazimova // fan, madaniyat, ta’lim dunyosi. – 2021. – № 3(88). 245-247-betlar. – DOI 10.24412/1991-5497-2021-388-245-247
5. Melexina E. A. O‘niversitet o‘qituvchisining kasbiy rivojlanish tamoyillari / E. A. Melexina // fan va ta’limning zamonaviy muammolari. – 2014. – № 2. 3-15 betlar.
6. Kavdangalieva M.I. psixologiya va pedagogika: darslik / M. I. Kavdangalieva. Sankt-Peterburg: IEO Sankt-Peterburg Davlat universiteti, 2012. 266 P.
7. Ivanov V.V. (2020). Pedagogik jarayonda zamonaviy yondashuvlar. Moskva: Fan.

Maxmudov Shokir Kamolovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika va psixologiya kafedrası
dotsenti

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0002-8066-5434>

UDK: 159.9.072

Email: mahmudovshokir0@gmail.com

PEDAGOGLARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada, pedagoglarda o'z-o'zini boshqarish shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar ilmiy jihatdan o'rganilgan. Bundan tashqari maqolada, pedagoglarda o'z-o'zini boshqarishning yuqori darajada rivojlanganligi stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, ijobiy munosabatni saqlab qolish va dars jarayonida muvozanatni ta'minlash kabilar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Pedagog, o'z-o'zini boshqarish, ichki muhit, rahbariyat yondashuvi, hamkasblar, munosabatlar, refleksiya.

Аннотация. В данной статье научно изучены факторы, влияющие на формирование самоуправления у педагогов. Кроме того, в статье анализируется высокий уровень развития самоуправления у педагогов, принятие правильных решений в стрессовых ситуациях, поддержание позитивного отношения и обеспечение равновесия в процессе урока.

Ключевые слова. Педагог, самоуправление, внутренняя среда, подход руководства, коллеги, отношения, рефлексия.

Abstract. In this article, the factors influencing the formation of self-management in teachers are scientifically studied. In addition, the article analyzes the high level of self-control in teachers, such as making the right decisions in stressful situations, maintaining a positive attitude, and ensuring balance in the lesson process.

Key words. Teacher, self-management, internal environment, management approach, colleagues, relationships, reflection.

Kirish. O'z-o'zini boshqarish har qanday kasb egasi uchun muhim bo'lgan psixologik jarayonlardan biridir, ayniqsa, ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun bu sifat yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi tezkor va raqobatbardosh ta'lim muhitida o'qituvchining o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va xatti-harakatlarini ongli tarzda boshqara olishi uning samarali faoliyat yuritishida asosiy omillardan biri sanaladi. Pedagog shaxsida o'z-o'zini boshqarishning shakllanishi ijtimoiy, psixologik va kasbiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon faqat nazariy bilimlar emas, balki hayotiy tajriba, shaxsiy o'sish va doimiy refleksiya orqali rivojlanadi. Ta'lim muassasasidagi ichki muhit, rahbariyat yondashuvi, hamkasblar bilan munosabat ham ushbu jihatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning o'z ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasi, kasbiy intilishi va ichki tartib-intizomi ushbu sifatni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. O'z-o'zini boshqarishning yuqori darajada rivojlanganligi stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, ijobiy munosabatni saqlab qolish va dars jarayonida muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Ushbu kompetensiya pedagogik faoliyatning barcha bosqichlarida zarur bo'lib, nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchilarning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'z-o'zini boshqarishning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Bu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Pedagogik kasb o'z tabiatiga ko'ra doimiy muloqot va hissiy zo'riqishni talab qiladigan kasblardan biridir, shu bois o'z-o'zini boshqarish bu soha vakillari uchun kasbiy barqarorlik kafolati sifatida ko'riladi. Bunday fazilatning shakllanishiga ko'plab tashqi va ichki omillar

bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, shaxsiy hayotdagi barqarorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ruhiy holat va kasbiy maqsadlarning aniqligi kabi jihatlar pedagogning o'zini qanday boshqarishini belgilab beradi. Ta'lim jarayonidagi bosimlar, rejalashtirilmagan vazifalar va o'quvchilar bilan murakkab munosabatlar o'z-o'zini boshqarish darajasini sinovdan o'tkazadi. Shu bois pedagog doimiy ravishda o'zining ichki resurslarini faollashtirib borishi zarur. Bu esa o'z navbatida, kasbiy refleksiya, shaxsiy taraqqiyotga intilish va o'zini anglash jarayonlarining muhimligini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'limda stressni boshqarish, hissiy aql va o'zini baholay olish kabi psixologik ko'nikmalarning rivojlantirilishi pedagogik amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Bunday ko'nikmalar o'z-o'zini boshqarishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'qituvchining kasbiy faoliyatida samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, metodik tayyorgarlik darajasi, ishga bo'lgan munosabat va mehnatga motivatsiya kabi omillar ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, pedagoglar o'z-o'zini boshqarishga oid mahoratlarni shakllantirishda ko'proq individual yondashuv va psixologik yordamga muhtoj bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini boshqarishning shakllanishi uzluksiz rivojlanadigan jarayon bo'lib, u pedagogning kasbiy hayotida muntazam tarzda takomillashib boradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalarida bu yo'nalishda aniq strategiyalar ishlab chiqilishini talab qiladi. Ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning o'qituvchilarga nisbatan yondashuvi, ularni qo'llab-quvvatlashi va rivojlanishiga imkon yaratishi pedagogning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, kasbiy etika, mehnat madaniyati va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari ham bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. O'z-o'zini boshqarish orqali pedagog o'z ishida barqarorlik, aniqlik va samaradorlikni ta'minlashi mumkin. Ta'lim sifatining oshishi va o'quvchilar bilan ijobiy aloqalarning shakllanishi ham bevosita o'qituvchining o'zini boshqarish darajasiga bog'liq bo'ladi. Buning uchun pedagoglarga maxsus treninglar, psixologik maslahatlar va metodik ko'maklar zarur bo'lishi mumkin. Shuningdek, ularning faoliyatini baholashda faqat natijaga emas, balki jarayonga e'tibor qaratilishi ham o'z-o'zini boshqarish motivatsiyasini oshiradi. Barcha bu omillarni tizimli o'rganish pedagogik salohiyatni oshirish va barqaror ta'lim tizimini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu boradagi ilmiy izlanishlar kasbiy rivojlanish strategiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Barry Zimmermanning sotsiokognitiv nazariyasi pedagoglardagi o'z-o'zini boshqarish jarayonini uch fazali sikl sifatida tasvirlaydi: oldindan fikr yuritish (forethought), ijro (performance), refleksiya (self-reflection). Ushbu tsiklda pedagog maqsadlarini belgilaydi, reja tuzadi, zarur resurslar va strategiyalarni tanlaydi, ijro vaqtida o'z xatti-harakatini, motivatsiyasini va diqqatini nazorat qiladi, keyin esa natijalarni baholab, o'zini tanqidiy fikr orqali tahlil qiladi. Zimmermanning nazariyasida shuningdek, o'z-o'zini boshqarishning tashqi va ichki omillari o'rtasidagi o'zaro ta'sirga katta e'tibor beriladi, xususan, pedagogning o'ziga bo'lgan ishonchi (self-efficacy), oldingi yutuqlari va tajribalarining roli. Bu nazariyada shaxsiy maqsadlar, natijalarga bo'lgan umidlar va vazifalarning murakkablik darajasi pedagogning o'zini nazorat qilish salohiyatini belgilaydi. Pedagog o'quvchilarga, hamkasblariga va rahbariyatga bo'lgan ijtimoiy modelling, kuzatuv va taqlid elementlari orqali o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini egallaydi. Shuningdek, Zimmerman pedagogika amaliyotida baholash va refleksiya vositalarini (masalan, o'zini baholash, ustoz-mentor feedback) joriy etishni zarur deb hisoblaydi. Ushbu nazariya pedagoglarni o'z-o'zini rivojlantirishda, stress va muammolar bilan samarali kurashishda, dars jarayonida mas'uliyat va shaxsiy tashabbusni oshirishda muhim yo'l ko'rsatadi. Pedagog amaliyotida bu nazariyadan kelib chiqib, rahbarlar va maktab ma'muriyati o'qituvchilarga o'z-o'zini nazorat qilish tsikllarini anglab, rag'batlantiruvchi va reflektiv muhit yaratib bera olishi lozim.

Albert Banduraning sotsial-kognitiv nazariyasi o'z-o'zini boshqarishni modellashtirish, kuzatuv, ijtimoiy ta'sir va self-efficacy g'oyalari asosida rivojlantiradi. Bandura nazarida

pedagoglarning o'zini boshqarish ko'nikmalari hamkasblar, ustozlar yoki mentorlar orqali kuzatiladigan namunalarga bog'liq: pedagog boshqalar orqali qanday strategiyalar ishlatayotganini ko'radi va o'z faoliyatida shunga o'xshash usullarni tatbiq qiladi. Self-efficacy, ya'ni pedagogning o'z vazifalarini bajarishga bo'lgan ishonchi, stress va muammolar holatida unga o'zini rag'batlantirish va vazifalarga sodiq qolishga yordam beradi. Bandura ham ijtimoiy muhit, qo'llab-quvvatlash (peer feedback, rahbarlarning ijobiy bahosi) va pedagogning shaxsiy xotirjamligi o'z-o'zini boshqarish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar deb hisoblaydi. Bundan tashqari, Bandura vicarious learning (ya'ni boshqalarning tajribasidan saboq olish) va modelling orqali pedagoglar o'z-xulqini, hissiy reaksiyalarini qanday boshqarishlarini o'rganadilar. Bu nazariyada shuningdek, tashqi rag'batlar (maqtoov, bonus) ham motivatsiyaning tashqi qismi sifatida tan olinadi, lekin ular doimiy o'z-o'zini boshqarishni shakllantirish uchun yetarli emas deb hisoblanadi. Amaliyotda Bandura nazariyasidan foydalanish pedagoglarga professional rivojlanish jurnallari, hamkasblar bilan muloqot, kuzatuv va refleksiya mashqlari kiritishni talab qiladi.

Lev Vygotskyning sotsiokultural nazariyasi va "yaqin taraqqiyot zonasi" (zone of proximal development) pedagogdagi o'zini boshqarish shakllanishida ijtimoiy yordamning ahamiyatini ko'rsatadi. Vygotsky fikricha, pedagoglar hamkasblar, ustozlar, ta'lim muassasalaridagi metodistlar tomonidan ko'mak olishi orqali o'zining ichki nazorat va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy o'zaro ta'sir, muhokama va fikr almashish jarayonlari pedagogni o'z-o'zini nazorat qilishga undaydi, shu bilan "ichki nutq" (private speech) shakllanib, u hissiy va kognitiv holatlarini boshqarishda vosita bo'ladi. Vygotsky nazariyasida shuni takidlash lozimki, til, metaforalar, pedagogik suhbatlar va mulohazalar pedagogning ichki nazorat mexanizmini kuchaytiradi. Bundan tashqari, pedagogning o'zining malaka orttirishi, didaktik metodlarni o'rganishi va metodologik rahbarlik ostida ishlashi Vygotsky nazariyasining asosiy jihatlaridan biridir. Bu model pedagogik jamiyatda hamkorlik, mentorlik va professional hamkorlik orqali o'zini boshqarishning tashqi ko'rinishdan ichki ko'rinishga aylanishini ta'minlaydi. Amaliyotda bu demak, pedagoglar uchun ko'proq loyiha-bo'yicha ishlash, hamkasblar bilan guruh muhokamalari, kasbiy tarmoq va o'quv seminarlar tashkil etilishi kerak.

Paul R. Pintrich nazariyasi (self-regulated learning framework) pedagoglarning metakognitiv, motivatsion va strategik jihatlarini ajratib ko'radi, ularning har biri o'z-o'zini boshqarish shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Pintrich fikricha, pedagoglarning malaka va bilimi metakognitiv strategiyalarni tushunish va qo'llashga asos bo'ladi: maqsad qo'yish, reja tuzish, monitoring, baholash va o'zini tahrirlash. Motivatsion komponent pedagogning vazifaga bo'lgan qiziqishi, ularning yutuqlarga bo'lgan umidi, tashqi va ichki rag'batlari, shuningdek, ularning o'quvchilarga bo'lgan mas'uliyati va kasbiy etigi bilan bog'liq. Strategik jihatlar esa pedagoglarning dars rejalashtirishida turli metodlar, uslublar va vositalarni tanlashda ko'rinadi. Pintrich ikki yo'nalishda – shaxsiy va kontekstual omillarni – ajratadi, ya'ni pedagogning shaxsiy xususiyatlari (xotira, diqqat, ruhiy bardoshlik) va tashqi sharoitlar (makrabning resurslari, boshqaruv siyosati, metodik yordam) birgalikda rol o'ynaydi. Ushbu nazariya pedagoglar uchun o'z-o'zini baholash, metakognitiv refleksiya, yaxshi strategiyalarni modellashtirish va qo'llab-quvvatlanadigan muhit yaratish orqali bu ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Amaliyotda, maktab rahbarlari va ta'lim siyosatchilari pedagoglar uchun tayyorlov kurslari, metodik qo'llanmalar va professional o'sish strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak.

Volitional nazariyalar (Roland Kuhl va boshqalar) pedagoglardagi maqsadlarga erishishda iroda, irodani boshqarish va qarorlar qabul qilish jarayonini markazga olib keladi. Bu nazariyalarga ko'ra, pedagog faqat motivatsiyaga ega bo'lishi kifoya qilmaydi, balki maqsadga sodiqlikni saqlash, chalg'ituvchi omillarni chetlab o'tish, o'z xohishi va intizomini mustahkamlash kabi volitional komponentlar ham muhimdir. Iroda (volition) pedagogga uzoq muddatli maqsadlar sari yurishda, vaqt boshqaruvida, chalg'ituvchilardan himoyalashda,

shuningdek vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda yordam beradi. Shuningdek, bu nazariyalarda stressli vaziyatda yoki maqsadlar juda qiyin bo'lganda pedagogning ichki nazoratini yo'qotmasligi va qayta faollashishi muhim hisoblanadi. Volitional nazariyalar pedagoglarni o'zini tashkillashtirish va o'z vaqtini, energiyasini va e'tiborini boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Masalan, pedagog doimiy ravishda ichki maqsadlarni eslab yurish, rejalarini yozib qo'yish, o'zini rag'batlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, murakkab vazifalarni kichik bosqichlarga bo'lish kabi usullar orqali o'z-o'zini boshqarish darajasini oshirishi mumkin. Amaliyotda, pedagoglarni volition treninglari, maqsad belgilash bo'yicha yondashuvlar va qarorlar qabul qilishda reflexiv mashqlar orqali ko'maklashish muhim.

Tahlillar va natijalar. Pedagog shaxsida o'z-o'zini boshqarishning shakllanishi ko'plab individual va tashqi omillar ta'sirida yuzaga chiqadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogning kasbiy motivatsiyasi va ichki ishonchi uning o'zini nazorat qilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoj, kasbiy maqsadlarning aniqligi va shaxsiy intilish darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar, odatda, o'z-o'zini boshqarishda faolroq bo'ladilar. Bunday pedagoglar darsga tayyorgarlikni, vaqtni boshqarishni va stressli vaziyatlarga qarshi kurashishni samarali tashkil etadilar. Tahlil natijalariga ko'ra, individual psixologik barqarorlik, ya'ni ruhiy chidamlilik va hissiy nazorat ko'nikmalari pedagogning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini mustahkamlovchi omil sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, pedagogik faoliyat davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga bardosh bera olish salohiyati bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Bu ko'nikmalar o'z navbatida tajriba orttirish, refleksiya qilish va o'z ustida izchil ishlash orqali rivojlanadi. Tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, har bir pedagog o'zining psixologik resurslarini tanib olish va ularni rivojlantirish orqali o'zini boshqarish salohiyatini oshirishi mumkin. Shunday ekan, shaxsiy xususiyatlar bu borada asosiy turtki vazifasini bajaradi.

Tashqi omillar ichida mehnat muhiti, ta'lim muassasasidagi boshqaruv uslubi va jamoadagi ijtimoiy munosabatlar pedagogning o'z-o'zini boshqarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar ish joyida adolatli, ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit mavjud bo'lsa, pedagoglar o'zlarini erkin va xavfsiz his qiladilar. Bu esa ularni o'z kasbiga ko'proq e'tibor qaratishga, mas'uliyat bilan yondashishga va o'zini ongli boshqarishga undaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, salbiy ijtimoiy muhit, doimiy tanqid, yuqori bosim va ishonchsizlik pedagogda ichki blokirovka, motivatsiya pasayishi va o'zini nazorat qilishda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shuning uchun maktab ma'muriyati tomonidan yaratiladigan ijtimoiy-psixologik sharoit pedagogning o'z-o'zini boshqarish shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zaro hamkorlik, ochiq muloqot, professional rivojlanish imkoniyatlari bu borada ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Shuningdek, mentorlik tizimi, pedagogik qo'llab-quvvatlash, doimiy baholash va mulohazalar berish tizimlari pedagogni o'z ustida ishlashga undaydi. Natijada, tashqi omillarni to'g'ri yo'naltirish orqali o'z-o'zini boshqarishni kuchaytirish mumkinligi aniqlangan. Tashqi resurslarning mavjudligi bu borada ichki salohiyatni harakatga keltiradi.

Pedagogning hissiy holati, stressga bo'lgan munosabati va ruhiy barqarorligi uning o'zini boshqarish qobiliyatining muhim jihatlaridan biridir. Tahlil natijalariga ko'ra, ijobiy hissiy holatga ega pedagoglar o'z faoliyatida tinchlikni saqlay oladilar, to'g'ri qaror qabul qilishga moyil bo'ladilar. Aksincha, zo'riqish, xavotir va doimiy norozilik hissi pedagogning kognitiv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'zini nazorat qilish salohiyatini susaytiradi. Bunday holatlarda pedagoglar dars jarayonini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar, o'quvchilarga bo'lgan munosabatda hissiy beqarorlik namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hissiy aql va stressni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'z-o'zini boshqarish darajasini yaxshilash mumkin. Bu borada turli psixologik treninglar, relaksatsiya mashqlari, o'zini tahlil qilish usullari muhim amaliy vositalar sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, pedagogning o'z salomatligiga bo'lgan e'tibori, uyqu, dam olish va sport faoliyatlari bilan shug'ullanishi ham bu holatni barqarorlashtiruvchi omil sifatida

baholanadi. Ruhiy holatdagi ijobiy o'zgarishlar o'zini boshqarishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijaviy tahlillar pedagogik samaradorlikka bevosita bog'langan ruhiy barqarorlikni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi.

1.Jadval

| № | Psixologik omil | O'rganilgan pedagoglar soni | Yuqori daraja (%) | O'rtacha daraja (%) | Past daraja (%) |
|----|---|-----------------------------|-------------------|---------------------|-----------------|
| 1 | Ichki motivatsiya | 120 | 63% | 27% | 10% |
| 2 | Stressga bardoshlilik | 120 | 49% | 38% | 13% |
| 3 | Emotsional barqarorlik | 120 | 55% | 31% | 14% |
| 4 | Qaror qabul qilish mustaqilligi | 120 | 58% | 29% | 13% |
| 5 | Tashabbuskorlik va faol ishtirok | 120 | 62% | 25% | 13% |
| 6 | Reflektiv tahlil va o'zini baholash | 120 | 47% | 39% | 14% |
| 7 | Vaqtни boshqarish va rejalashtirish | 120 | 51% | 34% | 15% |
| 8 | Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan foydalanish darajasi | 120 | 42% | 40% | 18% |
| 9 | O'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj | 120 | 66% | 22% | 12% |
| 10 | Ichki nazorat va javobgarlik hissi | 120 | 60% | 30% | 10% |

Tahliliy izoh:

Bu jadval asosida shuni aytish mumkinki, **pedagoglarda o'z-o'zini boshqarishga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar** ichida **ichki motivatsiya, o'zini rivojlantirishga ehtiyoj, va tashabbuskorlik** eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Aksincha, **ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan foydalanish, refleksiya va vaqtни boshqarish** ko'nikmalari nisbatan pastroq darajada namoyon bo'lgan. Bu esa kasbiy rivojlanishda individual resurslar bilan birga tashqi tizimiy yondashuvlarni ham mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishida professional o'sish va malaka oshirish dasturlarining samarasi beqiyos. Agar pedagog doimiy ravishda o'zini yangilab borsa, yangi metodikalarni o'rgansa, bu holat uning o'zini nazorat qilish salohiyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Bunday faoliyat jarayonida pedagog o'zining zaif va kuchli tomonlarini anglaydi, o'z faoliyatiga tanqidiy va ob'ektiv baho berishga o'rganadi. Bu esa o'z navbatida o'zini boshqarish strategiyalarini ongli ravishda tanlashga olib keladi. Tahlil natijalariga qaraganda, ilg'or tajriba almashinuvi, seminar-treninglar va tajribali ustozlar bilan ishlash pedagogik refleksiyaning kuchaytiradi. Shuningdek, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, maqsadli baholash va natijani tahlil qilish bo'yicha aniq yondashuvlar pedagogda o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtiradi. Bunday yondashuvlar samarali amaliyotda ko'p hollarda natijaviylik va o'zini rivojlantirishga kuchli turtki beradi. Shunday ekan, kasbiy rivojlanishga investitsiya kiritish pedagogning shaxsiy va professional hayotida muhim o'rin egallaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining uzluksiz o'rganish ehtiyoji va amaliy tajriba orqali o'zini yangilashga intilishi o'zini boshqarish sifatlarini shakllantiradi.

Pedagogda o'z-o'zini boshqarish shakllanishiga ta'sir qiluvchi muhim jihatlardan biri bu qaror qabul qilish qobiliyati va mustaqillik darajasidir. Tahlillar ko'rsatadiki, o'zining fikri, qarori va yo'nalishiga ega bo'lgan pedagoglar ko'proq o'z faoliyatini mustaqil boshqarishga moyil bo'ladilar. Bunday pedagoglar tashqi aralashuvlarga kamroq bog'liq bo'lib, ichki standartlarga asoslanib ishlaydilar. Qaror qabul qilish jarayoni ularda tafakkur, his-tuyg'u va ijtimoiy holatlarning uyg'unligini talab etadi. Mustaqil fikrlaydigan pedagoglar, odatda, o'z harakatlari natijasi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga tayyor bo'ladi. Bu esa ularni ichki motivatsiyaga tayangan holda faoliyat yuritishga undaydi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, pedagogda mustaqillik qanchalik kuchli bo'lsa, o'z-o'zini boshqarish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Shuningdek, qarorlar ustida refleksiya qilish, muqobil variantlarni ko'rib chiqish va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati bu jarayonni chuqurlashtiradi. Amaliyotda pedagoglarning qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirish uchun tahliliy mashg'ulotlar, muammo asosida o'qitish va interaktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijalarga ko'ra, bu kompetensiyalar o'z-o'zini boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa. Pedagogik faoliyatda o'z-o'zini boshqarish salohiyatining mavjudligi o'qituvchining kasbiy yetukligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Ushbu ko'nikma shaxsning o'z faoliyatiga nisbatan ongli, izchil va maqsadga yo'naltirilgan munosabatini aks ettiradi. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, pedagoglarda o'zini boshqarish faqat ichki intizom emas, balki reflektiv tafakkur, qaror qabul qilish va mas'uliyatli yondashuv bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayonning shakllanishi uchun pedagogga ruhiy barqarorlik, motivatsion tayanch va kasbiy ishonch zarur bo'ladi. O'zini boshqarish ko'nikmalari kasbiy stresslarga bardosh berish, vazifalarni optimal rejalashtirish va doimiy o'zini baholash orqali shakllanadi. Mazkur xulosa pedagogik jarayonda mazmunli o'zgarishlar kiritish uchun o'qituvchining shaxsiy o'sishiga turtki beruvchi omillarni aniqlash muhimligini ko'rsatadi. O'z-o'zini boshqarish orqali pedagoglar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarga individual yondashuvni kuchaytirish va darslarni tizimli yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa nafaqat o'qituvchi, balki butun ta'lim tizimi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'zini boshqarish kompetensiyasi har qanday pedagog uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilish mumkinki, pedagoglarda o'zini boshqarishning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar ko'p qirrali va o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bular orasida shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit, kasbiy madaniyat va tashkiliy qo'llab-quvvatlash tizimi alohida o'rin egallaydi. Har bir pedagog o'z faoliyatini anglash, rejalashtirish, baholash va rivojlantirish orqali bu ko'nikmalarni ongli tarzda shakllantirib boradi. Tashqi va ichki omillar uyg'unligi bu boradagi jarayonning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Xususan, ijobiy ish muhiti, erkin fikr almashish imkoniyati va rahbariyat tomonidan ko'rsatiladigan e'tibor pedagogda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Bu holat esa o'zini boshqarishga tayyorlik darajasini oshiradi. Pedagogning kasbiy maqsadlari, rivojlanish rejalari va ichki intilish darajasi ham ushbu jarayonning samaradorligini belgilaydi. Shu bilan birga, amaliy faoliyatga reflektiv yondashuv, o'z ustida ishlash va o'zini tanqid qilish qobiliyati ham o'zini boshqarishning ajralmas jihatlari sanaladi. Xulosa shuki, bunday omillarni sistematik tarzda rivojlantirish zarur.

Xulosa qilish zarur bo'lgan muhim jihatlardan biri – bu o'z-o'zini boshqarishning ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanishidir. Har bir pedagog ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar va professional me'yorlar asosida o'zini idrok etadi va shunga mos o'z xatti-harakatlarini boshqaradi. Bunda hamkasblar bilan o'zaro munosabatlar, jamoaviy ish tajribasi va kasbiy muloqotning sifati katta ahamiyat kasb etadi. Tashkilot madaniyati, boshqaruv uslubi va rahbariyatning yondashuvi pedagogik faoliyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agarda muhit ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi va ishonchli bo'lsa, pedagogda o'zining faoliyatini mustaqil boshqarishga bo'lgan ishtiyoq kuchayadi. Bu esa o'z navbatida innovatsion faoliyatga, ijodkorlikka va tashabbuskorlikka olib keladi. Aks holda, ijtimoiy to'siqlar, qat'iy byurokratik munosabat yoki ishonchsizlik muhiti pedagogni passiv holatga solib qo'yishi mumkin. Xulosa shuki, ijtimoiy kontekstni hisobga olmagan holda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi to'liq

shakllanmaydi. Shu bois, bu boradagi rivojlanishga ijtimoiy omillarni integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Hissiy holatni boshqarish va stressga nisbatan barqaror munosabat o'z-o'zini boshqarishning ichki poydevorini tashkil etadi. Pedagogik faoliyat ko'plab emotsional yuklamalarga ega bo'lib, bu holatda shaxsning ruhiy bardoshligi katta rol o'ynaydi. Hissiy aql, o'zini anglash, o'z holatini nazorat qilish va hissiyotlarni ijobiy yo'naltirish pedagogning kasbiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xulosa tariqasida aytish mumkin, hissiy boshqaruv salohiyati yuqori bo'lgan pedagoglar o'z ustida ishlashga tayyor, muammolarni hal qilishga moyil va ijodiy fikrlovchi shaxslar bo'ladilar. Bunday pedagoglar murakkab vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmaydi, dars sifatini tushirmaydi va o'quvchilar bilan sog'lom munosabatlarni saqlab qoladi. Hissiy barqarorlikning yo'qligi esa qaror qabul qilishdagi shoshqaloqlik, o'zini past baholash yoki ijtimoiy izolyatsiya holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, pedagoglar uchun psixologik salomatlikni mustahkamlovchi dasturlar, psixologik yordam tizimi va emotsional salohiyatni oshirish kurslari tashkil etilishi zarur. Hissiy muvozanatni saqlash, shubhasiz, o'zini boshqarish darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Xulosa sifatida aytish mumkin, bu holatni e'tiborsiz qoldirish butun pedagogik jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir muhim xulosa shuki, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish uchun pedagogik refleksiya, o'z-o'zini tahlil qilish va tanqidiy fikrlashning ahamiyati beqiyosdir. O'qituvchi o'z faoliyatiga doimiy baho berib borishi, kamchilik va yutuqlarni aniqlashi va ular asosida strategiyalar ishlab chiqishi zarur. Refleksiya jarayoni pedagogga faqat amaliy faoliyatni emas, balki o'z psixologik holatini ham chuqur anglash imkonini beradi. Bu orqali u o'zini anglab, rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi va shaxsiy samaradorligini oshiradi. Tanqidiy fikrlash esa stereotipik yondashuvlarni yo'qotadi, yangiliklarga ochiqlikni ta'minlaydi va pedagogik innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Bunday ko'nikmalar o'z-o'zini boshqarishning yuqori pog'onasini tashkil etadi va pedagogik strategiyani samarali rejalashtirishga xizmat qiladi. Xulosa tarzida ta'kidlash joizki, o'z-o'zini boshqarish faqat tashqi ko'nikmalar emas, balki chuqur ichki tafakkur jarayonining natijasidir. Har bir pedagog bu qobiliyatni o'z hayotida shakllantirgan sari, ta'limda sifati va natijadorlik ortib boradi. Demak, reflektiv yondashuv – muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psixol. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. - T.: O'zMU 2002. – 137 b.
2. Бакшаева Н.А., Вербицкий А.А. Психология мотивации студентов: учебное пособие. М.: Логос, 2006. – 184 с.
3. Бандура А. Теория социального научения. - СПб.: Евразия, 2000. - 320 с.
4. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия : Изучение влияния воспитания и семейных отношений / Альбер Бандура, Ричард Уолтерс; Пер. с англ. Ю. Брянцевой, Б. Красовского. - М. : Апрель Пресс : ЭКСМО-Пресс, 2000. - 509 с.
5. Бурлачук Л.Ф. Словарь-справочник по психодиагностике. - СПб.: Питер, 2007. – 688 с.
6. Берлайн Д. Э. Психология: Биографический библиографический словарь / Под ред. Н. Шихи, Э. Дж. Чепмана, У. А. Конроя. СПб.: Евразия. 2000. – 210 с.
7. Батурин, Н. А. Пособие по разработке тестов достижений (тестов по учебным дисциплинам) / Н. А. Батурин, Н. А. Курганский. - Челябинск: ЮУрГУ, 2001. - 75 с.
8. Александров Ю.И., Брушлинский А.В., Судаков К.В., Умрюхин Е.А. Системные аспекты психической деятельности. - М.: Эдиториал УРСС, 2000. - 269 с.

Abdullaev G'ayratjon Akbarali o'g'li,
Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti
Jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi.
Email: gayratjon097@gmail.com

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAXLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Turli davlatlarning ta'lim tizimida qo'llanilayotgan uslubiy yondashuvlar, mashg'ulot dasturlari va nazorat-mezonlari solishtirilib, ularning afzalliklari va amaliy natijalari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari uchun samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishda xorijiy tajribalardan foydalanishning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, umumta'lim maktabi, xorijiy tajriba, metodika, sog'lom turmush tarzi.

Аннотация. В данной статье проанализирован зарубежный опыт в развитии уровня физической подготовленности учащихся общеобразовательных школ. Сопоставлены методические подходы, учебные программы и критерии контроля, применяемые в образовательных системах различных стран, показаны их преимущества и практические результаты. Результаты исследования подчеркивают важность использования зарубежного опыта при разработке эффективных методических рекомендаций для общеобразовательных школ.

Ключевые слова. физическая подготовка, общеобразовательная школа, зарубежный опыт, методика, здоровый образ жизни.

Abstract: This article analyzes international experiences in developing the physical fitness levels of students in general education schools. Methodological approaches, training programs, and assessment criteria applied in different countries' educational systems are reviewed, highlighting their advantages and practical outcomes. The study emphasizes the importance of utilizing foreign experiences in creating effective methodological recommendations for general education schools.

Keywords. physical fitness, general education school, foreign experience, methodology, healthy lifestyle.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan umumta'lim maktablarida ham o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki sog'lom, jismonan baquvvat va har tomonlama barkamol yoshlarni tarbiyalash mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning negizida turibdi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ham aholining, xususan, yosh avlodning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ularni muntazam jismoniy faollikka jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Umumta'lim maktablari ta'lim-tarbiyaviy jarayonida jismoniy tarbiya fanining o'rni beqiyos bo'lib, u nafaqat sog'lomlashtirish, balki o'quvchilarda irodaviy sifatlar, chidamlilik, kuch va tezkorlik kabi jismoniy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim sifatini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktablari o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlilini amalga oshirish va ular asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan juda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - umumta'lim maktablari o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularning samarali jihatlarini aniqlash va milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirilgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- xorijiy davlatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llanilayotgan ilg'or metodikalarni o'rganish va tahlil qilish;
- umumta'lim maktablari o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash mezonlarini xalqaro tajriba asosida qiyosiy o'rganish;
- xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga joriy etish imkoniyatlarini asoslash;
- o'quvchilarning kuch, chidamlilik, tezkorlik va harakat koordinatsiyasi kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish orqali umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, yosh avlod sog'lig'ini mustahkamlash hamda xalqaro tajriba asosida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning vazifalari:

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-amaliy vazifalar bajarildi:

1. Umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik jarayonining hozirgi holatini o'rganish va tahlil qilish.
2. Xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan jismoniy tarbiya tizimi, metodik yondashuvlar va sport mashg'ulotlari texnologiyalarini o'rganish.
3. Turli mamlakatlarda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari va uslublarini qiyosiy tahlil qilish.
4. Umumta'lim maktablari o'quvchilarining kuch, chidamlilik, tezkorlik va harakat koordinatsiyasi kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali metodik yo'llarni aniqlash.
5. Xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish yo'llarini asoslab berish.
6. Jismoniy tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy metodikalarni integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari:

Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv asosida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy metodlar** – umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik jarayonini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rganish maqsadida ilmiy adabiyotlar, xorijiy manbalar, davlat dasturlari, xalqaro standartlar va elektron resurslar tahlil qilindi.
2. **Empirik metodlar** – umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida so'rovnomalar, suhbatlar va pedagogik kuzatuvlar o'tkazilib, ularning jismoniy faollik darajasi, sport mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi o'rganildi.
3. **Pedagogik taxlil** – xorijiy tajribalardan olingan ayrim metodik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha taxlillar o'tkazildi.

Jadval №1

Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumta'lim maktablarida xaftalik jismoniy tarbiya ("Physical Education" PE) tizimi tahlili

| Yo'nalishlar, Mamlakatlar | Yaponiya | AQSh | Germaniya | Xulosa |
|---------------------------|----------|------|-----------|--------|
|---------------------------|----------|------|-----------|--------|

| | | | | |
|---|--|--|---|--|
| Haftasiga PE (jismoniy tarbiya) mashg'ulotlari soni | 3–4 marta (85%) | 2–3 marta (70%) | 3 marta (78%) | Yaponiyada PE darslari muntazamligi yuqori, AQShda esa sport darslari ko'proq tanlov asosida |
| Sport turlari xilmaxilligi | 72% (judo, karate, suzish, gimnastika) | 80% (basketbol, futbol, beysbol, atletika) | 76% (gimnastika, futbol, qo'l to'pi, yengil atletika) | AQShda sport turlarining xilmaxilligi ko'proq, Yaponiyada esa milliy sportlar integratsiyalashgan |
| Sog'lom turmush tarziga yo'naltirilganlik | 82% | 68% | 74% | Yaponiya sog'lom turmush tarzi madaniyatini maktab tizimiga chuqur singdirgan |
| O'quvchilarning muntazam ishtiroki | 88% | 65% | 72% | Yaponiyada qatnashish majburiy va nazorat kuchli, AQShda esa ko'proq ixtiyoriylik mavjud |
| Qo'shimcha to'garak va sport klublari | 70% | 85% | 80% | AQShda sport klublari keng tarqalgan va professional sportchilar tayyorlashga xizmat qiladi |
| PE natijalari baholash tizimi | 75% (nazariy + amaliy) | 60% (asosan amaliy) | 78% (amaliy + sog'liq ko'rsatkichlari) | Germaniya baholash tizimida sog'liq ko'rsatkichlari ham hisobga olinadi |
| Umumiy samaradorlik | 83% | 72% | 76% | Yaponiya maktablarida PE samaradorligi yuqori, AQSh esa ko'proq iqtidorli o'quvchilarga yo'naltirilgan, Germaniya esa sog'liqni mustahkamlashga urg'u beradi |

Xulosa: Tahlil natijalariga ko'ra, **Yaponiya** umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimi muntazamligi va sog'lom turmush tarziga integratsiyasi bilan ajralib turadi (83% samaradorlik). **AQSh** da sport mashg'ulotlari keng qamrovli va to'garak-klublar tizimi

rivojlangan bo'lsa-da, muntazam qatnashish darajasi pastroq (72%). **Germaniyada** esa sog'liqni mustahkamlashga yo'naltirilgan baholash tizimi kuchli bo'lib, umumiy samaradorligi 76% ni tashkil etdi.

Shu asosda, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish jarayonida **Yaponiyaning muntazamligi, AQShning xilma-xilligi va to'garak tizimi**, hamda **Germaniyaning sog'liqni nazorat qilish metodlari** integratsiya qilinsa, umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik samaradorligini sezilarli oshirish mumkin.

Jadval №2

Xitoy, Yaponiya, AQSh va O'zbekistonda sport tayyorlov tizimi qiyosi

| Ko'rsatkich | Xitoy | Yaponiya | AQSh | O'zbekiston |
|-----------------------------------|--|--|--|--|
| Qabul yoshi | 7–8 yoshdan, iqtidorli bolalar sport maktablariga tanlab olinadi | Asosan 10–12 yoshdan, maktabdan keyingi sport klublari orqali | 8–10 yoshdan, ko'pincha maktab jamoalari orqali | 7 yoshdan boshlab (1-sinf) jismoniy tarbiya darsi majburiy, ixtisoslashgan sport maktablari 10–12 yoshdan qabul qiladi |
| Davlat qo'llab-quvvatlashi | Kuchli: bepul ta'lim, ovqat, yashash joyi beriladi | Davlat maktab va universitet tizimi orqali qo'llab-quvvatlaydi | Asosan homiylik, grant va universitet stipendiyalari orqali | Davlat maktablari, sport maktablari va olimpiya zaxiralari kollejlari tizimli qo'llab-quvvatlanadi |
| Asosiy yo'nalishlar | Qisqa masofaga yugurish, marafon, sakrash | Marafon, uzoq masofa, texnika va intizom | Sprint, marafon, uloqtirish, professional sport turlari keng | Yugurish, sport o'yinlari, milliy xarakterli o'yinlar, sakrash, kurash turlari, umumiy tayyorgarlik keng rivojlangan |
| Mashg'ulotlar hajmi | Juda og'ir: kuniga 2–3 mahal, 6–7 soatgacha | O'rtacha: kuniga 1–2 mahal, intizomiy | Mashg'ulotlar individual dastur asosida, muntazam | Umumta'lim maktablarida haftasiga 2 soat majburiy, sport maktablarida esa haftasiga 4–6 mahal |
| Intizom talabi | Juda qattiq, qoidabuzar dasturdan chiqariladi | Intizom yuqori, lekin insonparvar yondashuv | Erkinroq, lekin raqobat kuchli | O'rtacha: maktablarda nazorat bor, sport maktablarida intizom qat'iyroq |
| Afzalligi | Iqtidorli bolalarni erta tayyorlash, kuchli davlat qo'llovi | Texnika va intizomga katta e'tibor | Professional sportga keng yo'l, moddiy rag'bat kuchli | Keng ommalashgan, jismoniy tarbiya barcha maktablarda majburiy dars sifatida mavjud |
| Kamchiligi | Yuklama og'irligi, ruhiy bosim yuqori | Natijaga bosim baland | Raqobat juda katta, hamma ham professional | Infratuzilma ba'zi hududlarda yetarli emas, imkoniyatlar teng taqsimlanmagan |

| | | | |
|--|--|--|-------------------------|
| | | | sportchi bo'lolmaydi |
|--|--|--|-------------------------|

Xulosa:

- **Xitoy** – iqtidorlarni juda erta tayyorlaydi, natija kuchli, lekin yuklama haddan tashqari og'ir.
- **Yaponiya** – intizom va texnikaga asoslangan, lekin erkin muhit ham saqlanadi.
- **AQSh** – imkoniyat va moddiy qo'llov eng yuqori, raqobat juda kuchli.
- **O'zbekiston** – keng ommalashgan, lekin infratuzilma va sharoit yetarli emas, davlat qo'llovi sustroq.

Jadval №3

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sportda ilg'or pedagogik texnologiyalar qiyosi

| Mamlakat | Qo'llaniladigan texnologiyalar | Asosiy mazmuni | Afzalliklari | Kamchiliklari |
|--------------------|---|--|--|--|
| Xitoy | Erta iqtidorli bolalarni aniqlash va individual tayyorlov dasturi | Maxsus testlar orqali 7–8 yoshdan saralash, individual mashg'ulot rejaları tuziladi | Iqtidorlilarni tez rivojlantiradi, olimpiyachilarni tayyorlash samarali | Ruhiy bosim katta, oddiy bolalarga imkoniyat cheklangan |
| Yaponiya | “Lesson Study” va sport klublari integratsiyasi | O'qituvchi va murabbiylar hamkorlikda darsni kuzatib, takomillashtiradi; maktabdan keyingi klublar keng qo'llanadi | O'quvchi markazda, hamkorlik kuchli, texnik ko'nikmalar puxta shakllanadi | Natija bosimi yuqori, ortiqcha yuklama bo'lishi mumkin |
| AQSh | Differensial yondashuv va zamonaviy AKT (video-analiz, sensorlar) | Har bir o'quvchi qobiliyatiga qarab dastur tuziladi; o'yinlar, musobaqalar orqali baholanadi | Innovatsion usullar, sportni ommalashtirish, shaxsiy rivojlanishga e'tibor | Tijoriylik yuqori, moddiy bazaga bog'liq |
| Finlyandiya | “Health-based Physical Education” (sog'lom turmushga yo'naltirilgan PE) | Darslar sog'lom turmush tarzi va faol dam olishga qaratilgan | O'quvchilar sog'lom hayotga qiziqadi, stress past | Yuqori natijali professional sportchilar tayyorlash sust |
| Germaniya | Dual yondashuv: maktab + sport klublari | Maktabdagi darslar va tashqi sport klublarida mashg'ulot uyg'unlashtiriladi | Sport va ta'lim integratsiyasi kuchli, intizomiy | Ko'p resurs talab qiladi |
| O'zbekiston | “Jismoniy tarbiya – sog'lom turmush kaliti” konsepsiyasi, | Umumta'lim maktablarida haftasiga 2 soat majburiy dars, | Jismoniy tarbiya keng ommalashgan, milliy sport | Infratuzilma ba'zi hududlarda yetarli emas, |

| | | | | |
|--|--|---|-----------------------|---------------------------------------|
| | sport maktablari va olimpiya zaxiralari kollejlari | sport maktablarida ixtisoslashgan tayyorlov | turlari rivojlanmoqda | innovatsion texnologiyalar cheklangan |
|--|--|---|-----------------------|---------------------------------------|

Bu jadvalda ko‘rinib turibdiki:

- Xitoy erta seleksiya va qat'iy tayyorlovda ilg'or;
- Yaponiya va Germaniya – pedagog va klub integratsiyasida;
- AQSh – raqamli texnologiya va differensiallashtirilgan usullarda;
- Finlyandiya – sog'lom turmush tarziga qaratilgan yondashuvda;
- O'zbekiston – milliy va ommaviy sportni uyg'unlashtirishda.

Tadqiqot natijalari va uning muxokamasi:

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi turlicha metodik yondashuvlarga asoslanadi. Jumladan:

1. **Yaponiya tajribasi** – muntazamlik va sog'lom turmush tarziga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Haftasiga 3–4 marotaba PE mashg'ulotlari o'tkazilishi, o'quvchilarning qatnashishi majburiyligi va nazoratning kuchliligi jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, milliy sport turlarining (judo, karate) maktab tizimiga integratsiyasi o'quvchilarda milliy g'urur va motivatsiyani kuchaytiradi.

2. **AQSh tajribasi** – sport turlarining xilma-xilligi va keng qamrovli sport klublari tizimi bilan e'tiborga molik. Bu esa iqtidorli o'quvchilar uchun professional sportga yo'l ochadi. Biroq muntazam qatnashish darajasining pastligi (65–70%) va ko'proq iste'dodli o'quvchilarga yo'naltirilgani sababli umumiy ommaviylik nisbatan sustroqdir.

3. **Germaniya tajribasi** – baholash tizimida sog'liq ko'rsatkichlarining hisobga olinishi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv o'quvchilarda faqat natija emas, balki salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan motivatsiyani oshiradi. Shuningdek, sport turlari xilma-xilligi va muntazam mashg'ulotlar o'quvchilarda chidamlilik va koordinatsiya rivojiga xizmat qiladi.

4. **Xitoy tajribasi** – iqtidorlarni juda erta yoshda tanlab olish va intensiv mashg'ulotlar tashkil etish orqali yuqori natijalarga erishadi. Davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lsa-da, mashg'ulotlarning og'irligi va qat'iy intizom bolalarda jismoniy hamda ruhiy charchoqqa sabab bo'lishi mumkin.

5. **O'zbekiston sharoiti** – umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari keng ommalashgan bo'lsa-da, infratuzilma va moddiy-texnik baza yetarli emasligi, shuningdek, o'quvchilarni sport turlariga keng jalb etish tizimi sustligi mavjud muammolar qatoriga kiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va yoshlarni muntazam sport mashg'ulotlariga jalb etishga qaratilgan islohotlar so'nggi yillarda kengayib bormoqda.

Umumiy muhokama:

Xorijiy tajribalarni solishtirish shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda yagona samarali model yo'q, balki turli mamlakatlarning yondashuvlarini integratsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Xususan:

- Yaponiya tajribasidan – muntazamlik va sog'lom turmush tarziga yo'naltirilganlik;
 - AQSh tajribasidan – sport turlarining xilma-xilligi va to'garak-klublar tizimi;
 - Germaniya tajribasidan – sog'liqni nazorat qilish va baholash tizimi;
 - Xitoy tajribasidan – iqtidorlarni erta aniqlash va intensiv mashg'ulotlar;
- shuningdek, milliy sharoitga moslashtirilgan holda qo'llash umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Jadval №4

Xorijiy tajribalar asosida umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar

| Mamlakat tajribasi | Asosiy jihatlar | O'zbekiston uchun amaliy qadamlar |
|-------------------------------------|---|--|
| Yaponiya | Haftasiga 3–4 marotaba PE darslari, sog'lom turmush tarzini maktab tizimiga chuqur singdirish | Jismoniy tarbiya darslarini haftasiga kamida 3–4 marotaba qilish, maktablarda sog'lom ovqatlanish va gigiyena targ'ibotini kuchaytirish |
| AQSh | Sport turlarining xilma-xilligi, keng qamrovli sport klublari va qo'shimcha to'garaklar | Maktablarda basketbol, futbol, yengil atletika, gimnastika kabi sport to'garaklarini yo'lga qo'yish, iqtidorli o'quvchilarni maxsus sport maktablariga jalb qilish |
| Germaniya | Baholashda sog'liq ko'rsatkichlari (BMI, yurak urish tezligi) hisobga olinishi | Jismoniy tarbiya baholash tizimiga sog'liqni nazorat qiluvchi mezonlarni kiritish, muntazam tibbiy ko'rik o'tkazish |
| Xitoy | Iqtidorlarni erta yoshdan tanlab olish, intensiv mashg'ulotlar, kuchli davlat qo'llovi | 7–10 yoshdagi bolalarda iste'dodlarni aniqlash testlarini joriy etish, maxsus sport maktablari va guruhlarini rivojlantirish |
| O'zbekiston (milliy sharoit) | Umumiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan, infratuzilma yetarli emas | Sport zallarini modernizatsiya qilish, qishloq joylarda stadion va sport maydonchalarini qurish, o'qituvchilar malakasini oshirish, ota-onalarni jalb etish |

Xulosa qilib aytganda, Yaponiyaning muntazamligi, AQShning sport turlarini ko'p qirrali qilishi, Germaniyaning sog'liqni baholash tizimi va Xitoyning iqtidorlarni erta aniqlash usullarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali O'zbekistonda umumta'lim maktablari o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirish mumkin.

Amaliy tavsiyalar:

1. Muntazamlilikni

kuchaytirish:

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini haftasiga kamida 3–4 marotaba o'tkazish tavsiya etiladi. Bu borada Yaponiya tajribasidan foydalanish mumkin.

2. Sport

turlarini

xilma-xillashtirish:

Darslarda faqatgina yengil atletika emas, balki gimnastika, sport o'yinlari (basketbol, futbol, voleybol), milliy sport turlari va sog'lomlashtiruvchi mashqlarni ham keng jalb qilish lozim. Bu o'quvchilarning qiziqishi va ishtirokini oshiradi.

3. Baholash

tizimini

takomillashtirish:

Germaniya tajribasidan kelib chiqib, baholashda faqat jismoniy natijalar emas, balki sog'liq ko'rsatkichlari (masalan, yurak urish tezligi, tana massasi indeksi) ham hisobga olinishi kerak.

4. Qo'shimcha

to'garak

va

sport

klublari:

AQSh tajribasi asosida maktablarda qo'shimcha sport to'garaklari va klublarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu iqtidorli o'quvchilar uchun professional sport sari yo'l ochadi, qolganlar uchun esa sog'lom turmush tarzini shakllantiradi.

5. Iqtidorlarni

erta

aniqlash:

Xitoy tajribasidan foydalanib, iste'dodli bolalarni erta yoshdan maxsus testlar orqali aniqlash va ularni sport maktablari yoki maxsus guruhlariga jalb qilish kerak. Biroq yuklamani yoshga mos tarzda me'yorlashtirish muhim.

6. Infratuzilmani yaxshilash: O'zbekiston sharoitida asosiy muammo – moddiy-texnik baza yetishmovchiligi. Shu sababli maktab sport zallari, stadionlari va jihozlarini yangilash hamda qishloq joylarda ham sport infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

7. O'qituvchilar malakasini oshirish: Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etish, xorijiy tajribalarni amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish lozim.

8. Ota-onalarni jalb etish: O'quvchilarning sport faoliyatida ota-onalar ishtirokini oshirish, ularni sog'lom turmush tarziga undash ham ijobiy natija beradi.

9. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoring qilish, natijalarni qayd etish va onlayn nazorat qilish uchun mobil ilovalar va elektron platformalardan foydalanish tavsiya etiladi.

10. Integratsiyalashgan model yaratish: Xorijiy tajribalarni bevosita ko'chirib olish emas, balki ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim. Shu asosda Yaponiya muntazamligi, AQShning sport xilma-xilligi, Germaniyaning sog'liqni nazorat qilish yondashuvi va Xitoyning iqtidorlarni aniqlash tizimini birlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. *Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*. – Toshkent, 2021.

3. Karimov R., Jo'rayev B. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

4. G'afurov U., Abdullayev G'. *Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari*. – Andijon: ADPI nashriyoti, 2023.

5. Kuramshin Yu.F. *Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya*. – Moskva: Akademiya, 2018.

6. Matveev L.P. *Obuçaya teoriya sporta i sistemy podgotovki sportsmenov*. – Moskva: Fizkultura i sport, 2010.

7. Chistyakov B.N. *Fizicheskaya kultura v obuçeobrazovatelnoy shkole*. – Sankt-Peterburg: Piter, 2017.

8. Williams, J. (2019). *Physical Education and School Sport: International Perspectives*. Routledge, London.

9. Hardman, K., & Green, K. (2011). *Contemporary Issues in Physical Education: International Perspectives*. Meyer & Meyer Sport.

10. Bailey, R. (2006). Physical education and sport in schools: A review of benefits and outcomes. *Journal of School Health*, 76(8), 397–401.

11. UNESCO. (2015). *Quality Physical Education (QPE): Guidelines for Policy-Makers*. Paris: UNESCO Publishing.

12. European Commission. (2018). *Study on Physical Education in Schools in Europe*. Brussels.

13. Yang, J. (2020). Early talent identification and intensive training in Chinese athletics schools. *Asian Journal of Physical Education and Sport Science*, 12(3), 55–64.

14. Nagasaki, H. (2017). Physical Education and Sports Club Activities in Japanese Schools. *Japan Journal of Sports Sciences*, 25(2), 87–94.

15. National Association for Sport and Physical Education (NASPE). (2010). *Appropriate Instructional Practice Guidelines for Physical Education*. Reston, VA: AAHPERD.

Quliyev Shuhrat Shomurodovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida o'qituvchisi

YOSH VOLEYBOLCHILAR JISMONIY SIFATLARINING O'ZARO ALOQADORLIGI

Annotatsiya. Yosh voleybolchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlarning ahamiyati. Har xil sport turlarning spesifik jismoniy sifatlari bir-biridan farq qilishi. Voleybolchilar jismoniy sifatlarning o'zaro aloqadorligi.

Kalit so'zlar: spetsifika- maxsus tuzilishi, intensiv –jadallik.

Аннотация. Значение физических качеств в тренировке юных волейболистов. Конкретные физические качества разных видов спорта отличаются друг от друга. Взаимосвязь физических качеств волейболистов.

Ключевые слова: spetsifika - texnischeeskiiye xarakteristiki, intensiv – intenzivnost'.

Abstract. The importance of physical qualities in training young volleyball players. The specific physical qualities of different sports differ from each other. The relationship of physical qualities of volleyball players.

Keywords: spetsifika – specifications, intensiv – intensively.

Kirish. Jismoniy tayyorgarlik to'rtta masalani: sog'liqni mustahkamlash, jismoniy kamolot darajasini oshirish, organizm funksional imkoniyatlarni ko'paytirish, jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash masalasini hal qiladi.

Pedagogik nuqtai-nazardan jismoniy tayyorgarlik umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlikka ajratiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik yuqorida ko'rsatib o'tilgan sog'liqni mustahkamlash va jismoniy kamolot darajasini oshirishga xizmat qilsa, maxsus jismoniy tayyorgarlik esa organizm funksional imkoniyatlarini ko'paytirish va jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalaydigan asosiy poydevor hisoblanadi. Voleybolchi umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishning asosiy vositasi sifatida buyumlar bilan va buyumlarsiz bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi gimnastika mashqlari, bajariladigan harakatlar intensivligini muntazam ravishda almashtirgan holda juft-juft bo'lib mashq qilish, harakatli va sport o'yinlari, estafetalar, kross yugurish, suzish va boshqalardan foydalaniladi.

Muhokama va natijalar. Kishining jismoniy qobiliyati yoki sifatlarini uning harakat qilish imkoniyatlari (kuchi, tezkorligi, chaqqonligi, chidamliligi) deb qabul qilingan. Ularni takomillashtirish asosida organizmning o'z ishlash qobiliyati darajasidan takroriy ortiqcha jismoniy yuklamalarga javob bera olishi yotadi. Bu yagona jarayonda, mashq qilishning dastlabki bosqichlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik, chuqurlashtirilgan mashq qilish bosqichida esa, aksincha maxsus jismoniy tayyorgarlikning afzallik tomonlari bor.

Har xil sport turlarning spesifik jismoniy sifatlari bir-biridan farq qiladi. Og'ir atletikachilarning kuchi yoki gimnastikachilarning chaqqonligi, uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning chidamliligi voleybol o'ynashda uyg'unlikni ta'minlab beradi. Voleybolchining kuchi dinamik xarakterga ega bo'lishi va start, birdan to'xtash hamda harakat yo'nalishini o'zgartirish, sakrash, to'pni blokda raqibidan olib qo'yish, to'pga zarba berish kabi harakatlarda namoyon bo'lishi kerak. Ma'lumki voleybolchi spetsifikasi vaznining og'ir bo'lishini talab qilmaydi, balki o'z gavdasi va to'p inersiyasini engishi bilan baholanadi.

Shuning uchun ma'lumki, voleybolchilar oyoqlari va qo'llari kuchli bo'lishga alohida ahamiyat beriladi. Lekin o'yin faoliyati bel va qorin muskullarining ham yaxshi rivojlanishini talab etadiki, murakkab harakatlarni bajarish va bir taraflama tayanchda, yuqori elka kamarining muskullari kattalashganda muvozanat saqlash imkonini beradi.

Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida 9-10 yoshda hamma muskul guruhlarini rivojlantirish uchun mashqlarni qo'llash kerak. Ular aytish mumkinki, nafas olish muskullarini mustahkamlaydigan mushak korsetini tashkil qiladi. Bu maqsadda gimnastika narvonida, to'ldirma to'plar, voleybol to'pi, juft mashqlar (3-7 kompleksli) suzish, harakatli o'yinlar, yengil buyumlarni uzoqqa uloqtirish, yugurib kelib balandlikka sakrash singari umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan foydalaniladi.

11-13 yoshda yumshoq cho'ziluvchi rezina, to'ldirma to'plar, arg'amchi, shuningdek juft-juft bo'lib bajariladigan kuch mashqlari, uzunlikka va balandlikka sakrash, ko'psakrashlar (8-12 kompleksli) mashqlar qo'llaniladi. Shuni yodda tutish kerakki, jismoniy yuklamalar hajmi gavda og'irligining 3-4% dan oshmasligi kerak. Masalan, vazni 40 kg bo'lganda og'irligi 1,5 kg li gantel, to'ldirma to'plar bilan mashq qilish mumkin.

14-15 yoshda maksimal vazning 15-20% ni tashkil qiluvchi tortilish mashqlaridan foydalanish mumkin. Bunda harakatlarni (masalan, gavdani engashtirish, o'tirish yoki sakrashlar) maksimal darajada bor kuch bilan tez, qismlarga bo'lib 5-10 marta, har bir qism orasida 2,5 daqiqadan dam olib bajarish kerak. Qismlarda takrorlashlar soni tayyorgarlikka bog'liq bo'ladi, ammo bunda boshlang'ich sxemaga ko'ra 5 marta takrorlashlar (3Q x 5T) uch qismdan oshmasligi kerak. Olti haftalik mashq qilish siklida (5M x 10T) ko'rinishida bo'ladi.

Bunday mashqlar tezkorlik kuchni rivojlantiradi, ular muskullarning nisbatan baland sakrash va zarba berish va erga tushish, raqibdan blokda to'pni olib qo'yish qobiliyatni shakllantiradi.

Oyoqlar va gavdaning yoziladigan muskullarining "portlovchi" kuchini rivojlantirish uchun zo'riqish shart emas, chunki ular birdan yugurish, sakrashlarda nomoyon bo'lib, minimal vaqtda ancha kuchlanishga ega bo'ladi. Muskullarning zarb kuchini oshirish uchun o'z gavda massasidan foydalaniladi: 50 dan 70 santimetr gacha (bo'yga qarab) balandlikdan pastga sakrashdan keyin gavda yuqoriga yoki yuqoriga oldinga shunday kuch bilan siltanadiki, bunda erga tushish paytida oyoqning tizzadan bukilishi kamida 90% ga teng bo'ladi (yengil atletikaning past to'siqlaridan sakrab o'tganda). Voleybol mashg'ulotiga kirishgan yosh boshlovchilar bunday sakrashlarni 2M x 5T sxemasida, ancha tayyorgarlik ko'rganlar esa 4M x 8T sxemada etarli darajada dam olib, muskullarni bo'shashtirish mashqlarini qo'shib bajarishlari kerak.

Oyoqlarning "portlash" kuchini rivojlantirish uchun arg'amchi, qiya narvonda yugurish va sakrash mashqlari, ko'psakrashlar, uch hatlab sakrash, 5-6 metrli qisqa zarbdan keyin yuqoriga bir yoki ikki oyoqlab deysinib sakrashlar (13-14 kompleks) juda foydalidir. Kuchni rivojlantirishda quydagi mashqlar yordam beradi.

- kuchni rivojlantirish va muskullarni bo'shashtiruvchi mashqlarini almashtirib bajarish;
- mashqlarni qo'ydagi izchillikda tanlash: avvalo qo'l va yuqori elka kamari, keyin gavda (kurak, qorin), oyoqlar kuchini rivojlantirish mashqlari;
- mashqlar oralig'ida nafas rostdash etarlicha, kuch yuklamasi hajmiga qarab 1 daqiqadan 2,5 daqiqagacha bo'lishi kerak;
- sistemali ishlashda muskullarni ancha zuriqtirish bilan kuchni oshirib borish mumkin.

Tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar.

Voleybolchining tezkorligi, qattiy aniq masofaga signal bo'yicha start oladigan yengil atletikachining tezkorligidan farq qiladi.

Voleybolda tezkorlik odatda qo'ydagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi: reaksiya tezligida va taktik idrokda, start olish va bir harakatdan ikkinchisiga o'tish tezligida. Voleybolchi tezkorligini tashkil etuvchi bu komponentlarning hammasi bir-biriga bog'liq emas va ularni ham alohida-alohida, ham o'yin mashqlari kompleksida mashq qildirish mumkin. O'yindagi voleybolchi to'p uzatilishidan oldin to'pni ko'ra bilishi, vaziyatni baholashi, bir qarorga kelishi kerak. Shu narsa aniqlanganki, bularning hammasi uchun voleybolchi bir

soniyagacha vaqt sarflab, shu vaqtning 70% to'pni ko'ra bilishga to'g'ri keladi. Shuning uchun o'yinda to'pni ko'rish uchun uni ko'rish maydonidan chiqarmaslik kerak. Ko'rib harakatlantirish reaksiyasidek murakkab reaksiya tezligi ko'zni tezda predmetni ko'ruvchan, harakat apparatini esa qanday harakat qilishni tez oshiradigan mashqlarda takomillashtiriladi. Reaksiya tezligini tarbiyalovchi mashqlarni jift-juft bo'lib bajarish ayniqsa qiziqarlidir.

Voleybolchi hujumdan oldin asosan oyoqlarning "portlash" kuchiga va qisman qadam uzunligini oshirib borishga bog'liq. Oyoqlarning "portlash" kuchini va qadam uzunligini takomillashtirishga qo'ydagi mashqlar yordam beradi:

- 10 -15 metrga sakrab-sakrab yugurish;
- turli holatlardan turib 7-10 metrga tez yugurish;
- cho'nqayub o'tirgan holatdan shartli signalga ko'ra 10 metrga tez yugurish, iloji boricha guyo qo'l bilan to'p urilayotgandek balandroq sakrash va qayta cho'nqayib, yana signalga ko'ra shu mashqning o'zini takrorlash va hokazo;

- bir o'yinchi to'pni balanblatib boshqa o'yinchiga tashlab beradi, unisi esa baland sakrab qo'li bilan unga qaytaradi. 3-4 daqiqadan keyin o'yinchilar o'rin almashadilar;

Voleybolchi tezkorligini rivojlantiruvchi boshqa turdagi mashqlar sifatida tez yugurib darhol to'xtash, bir harakatdan boshqa harakatga darhol o'tish tezkorligi kabi mashqlarni qo'llash mumkin:

- 15-30 metrga "mokkisimon" yugurish;

- 5-10 metrga tez yugurish; darhol to'xtash, sakrab turib yoki yiqilayotib qo'l bilan to'pga zarba berish;

Tezkorlikning ba'zi turlarini takomillashtirishning katta imkoniyatlari har xil sport o'yinlari, estafetalar va harakatli o'yinlardadir.

Chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlar.

Chaqqonlik - bu voleybolchining yangi harakatlarini tez egallab olishi va o'yin vaziyatiga qarab moslashishdir. Boshqacha qilib aytganda, chaqqonlik - bu tezkorlik, kuch, koordinasiya imkoniyatlarining birligidir.

Chaqqonlik mashqlariga qo'yiladigan majburiy talablardan biri - bu yangilik elementidir. Shuning uchun ko'proq harakatli va sport o'yinlari o'ynash foydali, chunki ularda vaziyat doimiy yangiligi bilan ajralib turadi. Umumiy chaqqonlikni rivojlantirishning yaxshi vositasi - akrobatika elementlari, yugurish sakrashlar, murakkab harakatlar (emaklash, tortilib chiqish, surilish) va boshqa aralash mashqlarni bajarishdir. Ammo chaqqonlikni rivojlantirishga tayyorgarlik ko'rishning barcha bosqichlarida voleybol mashqlaridan foydalaniladi. Voleybolda uchta, jismoniy sifat – kuch, tezkorlik va chaqqonlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni tarbiyalash zamirida qo'ydagi umumiy qoidalar yotadi. Bu sifatlarni organizm charchamaganda, ya'ni yozilish mashqlaridan keyinroq rivojlantirish kerak. Har bir mashq maksimal zo'riqish bilan bajariladi. Har bir mashqdan keyin to'la tiklanish bo'lishi kerak. Yana shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy sifatlar texnik tayyorgarlik bilan o'zaro bog'liq. Agar voleybolchilar tegishli kuch, tezkorlik va chaqqonlikka ega bo'lmasalar, o'yinning texnik usullarini bajara olmaydilar.

Voleybolchilar jismoniy sifatlarining o'zaro aloqadorligi.

Voleyboldagi jismoniy sifatlarni tarbiyalash ularning garmonik rivojlanishiga olib kelishi kerak, ammo bu narsa shunday mutanosiblikda bo'lishi kerakki, ular voleybolchilarning o'yin faoliyatiga eng yuqori darajada samara keltirsin. Butun mashg'ulot jarayonida singdirilgan g'oya - voleybolchi faqat oddiy tezkor yoki kuchli hamda egiluvchan, epchil bo'libgina qolmasligi kerak, degan fikrdir. O'yinchi bu sifatlarning har birini kerak meyorda, aqlan qo'lga kiritsin.

Xulosa. Voleybolchilar jismoniy sifat va ijrochilik mahoratining o'zaro aloqasida mukammal darajaga intilishlari lozim. Ularning butun fikr-zikri jismoniy sifatlardan shunday asos yaratishga qaratilishi lozimki, bu sifatlarni bora-bora o'yin texnikasining takomillashuviga

imkon bersin. Shu o'rinda aytish lozimki, yutuk gavda tufayli emas, balki o'yin texnikasi hamda mantiqiy idroki bilan o'ynash tufayli voleybolchilar, Vatanimiz peshqadamlari darajasiga erishishlari lozim.

Mashhur sportchilardan biri shunday digan edi : "Atletizmning bilmasligi yoki etishmasligi texnik mahorati va o'yinni jamoaviy taskil etishdagi yutuqlar bilan to'ldiriladi. Biroq, atletizmi ehtiyot qilmaslik, uning muhimligini tan olmaslik murabbiyning eng yomon xatosi bo'lur edi". Shunday qilib, voleybolchi atletizmi deganda jismoniy sifatlarining shunday aloqasini tushunish kerakki, u o'yin faoliyatining bir qator samarali bo'lishiga, uning yuqori texnik mahoratiga erishuviga ko'maklashsin.

Ana shunda, ya'ni atletizm ijrochilik mahoratini ochib berishga eng yuqori darajada ko'maklashgandagina voleybol uchun jismoniy sifatning garmonik rivojlanishi haqida gapirsa bo'ladi.

References.

1. Клешев Ю.Н., Айрапетьянц Л.Р., Паткин В.Л., Волейбол. Ташкент. Абу Али Ибн Сино. 1995.
2. Aliyev M.B., Usmonxo'jayev T.S., Sagdiyev N.N., Sattarov E. Sport o'yinlari-FUTBOL. Toshkent, Ilm ziyo, 2012.
3. Ayrapetyans L. R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol. Toshkent. 2009.

MUNDARIJA:


13.00.00 - PEDAGOGIKA

| Familiya I.Sh. | Mavzu | Bet |
|--|---|------------|
| Mo'minov Feruzjon Ixomovich | 12-13 yoshli futbolchilarda jismoniy sifatlarini rivojlantirish metodikasi | 5 |
| Turapova Ra'no Barat qizi | Boshlang'ich ta'limda variativ yondashuv asosida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda oila va maktab hamkorligining o'rni | 9 |
| Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi | Talaba gandbolchilarning texnik harakatlari hamda taktik ko'nikmalarni o'rganish usullari | 14 |
| Kenjaboyev Adusalim | Inklyuziv ta'lim tizimli innovatsiya sifatida | 20 |
| Sattorov Anvar Ergashovich | Futbol to'garaklari orqali talabalar integral tayyorgarligini takomillashtirish usullari | 26 |
| Xuddiyeva Aminjon qizi | Bir kvadratik stoxastik operatopning qo'zg'almas nuqtalari haqida. | 31 |
| Axmedova Zamira Shirinovna | Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning mazmuni va o'rni | 35 |
| Malikova Dilraboxon | Tayyorlov sinflarda ijtimoiy-madaniy moslashuvni baholash uchun kompleks diagnostik vosita yaratish va sinovdan o'tkazish | 41 |
| Roziqova Sitorabonu Ne'matovna | Jadid pedagogik merosida ta'lim islohoti g'oyalari va ularning hozirgi milliy ta'lim siyosatidagi aks sadosi | 45 |
| Artikov O'ktam Kamiljanovich | O'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalarining o'rni va ahamiyati | 49 |
| Shomurodova Aziza | The impact of globalization on linguistic diversity | 54 |
| Imamkulova Muslima Narkulovna | Rus tili bo'yicha mashg'ulotlarda talabalarda axloqiy madaniy munosabatni rivojlantirish lingvodidaktik muammolari | 60 |
| Almamatova Zebo Xudayberdiyevna | Loyihalash texnologiyalari asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi | 65 |
| Turayeva Nargiza Nasrullayevna | O'quv jarayonining innovatsion texnologiyalarning qo'llashning pedagogik mohiyati | 69 |
| Matmuratov Azizbek Abdikarimovich | Zamonaviy ta'lim paradigmalari va ularning pedagogik nazariyaga ta'siri | 73 |
| Masharipov Raxmatulla Beknazarovich | Shayx muhammad sodiq muhammad yusuf hazratlarining "ijtimoiy odoblar" asarini yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni | 79 |
| Эштаев Анвар Курганович | Влияние физической подготовленности гимнастов на успешность освоения базовых элементов на видах гимнастического многоборья | 85 |
| Azizova Dilshoda Abduhafizovna | Xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchilarda ijodiy, dialogik, kommunikativ va intellektual faollik muhitini shakllantirish | 91 |
| Неъматов Буритош Саъдулаевич | Креативность педагогов начальных классов в эпоху цифровой трансформации: эмпирическое исследование влияния на образовательные результаты. | 95 |

| | | | |
|--|-----------------------------------|---|-----|
| Kutliyeva Yusupovna | Feruzaxon | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining mohiyati va mazmuni. | 102 |
| Askarov Baxtiyorovich | Ixtiyorjon | Bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik va didaktik asoslari | 108 |
| Yarmatov Baxramovich, Akramova Zuxra Botir qizi | Raximboy | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini emotsional intellekt orqali rivojlantirish mexanizmlari | 113 |
| Umarova Mukhlisovna | Sitora | The importance of folk oral art in national education | 117 |
| Akmalova Nigmatullaeva | Zulfiya | Chet tilini o'qitishda interaktiv platformalarni yaratish va ulardan foydalanish prinsiplari | 125 |
| Tashpulatova Baxtiyarovna | Nafisa | Raqamli texnologiyadan foydalanish modellari | 129 |
| Samiyeva Hikmatovna, Ruziyeva Fatilloyevna | Shaxnoz Shoxida | Akademik mobillik tizimi asosida tahsil olayotgan talabalar faoliyatini tashkil etishning mavjud ahvoli | 134 |
| Elibayeva Sulaymanovna | Lola | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini shakllantirish orqali past o'zlashtiruvchilar faolligini oshirish | 138 |
| Hasan Bahromov | Qayumovich | Tibbiy kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirish | 144 |
| Sayfullayev Fazliddin o'g'li, Qalandarova Abdukarimovna, Nasirov Ualiyevich, Bozorov Erkin Xojiyevich | Ramziddin Dilafro'z Maxmud | Kasalliklar tarqalishini bashorat qilishda matematik modellashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlari | 150 |
| Sayfutdinova Pulatjonovna | Durdona | Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari ishlarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish. | 155 |
| Komilova Maxmudovna | Fotima | Mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik klasterlarning o'рни | 159 |
| Sharifova Nigora qizi | Axtam | Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi | 164 |
| D.I.Tosheva | | Media ta'lim vositasi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish zamonaviy ta'limning asosiy tamoyili. | 170 |
| Hasanova Davlatmamatovna | Gulbahor | Tizimli yondashuv asosida o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi | 177 |
| Shabbazova Xamzayevna | Nodira | Talabalarning mustaqil ta'limga tayyorligi va didaktik ijodiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik | 183 |
| Yuldacheva Yakubovna | Totixon | Talabalar o'rtasida gender adolatini qaror toptirishda tarbiya va ijtimoiy faoliyatning metodik uyg'unligi | 187 |
| Jalolova Mirkamol qizi | Feruza | Pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish | 195 |
| Turobova Umedullayevna | Nilufar | Tarix darslari orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning innovatsion yondashuvlari | 200 |
| Sabirova Rasulovna | Nasiba | Basketbolchi talabalarni texnik-taktik tayyorlash metodikasining nazariy asoslar | 205 |

| | | | |
|---|-------------------|--|------------|
| Eshmuratov Elamanovich | Muzaffar | Interaktiv metodlar tushunchasi va ularning ingliz tilini o'qitishdagi ahamiyati | 209 |
| Xolmurzayev Mamarasul o'g'li | Ubaydulla | Professional ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning roli va zamonaviy yondashuvlar | 214 |
| Saidova Toxirovna | Ozoda | Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari | 221 |
| Shirnazarova Allaberdi qizi | Zarina | Raqamli darsliklar va uning lingvistik tahlili | 226 |
| Zarina Bahodirovna Muhammadiyeva | | San'at ta'limida shaxsiy yondashuv va akseologik tamoyillar: estetik kompetensiyani rivojlantirish yo'llari | 230 |
| Fayziyeva G'aybullayevna | Salomat | Innovatsion metodlar asosida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish | 235 |
| Yakubov Sharifovich | Baxtiyor | Talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda elektron dasturiy ta'minotini takomillashtirishga qo'yiladigan talablar | 239 |
| Xushvaqtoq Norqobilovich | Umar | Ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali imperativ algoritmik tafakkurni monitoring qilish | 246 |
| Djurayeva Nabiyevna | Salomat | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash | 251 |
| Yakubova Madrimbayevna | Gulnoz | Fasilitatorlik yondashuvining maktabga tayyorlov bosqichidagi o'quvchilarning savodxonligini shakllantirishdagi o'rni | 255 |
| Matchanova Qudrat qizi | Nazokat | Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kreativ fikrlashini rivojlantirish usullari | 259 |
| Karimov Erkinovich | Eldor | O'zbekistonda butunjahon professional ta'lim sammitini o'tkazishning ilmiy va amaliy ahamiyati | 264 |
| Jurayev Tojiyevich | Bobomurod | Sayido nasafiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari va ularning zamonaviy pedagogikadagi o'rni | 270 |
| Raximbayev Sobirovich | Jo'rabek | Liderlik fazilatlarini rivojlantirish jarayonini o'rganish Boshlang'ich maktab o'quvchilarida | 276 |
| A.Mirzakulov, Qadamboyeva Umid qizi, | Hilola | Compression strategies In simultaneous interpretation Vatanparvarlik va ta'lim: o'zbekistonning yosh avlodiga milliy qadriyatlarni o'rgatishning muhimligi | 281 285 |
| Б.С.Сафаралиев | | К страницам истории куполов науки и морали азиатского востока | 288 |
| Ernazarov Nazarovich | Zohid | Axborot-kognitiv yondashuv asosida oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarish tizimni loyihalas | 295 |
| Xojiyeva Shukurovna | Matluba | Bo'lajak pedagoglarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirishda aksiologik yondashuvning ahamiyati | 299 |
| Zubaydulloyeva Madinabonu Kamol qizi | | Jadid ma'rifatchilarining pedagogik qarashlari va ularning xx asr boshlaridagi boshlang'ich ta'lim darsliklarida ifodalanishi | 305 |
| Ermatova Nabijon qizi | Gulsanam | Ijtimoiy ish xodimlarining tibbiyot sohasidagi o'rni va ahamiyati | 310 |
| Roziqova Ne'matovna | Sitorabonu | Jadid pedagogik merosida ta'lim islohoti g'oyalari va ularning hozirgi milliy ta'lim siyosatidagi aks sadosi | 314 |
| Shabbazova Ruzikulovna | Dilfuza | Zamonaviy ta'lim tizimida aksiologik paradigmaga asoslangan yondashuvlar | 318 |
| Ismoilova Xusanboy qizi | Shodiyaxon | Ko'p tillilikda tillararo interferensiya turlari va ularni bartaraf etish metodlari | 323 |

| | | |
|---|---|-----|
| Marimbayeva Bibidona Rinat qizi, Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich | Ta'limning innovation usullari orqali o'quv motivlarini rivojlantirish | 328 |
| Sultonova Maxfirat Akramovna | Texnika yo'nalishidagi talabalarda falsafiy tafakkurni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari | 332 |
| Valiyev Sarvar Abdisalimovich | Masofaviy ta'lim 6-7 sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi va to'ldiruvchi ta'lim shakli sifatida (o'zbekiston tarixini o'rganish misolida) | 336 |
| Qurbonov Adxamjon To'lanboy o'g'li | Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari | 340 |
| Marhabo Sayfulloyevna Ashurova | Texnika ta'limida dual tizim: nazariya va amaliyot uyg'unligi sari | 344 |
| Kazakov Ne'mat Normurodovich | Turkiston jadidlari va tarbiya vositalari. | 350 |
| Sharipov A'zamjon Axmadjanovich | Muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanib talabalarni o'quv-biluv kompetensiyalarini takomillashtirish | 359 |
| Maxmudov Shokir Kamolovich | Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish omillari | 363 |
| Abdullaev G'ayratjon Akbarali o'g'li | Pedagoglarda o'z-o'zini boshqarish shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar | 367 |
| Quliyev Shuhrat Shomurodovich | Umumta'lim maktablarida jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar taxlili | 374 |
| | Yosh voleybolchilar jismoniy sifatlarining o'zaro aloqadorligi | 382 |



**“TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR”
XALQARO ILMIY METODIK JURNALI UCHUN
MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“Ta'limda istiqbolli izlanishlar” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “Ta'limda istiqbolli izlanishlar” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E'lon qilinadigan maqolalarga bo'lgan asosiy talablar:
 - ✚ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✚ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro'yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;
 - ✚ maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so'z) va tayanch so'zlar (8-10 ta) ingliz, o'zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to'liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo'lsa, ularning har biri haqida to'liq ma'lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko'rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e'lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o'ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo'lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to'liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro'yxatda ko'rsatiladi. Matn ichidagi ko'chirmadan so'ng iqtibos olingan asarning ro'yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o'rinda kitob, to'plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to'liq nomi, nashr ko'rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko'rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko'rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo'lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma'ruzalari chop etilmaydi. E'lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko'chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o'zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o'zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvoohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko'chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

Ta'limda istiqbolli izlanishlar //xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2025. № 9-son, 2-Qism. B.392